O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“MARKAZIY OSIYO TARIXIY JARAYONLARIDA O‘ZBEKISTON TARIXI VA MADANIYATI MASALALARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025 yil 22-23 may

QARSHI
“Qarshi davlat universiteti” nashriyoti
2025

O’UK 950(575.1)
BBK 63.3 (5 UZB) 24
E 99

“Markaziy Osiyo tarixiy jarayonlarida O‘zbekiston tarixi va madaniyati masalalari” – Qarshi, 2025, 260 bet.

Ushbu to‘plamdan “Markaziy Osiyo tarixi tarixi va madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston sivilizatsiyasining shakllanishi va rivoj-lanishidan tortib tarixiy davrlarda ravnaq topishi, o‘zbek xalqining turli davrlardagi tarixi va madaniyati, mustaqillik davri islohotlariga bag‘ishlangan masalalar o‘rin olgan.

To‘plam keng jamoatchilikka, olimlar, o‘qituvchilar, talabalar, umuman O‘zbekiston tarixi va madaniyati bilan qiziquvchi kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrirlar:

Eshov B.J. – tarix fanlari doktori, professor

Turayev Sh.R. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Tahrir hay’ati:

Xasanov A.M. – Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori

To‘rayeva M.X. – Tarix fanlari doktori, Qarshi davlat universiteti

Bo‘riyev O. – Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari nomzodi

Xushvaqov N.O. – Tarix fanlari doktori, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Xudoyqulov T.D. – Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori, tarix fanlari doktori.

Raxmonov F.SH. – Qarshi davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori

Polvonov K.N. – Qarshi davlat universiteti dotsenti

Ernazarov A.X. – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Osiyo texnologiyalar universiteti

Ushbu to‘plamda nashr etilgan maqolalarda keltirilgan manbalar va ma’lumotlar uchun <u>mualliflar javobgardirlar</u>.

© “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti, 2025.

KIRISH SO‘ZI

Jahon hamjamiyati tomonidan bugungi kunda dunyo taraqqiyotning shiddat bilan rivojlanishining tamal toshi, mamlakatni yuksak, millatni buyuk eta oladigan qudratli kuch bo‘lgan ilm-fan, ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan: jahonning ko‘plab yetakchi davlatlarida ta’limni rivojlantirish birinchi o‘rindagi vazifa, deb belgilanishi ham bejiz emas. Binobarin, har qanday davlatning buguni va ertasi, istiqboli aynan shu sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlarga bevosita va bilvosita bog‘liq. Ta’kidlab o‘tish lozimki, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining keyingi yillardagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilyotganiga guvoh bo‘lamiz. Yangi O‘zbekistonda Oliy ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, izchil rivojlantirish, XXI asr talablariga moslashtirish, zamon bilan hamnafas qilish borasida aniq va keng ko‘lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqdi. Ko‘pchilikka sir emaski, O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ma’naviy yangilanishlar bois yangi asrga zamonaviy taraqqiyot bilan kirib keldi. Zero, har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi, ta’lim raqobatbardoshligi ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishishi barcha sohalarda bo‘lgani kabi tarixchi olimlar zimmasiga ham mas’uliyatli vazifalarni yukladi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin sovet hukmronligi yillarida soxtalashtirilgan tarixni turli tazyiqlardan holi ravishdagi haqqoniy tarixni yoritish asosiy talablardan biriga aylandi. Mustaqillikning ilk davrlaridan O‘zbekiston tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va kun tartibiga haqqoniy tarixni birlamchi manbalar asosida yaratish, uni holisona talqin etish, bahs va munozaralar asosida tarixiy haqiqatni tiklash qo‘yildi.

Hozirda dunyoda kechayotgan globalashuv jarayonlari jahon tarixida har bir hudud, mintaqa va mamlakatning o‘rni, uning insoniyat tamadduniga qo‘shgan hissasini o‘rganish hamda anglashni dolzarblashtirmoqda. Bu o‘z navbatida tarix fani zimmasiga katta mas’uliyat yuklab, tadqiqotlar mazmunida uni ifodalashni taqozo etmoqda. Xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan munosib hissasiga, jahon xalqlari orasida tutgan o‘rniga baho berishda, uni boy hayotiy va tarixiy tajribalaridan foydalanishda, olijanob fazilatlari va an’analarini o‘rganish hamda boyitishda milliy tariximiz katta ahamiyatga ega. O‘zbek xalqining Markaziy Osiyo sivilizatsiyalar tizimida yuksak o‘rnini e’tirof etish, intellektual merosini o‘rganish, targ‘ib va tashviq qilish, saqlash va kelajak avlodga yetkazish umumdavlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalardan biridir.

Vatan tarixining jamiyatga ta’siri beqiyos ekanligi hammaga ma’lum. Tarix inson hayotining mutlaqo barcha jabhalariga taalluqli bo‘lganligi sababli, uning yaratilishi nafaqat ommani, balki yetakchilikni qo‘lga kiritib, siyosiy jarayonlarga va natijada tarixning o‘ziga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan shaxslarni o‘z ichiga oladi.

Prezidentimiz aytganlaridek: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”. Shunday ekan, har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan bilan yetib boriladi. U qayerda rivojlanmasin, paydo bo‘lmasin, jahon taraqqiyotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Buni rivojlangan davlatlar yuksalishida ilm-fan asosiy omil vazifasini o‘tayotganidan ko‘rish mumkin. Shu bois mamlakatimizda ilm-fanga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, ta’lim sohasida keyingi yillar ulkan o‘zgarishlar, yangilanishlarga boy bo‘ldi.

Mazkur anjumanni tashkil etishdan asosiy maqsad ilm-fan sohasida yangi qirralarni yoritish uchun izlanayotgan barcha tadqiqotchilarning ishlarini tahlil etish, ularga o‘z ilmiy ishlarini takomillashtirishda amaliy yordam berish, ularning oldida turgan yangi marralarni belgilab berishdan iboratdir. O‘ylaymanki, bugungi konferensiyada ham eng dolzarb masalalar va ularning yechimi bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Barcha konferensiya ishtirokchilariga kuch-quvvat, sog‘liq-salomatlik, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyat tilayman.

NABIYEV D. H.
Qarshi Davlat universiteti rektori

1-SHO‘BA

QADIMGI DAVR. O‘ZBEKISTON SIVILIZATSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MASALALARI.

ЎЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИК ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ МАДАНИЙ МЕРОС ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ

Мавланов Ў. т.ф.д., проф. ЎзМУ

Ўзбекистоннинг тарихий-маданий мероси тизимида археологик ёдгорликлар ўзига хос ва ўта муҳим аҳамият касб этади. Қадим тарихимиз хазинаси бўлган археологик ёдгорликлар қадим ва бетакрор маданиятимиз тарихини, минтақа цивилизациясининг шаклланиши ва ривожланиш босқичларини акс эттирувчи моддий бойликларни ўз бағрида сақлаб келаётган ноёб хазинадир. Шу сабабли ҳам Янги Ўзбекистонда тарихий мерос ва археологик ёдгорликларга эътибор кучайиб, уларни ўрганиш, сақлаш ва туризмни ривожлантиришдаги аҳамиятин оширишга йўналтирилган қонуний асослар яратилмоқда.

Маълумки, тарихий маданий меросни, шу жумладан археологик ёдгорликларни муҳофаза қилиш умуминсоний аҳамиятга эга масаладир. Халқаро миқиёсда олинганда, тарихий-маданий меросга эътибор дастлаб Европада, асосан, Уйғониш давридан бошланган эди. XIX-XX аср бошларида Европа давлатларида тарихий-маданий ёдгорликларни давлат муҳофазасига олиш бўйича муҳим давр бўлди. Лекин, XX асрда рўй берган иккита жаҳон уруши Европада ва уруш гирдобига тортилган бошқа қитъаларда ҳам тарихий-маданий мерос объектлари, шу жумладан археологик ёдгорликларнинг маълум қисми вайрон бўлишига, талон-тарож қилинишига олиб келди.

Иккинчи жаҳон урушидан кейин тарихий ёдгорликларга, тарихий меросга эътибор кучайди. Инсониятнинг тарихий-маданий меросини сақлаш ва ўрганиш муаммоси дунёнинг барча маданий мамлакатлари учун муҳим масалалардан бири бўлиб, бу муаммо қатор халқаро ташкилотларнинг фаолиятида етакчи ўрин тутиб келмоқда. Хусусан, 1946 йилда ташкил этилган “Халқаро музейлар кенгаши” фаолиятида ҳам тарихий ёдгорликларни сақлашга асосий эътибор қаратилди. 1954 йилда бўлиб ўтган Гаага конференциясида ЮНЕСКО ташаббуси билан “Қуролли мажоралар рўй берганда маданият бойликларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Халқаро конвенция ва баённома имзоланди. 1959 йилда ташкил этилган “Тарихий мерос ва маданий бойликларини муҳофаза этиш ва реставрация қилиш халқаро тадқиқот маркази”, “Ёдгорликлар ва диққатга сазовор жойларни муҳофаза этиш бўйича халқаро кенгаш” (1965 йилда ташкил этилган) ҳам халқаро миқиёсда тарихий ёдгорликларни муҳофаза қилиш билан шуғулланиб келмоқда.

БМТнинг фан, таълим ва маданият масалалари бўйича ташкилоти ЮНЕСКО томонидан 1972 йилда “Жаҳон маданий ва табиий меросини сақлаш тўғрисида” Конвенция қабул қилиниши тарихий меросга эътибор ва бу соҳада халқаро ҳамкорликнинг ривожига кенг йўл очди. Бу ҳужжатда биринчи маротаба дунё халқларининг бутунжаҳон меросини ташкил этувчи буюк аҳамиятга эга айрим табиий ва маданий меросларни сақлаш ва авайлаб асраш учун мамлакатлар ва ҳукуматлар масъулликка чақирилган эди. Конвенцияни амалиётга тадбиқ қилиш учун 1974 йилда ЮНЕСКО қошида “Умумжаҳон мероси” қўмитаси таъсис этилиб, қўмита томонидан ноёб маданий ёдгорликлар рўйхатини тузиш бошланди. Афсуски, собиқ иттифоқ даврида Марказий Осиё ҳудудида жойлашган бирорта тарихий-маданий мерос объекти, гарчи уларнинг кўпчилиги ўзининг қадимийлиги, аҳамияти ва бетакрорлиги билан дунё маданияти тарихида муҳим ўрин тутган бўлсада, ушбу рўйхатга киритилмади.

Бугунги кунда Ўзбекистонда тарихий-маданий меросга, шу жумладан археологик ёдгорликларга нисбатан янгича муносабат концепцияси ишлаб чиқилди ва босқичма-босқич амалиётга жорий этиб борилмоқда. Бу масалани ёритишдан олдин мамлакатимизда археологик ёдгорликларни ўрганилиши масаласига қисқача назар солиб ўтиш зарур.

Маълумки, Туркистон ўлкасидаги археологик ёдгорликларга эътибор, уларни илмий ўрганиш XIX асрнинг охирги чорагида, Туркистон Россия империяси томонидан босиб олганидан сўнг бошланди. Бу ишни дастлаб рус археология ҳаваскорлари ва ўлкашунослари

бошлаб бердилар. 1895 йилда Туркистон археология ҳаваскорлари тўгараги тузилиб, ўлкадаги археологик қазишма ишлари шу тўгарак назоратида олиб борила бошланди.

Ўзбекистонда археология фани том маънода XX асрнинг 20-30-йилларда шаклланди ва босқичма-босқич ривожланиб борди. Мамлакатимизда археология фанини ривожлантиришда Ўрта Осиё Давлат университетида "Археология" кафедрасининг очилиши (1940), ЎзФА Археология бўлимининг ташкил этилиши (1943) катта аҳамиятга эга бўлди. Археологик ёдгорликларни туманларга бўлиб ўрганишда Термиз археологик комплекс экспедицияси, Хоразм археология-этнография экспедицияси, Помир-Олтой ва Помир-Фарғона экспедициялари катта роль ўйнади.

1963 йилда ТошДУ Тарих факультети "Археология" кафедраси базасида КАТЭ (Кеш археологик топографик экспедиция) ташкил этилиши Жанубий Суғд ҳудудидаги археологик ёдгорликларни ўрганишда янги даврни бошлаб берди. М.Е.Массон, Н.Крашенинникова, С.Б.Лунина, З.Усманова, Г.А.Дресвянская, А.С.Сагдуллаев, Н.П.Столярова, О.П.Лушпенко ва бошқаларнинг илмий тадқиқотлари қадимги Кеш воҳаси тарихи ва маданиятининг Марказий Осиё, хусусан Ўзбекистон цивилизацияси ривожидаги ўрнини аниқлаштиришда муҳим ўрин тутди.

Ўзбекистон ФАнинг Тарих ва археология институти негизида Самарқандда Археология институтининг ташкил этилиши (1970 йил) Ўзбекистонда археологик тадқиқотларни янада кенгайтиришга имкон берди. Институт олимлари томонидан XX асрнинг 70-80-йилларда Ўзбекистоннинг деярли барча вилоятларида кенг қамровли археологик кузатув ва қазишлар ўтказилиб, қадим ўтмишдан то сўнгги ўрта асрларгача бўлган даврга мансуб кўплаб нодир ёдгорликлар топилиб, ўрганиб чиқилдилди.

Археологик меросни сақлаш ва ўрганишда фидокор археологларнинг хизматларини эътироф этган ҳолда, XX асрнинг 50-80 йилларини мамлакатимиз ҳудудидаги археологик ёдгорликларнинг йўқ қилиниши кескин ўсиб кетган даври сифатида қайд қилишга ҳам тўғри келади. Чунки, айрим маълумотларга кўра, Ўзбекистон ҳудудидаги археологик ёдгорликларнинг сони XX асрнинг 30 йилларида 14,5 мингдан ортиқроқ бўлган. Табиийки бу меросни муҳофаза қилиш ва ўрганишни тартибга солиш муҳим аҳамиятга эга эди. Афсуски, собиқ иттифоқ даврида археологик ёдгорликларни муҳофаза қилиш тўғрисида кўплаб қарорлар қабул қилинган бўлсада, айнан ўша даврда кўплаб археологик ёдгорликлар фан учун бутунлай йўқотилди. Бунга олиб келган сабаблар ичида аҳоли сонининг кўпайиши ва уй-жойларга бўлган эхтиёжнинг ошиши, урбанизация жараёнларининг кучайиши, саноат объектларининг барпо этилиши, экин ерларини мутасил кўпайтиришга йўналтирилган давлат сиёсати натижасида ҳудудларнинг жадал ўзлаштирилиб борилиши ва бошқаларни кўрсатиш мумкин. Мамлакат ва аҳоли эҳтиёжлари учун ўзлаштирилаётган ҳудудлардаги археологик ва бошқа ёдгорликларни сақлашга иккинчи даражали масала сифатида қаралгани ҳам ўша даврда тарихий меросга нисбатан давлат сиёсатининг туб моҳиятини англашга имкон беради.

Афсуски, археологик ёдгорликларга беписандлик билан қараш, унинг аҳамиятини, тарихий-маданий мерос тизимида тутган муҳим ўрнини тўлиқ англамаслик мустақилликнинг дастлабки йилларида ҳам кузатилди. Айниқса 90-йилларнинг бошида, хусусий мулкчилик ривожланиб, қишлоқ туманларида фермер хўжаликлари ташкил этила бошланган дастлабки даврларда археологик ёдгорликлар жойлашган ҳудудни хўжалик эҳтиёжлари учун ўзлаштириш давомида ёдгорликларни аста-секин йўқ қилишдек собиқ иттифоқдан қолган "анъана" сақланиб қолди. Маҳаллий ҳокимият органларининг бепарволиги, хусусий мулкдорларда ижтимоий онгнинг етарли даражада эмаслиги, ўзига бириктирилган ҳудудда жойлашган археологик ёдгорликнинг аҳамиятини, уни сақлашга масъуллигини англаб етмаганлиги натижасида айрим археологик ёдгорликлар келажак авлод учун бутунлай йўқотилди.

Бугунги кунда мамлакатимиз ҳудудида сақланиб қолган археологик ёдгорликларнинг сони, айрим манбаларга кўра, 8,5 мингга яқин. Бу рақамни юқорида келтирилган рақам, яъни XX асрнинг 30 йилларидаги археологик ёдгорликлар сони (14,5 мингга яқин) билан

қиёсласак, 70 йилга яқин вақт ичида археологик ёдгорликларнинг 30%дан ортиғи йўқ бўлиб кетганлигини қайд этишга тўғри келади.

Жойлардан келаётган ташвишли хабарлар археологик ёдгорликларни муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асосларини янгитдан яратишни, тарихий-маданий меросимизнинг муҳим қисми бўлган археологик меросга муносабатнинг қонуний асосларини такомиллаштиришни кун тартибига қўйди. Ўзбекистон ҳукуматининг кечиктириб бўлмайдиган чора тадбирлари, бу борада қабул қилинган янги қонунлар ва ҳукумат қарорлари археологик меросга бўлган давлат сиёсатининг асоси бўлиб хизмат қилди.

Маданият ва спорт ишлари вазирлиги ҳузуридаги “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий-ишлаб чиқариш Бош бошқармаси” фаолияти бевосита бу сиёсатни амалга оширувчи давлат органи ҳисобланади. Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 29 июлдаги 269-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси маданий мерос объектлари давлат кадастрини юритиш тартиби тўғрисида Низом” ва “Маданий мерос объектларининг тарихий-маданий экспертизаси тўғрисида Низом” ҳамда бошқа кўплаб қарор ва қонунлар қабул қилиниши мамлакатимизда тарихий-маданий меросни сақлаш ва ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистондаги деярли барча археологик ёдгорликлар расмий рўйхатга олиниб, тегишли қонунлар асосида давлат ҳимоясига олинган. Бу борада 2009 йил 16 июнда Олий Мажлис Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилиниб, Сенат томонидан 2009 йил 29 августда маъқулланган “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Қонун муҳим аҳамиятга эга бўлди. 5 та боб, 34-моддадан иборат Қонунда “...археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солиш...” “Археология мероси объектларига бўлган мулк ҳуқуқи”нинг давлатга тегишлили эканлиги, “Археология ашёлари оператив бошқариш ҳуқуқи асосида фан, маданият ва таълим муассасаларига бириктириб қўйилиши мумкин” лиги ва бошқалар белгилаб қўйилган.

Мазкур қонунда “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш соҳасидаги давлат бошқаруви” масалалари, археологик ёдгорликларни муҳофаза қилишда давлат ва маҳаллий ҳокимиятларнинг вазифалари, илмий тадқиқотлар олиб бориш ва фойдаланиш қоидалари, бу соҳадаги халқаро ҳамкорлик, археологик ёдгорликларни давлат кадастрига олиш ва бошқа тегишли масалалар ўз аксини топган.

2014 йил 21 июнда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 200-сонли Қарори қабул қилинди. Мазкур қарорда Ўзбекистон халқининг умуммиллий бойлиги бўлмиш моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тизимини янада такомиллаштириш, ноёб моддий ва маданий мерос объектларини ҳар томонлама ўрганиш, оммалаштириш ва тарғиб қилиш учун шарт-шароитлар яратиш, Ўзбекистоннинг туризм салоҳиятини ошириш каби вазифалар кун тартибига қўйилди.

Бугунги кунда археологик ёдгорликларни замонавий асосда ўрганиш ҳам кенг йўлга қўйилмоқда. Бу борада халқаро ҳамкорлик ривожланиб бормоқда. Ўзбекистонда археология фани ўз тадқиқотларининг самараси билан жаҳон илмий даражасига кўтарилиб бормоқда. Ҳозирда Франция, Германия, Япония, Италия ва Польша билан ҳамкорликда археологик тадқиқотлар олиб борилмоқда. Россия (Москва, Санкт-Петербург) олимлари билан доимий илмий алоқалар мавжуд.

Бугунги кунда нисбатан яхши ўрганилган машҳур ёдгорликлар ичида Зарафшон воҳасида жойлашган қадим Афросиёб, Кўктепа ва кўҳна Пойкенд харобалари, Қашқадарё воҳасидаги Узунқир ва Еркўрғон, Сурхон воҳасидаги бронза даврига оид Сополлитепа ва Жарқўтон, кушонлар даврининг ноёб ёдгорликлари бўлган Далварзинтепа, Халчаён, Фаёзтепа, Қоратепа, шунингдек, Кўҳна Термиз харобаларини, Фарғона водийсидаги Чуст ва Далварзин каби сўнгги бронза – илк темир даврига мансуб ёдгорликлар ҳамда машҳур Ахсикент шаҳри харобасини, Тошкент воҳасидаги Қанқа ва Мингўрик, Хоразм воҳасидаги

Кўзаликир, антик даврнинг машҳур ёдгорликлари бўлган Тўпроққалъа, Қўйқирилганқалъа, Аёзқалъа ва бошқа кўплаб қалъаларни қайд этиш мумкин.

Бу ёдгорликларнинг 10 дан ортиқ энг машҳурлари “Ўзбектуризм”нинг туристик маршрутлари рўйхатига киритилгани ҳам уларнинг замонавий цивилизация ривожидаги ўрни ва аҳамиятини кўрсатиб турибди. Уларнинг айримларида (масалан, Элликқалъа туманида жойлашган Аёзқалъада) Маданият ва спрорт ишлари вазирлиги ҳамда “Ўзбектуризм” ООК ҳамкорлигида замонавий туризм талабларига жавоб берадиган хизмат кўрсатиш тизими, тегишли инфратузилмалар яратилган. Келажакда бундай инфратузилмаларга эга ёдгорликлар сонининг ошиб бориши табиий жараён бўлиб, бу ҳам археологик ёдгорликларга ташриф буюраётган маҳаллий ва хорижий туристлар сонининг йилдан йилга кўпайиб боришига хизмат қилади.

Шу тариқа, бугунги кунда археологик ёдгорликларнинг тарихий-маданий мерос тизимидаги аҳамиятини англаш, уларни ўзбек халқи тарихи билан боғлаш, тарихий-маданий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва келажак авлодларга мерос қолдириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Мамлакатимизда тарихий ёдгорликларни муҳофаза қилишнинг қонуний асослари яратилди ва такомиллашиб бормоқда.

Умуман олганда, тарихий-маданий мероснинг муҳим таркибий қисми бўлган археологик ёдгорликлар ва топилмалар, меъморий иншоотлар, тарихий битиклар ва қўлёзма манбалар, тарихий ва бадиий асарлар, қоятош суратлар, тасвирий ва амалий санъат асарлари, бадиий ҳунармандчилик буюмларининг муҳофазаси барча маданий дунё мамлакатлари каби Ўзбекистон ҳукуматининг ҳам доимо диққат марказида турувчи вазифалардан ҳисобланади. Учинчи ренесанс даврига қадам ташлаётган Янги Ўзбекистонда тарихий-маданий ёдгорликларни сақлашга эътибор, ўз навбатида, жамиятнинг маънавий ва маданий юксалишида ва ёш авлодни ватапарварлик руҳида тарбиялашда ҳам муҳим аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мазкур Конвенция СССР Олий Совети томонидан 1975 йилда, Ўзбекистон Олий Мажлиси томонидан 1993 йилда ратификация қилинган.

2. ЮНЕСКО. Цели, структуры, деятельность. Хроника, факты, цифры. – М., 2002.

3. Мавлонов Ў., Абдувоситова И. Тарихий-маданий мерос – миллий ғояни англаш омили. – Тошкент: Академия, 2014. – Б. 125-135.

4. Бердимуродов А., Раимқулов А.Т. Археологик мерос: уни асраб-авайлаш барчамизнинг фуқоралик бурчимиздир // Ўзбекистон тарихи ва маданияти. – Тошкент: Tafakkur, 2011. – Б. 233.

5. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2009 йил, 42-сон.

ҚАНҒ МАЪМУРИЙ БИРЛИКЛАРИ СИЁСИЙ ТИЗИМИДА УСТРУШОНА

Эшов Б.Ж.

Қар ДУ Ўзбекистон тарихи кафедраси профессори, тарих фанлари доктори

Шодиева Д.А.

Қар ДУ Жахон тарихи кафедраси ўқитувчиси, т.ф.ф.д.

Сирдарё бўйи сак қабилалари томонидан асос солинган Қанғ сиёсий бирлашмаси тарихи билан Г. В. Григорев, А.Б.Литвинский, Й.Ф.Буряков, Г.А. Пугаченкова, К.Ш. Шониёзов, Б.И. Вайнберг, Йе.В. Ртваледзе, М.И.Филанович, А.А. Асқаров, А. Подушкин каби олимлар татқиқотларида шуғулланган.

Хусусан Б.И. Вайнберг Қанғар етнониминиг пайдо бўлиши ҳақида фикр билдириб, бу атама Сирдарёнинг қадимги ирмоғи Қанғ ва шу ном билан аталган вилоят номидан олингани ва у кейинчалик туркий етносларга нисбатан ишлатилганлигини таъкидлайди. У пайтда Жети – Осор воҳасида яшовчи ариаклар тахминан, мил.авв. V асрлардан “кангар” деб атала бошлаган. Олтинасардан топилган турк ёзувга асосланиб айтиш мумкинки, бу йерда мил.авв. VII-VI асрларда туркий қабилалар яшаган. Милоддан аввалги IV аср охирларида Сирдарёнинг ўрта оқимларида яшовчи кўчманчи ва ярим кўчманчи сак қабилаларининг сиёсий бирлашув жараёни кучайиб, яксартлар, абийлар ва сакараукаларнинг бирлашиши натижасида йирик қабила иттифоқи вужудга келган.

Қанғ давлатининг ҳукмдорлари қароргоҳи Битян ва Сукек шаҳарлари бўлиб, бу шаҳарлар ҳозирги Тошкент атрофида жойлашган, улар орасидаги масофа160-180 *км*га тенг келган. Бу бирлашманинг етник таркиби бир хил бўлмай унинг асосини яксартлар, абийлар ва сакараукалар ва асианлар ташкил етган. Қанғ конфедератив давлати ташкил топиши еса мил. авв. III асрда салавкийлар сулоласи билан маҳаллий сак қабилаларининг узлуксиз равишда олиб борган курашлари оқибатида юз беради. Шу юришлар мобайнида юнонларнинг Сирдарё бўй қабилалари ҳақидаги билимлари кенгайган. Бу юнон географи Ератосфен (милоддан аввалги III аср) томонидан яратилган харитада ҳам акс етган. Ушбу харитада тоғлардан оқиб келувчи Окс (Амударё) ва Яксарт дарёлари бўйлаб халқларнинг жойлашиш ўрни кўрсатилган. Улардан биринчиси - бақтрияликлар ва суғдийлар, иккинчиси - Суғдлар ва саклар. Унга кўра, саклар Суғдиёнанинг шарқидаги Яксарт дарёси йўналиши бўйлаб, унинг учта манбаи бошланадиган тоғларда яшашлари маълум бўлади.

Қанғ сиёсий уюшмаси Юнон-Бақтрия, Парфия давлатлари ҳамда шимолда яшовчи кўчманчи қабилалар чегарасидаги қулай минтақада жойлашган бўлиб, милоддан олдинги ИИ-И асрларда Суғд, Уструшона ҳамда Хоразмда ўз ҳукмронлигини ўрнатади. Мил. авв. ИИ аср бошларида уларнинг йерлари бир мунча кенгайиб, шарқда Фарғона водийси, Шимолий-ғарбда Сарису дарёси, ғарбда Сирдарёгача, шимолий-шарқда усун, юечжи қабилалари билан чегарадош бўлган. Хитой манбаларида қанғарларга қарашли бешта: Сусе, Фуму, Юни, Гу, Юечян вилоятлари елатиб ўтилади. Тадқиқотчилар уларни Қадимги Тошкент, Суғдиёна ва Хоразм ҳудудларида жойлашган деб ҳисоблайдилар. Хитойшунос олим Аблат Хўжаевнинг ёзишича, Кангия давлати ҳудудида Ми (Маймурғ), Ши (Кеш), Сао (Кебудхан, Кешбуд) каби йирик вилоятлар бўлиб “бу учта давлат (ҳокимлик) қолганларига нисбатан йирикроқ бўлган ва Хитойга бевосита елчилар юборган”. Қанғ ҳудуди Орол денгизининг шимолий-ғарбий ва Каспий денгизининг шимоли (Ян ва Янсай- сармат) йерларини ҳам ўз ичига олган.

Е.Ртвеладзенинг ёзишича, қанғ ва юечжиларда давлатни бошқарув шакли чекланган монархия кўринишида бўлган. Мамлакат одатда қабила оқсоқоллари томонидан бошқариладиган ва ўзлари танга пул зарб қила оладиган мустақил (5та)вилоятларнинг бирлашувидан ташкил топган. Қанғ марказий ҳокимиятида барча учун умумий бўлган танга пул бўлмаган. Ҳокимликларнинг ўзлари (Масалан, Бухоро, Самарқанд) танга пуллар зарб қилиши мумкин бўлган.

Тожик олими Н. Негматовнинг фикрича, милодий I асрдан Уструшона Кушон салтанати таркибига қўшилган. Бу борада археолог М.Пардаев, “... ушбу фикр ҳам мунозаралидир, аслида бу пайтда Уструшона ҳам Суғд каби Қанғ иттифоқи таркибига кирган. Мантиқан олганда ҳам Кушон салтанатига чегарадош бўлган Суғдни айланиб ўтиб, унинг шарқий қисмида жойлашган Уструшонани салтанат таркибига қўшиб олиниши ҳақидаги фикрлар ғайритабиийдир”, деб ёзади. Бу борада биз ҳам М.Ҳ. Пардайевнинг фикрига қўшилиламиз ва Уструшона милод бошларида Қанғ иттифоқи таркибида бўлган деган фикрни илгари сурайш мумкин.

Уструшона ёдгорликларида ўрганилган материаллар мамлакатда умумий демократик қонуниятлар мавжуд бўлганлиги ва унда қабила йетакчилари асосий рол ўйнаганлигини кўрсатади. Курсий Руф асарлари орқали, Уструшона қабилаларидан бири бўлган мемакенлар ҳақида бизгача маълумотлар йетиб келган. Бу қабила номи тилга олинганда, маркази Киресхата (Киропол) шаҳри бўлган барча вилоятларнинг аҳолиси назарда тутилган. ”Мемакен” сўзининг ўзи еса ўша вилоят номидан ҳосил қилинган бўлиши ҳам еҳтимолдан узоқ емас. Афтидан, бу Сирдарёнинг ўрта оқими чап қирғоғидаги текисликларда яшовчи енг йирик қабилалардан бири бўлиб, улар Македон истилочиларига қарши курашга бошчилик қиладилар.

Қанғуйлар, турли хил дипломатик ва ҳарбий йўллар билан мамлакат яхлитлигини сақлаб қолган ва мамлакат сарҳадлари дахлсизлигини таъминлай олган. Натижада, шу давр воқеалари арафасида (ёки ундан олдинроқ) кириб келган, тил ва яшаш тарзи жиҳатидан ўлка халқларидан кам фарқ қилувчи турли хил номлар билан аталувчи (туркий – сармат, юечжи, ҳун, усун ва б.) қабилалар ҳам мамалакат ижтимоий сиёсий ва маданий ҳаётида фаол қатнаша бошлаганлар. Бу даврдаги барқарор ижтимоий сиёсий вазият туфайли, унинг

таркибига кирган улкан ҳудудлар, жумладан Уструшонада ҳам ўтроқ ва кўчманчи аҳолининг бир-бирини тўлдирувчи маданияти шаклланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Григорьев Г. В. Келесская степь в археологическом отношении (К истории культуры древних саков) // Известия АН Каз ССР. Вып. 1. – Алма-Ата, 1948. – С. 51.

2. Литвинский Б.А. Джунский могильник и некоторые аспекты кангюйской проблемы // СА. Вып. 2. М., 1967.

3. Пугаченкова Г.А. Образы юечжийцев и кангюйцев в исскустве Бактрии и Согда // Античные и раннесредневековье древности Южного Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1989. – С. 96-110.

4. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. М.: Вост. лит. РАН, 1999. – С. 267-282.

5. Филанович М.М. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. –Ташкент: Узбекистан, 2010. – С. 85.

6. Подушкин А. Кангюй в свете новых палеолингвистичиских, нумизматических и археологических источников // ИМКУ. Вып. 42. – Ташкент, 2022.– С. 90-105.

7. Пьянков И. В. Средняя Азия и Евразийская степь в древности. Петербургское лингвистическое общество. – СПб. 2013. – С. 509.

8. Ўзбекистон тарихи. Дарслик. Р.Ҳ. Муртазаеванинг умумий таҳририр остида. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2009. – Б. 99-100.

QASHQADARYO VILOYATI SHAHARLARI MODDIY YODGORLIKLARI HOLATI. (Sovetlar hukmronligi yillarida)

Xasanov A. Qar DU O’zbekiston tarixi kafedrasi
professori, tarix fanlari doktori

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq mahalliy aholining ma’naviy boyliklari bilan bir qatorda madaniy merosini ham yo’qotish yoki qarovsiz holatda tashlab qo’yish holatlari yuz berdi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, O’zbekistonda yodgorliklarni muhofaza etish, asosan XX asrning 20-yillaridan boshlangan. 1921 yilning 22 mayida Turkiston ASSR XKSning dekretiga muvofiq, Maorif Xalq Komissarligi huzurida Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar, san’at va tabiatni muhofaza etish Turkiston qo’mitasi (Turkkomstaris) tashkil etildi. Qo’mitaning dastlabki faoliyati asosan me’morchilik obidalari, madaniyat va tarixiy yodgorliklarni o’rganish ishi bilan bog’liq bo’ldi. U 1923-yildan Sredazkomstaris nomi bilan tashkil etildi va o’z faoliyatini davom ettirdi. Qashqadaryo viloyatida 1920–1930 yillarda mavjud tarixiy yodgorliklardan 602 tasi arxeologik, 192 tasi me’moriy va shaharsozlik bilan bog’liq madaniy obidalardan iboratligi qayd etilgan.

Jumladan, ulardan biri – Qilichboy madrasasi Qarshi shahri va uning atrofidagi 1920-yillargacha mavjud bo’lgan 49 ta madrasaning eng kichigi hisoblanadi. Bu obida 1925 yilda Sovetlar davrida GUPVning maxfiy idorasiga aylantirilgan. 1954 yilda bino shahar maishiy xizmat ko’rsatish xo’jaligi ixtiyorida bo’lib, hovlisi odamlarga uy-joy uchun bo’lib berildi. Mustaqillikkacha bo’lgan davrda aholi tomonidan bu obidaning hatto darvozasigacha olib ketilgan, yarim vayrona holiga kelib qoladi. Sovet hokimiyati o’zining dastlabki yillarida Turkistonda moddiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni ko’rdi. Ammo, yodgorliklarni muhofaza qilish bilan shug’ullanuvchi davlat tasarrufida bo’lgan tashkilot mavjud emas edi. Natijada Turkiston hududidagi yodgorliklarni muhofaza qilish, ularni saqlab qolish hamda qayta tiklash ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmay qoldi.

XX asrning 20 – 30-yillarida Qashqadaryo vohasida, xususan, Qarshi shahrida Ko’kgumbaz masjidi (XVI asr), Odina masjidi (XIV – XV asrlar), Xonaqoh masjidi (XIX – XX asrlar), Mahallot masjidi (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari), Qashqadaryo ko’prigi (XVI asrning ikkinchi yarmi), Qarshi hammomi (Amir hammomi, XVI asr), shuningdek, Sharofboy (XVIII asr boshlari), Bekmir qozoq (1911 yil), Qilichboy (XX asr boshlari), Abdulazizboy (1910 yil), Shermuhammad (XVIII asr) (hozirda saqlanib qolmagan), Xo’ja Qurbon madrasasi (XVII asr) (hozirda saqlanib qolmagan), Qarshi sardobasi (XVI asr), Abu Ubayda ibn al-Jarroh ziyoratgohi (XIV – XV asrlar), Beshkent shahridagi Hazrati Sulton ziyoratgohi (XII – XIX asrlar) kabi ko’plab tarixiy-madaniy yodgorliklar tadqiq etiladi.

Shuningdek, Shahrisabz tumanidagi Dorut-tilovat (XIV asr), Dorus-saodat majmuasidagi Mirzo Jahongir maqbarasi (1370 – 1380 yillarda qurilgan), Oqsaroy majmuasi (1380 – 1404 yillar), Ulug'bek madrasasi (1437 yil), Chorsu savdo markazi (XVI asrning 80-yillari), Shamsiddin Kulol maqbarasi (XV asr), Jahongir Mirzo mozori (XIV asr), Malik ajdar masjidi (XIV asr), Kunduzak masjidi (XIV asr), Kitob tumanidagi Xo'ja Ilmkon xonaqosi (XV–XVI asrlar), Qamashi tumanidagi Langar ota masjidi (XV oxiri–XVI asr boshlari), Koson tumani Pudina qishlog'idagi Qusam ota majmuasi (XI–XIX asrlar), Qo'rg'on masjidi (XVI–XVII asrlar), Qarshi tumani Qovchin qishlog'idagi Imom Mo'yin majmuasi, Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar majmuasi (XI–XVI asrlar), Sardoba (XVI asr), Kasbi tumani Qatag'on qishlog'idagi To'ra masjidi (XVI asr), Kasbi tumani yaqinidagi Nomozgoh (XVI–XVII asrlar) kabi tarixiy ob'yektlar tadqiq etildi.

1934 yili O'zbekistondagi tarixiy yodgorliklarni o'rganish va ularning holatini tekshirish, ta'mirlash ishlarini yo'lga qo'yish masalalari Ya.G'ulomov boshchiligida temuriylar hukmronligi davrida Shahrisabz yaqinida bunyod etilgan tarixiy va me'moriy yodgorliklarni atroflicha o'rganishga qaratildi. Ayniqsa, Shahrisabz shahridagi Hazrati Imom, Ko'kgumbaz, Gumbazi Sayidon kabi yirik me'moriy yodgorliklarni tekshirishga va tiklashga doir ishlar olib borilgan. Bu borada fotograf I.Zavalin tomonidan suratlar tushirilib, ular O'zkomstaris qo'mitasiga taqdim etildi. 1949 – 1954 yillar davomida Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz masjidida yirik kapital ta'mirlash ishlari olib borildi. Shahrisabz shahri turistik shaharga aylangandan keyin u yerda qurilish ishlari yanada avj olib ketdi.

Qashqadaryo viloyatida mavjud tarixiy yodgorliklardan turli maqsadlarda foydalanish hollari ortib bordi. Masalan, Sharofboy madrasasi XX asrning 30-yillaridan e'tiboran dastlab madaniyat uyi, so'ng klub, hatto teri tanosil kasalliklari dispanseri joylashtirilgan bino sifatida ham faoliyat yuritdi. Bunga o'xshash holatni Bekmirqozoq madrasasida ham ko'rish mumkin. Jumladan, 20-yillarning ikkinchi yarmi – 30-yillarning o'rtalarida ushbu binodan shahar ichki ishlar komissariyatining boshqarmasi sifatida foydalanildi. 1923 yil 8 martda Turkiston hukumatining "Qadimiy va san'at yodgorliklarini hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida"gi dekretiga asosan o'lkadagi mavjud qadimgi yodgorliklar, arxitektura va san'at obidalarini ro'yxatdan o'tkazish ishlari bajarildi. Mazkur qaror asosida XX asr 30-yillarining ikkinchi yarmida Qashqadaryo viloyatida mavjud bo'lgan 30 ga yaqin tarixiyarxeologik inshootlar (tepalar) ro'yxatga olindi.

Respublikaning bir qator ko'hna shaharlaridagi me'moriy inshootlar sovet hokimiyatining musulmon ruhoniylariga qarshi olib borilgan kurash xarobaga aylangan. Xususan, Qarshi shahridagi me'moriy yodgorliklardan biri – Odina jome' masjidi XIV asrning 80-yillarida barpo etilib, shahar Registoni majmuiga kirgan eng yirik me'moriy inshoot hisoblangan. Masjidning uzunligi 50 metr, eni 40 metrga teng bo'lib, uning ichidagi ibodat joylari keng, tepasi kichik gumbazchali, g'isht ustunlar bir-biriga ravoqlar orqali tutashtirilgan. Biroq, bu yodgorlik yuqorida keltirilgan islom diniga qarshi qaratilgan sovet siyosati qurboniga aylangan. Aynan sovet hukmronligi yillarida masjidning baland minoralari, moviy gumbazli xonaqohi, mehrobi, minbariga qo'shib ayvon, sardoba ham buzib tashlangan. 1938 yilda masjidning atrofi baland devor bilan o'rab olingan va mahbuslar saqlanadigan joyga aylantirilgan. Bu bilan esa azal-azaldan musulmon ahliga diniy ta'lim berib kelgan mazkur muassasaning faoliyati tamomila cheklandi. Shuningdek, 1940 – 1945 yillarda Qarshi shahrida joylashgan Bekmir qozoq madrasasi binosi ham askarlarga jo'natish uchun zaxira sifatida tayyorlangan kiyim-kechaklar saqlanadigan ombor vazifasini o'taganligi arxiv hujjatlaridan ma'lum. Binoning ikkinchi qavati esa askarlarga harbiy kiyim va poyabzal tikadigan tikuvchilik sexi sifatida faoliyat yuritgan. 1945–1947 yillarda O'zbekiston SSR hukumati me'moriy obidalarni, qadamjolarni tiklash va ta'mirlash uchun davlat byudjetidan 1 mln. 800 ming rubl miqdorida mablag' ajratdi. Ta'mirlash ishlari uchun rejalashtirilgan diniy muassasalarning 22 tasi madrasa, xonaqoh va maqbaralardan iborat bo'lgan.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri markazida joylashgan Oqsaroy yodgorligiga 50 ming rubl mablag' sarflandi. Sovet Ittifoqi Ministrlar Sovetining 1948 yil 14 oktyabrdagi "Madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori joylarda arxitektura yodgorliklarini maxsus ilmiy jihatdan ta'mirlash ishlariga huquqiy zamin yaratdi. Mazkur qarorda arxitektura yodgorliklarini aniqlash va hisobga olish, ulardan foydalanish shartlari va saqlash qoidalari, muhofazaga olish ishlari mustahkamlab qo'yildi. Shundan kelib

chiqqan holda Shahrisabz shahrida 5 ta yodgorlik ro'yxatga olindi. Shuningdek, mazkur qarorga muvofiq yuqoridagi shaharlarda maxsus ilmiy ta'mirlash ustaxonalari tashkil etildi.

1952 yil 24 apreldagi Kasbi qishloq sho'rosining qarori bilan Hazrati Sulton Mir Haydar masjidi Kasbi qishlog'i hududidagi Stalin nomli jamoa xo'jaligiga madaniy-maishiy joy qilish uchun berib yuboriladi. L.Yu. Mankovskaya XX asrning 50-yillarida Sulton Mir Haydar majmuasi qarovsiz qoldirilgani va omborga aylantirilganini aytishga jur'at topa olgan. Sulton Mir Haydar ota majmuasi haqida dastlabki tadqiqotlarni S.K. Kabanov, 1960-yillar boshlarida R.R. Abdurasulov, L.I. Rempel, 1970-yillarda L.Yu. Mankovskaya, A.Z. Zayniddinov e'lon qilgan. 1989 yil yanvaridan maqbarani tartibga keltirish, esdalik lavhini qo'yish ishlari amalga oshirilgan. Masjid va minora yo'laklari tuproqdan tozalanish davrida turli tarixiy osori-atiqalar topilgan.

Madaniy va tarixiy yodgorliklarni asrash O'zbekiston jamiyatining Qashqadaryo viloyat kengashiga 1967 – 1968 yillar davrida jamiyat a'zolari tomonidan 87 ta taklif va talablar tushganligi qayd etilgan. Ushbu taklif va talablardan 55 tasi viloyat Soveti tomonidan ijro etilgan. 1969 yil 27 iyunda Qarshi shahrida bo'lib o'tgan "O'zbekiston tarixiy va madaniy yodgorliklarini muhofaza qilish"ga bag'ishlangan II konferensiyada ushbu jamiyat Qashqadaryo viloyat Sovetining raisi M.S. Samadovning hisobotida viloyatning deyarli barcha shahar va tumanlarida tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyatining bo'limlari hamda ularning boshlang'ich tashkilotlari tuzilganligi ko'rsatib o'tilgan.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash Qashqadaryo viloyati jamiyatining ko'p sonli a'zolari yordami bilan tarixiy materiallarga boy bo'lgan viloyat hududida 187 ta arxitektura, 184 ta arxeologiya yodgorliklari borligi aniqlanib, ro'yxatga olindi. Qisqa vaqt ichida jamoatchilik yordami bilan Qarshi tumanidagi "Hazrati Sulton" maqbarasi, "III internatsional" kolxoz markazidagi Sardoba, Kasbidagi "Mir Haydar Sulton" majmuasi, "To'ra" masjidi, Koson tumanidagi "Qusam ota" majmuasi, Chiroqchi tumani "Vosxod" sovxozidagi "Oqmachit", "Qo'sh xonaqoh", G'uzor tumani markazidagi madrasa, Qamashi tumanidagi "Langar ota" va shu kabi obidalar qisman restavratsiya qilinib, yana uzoq vaqt o'z ko'rinishini yo'qotmaydigan darajaga keltirilgan.

Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash Qashqadaryo viloyati jamiyatining II konferensiyasida Yakkabog' tumani ijroiya komiteti raisining o'rinbosari S.To'rayevaning muzokara so'zida ta'kidlanishicha, tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash ko'ngilli jamiyatining tashkil etilganligi Yakkabog' tumanida oz bo'lsa-da, mavjud tarixiy yodgorliklarni saqlash va tiklash, madaniy yodgorliklarni yanada ko'paytirishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Tuman ko'ngilli jamiyati tomonidan hisobot davri mobaynida tarixiy yodgorliklarni aniqlash, ularni o'rganish va muhofaza qilish ishlarini tashkil etish, madaniy yodgorliklarni ko'paytirish sohalarida birmuncha ishlar amalga oshirilganligi aytib o'tilib, tuman hududida 21 ta tarixiy yodgorliklar, 18 ta tarixiy joylar borligi keltirilgan. Jumladan, Yodgor Vallamiy madrasasining XVII asr oxirlarida qurilganligi va shu shaxsning o'sha madrasada dafn qilinganligi qoldirilgan yozuvlar asosida isbotlangani, madrasa jamiyat tavsiyasi bilan 80-RSU tomonidan ta'mir qilingani va bu tashkilot undan vaqtincha foydalanib turganligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, Shahrisabz tumanida vayron bo'lishi oqibatida tiklab bo'lmaydigan darajaga kelib qolganligi munosabati bilan hisobdan chiqarilgan madaniyat yodgorliklardan tashqari 1 ta arxitektura, 19 ta arxeologik, 43 ta tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjudligi qayd etilgan.

Shu o'tgan davr ichida viloyatning hamma shahar va tuman kengashlarida, shuningdek, mehnatkashlar deputatlari Qashqadaryo viloyat Soveti ijroiya komiteti sessiyasida ham muhokama qilinadi va qonunga amal qilishning aniq tadbirlari belgilanib, maxsus qaror qabul qilinadi. Viloyat hududida 492 ta yodgorlik borligi aniqlanib ular ro'yxatga olinadi. Shulardan 130 tasi arxitektura, 236 tasi arxeologik, 115 tasi monumentlar va va 2 tasi san'at yodgorliklariga ajratiladi. Bular esa 1968 yil 14 dekabrda viloyat ijroiya komitetining 21/586-qaroriga binoan davlat muhofazasiga o'tkaziladi. Shu bilan ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan G'uzor tumani hududida 6 ta arxitektura, 2 ta arxeologiya va 18 ta revolyutsiya yodgorligi ro'yxatga olinadi. Bularning ko'pchiligi tuman markazida, kolxoz, sovxoz markazlarida va ayrim maktablar qoshida joylashgan.

1968 yilda Shahrisabz tumanida 72 tarixiy va madaniy yodgorliklarni ro'yxatga olinib, ularni asrash choralari ko'rildi. Shahrisabzdagi tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash va restavratsiya qilish talab qilinadi. Shuningdek xuddi shu yili Shahrisabzdagi ayrim yodgorliklarni ta'mirlash va

restavratsiya qilish ishlarini rejaga kiritish so’raladi. Bu vaqtda 10 ta arxeologiya, 7 ta arxitektura, 8 ta tarixiy va 10 ta madaniy yodgorliklar mavjudligi aniqlab chiqiladi.

Qarshi tuman madaniyat bo’limi mudiri M.Husainovaning hisobotida tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash davlat siyosatidan kelib chiqqan vazifa ekanligi uqtirilgan holda, 1971 yilda 32 ta arxitektura va 36 ta tarixiy yodgorliklar hisobga olingani keltiriladi. 1968 yil 15 mayda O’zSSR Oliy Sovetining “Madaniyat yodgorliklarini saqlash to’g’risida”gi qonuni, O’zSSR Ministrlar Sovetining “Respublika moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash va qayta tiklashni yanada yaxshilash choralari hamda yodgorliklar va monumentlarning loyihalarini tuzish va ularni qurish tartibi to’g’risida”gi qarori qabul qilingan. Aynan shu qaror asosida Qashqadaryo vohasida 1969-yili 187 ta arxitektura, 183 ta arxeologiya, 2 ta revolyutsiya yodgorligi ro’yxatga olinib, Qarshi tumani Moskva kolxozidagi Hazrati Sulton maqbarasi, Kasbidagi Sulton Mir Haydar ansambli, Koson tumani Pudina qishlog’idagi Qusam shayx ota ansambli, Chiroqchi tumani Angar qishlog’idagi “Qo’sh xonaqoh”, G’uzor tumanidagi madrasa va o’nlab obidalar jamoatchilik yordami bilan ta’mirlangani qayd etiladi.

Shuningdek, bu davrda M.Ye. Masson rahbarligida Qashqadaryo vohasi sharqiy hududlarini o’rganish maqsadida KATE – Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi tashkil etilgan edi. Mazkur ekspeditsiya tomonidan asosan temuriylar davri yodgorliklari tadqiq qilinib, ularning holati va ta’mirlash ishlari yuzasidan ilmiy xulosalar berilgan. 1968 yil 30 avgustda “Respublika moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash va qayta tiklashni yanada yaxshilash choralari hamda yodgorliklar va monumentlarning loyihalarini tuzish va ularni qurish tartibi to’g’risida”gi qarordan kelib chiqqan holda 1970 yil boshida respublika hududida 400 dan ortiq noyob arxitektura, moddiy-madaniy yodgorliklari aniqlandi. Mavjud ushbu yodgorliklarni asrab-avaylash va muhofazaga olish bo’yicha berilgan ko’rsatmalar asosida ma’lum ishlar amalga oshirildi. Shuni alohida e’tirof etish joizki, kommunistik partiya va sovet hokimiyatining yuritgan ma’muriy-buyruqbozlik siyosati respublikada 200 dan ziyod tarixiy-inqilobiy yodgorliklar barpo etilishiga olib keldi.

Xususan, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida 30 dan ziyod monument yodgorliklari va haykallar tiklanib, atrofi obodonlashtirildi. Respublikada mavjud bo’lgan me’moriy yodgorliklarning xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilishi hamda ro’yxatga kiritilishi o’z navbatida ularning jahonga yuz tutishiga ta’sir ko’rsatdi. Shunday bo’lsada 1973 yilda Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida joylashgan X – XIII asrlar yodgorligi hisoblangan Oltintepa, Qarshi tumanidagi X – XIII asrlarga oid bo’lgan Ilontepa hamda Qarshi shahri hududida deb ko’rsatilgan Kofirtepa tarixiy-madaniy yodgorliklari o’zboshimchalik bilan buzib tashlanganligi tanqid qilingan. 1973 yilda Respublika hukumati tarixiy o’zagi saqlanib qolinishi ko’zda tutilgan 10 ta shaharning ro’yxatini tasdiqladi. Yangi qurilish masalalari esa madaniy meroslarni saqlab qolish manfaatlari bilan uyg’unlashtirib hal etildi. Bu shaharlar qatorida Qashqadaryo viloyatining ikki asosiy shaharlari – qimmatli tarixiy-me’moriy yodgorliklarini saqlab qolgan Qarshi va Shahrisabz ham bor edi. O’sha davrda viloyat hududida 287 ta arxeologik ob’yekt, 213 ta arxetiktura yodgorliklari (shundan 41 tasi muhim ahamiyatga ega), 118 ta tasviriy san’at asari mavjud edi. 1976 – 1981 yillarda Shahrisabzdagi Dorut-tilovat majmuasida arxeologik tadqiqotlar uyushtirish maqsadida qazishma ishlari amalga oshirildi. Yodgorliklar muhofazasi borasida keyingi yillarda ham maxsus qonunlar ishlab chiqildi va tatbiq etildi.

Qashqadaryo viloyatidagi yirik ko’hna shaharlardan – Qalayi Zohhaki Maron, Shuluktepa, Yerqo’rg’on vayron qilingan. Qarshi – Koson yo’nalishida joylashgan qadimgi shahar xarobasi – Yerqo’rg’onning ahamiyati to’g’risida matbuotda ko’p marta yozildi. Manbaga ko’ra, Yerqo’rg’on - qadimiy bo’lgan yodgorliklar qatoridan o’rin olgan. Bu ro’yxat bugungi kunda ana shu hududdagi Voroshilov nomli kolxoz “Udarnik” sovxozlari, tomonidan ekin ekilib kelingan.

Madaniy merosning tarixiy ahamiyatini aholiga tushuntirish maqsadida Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyatining 1976-yilgi hisobot yig’ilishida Qashqadaryo viloyatida “Bilim” jamiyati tomonidan jamoatchilikka tayangan holda 1974-yilda 150 ta, 1976-yilda 210 ta, 1976 yilning 1-kvartalida 45 ta, jami 405 ta ma’ruza va suhbatlar tashkil qilindi. Shuningdek, mahalliy gazeta va radio orqali 40 ta material, viloyat gazetasiga 2ta, jami 42 ta material yoritilganligi qayd etilgan.

1980-yillarda Shahrisabzda qad ko’targan me’moriy yodgorlik majmualaridan biri – Dorut-tilovat (XIV–XV asrlar), Ko’k gumbaz masjidi, Shamsiddin Kulol va Gumbazi Sayidon kabi ko’hna mozorlarni o’zida mujassam etgan tarixiy-madaniy komleks qayta qa’mirlandi. Uning asosiy majmuasi Shahrisabz shahrining janubi-sharqiy qismida, yo’l yoqasida joylashgan. Me’moriy yodgorlik majmuasining turli joylarida, Gumbazi Sayidon, Shamsiddin Kulol mozorlari ichida, hovlida bir necha yozuvli qabrtoshlar joylashgan. Me’moriy yodgorlik majmuasidagi qabrtoshlarining ko’pchiligi UzNIPI restavratsiya xodimlari tomonidan olib borilgan arxeologik qazuv ishlari natijasida 1980–1990 yillar oralig’ida topilgan.

Qashqadaryo viloyati tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyatining 1986 yil 1apreldagi hisobotida Qarshi shahrida 1980 – 1986 yillarda mavjud bo’lgan quyidagi 13 ta tarixiy yodgorliklar ro’yhatda keltiriladi: Ko’kgumbaz masjidi (XVI asr), Chaqar masjidi (XVIII asr), O’zbek hammomi (XVI asr), Qashqadaryo ko’prigi (XV – XVI asrlar), Charmgar masjidi (XIX asr), Bekmir qozoq madrasasi (1905 yil), Qo’rg’oncha masjidi (XVIII asr), Xoja Abdulaziz madrasasi (1913 yil), Qilichboy madrasasi (1914 yil), Mahallot masjidi (1911 yil), Sharifboy madrasasi (XVIII asr), Shermuhammadboy madrasasi (XVIII asr) hamda Charmgarlar masjidi.

Shuningdek, ushbu hujjatda 1972 – 1980 yillarda ro’yxatga olingan, lekin ayni vaqtda saqlab qolinmagan quyidagi tarixiy yodgorliklar ham keltirilib o’tilgan. G’uzor tumanida: G’uzor begining uyi, Gulshan madrasasi; Dehqonobod tumanida: Kalta Minor va Sulton rabod masjidlari; Qarshi tumanida: Charag’il masjidi, Yuqori Qaraqil masjidi, Fayzi o’g’li masjidi, Zoir bobo masjidi, Kat masjidi, Cho’pkori masjidi, Parg’uza masjidi hamda 1977 yilda qayd etib o’tilgan Parmiton, Arabxona, Yuqori Aral, Chovqay, Xoja Humoyun, Yuqori Xudoydod, Orif batosh, G’ubdun, Xoja qishloq, Denov qishloq masjidlari; Koson tumanida: Qalandarxona guzaridagi Juma masjidi, Toshhovli masjidi; Kitob tumanida: Kichik to’pcha, Yangi qishloq, Jayraxona, Sarosiya, Xusan, Katlos masjidlari; Kitob shahrida: Qarapoya, Registon, Simlik, Yuqori Darboza masjidlari hamda Eski uslubdagi Toshhovli; Shahrisabz tumanida: Katta Novqat hamda To’da Maydon masjidlari; Yakkabog’ tumanida: Bekxo’ja, Jamol Ota va Kattakon masjidlari.

Tarixiy va madaniy meros ob’ektlarini o’rganish komissiyasining 1977 – 1980 yillardagi hisobotlarida Qashqadaryo viloyatida joylashgan ammo respublikada davlat ahamiyatiga ega bo’lgan va zudlik bilan saqlab qolish zarur deb topilgan quyidagi tarixiy-me’moriy obidalar ham keltirib o’tilgan: Qarshi shahridagi Shermuhammad madrasasi(1953-1954 yillarda bir qismi buzib tashlangan), Chaqar va Mahallot masjidlari; G’uzor tumanidagi Avg’onbob madrasasi, Gulshan masjidi va Obixona masjidi va minorasi; Dehqonobod tumanidagi Oqsaroy qasri; Qamashi tumanidagi O’g’lonjon ota majmuasi; Qarshi tumanidagi Ergash og’li masjidi, Haramjo’y masjidi, Qavali masjidi, Saroy masjidi, Tosh masjid, Xazrati Sulton majmuasi, Xalfa eshon masjidi, Chorgumbaz masjidi, Saxtapiyoz masjidi, Mirmiron masjidi, Gumbaz masjidi, Gulshan masjidi, Qo’rg’oncha majmuasi, Quyi Aral masjidi va Chor gumbaz masjidlari; Koson tumanidagi Xonaqo masjidi, bandi Kupod va Muhiddin ota masjidlari; Shahrisabz tumanidagi Qorasuv masjidi, Xiroy masjidi, Kelxont masjidi, Qorapoycha masjidi, Chuqul masjidi, Namatak masjidi, Kattanaki masjidi, Qurunsoy masjidi, Qutchi masjidi, Sinabog’ va G’ilon masjidlari. Ba’zi tarixiy-me’moriy obidalar badiiy qimmatga ega emasligi tufayli mahalliy hokimiyat muhofazasidan chiqarilishi taklif etiladi. Qarshi tumanidagi Abdusamad bobo masjidi, Ostona bobo masjidi, Yahyoxon eshon masjidi, Xoniyon masjidi, Xo’ja Guzar masjidi, Fayzobod va Shayx Ali masjidlari; Quyi Beshkent va Shukur bobo masjidlari; Shahrisabz tumanidagi Suvsulton, Amnig’on, Tepar va Hisorak masjidlari shular jumlasidandir.

Viloyat hududidagi tarixiy-me’moriy obidalarning 1977 – 1980 yillarda qay holatda ekanligi, foydalanilish darajasi, rekonstruksiya ishlarining qanday darajada olib borilayotganligi ushbu hisobotda keltirib o’tilgan. Jumladan, Shahrisabz tumani va shahar hududida joylashgan Oqsaroy (avariya holatida, foydalanilmayapti), Chorsu (transport yo’li o’tkazish ishlari olib borilgan), Ko’kgumbaz masjidi (“Me’mor” ta’mirlash jamiyati tomonidan qayta tiklash ishlari davom ettirilgan), Jahongir dahmasi (foydalanilmayapti), Hazrati Imom masjidi (foydalanib kelinmoqda), Hammom (foydalanilmoqda), Kunderzan masjidi, Malik Ajdar masjidi (restavratsiya ishlari olib borilgan), Xo’ja Mirhamid honaqosi (qayta tiklangan), Kunchiqar masjidi (qayta tiklangan), Uychilik masjidi (avariya holatida), Eshongar masjidi (og’ir ahvolda). Bu holatdan anglash

mumkinki mavjud 15 ta tarixiy-me'moriy obidalarning faqat 2 tasi qayta tiklangan, 2 tasidan xalq tomonidan foydalanib kelinmoqda, 2 tasida restavratsiya ishlari olib borilmoqda va yana 2 tasi qayta ta'mirlangan. Qolganlarida mablag' yo'qligi yoki keying yillarda rekonstruktsiya qilish rejalashtirilgan degan bahonalar bilan qayta ta'mirlash ishlari ortga surib kelingan.

Qashqadaryo viloyat Madaniyat boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 1983 yilda viloyatda 756 ta yodgorlik davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan 188 tasi – me'morchilik, 254 tasi – haykaltaroshlik san'ati, 314 tasi – arxeologiya yodgorliklari edi.

Viloyatning Ulyanov (hozirgi Mirishkor) tumani Maymanoq va Qamashi qishloqlarida joylashgan 3 ta sardobada kimyoviy moddalar saqlanganligi bois bu me'moriy ob'yektlar jiddiy zarar ko'rdi va buzilish holatiga keldi. Koson tumanidagi "Udarnik" jamoa xo'jaligi hududida joylashgan Shuluktepa arxeologik yodgorligida ferma qurildi. Ulyanov nomli jamoa xo'jaligi hududida joylashgan respublika miqyosidagi yodgorlik bo'lgan Tuproqtepada "Qarshistroy"ga qarashli Yo'l qurilish boshqarmasi otryadi tomonidan yo'l qurilish ishlari olib borilgan.

Ko'kgumbaz masjidi o'z davrida yaltiroq koshinlar bilan bezalib, ular binoni go'zal ko'rsatgan, ammo keyinchalik tabiat ta'sirida tushib ketgan. Yangi koshinlarning sifati yaxshi bo'lmaganligi uchun ular tabiiy husnini yo'qota borgan, 1980 yillarda bino ancha shikastlangan edi, ta'mirlanganligi tufayli asosiy ravoqlar tiklandi, ust gumbaz qismi o'z shaklini oldi. Chaqar mahallasida joylashgan bu obida 1980 yillarda ta'mirlanadi. 1985 yil holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 74 ta (20 tasi byust) V.I. Lenin, 17 ta K.Marks va F.Engels, Oktyabr to'ntarishi rahnamolariga bag'ishlangan yodgorliklar ro'yxati berilgani holda, respublika bo'yicha atigi 6 ta tarixiy-arxeologik yodgorliklar ro'yxati berilgan.

KPSS MK tomonidan 1986 yil 18 avgustda "Islom ta'siriga qarshi kurash to'g'risida" qaror qabul qilinadi. O'sha paytda respublikada 300 dan ortiq, jumladan, Qashqadaryo viloyatida 82 ta diniy marosimlar uchun binolar mavjud edi. Bu binolarning aksariyati davlat ro'yxatiga kiritilgan bo'lishiga qaramasdan, bo'sh (tashlandiq), yarim vayrona holatda tashlab qo'yilgan, ayrimlaridan esa biror korxona yoki xo'jalikning ombori sifatida foydalanilar edi. Ayrim masjid binolaridan, hatto, qamoqxona sifatida foydalanilgan holatlar ham mavjud. Masalan, Qarshi shahridagi Odina masjidi (XIV asr)dan qamoqxona sifatida foydalanilgan.

Xullas, sovet davrida madaniy meros yodgorliklarini saqlash va qayta ta'mirlash bo'yicha ham bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Shunday bo'lsa ham ko'plab yodgorliklar qarovsiz holatga tushib qolgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi (QVDA), 533-fond, 1-ro'yxat, 42-ish, 81-varaq.
2. Sodiqova N.S., Buryakov Y.F. Tarixiy yodgorliklar xazinasi. – Toshkent: Fan, 1976. – B.69.
3. Nasriddinov Q., Xo'jayarov O'. Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011.
4. Aminov A. Ko'kgumbaz tiklanmoqda // Qashqadaryo haqiqati, 1974 yil 10 sentabr.
5. Kattaboyev S. Odina masjidi qismati // Qashqadaryo, 2005 yil 16 sentabr.
6. Номозов Б. Улуғбек масжиди // Қашқадарё ҳақиқати, 1996 йил 18 сентябрь.
7. Halilov J. Obidalar tarixi ko'zgusi // Qashqadaryo haqiqati, 1982 yil 3 sentabr.
8. Po'latov S., Bo'tayev A. Qarshi – qadimiy shahar. – Qarshi: "Nasaf", 2006. – B.24 – 27.
9. Aminov B.B. Janubiy O'zbekiston epigrafik yodgorliklari tarixiy manba sifatida (XV – XX asrlar): Tarix fan. nomz. dis... – Toshkent, 1998. – B.17.
10. Rasulov M.F. O'zbekistonda tarixiy va madaniy yodgorliklarning ahvoli hamda ularga bo'lgan munosabatning transformatsiyasi (1980 – 2019 yy.). Tarix fan. bo'yicha fal. dokt. (PhD) dis... avtoref. – Toshkent, 2020. – B.13.
11. O'z MA, F-394-fond, 1-ruyxat, 204-ish, 2 – 3-varaqlar.
12. Madaniy meros departamenti arxivi, KD-9712-fond, 3-ruyxat, 34-ish, 81–84-varaqlar.

ЖАНУБИЙ СУҒД ТОҒ ЙЎЛЛАРИНИНГ МИНТАҚА КОММУНИКАЦИЯ ТИЗИМИДАГИ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА

Мавланов Ў.М. ЎзМУ профессори

Жанубий Суғднинг шарқий ва жунубий қисмлари Зарафшон ва Хисор тоғ тизмалари билан ўралган. Қашқадарё воҳасини қўшни ҳудудлар: Бақтрия/Тохаристон ва Самарқанд Суғди билан боғловчи тоғ йўллари - довонларидан фойдаланиш қадимги даврдан бошланганлигини тарихий-археолигик тадқиқотлар натижалари кўрсатиб берди. Мақолада бу тоғ довонлари ва улардан фойдаланиш тарихига қисқача назар ташлаб ўтамиз.

Олиб борилган тарихий археологик тадқиқотларт натижалари шуни кўрсатдики, энеолит ва бронза давридан бошлаб Марказий Осиё – Ҳиндистон ўртасидаги алоқа йўллар ичида Хараппа – Шўртўқай – Саразм йўналиши катта иқтисодий ва стратегик аҳамиятга эга йўллардан ҳисобланарди. Саразм маданиятига мансуб турли топилмалар ичида Ҳинд океанида учрайдиган чиғаноқдан ясалган тақинчоқ ва мунчоқлар, шимолий-ғарбий Ҳиндистондаги қадимги сопол буюмларга ўхшаш кулолчилик маҳсулотлари учрайди. Бу топилмалар Саразм манзилгоҳи шаклланишида Ҳинд дарёси водийсидан кўчиб келган аҳоли ҳам сезиларли ўрин тутганлигини, хусусан, бу манзилгоҳ Хараппаликларнинг Ўрта Осиё тоғларида мавжуд бўлган полиметалл рудаларни ўзлаштиришга бўлган эҳтиёжларини қондиришда катта аҳамиятга эга бўлганлигин кўрсатмоқда. Мавжуд маълумотлар таҳлили ва тарихий-географик омилларга асосланиб, Шўртўқайдан Зарафшон воҳасининг юқори оқимига олиб чиққан алоқа йўлининг қуйидаги иккита йўналишини келтириб ўтиш мумкин:

1. Шўртўқай – Дашли – Термиз яқинидаги кечув – Сополли – Темир дарвоза – Окработ йўли – Калтаминор йўли – Шарқий Қашқадарё ҳудуди – Тахта Қарача довони – Ургут (ёки Оқдарёнинг юқори оқимидаги Мухбел довони) – Саразм йўналишида бўлганлигини қайд қилиш мумкин.

2. Шўртўқай – Кофирнихон дарёсининг Амударёга қўйилиш жойидаги кечув - Боботоғдаги Чхарра довони – Хисор водийси – Жанубий Тожикистондаги бронза даври маконлари (Тахти Сангин ва бошқалар) – Мура довони – Искандаркўлнинг шимоли-шарқий қисми – Кштут довони – Саразм.

Ҳинд дарёси водийсидаги машҳур Мохенжо Даро маконларидан топилган бронза (мис ва қалай бирикмаси) буюмлар ясаш учун асосий хом ашё бўлган қалай асосан Ўрта Осиёдан олиб кетилганлиги ва бошқа маълумотлар бронза даврида Ўрта Осиё – Ҳиндистон алоқаларида ҳам иқтисодий омиллар, хусусан Хараппа ва Мохенжо Даро цивилизацияларининг Ўрта Осиёдаги маъдан конлари маҳсулотларига бўлган эҳтиёжи етакчи ўрин тутганлигини кўрсатади. Бу фикрнинг асосли эканлигини Қашқадарё воҳасининг тоғолди ва дашт ҳудудлари орқали ўтувчи йўллар бронза давридан бошлаб ўзлаштирилгани, мил. авв. X-VIII асрларда, эҳтимол ундан ҳам олдинроқ Бақтра ва Амударё кечувларидан Қашқадарё воҳаси ва Самарқандга олиб келувчи йўллардан фойдаланиш бошлангани ҳақидаги маълумотлар ҳам тасдиқлайди.

Бронза даридан бошлаб Хисор тоғлари орқали ўтган алоқа йўлларидан фойдаланиш халқаро аҳамиятга эга бўла бошлаган. Хусусан, Ҳиндистоннинг Марказий Осиё билан алоқаларидаги яна бир муҳим йўналиш Шимолий Афғонистон ва Сурхон воҳаси ҳудудидаги бронза даври маконлари (Дашли, Сополли, Жарқўтон) орқали ўтиб, минтақанинг ички ҳудудларига олиб келган. Бу йўналишдаги алоқа йўли бўйлаб мил. авв. II мингйилликда амалга оширилган иқтисодий-маданий ҳамкорликни Сополлитепа ёдгорлигидан топилган тош ва металлдан ясалган бургут тасвирли муҳрлар ҳам тасдиқламоқда.

Сурхон воҳасида ушбу транзит алоқа йўли қуйидаги бир неча тармоққа бўлинган:

1. Биринчи йўналиш Темир дарвоза орқали Қашқадарё воҳасига ўтган ва иккига ажралиб, биринчиси Қашқадарёнинг юқори оқими орқали Саразмга ўтган. Бақтрия ва Жанубий Суғдни боғловчи алоқа йўлларининг бир нечта йўналишлари бўлган. Бу йўллар ичида Термиздан Шероддарёнинг чап қирғоғи бўйлаб Зартепа ва Жондавлатттепа ёдгорликлари орқали Нондахона дарасига, бу ердан Шўробсой водийси ва Темир Дарвоза орқали Суғдиёна шаҳарларига кетувчи йўналиш минтақадаги транзит йўллар тизимида катта

аҳамиятга эга эди. Бу йўналиш Суғдни ва минтақанининг марказий ҳудудларини Бақтрия пойтахти ва Ҳиндистон шаҳарлари билан боғлашда асосий ўрин тутган.

Бақтрия пойтахтини Суғдиёна билан боғловчи йўл Шимолий Бақтриянинг тоғолди ва тоғли ҳудудлари орқали ўтиб, асосан икки йўналишда бўлган. Биринчиси, юқорида кўриб ўтган йўналиш бўйлаб, яъни Термиз, Темир Дарвоза ва Оқработ довони орқали жанубий Суғдга олиб чиққан. Бу йўналиш Қашқадарё Суғди ҳудудида тармоқланиб, бири Наутака, Тахтақарача довони орқали Мароқандага, иккинчиси, Кичик Ўрадарё ва Ғузордарё бўйлаб Қашқадарёнинг қуйи оқимига олиб чиққан.

Бақтриядан Термиз яқинидаги Шўроб кечуви – Сурхон воҳаси – Темир дарвоза – Оқработ орқали ўтган алоқа йўли йўналишларини аниқлаштиришда ҳудудда топилган ва ўрганиб чиқилган археологик ёдгорликлар яққол далолат беради. Хусусан, Шўроб кечуви бўйидаги Шўртепа ва Темир дарвоза оралиғидаги ҳудудда илк темир даврига оид Бешқўтон ва Талашкан манзиллари жойлашган бўлиб, улар бу қадимги алоқа йўли йўналишини кўрсатиб турибди.

Бақтрия ва Суғдиёна чегарасида, Темир дарвоза яқинида қадимги божхона қолдиқларининг топилиши, I мингйиллик ўрталарида Оқработ ва Тошқўрғон довони орқали Қашқадарё воҳасига, Тахтақарача довони орқали Зарафшон воҳасига ўтувчи тоғ йўллари изчил фаолият кўрсатганлигини билдиради.

Оқработ – Даратепа – Наутака (Узунқир) – Тахтақарача довони – Мароқанда (Самарқанд) йўналиши кўриб чиқилаётган даврда Бақтрия чегараларидан Суғдиёна марказига олиб борувчи энг қисқа йўл ҳисобланарди. Бу йўналишда Даратепа ва Узунқир каби илк темир даври ёдгорликлари ўрганилган бўлиб, Узунқир шарқий Қашқадарёдаги қадимги Наутака шаҳри харобалари эканлиги аниқланган. Турли тарихий даврларда Наутака, Кеш, Шаҳрисабз номлари билан аталган бу шаҳарнинг Ўрта Осиё тарихи ва маданиятида тутган аҳамияти катта эди. Фикримизча, Узунқирдан Макрид ва Жом дашти орқали Зарафшон тоғини шимолдан айланиб ўтувчи алоқа йўли ҳам бу даврда шаклланган. Макрид яқинидаги илк темир даврига оид Қўрғонтепа ёдгорлигининг топилиши ҳам бу йўналиш фаолиятидан далолат беради.

Шўроб кечувидан Яккабоғ тоғ ёнбағирлари ёқалаб Кешга ва Тахтақарача довони орқали Самарқандга ўтган қадимги тоғ йўлидан фойдаланиш ўрта асрларда ҳам ўз аҳамиятини сақлаб қолди. Араб географи Истахрийнинг маълумотига кўра, X асрда Самарқанд шаҳристонининг жанубий дарвозаси Кеш номи билан аталган. Бу маълумот ҳам бу икки шаҳар ўртасидаги қалин иқтисодий-маданий алоқалардан ва сиёсий яқинликдан далолат беради.

Амир Темур ва темурийлар даврида ҳам пайтахт Самарқандан Кеш орқали Сурхон воҳасига ва Ҳиндистонга ўтувчи йўналишдан ҳам бу даврда фаол фойдаланилган. Хусусан, Шарофуддин Али Йаздийнинг маълумот беришича, Амир Темур Самарқанддан Ҳиндистонга юриши даврида Самарқанддан 7 йағоч масофада, Кеш йўлида жойлашган тоғда бир боғ ва қаср барпо қилдирган ва унга “Тахти Қароча” деб ном берган эди.

Келиф кечувидан ҳамда Термиздан Кеш (Шаҳрисабз) шаҳри орқали Самарқандга ўтувчи йўлнинг бир йўналиши ўтганлиги Амир Темур ҳузурига расмий ташриф билан келган испан элчиси Руи Гансалис де Клавихо асарида ҳам қайд этилган. Лион ва Кастилия қиролининг элчилари Хуросондан Термиз – Дарбанд – Темир Дарвоза – Оқробот – Кеш орқали Самарқандга келганлиги маълум. Клавихо Самарқанднинг Амир Темур давлатида тутган мавқеига юксак баҳо бериб, бу ерда Соҳибқирон қурдирган бозор ва ёпиқ савдо расталари ҳақида хабар беради.

Юқорида кўриб ўтилган тоғ йўли йўналишларидант фойдаланиш сўнгги ўрта асрлар даврида ҳам ўз аҳамиятини йўқотмади. Самарқанддан Шаҳрисабз воҳаси орқали Сурхон воҳасига ўтувчи тоғ йўллари бу даврда асосан қуйидаги уч йўналишда бўлган:

1. Самарканд – Тахтақарача довони – Шаҳрисабз – Яккабоғ – Тошқўрғон довони – Юрчи – Денов – Термиз.

2. Самарқанд – Жом – Чиялқудуқ – Ғузор – Оқработ – Темир Дарвоза – Шеробод – Термиз.

3. Самарқанд – Шаҳрисабз – Калтаминор довони – Оқработ – Темир Дарвоза – Термиз.

Бу йўналишлар ичида Яккабоғ ва Тошқўрғон довони орқали ўтувчи йўл энг қисқа бўлиб, ундан фойдаланиш асосан ёз ойларидагина мумкин бўлган. Калтаминор йўли Шаҳрисабздан Сурхон воҳасига борувчи йўналишлар ичида энг кўп фойдаланиладигани ҳисобланарди.

Маълумки, ўрта асрларда хат-хабарларни етказишда айрим ҳудудларда махсус аравалардан ҳам фойдаланилган. Хабар олиб кетаётган от қўшилган енгил аравалар тезлиги ҳам анча юқори бўлган. Бундай усулда хат-хабар етказиш махсус почта йўллари барпо этишни тақоза этарди. Туркистонда бундай почта йўллари Россия мустамлакачилиги даврида, яъни XIX аср охири XX аср бошларида қурила бошланган. Дастлаб Тошкент-Самарқанд почта йўли қурилган бўлса, XX аср бошларида Туркистон генерал-губернаторлиги ташаббуси билан, Бухоро амирлиги розилиги ва ёрдамида Самарқанд-Термиз почта йўли барпо этилган эди. Китоб, Шаҳрисабз, Ғузор ва Оқработ орқали ўтган бу почта йўли бўйлаб Амирлик ҳудудида 14 та почта бекати қурилган эди. Бу бекатлар оралиғи 15-25 верстни ташкил этган ва ҳар бир бекатда доимо захирада от-аравалар мавжуд бўлган. Почта бекатларида почта хизматчиларидан ташқари, вазият тақозо этганда, 0,5 рота рус қўшинлари ва казаклар взводини жойлаштириш мумкин бўлган. XX аср бошларида бир неча от қўшилган почта аравалари Самарқанд – Термиз почта йўли бўйлаб Термиздан Самарқандга шошилинч хабарларни 40 соатда етказиши шарт бўлган.

Хулоса сифатида шуни қайд этиш мумкинки, Шарқий Қашқадарёнинг тоғ ва тоғолди ҳудудлари орқали ўтган алоқа йўллари минтақа коммуникация тизимида муҳим ўрин тутган. Тоғ довонлари орқали ўтган йўллардан фойдаланиш, гарчи мавсумий характерга эга бўлсада, оғир юк отган карвонлар учун текислик ва дашт ҳудудлари орқали ўтган карвон йўллари каби қўлай бўлмасада, қадиги даврдан бошлаб ўз аҳамиятини сақлаб келди. Келгусида бу йўналишдаги тарихий-археологик тадқиқотларни давом эттириш фан учун зарур янги маълумотларни қўлга киритишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Akademiya, 2008. – Б. 63-64.

2. Массон В.М. Средняя Азии и Индия: 5000 лет культурных связей и творческого взаимодействия // Индия и Центральная Азия (доислмский период). – Ташкент: Б.и., 2000. – С. 114

3. Ўрта асрларда Уёж кечуви номи билан аталган бу кечувдан қадимги даврдан бошлаб кенг фойдаланилган. Бу хақда қаранг: Заҳриддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 53.

4. Жанубий Тожикистондан Зарафшон воҳасининг юқори оқимига ва Самарқандга ўтувчи тоғ йўллари маҳаллий аҳоли томонидан қадимдан ўзлаштирилган. Бу йўналиш XIX аср охирларида рус ҳарбийлари томонидан батафсил ўрганиб чиқилган. Бу ҳақда қаранг: Стеткевичъ. Описаніе пути отъ г. Самарканда къ г. Каратагу чрезъ перевалъ Мура 296 верстъ. 1889 г. // СМА. – СПб.: Военная типография, 1894. Вып. LVII. – С. 217-233.

5. Сагдуллаев А.С. К эволюции древнейших путей на юге Средней Азии // На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. Очерки истории и культуры. – Ташкент: Наука, 1990. – С. 8-9.

6. Ширинов Т.Ш. Связи Средней Азии и Индийского субконтинента во II тысячелетии до н. э. // Индия и Центральная Азия (доисламский период). – Тошкент, 2000. – С. 118.

7. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистан VII в до н.э. – VII в н.э. – Ташкент: Фан, 2000. – С. 73.

8. Узунқир ёдгорлиги ўрнидаги бу қадимги шаҳар мил. авв. VII-IV асрларда Суғдиёнанинг ички ва ташқи алоқаларида катта ўрин тутган. Узунқир ёдгорлиги ҳақида қаранг: Лушпенко О.Н. Крепость Узункыр – на трассе торговых путей // Формирование и развитие трасс Великого Шелкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье: Тезисы докладов международного семинара ЮНЕСКО. Самарканд, 1-6 октябрь. 1990 г. – Ташкент: Фан, 1990. – С.105-106. Шаҳар Александр Македонский истилоси туфайли вайрон этилгач, шаҳарсозлик маданияти ҳозирги Китоб шаҳри ўрнидаги янги шаҳарга кучган. Шу сабабли ҳам мил. авв. IV асрдан бошлаб бу йўналишдаги алоқа йўли бирмунча жанубга силжиб, ҳозирги йўналишга анча яқин бўлиб қолади. Узунқир ёдгорлиги ҳақида қаранг: Шаҳрисабз. Минг йилликлар мероси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Крашенинникова Н.И. Прошлое Китаба // Вехи времен. – Ташкент, 1989. – С. 27-33.

9. Сагдуллаев А.С. К эволюции древнейших путей на юге Средней Азии // На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. Очерки истории и культуры. – Ташкент: Наука, 1990. – С. 9.

10. Кеш-Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 1998; Шаҳрисабз. Минг йилликлар мероси. – Тошкент, Шарқ, 2002.

11. Зарафшон тоғининг жанубий ёнбағирларида, Макрид қишлоғи яқинида жойлашган бу ёдгорлик XX асрнинг 90-йилларида КАТЭ томонидан (А.Сагдуллаев раҳбарлигида) ўрганиб чиқилган. Муаллиф ҳам иштирок этган тадқиқотлар давомида Қўрғонтепанинг қуйи маданий қатламлари мил. авв. VI-IV асрларга оид эканлиги аниқланган.

12. Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII - XII вв. (стротиграфия и периодизация). – Ташкент: Фан, 1984. – С. 77; Ўша муаллиф. Культурные и торговые связи средневековых городов и поселений долины Кашкадарьи с сопредельными территориями // Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа. Древность и средневековье. – М.: Наука, 1990. – С. 101; Сагдулаев А.С. Древние поселения Кашкадарьи // Строительство и архитектура Узбекистана. – Ташкент, 1979. – № 7. – С. 35.

12. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Хуросон ва Мовароуннаҳр / Араб тилидан таржима, тадқиқот, изоҳ ва кўрсаткичлар муллифи Р. Т. Худайберганов. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 156.

13. Шарофуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент, 1997. – Б. 191. Шу даврдан бошлаб Самарқанддан Шаҳрисабзга ўтувчи тоғ йўли Тахтақарача довони номи билан атала бошланган.

14. Батафсил қаранг: Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (403-1406 йиллар) / Рус тилидан О.Тоғаев таржимаси. – Тошкент: «O'ZBEKISTON» NMIU, 2010; Руи Гонсалес де Клавихо. История Великого Тамерлана // Тамерлан. Эпоха. Личность. Деяния. – М.: Гураш, 1992. – С. 299-301.

15. Мавлонов У.М. Поздневековые транзитные дороги Кашкадарьинского оазиса // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 154-160.

QASHQADARYO VOHASINING ILK TEMIR DARVI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISH TARIXI

Xolmatov O.
O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
Toshkent shahar boshqarmasi

Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda mansub Baqtriya, Marg‘iyona va So‘g‘diyona yerlarida topib tekshirilgan arxeologiya yodgorliklarning o‘zi 350 tadir, qadimgi Xorazm yerlarida 200 dan ortiq ilk temir davri qishloq va shahar xarobalari topib tekshirilgan. Ular sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan aholi madaniyatidan dalolat beradi. Moddiy madaniy yodgorliklari O‘rta Osiyoda hunarmandchilik, qurilish va me’morchilik qay darajada taraqqiy qilganligini, xo‘jalik hayotining turli tomonlari, turmush va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishga imkon beradi. Topilgan arxeologiya yodgorliklar muhim tarixiy ahamiyatfa ega. Moddiy madaniyat manbalari orasida mehnat qurollari, kulolchilik buyumlari va turli xil idishlar, yarog‘ aslahalar va boshqa buyumlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ilk temir davri moddiy manbalari ishla chiqarish va iqtisodiy jarayonlarning rivojlanganligi to‘g‘risida aniq ravishda ma’lumot beradi[1,B.41-42].

Qashqadaryo vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy tarixiy geografik hududlaridan biridir. Vohaning boy tarixi ko‘plab tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Qashqadaryo viloyati ko‘p sonli arxeologiya va me’morchilik yodgorliklari, xalq hunarmandchiligi markazlari keng tarqalgan o‘lkadir.

O‘rta Osiyo, jumladan, Qashqadaryo vohasi tarixi va arxeologiyasini o‘rganishda 1895-yilda V.V.Bartold tomonidan tashkil etilgan Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi (TAHT)ning faoliyati katta ahamiyatga ega. Turkiston general-gubernatori A.N.Vrevskiy tomonidan ushbu to‘garak a’zolariga O‘rta Osiyoning qadimgi tarixini yorituvchi materiallarni to‘plash to‘g‘risida topshiriq berilgan. TAHT a’zolari va rus sharqshunos olimlarining O‘rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyati tarixi, xususan, xalq an’anaviy hunarmandchiligi tarixiga oid asarlari batafsilroq va nisbatan chuqurroq ilmiy yondapshlganligi bilan ajralib turadi. Ulardan L.A.Zimin, V.Balkov, V.LVyatkin, V.V.Bartoldni asardari mintaqa madaniy markazlari, jumladan, Qashqadaryo vohasining ilk temir yodgorliklarining o‘rganish tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1916-yildan boshlab TAHT a’zosi I.A.Kastanening vohadagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish yuzasidan faoliyati boshlandi. Shundan kelib chiqib, I.A.Kastane ilk bor antik davr manbalarida tilga olingan Nautaka zamonaviy Qarshi shahri yaqinida joylashganligini ta’kidlab o‘tdi. Shuningdek, to‘garakning yana bir a’zosi L.A.Zimin ham vohada bir qator izlanishlarni amalga oshirdi[2,B.195-196].

1925-yilda Shahrisabzga sharqshunos V.V.Bartold, arxeolog-sharqshunos V.L.Vyatkin, tarixchi-san’atshunos B.N.Denike, nemis san’atshunosi E.Kon-Vinerlar tashrif buyurishgan, 1926-yilda bu shaharga A.Y.Yakubovskiy ilmiy sifatga kelgan va olim tomonidan birinchi marta uning tarixiy topografiyasi tadqiq qilingan[3,B.99].

1948-yilda B.Y.Staviskiyning “Qadimgi Sug‘d tarixi va toponimikasiga oid masalalar” nomli moqolasi turli xil qarashlar va munozarali fikrlarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Maqaloda muallif Avestoda va undan keying yozma manbalarda tilga olingan qadimgi So‘g‘d hududi Qashqadaryo vohasida joylashgan degan fikrni keltiradi. B.Y.Staviskiyning maqolasi asosida Qashqadaryo keng miqyosda arxeologik kuzatuv va qazuv ishlari olib boriladi va bu Naxshabning o‘rnini aniqlashga muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vohasida olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijalari «Столичные города в низовьях Кашкадарьи с древнейших времён», «Города южного Согда в VIII—XII вв.», «O‘rta Osiyoning qadimgi davr va o‘rta asrlar arxeologiyasi» (to‘plam), «Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda», «Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi», B.J.Eshovning «Qadimgi So‘g‘diyona tarixi va madaniyati» (mil.avv.VII-IV asrlar) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi [4, B.611]. «Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar» (monografiya), «O‘rta Osiyo arxeologiyasi», «Shahrisabz ming yilliklar merosi» (yubiley albomi) kabi ilmiy va ilmiy ommabop asarlarda o‘z aksini topdi. O‘rta Osiyoning Ilk temir va antik davrga oid yodgorliklari qatori urbanistik markaziga ega bo‘lgan Yerqo‘rg‘on yodgorligi ilk bor L. I. Zimin, I. Kastanye, keyinchalik arxeologlar 1946-yilda A. I. Terenojkin, 1946-1972-yillarda S. K. Kabanov, 1959-1964 yillarda Ya. G‘ulomov, 1963-1964 yillarda M. Y. Masson tomonidan tekshirishlar olib borgan.

1973-yilda O‘zbekiston FA arxeologiya institutining R.H.Sulaymonov boshchiligigagi ekspeditsiyasi janubiy Sug‘dning antik davr shaharlari, jumladan Yerqo‘rg‘on yodgorligida ish boshlaydi. Shaharning kulollar, temirchilar mahallari ochib o‘rganildi. Ilk bor antik davr sopol idishlar ishlab chiqarish usullari arxeologik materiallar asosida tiklashga harakat qilinadi. Yerqo‘rg‘on xarobasining turar-joylari, sanoat, jamoat va mudofaa inshootlarida 15 dan ortiq qazishma ishlari olib borildi. Yerqo‘rg’on harobasi qal’a va shahristondan iborat bo‘lib, umumiy maydoni 150 ga, burjlar bilan mustahkamlangan 2 qator mudofaa devori bilan o‘ralgan. Ichki devori (balandligi 8 m gacha) beshburchak tarxli bo‘lib, taxminan 40 ga maydonni o‘ragan xandaq bo‘lgan. Unda qal’a, saroy majmuasi, ibodatxona, kulollar mahallasi, turar joylar va boshqa binolar joylashgan. Kulollar mahallasidan bir necha xona, ustaxona qazib ochilgan, uning tagidan eng qadimgi mudofaa devori qoldiqdari topiladi (miloddan avvalgi VIII-VII-asrlar). Ibodatxona sella (sajdagoh), bir necha kichik xona hamda ayvondan iborat bo‘lgan. Shahar ikkinchi qator devorlari ichidan daxma, maqbara, temirchilar mahallasi o‘rganilgan. Qazish vaqtida sopol idish (xum, xumcha, ho‘qacha, kosalar, tova, qozon, tog‘ora, qadah va b.), diniy marosimlarda ishlatiladigan asboblar, ma’budalarning sopol haykalchalari, Naxshab tangasi (III-VI-asrlar), sugd yozuvi namunalari, muxr nusxasi topilgan.Yerqo‘rg‘onda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari uning qadimgi So‘g‘d madaniyatini o‘rganishda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Qashqadaryo vohasi (Janubiy So‘g‘d) qadimgi shaharlarini o‘rganish masalalariga ham ko‘pgina aniqliklar kiritildi. Asrimizning 60-yillarida M.E.Masson Yerqo‘rg‘on ko‘hna shahrida tadqiqot ishlarini olib borib uning yirik ko‘hna shahar ekanligi, bir necha madaniy qatlamlar rivojlanish jarayonidan dalolat berishini ta’kidlasa ham, uning shakllanishi va rivojlanishi dastlabki bosqichdagi aniq sanasini bermagan. Keyingi tadqiqotlar esa Yerqo‘rg‘on ko‘hna shaharning shakllanishi va rivojlanishi, shaharsozlikning paydo bo‘lishi moddiy madaniyat va iqtisodiy tarixi xronologiya va davrlashtirish masalalariga ko‘pgina aniqliklar kiritish imkonini berdi[5,B.119].

1976-1979 - yillarda A.S. Sagdullayev tomonidan Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida o'tkazilgan arxeologik dala qidiruv tadqiqotlari ishlari Janubiy So‘g’dning ilk temir davri yodgorliklari soniga sezilarli ta’sir qilgan. Yangi yodgorliklar Yakkabog‘ tizmasi etaklaridan oqib

tushuvchi Qizildaryoning janubiy irmog'i sharqiy qismida joylashgan. Ushbu hududda A.S.Sagdullayev Ahamoniylar davriga oid ikki qadimiy madaniy va iqtisodiy mikrovoha hudud chegaralarini belgilaydi.

1981-yilda ToshDU O'rta Osiyo arxeologiya kafedrasi professor uqituchilari, Qashqadaryo arxeologik - topografik ekspedisiyasi (QATE) a'zolari tomonidan topib tekshirilgan. Uzunqir o'rnida mil. av. VIII-VII-asrlarda qadimgi manzilgoh bo'lgan. Mil. av. VII-VI-asrlarda 70 ga maydonni egallagan. Uzunqir Kitob— Shahrisabz vohasining iqtisodiy va ma'muriy markaziga aylangan. Uzunqirdan Taxtakaracha dovoni orqali qadimgi Samarqand (Marokanda)gacha bo'lgan masofa 70 km ni tashkil qilgan. Shahar Marokanda – Baqtra karvon yo'li bo'yida joylashib muhim savdo-sotiq va hunarmandchilik ahamiyatiga ega bo'lgan.

Olimlarning e'tirof etishlaricha, dadimgi boshqaruv tizimining bosqichlaridan iqtisodiy tizim bo'lib, bu tizimda ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim o'rin tutadi. Jumladan, dehqonchilik ishlarini, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo'jaliklarida yer va suvni taqsimlash qurilish va sug'orish-errigatsiya ishlarini yo'lga quyish qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik maxsulotlarini ishlab chiqarish, tavar ishlab chiqarishning turli bosqichlarida rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va nazorat qilish kabi ishlarni bajarish vazifalari ham paydo bo'lgan[6,B.141].

1981-1984-yillarda Uzunqirda yodgorligida dastlabki tadqiqotlar ishlari N. I. Krasheninnikova (P-1) tomonidan olib borilib, ahamoniylar va ilk antik davr qatlamlari kuzatilgan. Uzunqirda ikkita qurilish davri aniqlangan. Ushbu yodgorlikda shurf usuli amalga oshirildi hamda mudofaa devorini o'rganish borasida tadqiqotlar o'tkazilib, qalinligi 2,5 metrga teng bo'lgan qurilish qoldiqlari, yorg'uchoq, suyak qoldiqlari, sopol siniqlari, kul qatlamlari bo'lgan madaniy qatlam topilib, u milloddan avvalgi 1-ming yillik boshlari bilan sanalangan. Shurfdan olingan ma'lumotlar Uzunqir o'rnida ilk temir davri shahar markazi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Uzunqir yodgorligining katta qismi hozirgi vaqtda tekislanib ketgan va faqat janubiy-g'arbiy tomonidagi mudofaa devorlarining uzunligi 450 metrga teng bo'lgan qismi saqlanib qolgan xolos. N.I.Krasheninnikova tomonidan qazish ishlari o'tkazilgan joyda devor tashqi tomonining aniq tasviri ko'zga tashlanadi. Ushbu devor qismi bo'ylab Uzunqir mudofaa devoir janubiy qismini O.N.Lushnenko tomonidan o'rganish davom ettirildi.

1997-yilga kelib Shahrisabz shahar muzeyi xodimlari keyinchalik O'zFA Arxeologiya instituti xodimlai tomonidan N.I.Krashennikova va O.N.Lushnenko tomonidan qazishma ishlarini mantiqiy davom ettirib qal'a devorining uch davri va uning ta'mirlanishi kuzatiladi.

1986-1988 - yillarda A.S.Sagdullaev va O.N.Lushpenkolar turli vaqtlarda bir-biriga yaqin uchta devor aniqlangan. Devorlari ichki yo'lak galereyasidan iborat to'rtburchaklar burjlarr bilan o'ralgan. Devorning qurilishi miloddan avvalgi IX – VIII asrlarga to'g'ri keladi. Birinchisi, qalinligi 420 sm bo'lib, paxsa poydevor-platformasida o'rnatilgan. Devor ichki yo'lak galereyadan iborat bo'lib, yon tomonida to'rtburchak minoralar joylashtirilgan. Ushbu davrga oid yana bir yodgorlik Sangirtepada dastlabki arxeologik tadqiqot ishlarini N.I. Krasheninnikova, keyinchalik A.S. Sagdullaev va O.N. Lushpenkolar olib borishgan[7,B.11-13]. Yodgorlikda Toshkent davlat universiteti arxeologiya kafedrasi xodimlari ilk temir va ahamoniylar davrining ikkita qurilish bosqichini kuzatdilar. Keyinchalik O'zFA Arxeologiya instituti Qadimgi davr bo'lim xodimlari tomonidan 3-qazish ishlari amalga oshirilidi[8,B.150]. 1997 yilda xalqaro ekspeditsiyalar doirasida Kesh yodgorliklarida arxeologik qazuv ishlari davom ettiriladi. Kitob viloyatining shimoli-g'arbiy qismida 100 dan ortiq yangi arxeologik yodgorliklar ro'yxatga olinadi, Sangirtepada yodgorligida oltita qurilish davri aniqlanib ularda I va II bosqichlarini ahamoniylargacha bo'lgan davr bilan belgilanadi.

Sangirtepa yodgorligi Uzunqirdan 650 m janubda, Podoyataktepadan 1,5 km janubda joylashgan. Umumiy maydoni 3 gektar bo'lgan qadimiy manzilgoh. Balandligi taxminan 8 m bo'lgan markaziy tepalik (84x62 m) va to'rtburchak (200x180 m) shaklida o'rab turgan aylanma devordan iborat. Bu erda X-asrdan to miloddan avvalgi III-II asrlargacha mavjud bo'lgan janubiy So'g'ddagi eng qadimgi ibodatxona aniqlangan.

So'nggi yillarda Sangirtepada tadqiqot ishlarini davom ettirgan M.Xasanov xulosalariga ko'ra, Sangirtepada mil.avv. IX-VIII asrlardan V-IV asrlargacha bo'lgan Baqtriyadagi Kuchuktepa

uchala davri (I-II-III) sopol majmualari kuzatiladi. Shuningdek, bu yerda So‘g‘d hududlarida birinchi bo‘lib zardo‘shtiylik ibodatxonasining markaziy zali ochildi.

1997-yildan boshlab Qashqadaryo vohasining Sangirtepa, Uzunqir va Podayataktepa yodgorliklarida dastlab O‘zbekiston-Amerika, so‘ngra O‘zbekiston-Fransiya ekspeditsiylari (MAFUz of Sogdiana / MAFOuz de Sogdiane) arxeologik dala qazuv ishlarini amalga oshirdi. Natijada, Sangirtepaning markaziy qismida Sangir I-VI deb belgilangan oltita qurilish bosqichi aniqlanib, temir davridan antik davr va o‘rta asrlar boshigacha bo‘lgan davrlarni qamrab olgan. Sangirtepada So‘g‘d hududida birinchi marta VII – VI asrlarga oid zardushtiylar ibodatxonasini ham aniqlanadi.

O‘zbekiston-Fransiya ekspeditsiysi (MAFUz of Sogdiana / MAFOuz de Sogdiane) yodgorlikning ilk temir davri qatlamlaridan Janubiy So'g'd uchun birinchi marta radiouglerodli tahlil natijalari olishadi, bu Kesh vodiysi, balki butun So‘g‘d hududidagi joylar davriyligini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Hozirgi kunda Fanlar akadeniyasi, Yahyo G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya inistituti, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti arxeologiya kaferdrasining arxeolog olimlari tomonidan Qashqadaryo vohasidagi arxeologik yodgorliklardan 600 dan ortiq turli davrlarga mansub arxeologiya yodgorliklari o‘rganilib chiqildi va o‘rganilmoqda. Ular ichida Janubiy So‘g‘dning yirik shahar markazlari bo‘lgan Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, hamda qadimiy o‘troq dehqonchilik makonlari, qadimiy davr va o‘rta asr savdo yo‘llari, hunarmandchilik ustaxonalari, me’morchilik yodgorliklari, sinchiklab o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Сагдуллаев. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Т.: «Университет», 2004.

2.И.Хидиров. Сўғдда амалга оширилган археологик тадқиқотлар тарихшунослиги // ҚарДУ Хабарлари махсус сон. Қарши, 2022.

3.А.А.Раимкулов, Г.Х.Сиддиқова. Кеш-Шаҳрисабз ҳудудида шаҳарсозлик маданиятининг шаклланиши хусусида // Ўзбекистон археологияси, № 1(2). Самарқанд, 2011.

4.Холматов О. Таълим фидойиси//Таълим фидойилари, 4-сон, 2-жилд.2022.

5.Эшов Б. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Тошкент, “Fan va texnologiya”, 2008.

6.Эшов Б.Ж.Қадимги Ўрта сарлар даври Ўрта Осиёда давлат бошқаруви тизими ҳақида айрим мулоҳазалар// Марказий Осиё тарихи ва археологияси муаммолари. Самарқанд, 2018.

7. Сагдуллаев А. С. Древние пути на юге Узбекистана // ОНУ, №3. – Ташкент, 1981; Он же. К вопросу о второй столице Согдианы // СА, № 4. – М., 1988. С. 40–42; Лушпенко О. Н. К истории изучения поселений раннежелезного века долины Кашкадарьи // Древняя и средневековая археология Средней Азии. – Ташкент, 1990.

8. Хасанов М. Х., Рапен К., Даеппен М., Болиев Б., Кубаев С. Ш., Раджабов А. О работах на городище Сангиртепа в 2012 году // АИ, вып. 9. – Самарканд, 2013.

СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ

Сулайманова С. Қарши давлат университети (PhD) доцент

АННОТАЦИЯ

Суғд воҳасида илк ўрта асрларга келиб ҳар бир ҳукмдорликнинг ўз тангасини зарб этиш кенг ёйила бошлангани кўзга ташланади. Бу даврга келганда олдинги босқич тангаларидан фарқли ҳолда тангаларнинг турлари кўпайиб, деярли ҳар бир ҳукмдорлик ўз сулолавий тамғалари, ҳукмдор боши тасвири, унвон, бостирилган жой (ҳукмдорлик) номини (Масалан, Кеш, Панч каби) тангаларда ифодалай бошлайдилар. Шунингдек, Турк хоқонлиги даврида воҳа бошқарувидаги ўзгаришлар тангаларда ҳам акс этиб, зарб анъаналарида ўзгаришлар бўлишига туртки бўлади.

Калит сўзлар: Суғд, Ғарбий Турк хоқонлиги, Самарқанд, Кеш, Нақшаб, Панч, тамға, унвон, турк-суғд тангалари, хоқон, тудун, тутуқ, хотун, билга турк-рун ва суғд ёзуви

АННОТАЦИЯ

В Согдийском оазисе заметно, что к началу средневековья стала широко распространяться чеканка монеты каждого правителя. В этот период, в отличие от монет предыдущего этапа, типы монет увеличились, и почти на каждом правителе стали изображаться свои династические печати, изображение головы правителя, титул, название места (например, Кеш, Панч) на монетах. Также на монетах отразились изменения в управлении оазисом в период Тюркского каганата, что повлекло за собой изменения в традициях чеканки.

Ключевые слова: Согд, Западно-Тюркское каганат, Самарканд, Кеш, Накшаб, Панч, штамп, титул, тюрко-согдийские монеты, каган, тудун, тутук, хатун, билга, тюрко-рунная и согдийская письменность

ANNOTATION

In the Sughd oasis, it is noticeable that by the beginning of the Middle Ages, the minting of each ruler's own coin began to spread widely. During this period, unlike the coins of the previous phase, the types of coins increased, and almost every ruler began to express their dynastic seals, the image of the head of the ruler, the title, the name of the suppressed place (rulership) (for example, Kesh, Panch) on the coins. Also, the changes in the management of the oasis during the period of the Turkish khanate were reflected in the coins, which prompted changes in the minting traditions.

Keywords: Sughd, Western Turkic Khanate, Samarkand, Kesh, Naqshab, Panch, stamp, title, Turko-Sughd coins, khagan, tudun, tutuk, khatun, bilga Turko-rune and Sughd script

Илк ўрта асрларда, айниқса, Турк хоқонлиги даврида Суғд воҳасида ўзига хос танга-пул тизими мавжуд бўлиб, бу воҳадаги катта-кичик ҳукмдорликлардан деярли барчасининг ўз танга зарбига эга бўлганида ўз ифодасини топади. Хусусан, Самарқанд, Кеш, Нахшаб ва Панч ҳукмдорликлари ўз тангаларини бостирганликлари, уларнинг катта бир қисми эса хоқонлик билан у ёки бу даражада алоқадор тангалар эканлиги маълум.

Милоддан олдинги сўнгги асрлардаёқ ўз танга-пул тизимига эга бўлган Суғд воҳасида илк ўрта асрларга келиб ҳар бир ҳукмдорликнинг ўз тангасини зарб этиш кенг ёйила бошлангани кўзга ташланади. Бу даврга келганда олдинги босқич тангаларидан фарқли ҳолда тангаларнинг турлари кўпайиб, деярли ҳар бир ҳукмдорлик ўз сулолавий тамғалари, ҳукмдор боши тасвири, унвон, бостирилган жой (ҳукмдорлик) номини (Масалан, Кеш, Панч каби) тангаларда ифодалай бошлайдилар. Шунингдек, Турк хоқонлиги даврида воҳа бошқарувидаги ўзгаришлар тангаларда ҳам акс этиб, зарб анъаналарида ўзгаришлар бўлишига туртки бўлади. Воҳанинг суғдий ҳукмдорлари томонидан анъанавий равишда зарб этилган тангалари сафига туркий анъаналарнинг кириб келиши танга-пул тизимида ўз таъсирини кўрсатади. Шу туфайли тадқиқотчилар бу давр Ўрта Осиё тангаларининг сезиларли бир қисми учун “Қадимги турк тангалари гуруҳи” иборасини ишлатадилар.

XIX асрнинг охири – XX аср бошларига келиб дунё тарихшунослигида “турк-суғд тангалари”, “суғдий ёзувли қадимги турк тангалари” иборалари қўлланила бошлаб, бу борада изланиш олиб борган илк тадқиқотчилар асосан тангаларнинг иконографияси ва тамғаларига таяниб шундай иборани қўллаб келишган[1]. Кейинчалик Амударё ва Сирдарё оралиғи ва Еттисувдан топилган айрим тангалардаги суғдий ёзув “хоқон” деб ўқилгач, “Қадимги турк тангалари” тушунчаси янада аниқроқ ифода этила бошлаган. 1940- йилларда суғдшунос О.И. Смирнова, археолог олимлар, М.Е. Массон, А.Н. Бернштам Самарқанд, Чоч, Фарғона, Еттисув ҳудудларидаги тангаларнинг бир гуруҳининг иконографияси ва унвонлари қадимги туркларга хос эканини аниқлашгач, бу тушунчанинг кўлами янада кенгайган[2].

Айтиб ўтилган тарихий вилоятларнинг бир қисмида “хоқон” унвонли қадимги турк тангалари зарб этилганини аниқлаган О.И. Смирнова Чоч тангаларидан бир гуруҳида “тудун” унвонини ўқиб, илм оламига танитди[3]. Шунингдек, тадқиқотчи Ўтрор ёки Фарғонада зарб этилган тангада “тутуқ” унвони учрашини аниқлади. Ушбу тадқиқотчининг Суғд тангалари орасида қадимги туркларга хос қиёфали ҳукмдор ва малика тасвирли тангаларда “хотун” унвони ва турк-рун ёзувини эслатувчи белги (тамға ёки ҳарф) учрашини аниқлаши ҳам катта янгилик бўлди[4].

Кейинчалик эса В.А. Лившиц Панч тангаларидан бирида “билга” унвонини ўқиб, “Қадимги турк тангалари гуруҳи”га кирувчи тангалар турининг анча кенг эканини аниқлади[5]. Кўп йиллар давомида илк ўрта асрлардаги Нахшаб тарихи бўйича шуғулланган Б. Кочнев Қашқадарё воҳасида кўп учрайдиган тангаларнинг иконорафиясига таяниб, ушбу тангаларни бу гуруҳга киритди[6].

Панч тангалари

Қадимги турк тангалари орасида Панч тангаларининг алоҳида ўрни бор. Суғднинг ўз даврида мавқеи юқори ҳукмдорликларидан бири бўлган Панч (Панжикент)да VII аср ўрталаридан бошлаб танга зарб қилингани маълум[7]. Панч тангаларининг хоқонликка

алоқадорлиги шундаки, уларда бир томондан туркий унвон ва эпитет (сифат) учраса, иккинчи томондан сулолавий белгилар–тамғаларда ўхшашлик борлигидир. Панч ҳукмдорлигининг илк тангаси деб ҳисобланувчи ўртаси тўртбурчак тешикли хитой тақлиди бўлган тангада *pncy MR'Y cm'wky'n* "Панч ҳукмдори Чамукйан" жумлалари ўрин олган бўлиб[8] , танганинг орқа томонида эса , шаклли тамғалар мавжуд.

Ғ. Бобоёровнинг фикрича, Панч тангаларидаги тамғалар Чочда зарб қилинган Ғарбий Турк хоқонлиги тангаларига хос тамғалар билан яқин ўхшашликка эга. Жумладан, ўқ шаклли биринчи тамға Тарду хоқон (576603) тангасидаги ( ) тамғага яқин келса, иккинчи тамға *βγy twwn x'γ'n* "Илоҳий Туун хоқон" жумлали Чоч тангасидаги шаклли тамғага анчагина мос келади[9] (*таққосланг.* - / ; / –). Тадқиқотчининг ёзишича, тамғалардаги бундай ўхшашликлар ушбу сулолалар орасида қандайдир боғлиқлик бор эмасмикин, деган ҳақли саволни келтириб чиқаради. Панчнинг бундан кейинги тангаларида эса юқоридаги ( ) тамғага ўхшаш тамғалар (,) учраб, уларда *pncy MR'Y βylk'' γwβ* «Панч ҳукмдори подшо Билга» жумлалари акс этган[10]. Тадқиқотчилар тангадаги Билга исми билан Муғ тоғи суғдий ҳужжатларида 693708 йилларда Панчни бошқарган ҳукмдор сифатида қайд этилган *ck'yn cwr βylk*'' (Чакин Чур Билга)ни тенглаштирадилар[11].

Бир қатор тадқиқотчиларга кўра, ушбу ҳукмдорнинг келиб чиқиши туркий бўлиб, у Девештичдан олдин Панчни бошқарган[12]. Унинг ўрнига ўтирган суғдий ҳукмдор Девештич (709-722) номидан танга зарб этилгани шу пайтгача маълум эмас[13]. Билгадан кейин зарб қилинган Панч тангаларида *pncy nnδβnpnwh* "Панч қироличаси Нана" жумлалари учраб, суғдшунослар бу ҳолатни "танга Билганинг қизи номидан зарб қилинган, Девештич ҳукмдорлар хонадонидан бўлмагани учун ўз аёли номини акс эттирган", деб ҳисоблайдилар[14]. Арабча манбаларнинг бирида келтирилган Девештич шажарасида унинг аждодларидан бир нечасининг исми Шур бўлгани қайд этилиб, В.А. Лившицнинг фикрича, ушбу исм аслида туркий *чур* унвонига алоқадор бўлиб, Девештичнинг Чакин Чур Билгага куёв бўлиши билан боғлиқдир[15].

Шунингдек, Суғд воҳасида зарб этилган, бироқ айнан қайси ҳукмдорликка тегишлилиги тўлақонли аниқланмаган "хотун" унвонли кўринишдаги тамғали тангалар ҳам учраб, уларнинг Самарқанд, Кабудон ёки Панчда зарб қилингани тахмин қилинади[16]. Ушбу тангалардаги хукмдор ва малика тасвири қадимги туркларга хос бўлиб, Чоч, Фарғона, Самарқанд, Чағониён, Ўтрор ва Бухоронинг шунга ўхшаш қўшалоқ тасвирли қадимги турк тангаларига анча яқин келади[17].

Қисқаси, ҳам нумизматик материаллар, ҳам ёзма манбалар VII аср иккинчи ярми – VIII аср биринчи чорагида Панч ҳукмдорлигини туркий-суғдий қоришиқ сулола бошқарганини кўрсатиб турибди.

Хуллас, хоқонлик даврида Суғд воҳасининг бошқарув тизимида юз берган ўзгаришлар бу ердаги воҳа ҳукмдорликларга тегишли тангаларда ҳам ўз аксини топади. Воҳанинг йирик ҳукмдорликлари – Самарқанд, Панч ва Нахшабнинг танга-пул тизимида суғдий ва қадимги туркий анъаналар ўзаро синтезлашгани сезилади. Айниқса, Самарқанд тангаларида "хоқон" унвони ўрин олиши бир томондан бу ернинг хоқонлик билан чуқур сиёсий муносабат ўрнатганининг ифодаси бўлса, иккинчи томондан бошқа ҳукмдорликларга нисбатан Самарқанданинг сиёсий мавқеи юқори бўлганидан дарак беради. VII асрнинг иккинчи ярмига келиб Панч ҳукмдорлигининг сиёсий мавқеи ошгани нафақат ёзма манбаларда, балки танга-пул тизимида ҳам ўз аксини топади. Суғдда хоқонлик ҳокимияти ўрнатилган дастлабки йиллардаёқ Нахшабда сулола алмашинуви юз берган бўлиб, бу ҳолат ушбу ҳукмдорлик тангалари орқали ҳам ўз ифодасига эга.

Фойдаланилган адабиётлар

[1] Tiesenhausen W. Notice sur une Collection de monnaies orientales de M. le Comte S. Stroganoff. St.-Pbg., 1880; Droin E. Les Monnaies Touraniens // RN, t. IX. – Paris, 1891. – P. 215-225; Fuye de la A. Monnaies in certaines de la Sogdianeet des contresvoisines // RN, 4-me serie, 14. – Paris, 1910.

[2] Массон М. Е. К вопросу о взаимоотношениях Византии и Средней Азии по данным нумизматики // Труды САГУ. – Т., 1951. Вып. 23. – С. 91–104; Бернштам А.Н. Тюргешские монеты // ТОВЭ, т. II. – Л., 1940. – С. 105-111; Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет согдийских монет. Бронза. – М., 1981. – С. 5; Баратова Л.С. К исторической интерпретации титула «каган» на древнетюркских монетах Средней Азии конца VII – первой половины VIII вв. // Нумизматика Центральной Азии. – Ташкент, 1998. – Вып. III. – С. 41–43.

[3] Смирнова О.И. Очерки из истории Согда ... – С. 184.

[4] Смирнова О.И. Очерки из истории Согда ... С. 275-281; О.И. Смирнова. Сводный каталог согдийских монет ... – С. 423-428.

[5] Лившиц В.А. Правители Панча (Согдийцы и тюрки) // НАА, №4, 1979. – С. 57-58.

[6] Кабанов С. К. Нахшебские монеты V – VI вв. // ВДИ, 1961, №1. – С. 137-145.

[7] Смирнова О.И. Сводний каталог согдийских монет ... – С. 15.

[8] Лившиц В.А. Правители Панча (Согдийцы и тюрки) // НАА, №4, 1979. – С. 57-58; Stark S. Die Alttürkenzeit in Mittel- und Zentralasien. Archäologische und historische Studien. – Wiesbaden, 2008. – S. 232-236.

[9] Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса … - С. 34-35; Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар ... – Б. 3436.

[10] Лившиц В.А. Правители Панча (Согдийцы и тюрки) // НАА, №4, 1979. – С. 57-58.

[11] Лившиц В.А. Правители Панча (Согдийцы и тюрки) ..., – С. 57-58; Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар ... – Б. 3436.

[12] Отахўжаев А. Суғд шаҳрининг турк ҳокими // Шарқшунослик,ТДШИ, №2, 2001. – Б. 40-42.

[13] G‘oyibov B. Sug‘diy hukmdorlar shajarasi xususida (Panch misolida) // Ilmiy axborotnoma. Научный вестник.– Samarqand, 2014. – №2 (84). – Б. 11-15.

[14] Бобоёров Ғ. Илк ўрта асрлар тангаларида Ўзбекистон ҳудудидаги давлатчиликка доир маълумотлар ... – Б. 3436.

[15] Лившиц В.А. Правители Панча ... С. 66-67.

[16] Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о монетах Согда с титулом «хатун» ... С. 106-107.

[17] Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о некоторых доисламских монетах Отрара // Проблемы изучения нематериального культурного наследия народов Казахстана и Центральной Азии: топонимика, эпиграфика, искусство. Сб. мат-лов межд.науч. конф. Алматы: Издательство EVO PRESS, 2014. С. 183 – 194.

QADIMGI BAQTRIYA KAVIYLIGIDA OT: HOKIMIYAT VA E’TIQOD RAMZI

Ikromov N.M.

Termiz davlat universiteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasi dotsenti.

Fayziyev A.A.

Termiz davlat universiteti O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasi o‘qituvchisi, tayanch doktorant.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Baqtriya kaviyligida otning hokimiyat va e’tiqod ramzi sifatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada otning davlat boshqaruvi, harbiy kuch, diniy e’tiqod va ijtimoiy mavqe timsoli sifatida qanday ahamiyat kasb etgani arxeologik va yozma manbalar asosida yoritiladi. Surxondaryo viloyatidagi topilmalar, jumladan, yassi va dumaloq shakldagi bullalar, otning hukmdorlik va ilohiylik bilan bog‘liqligini tasdiqlovchi dalil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Baqtriya hukmdorlarining ot bilan bog‘liq siyosiy va diniy ramzlari, Zardusht dini ta’siri ostida otning ilohiylashtirilishi ham tahlil qilinadi. Maqola Baqtriya jamiyatida otning nafaqat jangovar vosita, balki diniy va ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ham chuqur o‘rin tutganligini ko‘rsatadi.

Kalit so`zlar: Qadimgi Baqtriya, kaviylik, ot, hokimiyat ramzi, diniy e’tiqod, arxeologik topilmalar, harbiy kuch, ijtimoiy mavqe, bulla.

Qadimgi Baqtriya Kaviyligi Markaziy Osiyoda joylashgan eng qadimiy va kuchli davlatlardan biri bo‘lib, uning tarixi miloddan avvalgi I ming yillikka borib taqaladi. Daryo vodiysi va tog‘lar orasida joylashgan Baqtriya hududi strategik jihatdan muhim bo‘lib, qadimgi savdo yo‘llari, jumladan, mashhur Ipak Yo‘lining muhim qismi sifatida rivojlangan. Bu hudud dastlab, mustaqil podshohlik sifatida faoliyat yuritgan bo`lib, so‘ngra Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Baqtriyaning harbiy salohiyati, madaniyati, savdo aloqalari va diniy e’tiqodlari uning hududiy qudratini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Baqtriya jamiyatida ot nafaqat amaliy transport vositasi bo‘lib qolmasdan, balki davlat boshqaruvi, harbiy strategiya, diniy e’tiqod va ijtimoiy mavqening muhim timsoli sifatida markaziy o‘rin tutgan.

Ushbu maqola mavzusini mazmunan yoritishda bir qator manba va manbaviy ahamiyatga ega bo‘lgan adabiyotlar, jumladan zardushtiylik dinining asosiy kitobi bo‘lgan «Avesta», Behustun yozuvlari, Gerodot asarlari Arrian, shuningdek A.A. Asqarov, V.I. Sarianidi, E.V. Rtveladze, A.S. Sagdullayev, Sh.B. Shaydullaev kabi bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning asarlaridan keng foydalanib yoritishga harakat qildik. Mavzuni yoritishda metodologik nuqtai-nazardan qiyosiy tahlil, xronologik izchillik tamoyillari, xolislik, tarixiylik, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Qadimgi Baqtriya davlatida hukmdorlari o‘zining asosiy harbiy kuchi sifatida otli askarlarga tayanishgan. Otli qo‘shinlar yordamida podshohlar markaziy hokimiyatni mustahkamlash, chegara hududlarini nazorat qilish, soliqlarni yig‘ish hamda isyonlarni bostirishda tezkorlikka erishganlar. Baqtriya hukmdorlari ko‘pincha o‘zlarini ot bilan yoki ot shaklidagi ramzlar orqali ifodalashgan. Bu ularning jangovar ruhda, harbiy kuchga asoslangan siyosiy qudratini ko‘rsatgan. Misol uchun, Surxondaryo viloyatidagi Jonchekka qishlog‘i hududidan topilgan miloddan avvalgi I asrga oid bullada uchayotgan ilohiy hukmdor tasviri, oyoqlari bilan ot oyoqlarini eslatadigan belgilar bilan ifodalangan. Bosh sahnada ifodalangan odamning uzun va baquvvat oyoqlari chalkashtirilgan holatda ifodalangan va bevosita uchqur otning oyoqlarini eslatadi. Baqtriyalik musavvir uchayotgan odamga “uchqur ot”oyoqlarini chizganva tasvirlanayotgan odamga yanada ilohiylik ma’nosini bera olgan.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, samoda chizilgan odamning uzun xalati orqali ushbu bullaning yasalgan davrini aniqlash mumkin. Negaki, u kiyinishi va ko‘rinishi bo‘yicha Persepol shahri harobalarida ifodalangan, qadimgi fors hukmdorlariga sovg‘alar va soliqlar tortiq qilayotgan baqtriyaliklarning kiyimlariga aynan o‘xshaydi.

Otning siyosiy ramz sifatida ishlatilishi Baqtriya hukmdorlarining boshqaruvdagi kuchi va din bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Ularning ismlarida ham “asp” (ot) so‘zining qo‘shilishi, masalan, Kaviy Arvatasp, Kaviy Vishtasp kabi, otning hukmdorlik va ilohiy kuch ramzi ekanligini tasdiqlaydi.

2010 yilda Surxondaryo viloyati Jonchekka qishlog‘i hududidan topilgan bullada ilohiy hukmdor va ot ramzining uyg‘unlashuvi yaqqol ko‘rinadi. Bulla loydan yasalgan bo‘lib, uning yuzasida uchuvchi odamlar, taxtiravon va ko‘knori o‘simligi tasvirlangan. Ilohiy odam tasviri oyoqlari uchqur ot oyoqlariga o‘xshatilgan bo‘lib, bu ramziy ma’noga ega.

Bundan tashqari, Baqtriya hududidan topilgan ko‘plab keramika va haykaltaroshlik asarlarda ham ot tasvirlari ko‘p uchraydi. Bu, otning nafaqat harbiy va siyosiy, balki diniy ahamiyatga ham ega ekanligini isbotlaydi.

Baqtriya hukmdorlari diniy rahnamolar sifatida ham tanilgan. Kaviy Vishtasp Zardusht ta’limotini qabul qilgan birinchi hukmdor bo‘lib, uning targ‘ibotchisi sifatida katta xizmat qilgan. Zardusht dini ta’sirida ot ilohiylashtirilgan hayvon sifatida qadrlangan.

Diniy marosimlarda va siyosiy ramzlarda ot qudrat, tozalik, himoya va quyosh ramzi sifatida namoyon bo‘lgan. Baqtriya va unga qo‘shni hududlarda ot marosimlarda muqaddas hayvon sifatida qabul qilingan.

Shuningdek, ko‘chmanchi xalqlar orasida ot ustida jang qilish yuqori harbiy malaka va ijtimoiy mavqe belgisi bo‘lgan. Otli askarlar Baqtriya va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining qudratini belgilovchi asosiy omil bo‘lgan.

Baqtriyalik zotdor otlar Dovon (Qadimgi Farg‘ona) vodiysining mashhur samoviy otlari kabi o`z davrida shuhrat qozonib ulug`langanligini hamda hokimiyat va kuch ramzi ekanligini isboti bo`ladi. Qadimgi baqtriyaliklar Lazurit yo`li orqali qadimgi Misr, Mesopotamiya, Ossuriya va Eron kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borgan bo`lib, bu savdo munosabatlarida otning ham o`ni beqiyos bo`lgan desak mubolog`a bo`lmaydi. Bu otlar savdosi ham Baqtriyaning iqtisodiy va madaniy aloqalarini kengaytirgan.

Xitoy, Eron va Rim imperiyalarida ham ot hukmdorlik va zodagonlik timsoli sifatida qadrlandi. Baqtriyada ham hukmdorlarning yaxshi zotdor otlarga egaligi ularning boyligi va qudratini ko‘rsatgan. Ba’zan otlar diplomatik sovg‘a sifatida yuborilib, davlatlar o‘rtasida ittifoqlarni mustahkamlash vositasi bo‘lgan.

Qadimgi Baqtriyada ot davlat boshqaruvi, harbiy kuch, diniy e’tiqod va ijtimoiy mavqening markaziy timsoli sifatida chuqur o‘rin egallagan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar otning Baqtriya jamiyatidagi ko‘p qirrali ahamiyatini tasdiqlaydi. Ot nafaqat harbiy va siyosiy qudrat ramzi, balki diniy va madaniy hayotda ham muqaddas, ilohiylashtirilgan hayvon sifatida qadrlangan.

Baqtriyada otning o‘rni boshqa qadimgi Markaziy Osiyo va Eron sivilizatsiyalari bilan o‘xshashliklar ko‘rsatib, bu hududdagi ot madaniyatining umumiy xususiyatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, Baqtriya otga bo‘lgan munosabat orqali davlat boshqaruvi va diniy qarashlarning mustahkam bog‘liqligini namoyish etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Авеста», Видевдат, 8.
2. Струве В.В. Этюды по истории Северного Причерноморья, Кавказа и Средней Азии. - Л., 1968. – 142 с.
3. Геродот. История в девяти книгах. I, 153. (пер. Г.А. Страновского). - Л., 1972. – 501 с.
4. Арриан. Anab. VI, 24
5. Walser G. Persepolis. - Tubingen, 1980. - P. 231.
6. Лившиц В.А. Общество Авесты // История таджикского народа. Т.1. М., 1963. - С. 147.
7. Икромов Н.М. Қадимги Бақтрия Кавийлиги. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олишучун ёзилган диссертация. Термиз. 2020. – 141 б.

ШАРҚИЙ ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИДАГИ МОДДИЙ-МАДАНИЙ МЕРОСНИ САҚЛАШ ВА ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ МУАММО ВА КАМЧИЛИКЛАР.

Мамадиев Б.
Қашқадарё вилояти
тарихи ва маданияти давлат музейи,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

Бобожонов Б.
Шаҳрисабз Давлат Педагогика Институти

Ўзбекистоннинг қадимий ва бой тарихи, жаҳон цивилизациясига қўшган ҳиссаси, маданий меросни асраш ҳамда туризмнинг турли йўналишларини ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. XXI аср бошларида дунёда рўй бераётган ижтимоий ўзгаришлар жамиятнинг меросга бўлган муносабатини ўзгартирди. Халқимиз тарихи ва маданиятига қарашлар қайта баҳоланади. Маданий мерос миллий бойлик, барқарор ривожланиш кафолати сифатида қабул қилинди. Замонавий шароитда мерос замонавий жамиятнинг кўплаб жабҳаларининг ҳаётийлигини белгилайдиган асосий тушунчага айланиб бормоқда. Бу жараёнда халқимизнинг маънавий қадриятлари негизи бўлган моддий-маданий мерос катта аҳамиятга эга.

Мамлакатимизда халқимизнинг тарих ва маданиятга, миллий анъаналарга қизиқиши ортиб бормоқда. Тарихий ўтмишни тадқиқ этиш, аждодларимиз тарихи сирларини ўрганиш имконини берувчи ўзига хос археологик ёдгорликлар, меъморий обидалар ва музейларда сақланаётган археологик топилмалар мазкур соҳага оид давлат сиёсатини юритишда алоҳида аҳамият касб этади. Ўзбекистон халқларининг қадимги моддий-маданиятига тегишли барча жабҳалар-меъморчилик тарихи, кўҳна яшаш маконларининг лойиҳаси, топографияси хусусиятлари, ҳунармандчилик, санъат, нумизматика ,антропология, ирригация, маълум тарихий даврининг маънавий, мафкуравий ҳаёт масалаларининг барчаси моддий-маданий меросни сақлаш ва тадқиқ этиш билан чамбарчас боғликдир.

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, аждодларимиздан қолган тарихий-меъморий обидаларга бўлган эътибор тубдан ўзгариб, қадимий ёдгорликлар давлат муҳофазасига олинди. Истиқлол йилларида Бухоро, Самарқанд, Хива, Қарши, Шаҳрисабз, Термиз каби кўҳна шаҳарларда улуғ аждодларимизнинг юксак истеъдоди билан бунёд этилган обидалар ўзининг ҳақиқий қадр-қимматини топди, уларни қайта тиклаш ва таъмирлаш ва муҳофаза қилиш орқали асл қиёфасинисақлаб қолиш ва келажак авлодларга етказиш давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Янги тараққиёт шароитида Ўзбекистон Республикаси Президенти таъкидлаганидек, “Тарихий меросни асраб-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир”[1]. Дарҳақиқат, бу муҳим йўналиш давлат сиёсати даражасида янги вазифа сифатида белгиланди. География жиҳатдан ҳозирги Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги тарихий-маданий минтақалар – Хоразм, Сўғд, Бақтрия ва Фарғона ўлкаларида қадимдан пайдо бўлган шаҳарсозлик маданиятининг юртимизда кечган тарихий жараёнларга таъсири, бу ҳудудда минг йиллар давомида яшаб келган аждодларимизнинг маданий ҳаёти ривожига қўшган ҳиссасини, қадимдан то замонавий давргача бўлган урбанизация жараёнлари тарихини холисона ўрганиш объектив заруратга айланмоқда [2].

Жаҳондаги ҳудудларнинг ўсиши, шаҳарларни режалаштириш ва ривожлантириш, жамоат, диний, ҳунармандчилик ва турар-жой биноларини жойлаштириш табиий шароитлар – табиий топография, релъеф элементлари, шунингдек, мамлакатнинг сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари билан боғлиқ жараёнларни ўрганиш борасида Россия, АҚШ, Германия, Франция каби кўплаб йирик давлатларнинг етакчи илмий тадқиқот марказларида кўплаб илмий изланишлар олиб борилмоқда.

Бугунги кунда Ўзбекистонда 7,3 мингдан зиёд маданий мерос объектлари мавжуд. Ўзбекистон кўплаб маданиятлар ва цилизацияларнинг кесилиш маркази бўлиб келган, бу ерда турли динлар тарғиб қилинган, шу боисдан ҳам ислом, ҳам буддизм ва христиан динларига тегишли ноёб ёдгорликлар сақланиб қолган. Қашқадарё вилоятининг моддий маданий меросининг кўчмас мулк объектлари миллий руйхатида 1468 та маданий мерос объектлари рўйхатга олинган бўлиб, шундан, 1189 таси археология ёдгорликлари, 208 таси архитектура, 43 таси монументал санъат ёдгорликлари, 28 таси диққатга сазовор жойлар (зиёратгоҳлар) сифатида хатловдан ўтказилган[3].

Қадимги шаҳарларнинг тарихий топографияси ва географиясини ўрганиш, қадимий меъморий ҳамда археологик ёдгорликларимизни сақлаш тарих фанининг бир қисмидир. Унинг асосий мазмуни режалаштириш ва қурилишни, ҳаётий марказларнинг жойлашишини, мудофаа тизимини тузилмалари, асосий аҳоли гуруҳларининг жойлашуви ва шаҳарнинг маълум бир даврга нисбатан ўсишини ўрганиш билан боғлиқ. Бу элементларнинг барчаси бир томондан, тарихий жараённинг умумий қонуниятлари билан, иккинчи томондан, шаҳарнинг иқтисодий, сиёсий ва маданий ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари билан билан белгиланади. Топографик маълумотлар қадимги шаҳарларнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши, уларнинг ижтимоий-иқтисодий тузилишини ўрганиш, давлатнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги иштироки билан боғлиқ янада мураккаб муаммоларни ҳал қилишда ўз долзарблигини сақлаб қолмоқда[4] .

Турли даврларга оид ёдгорликларнинг тадқиқ этилиши натижасида муҳим тарихий-маданийжараёнлар қайта тикланган, давлатчилик ва цивилизациялар тараққиёти, архитектура, бадиий маданият намуналари, маънавий қадриятлар ўрганилиб, Ўзбекистон тарихи долзарб илмий маълумотлар билан бойитилган.

Бироқ, илгари йиллар мобайнида аниқланган, тадқиқ этилган ва ҳисобга олинган археологик ёдгорликларнинг кўплари бугунги кунгача сақлаб қолинмаган. Бунинг сабаби шуки, айниқса, ўтган асрнинг 60-80 йилларида дашт ва чўли ерларнинг кенг миқёсда ўзлаштирилиши, янги ирригация тизими ва аҳоли турар жойларнинг бунёд этилиши ҳамда турлича бошқа хўжалик-қурилиш ишлари оқибатида, Жанубий Ўзбекистонда бир талай ёдгорликлар бутунлай шудгор қилинган ва бошқаларига эса катта зарар келтирилган.

Мисол тариқасида, Қарши воҳасининг энг қадимги йирик шаҳар маркази – Ерқўрғон ҳудудидан темир йўл ва автотранспорт йўли ўтган, Шаҳрисабз – Китоб воҳасида, мил.авв VIII – IV асрларга оид, майдони 70 гектардан иборат Узунқир шаҳри ҳудудидан токзор ва бошқа экинлар далалари сифатида кўп йиллар мобайнида фойдаланилган. Ҳалқимизнинг бой моддий – маданий меросини асраш, меъморий ва тарихий ёдгорликларга муносабат мавзусига доир яқиндаги ўтмишдан талайгина салбий мисоллар келтириш мумкин. Шунингдек, ҳозирги даврда ҳам назоратсиз олиб борилаётган ҳўжалик ва қурилиш ишлари таъсирида археологик мерос объектларига зиён келтириш жараёни турли кўринишда намоён бўлмоқда.

Шу ўринда, Шарқий Қашқадарё воҳасидаги қадимий Кешнинг тарихий географияси ва унинг воҳа шаҳарсозлик маданиятига таъсири, унда кечган сиёсий-ижтимоий, (табиий, маданий, демографик) жараёнларнинг шаҳарсозлик анъаналарининг шаклланиши ва тараққиётига таъсири, воҳанинг марказий шаҳри ва бошқа шаҳарларнинг шаклланишидаги омиллар ҳамда янги топилган антик шаҳар ёдгорликлари Марказий Осиё халқлари тарихини ўрганишда алоҳида аҳамият касб этади.

Бундан ташқари, илк ва ривожланган ўрта асрларда Кеш шаҳрининг тарихий топография фияси, шаҳарларнинг географик ўрни, шаҳарсозликдаги қурилиш ҳамда меъморчилик анъаналари, Чиғатой улуси, Амир Темур ва темурийлар давридаги Кешнинг тарихий топографияси, XVI-XX аср бошларида Кеш (Шаҳрисабз) шаҳрининг тарихий маҳаллалар (гузарлар), кўчалар, бозорлар, мадрасалар, мақбаралар, масжидлар ва бошқа жамоат иншоотлари ва ҳунармандчилик ишлаб чиқаришининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд.

Китоб шаҳрининг ғарбий қисмидаги, Зарафшон тоғ тизмаларидан бошландиган Шўробсой воҳасида Подаётоқтепа, Узунқир ва Сангиртепа сингари моддий-маданий мерос ёдгорликларида археологлар томонидан узоқ йиллар давомида изланишлар олиб борилди. Изланишлар натижасига кўра, мазкур маданий мерос ёдгорликлари Шўробсой воҳасида эр.авв. VIII-VII асрларга оид тарихий шаҳарнинг бугунги кунларга қадар сақланиб қолган харобалари эканлиги, қадимги Кеш шаҳрининг шаклланиши айни шу ҳудудлардан бошланганлиги ойдинлашади[5].

Кеш эр. авв. III-II асрлар давомида таназзулга юз тутиб, янги шаҳар Китоб шаҳридаги Қаландартепа ёдгорлиги ҳудудларида қайта шаклланади. Қаландартепада шаҳарсозликка хос анъаналар сақланган қадимги даврларга оид йирик иншоотларнинг ўринлари аниқланган. Воҳанинг юқори қисмида жойлашган бу шаҳар – Кешнинг маркази бўлган. Шаҳарнинг IX-X асрларга қадар фаолият кўрсатганлиги ўз исботини топган.

Шаҳрисабз ҳудудида узоқ йиллар давомида кенг қамровли археологик тадқиқотларнинг олиб борилгани натижасида Кеш (Китоб) шаҳрининг инқирозга учраши, янги жой – Шаҳрисабзга кўчиши, янги шаҳарнинг бунёд этилиши ва мудофаа деворлари билан ўраб олинганлигини билиш мумкин. Китоб ўрнидаги Кеш шаҳри Сомонийлар сулоласи даврида аста-секинлик билан вайронага айланган ва шаҳар Китобдан жанубда жойлашган Баркнон қишлоғига кўчган. Қорахонийлар даврига келиб эса у тўлақонли шаҳарга айланган. Шаҳрисабз шаҳри ҳудудидаги Оқсарой пештоқи, Чорсу, Доруссаодат ва Доруттиловат ёдгорликлари атрофларида қорахонийлар даврига оид маданий қатламлар ва археологик осори-атиқалар топилган. Шаҳрисабз шаҳри қорахонийлар сулоласи даврида тўлақонли шаҳарга айланган бўлса-да, шаҳар мудофаа деворига эга бўлмаган. Шаҳар деворлари Хоразмшоҳлар даврида, XIII аср бошларида қурилган. Шаҳрисабз қалъаси деворлари қатламли пахсадан бунёд этилган.

Шаҳрисабз шаҳрининг XIX–XX асрларда ички тузилишлари ҳақидаги ёзма манбалар ўта муҳим аҳамиятга эга маълумотларни тақдим этади. Шаҳар (шаҳристон, рабод) ҳудудида маҳаллий аҳолининг яшаш ҳовли-жойлари, маҳалла ва гузарлар, улар орасидан ўтган марказий йўл ҳамда улар билан туташиб кетган кўчалар, шаҳар маҳаллаларининг номлари қайд қилинган. Марказий кўчада маҳаллий аҳолининг яшаш ҳовли-жойлари қаторида ижтимоий аҳамиятга эга иншоотлар – сарой ва масжидлар, мадраса ва хонақолар, чорсу, тим, савдо растаси, шифохона, карвонсарой ҳамда ҳаммомлар қад ростлаган.

Қадимий Кеш ваоҳаси ҳалқимиз тарихининг муҳим ва ажралмас бир қисми эканлиги, ундаги меъморий ва археологик ёдгорликларга нисбатан алоҳида эътибор талаб этади.

Хусусан, Шўробсой воҳаси ҳудудидаги Узунқир, Подаётоқ ҳамда Сангиртепа археологик ёдгорликларини тарихий маданий қўриқхонага айлантириш, Қарши шаҳридаги Еркурғон, Шуллуктепа ҳамда Китоб туманидаги Қаландартепа археологик ёдгорликларини сақлаб қолиш мақсадида муҳофаза тўсиқлари билан ҳимоялаш, Шаҳрисабз шаҳридаги XII-XIV асрларга оид қалъа деворларининг вайрона қисмларида консервациялаш ва бузилиб кетган қисмини тиклаб ёзма манбаларда сақланиб қолган шаҳар дарвозаларини тиклаш мақсадга мувофиқ бўларди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мамадиев Б.Б. Кеш шаҳрининг тарихий топографияси.(Қадимдан XX аср бошларигача): Тарих фанл.б. фалс. доктори (PhD) автореф. – Қарши. 2024.

2. Хасанов А. М. Маданий мерос ёдгорликлари ва зиёратгоҳларини асраб аввайлаш давр талаби. Ўзбекистон музейларининг долзарб муаммолари. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Shahrisabz, 2024. – B.17 5-178.

3. Раимкулов А.А. Жанубий Сўғднинг VIII-XIV асрлар даври тарихий топографияси: Тарих фанлари доктори (DSc) … дисс. – Тошкент

4. Сагдуллаев А.С. Жанубий Ўзбекистон археологик меросини ўрганиш ва ёдгорликларни музейлаштириш масалалари. Ўзбекистон музейларининг долзарб муаммолари. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Shahrisabz, 2024. – B. 5-6.

YUNON-BAQTRIYA VA KUSHONLAR DAVRIDA BAQTRIYA SHAHARLARI

Nishonov J. OTU o‘qituvchisi

Аннотация: Ushbu maqolada Shimoliy Baqtriyanинг qadimgi port-shaharlari va mudofaa inshootlarining o`rganilishi tarixi manbalar asosida ochil berilgan.

Таянч сўзлар: Termiz, Ayritom, Yunon-Baqtriya qirolligi, Kushon imperiyasi, buddizm, mudofaa qal'alari, Amudaryo, So'g'd, sun'iy sug'orish.

Аннотация: В данной статье на основе имеющихся источников представлен исторический обзор изучения древних портовых городов и оборонительных сооружений Северной Бактрии.

Ключевые словы: Термез, Айритом, Греко-Бактрийское царство, Кушанская империя, буддизм, оборонительные крепости, Амударья, Согд, искусственное орошение.

Annotation: This article describes the study of ancient port cities and defensive structures in Northern Bactria based on historical sources.

Key words: Termez, Ayritom, Greco-Bactrian Kingdom, Kushan Empire, Buddhism, defensive fortresses, Amu Darya, Sogdiana, artificial irrigation.

Mil.avv. IV asrga oid shimoliy Baqtriya hududidan 30 ga yaqin yodgorliklar aniqlangan. Ularning aksariyati suv yoqalari, asosan Amudaryo havzasi hududlarida joylashgan. Baqtriya hududida port–shaharlar, ya’ni Amudaryo kechuvi hududida qurilgan shaharlar muhim ahamiyat kasb etgan. Amudaryo havzalari bo‘yida Kampirtepa, Ayritom, Eski Termiz (Tarmida), Oyxonim port–shaharlar qurilgan. Port–shaharlar xalqaro savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojida o‘zining munosib hissasini qo‘shgan.

Ahamoniylar davrida Amudaryodan kechuv joyi Sho‘rob hududida bo‘lib, Sho‘robtepa qal’asi port–shahar vazifasini bajargan. Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar davriga kelib, Kampirtepa kechuv hududidagi asosiy qal’aga aylangan. Kushonlar davrida esa, kechuv joylari sonlari yanada ko‘paygan: Chushka–Guzar, Qora qamar, Kelif hududlarida ham kechuv yo‘llari bunyod yetilgan. Kechuv hududlarining har ikkala qirg‘og‘ida ham aholi yashagan.

Mil.avv. III asrning oxirlari va mil.avv. II asrning birinchi yarmida qadimgi Baqtriya hududida Yunon–Baqtriya davlati mavjud bo‘lgan. Yunon–Baqtriya davlati hukmronligi davrida Baqtriya davlatida ellinizm madaniyati yanada rivojlangan. Shaharlar qurilishida, jamiyatning ijtimoiy hayotida yunonlarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Bu davrda Shimoliy Baqtriya hududida Kampirtepa, Ayritom, janubiy Baqtriya hududida Oyxonim, Dilbarjin, Jig‘atepa shaharlarida ellin madaniyati izlari yaqqol namoyon bo‘lgan.

Kampirtepa yodgorligi shimoliy Baqtriya hududidagi yirik shaharlardan biri bo‘lib, mil.avv. IV asrning oxirlari – milodiy II asrning o‘rtalariga oid. Yodgorlik Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, Surxondaryo viloyati Muzrabod tumanidagi Sho‘rob qishlog‘idan 0,6 km. g‘arbda joylashgan. Yodgorlik 1972-yildan buyon akademik E.V.Rtveladze boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Shahar qirg‘oq bo‘ylab g‘arbdan sharqqa tomon 400 metr uzunlikda joylashgan bo‘lib, 5 gektar hududni egallagan. Qal’a ikki qismdan ark va “quyi shahar”dan iborat. Mustahkam mudofaa tizimiga ega. Ark 5 metr kenglikdagi mudofaa devori va xandak bilan mudofaalangan. Kampirtepani qazish vaqtida ko‘chalar, ibodatxona, shahar xazinasi, hunarmandchilik ustaxonalari topilgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida yodgorlikning dastlab yunonlarning frurioni, ya’ni mudofaa punkti yoki port vazifasini bajaruvchi shahar sifatida vujudga kelganligi asoslanmoqda. Tadqiqotchilar bu yerdan kemalar uchun qulay

ko‘rfaz, pristan va port mayog‘ining izlarini aniqlashgan. E.V.Rtveladze o‘z tadqiqoti jarayonida yozma manba va arxeologik tadqiqot ishlari natijalarini solishtirish orqali Kampirtepa Oks bo‘yidagi Aleksandriya shahri ekanligini asoslaydi. Kampirtepaning eng rivojlangan davri milodiy I–II asrlarga to‘g‘ri keladi va shu davrda shahar (Kushonlar davrida) yanada taraqqiy qilib, asosiy savdo ishlari bilan bog‘liq bojxona va suv yo‘llarini nazoratini olib borish kabi vazifalarni o‘tovchi shaharga aylangan. Shahar arki darvozasiga yaqin joydan budda ibodatxonasi aniqlangan. Shahardan zardushtiylik, buddaviylik va mahalliy diniy e’tiqodlarga oid ibodatxonalar topilgan.

Shimoliy Baqtriya hududidagi yana bir eng yirik shaharlardan biri bo‘lgan Termiz – Tarmita shahri bo‘lib, u bugungi kunda Eski Termiz yodgorligi hisoblanadi. U Amudaryo kechuvida, mahalliy va xalqaro savdo yo‘llari kesishgan joyda qurilgan. V.Tomashek “Termiz” so‘zini baqtr tilidan olingan, uning ma’nosi “daryoning narigi tomonidagi manzilgoh” deb ko‘rsatgan. Shahar hozirgi Termiz shahridan 7 km. shimoli–g‘arbda joylashgan. Shahar dastlab Amudaryoning o‘ng qirg‘ig‘idagi tabiiy tepalik ustiga qurilgan. Ark to‘g‘rito‘rtburchak shaklida bo‘lib, 10 gektar maydonni egallagan.

XX asrning ikkinchi yarmida tadqiqotchilar Eski Termizni Oks bo‘yidagi Aleksandriya bo‘lishi mumkin degan fikrni ilgari surganlar. Lekin keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar buni tasdiqlanmagan. Shaharning eng rivojlangan davri Yunon–Baqtriya va Kushonlar hukmronligi davrida bo‘lgan. Mil.avv. III–II asrlarda shahar “Demetriya”, Kushonlar davrida “Tarmida” deb atalgan. Kushonlar davrida Fayoztepa va Qoratepa budda monastirlari qurilib, hududning yirik buddaviylik dini va kushonlar saltanatining siyosiy markaziga ham aylangan.

Baqtriyaning antik davriga oid yirik shaharlaridan biri Ayritom hisoblanadi. U mil.avv. II asrda port–shahri sifatida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryoning kechuvi ustida qurilgan. Shahar 1930- yillarda M.Ye.Masson boshchiligidagi Termiz arxeologik ekspeditsiyasi, 1960- yillarda O‘zbekiston San’atshunoslik ekspeditsiyasi olimlari tomonidan o‘rganilgan. Port–shahar shimoldan janubga 3 km. cho‘zilgan bo‘lib, 90 gektar hududda joylashgan.Shahar uch tomonlama mudofaa devori bilan mudofaalangan. Kushonlar davrida bu yerda yirik budda monastiri bunyod etilgan. 1933-yilda V.M.Masson budda haykallari, musiqachilar va gulchambar ko‘targan ayollarning bo‘rtma tasviri ishlagan koshinni topgan. Shahar atrofida kulolchilik xumdonlari aniqlangan. Milodiy III asrning ikkinchi yarmida Ayritom vayron bo‘lgan, qayta tiklanmagan.

Yunon–Baqtriya davlati hukmronligi davrida, mil.avv. III asrning ikkinchi yarmidan ya’ni davlat chegaralari himoyasiga alohida e’tibor qaratilgan. Sug‘ddan Baqtriyaga kirish mumkin bo‘lgan tog‘li hududlarda mudofaa qal’alari bunyod qilingan. Ayniqsa, Yevtidem I (mil.avv. 235–200 yy.) davrida qulay tog‘ daralari va tog‘lar tizimalarining ikki hududni bog‘lab turgan o‘tish murakkab bo‘lgan joylarda ham mudofaa qal’alari qurilgan. Qo‘rganzol, Uzundara, Qopchig‘ay-tepa, Machaytepa, Qo‘rg‘oncha qishloqlaridagi mudofaa qal’alari Baqtriyaning chegaralarini himoyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Qo‘rganzol va boshqa mudofaa qal’alarini suv bilan ta’minlash muhim masalalardan biri bo‘lgan. Bu yerga sun’iy sug‘orish asosida suv olib kelingan. Shu sabab ham davlat uchun muhim bo‘lgan davrlardagina bu mudofaa qal’alari faoliyat yuritgan.

Xulosa qilib aytganda, Termiz shahri Yunon-Baqtriya va Kushonlar davrida "Demetriya" va "Tarmida" deb atalgan va buddaviylik diniy markazi sifatida rivojlangan. Ayritom esa Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan port-shahar bo'lib, mil.avv. II asrda qurilgan va milodiy III asrda vayron bo'lgan. Shuningdek, Yunon-Baqtriya davri chegaralarini himoyalash uchun qurilgan mudofaa qal'alari mavjud bo`lgan. Qo'rganzol va boshqa qal'alar Baqtriyaning Sug'ddan kirishni nazorat qilishda muhim rol o'ynagan va sun'iy sug'orish tizimi bilan ta'minlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ртвеладзе Э.В. Александр Македонский в Бактрии и Согдиане. – С. 62;

2.Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Б. 103.

3.Болелов С.Б. Кампыртепа – античная крепост на Оксе. – С. 107

4.Tomascher W. Central asiatische Studien. Sogdiana. –Wien, 1877. –R. 8. 91

5.Пидаев Ш. Қадимий Термиз. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 10.

6.История государственности Узбекистана. Т.И. – С.161.

7.Сверчков Л.М. Эллинистическая крепост Курганзол. – С. 96 – 98.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛК ШАҲАРЛАР ВУЖУДГА КЕЛИШИ ТАРИХИДАН БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.

Поёнов И.
Қарши давлат университети мустақил тадқиқотчиси

Калит сўзлар. Намозгоҳтепа, Олтинтепа, Моҳандарё, Кучуктепа, Фарғона водийси, Кўзалиқир.

Аннотация. Мазкур маколада Ўзбекистонда урбанизацияси тарихи, минтака шаҳарларини ўрганишдаги йондашувлар ва концепцияларнинг шаклланиши тўпланган малумотлар ва уларни илмий муомалага киритилиши, билимлар динамикасини ўрганиш ва тахлил етиш малум дараджада очиб берилади. Бундан ташқари Ўзбекистондаги шаҳарсозлик масалалари қай даражада ўрганилганлиги, ушбу соҳада илмий тадқиқотларда амалга оширилган янгиликлар ва ундаги ютуқлар ҳақида қисқача ма`лумот берилган.

Ўзбекистонда урбанизацияси тарихи кўпчилик тадқиқотчилар томонидан ўрганилган. Ушбу тадқиқотлар натижаларининг нашрларда акс этиш даражаси, минтақа шаҳарларини ўрганишдаги ёндашувлар ва концепцияларнинг шаклланиши, тўпланган маълумотлар ва уларни илмий муомалага киритилиши, билимлар динамикасини ўрганиш ва таҳлил этиш имконини беради.

XX асрнинг 40-йиллари иккинчи ярмидан бошлаб Қадимги Бақтрия, Суғдиёна, Хоразм, Марғиёна ҳудудларидаги шаҳарлар тарихини ўрганиш йирик археологик экспедициялар ишларининг асосини ташкил қилди. 1946 йилда Жанубий Туркманистон археологик-топографик экспедицияси Нисо ва Марв, Сарахс ва Амул энг қадимги, антик ва ўрта асрлар шаҳарларининг тарихий топографиясини, меъморчилиги ва карвон йўлларини ўрганишни бошлади. Жанубий Туркманистон ҳудудида жойлашган Намозгоҳдепа ёдгорлигида Б.А.Литвинскийнинг 1949-50 йилларда олиб борган қазишмалари туфайли минтақадаги энеолит ва бронза даври ёдгорликлари тўғрисидаги маълумотлар кенгайди. Тадқиқот давомида ёдгорликнинг умумий майдони 70 гектарга яқин эканлиги аниқланди.

1965 йилда Туркманистоннинг жанубидаги Миёна ёнида минтақа ҳудудидаги бронза даврининг йирик илк шаҳар марказларидан бири ҳисобланган Олтинтепа харобаларини тадқиқ этиш бошланди. XX асрнинг 80-йиллари охирларига қадар мунтазам қазишма ишлари олиб борган В.М.Массон қазишмалар натижасида ёдгорликнинг умумий майдони 25 гектар бўлганлигини тадқиқ этди. Олтинтепа қазишмалари бу даврда Ўрта Осиёнинг жанубидаги маҳаллий шаҳарсозлик маданиятининг шаклланиш жараёни жадаллик билан бораётган-лигини кўрсатади.

1945 йилдан бошлаб Суғдиёнанинг қадимги тарихига доир археологик тадқиқот-ларнинг янги босқичи бошланди. Археологик тадқиқотларни режали ва мақсадли амалга ошириш мақсадида ЎзССР ФА Тарих ва археология институти қошида А.И.Тереножкин бошчилигида махсус археологик экспедициялар ташкил этилди. Бу экспедицияларнинг олдига Суғдиёнанинг қўшни ўлкалар билан савдо – иқтисодий ва маданий алоқалар тарихини тадқиқ этиш каби вазифлар қўйилган эди. А.И.Тереножкиннинг кейинги тадқиқотлари давомида мавжуд камчиликлар тузатилди, ушбу тадқиқотлар Афросиёб, умуман, Суғдиёна археологик ёдгорликларини даврлаштирилишида катта аҳамиятга эга бўлиб, кейинги тадқиқотлар учун асос бўлиб хизмат қилди. Тарих ва Археология институти томонидан 1958 йилда В.А.Шишкин раҳбарлигида махсус Афросиёб археологик экспедицияси ташкил этилди. Бу экспедиция шаҳар топографик режаси бўйича ёдгорликнинг барча ҳудудларида тадқиқотлар олиб борди. Қазишма ишлари давомида Афросиёбда қалъа деворининг тўртта халқаси аниқланган бўлиб, археологик тадқиқотларнинг кўрсатишича, биринчи ва тўртинчи халқалар нисбатан қадимги эканлигини тадқиқ этилди. Биринчи халқанинг пастки қатламларидан хом ғишт девор қолдиқларини аниқланган Г.В.Шишкин бу девор қолдиқлари мил.авв. I минг йилликнинг ўрталарига оид эканлигини қайд этди. Афросиёб ёдгорлигидаги тадқиқотлар натижасида шаҳарнинг шаклланиши мил.авв. I минг йилликнинг ўрталарида содир бўлган, деган хулоса вужудга келишига туртки берди ҳамда ўша давр тадқиқотлари хулосалари асосида 1968 йилда Самарқанд шаҳрининг 2500 йиллик юбелийи нишонланди.

XX асрнинг 40-йиллари мобайнида С.П.Толстов бошчилигидаги Хоразм археологик экспедицияси томонидан Кўзалиқир ёдгорлигида қазишма ишлари олиб борилди. Қазишмалар натижасида тадқиқотчи ушбу ёдгорлик Хоразм воҳасидаги илк шаҳарсозлик маданиятининг ноёб ёдгорлиги эканлиги тўғрисидаги фикрни илгари сурди. Тадқиқотчилар томонидан эътироф этилган Хоразмнинг энг қадимги шаҳар-қалъаларидан бири бўлган Кўзалиқирнинг шаклланиши мил.авв. VII-V ёки VII-IV асрларга оиддир. Чунончи, мил.авв. VIII-V асрлар бутун Ўзбекистон ҳудудларида йирик шаҳарларнинг пайдо бўлиши билан изоҳланади.

XX асрнинг 70-йиллари ўрталаридан археологик тадқиқотларнинг янги босқичи бошланди. Турли археологик экспедицияларнинг тадқиқот йўналишлари ва вазифалари қаторида урбанизация жараёнлари тараққиёти масалаларини тадқиқ этиш белгилаб олинди. Айнан шу даврдан бошлаб Ўрта

Осиёда илк деҳқончилик маданияти, дастлабки шаҳарларнинг пайдо бўлиши омиллари ва асослари, уларнинг илк давлатчилик жараёнлари билан боғлиқ тараққиёт босқичлари масалаларига бағишланган археологик тадқиқотлар амалга оширила бошланди. Сополлитепа иншоотлари мустаҳкам асосда қад кўтарган бўлиб, икки қисмли тузилиш–мустаҳкам марказий қисм ва унинг атрофида мустаҳкамланмаган маскан, саккизта кўп хонали турар-жойлар қисмларининг йўлаклар билан ажралиб туриши, ҳимоя деворлари каби тузилишга эга. Ундан ташқари, кулолчилик ва металлга ишлов бериш ҳунармандчилиги ҳамда деҳқончиликнинг етакчи мавқега эга бўлиши ҳам Сополлитепа учун хосдир.

Ушбу ёдгорликда 1973 йилдан бошлаб олиб борилган тадқиқот ишлари натижасида урбанизация жараёнлари тарихига оид янги материаллар тўплаш имконияти пайдо бўлди. Жарқўтондаги 100 гектардан кам бўлмаган ҳудуддан арк, шаҳристон, ибодатхона, кўплаб уй-жойлар қолдиқлари топиб ўрганилди. Жарқўтон ҳудудида олиб борилган тадқиқотлар қўҳна шаҳарнинг ривожланган санасини аниқлаш ҳамда ушбу ҳудудларда юз берган тарихий-маданий жараёнларни бир неча босқичларга ажратиб ўрганиш имкониятини берди. Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, бу борада археологик тадқиқотлар ва улар асосида чиқарилган илмий хулосалар муҳим ўрин тутади.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Средневековые торговые пути из Мерва в Хорезм и в Мавераннахр в пределах Туркменской ССР // Труды Южно-Туркменистанской археологической экспедиции. Ашхабад, 1966. Т. – VIII. – С.214-230; Пугаченова Г.А. Пути развития архитектуры Южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма. – М.: Наука, 1958. –С. 249.
2. Массон В.М. Алтын-депе – город бронзового века // Сквозь века. – М.: Знание, 1989. – С.5.
3. Каршиева Ф.М. История и культура Древнего Согда (VI-V вв. до н.э. - V-VI вв н.э.) в советской историографии: Автореф.дисс. канд.ист.наук. – М., 1987. – С.6.
4. Амиров Я. Отчет о раскопках Сеталак в Бухарском оазиса за 1969-1970 гг. // ФВМА АН УзССР. – Самарканд, 1970. – С.23.
5. Мухаммаджонов А.Р. История орошения Бухарского оазиса (с древнейших времен до начала XX века). – Ташкент, 1978. – С.14.
6. Толстов С.П. Городище с жилыми стенами // КСИМК. – М. 1947. – Вып. XVII. – С. 3-8.
7. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси. – Б. 119; Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – С.85.
8. Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. 1-китоб. Тошкент. “Янги аср авлоди2. 2019. Б.71 (432)
9. Толстов С.П. По древнем дельтам Окса и Яксарта. – М.: Наука, 1962. – С.96-109.
10. Ражабова Н.Н. История изучения археологических памятников долины Кашкадарьи… – С.18.

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA ILK SHAHARLARNI VUJUDGA KELISHI TARIXIDAN.

Saidov S Qarshi davlat universiteti I-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur makolada O‘zbekiston hududida qadimgi shaharsozlik va urbanizatsiyasi jarayonlari tarixi, qisman yoritilgan.

Абстрактный. В данной статье частично освещена история древнего градостроительства и процессов урбанизации на территории Узбекистана.

Abstract. In this article, the history of ancient urban planning and urbanization processes in the territory of Uzbekistan is partially covered.

Калит сўзлар. Намозгоҳтепа, Олтинтепа, Моҳандарё, Кучуктепа, Кўзаликир, Қадимги Бақтрия, Суғдиёна, Хоразм, Марғиёна, Сополлитепа, Жарқўтон.

Ключевые слова. Намозгохтепа, Олтинтепа, Мохандарье, Кучуктепа, Козаликир, Древняя Бактрия, Сугдиена, Хорезм, Маргиёна, Сополлитепа, Жаркотон.

Keywords. Namozgohtepa, Oltintepa, Mohandaryo, Kuchuktepa, Kozalikir, Ancient Bactria, Sugdiyona, Khorezm, Margiyona, Sopollitepa, Jarqo'ton.

XX asrning 40-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona, Xorazm, Marg‘iyona hududlaridagi shaharlar tarixini o‘rganish yirik arxeologik ekspeditsiyalar ishlarining asosini tashkil qildi. 1946 yilda Janubiy Turkmaniston arxeologik-topografik ekspeditsiyasi Niso va Marv, Saraxs va Amul eng qadimgi, antik va o‘rta asrlar shaharlarining tarixiy topografiyasini,

me’morchiligi va karvon yo‘llarini o‘rganishni boshladi [1]. Janubiy Turkmaniston hududida joylashgan Namozgohdepa yodgorligida B.A.Litvinskiyning 1949-50 yillarda olib borgan qazishmalari tufayli mintaqadagi eneolit va bronza davri yodgorliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar kengaydi [2]. Tadqiqot davomida yodgorlikning umumiy maydoni 70 gektarga yaqin ekanligi aniqlandi [2].

1965 yilda Turkmanistonning janubidagi Miyona yonida mintaqa hududidagi bronza davrining yirik ilk shahar markazlaridan biri hisoblangan Oltintepa xarobalarini tadqiq etish boshlandi. XX asrning 80-yillari oxirlariga qadar muntazam qazishma ishlari olib borgan V.M.Masson qazishmalar natijasida yodgorlikning umumiy maydoni 25 gektar bo‘lganligini tadqiq etdi [3]. Oltintepa qazishmalari bu davrda O‘rta Osiyoning janubidagi mahalliy shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni jadallik bilan borayotganligini ko‘rsatadi.

1945 yildan boshlab Sug‘diyonaning qadimgi tarixiga doir arxeologik tadqiqotlarning yangi bosqichi boshlandi. Arxeologik tadqiqotlarni rejali va maqsadli amalga oshirish maqsadida O‘zSSR FA Tarix va arxeologiya instituti qoshida A.I.Terenojkin boshchiligida maxsus arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Bu ekspeditsiyalarning oldiga Sug‘diyonaning qo‘shni o‘lkalar bilan savdo – iqtisodiy va madaniy aloqalar tarixini tadqiq etish kabi vaziflar qo‘yilgan edi [4]. A.I.Terenojkinning keyingi tadqiqotlari davomida mavjud kamchiliklar tuzatildi, ushbu tadqiqotlar Afrosiyob, umuman, Sug‘diyona arxeologik yodgorliklarini davrlashtirilishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi [5]. Tarix va Arxeologiya instituti tomonidan 1958 yilda V.A.Shishkin rahbarligida maxsus Afrosiyob arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi. Bu ekspeditsiya shahar topografik rejasi bo‘yicha yodgorlikning barcha hududlarida tadqiqotlar olib bordi [6]. Qazishma ishlari davomida Afrosiyobda qal’a devorining to‘rtta xalqasi aniqlangan bo‘lib, arxeologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, birinchi va to‘rtinchi xalqalar nisbatan qadimgi ekanligini tadqiq etildi. Birinchi xalqaning pastki qatlamlaridan xom g‘isht devor qoldiqlarini aniqlangan G.V.Shishkin bu devor qoldiqlari mil.avv. I ming yillikning o‘rtalariga oid ekanligini qayd etdi [6]. Afrosiyob yodgorligidagi tadqiqotlar natijasida shaharning shakllanishi mil.avv. I ming yillikning o‘rtalarida sodir bo‘lgan, degan xulosa vujudga kelishiga turtki berdi [6] hamda, o‘sha davr tadqiqotlari xulosalari asosida 1968 yilda Samarqand shahrining 2500 yillik yubeliyi nishonlandi.

XX asrning 40-yillari mobaynida S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Ko‘zaliqir yodgorligida qazishma ishlari olib borildi. Qazishmalar natijasida tadqiqotchi ushbu yodgorlik Xorazm vohasidagi ilk shaharsozlik madaniyatining noyob yodgorligi ekanligi to‘g‘risidagi fikrni ilgari surdi [7]. Tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan Xorazmning eng qadimgi shahar-qal’alaridan biri bo‘lgan Ko‘zaliqirning shakllanishi mil.avv. VII-V yoki VII-IV asrlarga oiddir [7]. Chunonchi, mil.avv. VIII-V asrlar butun O‘zbekiston hududlarida yirik shaharlarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

XX asrning 70-yillari o‘rtalaridan arxeologik tadqiqotlarning yangi bosqichi boshlandi. Turli arxeologik ekspeditsiyalarning tadqiqot yo‘nalishlari va vazifalari qatorida urbanizatsiya jarayonlari taraqqiyoti masalalarini tadqiq etish belgilab olindi [8]. Aynan shu davrdan boshlab O‘rta Osiyoda ilk dehqonchilik madaniyati, dastlabki shaharlarning paydo bo‘lishi omillari va asoslari, ularning ilk davlatchilik jarayonlari bilan bog‘liq taraqqiyot bosqichlari masalalariga bag‘ishlangan arxeologik tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Sopollitepa inshootlari mustahkam asosda qad ko‘targan bo‘lib, ikki qismli tuzilish–mustahkam markaziy qism va uning atrofida mustahkamlanmagan maskan, sakkizta ko‘p xonali turar-joylar qismlarining yo‘laklar bilan ajralib turishi, himoya devorlari kabi tuzilishga ega. Undan tashqari, kulolchilik va metallga ishlov berish hunarmandchiligi hamda dehqonchilikning yetakchi mavqega ega bo‘lishi ham Sopollitepa uchun xosdir[9].

Ushbu yodgorlikda 1973 yildan boshlab olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida urbanizatsiya jarayonlari tarixiga oid yangi materiallar to‘plash imkoniyati paydo bo‘ldi [9]. Jarqo‘tondagi 100 gektardan kam bo‘lmagan hududdan ark, shahriston, ibodatxona, ko‘plab uy-joylar qoldiqlari topib o‘rganildi. Jarqo‘ton hududida olib borilgan tadqiqotlar qo‘hna shaharning rivojlangan sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz bergan tarixiy-madaniy jarayonlarni bir necha bosqichlarga ajratib o‘rganish imkoniyatini berdi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu borada arxeologik tadqiqotlar va ular asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Средневековые торговые пути из Мерва в Хорезм и в Мавераунахр в пределах Туркменской ССР // Труды Южно-Туркменистанской археологической экспедиции. Ашхабад, 1966. Т. – VIII. – С.214-230;

2. Литвинский Б.А. Намазга-депе по данным раскопок 1949-1950 гг // Советская этнография – 1952. – №4. – С. 3-16. 18-26.

3. Массон В.М. Алтын-депе – город бронзового века // Сквозь века. – М.: Знание, 1989. – С.5.

4. Каршиева Ф.М. История и культура Древнего Согда (VI-V вв. до н.э. - V-VI вв н.э.) в советской историографии: Автореф.дисс. канд.ист.наук. – М., 1987. – С.6.

5. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – С.10.

6. Шишкин В.А. К истории археологического изучения Самарканда и его окрестностей // Афрасиаб. – Ташкент: Фан, 1969. – вып. I. – С. 3–121–102-107– 32.

7. Толстов С.П. Городище с жилыми стенами // КСИМК. – М. 1947. – Вып. XVII. – С. 3–8–96-109.

8. Ражабова Н.Н. История изучения археологических памятников долины Кашкадарьи… – С.18.

9. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы…– С.153. 24.

SUG‘DNING TARIXIY GEOGRAFIYASI MASALALARI

Sharifov S. Qarshi Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sug’dning tarixiy geografiyasi masalalari tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida yoritilgan.

Аннотация. В данной статье вопросы исторической географии Согда освещены на основе исторических источников и литературы.

Annotation. This article explores the issues of the historical geography of Sogd based on historical sources and literature.

Tayanch so’z va iboralar : Arab istilosi, Avestoshunoslik, Axuramazda,

Ahamoniylar hukmronligi, Behistun qoya toshlari, Yunon muarrixlari, Sug‘d o‘lkasi, Politimet, Sivanszin, Oks va Tanais, Manbashunoslik, Kvint Kursiy Ruf,

Zarafshon va Qashqadaryo, Zarafshon daryosi, Kangyuy.

Ключевые слова и выражения: арабское нашествие, авестоведение, Ахура Мазда, власть Ахеменидов, Бехистунские наскальные надписи, греческие историки, согдийская область, Политимет, Сюаньцзан, Окс и Танаис, источниковедение, Квинт Курций Руф, Зарафшан и Кашкадарья, река Зарафшан, Кангюй.

Key words and expressions: Arab invasion, Avestan studies, Ahura Mazda, Achaemenid rule, Behistun rock inscriptions, Greek historians, Sogdian region, Politemet, Xuanzang, Oxus and Tanais, source studies, Quintus Curtius Rufus, Zarafshan and Kashkadarya, Zarafshan River, Kangju.

Sug‘d, uning boy tarixiy-madaniy merosi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlariga qadar izchil tadqiqotlardan chetda qolib keldi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixiga bag‘ishlangan umumlashtiruvchi tarixiy nashrlarda XX asrning qariyib 30-50-yillarigacha eramizning dastlabki asrlari, ayniqsa, arab istilosigacha bo‘lgan davri haqidagi ma’lumotlar nihoyatda oz va uzuq-yuluq bo‘lgan. Bunga sabab, o‘tmishning shu muhim bosqichlari bo‘yicha yozma manbalar mukammal o‘rganib chiqilmagani, qolaversa, mazkur hududning o‘zidan qadimiyatga, xususan, arab istilosiga qadar davriga oid yozma yodgorliklari juda kam topilganligidir. Bundan tashqari, ko‘rilayotgan davrda arxeologik tadqiqotlar ham keng ko‘lamda rivojlanmagan edi. Shunga qaramasdan, XIX asrning ikkinchi yarmidan e’tiboran fan tasarrufidagi manbalarni umumlashtirish asosida bir qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Sug‘dning tarixiy geografiyasi borasida tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borildi, ushbu masala yuzasidan o‘ziga xos yondashuvlar va ilmiy xulosalar chiqarildi. Ushbu tadqiqotlar tahlili Sug‘dning tarixiy geografiyasiga doir ilmiy xulosalar chiqarish uchun asos bo‘ladi.

O‘zbekiston, umuman O‘rta Osiyo xalqlari mushtarak tarixining eng qadimgi yozma manbasi Avesto kitobida (kitobning saqlanib qolgan qismlarida) Sug‘d bilan bog‘liq bir qator ma’lumotlar keltiriladi. Avestoshunoslik borasidagi so‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, Avestoning ilk qismlari aynan er.avv. IX-VIII asrlarga, so‘nggi bronza va ilk temir davrlarida yaratilgan. Ushbu kitobning bugungi

kunga qadar saqlanib qolgan ayrim qismlarida Sug‘d bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, Avestoning “Videvdat” qismi I fragardida oliy xudo Axuramazda tomonidan insonlar(zardushtiylar)ning yashashi uchun qulay bo‘lgan zaminlarning yaratilishi haqida ma’lumot berilgan va bundan shu narsa anglashiladiki, Sug‘d hududi hech bo‘lmaganda ilk temir davrida alohida o‘lka, tarixiy-geografik makon sifatida shakllangan. O‘z navbatida bu geografik makon oliy xudo Ahuramazda tomonidan o‘z bandalari (zardushtiylar) uchun tortiq, ularning farovon hayoti uchun manba sifatida yaratilganligi haqidagi diniy yondashuv asosida jamiyat a’zolari ongiga singdirilgan.

Ahamoniylar saltanati hukmronligi davriga oid yozma manbalarda ham Sug‘d haqidagi ma’lumotlar mavjud. Dastlabki ma’lumot Behistundagi qoya toshlariga yozilgan. Unda Doro I o‘ziga tobe bo‘lgan mamlakatlar qatorida Sug‘dni ham sanab o‘tgan. Qoya yozuvlarida Sug‘d nomi “Sug‘uda” tarzida berilgan. Yana bir manba, Hamadondan topilgan oltin yorliqda Doro I davlati chegaralari ko‘rsatilgan. Jumladan: “Doro podsho gapiradi: “Mana podsholik, men hukmronlik qiladigan; Sug‘d ortidagi skiflardan Efiopiyagacha, Hindistondan Lidiyagacha bo‘lgan hududlarni buyuk xudo Axuramazda menga taqdim qildi. Axuramazda meni va uyimni himoya qilsin”.[1] Bu yorliq hozirda Tehron shahridagi muzeyda saqlanmoqda.[2]

Ahamoniylar saltanati tarkibidagi Sug‘d o‘lkasi to‘g‘risidagi geografik hamda ma’muriy tuzilish bilan bog‘liq ma’lumotlar Qadimgi Yunon muarrixlari asarlarida ham tilga olinadi. Jumladan, Gerodotning “Tarix” asari uchinchi va yettinchi kitoblarida ahamoniylar tarkibida bo‘lgan Sug‘d haqida ma’lumot saqlanib qolgan. Uchinchi kitobda sug‘dliklar qo‘shni o‘lkalar bilan birgalikda ahamoniylar davlatining o‘n oltinchi satrapligi sifatida sanab o‘tilgan: “parfiyanlar, xorasmiylar, sug‘dlar va ariylar 300 talant to‘laganlar. Bu o‘n oltinchi o‘lka”.[3]

Arrianning bir nechta qismdan iborat “Aleksandrning harbiy yurishlari” nomli asarida Sug‘dning tarixiy geografiyasi, shuningdek, o‘lkaning markaziy shahriga doir qimmatli ma’lumotlarni uchratamiz. Jumladan, asarning 3-qismida sug‘dliklarning Doro III qo‘shini tarkibida bo‘lib, Aleksandr Makedonskiy qo‘shiniga qarshi kurashganligi va ularga Bess boshchilik qilganligi qayd etilgan: “Doroga yordam uchun baqtriyaliklarning qo‘shnisi hindlar, baqtriyaliklar va sug‘dlarning o‘zlari keldilar. Ularning hammasiga Baqtriya satrapi Bess boshchilik qilgan”.[4]

Kvint Kursiy Ruf o‘z asarida Sug‘dning geografik joylashuvi haqida quyidagilarni keltiradi: “Sug‘dning katta qismi cho‘llardan iborat: cho‘lning kengligi taxminan 80 stadiyni (14 km.dan ortiq) tashkil etadi. Mamlakatning katta qismi to‘g‘ri yo‘nalishda joylashgan: yo‘nalishi mahalliy aholi tomonidan Politimet deb ataydigan shovqinli daryo bo‘ylab joylashgan. Qirg‘oqlari tor irmoqlar bilan bog‘langan, ular g‘orlarga kirib, yo‘qolib ketadi. Yashiringan daryo oqimini uning shovqinidan ham bilsa bo‘ladi, katta daryo oqib o‘tadigan joydan, umuman namlik bug‘lanib ketmaydi”.[5]

Kvint Kursiy Rufning bu ma’lumoti I.V.Pyankov tomonidan tahlil qilingan. Tadqiqotchining fikricha, Kursiy Ruf bu ma’lumotni Plutarx asaridan olgan va uning faqat Politimet haqida bergan ma’lumotini butun mamlakatga qo‘llagan. Plutarxning asarida Oks va Tanais oralig‘ida Sug‘d joylashganligini va uning asosiy qismi cho‘ldan iboratligi haqida ma’lumot saqlanib qolgan.[5]

Bu holat Sug‘dning tarixiy-geografik jihatdan asosiy qismi cho‘llardan iborat bo‘lgan, aholi faqat daryo bo‘ylarida yashagan, degan noto‘g‘ri talqinni keltirib chiqargan.[6] Bu ma’lumotlar Ptolemey, Pliniy, Strabonda ham uchraydi. Strabon Sug‘ddagi daryoni makedonlar Politimet deb ataganliklarini, suvidan dehqonchilikda foydalanishlarini va daryo suvi cho‘l orasida singib ketishini yozib qoldirgan.[7]

Mil.avv. II asrdan boshlab Sug‘d Xitoy manbalarida ham yoritila boshlangan. Xitoy yozma manbalarini o‘rganish orqali A.Xo‘jayev “Vey (Veyshu)” da Sug‘d – “Sivanszin”, “Suy (Suyshu)”da – “Kan-go”, “Tan dinastiyasining yangi tarixi”da – “Samotszyan” tarzida berilganligini aniqlagan.[8] Buyuk ipak yo‘li tarixiga bag‘ishlangan Xitoy lug‘ati va boshqa manbalarni solishtirish orqali tadqiqotchi “Sivanszin”ni aynan Sug‘dga nisbatan ishlatilganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, mil.avv. II asrdan milodiy V asr boshlarigacha Sug‘d Kangyuy davlati tarkibida bo‘lganligini va xitoy manbalarida “Kan-go” deb yozilganligini ko‘rsatadi. Sug‘d milodiy V asrning 30-34-yillarida Kangyuy davlatidan ajralib, mustaqil davlat tuzganligini asoslagan.[8] Janubiy Sug‘d xitoy manbalarida “Su-Se” deb berilgan.

Mustaqillik yillarida Sug‘dning qadimgi tarixi masalalari bo‘yicha izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar, xususan, B.J.Eshovning fikricha, miloddan avvalgi VII-V asrlar Sug‘d o‘lkasining chegarasi g‘arbda Buxoro vohasi, sharqda Hisor tog‘lari, janubda Qashqadaryoning quyi oqimi va Ko‘hitang adirlari, shimolda esa Nurota tog‘-adirlari bilan chegaralangan bo‘lishi mumkin.[9] Manbashunoslik tadqiqotlarining umumiy tahlili hamda geografiya fani xulosalarini e’tiborga olib Sug‘dning bronza, ayniqsa, ilk temir davridagi tarixiy geografiyasi xususida quyidagi xulosani qayd etish maqsadga muvofiqdir:

Sug‘d tabiiy-geografik jihatdan O‘rta Osiyo mintaqasining ichki va ikki yirik suv havzalari - Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini ishg‘ol etgan tarixiy-madaniy o‘lka hisoblanadi. O‘lka geografik jihatdan sharqda Zarafshon tog‘laridan g‘arbda Qizilqum sahrosigacha qariyib 488 km., shimolda Qatvon dashtlaridan janubda Temir Darvozagacha 224 km.[10] ni ishg‘ol etadi. Zarafshon daryosi dastlabki manbaini Tyan-Shan tog‘laridan oladi, uning umumiy uzunligi 781 km.ni tashkil etadi. Vohaning umumiy maydoni - 41 860 kv. km.dan iborat bo‘lib, tabiiy jihatdan – Tog‘li Zarafshon, O‘rta Zarafshon va Quyi Zarafshon kabi qismlarga bo‘linadi.[11] Qashqadaryo qariyb, 300 km uzunlikka ega bo‘lib,[12] havzaning umumiy maydoni – 28 400 kv. km.dan iborat.[13] O‘tmishda bir necha bor dunyo sivilizatsiyasi markaziga aylangan o‘lka arab bosqiniga qadar Sug‘diyona hamda Sug‘d nomlari bilan atalgan.

Yuqorida tilga olingan yozma manbalardan Sug‘dning qadimgi tarixiy geografiyasiga doir muayyan ma’lumotlarni olishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda qadimgi Sug‘dning asrlar osha saqlanib qolgan yodgorliklari xarobalarida XIX asrning so‘nggi choragidan boshlangan, bugungi kunda ham izchil davom etayotgan arxeologik qazishmalar natijalari Sug‘dning tarixiy geografiyasi to‘g‘risidagi to‘laqonli ma’lumotlarni olishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Дандамаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – Москва: Наука, 1985. – С.112.
2. Хрестоматия по истории древнего Востока. – С. 36.
3. Gerodot.III, B.93.
4. Арриан.Поход Александра, 3.8.3.
5. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского.VII.10.1.2.3.
6. Пьянков И.В. Бактрия в античной традиции. – С. 24 – 25.
7. Страбон. География. В 17–ти книгах. Перевод и комментарии Г.А.Стратоновского. – Москва: Наука. 1964. XI. – С.5.
8. Ходжаев А. Сведения китайских источников о государстве Самарканд в V – VIIвв. – С. 8.
9. Eshov B.J. Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda So‘g‘diyona tarixi va madaniyati. Tarix fanlari nom.diss. – Toshkent,1999. – B. 49.
10. O‘zbekiston tarixi atlasi.Mas’ul muharrir A.R.Otajonov. - Toshkent: O‘zgeodezkadastr,1999.-B. 9.
11. Джуракулов М. Д.,Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зерафшана. - Ташкент: Ўқитувчи, 1986. - С. 6.
12. Лунина С.Б. Древние города в долине Кашкадарьи. - Ташкент: Узбекистан, 1988. - С. 5.
13. Yangiboyev M. Qashqadaryo viloyat geografiyasi. - Qarshi, 1993. - B. 6.

2-SHO‘BA

O‘RTA ASRLAR DAVRI, TURLI SULOLALARNING IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI MASALALARI.

ҒУЗОР ВОҲАСИНИНГ ЎРТА АСРЛАР ШАҲАРЛАРИ ТАРИХИЙ ТОПОГРАФИЯСИ ВА ЛОКАЛИЗАЦИЯСИ

Раимқулов А.А.
Яҳё Ғуломов номидаги Самарқанд археология институти бош илмий ходими, тарих фанлари доктори**,**
Ибрахим Чешмели
Истанбул университети профессори

Ҳозирги Ғузор воҳаси X асрда Кеш воҳасининг 16 та рустоқларидан иккитаси Хузор ва Хузорруд рустоқлари ҳудудларини эгаллаган бўлиб, бу воҳа жуда қадимданоқ ўзининг жуғрофий ўрнига кўра жуда муҳим ўринда - Марказий Осиёнинг энг йирик тарихий вилоятлари Суғд ва Бақтрияни боғлаган халқаро йўл устида жойлашган. Хузор ва Хузорруд рустоқларининг чегаралари шимолда тахминан Чимқўрғон сув омбори билан чегараланган бўлса, унинг шарқий чегаралари машҳур “Темир дарвоза”гача етиб борган. Бу рустоқлар ҳозирги Қашқадарё вилоятининг Ғузор ва Деҳқонобод туманлари ва Қамаши туманининг бир қисми жойлашган катта ҳудудларини эгаллаган. Ғузор ва Деҳқонобод туманлари ҳудудида олиб борилган археологик қидирувлар натижасида 100 дан ортиқ археологик ёдгорликлар ҳисобга олинган. Улар орасида бир нечта йирик шаҳарлар, юзлаб қишлоқлар, ўнлаб маҳобатли қалъалар, кўшклар, қасрлар ва ибодатхоналар қолдиқлари мавжуд.

Ўрта асрлар ёзма манбаларида Хузор рустоқида учта шаҳар тилга олинади, булар: Навкат-Қурайш, Субах ва Искифағн шаҳарларидир.

Навкат-Қурайш. Навкат-Қурайш ўрта асрларда Истаҳрий ва Самъоний асарларида тилга олинган шаҳар номи бўлиб, Истаҳрийнинг маълумотига кўра Кешдан 5 фарсаҳ масофада, X асрнинг охирги чорагида ёзилган “Худуд ал-алам”, Ёқут ва Самъонийнинг маълумотларига кўра Насафдан 6 фарсаҳ узоқликда жойлашган ва Нахшаб тасарруфида бўлган (Камалиддинов, 1996, с.34). Бу шаҳарнинг локализацияси хусусида олимлар ўртасида турли фикрлар мавжуд бўлган. В.В.Бартольд бу шаҳарни ҳозирги Қамаши туманидаги Қорабоғ қишлоғи ўрнида бўлган, деб тахмин қилган ва уни Хузор воҳаси шаҳарлари қаторига киритган (Бартольд, Соч., т. I, 1963, с.189). О.В.Чеховичнинг фикрига кўра, Навкат-Қурайш Қизилдарё водийсида бўлган (Самаркандские документы, 1974, с.33).

XV-XVI асрлар хужжатларида Навкат-Қурайш Кеш вилоятида, Сурхоб дарёси бўйида жойлашган қишлоқ сифатида тилга олинади (Самаркандские документы..., 1974, с.279-280). Сурхоб атамаси албатта Қизилдарё номи билан бир хил мазмунга эга.

М.Е.Массоннинг фикрига кўра, шаҳар Қамаши тумани Чим қишлоғи яқинида жойлашган йирик ўрта аср ёдгорлиги Қамайтепа ўрнида бўлган (Массон, 1977, с.51). Бизнинг фикримизча, М.Е.Массоннинг бу фикри ҳақиқатдан йироқ, чунки Қамайтепа ўрта асрлардаги Кеш (Китоб) дан 58 км узоқликда бўлиб, бу масофа ўрта аср ёзма манбаларида, хусусан Истаҳрий келтирган 5 фарсаҳ масофадан қарийб икки баробар узоқ.

С.Б.Лунинанинг фикрига кўра, Навкат-Қурайш олиманинг ўзи бир неча йил давомида археологик қазишмалар олиб борган, Қамаши тумани Қовчин қишлоғи яқинида жойлашган Олтинтепа ўрнида бўлган (Лунина, 1974, с.3-14. Она же, 1984, с.28). Олтинтепа Қизилдарёнинг қуйи оқимида ҳосил бўлувчи кичик тармоғи Қорабоғдарё бўйида жойлашган. Кеш (Китоб)дан бу ёдгорликкача бўлган масофа 41-42 км ва бу масофа ўрта аср ёзма манбаларида айтилган, Кешдан 5 фарсаҳ узоқликда, деган маълумотга анча яқин туради. Навкат-Қурайшнинг Сурхоб дарёси бўйида жойлашган қишлоқ сифатида тилга олиниши ҳам С.Б.Лунинанинг фикрини қувватлашга хизмат қилади, чунки Олтинтепа жойлашган Қорабоғдарё ўзани Қизилдарё (Сурхоб дарёси)дан ажралиб чиққан тармоқ ҳисобланади.

Бу ўринда В.В.Бартольднинг бу шаҳарни ҳозирги Қамаши тумани Қорабоғ қишлоғи ўрнида бўлганлиги ва уни Хузор воҳаси шаҳарлари қаторига киритганлиги тўғрисидаги фикрини тўғри деб қабул қилиш лозим, чунки Олтинтепа Қорабоғ қишлоғи яқинида жойлашган.

Олтинтепа марказида томонлари 160х160 м, баландлиги 13 м бўлган арк, унга жанубга қараб 800 м, шимолга қараб 400 м чўзилган турлича тепаликлар мажмуаларидан иборат. Уларнинг катта қисми XX асрнинг 60-70 йилларида экин майдонларига айлантирилган. Аркдан шимоли-шарққа қараб 1 км масофада пишиқ ғишт пиширилган хумдонлар ўринлари аниқланган ва С.Б.Лунинанинг фикрига кўра, улар ҳам Олтинтепа таркибига кирганлар. Умуман олганда, С.Б.Лунинанинг ҳисоб-китобларига кўра Олтинтепанинг арки ва шаҳристони ҳудуди камида 40 га майдонни эгаллаган бўлиб, бу археологик ёдгорлик Жанубий Суғднинг йирик шаҳарларидан бирининг харобаларидир (Лунина, 1979, с.556.; 1984, с.31).

Субах. Ўрта аср ёзма манбаларида тилга олинган Субах шаҳри М.Е.Массон томонидан ҳозирги Ғузор шаҳридан 8 км шимолий ғарбда, Яккадара қишлоғи атрофида жойлашган Ўликтепа билан локализация қилинган (Массон, 1977, с.47).

Бизнинг фикримизча, Субах шаҳри ҳозирги Саубах қишлоғи атрофида жойлашган йирик ўрта аср ёдгорлиги Саубахтепа ўрнида бўлган. Саубахтепа шаҳристони деярли айлана шаклига эга бўлиб, томонлари 330х280 м (9,24 га). Тепаликнинг чеккаларида мудофаа деворлари излари деярли билинмасада, тепаликнинг рельефида шимоли-шарқий деворда бешта, жануби-шарқий деворда эса учта бурж ўрни яхши кўзга ташланади. Тепаликнинг шарқ томонидаги пасайган жойи шаҳарга кирувчи дарвозанинг ўрни бўлса керак. Шаҳарча атрофини кенглиги 40-60 м бўлган мудофаа хандаклари ўраб туради. Унинг орқасида эса яна тепаликлар бўлиб, бу тепаликлар рабад қолдиқларидир. Ушбу тепаликлар билан биргаликда шаҳарнинг умумий майдони 12 гектардан ортиқроқ.

Саубахтепа ўрта асрлар манбаларида тилга олинган қадимги Субах шаҳри харобаси эканлиги шубҳасиз. Бу шаҳар Муқанна бошчилигидаги “Оқ кийимлилар қўзғолони”нинг марказларидан бири бўлганлиги билан ҳам машҳур.

Субах шаҳрининг локализацияси масаласини ҳал қилувчи ҳолат - қишлоқ ўзининг қадимий номини сақлаб қолганлигидир. Шунинг учун бу масалада бошқа бирор фикрга қўшилиб бўлмайди. Шуни ҳам қайд этиш лозимки, Саубахтепа ёдгорлигининг иккита номи бўлиб, у маҳаллий аҳоли томонидан баъзан Ялпоқтепа деб ҳам юритилади. Бизнингча, М.Е.Массон ушбу тепаликка ташриф буюрганида айрим маҳаллий кишилардан ёдгорликнинг иккинчи номини эшитган бўлса ҳам ажаб эмас. Истаҳрийда айтилишича, воҳанинг энг йирик шаҳри Искифағн Субахдан Термиз томонга қараб кетган йўл устида, ундан бир фарсаҳ масофада жойлашган. Шу нуқтаи-назардан фикр юритсак, Истаҳрийнинг фикри ҳақиқатга яқин. Чунки Саубахтепадан Искифағн (Хўжа Бузругтепа) орқали тўғри Термизга кетиш мумкин. Бу ёдгорликлар орасидаги масофа 9 км ни ташкил этади.

Агар М.Е.Массон айтганидек, Субах Яккадара қишлоғи яқинидаги Ўликтепа ўрнида бўлса, биринчидан Ўликтепадан тўғри Термизга кетишда бирор-бир йирик ёдгорлик йўқ, иккинчидан Термизга бораётган карвон Ўликтепадан ўтиб Хўжа Бузургтепа орқали кетса карвон йўли орқага қайрилган бўлади ва деярли бир кунлик йўлга, тахминан 20 км га узоқлашади.

Агар Насаф-Термиз йўлига назар ташласак - Шуллуктепа (Насаф), Фархурдиза, Саубахтепа, Хўжа Бузругтепа Термиз йўли устида битта чизиқда жойлашишини кўрамиз (2-расм). Ўликтепа Шаҳартепадан, Субахдан ва Искифағндан Келиф томонга кетадиган йўл устида жойлашган десак тўғрироқ бўлади. Самарқанддан Жом орқали Келифга кетган энг яқин йўл ҳам Ўликтепа орқали ўтган. Картага назар ташласангиз Жом – Келиф йўлида Чироқчи туманидаги Сариқтепа, Чим қишлоғи яқинидаги Қулоқлитепа (Нийоза), Лиҳлитепа, Субах, Ўликтепа битта чизиқда жойлашганлигига амин бўласиз.

Эскифағн (Искифағн). В.В.Бартольд Искифағн шаҳри ҳозирги Ғузор шаҳрининг жанубий қисмида жойлашган Эски боғ қишлоғи ўрнида бўлган ва “Искифағн” атамаси асрлар давомида ўзгариб бизгача “Эски боғ” атамасида етиб келган, Субах эса Ғузор ўрнида бўлган, деган фикр билдирган (Бартольд, Соч., т.1, с.189). “Искифағн” сўзининг этимологияси тўғрисида фикр юритсак у суғд тилида “эски” ёки “иски”, яъни “улкан, маҳобатли”, “фағн” сўзи эса “ибодатхона” маъноларини, яъни “улкан ибодатхона” маъно-

сини англатади. Турк тилида эса эса “эски, кўҳна ибодатхона”, яъни ташландиқ, фаолият кўрсатмаётган ибодатхона маъносини беради.

Ҳозирги Ғузор шаҳрининг жанубий қисмида жойлашган Эски боғ қишлоғи ҳудудида олиб борилган археологик қидирувларимиз натижасида бу ерда жойлашган ягона кичкина тепалик кўздан кечирилди. Тепалик айлана шаклида бўлиб, диаметри 20-23 м, баландлиги эса 3,5-4 м. Тепаликнинг дастлабки майдони ҳажми номаълум, чунки унинг атрофлари маҳаллий уй-жойлар тагида қолиб кетган. Ҳарқалай бу тепаликнинг ҳажми 50х60 ёки 60х70 метрдан ортиқ бўлмаган. Бу ердан V-VII асрлар оид кам миқдорда кулолчилик идишларининг парчалари қўлга киритилди. Сомонийлар ва Қорахонийлар даврига оид сополлари йўқ. Бу мўъжазгина тепалик ўзининг кичкина майдони билан ўрта асрлар сайёҳлари томонидан тилга олинган йирик Искифағн шаҳрининг харобалари бўлишга даъво қила олмайди. Искифағн шаҳрининг локализацияси хусусида қуйида батафсил фикр юритамиз.

Хузор. Ривоятларга кўра Хузор (Ғузор) афсонавий шоҳ Афросиёб томонидан бунёд этилган. Ат-Табарийнинг маълумотига кўра, VIII аср бошларида Хузор алоҳида вилоят сифатида фаолият кўрсатган ва унга Сабукра исмли турк подшолик қилган. Шарқшунос олим Ш.С. Камолиддиновнинг фикрига кўра, Ғузордарёнинг чап соҳилида жойлашган, ўлчамлар 25х30 м бўлган Мардтепа ўрнида кучли мудофааланган қалъа бўлиб, подшоҳ Сабукра мана шу қалъада турган ва бу қалъа араблар истилосигача Ғузор вилоятининг маркази бўлган. Қалъани қамал қилган араб босқинчилари уни олишга ожизлик қилганлар ва қалъа ҳимоячиларига тинчлик сулҳи таклиф қилишиб, агар улар таслим бўлиб қалъани очсалар, ҳеч бир зарар етказмасликка сўз берганлар. Улар мана шу ҳийла билан қалъага кирганлар ва ўз сўзларидан қайтиб, қалъа ҳимоячиларини ўлдириб қалъани бутунлай бузиб ташлаганлар (Камалиддинов, 1996, с.26-27).

Ш.С.Камолиддинов келтирган Мардтепа Ғузор шаҳри ҳудудида, Ғузор қўрғонининг рўпарасида, Ғузордарёнинг чап соҳилида жойлашган кичкина ёдгорлик бўлиб, ҳозирги кунда унинг атрофи бузилган ва 40х20 м ҳажмдаги ва баландлиги 2,5-3 м бўлган қисми сақланиб қолган. Маҳаллий кишиларнинг айтишларича, бузилмасдан аввал унинг майдони тахминан 60х40 м бўлган. Ёдгорликнинг ҳажми ва унда амалга оширилиши керак бўлган мудофаа ҳаракатларини ҳисобга олсак, бу тепалик ҳам бутун Хузор вилоятининг маркази бўлишига даъво қилолмаслиги аён бўлади. Мардтепанинг ташқи кўриниши ва ҳажми, қўлга киритилган сопол буюмлари парчалари унинг кичикроқ илк ўрта аср қасрининг ёки мўъжаз қишлоқчанинг харобалари эканлигидан далолат беради.

Биз бир неча йил муқаддам Сабукра яшаган қалъа ҳозирги Ғузор шаҳридан 8-9 км шимолда, Қўштепа ва Ярғунча қишлоқлари оралиғида жойлашган илк ўрта асрларга оид йирик ёдгорлик Ялпоқтепа ўрнида бўлган, деб тахмин қилган эдик. Лекин Ялпоқтепада олиб борилган археологик қазишмалар бу тахминнинг тўғри эмаслигини кўрсатди (Раимқулов, Чешмели, Эгамбердиев, 2010; Cesmeli, Raimkulov, Gunozu, 2011, s.233-266; Cesmeli, Raimkulov, Gunozu, 2012, s.313-316). Бизга маълумки, Сабукра билан кечган воқеалар VIII асрда, яъни Ўрта Осиёга араблар бостириб келганларидан кейин рўй берган. Бизнинг тадқиқотларимиз эса Ялпоқтепа ўз фаолиятини VI асрда тўхтатганлигини кўрсатди. Бизнинг фикримизга, бу шаҳар Турк хоқонлиги ва Сосонийлар давлатининг ҳарбий иттифоқи билан Эфталийлар салтанати ўртасидаги 565 йилда рўй берган уруш натижасида вайрон бўлган. Ялпоқтепада олиб борилган археологик қазишмалар натижасида энг юқори маданий қатламлардан қўлга киритилган сопол ва бошқа археологик топилмалар V-VI асрларга мансуб бўлиб, улар Қарши воҳасининг маркази Еркўрғоннинг энг юқори маданий қатламларидан олинган сопол буюмларга жуда ўхшайди. Бу сопол буюмлар бир томондан ҳар иккала шаҳар бир вақтда вайрон бўлганлигини кўрсатса, иккинчи томондан Хузор воҳасининг V-VI асрлар даври моддий маданияти Нахшабга яқин эканлигини, бу даврда бу воҳа Нахшаб тасарруфида бўлганлигини кўрсатади.

Юқорида айтилганидек, ўрта аср ёзма манбаларида Хузор рустоқида учта шаҳар - Навкат-Қурайш, Субах ва Искифағн тилга олинади. Лекин Ат-Табарий тилга олган Хузорни қайси ёдгорлик билан локализация қилиш мумкин. Бу юртга ташриф буюрган араб

сайёҳлари эса айнан Хузор деган шаҳарни тилга олмаганлар. Ғузор яқинида йирик ўрта асарлар ёдгорлиги бор бўлиб у Ғузордан 6-7 км шимолда жойлашган Хўжа Бузургтепадир. С.Б.Лунина Хўжа Бузургтепани ўрта аср ёзма манбаларида тилга олинган Искифағн шаҳрининг бизгача етиб келган харобалари, деган фикрда бўлган (Лунина, 1984, с.28). Ёзма манбаларда Искифағн Саубахдан бир фарсаҳ масофада жойлашганлиги ва Термиз томонга кетган савдо йўли шу шаҳар орқали ўтганлиги ёзилган. Бизнинг фикримизча, Хузор ва Искифағн битта шаҳар, Ат-Табарий бу ерларга келмаган ва "Хузор" деган рустоқ номини шаҳар номи билан адаштирган бўлиши ҳам мумкин. Бу ерга шахсан ташриф буюрган сайёҳлар эса Хузор деб номланадиган шаҳар тўғрисида гапирмаганлар.

Яна мавзуга қайтсак. Сабукра яшаган Хузор Хўжа Бузургтепа ўрнида бўлганлиги ҳақиқатга яқин. Чунки Ат-Табарийда Сабукра яшаган қалъа "забт этиб бўлмас қалъа" деб таърифланган, Мардтепа эса ўзининг мўъжаз майдони билан бунга даъво қила олмайди. Хўжа Бузургтепа эса Ғузор воҳасининг энг йирик ёдгорликларидан бири бўлиб, марказида томонлари 170х170 м, баландлиги 12 м бўлган улкан қалъа мавжуд. Мутахассислар томонидан арк деб ҳисобланган тепалик қалъанинг ташқарисида, шарқ томонда, ундан 50-60 м масофада жойлашган. Археологик ёдгорликлар хусусиятларига кўра, аксарият ҳолларда арклар шаҳарларнинг бир чеккасида, бурчагида, баъзан марказида ҳам жойлашганлар. Бу ерда эса тепалик алоҳида, шаҳардан маълум масофада ташқарида жойлашган. Бу ҳолат шаҳар мудофаасини кучсизланишига олиб келади. Шунинг учун бу тепаликни арк харобалари деб қабул қилиш ноўрин. Қалъа ташқарисидаги бу тепалик йирик ибодатхонанинг харобалари бўлиши мумкин. Бу ўринда "Искифағн" сўзининг этимологияси "ибодатхона" ёки "улкан ибодатхона" маъносини англатишини ёдга олсак, "Искифағн", яъни "улкан ибодатхона" деб мана шу тепалик ўрнидаги иншоот айтилган, балки.

Айна мана шу тепаликда 2023 йилда биз томонимиздан археологик қазишмалар олиб борилди ва унинг устки маданий қатламлари илк ўрта асрларга оид эканлиги аниқланди. Лекин афсуски бу тепаликда XVIII-XIX асрларда қабристон фаолият юргизган бўлиб, бу даврда кавланган қабрлар қадимий иншоот қолдиқларини тамоман бузиб юборган. Шу сабабли бу тепалик қандай иншоотнинг қолиқлари эканлигини аниқлашни имкони бўлмади.

IX-X асрларга келиб Хўжа Бузургтепа ўрнидаги қалъа шаҳристонга айланган. Бу даврда унинг рабади шаклланган ва шаҳарнинг умумий майдони 100 гектардан ошиб етган. Рабаднинг бир қисми ҳозирда шаҳардан 700 м жанубда жойлашган Ваҳмтепа номли ёдгорлик сифатида сақланиб қолган. Бир вақтлар М.Е.Массон кўздан кечирган ва ёдгорликнинг таркибига киритилган рабаднинг асосий қисми ўтган асрнинг 70-йилларида бузиб юборилган ва унинг чеккасидаги қисми Ваҳмтепа кўринишидаги тепалик сифатида сақланиб қолган. Ваҳмтепада биз томонимиздан ўрта асрларга оид сопол буюмлар ва кулоллар хумдони топилди. Шу нуқтаи-назардан фикр юритиб, Хўжа Бузургтепа арабларгача бўлган даврда ҳам Хузор (Ғузор) воҳасининг маркази бўлган, дея оламиз. Хўжа Бузургтепа ўрта асрларга келиб шаҳристон ва рабаддан иборат йирик ўрта аср шаҳрига айланган, араб сайёҳлари мана шу шаҳарга ташриф буюрганлар ва у мўғуллар истилосига қадар Ғузор воҳасининг марказий шаҳри сифатида фаолият кўрсатган. Бу ерда шаҳар арки кўзга ташланмайди. Бу ҳолат Саубахтепа учун ҳам хос эканлигини ёдга олиш мумкин.

Ўликтепа. М.Е.Массон томонидан Субах шаҳрининг харобалари деб локализация қилинган Ўликтепа 20 га майдонни эгаллаган арк ва шаҳристондан иборат бўлган ёдгорлик. Унинг жануб томонида катта майдонда рабад жойлашган. Ўтган асрнинг 70-80 йилларида олиб борилган археологик қидирувлар ҳисоботларида бу ёдгорликнинг майдони 100 га атрофида бўлганлиги айтилган. Ўликтепа илк ўрта асрларда пайдо бўлган кичикроқ қишлоқ ўрнида шаклланган, ёзма манбаларда Ғузор воҳаси қишлоқлари қаторида тилга олинган, лекин ҳозирги кунда локализация қилиш мушкул бўлган бирон-бир йирик ўрта аср қишлоғининг харобалари бўлиши мумкин. Бу шаҳарча Ғузор воҳасининг йирик савдо маркази сифатида фаолият кўрсатган бўлиши мумкин, чунки унинг майдони ўрта асрларга келиб жуда ҳам катталашиб кетган. Бу ўринда савдо йўллари устида жойлашган Касби ва Паздава қишлоқларининг пойтахт Насафдан ҳам катталашиб кетганлигини эсга олишимиз мумкин. Юқорида айтилган фикрга қайтадиган бўлсак, Ўликтепа Кеш (Китоб-Шаҳрисабз)

дан Навқат-Қурайш, Искифағн орқали Келиф томонга кетган халқаро савдо йўли устида жойлашганлиги унинг кенгайиб, ривожланишига имкон яратган.

Юқорида айтилганидек, Кешдан, Самарқанддан ва Насафдан Ғузорга келиб, кейин Амударёё бўйида жойлашган Керки ёки Келиф кечувларига олиб борадиган йўл устида жойлашган бу йирик ёдгорлик ўрнидаги шаҳар биз томонимиздан Кеш воҳасининг жанубий дарвозаси сифатида талқин қилинган (Раимқулов, 2023, 24-32 б.)

Тубон ва Камсара. Карвон йўли бўйлаб Насафдан Термизга кетишда Субахга яқин жойда Тубон ва Камсара (Камасра) қишлоқлари жойлашган (Камалиддинов, 1996, с.30). Бу қишлоқлардан бири шубҳасиз, Субах яқинида жойлашган йирик ўрта аср ёдгорлиги Хўжа Руммастепадир. Хўжа Руммастепа Субахдан 2 км шарқда, Чўмичли қишлоғидан 550-600 м жанубда жойлашган йирик археологик ёдгорлик, ўрта асрлар даврига оид шаҳар харобаси. Ёдгорлик квадрат шаклига эга бўлиб, умумий майдони тахминан 10 га. Ёдгорлик ҳудудидан кўплаб сопол буюмлар парчалари учрайди ва улар X-XII ва XV-XVI асрларга оид (84-расм).

Дидаки ва Кандак. Истаҳрийнинг маълумотига кўра, Насафдан чиққан карвон бир кун юриб Субахга етган, кейин эса яна бир кунлик йўлда жойлашган Дидакига, кейин эса яна бир кун юриб Кандак қишлоғига етган. Кандак атрофида Насафдан ва Кешдан келган йўллар бирлашган. Бу ерда Кешгача бўлган масофа уч кунлик йўл бўлган. Кандак қишлоғи дастлаб ат-Табарий томонидан Кеш подшоси Ихридининг араб саркардаси Абу Довуд Холид ибн Иброҳим бошчилигидаги қўшинга кўрсатган қаршилиги тўғрисида ҳикоя қилиниши жараёнида тилга олинади (Камалиддинов, 1996, с.30)

В.В.Бартольд Кандакни Кичик Ўрадарё водийсидаги Қораҳавол қишлоғи ўрнида бўлган деб ҳисоблайди (Бартольд, т.1, с. 192). М.Е.Массон эса Ғузордан 55 км жануби-шарқда, Окработдан 13 км жанубда жойлашган Мўдинатепани Кандакнинг харобалари деб локализация қилади (Массон, 1977, с.53). Э.В.Ртвеладзенинг фикрига кўра, Кандак қишлоғи ҳозирги Окработ ўрнида бўлган. Бу ўринда Кандак қишлоғидан карвон йўли иккига ажралганлиги тўғрисидан маълумот жуда муҳим. Агар карвон Термиздан келаётган бўлса, бу фикрлар ҳақиқатга яқинлашиши мумкин, чунки Окработдан Кешга қараб ёзги мавсумий йўл бўлган. Юқорида бу ҳақда маълумот беришга ҳаракат қилдик. Кандакдан яқин йўл билан тахминан тўрт кун йўл юрилиб Кешга етиб борилган.

Бу ўринда Кандак қишлоғидан карвон йўли иккига ажралганлигига эътибор қаратсак, карвон йўли ҳар қандай кичик қишлоқ атрофидан иккига бўлиниб кетавермайди. Қолаверса, Насафдан Термизга кетган карвон йўли қадимда Суғдни Бақтрия-Тоҳаристон билан боғлаган халқаро йўл бўлган. Шунинг учун бу йўл йирик аҳоли манзилидан иккига ажралиши мантиқан тўғри ва Кандак мана шу йўлдаги йирик қишлоқлардан бири бўлганлигини тахмин қилиш мумкин.

Дидаки қишлоғи Субах ва Кандак қишлоқлари оралиғида бўлган бўлса, ушбу қишлоқни Кичик Ўрадарё водийсидан, ҳозирги Деҳқонобод тумани марказигача бўлган ҳудуддан излаш лозим. Агар Дидаки биз айтган ўринда бўлса, ундан бир кунлик йўлда Окработ қишлоғи жойлашган. Агар Э.В.Ртвеладзенинг фикрига қўшилиб, Кандак қишлоғини ҳозирги Окработ ўрнига жойлаштирсак, бу қишлоқ ҳудудидаги йирик ўрта аср ёдгорлиги Қўрғонтепа ва унинг яқинидаги Юпорлитепа биргаликда Кандак қишлоғининг харобалари бўлиб чиқиши мумкин (87-88-расмлар).

Нийоза. Абулкарим Самъоний ва Ёқут маълумотларига кўра, бу қишлоқ Насафдан Кешга борадиган йўл устида жойлашган ва Самъоний унда бир кеча совуқда тунаб ўтган (Камалиддинов, 1996, с.35-38). М.Е.Массоннинг фикрига кўра, Нийоза Қовчин қишлоғи яқинидаги Олтинтепа ўрнида бўлган (Массон, Лунина, 1968, с.61-62). Ш.С.Камолиддинов эса Нийозани Яккабоғ тоғолди ҳудудидаги йирик ёдгорлик Қўрғонтепа билан локализация қилади (Камалиддинов, 1996, 35-37). Бу қадимий қишлоқнинг жойлашган ўрни билан шарқшунос олим Абдусаттор Жуманазар ҳам шуғулланган. Олимнинг фикрига кўра, Нийоза қишлоғининг харобалари бизнинг кунларгача Қамаши тумани Чим қишлоғининг шимол томонида, Узун ва Қозоқли қишлоқлари оралиғида, Қамайтепадан 5 км шимоли-ғарбда, Қашқадарёнинг ўнг қирғоғидан 550 м масофада жойлашган йирик ёдгорлик Қулоқлитепа ўрнида бўлган. Маҳаллий кишиларнинг шоҳидлик беришларича, ёдгорликнинг шимол

томонидан Нийозаариқ деб номланган эски ариқ ўтган ва бу ариқ ўтган асрнинг 60-70 йилларида кўмилиб кетган (Жуманазар, Абдусаттор, 2007, 34-36 б.). Қулоқлитепа арк ва шаҳристондан иборат йирик ёдгорлик бўлиб, томонлари 370х260 м (9,5 га), жануби-шарқ томонида, томонлари қуйи қисмида 90-80 м, устки қисмида 50х40 м, баландлиги 14-15 м бўлган йирик арк жойлашган. Аркнинг ғарб ва шимол томонларини "Г"симон шаклга эга бўлган шаҳристон эгаллаган. Арк шаҳристондан мудофаа хандаклари билан ажратилган.

Нийоза қишлоғи Амир Темур ҳукмронлиги йилларида ҳам мавжуд бўлган ва қишлоқ Шарафуддин Али Йаздийнинг "Зафарнома" асарида ҳам тилга олинади (Йаздий, 1997, 57-б.). Абдусаттор Жуманазарнинг маҳаллий аҳоли ўртасида олиб борган суриштиришлари пайтида Қулоқлитепа яқинида Қашқадарё қирғоқларида ўрта асрларда фаолият кўрсатган қадимий кўприкнинг излари тўғрисида ҳам маълумот топган. Бу кўприк тахминан ўтган асрнинг 30-40 йилларида ҳам мавжуд бўлган ва "Пули Мирза" деб аталган (Жуманазар, Абдусаттор, 2007, 47-б.). Бизнинг Жанубий Суғднинг ўрта асрлар даври йўллари географияси ва шаҳарлари жойлашувини устидаги таҳлилмиз шуни кўрсатадики, Нийоза қишлоғи ўрни деб ҳисобланган Қулоқлитепа Самарқанд-Термиз йўли устида жойлашган бўлиб, бу йўл Самарқанд – Жом – Сариқтепа – Нийоза – Ғузор (Хўжа Бузургтепа) орқали Термизга, ёки Нийоза–Субах–Ўликтепа орқали Келиф ва Балхга кетган. кетган. Нийозадан Чироқчи туманидаги Чияли массиви Ўймовут қишлоғи ҳудудида жойлашган Сариқтепа (7 га) ёдгорлигигача бўлган масофа 33 км, Сариқтепадан Жомгача бўлган масофа эса 28 км ни ташкил этади. Агар Қулоқлитепадан Қашқадарё ёқалаб Насафга қараб юрилса, ундан 29-30 км масофада Фархурдиза (Қўрғонтепа) жойлашган. Ўз таҳлилларимизга ҳам таянган ҳолда биз Нийоза қишлоғи локализацияси масаласида Абдусаттор Жуманазарнинг фикрига қўшилишни лозим топдик.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Бартольд В.В. Географический очерк Мавераннахра, т. I, М., 1963.

2.Жуманазар, Абдусатттор. Насаф, Тошкент, 2007.

3.Йаздий, Шарафуддин Али. Зафарнома. Тошкент, 1997.

4.Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX- начала XIII вв. Ташкент, 1996.

5.Лунина С.Б. О возможности отождествления Наукад-Курейша. Научные труды Ташкентского гос.университета. №473, Ташкент, 1974.

6.Лунина С.Б. Города Южного Согда, Ташкент, 1984.

7.Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции (КАТЭ) по изучении восточной половины Кешской области УзССР 1966 г. Археология Средней Азии. Сборник научных трудов ТашГУ, №533, Ташкент, 1977.

8.Раимкулов А.А., Чешмели И. Эгамбердиев Ф.П. Археологические раскопки на Ялпактепа Гузарского района Кашкадарьинской области в 2007-2008 гг. Археологические работы в Узбекистане 2007-2008 гг. Самарканд, 2010.

9.Раимқулов А.А. Ўликтепа – Кеш воҳасининг жанубий дарвозаси. "Ўрта асрларда Мовароуннаҳр маданияти ва шаҳарсозлиги" мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. Самарқанд, 2023.

10.Самаркандские документы XV-XVI вв. (О владениях Ходжа Ахрар в Среденей Азии и Афганистане). Факсимилие, критический текст, перевод, введение примечания и указатели О.Д.Чехович. М., «Наука» 1974.

11.Cesmeli I., Raimkulov A., Gunozu H. Guney Sogdiana bolgesi Guzar vahasi Yalpaktepe sehri harabesi Ozbek-Turk arkeolojik kazi calismaci (Ozbekistan /Kaskadarya). Turkiyat mecmuasi. Istanbul, 2011.

12.Cesmeli I., Raimkulov A., Gunozu H. Ozbekistan'da Guzar vahasi (Guney Sogdiana) Yalpaktepe sehri harabesi 2011 yili Ozbekistan -Turkiye uluslararasi ortak arkeolojik kazi calismaci/ Turkiyat mecmuasi. Istanbul, 2012.

ЛЕГЕНДЫ И ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРАВДЫ ПРО АНТИХАЛИФАТСКИХ ДВИЖЕНИЙ.

Н.О.Хушваков
Доктор исторических наук.
Государственный Педагогический институт “Шахрисабз”
Абдуллаев К. А.,
Кандидат исторических наук, профессор (Туркия).
Университет изящных искусств имени Мимара Синана
Олимов У.Н.
Старший научный сотрудник
Государственного музей заповедника «Шахрисабз»

Резюме: Илмий мақолада Араб босқинчиларига қарши курашган тарихий шахс Муқанна ҳақидаги ёзма манбаларда акс этган афсоналар таҳлили хамда археологик тадқиқотлар натижасида аниқланган аниқ маьлумотлар баён этилади.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё, Маварунаҳр, Хаукарья, Ворукаш, П айғамбарлар, Абу Муслим, Маҳди, Маздак, Қизилтом ва Майданак.

Приход арабов в Среднюю Азию и внедрение новой религии – ислама – были восприняты местным населением далеко не однозначно, и весь VIII в. представлял собой череду антихалифатских движений, направлен против иноземного нашествия и на завоевание независимости. Во многих случаях эта борьба облекалась в различные религиозные формы, в ней участвовали «пророки», «мессии» и даже «боги», что, впрочем, служило успешной консолидирующей силой различных слоев населения.

Восстание, во главе которого стоял Муканна, началось во второй половине VIII в. н.э. и вскоре охватило почти весь Мавераннахр. Интерес к персону Муканны у археологов, историков и востоковедов присутствовал всегда. С одной стороны, он был вызван яркостью исторической личности Муканны, исполненной мистицизма и таинственности, неординарностью человека, чья деятельность подвигла население Мавераннахра на борьбу против халифата.

Нам не известно, обладал-ли Муканна знаниями мифологии и религии древних народов, хотя даже такой его беспощадный оппонент, как Наршахи, вынужден был признать его за человека довольно образованного и сведущего в науках, хотя эти науки носят специфический характер: «он предался изучению наук и собрал сведения всякого рода. Он изучил фокусничество, науку о способах обманывать и о талисманах; хорошо изучив фокусы, он начал также выдавать себя за пророка». Такого рода действия и познания предполагают неплохое знакомство с психологией, умение манипулировать сознанием людей, дар убеждения. Вполне логично предположить, что действия такого человека были тщательно продуманы вплоть до мельчайших подробностей. Вероятно, принимались в расчет и аспекты психологического характера.

В представлениях и мифологии многих народов горы воспринимаются как священный элемент природы. Высочайшие вершины символизируют связь земного и небесного начал, являясь как бы лестницей в небесные сферы. Очень часто вершины гор считаются обиталищем богов. В индийской мифологии в этом качестве выступала гора Меру, в Авестийской мифологии – Хаукарья, от которой устремляются вниз священные воды и направляются в море Ворукаша. В представлении древних греков Олимп был обиталищем всех верховных богов греческого пантеона. Можно было бы привести ряд других примеров о культах гор у различных народов и сакральном характере потаённых и недоступных мест, где обитают высшие создания.

Интересно вспомнить в этой связи высказывание Сумбада – лидера движения, предшествующего восстанию Муканны, и охватившего Хоросан после убийства Абу Муслима аббасидами. По словам Низам аль-Мулька, Сумбад поучал, что Абу Муслим живет вместе с Махди и Маздаком в далеком и высоком замке.

Можно предположить, что к моменту начала активной деятельности Муканны уже сложился и был популярен среди населения Хорасана культ Абу-Муслима, и были широко известны легенды о нем. Возможно, что это обстоятельство в определенной мере могло повлиять на формирование программы Муканны вообще и в выборе места для постройки укрепления в частности. Предпочтение горной местности и вершины горы не было случайным, и в полной мере соответствовало его религиозно-пропагандистской программе. Вполне вероятно, что резиденция на вершине горы должна была, по замыслу Муканны, восприниматься населением как обиталище бога. Возможно, что частью этой же программы «обожествления» была и задумка с покрывалом, которое постоянно носил новоявленный «бог».

Скрытый под покрывалом «лик бога», который не дано было узреть взгляду человеческому, создавал вокруг личности вождя ореол таинства и святости. Интересную мысль высказывает Бируни, когда отмечает, что «аль Муканна притязал на божественное достоинство и [говорил], что он воплотился по той причине, что никому не дано видеть [божество] прежде воплощения».

Это обстоятельство вынуждает нас вновь возвратиться к эпизоду гибели Муканны. По Наршахи, после того как «военачальник Муканны, который был в наружной крепости, открыл ворота и вышел из крепости с изъявлением покорности и принял ислам, мусульмане овладели крепостью, Муканна понял, что он не будет в состоянии удержаться во внутренней крепости». Далее, ссылаясь на рассказ одной из жен Муканны, ставшей впоследствии бабушкой одного из дихкан Кеша Абу-Али Мухаммада, сына Харуна, Наршахи повествует о том, как Муканна, по обыкновению, совершая трапезу со своими женами, добавил яд в вино, все женщины выпили вино и упали замертво. Осталась в живых лишь та, от лица которой идет рассказ, она вылила вино за ворот и притворилась мертвой. «Муканна встал, посмотрел, счел всех женщин мертвыми и пошел к своему рабу. Он ударил его саблей и отрубил ему голову… Муканна подошел к печи, снял свое платье и бросился в огонь. Когда он бросился, из печи пошел дым. Я подошла к печи и не заметила никаких признаков Муканны и ни одного человека живого не было «они (люди Муканны. – Авт.) пришли в округу Кеша, захватили дороги и взяли крепость Невакес у Сиама и Сенгердих». В списке объектов Кешской области ибн Хаукаля 14-м по порядку идет «Сангардак внутренний» и 15-м «Сангардак внешний». По Бартольду: «Порядок, в котором перечисляются эти волости, очевидно, не находится в связи с их местоположением. Названия волостей показывают, что в состав Кешской области входило также Гузарское бекство и даже долина реки Сангардак, хотя город этого имени, как мы видели, упоминается среди городов крепости. Причиной его самосожжения было то, что он всегда говорил: «Когда мои рабы возмутятся, я вознесусь на небо и оттуда приведу с собой ангелов, чтобы наказать людей. Поэтому и он сжег себя, чтобы народ подумал, что Муканна вознесся на небо, чтобы привести оттуда ангелов и подать им помощь с неба и чтобы таким образом вера его осталась в мире».

Надо признать, что многое в этом рассказе выглядит неправдоподобным (о том как, например, три дня разжигали печь и др.) и легендарным, однако в акте самосожжения с этой точки зрения можно увидеть еще один аспект, а именно, то, что Муканна хотел остаться неразоблаченным и после смерти.

Мы приводили уже тот факт, что почти все без исключения источники рисуют облик преследуемого вождя безобразным или уродливым. Покрывало, скрывающее лицо, давало простор фантазии и провоцировало такую негативную портретную характеристику, хотя создается впечатление, что воинам халифа так и не удалось увидеть лица «пророка». Интересную и в то же время вполне убедительную версию эпизода гибели дает Бируни. «Окруженный со всех сторон, он сжег себя, чтобы его тело исчезло и приверженцы его поверили бы его словам. И сгорел он, но то, чего желал, не удалось: [его тело] не исчезло и было найдено в печи. Ему отрубили голову и отослали ее аль-Махди, повелителю правоверных, который тогда находился в Халебе».

Несколько иная версия гибели Муканны содержится в сочинении Абу Са’ида Гардизи «Зайн ал-Ахбар», однако и в ней вождь восстания стремится остаться неузнанным. По

словам Гардизи (XXXVIII): «Когда Муканна отчаялся в своем положении, он собрал всех своих жен, приготовил яду и всем им обещал рай, когда они выпьют того яда. Все тотчас же умерли. Муканна тоже выпил яду и умирал дольше. Он приказал, чтобы один из его товарищей отрубил Муканне голову и завещал сжечь его тело в огне, дабы его не нашли. Некоторые из тех заблудших, которые следовали его примеру, говорили: он-де ушел на небо».

Среди приверженцев Муканны всегда присутствовало неудержимое желание увидеть лицо своего новоявленного «бога». По словам Наршахи, около «50000 человек из войска Муканны, из жителей Мавераннахра, из тюрков и прочих, собрались к воротам крепости Муканны и с земными поклонами просили, чтобы он удостоил их своего лицезрения, но не получили никакого ответа».

Настойчивая просьба приверженцев увидеть лицо своего бога, пусть даже ценой жизни, вынудили Муканну назвать день, когда бы все они могли прийти. Далее Наршахи передает остроумный прием, примененный лидером движения, которое зачлось ему как совершение чуда, которого так жаждал преданный ему народ. «Он приказал тем женщинам (женщины Муканны. – Авт.), чтобы каждая из них взяла по зеркалу и вышла на вершину крепости и чтобы они держали зеркала одно против другого. Когда лучи солнца упали на землю и все женщины взяли в руки свои зеркала и держали их ровно, одно против другого, народ уже собрался; когда солнце осветило зеркала, то вследствие отражения, вся окрестность была залита светом. Тогда Муканна сказал рабу: “Скажи моим рабам, что Бог покажет им свое лицо, – пусть смотрят”. Посмотрели они и увидели, что весь мир как бы залит светом; они испугались и все разом упали ниц, восклицая: “О Господи! Этой силы и этого величия, что мы видели довольно; если больше того увидим, то сердца наши разорвутся (от страха)”. И так они лежали распростертые ниц, пока Муканна приказал тому рабу: “Скажи моим приверженцам, чтобы они подняли свои головы от поклона, потому что Бог доволен ими и простил их прегрешения”. Весьма любопытным в данном эпизоде является расстановка женщин с зеркалами – они должны были стоять друг против друга. День был назначен самим Муканной, но ничего не говорится о времени суток. Однако выражение «когда лучи упали на землю» явно указывают, что это были утренние часы. Более того, когда первые лучи солнца, коснулись вершины холма, где стоял замок вождя, его подножие между тем оставалось не освещенным и находилось в тени гор.

Мы еще вернемся к этому важному обстоятельству при описании археологического памятника, здесь же хотелось отметить, что прием, рассчитанный на эффект яркой, как бы ослепляющей вспышки света, был возможен лишь при определенных условиях. Восходящее с востока солнце первым освещает расположенный на высоте замок, соответственно, прилегающее к горе пространство с западной стороны остается еще в предрассветных сумерках. И чтобы осветить эти сумерки, понадобилось двойное отражение солнечных лучей. Поймав луч восходящего солнца, его отражали в противоположном зеркале, т.е. в восточном направлении, а уже второе зеркало било своим лучом в западном направлении, т.е. в толпу собравшихся у западной стороны у основания холма, на котором стоял замок.

Этот эпизод, если он имеет под собой какую-то реальную основу, дает нам ориентацию ворот крепости, которые должны были располагаться с западной стороны с возможным отклонением на север или юг. Войско и прочее население соответственно ожидало появление Муканны в прилегающем к воротам пространстве, т.е. с запада.

Вторая сторона вопроса связана с особенностями его крепости – ее сложную планировку источники описывают в туманных выражениях. Почти во всех публикациях, авторы непременно упоминали крепость Муканны, находящуюся в труднодоступной высокогорной местности, однако конкретное место ее расположения оставалось в области догадок и предположений.

В одном из ранних исследований по топографии Кеша В.В. Бартольд, анализируя топоним Кешк-руд, связывает его с названием реки и отмечает, что это же название носила (по Хаукалю) волость, где находились истоки реки. Ас-руд – другой рукав реки, вытекавший из гор Сиам или Синам; близ его русла находились Южные ворота Кеша; такое же название

носили горы, из которых вытекает Каратаг-Дарья. Название это распространялось на всю северную часть Гиссарского кряжа; в горах Сиям, по мнению Бартольда, находилась крепость, «где в 70-х годах VIII века заперся со своими приверженцами пророк Муканна, в течение нескольких лет успешно отражавший нападения арабов» Бартольд [1. 1963, 188]. В ходе археологических исследований Кашкадарьинской области были локализованы некоторые города и селения, которые упоминаются в связи с освещением событий движения Муканны. Например, С.К. Кабанов пишет: «Гиссарский хребет известен в средневековых источниках как горы Сиям или Синам. Эти горы упоминаются в связи с крупным народным движением VIII в. н.э. – восстанием Муканны, направленным против арабских завоевателей. Одним из эпизодов этого восстания была многолетняя оборона Муканны в горах Синам, причем источники указывают, что в этих горах существовали внутренняя и внешняя крепости Муканны. Что представляла собой внутренняя крепость и находилась ли она в горных долинах, осмотренных нами, или же в соседних – этого нельзя сказать до сплошного обследования всех долин горных рек, несущих свои воды с юга в Кашкадарью. Внешней же крепостью, как уже и теперь ясно, являлась одна из этих долин, так как каждая из них могла быть неприступной твердыней, с водой и с посевами, в которой можно было защищаться много лет; это была естественная крепость». [2. 1950, 96].

В результате разведочных работ по исторической географии древнего Кеша и Нахшаба были отмечены памятники, расположенные в высокогорной части (более 2000 м над уровнем моря), представлявшие собой руины различных крепостей, основной период обживания которых приходится на VII–IX вв., т.е. эти памятники синхронны времени Муканны. Среди других городов, захваченных людьми Муканны, упоминается и Навакет. О.Г. Большаков связывает этот топоним с Навакет Курайшем, правда, под знаком вопроса. Локализация этого пункта, как и других городов и селений Кеша, покоренных Муканной, пока не может считаться окончательной [3. 1976, 98].

Уже в 1963–1967 гг. археологическая экспедиция, руководимая М.Е. Массоном, обследовала в восточной части долины Кашкадарьи крупные средневековые памятники. Так, городище Камайтепа площадью 24 га, находящееся недалеко от кишлака Чим, было отождествлено М.Е. Массоном с Наукат-Курайшем; Ходжа-Бузруктепа, что в 9 км к северу от Гузара, – с Искифагном; а городище Уликтепа, также расположенное в Гузарском районе, – с Субахом. Однако локализация Наукат-Курейша на месте Камайтепа была принята не всеми исследователями.

Наукат-Курейш, судя по источникам (Истахри), был крупным городом и остановочным пунктом на пути из Кеша в Несеф. Так, ал-Истахри пишет, что он находился на расстоянии 5 фарсахов от Кеша (по Самани – в 6 фарсахах от Несефа). Еще В.В. Бартольд предполагал, что город этот мог располагаться где-то в районе современного селения Карабаг. При археологическом обследовании этой территории внимание исследователей привлекли два крупных памятника – городища Алтынтепа и вышеупомянутое Камайтепа. Раскопки, проведенные на Алтынтепе С.Б. Луниной, дали основания связать Наукат-Курейш с этим памятником [4. 1984, 56]. Однако, учитывая, что источники помещают этот город в пойме реки Сурхоб (что может соответствовать тюркскому Кызылдарья) и что мог существовать и другой путь из Кеша в Несеф, А.С. Сагдуллаев предложил искать Наукат Курейш южнее.

Следует сказать, что крепость Муканны в археологическом отношении до настоящего времени не являлась предметом специального изучения, хотя предпринимались попытки ее обнаружения. Как отмечалось выше, главными причинами были труднодоступность и отсутствие каких-либо точных координат и привязок к местности. Было известно лишь то, что крепость была сооружена близ Кеша– Шахрисябза. Учитывая современное расположение этого города, окруженного со всех сторон горами за исключением западного направления к современному Карши (древний Несеф), ареал поиска представлялся весьма широким. С северной и восточной сторон Шахрисябз-Кеш окружен горами Зеравшанского хребта, между тем как южная часть охвачена кольцом западных и северных отрогов Гиссарского хребта.

Все перечисленные обстоятельства вынуждали к более внимательному анализу информации, заключенной в письменных источниках, в том числе и косвенных данных в сочетании с анализом характера ландшафта. Надежное место, где Муканна мог укрываться в течение длительного времени, должно было соответствовать определенным требованиям: изолированность и потаенность с одной стороны и удобство коммуникаций с различными частями Согда (Мавераннахра) – с другой. Учитывая скорость распространения влияния Муканны в Бухарском, Самаркандском, Сангардакском направлениях, можно предположить, что крепость имела важное стратегическое значение и располагалась на месте перекрещивания дорог разных направлений. К этому же надо добавить то, что связь с войском, часть которого должна была находиться рядом для защиты вождя и мобильность армии зависели от места расположения крепости, являвшейся своего рода штабом, откуда отдавались приказы.

О времени постройки крепости каких-либо точных сведений в источниках не имеется. Есть все основания предполагать, что оно укладывается в общие хронологические рамки выступления лидера движения и его миссионеров и последующего восстания. Хронология восстания Муканны – аспект противоречивый в источниках и дискуссионный в литературе.

Временем post quem может служить отъезд Муканны из селения близ Мерва, где он прятался после приказа правителя Хорасана Хумайда ибн Кахтаба арестовать его. Этому событию предшествовала кампания араба Абдаллаха ибн Амра, который выдал за Муканну свою дочь, переправился через Окс и пришел в Нахшаб и Кеш, пропагандируя учение Муканны и вовлекая народ в новую веру. Наршахи сообщает, что много народу «было совращено с истинного пути. В Кеше и окрестностях этого города последователи Муканны были особенно многочисленны». По времени это произошло, скорее всего, после приезда Муканны в Кеш, где население этой части Маверанахра составляли преданные и надежные сторонники движения. Возведение крепости, по всей вероятности, можно связать с прибытием Муканны в Кеш, превратившийся к тому моменту в надежный оплот его учения.

Хронологически этот этап можно отнести к подготовительной фазе перед восстанием, т.е. времени бегства Муканны из Мерва в Мавераннахр после 769 г. Теоретически уже 769 г. мог быть годом строительства крепости. Далее, опуская ряд событий, развернувшихся в Мавераннахре, остановимся на важнейшем из них. Начало 880-х годов знаменуется покорением долины Кашкадарьи Саидом ал-Хараши и Мусаййабом. В это же время происходит осада крепости Муканны, однако она была прекращена или отложена из-за наступления зимы. Скорее всего, строительство домов вблизи осажденных по приказу ал-Хараши относится к этому же времени (возможно, осень 782 г.). Командование войском полностью переходит в руки ал-Хараши, между тем как Мусаййаба отъезжает в Мерв. Сложность в определении начальной даты строительства крепости заключается в отсутствии точного хронологического репера. Так, например, ат-Табари в своей предельно краткой хронике относит начало восстания к 161/777– 778 г.: «Среди того, что произошло в этом году, было выступление Хакима ал-Муканна в Хоросане, он говорил о переселении (душ. – Авт.), относя это к себе. Он ввел в заблуждение множество народу, усилился и перебрался в Мавераннахр. Для борьбы с ним ал-Махди послал несколько военачальников, и среди них Му’аза б. Муслима, который был тогда наместником Хорасана, а с ним Укбу б. Муслима, Джабраила б. Йахйу и Лайся, мавлю ал-Махди. Потом ал-Махди поручил с ним одному Са’иду ал-Хараши, придав ему этих военачальников. И начал ал-Муканна собирать продукты, готовясь к осаде в замке около Кеша».

Время гибели Муканны ат-Табари относит к 163/779–780 г.: «Среди того, что произошло в этом году – гибель ал-Муканны. Дело было так; Са’ид ал-Хараши осадил его под Кешем, и стало ему тяжко в осаде. Когда он почувствовал свою гибель, то выпил яду и напоил им своих жен и близких, умер сам, и, как сообщают, умерли все они. Мусульмане вошли в его крепость, отрубили ему голову и послали ее ал-Махди, который был тогда в Халебе». Приведенные выше хронологические рамки ат-Табари, как это очевидно, не охватывают всей длительности событий, во всяком случае подготовительного и начального этапов. Время окончательной сдачи крепости и гибели Муканны, как мы видим,

определяется в источниках по-разному. Источники обычно дают 163/779 г., между тем как Салами помещает эту дату в 166/782, другие предлагают 167/783 г. или даже 169/78524.

Для установления времени сооружения крепости есть и другая возможность, если принять во внимание упоминание Наршахи. Однако вряд ли можно представить возможность 14-летней осады, тем более что сам же Наршахи пишет далее, что Саид ал-Хараши, расположившись у ворот крепости, стоял там лето и зиму, т.е. непосредственно осада самой крепости длилась не более года – до следующей весны и наступления тепла. Интересно, что цифра 14 присутствует и у ал-Бируни [5. 1957, 211]. Он пишить что, «он разбил рати аль- Махди и владычествовал четырнадцать лет, пока его не осадили и не убили в сто шестьдесят девятом году хиджры». Более вероятным нам представляется то, что период в 14 лет подразумевает общее пребывание Муканны в крепости от начала и до последних дней. Если рассуждать в логической последовательности, то дата возникновения крепости должна относиться ко времени после 768 г., т.е. после приказа Кахтабы об аресте Муканны и бегства последнего в Мавераннахр. Если мы берем во внимание вышеназванную цифру пребывания, то дату сооружения крепости мы получаем в зависимости от вышеперечисленных версий времени гибели.

Наиболее вероятной представляется дата гибели его в 167/783 г., и тогда соответственно годом постройки крепости можно считать 769, если учесть тот факт, что Муканна какое-то время прятался недалеко от Мерва. «Хумей, сын Кахтаба, который был амиром Хоросана, приказал схватить Муканну, но он убежал из свое- го селения и скрывался до тех пор, пока узнал, что в Мавераннахре много народа перешло в его веру и что эти люди стали открыто исповедовать новую веру». Это в како й-то мере вдохновило лидера движения перебраться поближе к своим приверженцам. Несмотря на охрану берегов Джайхуна (Амударья) 100 всадниками, специально высланными Кахтабой, Муканне со своими 36 людьми удается переправиться через реку и достигнуть области Кеш.

Теоретически временем строительства мог быть и 768 г. (после месяца шабана, т.е. августа) при вступлении Кахтабы в свои обязанности, когда первостепенной задачей для него был захват лидера запрещенного движения. В этом случае для постройки крепости оставалось короткое время, так как во второй половине октября и в начале ноября в этой горной местности выпадают осадки и наступают холода. Точной информации, близ какого селения или города была построена крепость, в источниках не имеется, но почти все сходятся на том, что крепость была построена в окрестностях Кеша. Одним из первых селений, которое присоединилось к Муканне и приняло его учение, было селение Субах; лидером здесь был Амр из Субаха (они подняли восстание и убили своего амира, благочестивого человека происхождением из арабов). Такое чтение мы встречаем у Самани и Якута. Селение Субах, по словам Самани, находилось в окрестностях Гузара, в 6 фарсахах от Несефа (Карши).

Для выбора места немаловажное значение имело географическое расположение, с независимым обеспечением питьевой водой и продовольствием. Наршахи говорит, что «в горах Сам была очень сильная крепость и в ней канал с проточной водой, деревья и пашни». Название «Сам» варьируется у средневековых авторов, например, Гардизи передает его как Сийям. Интересно, что Ибн Хаукаль среди волостей Кешской области приводит название Сиям (или Синам).

В своем предельно кратком описании крепости Наршахи отмечает, что «в ней были ручей, деревья и возделанные поля». В следующем сообщении содержится не менее важная для нас информация, на которую не всегда обращают внимание: «Была еще одна крепость, более сильная, чем эта, которую он приказал перестроить. Там он собрал много богатства и бесчисленное количество вещей и разместил охранников». Однако располагалась ли вторая крепость также в горах Сама (Сиама), не уточняется. Теоретически, если название «Сам» могло означать горную местность (район – рустак), то, по нашему мнению, вторая крепость находилась тут же, но речь могла идти и о другой горе. Описывая вторую крепость, в которой обосновывается Муканна со своими приближенными, Наршахи упоминает снова,

что «внутри крепости имелись источник воды, деревья и посаженные поля. Его (Муканны. – Авт.) приближенные и генералы вместе с мощной армией располагались в крепости».

Однако возникает вопрос: насколько независимым в экономическом отношении было положение обитателей крепости, несмотря на повтор о кажущемся изобилии крепости? Наршахи сам дает повод для сомнения в этом. Во внутренней крепости (цитадели) находились женщины – жены Муканны (дочери дихканов Согда, Кеша, Нахшаба) и приближенный раб – в другом месте он называет его имя – Хаджиб: «Что касается необходимого продовольствия, то ежедневно один раз отворялись ворота крепости, а вне крепости был один доверенный человек, который приготовлял все необходимое. Раб призывал этого человека, приносил в крепость продукты и снова запирал ворота крепости до следующего дня». Сообщение ат-Табари о том, что «начал ал-Муканна собирать продукты, готовясь к осаде в замке около Кеша», свидетельствует о том, что крепость зависела от внешнего снабжения; её собственных ресурсов было недостаточно, чтобы содержать то количество обитателей, что находилось в ней.

Выбирая наиболее удобное место для строительства, Муканна руководствовался вполне резонными соображениями, главными из которых были безопасность и стратегическое положение места, о которых мы упоминали выше. Но только ли фортификационные задачи и стратегическая целесообразность повлияли на выбор места для крепости в высокогорной долине?

Гардизи (XXXV. 126) отмечает, что Муканна избрал для себя крепость Сийам, расположенную в округе [города] Кеша, и ту крепость обнесли оградой. По всей вероятности, под «оградой» следует понимать стену, так как другое ограждение в случае осады вряд ли могло выполнять защитную функцию. В другом отрывке, описывающем ситуацию, когда люди Муканны после столкновений с отрядами ал-Хараши потерпели значительный урон, а оставшаяся часть двинулась к Муканне в сторону Кеша, Гардизи отмечает, что Муканна засел в крепости Сийаме, окружил ее рвом и вступил в бой с мусульманами.

Дела у сторонников Муканны пошли плохо, но они терпели, пока не дошло до того, что они «стали поедать кожу друг с друга». Они запросили у Хариши мира без ведома Муканны, и Хариши дал согласие. Тридцать тысяч человек вышли из-за рва и ушли, а Муканна остался с двумя тысячами человек мужчин и женщин- невольниц, его последователей».

Кызылтом представляет собой небольшое селение (кишлак), расположенное по обоим берегам реки Турнасай и южнее с небольшим отклонением на восток от горы Майданак. Высота горы Майданак чуть более 2900 м над уровнем моря.

От Кызылтома путь лежал в северо-западном направлении вдоль Турнасая. С этого места начинается, называемая Дарваза (Ворота). Дарваза представляют собой расщелину, образованную крутыми склонами – отрогами Гиссара; по дну этого ущелья протекает вышеупомянутая река. Дорога пролегала по склону правого берега Турнасая. Местность эта покрыта можжевеловым лесом, некоторые из кустарников имеют довольно толстый ствол и пышную крону. В конце сентября почва здесь покрыта пересохшей травой, местами довольно высокой, весной и ранним летом эти места напоминают альпийские луга – очень удобные и богатые пастбища для скота. зимой эти места покрываются, по словам местных жителей, толстым (более 1 м) слоем снега и практически непригодны для проживания и выпаса скота. По словам пастухов, на противоположном от Турнасая склоне горы имеется озеро, которое пересыхает к поздней осени, и после этого, за неимением воды в зимнее время, весь скот сгоняется вниз на равнину.

Примерно в 5 км к северу с небольшим отклонением на запад от селения Кызылтом находится урочище под названием Котов. Место это представляет собой плато относительно ровного рельефа с небольшими депрессиями и всхолмлениями, вполне пригодное для запашки под пшеницу и картофель, чем и занимаются сезонно поселившиеся здесь жители селения Туток. Это селение расположено к северо-западу от урочища Котов, дорога следует туда по пойме реки Турнасай. Расстояние от Котов до археологического памятника примерно 1,5–2 км, но дорога в этой части очень трудная – крутой спуск и такой же крутой подъем.

К памятнику можно подняться с его южной стороны от дна сухого русла сая, образованного селевыми водами; отсюда круто вверх тянется овраг, вымытый стекающими с холма водами. При восхождении по склону оврага с левой стороны была зафиксирована стена, выложенная из рваного камня. Впоследствии она была изучена более детально. Начало этого оврага примыкает к южной части городища; вся накопившаяся влага, стекающая с городища, течет отсюда в южном направлении и, сливаясь с вышеупомянутым саем во время дождливого сезона, соединяется с Турнасаем. Памятник с северной и северо-западной стороны примыкает к обрывистой части холма. Городище имеет форму неправильного круга, к которому в его юго-восточной части примыкает аппендикс, вытянутый с севера на юг. Городище делится на две части: шахристан и так называемая цитадель, имеющая в плане округлую форму, укрепленная крепостной стеной по гребню возвышенной части с северной и северо-западной стороны. С южной стороны цитадель также отгорожена от «аппендикса» стеной, которую мы условно называем шахристаном. Сам шахристан укреплен стеной вдоль правого берега оврага (ориентация по течению стекающей воды) и имеет подтреугольную форму с острой вершиной, обращенной к югу. Следует отметить, что с точки зрения защиты от врага – это единственная уязвимая часть городища. Соответственно, вторая линия обороны могла проходить по стене, отгораживающей шахристан от цитадели. В южной и юго-восточной части городище неприступно в силу природных особенностей. В этой части холм, на котором расположено городище, имеет крутой обрывистый характер.

Стена, сложенная из крупных рваных камней и следующая от начала оврага в западном направлении, как бы отгораживающая цитадель от шахристана, сохранилась на высоту от 60 см до более чем 1 м. у основания стена имеет ширину более 1,5 м, однако следует отметить множество беспорядочно раскиданных по обе стороны аналогичных камней, некогда составлявших единое целое со стеной, но в результате многовековых естественных разрушительных процессов – выветривания, осадков, температурных перепадов и т.д. – потерявших с нею связь. Камни покрыты ярко-красным налетом, напоминающим «ржавчину». В самой западной оконечности этой стены из ее толщи проросли деревья можжевельника, как бы разорвав стену. Толщина стволов этих деревьев, доходящих порой до 50 см, также в некоторой мере служит временным показателем.

В северной и северо-западной части стена цитадели, следующая по гребню холма в направлении юг–юго-восток, прослеживается на расстоянии более 260 м. Она значительно разрушена и в более сохранившейся части имеет высоту в 1,2 м, а в разрушенной, низкой части около – 30–40 см. Стена была выложена из крупных кусков камней неправильной формы, доходящих до 50–60 см вперемешку с более мелкими камнями размером 20–25 см. Стена шахристана, следующая вдоль правого берега оврага по направлению север-юг, тоже значительно разрушена. у основания она имеет ширину 3–3,5 м, в некоторых местах явно видны следы крушения стены в виде куч хаотично упавших камней, примыкающих к линии крепостной стены. В наиболее сохранившейся части высота стены доходит до 1,5 м. Внутри пространства цитадели не выявлено следов каких-либо архитектурных сооружений за исключением одного, расположенного в 150 м от угла, образованного крепостными стенами южной и северо-западной части памятника. Остатки архитектурного сооружения представляют собой длинную стену, выложенную из крупных камней. По основанию ширина разрушенной стены достигает 4,7 м, высота около 0,5 м. Она тянется по направлению север–юг на расстояние 33,4 м. На расстоянии 9,4 м с южной ее оконечности перпендикулярно к ней примыкает другая стена, идущая по направлению запад–восток на расстояние 8,2 м.

Городище находится на отроге-холме, разделенном глубоким ущельем, вдоль которого протекает река Турнасай, точнее, на ее правом возвышенном скалистом берегу. Вдоль этой реки следует дорога в северном направлении к селениям Туток (расположено западнее, с небольшим отклонением на север) и Ишкент, расположенному северо-западнее от городища на расстоянии ок. 5 км. Эта дорога хорошо просматривается с вышеописанного памятника. С высоты цитадели вдалеке, в северном направлении хорошо видны зеленые оазисы Китаба и Шахрисабза, еще далее на север эти оазисы замыкаются отрогами зеравшанского хребта, за которыми простирается Самаркандский Согд. По свидетельству местных жителей, в юго-

восточном направлении за горами, которые виднеются через долину Турнасая, дорога ведет в Сангардак, расположенный на территории современной Сурхандарьинской области.

Хотелось бы чуть подробнее остановиться на селении Ишкент. На некоторых старых картах конца XIX – начала XX в. название селения дается как Инчкент. Такой географический пункт упоминается у Махмуда Кашгари [6. 1963, 442]. Как «инч кенд – город, в котором проживали люди Муканны. Впоследствии был разрушен» (покинут? – Авт.).

Еще одним пунктом, расположенным недалеко от городища, является селение Зармас. Напомним, что в числе селений и замков, население которых еще долго продолжало придерживаться учения Муканны, называется именно это селение.

«Ахмад, сын Мухаммада, внук Насра, говорит, что и теперь секта Муканны осталась в области Кеша и Нахшеба и в некоторых селениях Бухары, каковы, например, замок улара, замок Хыштыван, селение Зармас». В переводе Лыкошина в примечании относительно зармас говорится, что это «вероятно ошибка, вместо Зарман». зарман с Арбинджаном упоминаются у Наршахи в другом месте и располагаются на дороге между Самаркандом и Бухарой64. Название же Зармас явно передает другой географический пункт. Селение с таким названием существует до настоящего времени и находится недалеко от предполагаемой крепости Муканны к востоку с небольшим уклонением на юг и восточнее кишлака Кызылтом. Оно значится и на старых картах XIX – начала XX в.

При сопоставлении данных письменных источников о крепости Муканны и открытого нами археологического памятника обнаруживается масса совпадений, как-то: удобное и в то же время труднодоступное для неприятеля положение на высокой скале, как бы выдвинутой вперед, что позволяло обозревать все подступы и держать под контролем дороги. В наиболее высокой северной части, по всей видимости, располагалась цитадель. Она была отгорожена, судя по остаткам сохранившейся стены, от шахристана в южной части. Шахристан располагался на естественном оплыве, вытянутом с севера на юг и укрепленном по периметру каменной стеной. Таким образом, можно сказать, что перед нами двухчастное сооружение на высокой скале, окруженной стеной – т.е. то, что некоторые авторы называют «оградой». При поверхностном обзоре ров, наличие которого отмечают некоторые авторы (Гардизи, Аль Асир), не виден, хотя за таковой можно принять овраг, который тянется с севера на юг на большом протяжении, и, как отмечалось при описании памятника, имеет вид естественного образования. Не исключено, что именно эту часть средневековые авторы могли счесть за ров, и, несомненно, сам ров за истекшие двенадцать веков должен был значительно видоизмениться. Таким образом, степень вероятности, что открытый нами памятник является «крепостью Муканны», остается достаточно высокой.

Литература

1. Бартольд В.В. 1963: Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. 1. М.

2. Кабанов С.К. 1950: Археологические работы в 1948 г. в Каршинском оазисе // Труды Института истории и археологии АН Уз. ССР. Т. II / В.А. Шишкин (ред). (Материалы по археологии и этно- графии Узбекистана). Ташкент, 82–133.

3. Большаков О.Г. 1976: Хронология восстания Муканны // Эпиграфика Востока, 90–98.

4. Лунина С.Б. 1984: Города Южного Согда в VIII–XII вв. Ташкент.

5. Бируни 1957: Памятники минувших поколений / Пер. М.А. Салье // Бируни Абу Рейхан. Избранные произведения. Ташкент.

6. М. Қошғарий. муд. 1963: Туркий сўзлар девони. (Девони луғатит турк). III жилд. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. Тошкент.

ИЗ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЮЖНОГО СОГДА.

Ваисова Н.
доцент кафедры “Всемирной истории”
Национального Университета Узбекистана
им. Мирзо Улугбека Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье раскрывается территория **Южного Согда** охватывающий вдоль нижнего течения Зеравшана с центрами в Самарканде, Эркаше (Уструшане), пенджикенте, Шахрисябзе был важнейшим культурным и экономическим регионом Средней Азии в раннем Средневековье. Согдийцы, говорившие на восточноиранском языке, славились как торговцы, дипломаты и культурные посредники на Великом шелковом пути.

Ключевые слова: Согдийцы, Еркурган, Шахрисабз, Нахшеб, Насаф, Кашкадарья.

Аннотация

Maqolada Janubiy Sug‘d hududi yoritilgan bo‘lib, u Zarafshon daryosining quyi oqimi bo‘ylab joylashgan bo‘lib, markazlari Samarqand, Erkaş (Ustrushona), Panjikent va Shahrisabz bo‘lgan. Bu hudud Erta O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning eng muhim madaniy va iqtisodiy mintaqalaridan biri bo‘lgan. Sharqiy eron tillarida so‘zlashgan sug‘diylar Buyuk Ipak yo‘lida savdogar, diplomat va madaniy vositachi sifatida mashhur bo‘lishgan.

Kalit so’zlar: Sogdlar, Erqo’rg’on, Shaxrisabz, Naxsheb, Nasaf, Qashqadayo.

Abstract

The article explores the territory of Southern Sogd, which stretched along the lower course of the Zeravshan River and included major centers such as Samarkand, Er-kash (Ustrushana), Panjakent, and Shahrisabz. This region was one of the most important cultural and economic areas of Central Asia during the Early Middle Ages. The Sogdians, who spoke an Eastern Iranian language, were renowned as merchants, diplomats, and cultural intermediaries along the Great Silk Road.

Keywords: Sogdians, Erkurgan, Shahrisabz, Nakhshab, Nasaf, Kashkadarya.

Согдийская культура отличалась религиозным синкретизмом: здесь сосуществовали зороастризм, буддизм, христианство (в основном несторианство) и манихейство. Эти религии часто оставляли след в иконографии и художественном оформлении жилищ и храмов. Одна из наиболее ярких сторон южносогдийской культуры — это монументальная живопись. Особенно знамениты фрески из Пенджикента (VII–VIII вв.), изображающие сцены из иранской мифологии, эпоса (в том числе «Шахнаме»), охоты, пиров и театрализованных представлений. Эти фрески уникальны по своей живости, цветовой гамме и вниманию к деталям. Городская архитектура Южного Согда демонстрирует как местные традиции, так и влияние соседних культур.

Важно отметить крепости и дворцы с богато украшенными интерьерами, сложные системы водоснабжения, городское планирование с базарами и кварталами ремесленников. Южный Согд играл важнейшую роль в межкультурном обмене между Персией, Индией, Китаем и тюркским миром. Согдийцы были посредниками не только в торговле, но и в передаче религий, технологий и художественных форм. В античный период Согд входит в систему эллинистических государств, поэтому не случайны те элементы, которые встречаются в материальной культуре, градостроительстве и искусстве, сложившиеся под воздействием эллинизма **[1].** Так, крупнейший город античного Согда Еркурган имел типично греческую структуру. Один их храмов города был выполнен в виде двухколонного святилища с четырехколонным портиком на главном фасаде, обращенном к обширном двору, и имеет планировку, восходящую к греческим сооружениям - мегарон. В целом эллинизм играл значительную роль в культуре согдийских городов, об этом свидетельствуют и согдийские монеты, реверсы которых украшались изображениями Зевса, Геракла, протомой коня. Знаменитый бухарский клад греко-бактрийских монет также подтверждает, что эта территория или была подчинена Греко-Бактрии, или, по крайней мере, активно торговала с ней. В месте с тем, в Согде появляется собственная монетная чеканка, основанная на подражании греко-бактрийской.

На первые века нашей эры приходится расцвет городской культуры и городской жизни Древнего Согда. Помимо Афрасиаба и Еркургана, достигает своего подъема жизнь целого ряда городищ. Основные древние памятники Кашкадарьинского Согда: городища Калаи-Захоки-Морон, Каляндар-тепе; Самаркандского Согда: Дурмен-тепе и Курган-тепе в Мианкале, Тали-Барзу.

Несмотря на это, имеются и доказательства о вхождении долины Кашкадарьи в состав Согда. Так, в Китабском оазисе г.Шахрисабз до недавнего времени назывался «Сугут», а местное население Китабо-Шахрисабского оазиса считали себя согдийцами «сугути» **[2].**

Название «Еркурган» переводится как «земляная крепость». Связано это с тем, что внутренняя и внешняя части древнего города были окружены мощнейшими глинобитными стенами. Они защищали город от всевозможных врагов и недоброжелателей. По некоторым сведениям, толщина нескольких стен достигала целых 17 метров. Это делалось для того, чтобы поверху могли передвигаться арбы (двухколёсные повозки) для внутренних перевозок зерна или тар с водой. Внутри цитадели кипела жизнь: ремесленники изготавливали керамическую посуду, обувь и одежду, кузнецы готовили орудия труда, а население занималось земледелием и скотоводством. На высоком холме, в самом центре городища стоял роскошный дворец правителя – символ его власти и авторитета. Вокруг дворца жили представители знати и уважаемые личности, а поодаль простолюдины **[3].**

В ходе раскопок, кроме дворца и цитадели были найдены остатки городского святилища, мавзолея и зороастрийской дахмы. Это свидетельствует о распространении зороастризма на восточных землях.

Еркурган был основан в IX—VIII веках до нашей эры и за всю свою историю не раз преображался. К сожалению, до наших дней от могучего города остались лишь руины и земляные бугры, хранящие в себе многовековую историю. В VI веке Еркурган был завоёван тюрками и полностью разрушен. В настоящее время все уникальные находки, найденные в результате раскопок, представлены в музее «Афрасиаб» в городе Самарканде. Среди них разнообразные монеты и оссуарии, фрагменты посуды и предметов быта – всё то, что хоть немного может рассказать нам об укладе древней жизни.

На территории Карши начало возникать поселение с VII века до н. э. Именно тогда вокруг древнего города начали строить оборонительные стены.

Есть данные о том, что город в ту эпоху носил согдийское название Навтак или Навтака, которое можно буквально перевести как «Новое здание». Будучи в составе Греко-Бактрийского царства, город, возможно, носил название Евкратидея. Средневековый город Нахшаб с одноименной областью находился в Каршинском оазисе, в нижнем течении Кашкадарьи. Западная часть долины Кашкадарьи, где был расположен Каршинский оазис, по своим природно-климатическим условиям значительно отличается от восточной. Здесь, в нижнем течении реки, основную площадь долины занимают равнины и степи, куда вода Кашкадарьи поступает лишь в определенное время года, а летом высыхает. Поэтому, здесь с древнейших времен вплоть до нашего времени наряду с земледелием всегда было развито и скотоводство, что определяло и особенности культуры населения этой области.

Кашкадарья одна из древнейших времен до начала XIII в. периодически впадала в Зарафшан, который, в свою очередь, в период половодья по сухому руслу Махандарьи впадал в Амударью. Еще в начале XX в. можно было проследить сухое русло Кашкадарьи, которое от Карши поворачивало на север и доходило до сухого озера Куль Маи, весной наполнявшегося водой.

Древнейшим административным, экономическим и культурным центром области низовьев Кашкадарьи был город, остатками которого является городище Еркурган, расположенное на расстоянии 10 км к северо-западу от Карши, на полпути к Касану. Самые нижние археологические слои городища относятся к IX-VIII вв. до н.э., а в первых веках до н.э. здесь был крупный город, занимавший площадь около 150 га и существовавший до V-VI вв. н. э. Жизнь на территории городища частично продолжалась и позже вплоть до IX-X вв.

Город был окружен двумя рядами стен, (внутренняя из которых длиной около двух км была возведена в VI-V вв. до н. э. и окружала площадь около 40 га. Внешняя стена длиной

4,5 км была построена во II в. до н.э. и окружала всю площадь древнего города, т.е. около 150 га. Не исключено, что существовала еще более ранняя стена, окружавшая небольшое поселение, существовавшее на месте Еркургана в IX-VIII вв. до н.э**.[4]**

Некоторые исследователи отождествляют городище Еркурган со столицей древней области Наутака античных источников. Другие локализуют в низовьях Кашкадарьи античную область Ксениппу, а городище Еркурган отождествляют с царским городом «басилея» тех же источников, что представляется более вероятным. Возможно, что название Ксениппа сохранилось в реликтовом виде в названии города Касан, недалеко от которого расположено городище Еркурган. На медных монетах, имевших хождение в IV-VI вв. н.э. в долине Кашкадарьи, имеется согдийская надпись из двух слов, в чтении которой предлагалось несколько вариантов.

Можно предположить, что город, существовавший на месте Еркургана, так же как и вся область, расположенная в нижнем течении Кашкадарьи, в древности назывался Касаном, а название Ксениппа было его калькой или искаженной формой, отраженной в древнегреческих источниках.

Раннесредневековый Нахшаб впервые упоминается в исторических хрониках китайских династий. Согласно китайской хронике «Бейши (386-581 гг.5 правитель владения Нашеболо, т, е. Нахшаба, имел местопребывание в городе Боло. В «Таншу» (618- 907 гг.) это владение называется Нашебо или Малое Шы, поскольку оно было в зависимости от соседнего владения Шы, т. е. Кеша.

Городище Кала-и Захок-и Марон было окружено тремя рядами мощных крепостных стен, которые были возведены в первых веках до н. э. и охватывали территорию около 225 га. В V в. стены города были фундаментально реконструированы и на всей территории городища жизнь продолжалась до VIII в. В IX-XII вв. была обжитой только его центральная часть. Следовательно, этот город продолжал частично существовать и в средние века и, возможно, упоминается в источниках в качестве селения. В вакфных документах XVI-XVII вв. упоминается селение Нахшаб в вилайете Насаф, которое находилось в местности к югу от средневекового Насафа. По-видимому, поселение на месте городища Кала-и Захок-и Марон в период развитого и позднего средневековья продолжало называться Нахшабом в отличие от Насафа, который находился к северо-западу от него.

По местному преданию, городище Кала-и Захок-и Марон было основано ахеменидским царем древнего Ирана Джамшидом и перестроено царем-узурпатором Зохаком.

После арабского завоевания административным центром области становится город, расположенный на левом берегу Кашкадарьи, к северо-западу от Карши. В источниках его название приводится в двух формах: Нахшаб и Насаф. Первое из них в средние века считалось старым названием города, а второе - возникшим вследствие арабизации. В единственной первоначальной форме Нахшаб город упоминается только у Наршахи и в «Худуд ал-'алам». Несмотря на арабское влияние, название города сохранилось до наших дней именно в форме Нахшаб. Еще в начале XX в. это название носили одни из городских ворот Старого Карши.

Средневековый Насаф состоял из трех частей - «кухандиза», «мадины» и «рабада», т. е. цитадели, шахристана и пригорода. Город был окружен крепостной стеной, в которой было четверо ворот: Бухарские, Самаркандские, Кешские и ворота Губдин. В X в. цитадель лежала в развалинах и был населен только обширный рабад, расположенный на возвышенностях по обоим берегам Кашкадарьи **[5].**

Таким образом, можно сказать названия города во времени и перемещение городских центров разных веков в пространстве, но, по существу, все это – история одного и того же столичного города области низовий Кашкадарьи, который развивался по схеме: Еркурган – Калаи Захаки Марон – Шуллюктепа – Карши. Никшапа – Ксениппа, Нахшаб, Насаф и Карши являются историческими названиями центрального города области в низовьях Кашкадарьи.

Список использованных источников и литературы

1. Обельченко О.В. Культура античного Согда.-М., 1992.-С. 220.
2. Сулейманов Р .Х . Древний Нахшаб. Самарканд – Т., 2000.-С. 162

3. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства культуры Центральной Азии. – Т., 2008.-С.250
4. https://bookatour.me/ru/uzbekistan/attraction/drevniy-gorodishe-erkurgan-karshi.html
5. https://www.kroraina.com/casia/kamalid/kamal1_3.html
6. https://sanat.orexca.com/2005-rus/2005-2-2/xenippa-2/#:~:text=%D0%92%20IX%20%E2%80%93%20VIII%20%D0%B2%D0%B2.,%D1%8D

КАРАВАН-САРАИ КАК ЭЛЕМЕНТЫ ИСТОРИКО-ТОРГОВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ УЗБЕКИСТАНА

Эгамбердиева .Г.А.
Доктор философии по историческим наукам (PhD)
Национальный университет Узбекистана

Аннотация

В статье рассматривается историко-культурное значение караван-сараев, расположенных на территории современного Узбекистана, как важнейших объектов инфраструктуры Великого шелкового пути. Караван-сараи выполняли функцию временных постоялых дворов для купцов и путешественников, а также были узловыми точками обмена товарами, информацией и культурными традициями между народами Азии, Ближнего Востока и Европы. В аннотации также подчёркивается современное значение караван-сараев в контексте развития туризма и охраны культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: караван-сарай, Узбекистан, Великий шелковый путь, архитектура, культурное наследие, туризм, историческая инфраструктура.

Аннотация. Ушбу мақолада ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида жойлашган карвонсаройларнинг тарихий-маданий аҳамияти, шунингдек, уларнинг Буюк Ипак йўли инфратузилмасида тутган ўрни таҳлил қилинади. Карвонсаройлар савдогарлар ва сайёҳлар учун вақтинча тўхтаб ўтиш манзили бўлиб хизмат қилган, шунингдек, Осиё, Яқин Шарқ ва Европанинг турли халқлари ўртасида товар, ахборот ва маданий анъаналар алмашинувининг муҳим нуқталари бўлган. Шу билан бирга, аннотацияда Ўзбекистондаги карвонсаройларнинг замонавий аҳамияти — туризмни ривожлантириш ва маданий меросни муҳофаза қилиш нуқтаи назаридан алоҳида таъкидланади.

Калит сўзлар: карвонсарой, Ўзбекистон, Буюк Ипак йўли, меъморлик, маданий мерос, туризм, тарихий инфратузилма.

Abstract This article explores the historical and cultural significance of caravanserais located in the territory of modern-day Uzbekistan, highlighting their role as key components of the infrastructure of the Great Silk Road. Caravanserais served as temporary resting places for merchants and travelers, and functioned as crucial hubs for the exchange of goods, information, and cultural traditions among the peoples of Asia, the Middle East, and Europe. The abstract also emphasizes the contemporary relevance of these caravanserais in the context of tourism development and cultural heritage preservation in Uzbekistan.

Keywords: caravanserai, Uzbekistan, Great Silk Road, architecture, cultural heritage, tourism, historical infrastructure.

В средние века в Центральной Азии до прихода арабов на торговых путях существовали постоялые дворы как необходимый элемент международной торговли. В Средней Азии в доисламский период таких учреждений известно не много. Есть данные, что в VII-VIII вв. в Согде существовали постоялые дворы, причем, судя по письменным источникам, владельцем двух из них был согдийский правитель Диваштич [1]. Только после арабских завоеваний на Востоке складывается достаточно стандартный и хорошо узнаваемый тип постоялого двора, предназначенного для купеческих караванов. В арабских странах такие постройки назывались караван-сарай, то есть дворец для караванов, а в областях, где преобладали тюркские языки, к ним применялось название хан. В первые века Хиджры, во время арабских завоеваний, на Востоке возводились крепости для борцов за веру газиев, которые назывались рибаты. Впоследствии, в более спокойные времена, они превращаются в придорожные гостиницы, часто сохраняя название рибат или рабат.

С развитием торговли на караванных путях появляются постоялые дворы, причем самые ранние известны уже во II тыс. до н.э. После арабских завоеваний на Востоке складывается достаточно стандартный и хорошо узнаваемый тип постоялого двора, получивший название «караван-сарай» или «хан». Караван-сарай выступал для путешественников не

только в качестве крова, но и местом, где можно было узнать новости, встретиться с купцами из других стран и городов. Нередко здесь заключались торговые сделки. Внутри многих сооружений были чайханы, бани, больницы и прочие функциональные сооружения.

На сегодня караван-сарай - уникальный памятник архитектуры, возникший на границе Европы и Азии. Несмотря на то, что в последнее время не наблюдалось новых построек караван-сараев, он по-прежнему остается важнейшей архитектурной частью исторического центра города. Караван-сараи возводились вдоль караванных путей на расстояниях, которые равнялись дневному переходу (около 35-45 км) [2]. Эти постройки сохранили вид хорошо укрепленных крепостей с мощными стенами и единственными воротами. Прямоугольник стен окружает обширный двор, внутри которого вдоль стен тянутся галереи помещений различного назначения: стойла для вьючных животных, складские помещения для товаров, комнаты для гостей. В хорошо благоустроенных караван-сараях были сделаны банные помещения и почти всегда находилась мечеть. Некоторые крупные караван-сараи, такие как, например, Рабат-и Малик (особенно во втором периоде), действительно напоминали загородные дворцы и, вполне возможно, в составе помещений имели покои, в которых останавливались правители и другие важные гости во время путешествий. Для защиты караванов от разбойников в придорожных гостиницах мог быть небольшой военный гарнизон. Рядом обязательно находились источники воды - колодцы или сардоба.

Строительство караван-сараев вдоль крупных торговых путей осуществлялось государственной властью. Известно, что Омеядский халиф Омар II (717-720) вменил в число главных обязанностей для своих наместников [3].

Особого размаха возведение придорожных гостиниц достигло в X-XП вв. По сведениям Ал Истахри и Ибн Хаукаля в Маверан-нахре в X в. было более 10 тыс. постоялых дворов. В них предоставляли корм животным, еду и постель людям. Кроме придорожных гостиниц были караван-сараи при въезде в города и внутри городских стен. Городские караван-сараи были не только гостиницами, но в них также могли находиться мастерские ремесленников и лавки торговцев. Средневековые городские караван-сараи изучены слабо, так как они почти не сохранились, зато придорожные постоялые дворы известны во множестве во всех восточных странах.

Например, караван-сарай Нугай расположен рядом с торговым куполом Токи-Саррафон. Построен он в XVI веке во времена правления эмира Мухаммеда Рахимбийа. Одноэтажная постройка содержит в себе 45 худжр, не считая комнат для прислуг и нескольких кухонь. Одновременно караван-сарай мог вместить более тридцати торговцев (савдогаров), со всей "свитой" сопровождающих, которые получали здесь полный перечень услуг, существующий на тот момент [4].

Караван-сарай Нугай можно было назвать и средневековым торговым домом. Именно сюда поступали китайские и индийские ткани и шелка, поэтому здесь шили и реализовывали халаты. Кроме того, здесь продавали чай и мануфактуру из Ирана, производили музыкальные инструменты, торговали различными предметами быта и культуры. Дневной оборот караван-сарая на тот момент составлял около пяти тысяч динар.

Сегодня этот архитектурный памятник, как и многие достопримечательности Бухары, внесен в список всемирного наследия ЮНЕСКО и взят под государственную защиту.Ежедневно его посещает около сотни туристов и гостей Бухары. Здесь же, в одной из худжр, во время проведения ежегодного международного фестиваля "От шелка до специй" проходит дегустация лучших сортов вин.

На территории Узбекистана, в окрестностях города Навои, располагается средневековый караван-сарай Рабат-Малик. Здесь находили приют путешественники, шедшие из Самарканда в Бухару. Постройка датируется XI веком и представляла собой монументальный дворцовый комплекс [5].

О планировке караван-сарая удалось выяснить после проведенных археологических раскопок. Здесь располагались жилые помещения для отдыха, баня, мечеть и конюшни, которые, судя по своим размерам, могли вместить в себя не менее 150 лошадей. Величественно выглядел и входной портал, высотой в 18 метров. Недалеко от главного портала

располагается сардоба, которая представляет собой зарытую цистерну для хранения воды. Сама вода поступала из реки Зарафшан, и ее хватало на все нужды гостей. На сегодня от бывшего дворцового комплекса остались лишь руины и часть южного фасада с башней. На входном портале имеется терракотовая надпись, гласящая о том, что комплекс был воздвигнут «Султаном мира, и с помощью Бога стал подобным раю»[6].

Рабати Малик был сооружен 1070-е годы Караханидом Шамс ал-мулк Наср ибн Ибрахимом (1068-1080 гг.) и реконструирован в первой четверти XII в. также Караханидом Арслан-хан Мухаммад ибн Сулайманом (1102-1130 гг.). Внутренняя планировка здания, кроме главного фасада, давно была разрушена и затянута землей. Во 2-й половине XX в. по ее территории проложили автомобильную дорогу, разделившую памятник на две части. Еще в 30-х годах XX в. можно было увидеть значительную часть главного фасада, где по сторонам мощного входного портала располагались стены, оформленные плоскими стрельчатыми нишами и гофрами. В трех десятках метров от портала Рабат-и Малик поныне располагается древний источник воды – сардоба, современница караван-сарая. Сардоба – это крытая куполом цистерна для сбора и хранения воды. Сардоба Малик имела купол внутренним диаметром 13 м. и ее округлая в плане цистерна была утоплена в грунте на 6 м.В надземной части имеются четыре арочных оконных проема, освещающих интерьер. Проемы расположены по сторонам света. С северной стороны, под оконным проемом, имеется дверной арочный проход, ведущий в интерьер. К проему ведет наклонный коридор от поверхности земли. В конце XX века Сардоба была полностью отреставрирована в пределах ее первоначального объемно-планировочного облика. Комплекс из караван-сарая и сардоба Рабати Малик XI-XII вв. является уникальным не только в Центральной Азии, но и на всем мусульманском Востоке, так как представляет собой сохранившийся образец древних сооружений, сооружавшихся вдоль трасс Великого Шелкового пути. Караван-сарай является одним из крупных сооружений подобного типа на территории Средней Азии и несет преемственную связь со старыми традициями построек, представляя новый стиль, характерный для феодального периода. Система водоснабжения сардобы и караван-сарая Рабати Малик, является уникальным и выдающимся примером взаимодействия человека с окружающей средой, развития инфраструктуры и технологий [7].

На территории южной части плато Устюрт, на естественном холме, возвышающемся на высоте 193,5 метров над уровнем моря, расположен караван-сарай Белеули. Он находится в 22,9 километрах к северо-востоку от трассы и железной дороги Бейнеу – Кунград, а также в 78,3 километрах на юго-восток от железнодорожной станции Каракалпакстан и в 66,7 километрах на северо-запад от станции Жаслык в Кунградском районе Республики Каракалпакстан. Путешествуя по окрестностям Белеули, можно обнаружить остатки других небольших построек, таких как Чурук, Кос-Кудук и Булак. Несмотря на свои скромные размеры, они хранят память о жизни, бившей ключом на этих ныне безлюдных просторах. Колодцы, сохранившиеся при многих из них, свидетельствуют о былом значении этого края как важного перевалочного пункта караванных путей [8]. Археологические исследования показали, что эти сооружения являются караван-сараями, построенными в XI-XII веках. Они расположены через равные промежутки в 20-30 километров - примерно на расстоянии дневного перехода каравана. Величественный караван-сарай Белеули, возвышающийся на естественном холме в южной части плато Устюрт, являет собой впечатляющий архитектурный памятник XIV века. Расположенный в стороне от основных дорог, этот монументальный комплекс долгие века принимал уставших путников, следовавших по старой дороге между Сарайшыком и Хивой.

Двигаясь на северо-запад по цепочке этих караван-сараев, можно выйти к реке Эмба, затем к Уралу и далее в Нижнее Поволжье. А двигаясь на юго-восток и спустившись с возвышенного Устюрта, отмеченного цепью сторожевых крепостей и сигнальных башен хорезмийцев, дорога после многочисленных переходов приведет путника в средневековую столицу Хорезма - город Ургенч. Таким образом, эта сеть караван-сараев играла важную роль в организации торговых маршрутов, соединяя различные регионы Центральной Азии в тот исторический период.

В XIX в. в связи с расширением торговли с Бухарой, Персией и Россией Хиве потребовались новых торговые площади. Так как основные базары располагались у ворот Палван-Дарвазы, то в 30-е гг. XIX в. Алла-Кули-хан возвел здесь огромный караван-сарай, для размещения которого пришлось сломать стену Ичан-Калы у дворца Таш-хаули. Караван-сарай служил гостиницей для купцов и местом оптовой торговли. Вскоре к его главному фасаду был пристроен многокупольный торговый пассаж - тим. Его западный и восточный фасады оформлены в виде городских ворот, облицованы шлифованным кирпичом с выкладкой фигурных поясов на угловых башнях [9].

Одним из таких специализированных мест как раз являлся караван-сарай Сайфиддина в Бухаре, построенный в XIX веке. Караван-сараи служили своеобразной стоянкой и приютом для странствующих торговцев, местом отдыха и ночлегом, подобием современной гостиницы или отеля. В них путешественники могли хранить свои товары в специальных складских помещениях, кормить животных в отведённых загонах, перекусить в чайхане или попариться в бане. Также особенным местом в караван-сарае считался обменный денежный пункт.

Караван-сарай Сайфиддина считался государственным (эмирским) и был местом приюта преимущественно баев, занимающихся торговлей золотом, жемчугом, алмазами и другими драгоценными металлами. По этой особенности можно судить, что в данном караван-сарае был хороший оборот, достигавший в день около 5.000 рублей. В настоящее время у входа в старинный караван-сарай расположились небольшие лавки с национальными сувенирами и поделками как напоминание о когда-то оживлённом торговом месте, где останавливались сотни торговцев со всего Великого Шёлкового Пути.

Караван-сарай Коба якобы возведен на строительном материале, использованном в строительстве дворца Ак-Сарай. Отметим, что размеры кирпичей, имеющие следы вторичного использования, ближе к кирпичам Ак-сарая (25,26,27 см шириной и 5 см. толщиной). О происхождении названия «Коба». Как отмечают некоторые специалисты, это интерпретация местными жителями слово «Кубба» - купол. Вероятности этой версии способствует наличие в памятнике относительно крупных куполов. Другая версия – это высказывание местных старожилов, что «Коба» искаженное слово «Куфа». По их мнению, памятник был сооружен мастерами – выходцами из города Куфа, который находится на территории современного Ирака. Частичная перестройка или использование караван-сараев под медресе – не является единичным случаем в архитектуре Средней Азии. Можно вспомнить перестройку в 17 в. караван-сарая Мирзои (15 в.) в мечети-медресе Тилла-кори в Самарканде или превращение караван-сарая Надир Диван-беги в Бухаре в медресе [10] Можно сделать вывод о том, что для торговых сооружений и караван-сараев Шахрисабза было присуще отсутствие декора. Тем не менее, во время реставрационных работ, проведенных 2014-2016 гг. караван-сарай Коба украсили майоликовым декором, который не известен и характерен для Шахрисабзской школы зодчества.

Караван-сараи, сохранившиеся на территории Узбекистана, являются уникальными памятниками архитектурного и исторического наследия, отражающими важную роль страны в системе Великого шелкового пути. Эти сооружения служили не только местами временного отдыха для торговцев, путешественников и караванов, но и выполняли функцию центров торговли, обмена культурной информацией и взаимодействия между народами.

Исторические караван-сараи представляют собой выдающиеся образцы средневековой архитектуры Востока, демонстрируя высокий уровень инженерной мысли, градостроительства и организации инфраструктуры в условиях пустынных и степных регионов.

В современном Узбекистане значение караван-сараев выходит за рамки их первоначальной функции. Они становятся важным объектом научных исследований, архитектурной реставрации и туристической привлекательности. В условиях развития культурного туризма и интереса к историческому наследию, сохранение, изучение и популяризация этих объектов приобретают особую актуальность.

Таким образом, караван-сараи Узбекистана не только являются символами исторической связности Евразийского континента, но и представляют собой значимый ресурс для

укрепления национальной идентичности и продвижения культурного имиджа страны на международной арене.

Список использованной литературы

1. Абдуллаев, А. Х. Караван-сараи Средней Азии: История, архитектура, функции. — Ташкент: Фан, 2002.

2. Арипов, М. У. Архитектура караван-сараев Узбекистана. — Ташкент: ТАФ, 2010.

3.Бартольд, В. В. Сочинения в 9 томах. Т. 3: Пути сообщения и караванная торговля в Средней Азии. — Москва: Наука, 1965.

4.Бабаджанов, Б. М. Исторические и архитектурные памятники на трассах Шелкового пути в Узбекистане. // Журнал "Наследие", №2, 2016.

5.Якубов, Ю. А. Между базаром и мечетью: Градостроительство и инфраструктура средневековой Бухары. — Самарканд: СамГУ, 2014.

6.UNESCO. Silk Roads: Caravansaries and Infrastructure. — https://en.unesco.org/silkroad (дата обращения: 2024.04.10)

7.Исмаилова, Н. Х. Роль караван-сараев в развитии торговли на Великом шелковом пути. // Вестник историко-культурного наследия, №4, 2019. – С. 34–41.

8.Ахмедов, К. М. Архитектурные комплексы Шелкового пути в Узбекистане. — Ташкент: Узбекистан, 2008.

9.Номозов, А. И. Туристский потенциал исторических караван-сараев Узбекистана. // Туризм и культурное наследие, №1 (31), 2022. – С. 51–57.

XVI ASR BOSHLARIDA BUXORO XONLIGIDA ILM-FAN VA MADANIYAT MAVZUSINI O`RGANISHDA INNOVATSIYALAR

Mirzayev B,
tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori, “University of business and science” Toshkent filiali Ijtimoiy gumanitar va tillar kafedrasi dotsenti,
Shernazarova K,
“University of business and science” Toshkent filiali magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoroda shayboniylar sulolasining hukmronligi, shayboniylar sulolasi vakillarining ilm-fan taraqqiyotiga qo’shgan hissasi, shayboniylar homiyligi ostida ijod qilgan olimlar, shayboniylarning ilm-fanga homiyligi haqidagi ma’lumotlar yoritib berilgan.

В данной статье освещены сведения о правлении династии Шайбанов в Бухаре, вкладе представителей династии Шайбанов в развитие науки, учёных, творивших под патронажем Шайбанов, а также покровительстве науки со стороны Шайбанов.

This article covers information about the reign of the Shayban dynasty in Bukhara, the contribution of representatives of the Shayban dynasty to the development of science, scientists who worked under the patronage of the Shaybans, as well as the patronage of science by the Shaybans.

Kalit so’zlar: Buxoro, ilm-fan, shayboniylar, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Ko’chkunchixon, adabiyot, she’riyat, shoirlar, tarix ilmi, husnixat, kitobat san’ati, kutubxona.

Har bir xalqning tarixiy, madaniy qiyofasini aniq belgilovchi ulug’ hukmdorlari, buyuk olimlari, yirik adib va shoirlari bo’ladi. Shu jumladan Vatanimizning boy o’tmishida muhim iz qoldirgan Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon singari shoh, xon va amirlari o’tmishimiz qiyofasini tasavvurimizda jonlantiradi.

Ma`lumki, Shayboniylar davrida fan va madaniyatning rivojlanishida mazkur sulola namoyondalarining tutgan o‘rni katta bo‘lgan. Avvalo, ularning o‘zlari nihoyatda o‘qimishli shaxslar bo’lganlar. Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko‘chkunchixon, Ubaydullaxon, Abdulazizxon, Abdullaxon kabi shayboniylar sulolasi vakillari turkiy va forsiyda she’rlar bitganlar. Ayniqsa, shayboniylar sulolasi hukmdorlari aksariyat holda turkiy tilda ijod qilgan va uning nufuzi ma’rifat tili sifatida nufuzi oshgan edi. Shuningdek, ular adabiyotdan rashqari, diniy va dunyoviy ilmlarda yetarli salohiyatga ega bo’lganlar.

XV asrning ikkinchi yarmida milliy-madaniy markaz bo'lgan Hirot, XVI asrga kelib o'z mavqeyini yo'qotdi, avval Muhammad Shayboniy, keyinchalik esa Eron shohi Ismoil Safaviy kabi hukmdorlarning chekka shaharlaridan biriga aylanib qoldi. Bu davrga kelib madaniy va adabiy markazlik roli Samarqand va Buxoroga ko'chadi. Bu shaharlarga faqatgina O'rta Osiyo hududidangina emas, balki Eron, Afg'oniston, Hindiston shaharlaridan ham bu yoki u sohalarning ishtiyoqmandlari kelar edilar. Natijada bu o'lkada o'sha zamon madaniyati va adabiyotining turli sohalarida ancha ko'zga ko'ringan vakillar yashab ijod etishgan.

Shayboniylar tarixnavislik maktabiga mansub aksariyat muarrixlar temuriylar tarix maktabi an'analarining davomchilari bo'lib, asarlarining ko'pchiligi hukmdorlarning hayoti va faoliyatini yoritish bilan birga ularning siyosiy tadbirlari, harbiy yurishlari yoki din peshvolari bilan munosabatlarini tavsiflash bilan cheklanib qolgan.

Shayboniylar davriga doir mahalliy muarrixlarning asarlarini qaysi tilda yozilishi va turiga qarab uch guruhga bo'lish mumkin:

1) fors-tojik tilidagi manbalar; 2) eski o'zbek (turkiy) tilidagi manbalar;

3) sayyohlarning kundaliklari.

Fors-tojik va turkiy tillarda yozilgan tarixiy asarlar Shayboniy hukmdorlarning hayoti va faoliyati, ularning siyosiy tadbirlari, harbiy yurishlari, din peshvolari bilan munosabatlarining yoritilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Hasanxoja Nisoriy (1516-1597)ning "Muzakkir ul - ahbob"[1] (1566)va Mutribiy Samarqandiyning (1556-1630) "Tazkirot ush-Shuaro"[2,45] (1604) nomli tazkiralari buning shohididir. Bu asarlarda Samarqand, Buxoro, Toshkent va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida yashab ijod qilgan bir necha yuz adabiyot va fan arboblarining nomlari keltirilgan. Tazkiralarning tuzilishi bu davrdagi aholining madaniy saviyasi yuksak ekanligini ko'rsatadi. XVI asming birinchi yarmida Movarounnahrda o'zbek tilida adabiy va tarixiy asarlarning paydo bo'lishi maroqli hodisadir. "Tarixi guzidayi Nuratnoma"[3] shu sohadagi ilk asarlardandir. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni ham o'zbek tilida yozilgan. Bu ikki asar, garchi Shayboniyxonning topshirig'i va ishtiroki bilan yozilgan bo'lsa-da, har holda O'rta Osiyo xalqlarining tarixi, etnografiyasi va adabiyotiga doir faktlarga asoslangan juda qiziq materiallarni o'z ichiga olgan.

Shayboniy hukmdorlarining homiyligi va rahnamoligida ko'plab ilm sohalari qatori tarix ilmi juda yaxshi rivoj topgan. XVI asr tarixini yoritib beruvchi "Tavorixi guzidai nusratnoma", Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Abdulloh Nasrullohning "Zubdat al-asror", Fazlulloh ibn Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi mumtoz tarixiy asarlari[4] fikrimiz dalilidir. Bundan tashqari, Muhammad Shayboniyxon davrida Kamoliddin Binoiyning "Ajoyib ul-Maxluqot" geografik asarini ham aytishimiz mumkin[5,262].

Shayboniylar davrida Rashididdin va Sharofiddin Ali Yazdiyning tarixiy asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Ulug'bekka bag'ishlangan "Muntahabi Jome" va "Tavorixiy shohiy" degan asarlarning o'zbek tiliga tarjima qilinganligi bu davrda o'zbek tilining ta'sir doirasi kengayib borganidan dalolat beradi. O'z zamonining tarixiga doir "Sharafnomayi shohiy" (Abdullanoma) degan katta asarni Hofiz Tanish Buxoriy yozgan bo'lib, siyosiy voqealarga boy bo'lsa-da, unda XVI asrda Movarounnahrning madaniy-ma'rifiy qiyofasi ham ochib berilgan[5,262]. Shuningdek, bu davrda ayrim Shayboniy hukmdorlari adabiy asarlar yaratishda qatnashganlar. Shayboniyxonning o'zi ham o'z zamonasining o'qimishli odami bo'lgan. Bu haqida X. Vamberi shunday yozadi: "U har holda o'zining Eroniy dushmanlari tarafidan ta'sir etilganidek, nimani xohlasa, shuni bajarib yuruvchi vahshiy bir kimsa emas edi. Masalan, u zamonning ruhoniy ulamolariga katta hurmat, hatto bolalarcha itoat qilib, barcha urush safarlarida o'zi bilan barobar kichkina go'zal kutubxonasini olib yurar, Temur kabi bu ham doimo diniy munozaralarga qatnashgan. Qur'onning ba'zi bir oyatlari haqida Hirotning nimqadam tavsifchilari bo'lgan qozi Ixtiyor va Muhammad Yusufga e'tiroz ham bildirgan edi" [6,70].

Shayboniyxon Bobur aytganidek, ma'nosiz va lazzatsiz she'rlar yozmagan, balkim go'zal she'rlar yozgan. Shayboniyxon tomonidan 1508-yilda yozilgan, chig'atoy turkiy tilidagi "Bahr ul Xudo" (Haqqiqiy yo'lning dengizi) nomli diniy qasidaning yagona qo'lyozma nusxasi Angliyaning

Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qasidaning bir joyida Shayboniyxon shunday deydi:

Podsholig'da Shayboniy faqrdan ayrilmag'il,
Faqr shohi ikki olam ichra bo'lur podsho.
Tetri gar berdi seta Eroniy Turon,
Bandalik tavrin Shayboniy bermagil eldan daho[7,18].

Shayboniyxonning she'rlar to'plami bo'lgan "Devon" 191 varaqdan iborat bo'lib, bugungi kunda Turkiyaning Istambul shahridagi To'pqopi saroyi kutubxonasida saqlanmoqda. Sakkokiy, Gadoiy, Navoiy an'anasidagi klassik chig'atoy turkiy she'riyatini davom ettirgan Shayboniyxonning she'rlarida diqqatni o'ziga jalb qilgan hassos - shoirning Turkiston yurtiga bo'lgan cheksiz muhabbatini har doim tilga olib turganidir. Turkistonning Buxoro, Samarqand, Urganch, Yassi shaharlari nomini o'z she'rlarida Shayboniyxonga qadar ko'p ishlatgan boshqa shoir yo'q desak sira yanglishmaymiz[7,16]. Masalan:

Jannatida *vo* degan bog'i Samarqand elim,
Navsari a'lodegan obi Samarqand elim,
Yoki Buxoro haqida yozilgan:
Bir xayolim bor ko'ngilkim pirmu vafoiy atayin.
Ul Buxoro shahrida Ka'ba tavofin aylayin.

Shayboniyxon XVI asr adabiyotiga katta hissa qo'shgan shoirlardan biridir. Shayboniylar zamonida fan keng rivojlandi. Hatto sonlarni zarb qilish haqida izoh berilgan "Hisob usullari risolasi" XVI asrga mansub asardir. 1593-yilda Amin Ahmad Roziy "Haft iqlim" (Yetti iqlim) degan jo'g'rofiy - biologik lug'at tuzdi. Mutrabiyning dunyo xaritasi kashf qilingan. "Tazkiroti shuaro" ham taxminan shu

vaqtlarda yozilgan. Bu davrda tibbiyot sohasida qilingan ilmlar va izlanishlar fan taraqqiyotidan darak berib turardi. 1541 yilda Muhammad Husayn Ibn Al-Me'roni as-Samarqandiy tibbiyot va farmakalogiya ro'yxatiga oid ilmiy asar yozib, juda dorivor o'simliklardan dori tayyorlash va saqlash uchun ishlatiladigan idishlarning rangdor nafis sur'atlar ilova qilgan. XVI asr qozilarning hujjatlaridan biz Samarqandda tabiblar ko'z kasalliklarini davolash ishlari bilan shug'ullanganliklarini bilamiz. Ko'z tabibi Shoh Ali ibn Sulaymon Navro'z Ahmadxon huzurida ishlagan. Samarqandda Ko'chkunchixon zamonida Hirotlik tabib Sulton Ali ishlagan. U kasalliklar va terapiya haqida umumiy ma'lumot beradigan "Tabiblik dastur ul-amal"ni yozgan.

Shayboniylar davrida chingiziylar va temuriylar davrida fors tilida yaratilgan ko'p asarlar o'zbek tiliga tarjima qilingan. Kitobga qiziqish zo'rligidan kutubxonalar tashkil qilingan[5,266].

XVI asrda shayboniylar davrida xattotlik san'ati ham juda yuqori darajada rivojlangan. Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy, Muhammad ibn Is'hoq, ash Shixobiy va boshqalar mashhur husnixat ustalari edilar. 1586-1587-yillarda Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy poligrafiya san'ati nazariyasiga oid asar yozgan. Bu davrda yozilgan asarlar suratlar bilan bezatilgan. Bunday asarlar jumlasiga "Fathnoma", "Tarixi Abulxayrxoniy" kiradi. Alisher Navoiy asarlarining ro'yxati 1562-1563-yilda ko'chirilgan. Bu asarlarni bezashda ishlatilgan miniaturalar shayboniylar davri O'rta Osiyo moddiy madaniyatini aks ettiradi. Bu davrdagi musavvirlar ijodini tadqiq qilgan G.A Pugachenkova "XVI asrda O'rta Osiyoga xos alohida miniatura rassomligi paydo bo'ldi",- deb aytgan edi.

Shayboniylar vakillari xuddi Temuriylar singari nihoyatda o'qimishli madrasa ta'limini olganlar, dunyoviy va diniy bilimlarni egallaganlar, harbiy san'atda ham, she'riy san'atda ham iste'dodli, ijodkorlar bo'lgan, hatto forschani go'zal yozishni mukammal egallagan. Xullas, ziyoli davlat arboblari bo'lishgan. Shu o'rinda o'zlari ham ilm-fan rivojiga homiylik qilishgan[8,92].

Shayboniylar davrida Buxoro xonligida ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at, me'morchilikning ravnaq topishida sulola vakillarining ibratli shaxsiy ta'sirlari ham diqqatga sazovordir. Mamlakatning turli tomonlaridan taniqli shoir, tarixchi va olimlarning Shayboniyxon-dan panoh izlab Buxoroga kelishlari va layoqatlariga qarab mansab hamda uy-joy va yetarli mablag' bilan ta'minlanishlari, izzat-ikrom topishlarining boisi ham ana shundadir. Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon, Rustam Sulton, Abdulazizxon, Javonmardalixon,

Abdullaxon, va Jahongir Sulton o’z davrida yuksak qobiliyatli shoirlar bo’lishgan, o’zbekcha va forscha she’rlar yozishgan. Abdullaxon II esa musiqashunoslik, sozandachilik va astronomiya bilan shug’ullangan. Abdullaxon II Qur’oni karimni tafsir qilishda hadisi shariflarni tahlil va talqin qilishda din peshvolarining hurmatiga sazovor bo’lgan. Bu ta’rif - u tavsiflarimiz shunchaki, quruq gaplar emas, balki o’sha davrda zamondoshlari bo’lmish taniqli mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan xolis fikrlardir. Misol tariqasida bu kitoblardan ayrimlarini Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Fazlulloh ibn Ro’zbexonning “Mehmonnomai Buxoro” va “Suluk al-muluk”, Mulla Shodiyning “Fathnoma” (Shayboniyxonning tarjimai holi she’riy tarzda hikoya qilinadi) va “Tavorixi guzidai Nusratnoma” (o’zbek tilidagi nasriy asar), Abdulla ibn Muhammad ibn Ali Nasrulloning “Zubdat ul-osor” (o’zbek tilida), Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad al-Buxoriyning “Sharafnomayi shohiy” (bu asar “Abdullanoma” nomi bilan mashhur), Muhammad ibn Valining “Bahr ul-asror”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” nomli asarlarini keltirishimiz mumkin. Nomi tilga olingan mumtoz tarixiy va memuar asarlarning o’ziyoq shayboniylar davrida ham bo’lganidek, tarix fani ancha rivoj topganini ko’rsatadi. Biroq farqi shundaki, temuriylar davrida tarixiy kitoblar ko’plab forscha yozilgan bo’lsa, shayboniylar zamonida esa o’zbek tilida ham ta’rif etiladi.

Shayboniylar davrida kitobat ishlariga qo’lyozmalarni husnixat bilan ko’chirish yo’li bilan nusxani ko’paytirish, ularni voqeaband miniaturalar bilan bezatish, chiroyli va chidamli muqovalarga jamlashga katta e’tibor berilgan. Shu tariqa, Alisher Navoiy homiyligida Kamoliddin Behzod va uning safdoshlari tomonidan yaratilgan Hirot rassomchilik maktabi vujudga keladi. Zotan, bu davrga kelib, bu ham, o’zbeklarning bu boradagi markazi ham Hirotdan Buxoroga ko’chgan edi. Shayboniylardan Abdulazizxon va Abdullaxonlarning kutubxonalari o’sha zamon musulmon Sharqidagi eng yirik kitob xazinalaridan edi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Shayboniylar davrida ham temuriylar zamonidagi yuksalishning ruhi so’nmagan edi. Nafaqat poytaxt shaharlar bo’lmish Samarqand va Buxoroda, balki shular bilan bir qatorda mamlakatning barcha viloyatlarida xalqimizning ilm-fan sohasidagi buyuk ishlari, bunyodkorlik ishlari davom etar, barcha hududlarda buning dalili yaqqol sezilib turardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб (Дўстлар ёдномаси). / Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. – Т.: Халқ мероси, 1989.
2. Мутрибий Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. Т.: Mumtoz so’z, 2000. Б. 45.
3. Таворихи гузида – Нусратнома // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. XVI–XIX асрлар / Нашрга тайёрловчи: Н. Ҳабибуллаев. Тошкент, 2014. Б. 132–148.
4. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома. / Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси. Илмий муҳаррир, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Аҳмедов – Т.: Шарқ, 1-китоб, 1999, 2-китоб, 2000; Муҳаммадёр ибн Қатаған. Мусаххир ал-билод / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари И.Бекжонов, Д.Сангирова. – Т.: Шарқ, 2009; Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – Б. 199-246. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома./ Нашрга тайёрловчи: П.Шамсиев, С.Мирзаев, Эйжи Мано. – Т.: Ўқитувчи, 2008; Таворихи гузида – Нусрат-наме / Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений А.М.Акрамова. – Т.: “Фан”, 1967; Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т., 1990; Абдуллоҳ Насруллоҳий. Зубдат ул-осор. ЎзР ФА ШИ. Инв. №608.
5. Ma’naviyat yulduzlari. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,.1999.-B.262.
6. Vamberi A. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. II-jild. T., 2019.- B. 70.
7. Muqimov Z. Qilich va qalam sohiblari. –Samarqand,.2008.-B.18.
8. Muhammad Solih. Shayboniynoma. –T.:1988. –B.92.

TEMURIY SHAHZODALARNING HARBIY SALOHIYATI YOSHLARIMIZGA O‘RNAK

Ko‘paysinova N.K.
Shahrisabz “Temurbeklar maktabi”
harbiy-akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi, (PhD).

Annotatsiya

Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlaridan chiqqan buyuk temuriy sarkardalar harbiy mahorati, mohir diplomatik qobiliyati, iste’dodi-yu mahorati, aql-zakovati, yuritgan to‘g‘ri siyosati tufayli o‘z davridagi mavjud muammolarni bartaraf etishda qo‘l ostidagilarga o‘rnak bo‘la olgan. Temuriy shahzodalarning hayot yo‘li bugungi yosh avlod qalbida gurur, iftixor hissiyotini shakllantirishda, o‘z vatani oldidagi xizmatlari m’asuliyatini fidoiylik bilan bajarishga tayyor bo‘lgan avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Annotation

Amir Timur and his descendants, the Timurids, were exemplary leaders known for their military prowess, diplomatic acumen, talents, intelligence, and sound policies. They set an example for their followers in overcoming the challenges of their era. The legacy of the Timurids continues to inspire the younger generation today, fostering a sense of pride, honor, and a deep responsibility to serve their nation with commitment and a willingness to fulfill their duties. This is a crucial aspect of educating today’s youth.

Аннотация

Амир Тимур и его потомки, тимуриды, были выдающимися лидерами, известными своим военным мастерством, дипломатическим умом, талантами, интеллектом и разумной политикой. Они служили примером для своих последователей в преодолении трудностей своего времени. Наследие тимуридов продолжает вдохновлять молодое поколение сегодня, воспитывая чувство гордости, чести и глубокой ответственности служить своей стране с преданностью и готовностью исполнять свои обязанности. Это важный аспект в воспитании молодежи сегодня.

Kalit so‘zlar: imperiya, saltanat, tug‘, kent, iqto‘, qo‘shinning ilg‘or qismi, ‚manglay, hirovul, juvang‘or, suyurg‘ol, xavfsizlik, qal’al, favqulodda holat, xattotlik san’ati, qo‘lyozma, kutubxona, masjid, xonaqoh, taxallus, g‘azal.

“Buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz: “Askarlari botir el qudratli bo‘lur”, deganlar… Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug‘ lashkarboshilarimiz o‘gitlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta’kidlab kelaman. Bu o‘lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g‘urur baxsh etadi, muqaddas tuprog‘imizga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytiradi”

Shavkat Mirziyoyev

Temurbekka ko‘plab hukmdorlarda bo‘lganidek, saltanat mulk sifatida otadan meros bo‘lib o‘tmadi. Balki Yaratganning inoyati tufayli o‘zining jidd-u jahdi, g‘ayrati bilan hammasiga erishdi. U bir tug‘ ostida shunchalik katta hududni qovushtira oldiki (tarixchilar Amir Temur imperiyasi o‘sha paytdagi 27 davlatni birlashtirganini qayd etadilar. Bugungi holatga razm solinsa, bu davlatlar soni 40 ga yaqinlashib qoladi), o‘sha yillari ko‘hna va hamisha navqiron Samarqand deyarli yer yuzining bosh kentiga aylandi. Bu ulug‘ saltanat insoniyat tarixidagi eng buyuk imperiyalardan biri bo‘lib qoldi.

Ana shunday bepoyon hudud bir odamning qosh-u qabog‘iga qarardi, uning irodasi turli din va e’tiqoddagi odamlar uchun qonun edi. Yana e’tirof etiladigan tomoni – bu ittifoq kuchga, zulmga asoslanmagan edi balki xalqlarning Sohibqiron panohida, uning qanoti va marhamati ostida taraqqiy etib, to‘q, farovon yashash xohishidan yuzaga kelgan yaxlit davlat edi.

Sohibqiron Amir Temurning asosiy maqsadi mamlakat yaxlitligini ta’minlash barobarida elda osoyishtalikni saqlash va xalq farovonligini ta’minlash orqali islom dini ruvojiga hissa qo‘shish bilan allloh oldidagi burchini bajarish edi, shubhasiz. Shu sababdan bu mashaqqatli yo‘lda sabr-toqat, mardlik, adolat va jiddu-jahd bilan yo‘lidagi ko‘plab g‘ovlarga qarshi ularni yengish uchun matonat bilan kurash olib bordi.

Sohibqiron Amir Temur davlat tuzibgina qolmay, ushbu qudratli davlat chegaralarini mustahkamlashga e’tibor qaratish asnosida farzandlari va nabiralariga muhim vazifalar berish

barobarida ularda sarkardalik va davlat boshqaruvida o‘ziga xos qobiliyatni shakllantirib borgan. Temuriy shahzodalar orasidan o‘z davrida harbiylik salohiyatini o‘rganish bilan birga jang maydonlarida chiniqib, mavjud vaziyatlarda mustaqil qaror qila olish qobiliyatiga ega tadbirli, zukko, mavjud siyosiy vaziyatlarda oqilona ish ko‘radigan mohir sarkardalar yetishib chiqqan. Ularga Sohibqiron Amir Temurning o‘g‘illari Jahongir Mirzo, Umarshayx Mirzo, Mironshoh Mirzo, Shohruh Mirzo va nabiralari Muhammad Sulton, Pirmuhammad Mirzo, Iskandar Mirzollarni misol keltirishimiz mumkin.

Bahriddin Usmonov “Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti” mavzusida yozgan Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasida Movarounnahrning shimoli-sharqiy qismida xavfsizlikni ta’minlash uchun amalga oshirilgan tadbirlarni manbaalar asosida to‘liq tadqiq qilib berdi. Sohibqiron 1376-yili Farg‘ona vodiysining Xo‘jand va Andijon viloyatlari birlashtirib, yagona Farg‘ona mulki sifatida Umarshayx Mirzoga iqto‘ qilib berganidan keyin shahzodaning Oq O‘rda va Mo‘g‘uliston hukmdorlariga va isyonkor amirlarga qarshi bir necha bor mamlakat chegaralarini saqlab qolgani bizga ma’lumotlar berildi.

Amir Temurning harbiy safarlarda vaqtida roy bergan favqulodda holatlarda jonbozlik ko‘rsatgan Umarshayx Mirzo boshchiligidagi Farg‘ona qo‘shini Movarounnahrga qaytgan Sohibqiron tomonidan mamlakat mudofaasi uchun olib borilgan janglarni tahlil qilinib, alohida taqdirlangan.

Sohibqiron Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohruh Mirzo yoshligidan ilmga chanqoq bo‘lib, diniy va dunyoviy ilmlarni puxta egallagan. Sohibqironning “Besh yillik” yurishi chog‘ida Pir Muhammad Mirzo ibn Jahongir Mirzo bilan birga saltanatni boshqarish uchun poytaxt Samarqandda qoldirilgan shahzodaga hukmdorning mehri o‘zgacha bo‘lgani haqida manbaalarda ma’lumotlar bor. O‘n yetti yoshidanoq jangovor yurishlarda qatnashgan Shohruh Mirzo asosan qo‘shinning ilg‘or qismi (manglay, hirovul) va so‘l qanoti (juvang‘or) qismlariga qo‘mondonlik qilgan. 1393-1394-yillarda Sherozni fath etilishi, Tikrit, Mardin, Homid, Oq Toq, Avnik qal’alarining egallanishida faollik ko‘rsatgan shahzodani 1396-1397 yillarda hukmdor tomonidan Xuroson, Seyiston, Mozandaronni suyurg‘ol sifatida in’om etgan. Sohibqironning “yetti yillik” yurishlarida turli askariy qismlar qo‘mondoni sifatida faol ishtirok etgan Shohruh Mirzo shaxsiy qahramonlik, mardlik va mahorat namunalarini ko‘rsatgan.

1405-yilda Sohibqironning Xitoyga safari chog‘ida saltanat xavfsizligini ta’minlash, Xuroson, Eron, Iroq hududlarini boshqarish ma’suliyatini ushbu o‘g‘liga yuklagan va uni Xurosonda qoldirgan. Yo‘qorida Sohibqironning Shohruh Mirzoga mehri o‘zgacha ekanligi haqida aytgan edik. Bunga mug‘ullar tomonidan vayron qilingan Banokat shahri o‘rnida yangi shahar qurib, bu shaharga atrofda istiqomat qiladigan aholini ko‘chirib obod qilgach, uni Shohruhga suyurg‘ol etgan va ushbu shahar Shohruhiya nomi bilan o‘rta asrlarda dong taratgan.

Sohibqiron vafotidan keyin 1405-yil martda Shohruh Mirzo rasmiy ravishda temuriylar saltanati hukmdori sifatida taxtga chiqadi, o‘z nomidan xutba o‘qitib, tanga (pul) zarb qildiradi. Sohibqiron Amir Temur vafotidan so‘ng saltanatda yuzaga kelgan kuchli tarqoqlik, isyon, nizolar, yakkahikimlik uchun kurashlarni Shohruh Mirzo chuqur qobiliyati, iste’dodiyu mahorati, aql-zakovati, yuritgan to‘g‘ri siyosati tufayli bartaraf etgan. Temuriylar saltanatining hududiy kengligi, harbiy qudrati, kuchli iqtisodiy, diniy-madaniy mavqiyeni saqlashga harakat qilgan. Natijada Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon, Xorazmga yurishlar uyushtirib, sharqda Jeta (Mug‘uliston)dan tortib to Misr va Kichik Osiyo (Rum)gacha, janubda Hindistonning markaziy qismidan to dashti Qipchoq chegaralarigachabo‘lgan yerlar temuriylar saltanati tarkibiga kirgan.

Sohibqiron Amir Temurning nabiralaridan Jahongir Mirzoning kata o‘g‘li Muhammad Sulton Mirzoga ham manbaalarda juda yuksak baho beriladi. “O‘ta jasoratli, dovyurak, qat’iyatli, zukko, ga’imga nisbatan shavqatsiz jangchi bo‘lgan” deya ta’riflangan bu shjahzoda bejizga Sohibqiron Amir Temur tomonidan taxt vorisi etib tanlanmagan. “Yetti yillik urush”ga ketaturib bobosi tomonidan Samarqand humdori lavozimiga tayinlangan shahzoda 1401-yil mart oyida chingiziy Xuloguxon tasarrufida bo‘lgan Iroq va Shimoliy-g‘arbiy Eron viloyatlarini boshqraishga tayinlangan. 1402-yil bahorida Sharqiy Antaliyadagi Firot daryosining yo‘qori oqimi so‘l qirg‘og‘ida joylashgan Kamoh qal’asi og‘ir janglar natijasida egallagan, mashhur Anqara jangida shaxsan Sohibiqron rahbarligidagi markaz (go‘l)ning oldida joylashgan ilg‘or qismiga rahbarlik qilgan.

Anqaradagi g‘alabadan so‘ng Muhammad Sulton Mirzoga Sohibqiron Amir Temur tomonidan Turkiya sultonlari poytaxti Bursa shahrini egallash vazifasi topshiriladi va 30 ming kishilik qo‘shin bilan besh kunlik shiddatli janglardan so‘ng shaharni olishga muyassar bo‘ladi. Nhoyati Muhammad Sulton Mirzo boshchiligidagi qo‘shinlar Kichik Osiyoning g‘arbiy chegaralariga qadar kirib borganlar.

Sohibqiron Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx Mirzoning farzandi Iskandar Mirzo ham yosh bo‘lishiga qaramasdan Sohibqiron bobosining ishonchiga sazovor bo‘lgan shahzodalardan biri bo‘lgan. 1394-yili otasining vafotidan keyin o‘n bir yoshidayoq bobosi farmoniga binoan Farg‘ona hukmdori lavozimiga tayinlangan. 1398-yilda Jeta (Mug‘uliston) humdori Xizrxo‘ja o‘g‘lon vafotidan keyin uning to‘rt farzandi o‘rtasida boshlangan taxt uchun kurash el-ulusning tinchligini buzib, yurt vayron bo‘layotgan vaziyatda fursatni g‘animat bilgan shahzoda Andijon qo‘shinini yig‘gan va bir nechta nomdor sarkardalar hamrohligida Mug‘uliston tomon yurish qilib, Qoshg‘argacha etib boradi va keyinchalik Yorkent, Sariqqamish, Kalpi, Olako‘l, Yerqo‘rg‘on, Chahortog‘ Kuyukbog‘ nomli katta-kichik shaharlarni qo‘lga kiritgan. Xo‘tan tevarak atrofidagi bir nech qal’alar egallanadi.

1410-yili Iskandar Mirzo temuriy shahzodalar o‘rtasidagi taxt uchun kurashlarda vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib Fors viloyati hukmdori taxtini egallaydi. 1411-412 yillarda Kermon, Qum viloyatlarini o‘z tasarrufiga kiritadi va Isfahonni poytaxtga aylantiradi. Iskandar Mirzoning qisqa muddatli hukmronligi davrida Sheroz ilm-fan, adabiyot, madaniyat markaziga aylangan.bu paytda Sherozda forsigo‘y adiblar, tarixnavislar qatori turkigo‘ shoirlar ham ijod qilgan. Chunonchi, o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyondasi Mavlono Lutfiy qalamiga mansub 1218 baytdan iborat “Gul va Navruz” dostoni 1411-yilda Iskandar Mirzo istimosiga ko‘ra yozilgan. Iskandar Mirzoning o‘zi ham Sheroziy taxallusi bilan g‘azallar bitgan. Iskandar Mirzo Sherozda xattotlik san’atini shakllantirish, qo‘lyozmalarni ko‘chirtirish, kutubxona, masjid va xonaqohlar bunyod etish kabi ishlarga homiylik qilgan.

Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari o‘z davrining eng yirik sarkardalari bo‘lib, harbiy va diplomatik muvaffaqiyatlari, shuningdek, aql-idrok va sabr-toqat bilan olib borilgan siyosiy faoliyatlari bilan ajralib turadilar. Temuriylar sulolasining hayot yo‘li va faoliyati bugungi kunda ham yosh avlod uchun ilhom manbai bo‘lib, vatanparvarlik, mehnatsevarlik va fidoiylik kabi qadriyatlarni targ‘ib qilishda muhim o‘rin tutadi. Ularning urushlar va diplomatiyadagi muvaffaqiyatlari, aynan shaxsiy fazilatlaridan kelib chiqib, bugungi yoshlarni ham o‘ziga jalb qiladi. Shu bois, ular haqida o‘rganish nafaqat tarixiy bilimni oshirish, balki milliy g‘urur va vatanparvarlikni shakllantirishda, ayniqsa, yoshlarni vataniga sadoqatli, bilimli va faol fuqarolar qilib tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. “Armiya faqat qurol va aslaha bilan emas, ona Vatan uchun jonini ayamaydigan harbiylar bilan qudratlidir” mavzusida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tadbirdagi nutqi. 2025 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. H.Dadaboyev. “Sohibqiron sarkardalari”- “Nodirabegim”. Toshkent-2020
3. Bo‘riyev O., Xo‘jayorov A. Temuriylar davrida Turkiston ziyoratgohlari. Monografiya. – T.: “Voris-nashriyot”, 2002
4. Muiniddin Natanziy. “Muiniy tavorixi-ut Muntaxab” - Toshkent “O‘zbekiston” – 2011
5. Sharofiddin ali Yazdiy. Zafarnoma – «SHARQ» nashriyot -matbaa konsernining bosh tahririyati Toshkent -1997
6. Usmonov.B “Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti” mavzusida yozgan Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati-2020

MOVAROUNNAHRDA ILM MASKANLARI: OLIMLAR UYLARINING TARIXIY AHAMIYATI

Jo‘rayev M.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Katta o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqola Islom madaniyatida olimlar uylarining ilmiy-ta’lim faoliyatidagi ahamiyatini, xususan, hadis ilmining tarqalishida ulardan foydalanishning tarixiy jihatlarini tadqiq qiladi. Movarounnahr hududida (Buxoro, Samarqand, Xorazm va boshqa shaharlarda) olimlar uylarida hadis darslari o‘tkazilganligi, bu joylarning dastlabki davrlardan boshlab rasmiy ta’lim muassasalari (madrasalar) rivojlanmaguncha muhim ilmiy markazlar sifatida faoliyat ko‘rsatganligi ta’kidlanadi. Dorul Arqamdan boshlab, Buxoriy, Termiziy, Nasafiy kabi muhaddislarning uylarida olib borilgan darslar, rivoyatlar yozib olinishi va matnlar tahriri kabi jarayonlar tahlil qilinadi. Shuningdek, Qoraxoniylar davrida (4–6/10–12-asrlar) uylarda o‘tkazilgan majlislarga misollar keltirilib, bu an’ananing mintaqada qanday saqlanib qolganligi ko‘rsatiladi. Xulosa qilib, olimlar uylarining nafaqat shaxsiy turar joy, balki ilmiy merosni yetkazish, saqlash va rivojlantirishdagi markaziy rolini ta’kidlaydi. Bu jarayon keyinchalik rasmiy madrasalar tizimining shakllanishiga asos bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: olimlar uylari, hadis ilmi, Movarounnahr, muhaddislar, Dorul Arqam, Buxoriy, Qoraxoniylar davri, ilmiy an’analar, ta’lim tarixi

Abstract: The article examines the historical role of scholars' homes in Islamic educational activities, particularly in the transmission of hadith knowledge. It highlights how these private residences served as vital centers of learning in Transoxiana (Bukhara, Samarkand, Khorezm, etc.) before the formalization of institutions like madrasas. The Islamic history (e.g., Dar al-Arqam) to the Karakhanid era (10th–12th centuries), showcasing how luminaries such as al-Bukhari and al-Termizi taught hadith in their homes. The article also explores the processes of oral transmission, text compilation, and copying that occurred in these domestic spaces. Ultimately, it argues that scholars' homes were not merely private dwellings but dynamic hubs of knowledge preservation and dissemination, laying the groundwork for later institutionalized education.

Keywords: Scholars' homes, hadith studies, Transoxiana, Muhaddithun, Dar al-Arqam, al-Bukhari, Karakhanid period, scholarly traditions, history of education

Аннотация: В статье исследуется историческая роль домов ученых в исламской образовательной деятельности, особенно в передаче знаний о хадисах. Подчеркивается, как эти частные жилища служили важными центрами обучения в Мавераннахре (Бухара, Самарканд, Хорезм и др.) до появления формальных учреждений, таких как медресе. В работе анализируются примеры из ранней исламской истории (например, Дар аль-Аркам) вплоть до эпохи Караханидов (X–XII вв.), демонстрируя, как такие выдающиеся ученые, как аль-Бухари и ат-Тирмизи, преподавали хадисы в своих домах. Также рассматриваются процессы устной передачи, составления текстов и их копирования, которые происходили в этих домашних пространствах. В итоге делается вывод, что дома ученых были не просто частными жилищами, а динамичными центрами сохранения и распространения знаний, заложившими основу для последующей институционализации образования.

Ключевые слова: Дома ученых, изучение хадисов, Мавераннахр, мухаддисы, Дар аль-Аркам, аль-Бухари, эпоха Караханидов, научные традиции, история образования

Islom dunyosida ilmiy faoliyat olib boriladigan eng muhim maskanlardan biri - olimlar uylari edi. Ko'pgina mudarrislarning o'z uylarida hadis o'qitganlari va fiqh darslari berganlari ma'lum. Uylar ta'lim maskani sifatida foydalanilgan bo'lsa-da, ayniqsa o'qitiladigan ilmiy yo'nalish uchun maxsus ta'lim muassasasi bo'lmagan davrlarda alohida ahamiyat kasb etgan. Olimlar uylarida bergan darslar ham ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblangan.

Har bir madaniyatning o‘zini qo‘llab-quvvatlovchi va saqlab qoluvchi turli dinamiklari mavjud. Bularning boshida bilim ishlab chiqaruvchi, rivojlantiruvchi va jamiyatga singdiruvchi ta’lim muassasalari turadi. Islomning kelishi va tarqalishi bilan birga paydo bo‘lgan Suffa, maktab, Dorul-hikma, Dorus-sunna va madrasa kabi ta’lim muassasalari Islom madaniyatining shakllanishida katta rol o‘ynagan. Islom madaniyatining shakllanishida aytib o‘tilgan muassasalar qatorida, ilmiy darslar tez-tez o‘tkaziladigan ulamolar uylarining ham katta hissasi bo‘lgan. Darhaqiqat, buning Islom tarixidagi birinchi namunasi Dorul Arqamdir.

Muhaddislarning uylari nafaqat majlislar o‘tkaziladigan joylar sifatida faol foydalanilgan, balki Islom ilmiy an’anasini yetkazishda o‘z zimmasiga olgan roli bilan ham ulkan ahamiyatga egadir. Chunki dastlabki davrlardan boshlab uylar, turar joy yoki mehmonxona kabi ehtiyojlardan tashqari, ilmiy munozaralar olib boriladigan, talabalar tarbiyalangan, ilmiy ishlar amalga oshiriladigan markazlar bo‘lib kelgan. Imlo faoliyati kontekstida esa, uylarni o‘z davrlarining matn ishlab chiqarish markazlari deb atash mumkin. Rivoyatlarni xotiradan matnga o‘tkazishda ham, yozma materiallarni tahrir qilish, tasniflash va ko‘chirish bosqichlarida ham uylar har doim dolzarb qiymatga ega bo‘lgan.

Muhaddislar, shaxsiy ish joyi sifatida foydalangan uylarida yozgan (yoki yozdirgan) matnlar uchun jiddiy mehnat va vaqt sarflagan, shu orqali rivoyatlarni saqlash va yetkazishni muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Biografik manbalarda umrining katta qismini uyida ilmiy faoliyat bilan o‘tkazgan yoki vafotigacha asar yozish bilan shug‘ullangan, deyarli uydan chiqmagan ko‘plab shaxslar zikr qilinadi.

Muhaddislarning ko‘p vaqtini uylarida o‘tkazishi, shu bilan birga, kotiblik vazifasini bajargan mustamlilariga uyda asarlarini yozdirish yoki ko‘chirtirishni ham anglatadi. Chunki asarlarning katta qismi aynan shu tarzda—muhaddisning shaxsiy ish joyi bo‘lgan uyida/xonasida mustamlilar vositasida yozib olingan yoki ko‘paytirilgan. Bu holat, muhaddislarning uylarining ta’lif faoliyati va ilmiy hayotning asosiy markazlari sifatida qanday dolzarbligini saqlab qolganini tushuntirib beradi.

Hijriy I asr oxirlari II asr boshlarida Qutayba ibn Muslimning Movarounnahrda doimiy muvaffaqiyatlarga erishishi bilan mintaqada Islom tarqala boshlagan davrdan boshlab, ilmiy markazlardan hisoblangan ulamolar uylari bu xususiyatini doimiy saqlab qoldi. Shubhasiz, 3/9-asrning muhaddislari Abd ibn Humayd, Dorimiy, Buxoriy, Termiziy va boshqa Ahli hadis imomlarining uylari ham hadis darslari faol olib boriladigan joylardan edi.

Buxoro va Samarqand shaharlarida hadis ilmi ba’zi olimlarning uylarida berilgan maxsus darslar orqali ham o‘qitilardi. Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (hijriy 256/milodiy 870) o‘n yoshida kuttob ta’limini tamomlab, Dohiliy va Buxorodagi boshqa mudarrislardan dars olgan. Buxoriy ham o‘zidan maxsus hadis darsi so‘raganlarga masjidida yoki uyida dars berganini aytgan. Abu Hasan Ali ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ishoq ibn Ibrohim at-Turkatiy Buxorolik hadis olimi bo‘lib, hijriy 353/milodiy 964-yilda Buxoroda olimlarning uylarida ta’lim olgan. Abu Sahl Horun ibn Ahmad ibn Horun ibn Bundoriy al-Istaro‘baziy Buxoroga kelib, uzoq yillar bu yerda hadis ilmi bilan shug‘ullangan va hijriy 374/milodiy 984-yilda Buxoroda vafot etgan muhaddis edi. U Movarounnahr hududida Abu Qosim Abdulloh ibn Ahmad ibn Idrisning uyida hadis o‘qigan. Abu Ahmad Muhammad ibn Sulaymon ibn Foris ad-Dallol (hijriy 312/milodiy 924) Nishopur ahlidan bo‘lib, Buxoroga kelganida Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning (hijriy 256/milodiy 870) uyida mehmon bo‘lgan. Buxoriyning uyida qolgan vaqtida "Kitob at-tarix”ni o‘qigan.

Xuddi shunday, Qoraxoniylar davrida ham bu joylarda hadis va boshqa turli sohalarga oid majlislar o‘tkazilgan misollarni uchratish mumkin. Quyida manbalar aniq qayd etgan ulamolar uylarining ba’zilariga misol sifatida to‘xtalib o‘tiladi.

4/11-asrning ishonchli hadis hofizlaridan va “al-Jome‘ as-sahih” nomli jome‘ turidagi asar muallifi ekani ma’lum bo‘lgan Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Bujayr al-Bujayriy (v. 311/923) So‘g’d mintaqasiga qarashli Xushufag‘n qishlog‘idagi uyi hovlisida ilm talablari (ashoblar) bilan hadis darslari o‘tkazgan. Aynan uning nevarasi Abu al-Abbos Ahmad ibn Muhammad al-Xushufag‘niyning (v. 372/982) uyi ham bu asarni tinglash, ham uning bilimlaridan foydalanish maqsadida Ahli hadis tomonidan tez-tez tashrif buyuriladigan joyga aylanganligi ma’lum. Masalan, buyuk hadis hofizlaridan Abu Sa‘d al-Idrisiyning “al-Jome‘ as-sahih”ni undan tinglash maqsadida Samarqanddan yo‘lga chiqib, Xushufag‘nga kelgani, lekin uni uyda topolmagani va qaytib ketgani haqida ma’lumotlar mavjud.

Xuddi shu asrda uylarda hadis kitoblarini rivoyat qilishga oid ma’lumotlarga ham duch kelamiz. Bu borada Hokim an-Naysoburiyning Nasafda Abu al-Favoris Ahmad ibn Muhammad an-Nasafiy at-Tadyoniyning (v. 366/977) uyida Amir Abu Ahmad as-Sijziydan (v. 399/1009) “Muvatto”ni tinglaganini misol qilib keltirish mumkin.

5/11-asrda ham uylarda hadis majlislari o‘tkazilgan misollarni topish mumkin. Masalan, qozi va "rais" unvoniga ega bo‘lgan Abu-l-Hasan Ali ibn Ahmad al-Ismoiliy al-Buxoriy (v. 401/1011)

Buxoroning turli joylarida hadis rivoyat qilgan, shuningdek, juma kechalari uyida hadis majlislari o‘tkazgan. Uning bu majlislari vafotigacha davom etgan va undan mintaqaning buyuk muhaddisi Mustag‘firiy hadis rivoyat qilgan.

Xuddi shu asrda ilmiy majlislar uyushtirgan yana bir shaxs – Xoqon Abu Shujo‘ Hizr ibn Ibrohim davrida qozi al-quzzot (bosh qozi) lavozimida ishlagan Abu Nasr Ahmad ibn Sulaymon ibn Nasr al-Kosoniy (v. 480/1087 atrofida)dir. Uning ham Samarqandning turli joylarida hadis rivoyat qilgani va Muhtasib ko‘chasidagi uyida hadis yoki fiqh majlislari o‘tkazgani ma’lum.

6/12-asrga kelganda, uylar nafaqat ilm talablarining joylashadigan joy, balki hadis va boshqa islomiy ilmlar bo‘yicha majlislar o‘tkaziladigan muassasaga aylangan. Bu borada Mag‘riblik faqih, munozir va muhaddis Abu Horun al-Ag‘matiyning 516/1122-yili Samarqandga kelganida, muhaddis Najmuddin an-Nasafiy uyida bir necha kun qolib, undan hadis, fiqh, she’riyat va turli mavzularda bilim olgani misol qilib keltirilishi mumkin.

Shu asrda Marvdan Qoraxoniylar davlatiga ilmiy safar uyushtirgan muhaddis Sam’oniy Xorazmda Abu Ya’qub Yusuf ibn Solih uyida 14 kun mehmon bo‘lib, xonadon a’zolariga hadis rivoyat qilgan. Xorazmdan Buxoroga o‘tgan Sam’oniy bu yerda xatib Abu Bakr al-Fazliy (v. 549/1154) uyida undan bir juzlik bilim olgan, Samarqandda esa xatib Abu-l-Maoliy al-Madiniy as-Samarqandiy (v. 550/1155) uyida to‘xtab, undan ko‘plab hadis eshitgan. Kesh shahrida esa qozi Abu Ali Hasan ibn Nasr al-Keshshiy (v. 557/1162) uyida 12 kun qolib, xonadon egasi bilan bilim almashgan.

Shunday qilib, ulamolar uylari, umumiy islomiy ilmlar, xususan hadis ilmining o‘qitilishi va tarqalishida muhim o‘rin tutgan.

Yuqorida tilga olingan misollar manbalarda uylar va ularda o‘tkazilgan hadis darslari aniq qayd etilgan ma’lumotlardir. Aslida Qoraxoniylar davrida yetishib chiqqan va mintaqada mashhur bo‘lgan muhaddislar ham mavjud. Biroq ularning tarjimai hollarida qayerda va qanday muassasalarda hadis faoliyati olib borganlari haqida har doim aniq tafsilotlar uchramaydi. Shunga qaramay, ular ham o‘z uylarida yoki boshqa ta’lim muassasalarida hadis o‘qitganliklarini taxmin qilish mumkin.

Manbalarda qanday ta’lim muassasalarida faoliyat yuritganligi qayd etilmagan bo‘lsa-da, faqatgina hadis majlislari o‘tkazganligi aytilgan taniqli muhaddislar ismlari mavjud. Ularning aksariyati mahalliy muhaddislar, bir qismi esa tashqaridan kelgan muhaddislardir.

Bunga misol sifatida Bag‘dodda tug‘ilib, u yerda 21 yoshigacha hadis o‘rgangan, keyin esa Buxoroga qaytgan Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Hanb al-Buxoriy al-Bag‘dodiy (v. 350/961)ni keltirish mumkin. Muhaddis va Shofe’iy mazhabi vakili bo‘lgan Abu Bakr ibn Hanbning Buxoroda (qaysi joyi aniq ko‘rsatilmagan) hadis majlisi o‘tkazgani haqida ma’lumotlar mavjud. Bu ma’lumotlardan u vataniga qaytgach, masjid, jamoat maskani yoki uyida hadis sohasidagi faoliyatini davom ettirgani tushuniladi. Bundan tashqari, Abu Bakr ibn Hanbning Buxoroda ko‘plab hadislarni rivoyat qilgani ham qayd etilgan.

Xuddi shu asrda Abu-l-Hasan Ali ibn Ahmad ibn Alluya al-Hamadoniy (v. 365/976 dan keyin) Samarqandda, hadis hofizi, ishonchli va Hanafiy olimi sifatida tanilgan Abu Homid Ahmad ibn al-Husayn al-Marvaziy (v. 376/986) esa Buxoroda hadis majlislari o‘tkazgan.

5/11 va 6/12-asrlarda ham hadis majlislari muhaddislar va boshqa sohalar mutaxassislari tomonidan o‘tkazilar edi. Ulardan biri – hadis hofizi va Shofe’iy mazhabi vakili Jurjaro’iy (v. 415/1024). Asli iroqlik bo‘lib, keyinchalik Buxoroga joylashgan bu muhaddis u yerda dushanba va payshanba kuni tushdan keyin hadis majlislari o‘tkazgan. Manbalarning ma’lumotlariga ko‘ra, u hatto yomg‘irli havolarda ham darslarini tashlamagan.

509/1115-yilda muhaddis va faqih bo‘lgan Najmiddin an-Nasafiyning Samarqandda hadis majlisi o‘tkazgani va yana shu yerda hadis hofizi Bakr ibn al-Husayn al-Usmoniy al-Basriy (509/1115-yilda hayot)ning hadis rivoyat qilgani qayd etilgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Muhaddislarning uylari, talabalarning ko‘rsatgan qiziqishi tufayli oddiy uy sifatidan tashqari, bir ta’lim muassasasi vazifasini ham o‘tagan. Bu holat keyinchalik bu uylarning rasmiy binolar (masalan, madrasa)ga aylanishiga ham imkon yaratgan.

Bunga misol sifatida IV asrning taniqli muhaddislaridan Ibn Hibbon ibn Ahmad al-Bustiyning (vaf. 354/965) uyini keltirish mumkin. Ibn Hibbonning Bust shahridagi uyi talabalarning qiziqishiga

javob bera olmagach, uning yoniga bir madrasa qurilgan. Ibn Hibbonning kitoblari ham joylashtirilgan kutubxona va talabalarning turar joy ehtiyojlarini qondiruvchi bu bino bir vaqfga bog‘langan. Shunday qilib, olimlarning uylariga talabalarning qiziqishi, bu uylarning madrasaga aylanishida muhim omil bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hatib al-Bag’dodiy Abu Bakr Ahmad ibn Ali (463/1070), *Tarixu Bag’dod av Madinati’s- Salam,* thq. Bashshar Avvad Ma‟ruf, Darul-g’arbil-islamiy, I-XVII, Bayrut 2001.
2. Ibn Havkal, Abu‟l-Qosim Muhammad (367/977), *Suratu’l-Ard,* thq. Kramer-Johannes Heind, Leiden 1938
3. Kayaoğlu, İsmet, *İslam Kurumları Tarihi*, Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Yayınları, Ankara 1985.
4. Kazıcı, Ziya, *İslam Müesseseleri Tarihi*, Kayıhan Yayınları, İstanbul 1991.
5. Nasafiy, Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad (537/1142), *al-qand fi Zikri ulamai Samarqand,* thq. Nazar Muhammad al-Faryabiy, Maktabatul-Kavsar, Saudi Arabiston 1991.
6. Sam’oniy, Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur (562/1166), *Kitabu’l-ansob,* thq. Abdullah Umar al-Barudiy, Daru’l-jannan, I-V, Bayrut 1988.

ҲУНАРМАНДЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ҚАРШИ КАНДАКОРЛИК САНЪАТИ

Аширов У. бош муҳофиз
Хўжанов У. илмий ходим
Қашқадарё вилояти тарихи ва маданияти давлат музейи

Аннотация:

Ушбу мақолада юртимизда санъатнинг вужудга келишининг илмий асослари, ҳунармандчилик маданиятининг шаклланиши ва Қарши кандакорлик санъати, энг қадимги полеолит-тош даврида қоя тошлари ва ғорлар деворида ўйиб ва чизиб ишланган белги ва чизгилар, бронза даври хўжалик ва металл (мис, бронза) қуролларининг Янги шакллари яратилганлиги ҳақида, деворий нақш, сопол ва лойдаги безаклар, статуеткалар шартли равишда тасвирий ифодасини топганлиги, халқларнинг турмуши ва кундалик ҳаётида идишлар муҳим рол ўйнаганлиги, ҳунармандчиликдаги буюмларнинг энг кадимгиси бу- кулол эканлиги, ҳунармандчилик маданиятида кулолчилик санъати шаклланиш даражасига етиши билан бир қаторида мисгарлик санъати, кандакорлик санъати, мактабининг пайдо бўлиши, амалий санъат, мис кандакорлик санъати ҳақида маълумотлар берилади.

Калит сўзлар: Кандакорлик санъати, ҳунармандчилик, кулолчилик санъати, мисгарлик санъати, нақшлар, мис идишлар, Наутака, Нахшаб, Хоразм, Еркўрғон.

Abstract: This article discusses the scientific foundations of the emergence of art in our country, the formation of handicraft culture and the art of Karshi carving, the oldest signs and drawings carved and drawn on rock stones and cave walls in the Paleolithic-Stone Age, the creation of new forms of household and metal (copper, bronze) tools in the Bronze Age, the conditionally figurative expression of wall paintings, decorations on ceramics and clay, statuettes, the important role of utensils in the life and everyday life of peoples, the fact that the oldest of the handicraft items is pottery, the emergence of the art of pottery in the handicraft culture, the emergence of the art of coppersmithing, the art of carving, the school of applied arts, the art of copper carving, as well as the wonderful decorations on tiles and kalama patterns found in the ruins of the Shulluktepa fortress near Karshi, the delicate The decorations provide information about the high culture of the ancient inhabitants of the city.

Key words: Art of carving, craftsmanship, art of pottery, art of coppersmithing, patterns, copper vessels, Nautaka, Nakhshab, Khorezm, Yerkurgan.

Инсониятнинг ер юзида пайдо бўлиши билан бирга санъат вужудга келди. Энг қадимги палеолит-тош даврида қоя тошлари ва ғорлар деворида ўйиб ва чизиб ишланган белги ва чизгилар ўз ифодасини топди. Тасвирий санъатининг бу ифодаси даврдан-даврга ўтиш пайтида хўжалик ишлаб чикариш фаолияти ўз-ўзидан такомиллашди. Чорвачилик, деҳқончилик, ҳунармандчилик ва қурилиш ишлари ривожланди. Қадимги маданиятнинг характерли хусусиятлари пайдо бўлди. Бронза даври хўжалик ва металл (мис, бронза) қуролларининг Янги шакллари яратилди ва ишлаш усуллари мукаммаллашди. Деворий нақш, сопол ва лойдаги безаклар, статуеткалар шартли равишда тасвирий ифодасини топди. Ҳунармандчилик маданиятида кулолчилик санъати шаклланиш даражасига етиши билан бир қаторида мисгарлик санъати, кандакорлик санъати секин-аста ривожлана бошлади.

Ўзбек халқ амалий безак санъатининг энг кенг тарқалган турларидан бири бу кандакорликдир. Хусусан, кандакорлик деганда металлдан ясалган бадиий буюмларга ўйиб ёки бўртиқ қилиб нақш ишлаш тушунилади. Қадимги ва илк ўрта аср кандакорлиги асосан ҳалланган кумуш буюмларда ўз ифодасини топган. Мисга ишлов бериш, мисни қайта ишлаш, мисдан буюмлар, қурол-яроғлар ясашни инсонлар жуда кадимдан билган. Ҳаттоки бу давр- бронза даврига бориб тақалади. Бронзадан ишланган буюмлар бирмунча пишиқ бўлади. Қурама тоғларнинг жануби-ғарбий қисмидан Қизилқум ҳамда Нурота тоғларидан топилган топилмалар миснинг Ўрта Осиё ҳудудларида қадимдан ривожланганлигини исботлади. Бухоро қадимдан нақшинкор мис идишлар ишлаш маркази бўлиб келган. Страбон ҳамда Геродот асарларида Ўрта Осиёда мисгарлик машғулоти ҳақидаги маълумотлар ёзилган [2; 273-б.].

Қашкадарё воҳасида I минг - йиллик бошларида маданият шакллана бошлаган. Мил аввалги I- асрнинг бошига келиб 2та асосий воҳа-Қарши ва Шаҳрисабз воҳалари шаклланади. Александр Македонский билан бирга юртимизга келган юнон тарихчилари IV- асри охирида Қашкадарё водийсидаги 2та тарихий-маданий вилоят - Наутака ва Никшапани ўз асарларида эслаб ўтишади [3; 30-б.] Бундан кўриниб турибдики, қадимги Еркўрғон дахмасидан топилган ашёларида кандакорлик санъатига тааллуқли фақат жездан ясалган ойналар учрайди. Лекин шуни таъкидлаб ўтишимиз керакки, Қашка вохасидаги илк ўрта асрларга тааллукли кандакорлик санъати ашёлари ҳақида жуда ҳам кам маълумотга эгамиз. Бунга сабаб юкорида айтиб ўтилган айрим муаммолар бўлиши эҳтимолидан холи эмас. Янги илмий изланишлар натижасида воҳа дахмаларидан ҳунармандчилик маданиятига мос келадиган, бевосита кандакорлик санъатига хос қазилма буюм-ашёлари топилиши эҳтимоли ҳам йуқ эмас. А.Темур ва темурийлар замони Мовароуннахр бадиий маданияти барқ уриб ривожланган давр бўлган. Бу даврда асосий эътибор меъморчилик, ҳунармандчилик, халк амалий санъати ва шу тариқада кандакорлик санъати ҳам ривожланади.

Энди Қашқадарё санъати ривожида кандакорлик санъати мактаби хақида фикр юритсак. Маълумки, XVIII-асрда Қарши Бухоро амирлигининг муҳим маданий иқтисодий марказларидан бирига айланган. Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарларида ҳам, вилоят қишлоқларида ҳам мис идишлар ясаш, кулолчилик, мато тўқиш, кашта тикиш ва гилам туқиш асосий ҳунармадчилик соҳаларига кирган. Бу даврда хаттоки хар бир кандакорнинг ўзига хос услуби ва мактаби бўлиб у ўзи безаган идишларининг шакли ва нақшлари билан бошқалардан фарқ қилган. Бу борадаги йирик марказлар сирасига Қарши ва Шаҳрисабз мактаблари ҳам кирарди. Бу икки мактабнинг маҳсулотлари кўп жиҳатидан ўхшаш бўлиб, айни пайтда ўзига хос хусусиятларга ҳам эга бўлган. Усталар ўз ишларида асосан жездан фойдаланган. Идишлар ниҳоятда ранг-баранг бўлган-чойдиш- офтоба, қумғон, дастжуй, лаган, туфдон, шамдон, чилим, жомлар шулар жумласидандир. Техник усуллар ҳам фарқланган: Қашқадарё усталари ясси ва буртма чеканкадан ва мадоҳил, меҳроб,чашма булбул, кубба, ислимий, кирмак каби нақшлар яратишда қўлланадиган ўймакорликдан фойдаланган. Қашқадарёга хос техник усуллардан бири-босма нақш тушириш бўлган (қолиплар ёрдамида алоҳида қолипланган деталлар-медальонлар ва гуллар ясалган), фон ёки нақш усти эмал бўёк билан қопланган, нақш мастика билан қорайтирилган. Идишлар кумуш рангли шиша ва феруза билан безалганини алоҳида таъкидлаш керак. Бундай безаклар кўза асоси бўйлаб доира шаклида, қопқоқ четларида, кўза оғзи ва чўмрагида ишланган. Айни пайтда оддий ва безаги содда идишлар ҳам ясалган, уларнинг бор безаги оғиз четига чизилган хошия ва бир неча гул шаклида туширилган босма нақшдан иборат бўлган. Қашкадарё кандакорлик мактаби яна бир ўзига хос хусусиятлари шундан иборат эдики, одатда шакл тайёрлаш ва нақш солишни турли усталар бажаришган. Қарши мактаби оддийлиги бир устанинг ҳам шакл, ҳам безак устида ишлай олиши. Булар қаторида қаршилик уста Низомиддин (1918-1971), уста Саъдий (1860-1920) киради. Қаршиликларнинг устунлигини ҳатто бухоролик усталар ҳам тан олган. Қарши ҳунармандлигининг мис идишлар ясаш маркази ҳисобланган Бухоро усталари ишига таъсири сезилган. Жумладан, Бухорода қашкадарёча офтоба, туфдонлар ва кўтарган пайтда ўзи очиладиган тахта шаклидаги қопқоқли дастжуйлар нусхалари кўчирилган. Қаршилик усталар таъсирида Бухорода эмал буёқлар билан бўяш, рангли

шиша ва феруза нақшлар қўллана бошланган.Амирнинг буйруҳига кўра, энг яхши қаршилик усталар Бухорога кучирилган: улар орасида уста Саъдий Шарифий Асад номи маълум.

XIX-аср кандакорлик санъатининг энг гуллаган даври ҳисобланади. Шу тариқа Қашқадарё кандакорлик санъати Қарши метал идишлари ўзига хос хусусиятларда шаклланди.Уларнинг бирмунча серҳашамлиги, ихчамлиги, безакнинг ранг-баранглиги орқали рангли локлардан (қизил,кўк, қора) фойдаланишга эришилди. Безак хошияларида йул-йул чизиқлар билан бериш характерланди. Қарши қумғонларининг асоси кенг ва думалоқ бўлиб бўйни цилиндрсимон бўлган. Кузаларнинг туткичлари оддий бўлсада, асосий эътибор унинг оғзи ва бўйни безагига қаратилган. Нақшларнинг ўсимликсимон ва оддийлиги билан бошка марказлар (Самарканд,Бухоро,Хоразм, Фарғона) фарқ қилган. Қарши кандакорлик марказига асос солган усталар, Саъдий Шарафий асад, уста Абдукодир Низомиддин, уста Урин, Салохиддин, Икромиддин, Худойберди Жура ва бошқалар. Усталар асрлар давомида мисга нақш ўяр эканлар, ҳар бир нақшларини ўзига хос номлар билан юритилишини кўрамиз. Ҳар бир нақшга ном қўйилиши ўз-ўзидан бўлмаган албатта, бу номларни ҳар бир нақшнинг мазмунига, шаклига, бирор нарсага ухшатиб, таққослаб, мураккаб соддалигига қараб, нақшнинг турига қараб бошқа давлат ёки шаҳарнинг номига ва бошка сабабларга асосланиб ҳар бир нақшга ном қўйганлар. Масалан “Машхади”, “Араби”,”Исфахони” ва бошқа сўзлар нақшларнинг номига қўшиб айтилади. Бунинг сабаби усталар ўз ишларида Машхад, Арабистон, Исфахон (Эрон) усталарининг тайёр нақш нусхаларидан фойдаланганликлари учун шундай номлар билан юритганлар.Купинча, бундай нақшлардан ижодий фойдаланиб, ўзимизнинг услубимизга мослаб нақш элементлар кўшганлар. Нақшлар агар айлана шаклида бўлса бундай нақшни “Нақши гирдоб”, учбурчак шаклида бўлса “учбурчак нақш”, агар икки чизиқ орасида бир навда печакка ўхшаб ўсиб куртак, ғунча ва навдага чиқариб бир ёки икки томонга ўсса бундай нақшни “печак ислимий” ёки “рафтор нақш” деб юритилган.

Қашқадарё вилоят тарихи ва маданияти давлат музейида халқ амалий санъати бўлимида кандакорлик санъатига мансуб буюмларида шу тарздаги нақш элиментлари такрорланган. Масалан, булардан чойнак, офтоба, қумғон, коса,чилим, лаган ва бошқа мис идишларда “печак ислимий” нақши “нақши гирдоб” айлана шаклидаги нақшлар, учбурчак нақш ва “меҳроби мадохил”нақшлари тасвирланган. Бундан ташкари энг содда тўғри чизиқли офтоба ва ҳеч қандай безагиси йўқ оддий буюмлар ҳам учрайди. Музей коллекциясида Хоразм кандакорлик мактабига мансуб қумғон қуйилган. Хоразмда сув учун қумғон идишлари бошқа вилоят мактабларидан ажралиб турадиган фарқли хусусиятга эга бўлган. Бунинг асл хусусиятлари шундан иборат эдики, қумғон буюмларининг ушлаш дастаси бўлмаган. Музей миллий фонди, музей ашёси ва коллекциясидаги кандакорлик санъатига мос келадиган буюмлари XVIII-XIX асрга тўғри келади. Бундан олдинги асрларга тааллуқли кандаорлик мис буюм-ашёлари музей фондида учрамайди. Айрим сабабларга кора коллекциячилар қўлида ёки мерос бўлиб қолган санъат буюм-аёшлари маҳаллий халқлар қўлида бўлиши эҳтимолдан холи эмас. Лекин бу каби санъат дурдоналарини миллий музей фондларига келиб топширилса, имтиёзли олди сотди ишлари амалга оширилса нур устига аъло нур бўлар эди. 2008 йил 12 сентябрда тасдиқлаган “Музейлар тўғрисида”ги Қонунида ҳам бу фикрлар ўз тасдиғини топган. Зероки, маданият, маънавият, санъат дурдоналарини сақлаб, оммага намойиш этиш ва келажак авлодларга миллий ва тарихий амалий безак санъатинини тиклаб етказиб бериш шу ватанда яшаётган ҳар бир фукаронинг бурчи ва вазифаси бўлмоклиги лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1.А.Эгамбердиев, С.Саидова, Р.Ражабов “Тасвирий ва меъморчилик санъати тарихи”.Т.-2007.19 бет.

2. С Булатов “Узбек халк амалий безак санъати”.Т.-1991 й. 273 бет.

3. Э.В Ртвеладзе “Карши 2700”.Т. “Маънавият”-2006й.30-бет.

4. Ю.Буряков “Фан ва турмуш” № 5-6.2006й. 24 б.

5. П.Равшанов “Карши тарихи” Т-2006 й.199-б.

8. С.Б.Лунина. “Сельское посоление Киндиктепе” 1984й. 121-б.

USTRUSHONANING MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Lapasova M.
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ustrushonaning tabiiy-geografik sharoitini ilmiy jihatdan o'rganilish hamda ushbu hududning tarixiy taraqqiyotini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, antik va islomiy davr yozma manbalarida Ustrushona haqida berilgan ma'lumotlar tarixiy-geografik kontekstda ochib berilishi hamda asoslanishi, shuningdek manbashunoslik yondashuvi asosida mintaqaning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati yoritilib, Ustrushona shaharlarining tahlili asosida Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari rivojidagi o'rni ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Qovunchi madaniyati, Ustrushona, Bunjikat, Avesto, Yaksart saklar, Chilxujra, Sobot, Zomin.*

Аннотация: *Направлена на научное изучение природно-географических условий Уструшаны и анализ исторического развития этого региона. Кроме того, информация об Уструшане, представленная в письменных источниках античного и исламского периодов, раскрывается и обосновывается в историко-географическом контексте, а также на основе источниковедческого подхода освещается политическое и экономическое значение региона, на основе анализа городов Уструшаны раскрывается ее роль в развитии цивилизаций Центральной Азии.*

Ключевые слова: *Каунчинская культура, Уструшана, Бунджикат, Авеста, Яксартские саки, Чилхуджра, Собот, Зомин.*

Abstract: *Aimed at the scientific study of the natural and geographical conditions of Ustrushana and the analysis of the historical development of this region. Also, information about Ustrushana given in ancient and Islamic written sources is revealed and substantiated in a historical-geographical context, as well as the political and economic significance of the region is highlighted based on a source-based approach, and the role of Ustrushana in the development of Central Asian civilizations is revealed based on the analysis of the cities of Ustrushana.*

Keywords: *Kaunchi culture, Ustrushana, Bunjikat, Avesta, Yaksart Saks, Chilkhujra, Sabot, Zaamin.*

Qovunchi madaniyatiga oid yodgorliklar tarqalgan hududlarning barchasi O'rta Sirdaryo bo'yiga tutash bo'lib, ular Tyan-Shanning g'arbiy yon bag'irlaridan, Sirdaryo etaklarigacha, janubda Sug'dning markaziy mintaqalaridan Janubiy Qozog'istonning keng tog'oldi tekisliklarini qamraydi. Uning asosini esa, Toshkent vohasi tashkil etadi. Toshkent vohasini Ugom, Piskom va Chatqol tog' tizmalari bilan o'ralgan bo'lib, bu tizmalarni shu nomlar bilan ataluvchi daryolar oqib o'tuvchi daralar ajratib turadi. Janubiy qismida esa vodiyga kirib boruvchi Ohangaron daryosi joylashgan. Chirchiq va Ohangaron daryolari hisoblanadi. Jumladan, Chirchiq daryosining to'yinishida Ugom, Piskom, Ko'ksuv va Chotqol, Ohangaron daryosining to'yinishida Chotqol va Qurama tog'laridagi qor va yomg'ir suvlarining salmog'i katta bo'lib, ularning suvi aprel - iyun oylarida ko'payadi. Ushbu tekislik shimolida joylashgan Aris daryosining vodiysi bilan birga tabiiy suv tarmoqlari O'rta Osiyo dehqonchilik vohalarining chekka mintaqasini tashkil qiladi. Uning shimol tomonga qarab, yaylovlarga boy bo'lgan poyonsiz cho'l yastanib yotadi.

O'rta Sirdaryo bo'yi mintaqasining janubiy qismi esa Ustrushona hududiga tutashib ketadi. Ustrushona O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo'lib, bu yerda tog', tog' oldi, dasht va tekislik (cho'l) zonalarining tutashib ketishi uning o'ziga xosligini tashkil etadi. O'lkaning katta qismini yer tuzilishi tekisliklardan iborat bo'lgan Mirzacho'l egallagan. Janubiy qismi relefini Turkiston tizmalari va uning g'arbiy Morguzar va Chumqartov tog'lari (balandligi 2500-3000 m gacha, Jizzax qismida 800 m) tashkil etadi. Ustrushona hududi relefi shakllanishiga ko'ra uchta geografik zonaga: tog'-tog'oldi, adirlik va dasht-cho'l tekislik mintaqalariga bo'lish mumkin. Ularning xususiyatlari landshaft tabiati – hayvonot va o'simlik dunyosi hamda tabiiy-iqlim sharoitlari bir-biridan ko'p jihatdan farq qiladi. Har bir geografik zona uchun harakterli bo'lgan xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Tog'li Ustrushona tarxiy madaniy o'lkasining Molguzar tog'lari Pomir tog' tizimiga qarashli Turkiston tizmasining shimolig'arbiy bo'lagi hisoblanadi. Molguzar tog'lari janubisharqdan shimolig'arb tomon chamasi 70 km ga cho'zilib, eng baland cho'qqisi (Qizilchag'at) dengiz

sathidan 2620 metr yuqorida. Kunchiqarda Turkiston tizmasiga qo‘shilib ketgan bu hududni kunbotar tomonda Nurota tog‘laridan Ilono‘tti darasi ajratib turadi. Morguzar tizmasi tog‘li Ustrushonaning yirik qismini egallaydi, bu yerda yerusti suvlariga boy soy daralari va yuqorisida suvsiz plato – yaylovlari bor.

Adir mintaqasi Morguzar tog‘larning baland cho‘qqilaridan oqib keluvchi sel cho‘kindilaridan hosil bo‘lgan har xil qalinlikdagi sariq-kulrang lyossdan iborat. Ushbu yotqiziqlar lyoss g‘ovaksimon jinslardan iborat tuproq qatlami lalmi dehqonchilik uchun qulay. Bu yernig yer osti suvlari - 10 metrdan to 50 metrgacha chuqurlikda joylashgan bo‘lib, suv ta’minoti asosan, tabiiy yog‘inlar va soylarning suvlaridan iborat. Soylarda yilning eng faol oqim davri may-iyun oylarida kuzatilib, shu davrda umumiy yillik suv sarfi odatda 50% gacha to‘g‘ri keladi. Ulardan Zominsoy, Sangzor, Ko‘lsoy, Achchisoy, Ravotsoy, Peshag‘arsoy, Uvolsoy, Turkmansoy, Jaloirsoy, Xo‘jamushkentsoy kabi soylarning quyi oqimlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Biroq juda kam (Zominsoy va Sangzor) soylar butun dehqonchilik mavsumi (bahor-kuz) davomida nisbatan bir tekis oqib turadi. Qolganlari esa yoz mavsumida quyi o‘zanlariga yetib bormaydi.

Dasht-cho‘l tekisliklar mintaqasi geografik joylashuviga ko‘ra Sirdaryo va Nurota tizmasi o‘rtasidagi, janubdan shimoliy-g‘arbga tomon pasayib boruvchi qiyalik to‘lqinli tekisliklardan iborat. Ularning asosiy qismi tog‘larning cho‘lga tutash shimoliy qismlari va Mirzacho‘l huududlariga to‘g‘ri keladi. Mirzacho‘lning markaziy qismida bir qancha havzalar - Sardoba, Jetisoy, Karoy va Arnasoylar tilga olinib, ularda yer osti suvlari to‘planadi va tabiiy drenajga ega emas. Tuprog‘i mezo-kaynozoy cho‘kindilaridan tashkil topgan bo‘lib, yuzasi lyosssimon jinslar bilan qoplangan. Sirdaryoning nisbatan yosh terrasalari, janubiy, tog‘li zonasi Turkiston tizmasidan keladigan konglomerat va less tizma-adirlar shaklidagi hududlar va uning shoxlaridan iborat. Mirzacho‘l tuproqlari cho‘l bo‘z tuproqlari qatoriga kiradi. Ular tuproqli va qumli bo‘lib, ko‘p miqdorda ozuqa moddalarini o‘z ichiga oladi va sug‘orma dehqonchilikda juda unumdor tuproq hisoblanadi.

Xullas, cho‘l, dasht va tog‘li hududlarda to‘yimli oziq-ovqatning mo‘lligi, o‘simliklari va hayvonot dunyosi ilk davrlardan ibtidoiy odamlarining kelib o‘rnashishiga sabab bo‘lgan. Mintaqada o‘rganilayotgan paleolit, mezolit, neolit va bronza davri jamoalariga mansub yodgorliklarda o‘zlashtirma xo‘jalikning turli xil shakllaridan, to ishlab chiqarish xo‘jaligigacha bo‘lgan sohalar tarkib topib borganligi kuzatishimiz mumkin. Keyinchalik, tabiiy geografik joylashishi jihatidan yaylovlarning qulayligi, chorva uchun turli-tuman o‘tloqlar va o‘t-o‘lanlarning ko‘pligi, iqlimning mo‘tadilligi va suv manbalarining mavjudligi mintaqada dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishga imkon bergan.

Yozma manbalardagi Qadimgi Ustrushona haqidagi ma’lumotlarni O‘rta Osiyo xalqlarining ilk yozma manbasi “Avesto”dan olish mumkin. Garchi, ushbu manbada tilga olingan o‘lkalar Ustrushona tarzida berilmagan bo‘lsada, sanab o‘tilgan joylar va qabilalar yashagan hudullar (Qangha, xaumovarkalar, turlar, Chaychasta ko‘li, “tura”, “danyu”, “xuaona” va boshqalar) Ustrushona hudularida yashagan xalqlar tarixiga ham bog‘lanadi. Avesto matnlarida mintaqada yashagan saklar asosan, Yaksart saklari deb atalib, ular “tur” qabilalaridan biri sifatida tilga olinadi. “Avesto” ning “Yasht” nask (kitob)ida “danay turlari” eslatib o‘tiladi. Olimlarning ta’kidlashicha, “Danay” atamasi Sirdaryoning qadimgi nomlaridan biri hisoblanib, Yaksart bilan bir xilda qo‘llanilgan. Umuman olganda, “Avesto” matnlari ma’lumotlarini bu hududlarda yashagan sak qabilalariga oid desak bo‘ladi.

Eron Ahamoniylari tomonidan qoyatoshlariga yozdirilgan Behistun, Persopol, Naqshi Rustam bitiklarida ko‘chmanchilar – saklar yashash hududlariga ko‘ra, uch guruhga bo‘linib, saka- tigraxauda, saka-tiay-daraya va saka-xaumavargalar deb atalgan. Ular haqida yozma manbalarda ayrim ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, mil. avv. VI asrlarga oid “Behistun” va “Naqshi Rustam” tosh bitiklarida qayd etilishicha, Sug‘ddan Sirdaryogacha bo‘lgan hudularda yashagan ko‘chmanchi sak qabilalari ahamoniylarga jiddiy qarshilik ko‘rsatgan.

Mil. avv. VI asrlarga oid qadimgi hind eposi “Maxabxarata”ning “Ashvamedxa” qismida saklar o‘tganlar ruhiga qurbonlik qiluvchi qabilalar sifatida eslatigan. Unda podsho Yudxishxira o‘tkazgan qurbonlik marosimida turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar, ya’ni, toharlar va

qanqalar (qang‘arlar) qatorida Sirdaryo bo‘yidan kelgan saklar ham ishtirok etganligi haqidagi ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Antik davr tarixchilari asarlarida Eron shohi Kir II (Kurush) davrida qurilgan yetti shahar va bu shaharlarning bir-biri bilan bog‘liq holda yunonlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanligi haqida malumotlar berilgan. Ularda yoritilishicha, Maroqand va uning atrofidagi qishloqlarni o‘ziga tobe qilgan Aleksandr ko‘p sonli armiyasi bilan Sirdaryo tomon yurish qiladi. Oldingi pozitsiyadagi oziq-ovqat va otlarga yem-xashak yig‘uvchi makedon otryadini mahalliy axoli (ustrushonlar) butunlay qirib tashlaydi va ko‘tarilish juda qiyin bo‘lgan tik qoyali tog‘ ustiga chiqib ketishadi. Aleksandr bu qoyani katta qiyinchilik va talofat bilan egallaydi. Jang paytida uning o‘zi ham qattiq yaralanadi. Ustrushonaning tog‘li qoyalarida ilk bor mag‘lubiyat alamini tortgan Aleksandr, o‘zining jahonda tengsiz hisoblagan armiyasini tog‘lik qoyalarda jang olib borish taktikasi kuchli emasligini anglab qolgan. Ustrushonaliklar esa bunday qoyalarda jang olib borishni nihoyatda yaxshi o‘zlashtirgan edilar. Biroq, Aleksandr qo‘shinlarining bir necha baravar ko‘pligi va ularning zamonaviy qurollanganligi urush taqdirini hal qiladi.

Aleksandr katta qiyinchilik bilan bu yerlarni bosib olgach, erksevar mahalliy xalqlarning hujumidan cho‘chib, 17 kunda hozirgi Ho‘jand va Bekobod shaharlari oralig‘ida taxminan Farhod GESi o‘rnida qal’a qurdiradi. Uni Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb ataydi. Yunon tarixchisi Arrianning yozishicha, daryoga qo‘shni yashayotgan yovvoyilar shaharlarda turgan yunon bo‘linmalariga xujum qilib, ularni qirib tashlaydilar va bu shaharlarni yanada mustahkamlay boshladilar.

Aleksandrning yurishiga bag‘ishlangan asarlarda Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida yettita shahar mavjud bo‘lganligi ta’kidlanadi. Bu shaharlar Aleksandrga bo‘ysunmasligini e’lon qilib, isyon ko‘targanda, Mamakena qabila (ba’zi manbalarda shahri) sining qarshiliklari alohida eslatiladi. Kursiy Rufning ma’lumot berishicha,- “... Hech qachon, hech qaysi shahar qamalga bunchalik qahramonlarcha bardosh bermagan edi”. Ayni paytda Ustrushonaliklarni qo‘llagan daryo orti saklarining yunonlarga hujumlari uyushtirladi. Bu voqealardan sak qabilalari muayyan siyosiy davlat uyushmalari tuzganligi ma’lum bo‘ladi. Bu haqda S.Qudratovning yozishicha, yunon mualliflari ko‘chmanchi saklardan farqli ravishda Sirdaryoning chap qirg‘og‘ida o‘troq hayot kechirgan aholini umumlashma nom bilan «varvarlar» deb atashgan. Faqatgina Kvint Kursiy Rufdagina o‘zlarining bosh shaharlari – Kiropolni makedoniyaliklardan himoya qilgan «memakenlarning kuchli qabilasi» haqida so‘z ketadi. Boshqa olimlarning fikricha markazi Kiropol bo‘lgan butun voha aholisi «memakenlar» deb atalgan. Bundan memakenlar viloyatning qadimgi aholisi tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi bo‘lib, keyinchalik bu bir-biriga yaqin bo‘lgan qabilalar viloyatning eng qadimgi elatini tashkil etganligi ma’lum bo‘ladi.

Xo‘jand shahri eron ahamoniylari davridayoq siyosiy sulolaviy harakter kasb etgan va u muhim harbiy- trategik ahamiyatga ega bo‘lgan. Xo‘jand Sirdaryoning yuqori oqimidagi yirik savdo porti sifatida ham mashhur bo‘lgan. Sirdaryo daryosi chiqishda Mo‘g‘ol tog‘ning tugash hududida uni merdional tarzda kesib o‘tadi. Shuning uchun Xo‘jand yaqinida daryoning tubi qoyalardani iborat bo‘lib, sayoz oqadi. Ko‘p ostonalik bu yerda kemalarning suzib o‘tish imkoniyati yo‘q. A.A.Gritsinaning fikricha, Xo‘jand (Chekka Aleksandriya), Nov atrofidagi yodgorlik Gaza bo‘lishi mumkin. Kurkat hozirgi Shirin shahar yodgorligiga, Kiropol o‘rniga to‘g‘ri keladi. Savat (Sobot) esa Xontepa shahar yodgorligi o‘rniga mos kelishi mumkin va “Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan shaharlardan biri Xantepa (Sobot) bo‘lgan”. A.A. Gritsina Kiropolni Kurkat qishlog‘i atrofiga joylashtiradi hamda Shirin va Chig‘moytepa shahristoni bu masalada yangi ma’lumotlar berishini taxmin qiladi.

Shunday qilib, Kiropol, hozirgi O‘ratepa, Gaza, hozirgi Xo‘jand yaqinidagi Gazan-Darak, Baga, O‘ratepa yaqinidagi Vagat, Kurkat, Shirin shahri yaqinidagi Kurkat qishlog‘i o‘rnida bo‘lgan. Sabat, Shavkat va Xovost shaharlari esa Ustrushonaning Sirdaryo janubidagi tekislik qismida joylashgan.

Mil. avv. II asrdan boshlab qadimgi xitoy manbalarida O‘rta Osiyo, jumladan, Kangjyuy (Kang-kiya, Kang‘uy, Qang‘) davlati tarkibida tilga olinadi. Xitoy sayyohi Sima Chyan (mil. avv. 160/161-42/43 yy.) qang‘uylarning joylashish o‘rni, urf- odatlari, harbiy qudrati, ularga qo‘shni yashovchi xalqlar haqida qisqacha ma’lumot beradi. Qadimgi Xitoy tarixchisi Ban Gu o‘zining

“Birinchi Xan sulolasi tarixi” asarida qang‘uylarning joylashuvi va harbiy kuchlariga e’tibor qaratgan. Bundan tashqari, bu elatning qancha oiladan iboratligi, bosh shahri, ularga tobe bo‘lgan 5 ta hokimlikning nomlari (Suse, Fumu, Yuni, Gi, Yuegan)ni keltirgan. Ustrushonaning ilk o‘rta asrlar davriga oid ma’lumotlar Xitoyning “Bey-shi (Shimoliy hukmdorlar tarixi), “Suy-shu (Suy sulolasi tarixi)” va “Tan-shu (Tan sulolasi tarixi)” yilnomalarida uchraydi.

Ustrushonaning qadimgi davri haqida Xitoy yilnomalariri beradi. Taniqli tarixchi Ban-Gu qalamiga mansub “Ulug‘ Xan xonadoni tarixi” – Syan-xanshu (mil.er.avv. 206-mil. 23-yillar) ning 95-bobida Davan (Farg‘ona) dan Parfiyagacha bo‘lgan o‘lkalar aholisining, tili, dini, turmush tarzi va xo‘jaligi, urf-odat, marosimlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

Bu ma’lumotlarda, avvalo, Ustrushona, mamlakatining bir necha variantlarda o‘qiladigan nomlari (Shuaydushana, Sudulishena, Sharqiy Sao....) keltirilgan, qolaversa, Ustrushonadan qo‘shni viloyatlargacha bo‘lgan masofalar, ilohiylashtirilgan g‘or va unga sig‘inuvchi odamlar, atroflicha bo‘lsada, arab istilosiga qarshi kurashning qisqa voqealariga doir siyosiy hayot – mamlakat hukmdori She Axu haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Ustrushona tarixi haqida arab geograflarining asarlarida ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Ulardan X asrda yashagan arab geografi, Abul-Qosim Muhammad ibn Havqalning yozishicha, “Ustrushonada kema yursa bo‘ladigan daryo ham ko‘l ham yo‘q, lekin uning ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod hosildor va (turli-tuman) mahsulotlarga boy. Uning yirik shahri ustrushonaliklar tilida Bunjikat deb ataladi. Unga quyidagi shaharlar qarashli: Arsubonikat, Kurkat, G‘azak, Fag‘kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona. Bular Ustrushonaning shaharlaridir. Hukmdorlari yashaydigan bosh shahar Bunjikat bo‘lib, unda erkak aholining soni taxminan o‘n ming kishini tashkil etadi. Binolari esa paxsa va g‘ishtdan qurilgan”. Shuningdek, manbalarda Ustrushona xududlarida tog’ jinslari va ma’danlarni qazib olish alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi haqida ham ma’lumotlar o’rta asrlar geograflari va tarixshunoslari asarlarida yoritilgan. Ular At-Tabariy (X asr), Ibn Xavkal hamda muallifi noma’lum «Hudud al-Alam» nomli kitoblarda keltirilgan. Ushbu asarlarda mazkur xududda mis, kumush va oltin ishlab chiqarish konlari mavjud bo‘lganligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Ustrushonashunos olimlar o‘lkani Yoqut, As-Sam’oniy, Ibn al-Faqih, Ibn Xurdodbeh, Tabariy, Balazuriy, Al-Muqaddasiy kabi tarixchi va sayyoh-larning asarlari “Ushrusana”, “Ustrushona”, “Surushana”, “Sutrushana”, “Shurusana” kabi shakllarida qayd etilganligini keltirib o‘tishadi. Uyg‘ur yozuvidagi buddaviy mazmundagi bir qo‘lyozmada Sutrasan nomli shahar qayd etilgan bo‘lib, uning nomi sanksritcha “Sudarsana” so‘zidan yasalgan. Shu manbalarga asoslanib, ilm-fanda mintaqaning nomi Ustrushona shaklida qabul qilingan.

Arab manbalarida, Ustrushonada bosh shahar Bunjikatdan keyin ikkinchi bo‘lib Zomin tilga olinadi. Zomin shu rustoqning bosh shahri bo‘lib, u Farg‘ona bilan So‘g‘gdni bog‘lovchi katta karvon yo‘li yoqasida, tog‘ oldi o‘lkasida joylashgan. Bu Haqda ibn Havqal “U Farg‘onadan as-So‘g‘dga olib boruvchi yo‘lda joylashgan uning boshqa nomi Savsanda. U yerda eski shahar ham bor, lekin u xaroba holatida. Bozorlar, jome masjidi va aholisining hammasi Savsandaga ko‘chirilgan. Bu yangi shaxar atrofida devor yo‘q. U Butun as-So‘g‘ddan Farg‘onaga ketayotgan yo‘lovchilarning to‘xtov yeridir. Unda oqar suvlar, bog‘lar, tokzorlar va ekinzorlar bor” deb ma’lumot beradi.

Ustrushonaning arablar davridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida Mug‘ tog‘i va Chilxujradan topilgan arxiv xujjatlari him ma’lumot beradi. Panjikent hukmdori Devashtich (708-722 yy.) tomonidan Chochga yuborilgan elchi Fatufarn Panjikentga qaytayotib, Ustrushona orqali o‘tishi lozim bo‘lgan. Biroq, Ustrushona arablar qo‘liga o‘tib, yo‘li berkilib qolgan va shu sababli Chochda turib o‘z xojasi Devashtichga maktub yozgan. Ushbu xat Mug‘ tog‘i Sug‘d hujjatlari arxivi tarkibida bizgacha yetib kelgan va A-14 raqami berilgan. Ushbu xatning 16-17-satrlarida Fatufarn, Ustrushanikutakt pg‘anshtak – Ustrushona yerlari bosib olingan, deb yozadi. Bu vaziyat, aftidan ustrushonaliklar uchungina emas, Panch uchun ham, Choch uchun ham xavfning kuchayishiga olib kelishi mumkin edi.

M. Ishoqovning yozishicha, A-9 hujjatining mazmuni murakkab. Voqealar beqaror va rivojlanib o‘zgarib borayotgani yaqqol seziladi. Bir tomondan arab istilosi kunlarida Xo‘janddagi voqealar haqida gap borsa, boshqa tomondan harbiy-siyosiy vaziyat Buttam, Pargar, Ustrushana,

xatto, Xuttal kabi hududlarni qamrab oladi. Orada Panch viloyati bilan qo‘shni Ustrushonaga olib o‘tuvchi Shahriston perevali manzillari qayd etilgan.

Shunday qilib, yunonlar bosqini paytidagi siyosiy hayotga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Ustrushona So‘g‘diyona mulklari tasarrufida bo‘lgan va keyinchalik Qang‘ konfederatsiyasi (Choch) tarkibiga kirgan. Keyingi davrga oid arab muarrixlarining asarlarida ancha aniq ma’lumotlar keltirilgan. Bu paytda Bunjikat, Arsubonikat, Kurkat, G‘azak, Fag‘kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona va tog‘li hududlardagi Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vakr, Shagar, Mascha, Burgar, Buttam shaharlari gullab yashnagan. Hukmdorlari yashaydigan bosh shahar Bunjikat bo‘lib, unda erkak aholining soni taxminan o‘n ming kishini tashkil etadi. Biroq, manbalarda ta’kidlangan shaharlar, karvonsaroy va rustoqlarning joylashgan o‘rnini arxeologik tadqiqotlar orqali o‘rganish va tarix fani muomalasiga faol kiritish zaruriyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – Б. 6-8.
2. Агроклиматические ресурсы Джизакской и Самаркандской областей Узбекской ССР. – Ташкент: 1977. –С. 14.
3. Абаев В.И. Скифский быт и реформа Зороастра // АО. – 1956. – № 24. – С. 44-45
4. Bernard P. Les monnais hors tresors. Questions d’histoir Greco-bactrienne // Fouilles d’Ai Khanoum. IV. – Paris, 1985. –P. 38-39.
5. Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Античные памятники Северной Уструшаны // ОНУ. Вып. 7. – Ташкент, 1989. – С. 44; Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент, 1990.– С. 9.
6. Грицина А. А., Сверчков Л. М. Археологические исследования в Сырдарьинской области // ИМКУ. Вып. 23. – Ташкент, 1990. – С. 117.
7. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард (Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин). Тошент: ”Узбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. –Б: 68.
8. Исҳоқов М.И. Илк ўрта асрларда Уструшонанинг сиёсий мақомига доир //“Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)”. – Жиззах, 2019. – Б. 29-31.
9. Тошбоев Ф.Э. Qadimgi Ustrushona chorvadorlari tarixi va madaniyati. Tarix fan. dokt. (DSc) diss... – Тошкент, O‘z Mu., 2024. – Б. 17.
10. Тўйчибоев Б.Б. Қадимий Уструшона ҳудуди тарихий топографияси муаммолари хусусида (мил.авв. VII – милодий IV асрлари) // ЎММТ. 32- сони. – Тошкент, 2001. – Б.75.
11. Ўзбекистон ССР тарихи. – Тошкент, 1970. –Б. 96-99.

G‘ARBIY TURK XOQONLIGINING JANG USULLARI.

Xolov Sh.
Shahrisabz davlat pedogogika instituti
O‘quv metodik bo‘lim uslubchisi

Annatotsiya:

Ushbu maqola ilk o‘rta asrlar VI-VII asrlar Markaziy Osiyod mintaqasida hukmronlik qilgan Turk xoqonligining tashkil topishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan xoqonlik qo‘shinlarining jang olib borish usullari: qo‘qqisdan xujum qilish, pistirma qo‘yish, kamonchilar va otliq bo‘linmalarning alohida harakatlanishi, yakka kurashlar ya’ni ikki tomondan bir kishini jangga chiqarib qon tukilishini oldini olish kabi bir qancha jang vositalaridan foydalanish usullari kabi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Turk xoqonligi, xitoy yilnomalari, vizantiya manbalari, O‘n o‘q, temir uzangi, chodirlar, tudun, tazik, Van Sui, Pusa, Mug‘ tog‘i.

Аннотация:

В статье приводятся сведения о способах ведения боевых действий армий каганата, послуживших ключевым фактором в формировании Тюркского каганата, господствовавшего в Среднеазиатском регионе в раннем Средневековье в VI-VII вв.: внезапные нападения, засады, отдельные передвижения лучников и конных отрядов, единоборство, то есть использование нескольких средств ведения боевых действий, например, единоборство, то есть использование по одному человеку с каждой стороны для предотвращения кровопролития.

Ключевые слова: Турецкое ханство, китайские хроники, византийские источники, Десять стрел, железное стремя, палатки, тудун, тазик, Ван Суй, Пуса, гора Муг.

Annotation:

This article provides information on the methods of warfare of the Khaganate armies, which served as a key factor in the formation of the Turkic Khaganate, which ruled the Central Asian region in the early Middle Ages in the 6th-7th centuries: surprise attacks, ambushes, separate movements of archers and cavalry units, single combat, that is, the use of several means of warfare, such as single combat, i.e., the use of one person from each side to prevent bloodshed.

Keywords: Turkish khanate, Chinese chronicles, Byzantine sources, Ten arrows, iron stirrup, tents, tudun, tazik, Van Sui, Pusa, Mugh Mountain.

Tarixiy jarayonlarning har bir bosqichida global miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega bo‘lgan yirik davlatlar jahon sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bunday davlatlar, odatda, keng hududlarni, turli tabiiy-iqlimiy sharoitlarga ega bo‘lgan mintaqalarni o‘z ichiga olgan va ko‘p sonli aholisi bilan ajralib turgan. Ularning geosiyosiy mavqei va strategik resurslardan foydalanish salohiyati butun mintaqa, hatto qit’a darajasidagi taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab bergan.

Ilk o‘rta asrlarga kelib esa Yevroosiyo geosiyosiy manzarasida Turk xoqonligi alohida o‘rin egallagan. Xoqonlik harbiy jihatdan mustahkam tuzilmasi va strategik yondashuvi orqali Markaziy Osiyoning vohalaridagi davlatlarni, shuningdek, dasht hududlaridagi ko‘chmanchi qabilalarni yagona siyosiy tizim ostida birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Bu jarayon nafaqat mintaqaviy integratsiya, balki savdo yo‘llari, madaniy aloqalar va davlat boshqaruvi tizimining rivojlanishiga ham turtki bo‘lgan.

G‘arbiy Turk xoqonligining ko‘plab janglar olib borganiga doir ancha-muncha ma’lumotlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, janglarda aynan qanday taktikalar qo‘llanilganiga doir batafsil ma’lumotlar uchramaydi. Shunga qaramay ayrim ma’lumotlar asosida xoqonlik tomonidan muayyan taktikalar amalga oshirilganini tasavvur qilish mumkin. Jang paytida quyidagicha turli taktikalar qo‘llanilganiga duch kelamiz: ba’zan raqib taraflar jangdan oldin o‘zaro kelishgan holda kim g‘olib, kim mag‘lub bo‘lishini belgilaydigan ayrim shartlarni bajarishardi[1: S. 315]. Xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, G‘arbiy turk xoqoni Dalobyan (Apa Turum: 583–587) o‘z qo‘shinlari bilan Suy sulolasi qo‘shinlari qarama - qarshi turib, jang boshlashga tayyorgarlik ko‘rayotgan bir paytda xitoy lashkarboshisi Tou Jung - ting “ortiqcha qon to‘kilmasligi uchun har ikkala tomon ham bir nafar baquvvat, jasur jangchini o‘rtaga chiqarib urishtirsin, ulardan qaysi biri yengsa, o‘sha tomon g‘olib deb hisoblansin, mag‘lub tomon orqaga chekinsin” deya taklif bildiradi. Taklifni qabul qilgan xoqonlik qo‘shinlari o‘z jangchisi boy bergan taqdirda ham hujum qilmasliklari haqida so‘z berib, o‘zlarining bir nafar otliq askarini o‘rtaga chiqaradilar. Xitoyliklar tomonidan Van Sui ismli jangchi turk askarini yengib, uning boshini kesgach, ortga qaytadi. Va’daga muvofiq xoqonlik qo‘shinlari jang qilmay, sulh qasamini ichib, orqaga qaytib ketadilar[2: S. 42]. Qadimgi turkiylar an’anasiga ko‘ra, hukmdorlar qo‘shin jangovarligini oshirish uchun bir qator jangovar tayyorgarlik tadbirlarini amalga oshirganlar. Yilnomalarda Cheng - guan (627–649) yilining boshlarida (taxm. 630- yillarda) hukm surgan uyg‘ur hukmdori Pusa haqida “doimiy ravishda jang qilish, qilichbozlik va o‘q - yoy otish mashqlarini amalga oshirar, ovga chiqardi” shaklida ma’lumot uchrashi[3: S. 132]. buning misolidir. Aftidan, xoqonlikda harbiy harakatlar paytida xabarlashuvlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, xoqonlik va uning hayrihohlari yoki vassallari orasida dushmanga qarshi rejalashtirilgan harbiy faoliyatlar o‘zaro xat-xabarlashuvlar orqali amalga oshirilgan. Shunday mazmundagi yozishmalar sug‘diy va baqtriy tilli hujjatlar orasida saqlanib qolgan[4: S. 106-112]. Bu haqda A–14 raqamli Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatida quyidagicha ma’lumot aks etgan: “...Va janob, xoqonga (mo‘ljallangan) xatni ham, Farg‘ona hukmdoriga mo‘ljallangan xatni ham Farg‘ona tutug‘i (lashkarboshisi) qo‘li bilan Farg‘ona hukmdori tomon jo‘natdim... Janob, tudundan va uning yordamchisidan xat va og‘zaki javob oldim... qayta Choch tomon qaytib keldim... Janob, Tudun tazik (arab)lar bilan bitimga binoan chekindi... xabarlarga binoan Xun (turk)lar hech ko‘rinmaydi, chunki ular yuqoriga qarab ketishdi va haligacha hech kim qaytib kelgani yo‘q...”[5: S. 86-88].

Qadimgi turklar an’anasiga ko‘ra, xukmdorlar qo‘shin jangovarligini oshirish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirganlar. Jumladan, VI asrning yarmiga mansub xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, xukmdorlar “doimiy ravishda jang qilish, qilichbozlik va o‘q-yoy otish mashqlarini amalga oshirar, ovga chiqardilar”. Turk xoqonligining harbiy san’ati uchun Markaziy Osiyo chorvadorlari an’anasi kabi ot bilan jang qilish usuli xos edi. Xujumni avval kamondan ma’lum masofada turib o‘q uzish bilan boshlab berishgan. Bu vazifani o‘q-yoy bilan asosan qurollangan bo‘linmalar bajarishgan. Jangning xal qiluvchi pallasida esa urushga og‘ir qurolli otliqlar kirgan. Ular dushmanga zich safga tizilgan holda nayzalar bilan xujum qilishgan Shu tariqa ular dushmanni yaqin masofada turib jang qilishga majbur qilishgan. Bunday xujum esa foyda berib, dushman dosh berolmay, ko‘p o‘tmay chekingan. Zirhli otliqlar esa xujumda davom etib, dushmanni butunlay qirib tashlash

bilan jangni tugatishgan. Diqqatga sazovor jihati shuki, xoqonlik qo‘shinlari dushmanni oxirigacha ta’qib qilib borib, uni butunlay tor-mor qilmagunlaricha tinchishmas edi. Masalan, juan - juanlarni ular to Yevropagacha ta’qib qilib borishgan[6: S. 168]. Yordamchi piyoda bo‘linmalarning jangdagi ishtiroki esa aralash jang usulidan foydalanilganda qo‘l kelgan. Ya’ni, dushmanning xujumini o‘q-yoy bilan qarshi olishda ularning nafi tekkan[7: S. 121]. Vaziyat taqozo etganida ba’zi turk bo‘linmalari dushmanga turli tarafdan xujum qilgan holda mustaqil harakat qilishgan. Vizantiyalik harbiy mutaxassis Mavrikiy (VI asr birinchi yarmi) o‘zining “Strategikon” nomli asarida turklarning taktik usullarini shunday tasvirlaydi: “endi turklar va avarlar ham jangovar tartibda joylashishadi. Ular jangovar qo‘shinni rimliklar (vizantiyaliklar ko‘zda tutilmoqda) va forslarga, o‘xshab bir chiziq bo‘ylab joylashtirishmaydi” [8: S. 34]

Xoqonlikda xabarlashuv, ya’ni o‘zaro aloqa bog‘lash xam yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, dushmanga qarshi rejalashtirilgan harbiy faoliyat o‘zaro xat - xabarlashuvlar orqali amalga oshirilgan. Shunday mazmundagi yozishmalar sug‘diy va baqtriy tilli xujjatlar orasida saqlanib qolgan[9: S. 106-112]. Xatlar Sug‘d, Toxoriston yoki Kobuliston xukmdorlariga tegishli bo‘lib, ularning ba’zilarida xoqon tomonidan “topshiriq kelganligi” yoki yorlik oborilganligi”, yo bo‘lmasa, ushbu xukmdorliklarning arablarga qarshi harbiy yordam so‘rab, xoqonga xat orqali murojaat qilishganidan dalolat beradi. Turklarning harbiy ishi mintaqadagi boshqa davlatlarning harbiy ish rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Vizantiyalik harbiy mutaxassis Mavrikiy (Vl asr birinchi yarmi) o‘zining “Strategikon” nomli asarida Vizantiya qo‘mondonlariga doimo avar va turklarning tajribasini qo‘llash zarurligi qayd etilgan. Ushbu nasixatlar, eng avvalo, qurol-yarog‘larga tegishli bo‘lib, xususan: “Jangchining kiyimi xuddi avarlarnikidek, keng, uzun va chiroyli bulishi kerak” yoki “..otlarning tumshug‘i va ko‘kragi xuddi avarlarniki singari quroq bo‘laklari bilan bo‘lsa ham qoplangan bo‘lishi kerak, ular, ayniqsa, jang vaqtida oldinda bo‘luvchi otliqlarning otlarini bo‘yin va ko‘ksini himoyalab tursin. Egar ustida ikkita temir uzangi, arqon va oziq - ovqat uchun qopchiq bo‘lishi kerak. Otning belida to‘rtta, boshida va iyagida bittadan popugi bo‘lishi kerak”. Shuningdek, “chodirlar avarlar va turklarnikiga o‘xshab yaxshilab tikilishi kerakki, chunki shunday chodirlar ham chiroyli, ham qulaydir” [10: S. 88]. deb o‘qtirilgan.

Demak, yuqorida ko‘rib chiqilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, xoqonlik o‘z davrida harbiy jixatdan ilg‘or bo‘lgan. O‘nlik tizimga asoslangan muntazam qo‘shin, ya’ni asosan xar biri 10 nafar jangchi bilan ta’minlovchi “O‘n O‘q” tuzilmasi doimiy ravishda hozir bo‘lgan 100 minglik qo‘shin mavjud bo‘lgan, xoqonlik uning ko‘p sonli, intizomli va tezkor otliq qo‘shinga ega bo‘lganligi, o‘z davrining qo‘dratli davlatlaridan biriga aylanishiga imkon bergan.

Shu sababli, Turk xoqonligi qudratli Sosoniylar Eroni, Vizantiya va Xitoy ustidan ma’lum muddat ustunlik qilishga doimiy ravishda o‘z xududini kengaytirib borishga muvaffaq bo‘lgan. Garchi Turk xoqonligining butun siyosiy tarixi harbiy yurishlar va qabilalararo urushlar bilan to‘la bo‘lishiga qaramay, u Jungoriyadan to Qora dengizgacha bo‘lgan ulkan xududda turkiy qabilalarning o‘zaro uyushishiga zamin yaratdi va qator turkiy tilli xalqlar etno-madaniy muhitining shakllanishini ta’minladi. Xoqonlikning kuchli harbiy tashkiloti esa Xitoy va Eronning tajovuzkorona niyatlariga to‘sqinlik qila oldi va VII asrdagi arab xalifaligi bosqiniga ham birmuncha qarshi tura olgan ilk o‘rta asrlarning buyuk davlatlaridan biri sifatida tarix sahifalaridan o‘rin egalladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘.Boboyorov ”G‘arbiy turk xoqonligining davlat tuzumi” 2018. – 315. B.
2. Taşağıl A. Gök-Türkler. – Ankara: TTK, 1995. – S. 42.
3. Chavannes E. Çin yıllıklarına göre... – S. 132.
4. Согдийский документы... II, – С. 80–82; Sims-Williams N. Bactrian Documents from... – P. 106–112.
5. Согдийские документы... II. – С. 80–85; Лившиц В. А. Согдийская эпиграфика... – С. 86–88.
6. Худяков Ю.С. Вооружение средневековых кочевников ... - С. 168.
7. Худяков Ю.С., Табалдиев К.Ш. Древние тюрки ... - С.121.
8. Маврикий. Тактика и стратегия. Перев. капитана Цыбышева. СПб., 1903. – С. 34. Распопова В.И. Согдийский город и кочевая степь ... С. 88.
9. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. П. Юридические документы и письма / Чтение, перевод и комментарии В.А. Лившица. М., 1962. - С. 80-82; Sims. Williams N. Bactrian Documents from Northerm Afghanistan. Oxford, 2000.= P. 106-112.
10. Маврикий. Тактика и стратегия Пер. капитана Цыбышева., СПб. 1903. - С. 17-18. Распопова В.И, Согдийский город и кочевая степь... С. 88.

SUG'DDAGI HUKMRON TABAQALAR, ULARDAGI UNVONLAR VA DAVLATLARARO MUNASABATLAR.

JUMAYEVA I.
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
II-BOSQICH MAGISTRANTI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sug'd konfederatsiya tarixi haqida ma'lumot buruvchi xitoy, arab, yunon va sug'd yozma manbalar orqali Sug'd vohasining tarixiy-geografik viloyatlarga bo'linishi, viloyatlarning tarixiy nomlanishi, siyosiy boshqaruvida ishtirok etgan sulolalar, Sug'd va xoqonlik o'rtasida o'rnatilgan harbiy va siyosiy aloqalar hamda elchilik munosabatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Sug'd,Turk xoqonligi, boshqaruv tizimi, maxalliy sulolar, unvon, boshqaruvdagi usul vositalar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье показана история конфедерации Согда, на основе китайских, арабских, греческих и согдийских источников, где отражается историческо-географическое деление областей Согда, исторические наименование областей, династии которые участвовали в политическом управлении региона, военные, политические и дипломатические отношения между Согдом и Каганатом.

Ключевые слова: Согд, система управления, методы в системе управления

ABSTRACT

This article describes the division of the Sogd oasis into historical-geographical regions through the Chinese, Arabic, Greek and Sogd written sources, the historical naming of the regions, the dynasties involved in Political Management, the military and political relations established between the Sogd and the Khanate, as well as the relations of the ambassadors.

Keywords: Sogd, system of government, local dynasties, rank, method means in management.

O'rta Osiyoning, jumladan, Sug'd davlatining ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy munosabatlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng avvalo ushbu tarixiy-geografik hududning biz o'rganib chiqayotgan davrdagi siyosiy tarqoqligini unitmaslik va shu nuqtai nazardan turib baholashimiz lozim. Xitoy tarixiy yilnomalari hisoblangan Suy Shu (Suy xonadoni tarixi), Tan Shu (Tan xonadoni tarixi) asarlarida Sug'd ijtimoiy jamiyatda eng yuqori tabaqa bu mahalliy hukumdorlar bo'lib, ular Chjao - u deb atalishi, ularning soni 15 taga yetishi va ularning barchasi o'zlarini kelib chiqishini Kushonlarga olib borib taqashi haqida gapirilib, misol tariqasida Buxoro hukumdorlarining 22 sulola vakili 400 yildan buyon ushbu viloyatda hukumronlik qilib kelayotgani haqidagi fikrlar mavjud.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, barcha ma'lumotlar ham Buxoro vohasidagi hukmron tabaqaning kushonlardan tarqalgani haqidagi fikrlarni bermaydi. Masalan, Sin Tan Shu (erta Tan sulolasi tarixi)ning 85- bo'limida Buxoro haqida yozilganda, "An ikkinchi nomi Buxo yoki Buxe, Toba Vey davrida Nyumi xam deb nomlangan... Eng avval bu yerlar Qang'yuy davlatining Tszi hukumdorlarga bo'ysunar edi...." - degan jumlalarni o'qishimiz mumkin. Ko'rinib turibdiki, Sug'd siyosiy jihatdan parchalanganligi sababli kuchli davlatlar ta'siri ostiga tushib qolish ehtimoli kuchli bo'lib, mahalliy sulolalar tobe bo'lgan davlatlar bilan qon - qarindoshchilik rishtalarini bog'lash orqali o'z hukmronligini saqlab qolish siyosatini tutgan.

Bundan tashqari, manbalarda Sug'dning yetakchi siyosiy markazi Kan (Samarqand shahrining Xitoy manbalarida atalishi) shahri ekanligi va Sug'ddagi barcha hukumdorlar shu xonadon vakillaridan tarqalgani haqidagi ma'lumotlar saqlanib qolingan. Sugd'da ijtimoiy tabaqaning eng yuqori pog'onasini tashkil qilgan Chjao - u deb atalgan hukumron tabaqasi haqida Xitoy tarixiy adabiyotlarida, jumladan Tan Shuda Buxoroda - Chjao - u Sha, Xoxan (Xarkan)da - Chjao - u Busi, Xe (Kushoniya) da Chjao - u Podati, Shi (Kesh) da chjao - u Shiaga hukumronlik qilishi, ularning barchasi Yuechji (kushonlar) avlodlari ekanligi haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Bizga ma'lumki Chjao-u xitoy tilidagi atama bo'lib bizning tilimizda Yabg'u yoki yabg'u, ya'ni turkiy qabilalarning urug' boshliqlarini anglatuvchi atama sifatida tarjima qilingan. Shuni unitmaslik lozimki, Xitoy manbalarida tilga olingan Chjao-u unvonini kushonlar, yoki turkiylargagina emas, balki eroniy etnosga ham taalluqli deb shu fikrni isbotlashga uringan olimlar

bo’lgan. Bunday fikrni o’tgan XIX asrda E.Shavan ilk bora ishlatgan va Poykent hukumdori Shava (forscha), Shaba (arabchasi) nomini Sug’d hukumdorlarining urug’i deb isbotlashga urinadi. Ammo ushbu gipoteza isbotlanmaydi. Shundan so’ng, taniqli olim Tomashek Chjao-uni O’rta Osiyo va Eron xalqlarining qahramoni Siyovush nomidan tarqalgan deb isbotlashga urinadi. Bundan tashqari lingvist olim Konov ham kushonlarning shahanshox (Saonano sao) unvonini tahlil qilib, Chjao-u atamasi eroncha shaxanshox atamasining qisqartirilgan atamasi ya’ni, Saonano sao ning ikkinchi qismi sao (mayda yer mulkka ega shoh, hukumdor) so’zining buzib talaffuz qilishi orqali vujudga kelgan degan fikrni isbotlashga urinadi.

Faqatgina 1956 yildagina ilmiy jamoatchilikka Chjao-u atamasi turkiy qabilalarga borib taqalishi isbotlandi. Taniqli olim H. V. Xausing G’arbiy Turk xoqonligi xonlari nomini o’rganish borasida shunday to’xtamga keladi. G’arbiy Turk xoqonligining Chjao-u Sheli (Xitoy manbalarida), siljibul (musulmon manbalarida), siljibul (Vizantiya, yunon manbalarida) deb tilga olinishi va o’z navbatida xitoy manbalarida u haqida “(Buxoro) hukumdori Chjao-u deb ataladi ... uning ikkinchi nom bilan atalishi ham bo’lib, uni Sheli deb ham ataydilar” - degan fikrlarni keltirishi yuqorida tilga olingan Sug’d jamiyatining oliy tabaqasi hukmdorlar tabaqasining turkiy qabilalarga borib taqalishini uzil kesil hal qiladi.

O’rta Osiyoning ilk o’rta asrlarga oid musulmon davri manbalariga murojaat qilishganda ham o’sha davr mansab va unvonlari haqida, ya’ni, ijtimoiy tabaqalar haqida ko’plab ma’lumotlar olish mumkin. Manbalarda Hamuk yoki jamuk deb ataluvchi atamani ham uchratish mumkin. Bu haqida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Nishopuriydan keltirilgan havola mavjud. Unga ko’ra: “Odamlar bu yerga turli tomonlardan kela boshladilar... ularga bu yer (Buxoro) yoqib qoldi va qolishga qaror qildilar. Dastlab, ular o’tovlarda yashadilar. Vaqt o’tishi bilan o’z uylariga uylar qurib oldilar. Odamlar ko’paydi. Ular o’zlariga oralaridan bir kishini amir sayladilar. Uning nomi Abruy edi... vaqt o’tishi bilan Abruy katta buzrug bo’lib olgach odamlarga zulm o’tkaza boshladi. Odamlar unga toqat qila olmay turli tomonlarga ko’chib keta boshladilar. Dehqonlar va savdogarlar viloyatdan ko’chdilar, Turkistonga borib u yerda Taroz shahriga asos soldilar. Bu shaharni ular Jamukat (Xamukat) deb atadilar. Buxoro tilida jamuk - qimmatbaho tosh degan ma’noni anglatadi... Sheri Kishvar Abruyni tutib jazolagandan keyin Jamukatdan qaytib kelganlar bu yerda qolgan aholini o’zlarining xizmatkorlariga aylantirdilar”.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, taniqli olima O. I. Smirnova Buxorodan Turkistonga ko’chgan tabaqa vakillarining boy, yukori tabaka vakillari, birinchi galda hukmron tabaqaga taalluqdi vakillar deb ta’kidlab, jamuk yoki gavxarning etimologiyasi haqida nafaqat qimmatbaho tosh, balki, kelib chiqish, mavjudlik kabi ma’nolarni ham anglatadi deb ta’kidlaydi. Bagavxar, gavharnijod, pokgavxar kabi so’z tuzilishlari esa oliyjanob, oliynasab kelib chiqish ma’nolarini bildiradi degan fikrlarini keltiradi. Shuningdek, Turkistonga ko’chib ketgan odamlarning yetakchisi bo’lgan shaxsning nomi xam Jamuk bo’lgan deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, Sug’dning tadbirkor, jasur, ishbilarmon farzandlari ilk o’rta asrlarda Buyuk Ipak yo’li tarmog’idagi davlatlar va xalqalarning xo’jalik-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’muriy-boshqaruv, madaniy hayotida muhim o’rin tutganlar, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М. − Л.: Изд. АН СССР, 1950

Chavannes E. Çin yıllıklarına göre Batı Türkleri. Çeviri M. Koç. – İstanbul: Selenge, 2007

Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. – М.: Наука, 1970;

Бернштам А. Н. Тюрки и Средняя Азия в описании Хой Чао (726) // ВДИ, 1952. - № 1. – С. 189–191;

3-SHO‘BA

O‘ZBEK XONLIKLARI DAVRIDA ICHKI VA TASHQI ALOQALAR, TARIXIY-MADANIY JARAYONLAR

THE MENTION OF CRAFTS AND ARTISANS IN SADRIDDIN AYNI’S “MEMORIES”

Sh. Vokhidov *Doctor of Historical Sciences, Professor*
(Uzbekistan)
Sharifova Gulpari (Tajikistan)

Abstract. *The article analyzes the autobiographical data of the work of the famous Tajik writer, Hero of Tajikistan Sadriddinia Aini "Yoddoshtho" ("Memories") about crafts and craftsmen of the city of Bukhara. The authors for the first time try to analyze this layer of information “Memories” by Aini, by introducing information from scientific literature on the topic of interest. They concluded that Ustod Ayni in this work provides important historical and ethnographic data on crafts and artisans and their place in the social relations of the residents of the emirate of the city of Bukhara.*

Key words*: handicrafts, artisans, handicraft, weaving, foundry, making halvah and sweets, risol - a treatise of artisans, the elder is the head and mentor of artisans, shoemaking, water carrier, groom, shinnipazi, bunac-advance.*

Introduction. The works of Sadriddin Aini, such as "Memories", novels and short stories, are not only biographical works of literature, but also an important historical source, the best example of Tajik prose. This comprehensive work, as an important source for studying the history of the Tajik people in Bukhara in the late 19th - early 20th centuries, has not yet fully exhausted its cognitive potential. The modern reader finds new meaning and content in their text.

In this article, the authors analyze the news and information of Sadriddin Aini's "Memories" about crafts and artisans [3].

Literature Review. This problem was solved on the basis of scientific and ethnographic materials, archival data by scientists O. A. Sukhareva [21; 22; 23], L. I. Rempel [20], N. A. Kislyakov [17], D. Yu. Arapov [4], R. Kilichev [16; 18; 19], G. Agzamova [1; 2], D. Atadzhanova [5-12] and others. Among the works of the named scientists, the works of O. A. Sukhareva, R. Kilichev, D. Atadzhanova are of great importance (see list of references).

It is known that the scientist O. A. Sukhareva in a number of her scientific works provides a lot of information about the population of Bukhara and their occupations, crafts and artisans, classes of townspeople, traders, etc. Among other things, she devoted her work "Late feudal city of Bukhara" to the study of crafts and artisans. Its seven chapters contain a general overview of urban professions, metalworking, cotton and silk, architectural professions. She provides information on leather processing, clothing, various food industries (flour milling, oil production, bakery, meat, culinary, confectionery, etc.), pottery, carpentry and woodworking, soap making, candle making, carpet rod making, tent knitting and weaving. The specialist scientist studied the production center of Bukhara, industrial technology, division of labor, social structure of feudal industry and related issues [23]. In the works of O. A. Sukhareva, we find accurate scientific and ethnographic information about the neighborhoods, markets and caravanserais, mosques and madrassas, mausoleums and cemeteries, ponds and wells of Bukhara, gardens and irrigation systems of the city.

The writer, poet, publicist and famous writer, Hero of Tajikistan Sadriddin Aini also provides rich historical and ethnographic information about Bukhara in the late 19th - early 20th centuries. Aini's memoirs, novels and stories can be used to familiarize oneself with the political, economic, social, cultural, scientific and literary environment of the capital. Unfortunately, Aini's rich biographical information has not been properly included in the scope of scientific research. Ustad Sadriddin Aini lived in an environment rich in various political, economic, cultural and scientific-literary events, and provided rich information about the various social strata of that period in the Bukhara Emirate, the city of Bukhara and its districts. The contemporaries and people surrounding the writer Aini were, for the most part, representatives of various professions, entrepreneurs and simple artisans from all corners of the emirate and Central Asia.

Materials and Methods. Sadriddin Aini shares his rich ethnographic and cultural information on the topics under consideration in the sections “Khalvogarkhana”, “Usto amak”, “Agriculture”, “The State of Our Village in Those Years” of the first part of “Memories”; “The Sheikh of the Foundry and his Factory”, “The Shoemaker’s Workshop”, “The Shoemaker’s Grandfather”, “Doshi Shinnipazi”, the second part and in other stories of the third and fourth parts of “Memories”. Within the framework of this information, the writer provides interesting and important news about the occupations of the rural population and the crafts of the inhabitants of the capital of the emirate of Bukhara. The writer’s father is also engaged in weaving (karbosbofi) when he is free from agricultural work. All farmers around the city of Bukhara were engaged in some kind of production or craft in the winter. In this work, Aini provides information about the professions and their representatives, the society of each craft, their management and the status of artisans in the public life of Bukhara.

In the first part of her memoirs, Aini provides information about halva, the halva workshop and the halva masters of her village. From ethnographic data it is known that our ancestors prepared more than a hundred types of halva from sweets made from fruit and grape molasses. In the book by Vozehi Bukhari “Table of Blessings and Source of Delights” (“Khony ne’mat va koni lazzat” -) there is information about how several types of halva are prepared in Bukhara [13].

Results and Discussion. Aini recalls that after a conversation with her brother Mukhiddin, the next morning his mother prepares him a sweet called “kokti halva”. “My mother... first fried the flour in a pan with oil. After that, she put a bowl of mulberry molasses, which she had prepared from Soktore, into the cauldron and boiled it. When the consistency of the molasses became thick, she beat it with the fried flour. After beating, the flour and molasses turned into dough. After that, she sprinkled flour on the tray, turned the dough over and spread it, and when it cooled and hardened, she cut off a piece and gave it to me...” [3, 16]. But during these memories, Aini writes that his brother Mukhiddin saw this halva in his hand and said that this was not real halva, but “oil halva” was real halva. Aini’s father gave him and his brother one tanga (15 kopecks) and sent them to the village of Boloi Rud, to the yard of the master Baroti halvagar (master of halva), for a “tuber” of halva.



In the course of the story of Sadriddin and Badriddin's purchase of halva, we learn about the halva-making enterprise of the halvogar Usto Barot and the method of making halva. Considering the changes in the technology of ancient food materials and the oblivion of many types of local sweets, the information of the author of the "Memories" is of great importance today. Based on this, modern halva producers can resume the production of this type of halva.



In the courtyard of Usto Barot "... there was a very large and tall house, the largest of which was almost four times larger than the usual nine-beam living rooms. It had a double door and a single door on the south side, both of which were closed.

We opened the single-leaf door, which was next to the entrance to the gate, and entered the house. In the lower part of the house there was a row of hearths in which the pots were crookedly arranged, i.e. their back edges were raised, and the front ones were lowered and bent forward. In some of these cauldron’s molasses was boiled, and in some cauldron’s beech water was beaten with a bunch of sticks tied together, which was called "chilchub" (forty sticks). At the end of the row of stoves, a pot was left on the stove in the usual way, into which butter was smeared. In a large curved cauldron, someone was gradually pouring fried flour into the cauldron, and two other

people were hitting the pot with two wooden shovels, mixing them, and from the pot, with mixed flour, the dough was lifted into the air on a shovel and thrown back into the cauldron at full force ... "[3, 18-19].

Aini writes that "a tall middle-aged man (technologist - Sh.V.G.Sh.) was responsible for all the work of the confectioners, hired others and showed them how to work."

On the other side of this house there was a wide, high sufa, and on it was placed a very wide wooden tray, which was about two meters long and wide. Around this tray on the ground, leather mats were laid out. On the edge of the tray and next to the tray in a box there was flour.

At some time, the employer came, took flour from this box with a new iron shovel and sprinkled it on a wooden tray, and then went to the cauldron where the flour was being mixed with sugar, and watched the work going on. When the flour mixed with sugar became thick like bread dough, the owner said to the shovelers:

Stop, take it and carry it! .

The shovelers carried the dough on their shovels and began to pour it onto a wooden tray.

All who were on top of the pots washed their hands up to the elbows and sat on stools around a wooden tray placed on the sufa. The young man stood in front of the box with flour and held in his hands an iron shovel of a new shape.

The bakers made a long tube of dough with their hands, connected the two ends of the tube together and made a ring, and they all leaned over the tray, rubbed the ring and made a wide ring, the edges of the ring reaching the edge of the tray. After this, the young man sprinkled flour on the surface of the dough ring with a shovel, and the bakers folded the ring left and right and threw it over each other to form a small two-layer ring. Again, the young man sprinkled flour on this ring with a shovel, and again the bakers made two layers out of the ring and made a small ring, which had four layers of dough.

The weavers continued their work as follows: the third time an 8-layer ring, the 4th time a 16-layer ring, the 5th time a 32-layer ring, the 6th time a 64-layer ring, the 7th time a 128-layer ring appeared, the 8th time a 256-layer ring, the 9th time a 512-layer ring, the 10th time a 1024-layer ring, and so on, and the 25th time a ring appeared, the layers of which looked like thin cotton nets.

At the end, they cut it one by one with a large knife and weighed it on scales.

In the section "Confectionery Factory of Mirza Abdulvahid" the author of the memoirs says that without knowledge of the secrets of making sweets and without experience, making confectionery is very difficult and labor-intensive [3, 448-451]. In the section "Doshi shinnipazi" (a cauldron for cooking jam) Aini tells about the preparation of jam and the enterprise of jam cooks (shinnipazi), the technology of making this dessert.

In the depth, similar to a pool, a large manger made of brick adjoined the wall of the pool, the interior of which seemed to be whitened with gypsum. The depth of this manger was about one and a half meters, the height - one and a half meters, the length - two and a half meters, the width - two meters. Under the manger there was a waterproof hole, and at the mouth of the hole on the outside there was a wooden tray. Under this tray there was a ceramic jug (kuza), which held about ten buckets of water (this was a wine press, called "ispor", and in some places "chorkhisht" - four bricks).

At the southern end of the pit, a long plasterboard fireplace one and a half meters wide and two meters long was attached to its wall. The hearth of this oven was on the front, on the north side, and its chimney was on the back side and connected to the south side of the pit. This chimney was made of burnt brick and was two meters high.

On the hearth stood a large cast-iron cauldron that could hold five buckets of water, and at the bottom of this pot stood three pairs of wide-mouthed pots, the second pair was smaller than the first, and the third pair was smaller than the second.

On the western side of the hearth, in the space between the hearth and the western edge of the pit, in front of the manger, three pieces of juicy sweet potato were placed. Near the hearth and on the eastern side of it stood two copper pots filled with molasses.

The old man tied an apron around himself, took a flask with a handle and went to the beginning of the copper pipes. A thin youth, whom the old man called Makhdum, took a stick, stood next to the old man and opened a leather bag. The old man took some juice from a copper bowl with a watering can and began to pour it into the bag. Each time the bag was full, the old man took it and closed it, put it upright, leaning it against the wall of the pit, and the old man again brought an empty bag, and the youth poured molasses into it again.

Maksudzhan and Tairzhan brought bundles of wet blackthorn with five branches, placed them in the pit, leveled them, and then with the help of a stretcher they brought grapes from the southern edge of the pond, where there was a grape vine, and began to pour them into a trough above the thorns. By the time two hummocks were lifted into baskets, they were filled with grapes. After this, Tairjan and Maksudzhan took off their long clothes, put the ends of their shirts in their pockets, tied their ankles to their knees and tied them with a rope, and began to press with all their might with their feet. The juice of the grapes, released by pressing, was filtered through wet thorns, passed through the bottom of the trough, from there it fell into the drainage hole, and through the trough began to flow into the sweet potato. Having finished with the molasses, the old man began to pour the juice from the jugs full of juice into the pots placed on the stove. Makhdum took five-branched bundles of dry thorns from the northern edge of the pit and placed them in front of the hearth, and then he stuck one hand of the blackthorn into the hearth with an iron stove, lit the fire, and he stuck the bundles of thorns into the hearth, he collected the bundles of blackthorns with a pitchfork in front of the hearth. After filling the pots, the old man tied a large bag with two sticks on either side, hung the two sticks on two thick ropes hanging from a thick branch of a gujum (kairagach) tree above the pit, placed a ceramic bowl under the bag and took the sediment of the yam from which the juice had been dried and poured it into the jug, and the juice from the jug became clear and began to drip into the vessel.

The old man would go to the stove, pour the juice from one jug into another with a pouring spoon, and with a white shovel like a skimmer, mix the grape molasses inside the pots. Whenever he went away, he would sit and rest on the edge of a sufa/sofa built next to the fireplace, in front of a deep wall, drink tea, and then walk around the molasses pots again, boiling syrup and digging the pots.

When the juice from the last and smallest pair of jugs had thickened and began to form tiny bubbles on the surface as it boiled, the old man poured the juice from the pot, now turned into molasses, into a copper kettle; he put a pair of pots from the one above it and poured the half-cooked juices from the upper kettle into this vessel, the juice from the large pot he poured into the upper pair, and from the sweet potato he brought the juice with a large drinker and filled the large pot. Thus the boiling of the old man's sweetness continued.

Maksudzhan and Tairzhan finished squeezing the grapes, came out of the pit, washed their feet again, put on their shoes and clothes. Maksudzhan took pieces of dry clay tanbusi (tamuzi-letny) - i.e. clay from the summer sun, well-dried products, poured them into jugs filled with freshly squeezed grape juice, and together with Takhirzhan took in their hands two two-meter sticks, the thickness of which was equal to the handle of a large ketmen, began to beat and mix the juices, to such an extent that the clay dissolved in the juice and turned its greenish-white color into the color

of spring mud. When Maksudzhan and Tairdzhan finished their work, the old man ordered Maksudzhan to cook soup, bring tea, and ordered Tairdzhan to stay in Makhdum's place and throw wood into the molasses stove so that he could cook jam...

Many of us ate "koma" with hot tea and warm bread (koma is jam made from molasses instead of sugar, and any jam cooked with molasses is called koma).

The old man began to cook molasses in jugs: he mixed pure syrup with another bag of pure juice, filtered from the mud of thickened syrups (Makhdum told me about this), filled the pots with molasses, and Tairdzhan began to burn the stove. The old man boiled this syrup to such an extent that the bubbles that appeared on the surface of the molasses during boiling reached the size of a camel's eye. The color of this molasses was also different from the color of the first molasses: the first molasses was black, this molasses acquired a golden color.

The old man placed this molasses in copper pots, and after it cooled, he poured it into waterproof ceramic vessels, the necks of which were longer than the belly, and closed the necks of the jugs filled with molasses with plaster.

Maksudzhan and Tairzhan, having eaten their fill of soup, picked up seeds and grape skins, thorns inside the manger with chopsticks, put them in stretchers, poured them to the side, which was far from the seat in the garden, and washed the manger, covered it with a mat, preparing for tomorrow's work [3, 399-403].

It was said above about the weaving of Aini's father as a way of resting from farming. The calico of Aini's father was washed and cleaned by a master bleacher. He made clothes, a blanket, a pillow and a dastarkhan (table) from it. He wove cotton fabric and sewed clothes and a robe for his children. He provided all members of the family with cloaks and bedspreads from the fabric he wove. "My father prepared most of the paints for his woven things himself: he made yellow pea color from esprak (a yellowish plant), black from narpust, pistachio, red and others from narpust by mixing esprak with I don't know some black material. He only ordered olive color (high violet color tending to black) and indigo from a master. Blue color was made from Indian indigo" [3, 49].

The writer's mother, after picking fruit, also did spinning-rope spinning, made kaloba (threads), zagot, prepared sticks for weaving [3, 49]. The author of the "Memories" provides information about the professions and representatives of the crafts, provides important information about their working conditions, wages, the management of artisans by the caliph - elders, apprentices and masters, about the titles and status of entrepreneurs, their position in public relations. For example, Aini provides information about Makhdum Mohammadi, who was a rich man and was considered an authority among the Bukharans, mentions his predecessor, who was a weaver of silk fabrics: "The predecessor of Makhdum Mohammadi was a shahibaf - a master weaver of silk fabrics, who worked as a caliph in one of the enterprises of the Juibar sheikhs. Since the weavers' workshops were dark and damp, and the weaver sat inside a pit while working, this condition affected the workers' health.

The wages of this profession did not provide workers in sufficient quantity: the caliph had to produce a certain amount of flawless goods every week and receive wages for a small amount of work at the end of the week. The weavers who worked in someone's enterprise, like workers in other professions, worked day and night during the week, and they slept in the same workshop. They were released from work only on Thursday at twelve o'clock, and they went home and walked. On Friday evening they had to return to their workplace and get to work" [3, 340].

Another profession mentioned by Ustod Aini is the craft of foundry, which is mentioned in the section "The Sheikh Foundryman and His Company". This chapter tells about the attitude of poor foundry workers and the unhealthy competition of the rich Sheikh Babahoji, known as the "Sheikh Foundryman". Of great importance for the study of decorative and applied art are the author's information about the foundry itself, its workers and the products they produced.

Aini writes that individual foundrymen could not withstand the strong competition of this sheikh and became his employees and began to work at a professional level. "There were ten furnaces and ten anvils in the sheikh's factory, where about forty people worked: some of them pumped air with bellows, some worked as smelters, molders, dynamo operators, toppers (tanks for smelting ore) and the like. The raw materials used in this enterprise were metals such as copper,

brass, zinc, tin and lead. Coal was grain, charcoal burners made it from the wood of fruit trees. Previously, they made molds for castings from black sand. Bushings were made in the form of small and large cups, and the metal was crushed as needed and in accordance with the requirements of the cast objects, mixed, placed in the bushing, placed in a sieve, and the mixed molten metal was poured into the molds of the cast objects. After melting, this mixed metal lost the name of each component and received a new name, which was called "khola". The products of the foundry were varied, the most common of which were camel bells. In addition, in the foundry, metal products for horses, rings and domes of gates and doors, etc. were made from the alloy [3, 347].

Very interesting is the rich information Aini provides about the artisan's workshop, which was defined on the basis of "Risola" - a treatise of artisans. In recent years, a number of studies and scientific theses and articles have been published on the study of the artisan community of the Bukhara Emirate, especially its capital, which also prove that this topic is relevant [9-12; 19]. This problem, the management of artisans and masters, owners did not escape the attention of Sadriddin Aini. Sadriddin Aini gives the following information about the community of artisans and entrepreneurs:

In the Bukhara Emirate, all artisans and masters had a society: each master was considered a member of the society corresponding to his craft. However, filing an application for membership in the society or a membership fee was not required, if a person was a weaver - he was considered a member of the weavers' society, or a shoemaker - he was considered a member of the shoemakers' society. Representatives of the craft, according to the interpretation of the clergy, chose one of the historical or mythological-religious figures as their "elder" (pir, patron, leader). For example, the mentor and patron of weavers was considered to be Imam A'zam, the patron of shoemakers was Boboi Poraduz from Bukhara, who at one time embroidered, the pir of weavers was considered to be Abbas (the Prophet's uncle), who carried water from the Euphrates to a group of followers of Imam Hussein in Karbala, the eldest of the blacksmiths was the Prophet David, who, it seems, at one time made armor, the patron of horse breeders was Kanbar, who was a horse breeder for Ali (the fourth righteous caliph) and others [see also: 16, 49-53; 19; 23]. The rules and laws of artisans were written in the works of "Risola" on various professions. These treatises defined the relationship of the artisans with the elder or elders, with the employer. Any artisan who violated one of the rules written in the treatise paid the elder a sum called "for disobedience" (fine).

The bobo or elder spent part of the money collected in this way, and several times a year (depending on the amount of money collected) held a feast called "the spirit of the mentor" (arvohi pir). The holiday was organized in a religious form and was celebrated by reading the Koran. The guests at this feast were firstly priests, secondly artisans (owners of the enterprise), senior craftsmen and sellers (those who bought and sold the products of the craftsmen - merchants and butchers), and the duty of ordinary craftsmen was to serve at this party. If something was left over from the great eaters, the servants ate as much as there was, otherwise they remained hungry at the feast. No matter how skilled the apprentice was, he could not move from the rank of apprentice to the rank of master until he organized a feast. At the ceremony of "miyonbandi" - girding, the immediate mentor of the student was usually present with his elders - Bobo and mentors, and, of course, two or three priests also sat in front of the assembly girding the student by the mentor [see also: 16, 49-53].

At the end of the feast, the student made a large offering to his immediate mentor; priests, caliph, and if the student was an apprentice of the workshop, then he did not leave the master without a gift.

After receiving the offering, the master tied a scarf on the belt of the student and handed him something (if he was a carpenter - an axe or a saw, if he was a clay master - plaster, if he was a hairdresser - a broom or scissors, etc.) and handed him permission (idjozatnoma) and the privilege to work independently, valid in accordance with the treatise, in accordance with the treatise. The mullahs read the Koran and propitiated the spirit of the patrons, and at this point the feast of the girdling ended [see also: 16, 52].

In each society of artisans there was a caliph (elder), who was directly in charge of the affairs of this society, and there was also a servant who, if necessary, informed the members of this society and gathered them in one place or carried out other minor assignments of the society by order of the

elder. Usually, a caliph was elected in each society. But in the selection (except for the community of weavers and shoemakers, - explained the ustod Aini) only major masters, artisans and sellers took part. More precisely, these "electors" consulted and agreed among themselves, appointed one person as a caliph (elder), and the caliph appointed a servant for himself. Ordinary artisans, present or not present at the "selection" meeting, had to agree with the "choice". The largest of these craft societies were the societies of shoemakers, water carriers, horse breeders and weavers. Among these large communities, the horse breeders and the water carriers community followed the interests of their communities to a certain extent, and their elections were also of a universal nature.

For example, the elders of the community of each haus were openly elected by the community of the same reservoir. Water carriers of small reservoirs joined the community of a larger haus in electing an elder.

The main task of the elders of the water carriers was to protect the rights of the water carriers in relation to the users of water. For example, one water carrier entered into an agreement with the owner of the house for a certain amount of money to carry one or two bags of water to his house every day. If there was a quarrel between the owner and the water carrier, and the owner did not pay the water carrier the full amount, then the other water carrier did not carry water there and reported this to the elders. In this case, even if the owner paid a lot of money, no other water carrier would carry water to him. If any mashkab (water carrier) cheated out of money and carried water to such a landlord, the elder took money (a fine) from him for breaking the rules and forbade him to carry water there again. If that mashkab broke the rule again and carried water there a second time, the elder deprived him of the right to carry water and excluded him from the ranks of mashkabs. In short, until the landlord came to an agreement with his first water carrier, another mashkab would not supply him with water. After the landlord had reached an agreement with his first mashkab, the right to provide water was transferred first to the first mashkab. If he did not want to carry water there of his own free will, another person had the right to carry water there.

The Potters and Carpenters Society protected the rights of its members to a certain extent: if a rift occurred between the master and the owner, and the master completely abandoned the construction, another master had no right to complete the building. After the owner had come to an agreement with the first master, if that master did not want to work there again, another master could work there.

The most democratic of the craftsmen's societies was the horse breeders' society, which also included cabbies. The caliph of the horse breeders' community was chosen from among the oldest grooms who continued to practice the same profession and worked.

Conclusion. The information of the "Memories" of Ustod Sadriddin Aini is very important and rare due to the fact that it is transmitted from the mouths of participants and witnesses of the events. Experts and researchers of past and contemporary history should comprehensively consider and analyze the news and historical facts presented in Aini's memoirs.

References:

1. Agzamova G. Cities and urban life of Uzbekistan in the 16th-19th centuries: diss. of Doctor of Historical Sciences. – Tashkent: Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, 2000. – 348 p.

2. Agzamova G. Crafts and trade in Central Asia in the late Middle Ages. – Tashkent, 2000. – 52 p.

3. Aini Sadriddin. Articles / Encyclopedia of the history of the world. – Dushanbe: Encyclopedia of the millennium tojik, 2009. – 680 p.

4. Arapov D.Yu. Bukhara Khanate in Russian oriental historiography. – Moscow: Moscow State University, 1981.

5. Atajanova D. Issues of handicraft production in the cities of the Bukhara Khanate in the works of orientalists of the 1920-1970s // Proceedings of the scientific conference of young scientists at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. Vol. II. – Tashkent, 2007. – Pp. 211-218.

6. Atajanova D. History of the study of "risola" of the countries of the East // O'zbekiston tarixi /History of Uzbekistan. – Tashkent, 2007. – No. 3. – Pp. 37-47.

7. Atajanova D. Some information from risola on the development of individual branches of craft // O'zbekiston tarixi /History of Uzbekistan. 2005. – No. 5. – Pp. 73-84.

8. Atadzhanova D. Problems of handicraft production in the cities of Central Asia as reflected in Russian historiography of the 19th century - the second half of the 20th centuries. // Siberia and Central Asia: interaction of peoples and cultures. Vol. V. – Barnaul, 2005. – P.71-76.

9. Atajanova D. Craft regulations as the most important sources for the study of trade using the example of “risola-i bakoli” // Uzbekiston fanlar academy sining 60 yilliga bahishlangan Republic yesh olimlar ilmiy conference. – Tashkent, 2003. – P.134-136.

10. Atadzhanova D. Risola - and bofandagi as a source about the weaving craft in Central Asia // Academician U. Karimov nomidagi yesh sarkshunoslar ilmiy conferencesi theseslari. – Tashkent, 2005. – P.81-85.

11. Atadzhanova D. Ritual and ritual side of the activities of Ohangari metalworkers according to the data of “Risola-i-ohangari” (blacksmith’s craft) // Uzbekistan ethnology: yangicha yarashlar va yondashuvlar. K. Shoniyozovning 80 yilliga bagishlangan halkaro conference materiallari. – Tashkent, 2004. – P.242-254.

12. Atadzhanova D.Sh. Historiography of handicraft production in the Bukhara Khanate in the 19th century (based on the study of literature and craft regulations "risola"). Diss. ... cand. of History. - Tashkent, 2008. - 165 p.

13. Vozeh, ibn Muhammadashur Rahimatullohi Bukhori. Horses of the Bukhara Khanate were not fed // State Research Institute of the AF Uzbek Academy of Sciences. History of the Emirate of Bukhara, No. 3949. – 120 c.

14. Vokhidov Sh. Tarikhi Nafei - an important source of history of the Bukhara Emirate // Social Sciences in Uzbekistan, 1997. - No. 91011. - P. 150-154.

15. Gavrilov M. Risala of Sart artisans. A study of the traditions of Muslim guilds. – Tashkent, 1912. - 80 p.

16. Kislyakov N.A. Patriarchal-feudal relations among the settled rural population of the Bukhara Khanate in the late 19th - early 20th centuries. – Moscow-Leningrad, 1962. - 230 p.

17. Qilichev R. Hunarmandchilik pirlari va "miyonbandi" marosimi (Patrons of artisans and the rite of "miyonbandi" (initiation)). // Tarikh tafakkuri, 2011, No. 4. - P. 49-53.

18. Qilichev R. E. XIX asrning II yarmi XX asr boshlari Bukhoro shahrida hunarmandchilik (Crafts in the city of Bukhara in the second half of the XIX – early XX century). Tarikh fan. nom. diss… – Tashkent, 1996. – 180 p.

19. Qilichev R. E. Artisans’ Crafts (Craftsmen’s Crafts). / Our collection of works by R. Qilichev. – Bukhoro, 2007. – 130 p.

20. Rempel L. I. Far and Near. Pages of Life, Everyday Life, Construction, Crafts and Art of Old Bukhara. – Tashkent, 1982. – 450 p.

21. Sukhareva O.A. Bukhara of the XIX - early XX (late feudal city and its population). – Moscow: Nauka, 1966. – 330 p.

22. Sukhareva O.A. Quarterly community of the late feudal city of Bukhara (in connection with the history of the quarters). – Moscow: Nauka, 1976. – 370 p.

23. Sukhareva O.A. Late feudal city of Bukhara. – Tashkent: Fan, 1962. – 235 p.

ЎЗБЕК ХОНЛИКЛАРИ ТАШҚИ АЛОҚАЛАРИДА РУС - ИНГЛИЗ РАҚОБАТИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ

Худойқулов Т.Д.
Шаҳрисабз давлат педагогика институти
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор

Аннотация:

Ушбу мақолада XIX асрнинг 30–40-йилларида Марказий Осиёда, хусусан, Бухоро хонлигида юз берган геосиёсий жараёнлар таҳлил қилинади. Англия ва Россия ўртасидаги мустамлакачилик рақобати контекстида ўзбек хонликларининг ташқи алоқаларини йўлга қўйиш жараёни ёритилган. Инглизлар томонидан юборилган жосуслик ва дипломатик миссиялар, савдо-иқтисодий тажовузлар, ҳамда рус дипломатиясининг жавоб чоралари мисолида минтақада юз берган халқаро кураш тавсифланади. Мақолада тарихий манбалар ва замонавий тадқиқотлар асосида Бухоро бозорларига инглиз саноат молларининг кириб келиши, савдо йўллари ва сиёсий таъсир учун курашнинг моҳияти кўрсатилади. Хулоса сифатида, бу рақобат Бухоро ва бошқа хонликларнинг ташқи сиёсати ва иқтисодий шароитига қанчалик таъсир этгани очиб берилган.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, Бухоро хонлиги, инглиз-рус рақобати, XIX аср, ташқи алоқалар, савдо муносабатлари, дипломатик алоқалар, жосуслик фаолияти, геосиёсий манфаатлар, Ҳиндистон сиёсати, империализм, мустамлакачилик сиёсати, Британия мустамлакачилиги, Россия империяси, Буюк Британия, инглиз савдогарлари, Муркрофт экспедицияси, А.Бернс, Ч.Стоддарт, Артур Конноли, Жозеф Вольф, Савдо йўллари, бозор учун кураш, хонликлар сиёсатининг мустақиллиги, Буюк ўйин, дипломатик экспедициялар.

АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируются геополитические процессы, происходившие в Центральной Азии, в частности в Бухарском ханстве, в 1830–1840-х годах. В контексте колониального соперничества между Англией и Россией рассматривается процесс установления внешних связей узбекских ханств. На примере шпионских и дипломатических миссий, направленных англичанами, торгово-экономической экспансии и ответных мер российской дипломатии описывается международная борьба в регионе. На основе исторических источников и современных исследований в статье показано проникновение британских промышленных товаров на рынки Бухары, суть борьбы за торговые пути и политическое влияние. В заключение раскрывается, насколько это соперничество повлияло на внешнюю политику и экономическое положение Бухары и других ханств.

Ключевые слова: Центральная Азия, Бухарское ханство, англо-русское соперничество, XIX век, внешние отношения, торговые связи, дипломатические отношения, шпионская деятельность, геополитические интересы, политика в отношении Индии, империализм, колониальная политика, британский колониализм, Российская империя, Великобритания, британские торговцы, экспедиция Муркрофта, А. Бернс, Ч. Стоддарт, Артур Коннолли, Джозеф Вольф, торговые пути, борьба за рынки, независимость политики ханств, Большая игра, дипломатические экспедиции.

Abstract:

This article analyzes the geopolitical processes that took place in Central Asia, particularly in the Bukhara Khanate, during the 1830s–1840s. Within the context of the colonial rivalry between Britain and Russia, it explores the development of foreign relations by the Uzbek khanates. The paper describes the international struggle in the region through the example of espionage and diplomatic missions sent by the British, trade-economic incursions, and the responsive measures of Russian diplomacy. Based on historical sources and modern research, the article illustrates the entry of British industrial goods into Bukhara's markets, the essence of the struggle for trade routes, and the quest for political influence. In conclusion, it reveals the extent to which this rivalry affected the foreign policy and economic conditions of Bukhara and other khanates.

Keywords: Central Asia, Bukhara Khanate, Anglo-Russian rivalry, 19th century, foreign relations, trade relations, diplomatic ties, espionage activity, geopolitical interests, Indian policy, imperialism, colonial policy, British colonialism, Russian Empire, Great Britain, British merchants, Moorcroft expedition, A. Burnes, C. Stoddart, Arthur Conolly, Joseph Wolff, trade routes, struggle for markets, independence of khanate policies, the Great Game, diplomatic expeditions.

XIX асрнинг дастлабки ўн беш йилини жаҳон тарихда «Наполеон урушлари» номи билан юритилиб келинади. Агар эътибор қилиб қаралса, бу ҳол фақат Европа мамлакатлари ҳудудлари билан чекланмасдан, унинг таъсири Шарқ мамлакатларини ҳам қамраб олганлигини, бу даврдаги Европа давлатлари ўртасидаги низо ва қарама-қаршиликлар у ёки бу тарзда Шарқ халқлари тақдирида ҳам бевосита муҳим роль ўйнаганлигини кўрамиз. Бунга сабаб шуки, етакчи Европа давлатларини домига тортган ўзаро уруш ва низолар айни вақтда уларнинг мустамлакачилик сиёсатлари билан ҳам чамбарчас боғлиқ эди. Демак, кураш биргина Европа қитъасида устунликни таъминлаш юзасидан бўлмай, балки денгиз йўллари ва Осиё-Африка кенгликларида жойлашган ўнлаб мамлакат ва халқлар тизгинини қўлга киритиш устида ҳам борган. [26-119]

XIX асрнинг 30-йиллари Англия тарихида капиталистик муносабатларнинг ривожлана бориши ва мустаҳкамланиши билан характерланади. Англия савдоси ривожланиши билан у Осиёга икки томондан, яъни Ҳиндистон ва Қора денгиз орқали кириб кела бошлайди. Инглиз буржуазиясининг мамлакат ички ва ташқи сиёсатида муҳим таъсирга эга бўлиб олганлиги янги мустамлака бозорлари ва хомашё манбалари бўлган Осиё мамлакатларини босиб олишга, ҳамда у ерда яшовчи халқларни қул қилиб, бўйинларига колониал сиртмоғини солишга зўр бериб ҳаракат қилишига йўл очади. Айни шу вақтда инглиз босқинчилари

Ҳиндистоннинг катта қисмини босиб олиб, унга қўшни бўлган мамлакатларда ўз ҳукмронлигини ўрнатиш учун сиёсий ва дипломатик тайёргарликни кенг йўлга қўйиб юборган эди.

Яна шуни таъкидлаш лозимки, инглизлар Бухоро хонлигига бир вақтнинг ўзида иккита элчи йўллаган бўлиб, улардан бири инглиз жосуси Мир Иззатуллоҳ эди. Жосусларга инглиз ҳукумати томонидан қатор вазифалар юклатилган бўлиб, хусусан, шу пайтгача инглиз мустамлакачилари учун номаълум бўлган Кашмир-Синьцзян-Бухоро йўналишини синчиклаб ўрганиш, Марказий Осиёдаги давлатларнинг ҳарбий куч-қудратига баҳо бериш, Ҳиндистонга қарши шимолдан юриш юз берганда уни тўхтатиш имконлари қай даражада эканлигини аниқлаш ва Марказий Осиё хонликларини (ҳар эҳтимолга қарши рақобатчиси Россияга қарши) биринчи навбатда Бухоро амирлиги билан қайта яқин муносабатда бўлишини таъминлаш эди [27.-122].

Тарихий воқеаларнинг кейинги ривожи инглизларнинг Ҳиндистонни Наполеон I нинг Марказий Осиё орқали амалга оширилиши кутилган ҳужумини даф этиш йўлида кўрган эҳтиёт чораларининг беҳуда эканлигини кўрсатди. Лекин ўз вақтида буни ҳеч ким олдиндан айтиб беролмасди ҳам. Ост-Индия компаниясининг шу мақсадда Бухоро хонлигига юборган Фозилхон ва Мир Иззатуллоҳ раҳбарлигидаги элчиликлари Ўрта Шарқ минтақасида ҳукм сурган ғоят мураккаб халқаро муносабатларни ўрганди [8-245]. Буни Марказий Осиё дипломатияси тарихининг маълум даврини ўзида акс эттирган қимматли тарихий манба сифатида қабул қилиш мумкин [28-131].

Британия колонизаторлари Ҳиндистонда босқинчилик сиёсатини ҳамон давом эттирар, аста-секин бутун Ўрта Шарқ бўйлаб тажовуз қилмоқда эди. Бу эса Афғонистон ва Марказий Осиё хонликлари Англиянинг босқинчилик режаларининг бевосита объектига айланишига олиб келаётган эди. Инглизлар Ўрта Шарқ мамлакатларини, айниқса Марказий Осиё хонликларини босиб олиш учун ўзларининг бор имкониятларини ишга солаётган эди. Хусусан, Бухоро хонлигида ўз ҳукмронлигини ўрнатиш учун ҳаммадан аввал бир томондан бу ҳудудлар билан иқтисодий алоқалар ўрнатиш, кейин Марказий Осиё бозорларини Англия таъсирига олиш, иккинчи томондан дипломатик муносабатлар орқали у ерда ўз ҳукмронлигини ўрнатишни режа қилади. Шу аснода Марказий Осиё бозорларида Англиянинг саноат моллари биринчи марта 1825 йилда пайдо бўлган эди [15-219].

Бухорода инглиз саноат молларининг пайдо бўлиши Россия ҳукмрон доираларини безовта қила бошлайди. Ҳаттоки бу масала Осиё савдо комитетида муҳокамага қўйилади [15-219]. Инглиз молларининг Марказий Осиё бозорларига кириб келиши билан Россияда пайдо бўлган безовталик айниқса Ост-Инд компанияси лейтенанти А. Бернснинг 1831 - 1833 йилларда Бухорога қилган «саёҳатидан» кейин кучаяди. Чунки, А. Бернснинг олдига қўйилган вазифалардан бири Ҳинд дарёси бўйлаб Марказий Осиёга Ҳиндистондан янги савдо йўлини очиш ва бу дарё орқали молларни олиб бориш учун Ҳинд ҳокими билан шартнома тузишдан иборат эди. Шубҳасиз, инглизларнинг Марказий Осиёга кириб келиши учун бу янги йўлнинг барпо этилиши хонликдаги рус савдо муносабатларига бевосита хавф туғдирарди. Мана шунинг учун ҳам инглиз-рус рақиблиги масаласи Россия ҳукмрон доираларининг диққатини тортувчи бир мавзуга айланди. Шундай қилиб, XIX асрнинг 30-йилларидан бошлаб, Марказий Осиёда инглиз-рус савда рақобати вужудга келди. Мавжуд адабиётларда берилган маълумотларга қараганда инглизлар дастлаб Марказий Осиё бозорларига арзон нарх билан ўз саноат молларини юборади. Инглизларнинг Марказий Осиё савдосига нисбатан тутган бундай ишлари вақтинчалик эди. Асосий мақсад ўзлари бироз зарар кўрсаларда Марказий Осиё савдосини тамоман Англия таъсирига олиш, асрлар давомида Марказий Осиё хонликлари билан савдо алоқасида бўлиб келаётган Россияни у ердан бутунлай сиқиб чиқариш эди. Чунки, Марказий Осиё билан қадимдан бевосита дўстлик муносабатида бўлиб келган Россия Англия тажовузкорлари назарида жиддий бир рақиб. Марказий Осиё жумладан Бухоро хонлигининг Россияга нисбатан яқинлашиш ҳаракатлари инглиз капиталистларининг ғазабини келтирган.

XIX асрнинг 30-йиллари бошларидаёқ Марказий Осиё бозорларида инглиз молларининг нархи рус молларига нисбатан анчагина ошади. А.Коноллининг сўзига кўра, рус моллари арзон бўлишига қарамасдан, инглиз моллари Бухоро бозорида афзалроқ

кўрилган. Унинг фикрича, агарда кейинчалик инглнз молларининг нархи рус молларининг нархигача камайса, улар русларни Марказий Осиё бозорларидан сиқиб чиқаришлари мумкин[18-232].

А. Коноллининг бу фикрлари бутунлай асоссиз бўлиб, Россияни инглизлар Марказий Осиё бозорларидан сиқиб чиқаришлари мутлақо мумкин эмас эди. Чунки, биринчидан, Англия Марказий Осиё бозорларида фақат ип газламалар савдосида Россияга рақиб бўлиб, қолган савдо (металл ва тайёр буюмлар) бутунлай Россиянинг қўлида эди, иккинчидан, инглизлар ўз маҳсулотларини нақд олтинга сотиб, Марказий Осиё молларини сотиб ололмас эдилар. Россия бўлса, ўз молларини сотиш билан баробар, Марказий Осиёнинг маҳаллий маҳсулотлари ҳаридори ҳам эди. Шуларга асосан, инглизларнинг Марказий Осиёга қилган иқтисодий ҳужумларининг муваффақиятсиз чиқиши муқаррар эди. А.Бернс Бухорода кўпгина маҳсулотлар савдосида русларнинг инглизларга нисбатан устунлигини баён қилади [6].

1843-1845 йилларда Бухорога борган инглиз жосуси Ж. Вольф Бухоро бозорини тасвирлар экан, Бухоро бозорида сотилаётган молларнинг асосини рус буюмлари ташкил этишини ва Бухорода 300 га яқин Ҳиндистон савдогарлари бўлишига қарамасдан, асосий савдо Россия билан боғлиқ эканлиги тўғрисида ёзади [2-272]. У Бухоро билан Кабул ўртасидаги савдо ишида довон қор билан қопланиб қолган вақтида қийин аҳволда қолган. Шунинг учун у Кобулдан савдо карвонлари биринчи ёз ойининг охири ёки иккинчи ойининг бошларида Бухорога келган, охирги карвон эса ёзнинг охирги ойи ва кузнинг бошларида келганлигини ёзади. Афғонистондан Бухорога асосан тўқ кўкранг буёқ ва инглиз товарлари келтирилган.

Инглиз товарларининг кўплаб келтирилиши натижасида Марказий Осиё бозорларининг Англияга қарам бўлиб қолиши мумкинлиги рус дипломатини таҳликага солади. Ханников Бухорога инглиз моллари қатори анъанавий ҳинд товарлар: буёқ олинадиган ва доривор ўсимликлар, ҳинд кимхоблари ва талабгор бўлган мал-мал олиб келинганлигини маълум қилади.

Бу даврда таржима асарлар сони камайиб борган. Масалан, инглиз сайёҳи дипломат ва жосуси А.Бернс XIX асрнинг 30-йилларида Британия ҳукуматининг махсус топшириғи билан Бухорога жўнатилади. Унинг асарида Ҳиндистон, Афғонистон ва Бухородаги ижтимоий-иқтисодий воқеалар ҳақида, айниқса шу мамлакатлар ўртасидаги савдо муноса-батлари тўғрисида муҳим маълумотлар келтирилади [3-43].

А.Бернснинг маълумотларига кўра, Кобул бозорларида Бухородан келтирилган 40 дан ортиқ номдаги рус ва Марказий Осиё моллари бўлиб, улардан 30 дан ортиғи Россиядан келтирилган эди. Бундан ташқари, Бухорога Ҳиндистондан 17 номда ҳинд шунингдек, европа, хусусан инглиз товарлари келтирилган. Булар индиго, Кашмир жун румоллари, “лунги” деб аталувчи мултон шарфлари, “носирхон”, “хота”, “хоса-бабар”, “андаршох”, “бедалхони” ва бошқа номлар билан аталувчи ҳинд матоларидир [9-41,42].

Инглиз савдоси ва саноат капитали манфаатлари тарафдори бўлган А.Бернсни инглиз тадбиркорларининг Шарқ бозорларини эгаллаши масаласи қизиқтирган эди. Унинг таъкидлашича, XIX асрнинг 30 йилларида инглиз ва ҳинд товарлари икки мингтагача бўлган туяда Кобулга келтирилган. (тахминан 448 т). Бу товарларнинг ярми Бухорога олиб борилган. Инглиз товарларидан қирқдан бир миқдорда ёки 2,5% бож солиғи олинган. Бож солиғидан ташқари пойтахтда Бухоро билан Ҳиндистон ўртасидаги савдодан транзит бож солиғи олинган. Марказий Осиёнинг Афғонистон ва Ҳиндистон билан савдо алоқаларида Кобул ҳар доим муҳим рол ўйнаган. Шу муносабат билан А.Бернс Бухоро савдоси Кобул савдоси билан чамбарчас боғлиқ, деб ёзган эди [4-46].

А.Бернс Бухоро хонлигининг зўравонлик тизимини қоралаган бўлса ҳам, у ерда ҳали ҳам савдонинг ривожланаётганлигини эътироф қилиб, инглиз савдо саноат доираларини Марказий Осиё бозорларини жадалроқ эгаллашга чақирган эди.

Юқорида қайд қилинганлар асосида, XIX асрнинг 30-40 - йилларида инглизларнинг ўз саноат моллари билан Марказий Осиё бозорларига кириб келишга зўр бериб қилган ҳаракатлари Россия ҳукмрон доиралари ҳамда рус савдогарлари ўртасида безовталик туғдирган бўлса ҳам, лекин Россия ва Марказий Осиё, жумладан Бухоро хонлиги ўртасидаги савдо-

нинг умумий ҳолатига айтарлик таъсир этган эмас, деган хулосага келиш мумкин. Инглиз мустамлакачилари Бухоро хонлигида ўз таъсирини ўрнатиш учун иқтисодий жиҳатдан у ерга кириб бориш билан бир вақтда, сиёсий томондан ҳам ўз тайёргарликларини кучайтирган эдилар.

XIX асрнинг 20-40 - йилларида Марказий Осиё хонликлари Британия Ҳиндистони орқали юборилган махсус миссиялар томонидан жуда синчиклаб ўрганила бошлайдилар. Бу вақтларда Марказий Осиё хонликларига юборилган инглиз экспедициялари олдига қўйилган асосий вазифалар: биринчидан, мамлакатнинг географиясини, иқтисодий аҳволини ҳамда савдодаги умумий ҳолатини ўрганиш бўлса, иккинчидан эса, у ерларда ўз таъсирини кучайтириш учун мамлакатнинг сиёсий ҳаётида катта таъсири бўлган кишилар билан қандай қилиб бўлмасин яқинлашиб, савдо шартномасини боғлашдан иборат эди.

Инглиз ҳукумати Марказий Осиёга Ҳиндистон орқали ўз айғоқчиларини ва сиёсий жосусларини юбориб маълумотлар тўплайдики, бу маълумотлар инглизларнинг Марказий Осиёга уюштирадиган босқинчилигига тайёргарликни енгиллаштириши керак эди. Улар бу мақсадга бошқача усул, яъни иқтисодий тазйиқ ўтказиш йўли билан ҳам эришмоқчи бўлишган. Бунинг учун Британия тадбиркорлари инглиз товарларини Марказий Осиё бозорларида жуда паст нархларда сотишган. Хусусан, рус савдосини синдириш мақсадида 1841-1842 йилларда Бухоро бозорларига шу даражада кўп товарлар олиб келиб жуда паст нархларда сотишганки, аҳоли рус товарларига умуман қарамай қуйишган. Шу йўл билан рус савдогарларини савдодан четлатиб, бир-икки йилдан сўнг товарларнинг нархини икки баробарга кўтариб юборган [5-60].

Навбатдаги инглиз дипломатияси 1819-1825 йилларда Ҳиндистондан Бухорога махсус топшириқлар билан В. Муркрофт ва Г.Требек томонидан амалга оширилади. Экспедициянинг расмий мақсади Ост-Индия компаниясининг отлиқ аскарлари учун «зотли отлар ахтаришдан» иборат эди. Ҳақиқатда эса у Амурдарё ҳавзасига инглизларнинг босиб кириши мумкинлигини аниқлаш учун юборилган разведка қилувчи экспедиция эди. Инглиз жосусларини Марказий Осиё ҳайвонот дунёси эмас, балки унинг бозорларида Англия ҳукмронлигини ўрнатиш қизиқтирарди.

В. Муркрофтнинг олиб келган ҳужжатларини нашр этган Вильсон тўғридан-тўғри кўрсатадики, экспедициянинг мақсади Марказий Осиёда Россия савдосини бутунлай битириш тўғри келмаган тақдирда, қисман бўлса-да, чек қўйишдан иборат эди [2-272]. XIX асрнинг 20-йилларида Марказий Осиёга юборилган инглиз миссиялари асосан, Англия буржуазияси томонидан юборилиб, 30-йилларга келганда бу ишга Британия ҳукуматининг ўзи бевосита раҳбарлик қила бошлайди. Бу воқеа инглизларнинг агрессив режаларин амалга ошириш учун Марказий Осиёга қатъий суратда кириб келишидан дарак берар эди. Бунинг асосий сабаби 1825 йилда Англияда бошланган инқироз бўлиб, у бутун Англия саноатининг деярлик кўпгина қисмини ўз ичига олган эди. Оқибатда мамлакатнинг бутун экономикаси катта зарар кўрган эди. Бу оғир аҳволдан қутилиш учун инглиз ҳукумати XIX асрнинг 30-йилларида бутун Ўрта Шарқ ҳамда Марказий Осиё бўйлаб кенг савдо ва дипломатик юриш қилишга бошлайди.

Бундай юришнинг муҳим этапларидан бири 1831-1833 йилларда Ҳиндистондан инглиз-ҳинд ҳарбий ва сиёсий разведкасининг агенти Александр Бернснинг Кобулга ва Бухорога юборилишидан бошланади.

А. Бернсга ҳарбий ва географик маълумотлар тўплаш ва Кобул ҳамда Бухоро ҳукмрон доиралари билан савдо ва дипломатик алоқа боғлаш топширилган эди. Булардан ташқари, унга Марказий Осиё билан савдо алоқасини кучайтириш ва Марказий Осиё савдогарларини Россия таъсиридан Англия таъсирига тортиш учун Ҳиндистондан Марказий Осиёга янги савдо йўли очиш, шунингдек, Россиянинг Нижегород ярмаркасига ўхшаган савдо пунктини очиш учун энг қулай жойни белгилаш юкланган эди. А. Бернс ўз олдига қўйилган вазифаларни муваффақият билан бажариш учун ҳар хил ваъдалар, ҳамда, вақти келганда, «очиққўллик» билан олтин улашиш каби йўлларни қўллайди. У Бухорода хонликни инглиз ҳокимлигига бўйсундириш учун керак бўлган ҳар хил иқтисодий, сиёсий ва ҳарбий маълумотларни тўплайди. Бухорода у Марказий Осиё савдоси тўғрисида, савдо йўллари ва

марказлари, ҳамда чиқариладиган ва олиб келинадиган асосий моллар тўғрисида турли маълумотлар тўплайди. Айниқса, уни Марказий Осиёга Россиядан келтириладиган саноат моллари қизиқтирар эди. Ҳатто, Бухоро бозорларига олиб келинган рус саноат молларининг рўйхатини ҳам олган эди [7-560].

XIX аср ўрталарида икки йирик мустамлакачи империя - Буюк Британия ва Россия давлатлари манфаатлари Туркистонда тўқнашди. Иккала давлат бир биридан яширин равишда Марказий Осиёга кириш, хонликлардаги ҳукмрон сулолалар билан тил топиш йўлларини қидирар эди. Шу мақсадда ҳарбий миссиялар юборар экан, Англия Ҳиндистон томондан, Россия қозоқ чўллари ва Сибир томондан ҳаракат қилади. Шунингдек, ўзбек хонликларини ўз таъсир доирасига олиш, ўз манфаатлари йўлида уларнинг бойликлари, таби-ий ресурсларидан фойдаланиш, ўз мустамлакасига айлантиришга интилган. Шу боисдан инглиз-рус рақобати кундан-кунга кучайиб борди. Ҳиндистон ва Афғонистон орқали ўзбек хонликлари билан савдо-сотиқ, дипломатик алоқалар олиб бораётган Буюк Британия Россиянинг Туркистонга кириб келаётганидан ҳавфсирамоқда эди. Россиянинг Туркистонни босиб олиш режаларидан ҳабардор бўлган Англия ҳукумати Россия режаларини барбод қилиш чораларини кўрди. Ост-Индия компанияси томонидан жосуслик маълумотлари тўплаш мақсадида юборилган Е.К.Мейендорф 1824 йилдаёқ Бухорода бўлган, аммо мақсадига эришаолмай шу ерда ҳалок бўлган эди. 1831 -1833 йилларда мазкур компания лейтенанти Александр Бернс Ҳиндистондан Афғонистонга, ундан Бухорога гўё сайёҳ сифатида келади. У йиғилган далиллар ва шахсий кузатувлар асосида уч жилдлик «Бухорога саёҳат» номли китоб ёзиб, унда, жумладан: «Ўзбеклар... менинг ким эканимни билмаганларидан барча нарсалар хусусида, ҳукмдорлари сиёсатидан тортиб бозордаги аҳвол ҳақида ҳам тортинмай сўзлашдилар», -деб ёзади.[20-188] Англия ҳукумати Бухоро, Хива ва Қўқон хонликларини Россияга қарши иттифоққа уюштиришга ҳаракат қилди. 1841-1842 йилларда Англия ҳукумати майор Коноллини Хивага, полковник Стоддартни Бухорога махсус миссия билан юборди. Ҳаттоки улар Хива хони ва Бухоро амири ҳузурида бўлиб, Россия тажовузидан сақланиш учун уччала хонлик бир-бирларига ёрдамлашишини, кучларни бирлаштиришни, иттифоқ тузишни таклиф қилиб, рус қўшинларига қарши курашиш учун қўшин билан ёрдам беришга ваъда қилди. Бироқ расмий ҳужжатлари бўлмагани сабабли амир Насрулло уларни жосус сифатида зиндонга ташлатди. Буларни қутқариш учун Англия томонидан Туркия ҳомийлигида майор Вольф Бухорога юборилади. Аммо унинг 1843-1845 йилларда Бухородаги уринишидан ҳам натижа чиқмайди. Зиндондагилар қатл этилиб, Вольфнинг ўзи сиёсий таъқибдан қутилиб қолади. Шунингдек, 1843 йилда Хивага келган капитан Эббот ҳам Англия манфаатлари йўлида ишлагани маълум. Ингилизларнинг Марказий Осиёда жиддийроқ сиёсат юритишига Афғонистон томони халақит бериб турган. Шу боисдан инглизлар махсус «афғон сиёсати»ни ишлаб чиқиб, Афғонистон амирини бўйсундириш, Ҳирот ва Қандаҳорни инглизлар мулкига айлантириш, уларда ҳарбий кучларни жойлаштиришни режалаштиради. Шу мақсадда Англия 1838-1842 ва 1878-1880 йилларда Афғонистонга икки марта босқинчилик урушлари уюштирди. Бироқ Афғонистонни бўйсундира олмади. Ост-Индия компанияси Марказий Осиё бозорларига кириш ва эгаллаб олиш, бозорларда инглиз товарларининг Россия товарларини сиқиб чиқаришини таъминлашга зўр берди. Бу борада улар ҳинд ва форс савдогарларидан ҳам кенг фойдаланди.

1838-1840 йилларда Британия агентураси Россия ва Хива хонлиги ўртасидаги дипломатик алоқаларнинг кескинлашганлигидан фойдаланиб, Марказий Осиё хонликлари устидан Англиянинг сиёсий ҳукмронлигини ўрнатиш ва уларни бирлаштириб Россияга қарши қўйиш учун Аббот, Шекспир, Стоддарт ва Конолли каби жосусларини юборади [12-68].

Инглиз разведкачилари ва диверсантларининг энг кўзга кўринганларидан бири полковник Стоддарт бўлиб, Англия Ташқи Ишлар министри Пальмерсоннинг буйруғи билан Бухоро хонлигидаги «рус қулларини озод этиш» баҳонаси билан 1838 йилда Бухорога келган эди. Ҳақиқатда эса, Стоддартнинг асосий вазифаси Бухоронинг ҳукмрон доиралари билан Россияга қарши биргаликда кураш олиб бориш учун шартнома тузишдан иборат эди.

«Тарихи Туркистон» асарида инглизларнинг Бухорода олиб борган агрессив ва қўпорувчилик ишлари тўғрисида жуда қимматбаҳо маълумотлар келтирилади. Асарда

берилган маълумотларга қараганда, инглиз разведкачиси Стоддарт амир Насрулло томонидан икки марта қабул қилиниб, қуйидаги масалалар юзасидан музокаралар олиб борган эди. «Элчи бўлиб келган Стоддартнинг маслак ва муддаоси инглизлар тарафидан бирор турли ёмон ният, зарар келтирмасликка амирни ишонтириб, бошқа давлатнинг, яъни Россиянинг бу мамлакатларга қасд ва тажовузидан сақланмоқни ва мудофаа этмоқни хоҳлаганидан иборат эди. Бунинг ила баравар, агар амир хоҳиш қилиб, муносиб кўрса, Бухоро аскарларини жадид ва тезотар тўплар ила салоҳлантирмоқ ва аскарий муаллимлар бермоқ ва Россиянинг хуфъя ҳаракат ва муддаосидан Бухоро ҳукуматини хабардор қилмоқ эди».

Бухорода Стоддарт ўзининг дипломатик вазифалари билан кифояланмасдан инглиз агентураси учун керакли маълумотлар тўплаш учун шаҳарда эртадан-кечгача юрар эди. "... у Бухорода шунчалик сурбетлик ва қўполлик билан иш олиб борган эдики, ҳатто Бухородаги одатларга риоя қилмасдан хоннинг саройи олдидан от устида ўтган эди". Бу ҳолат (инглизларнинг агрессив мақсадларини сезиб қолган амир) Насруллога Стоддартни зиндонга ташлаш учун етарли баҳона бўлди. Лекин Мулла Олим ўз китобида бу воқеага юзаки қараб, Стоддарт фақат Шарқ урф-одатини бузганлиги учун зиндонга ташланган, деб баён қилади.

Стоддартнинг таклифларига амирннг қизиқиб қарамаслиги ҳамда унинг Бухоро хонлиги пойтахтида олиб борган амалий ҳаракатларининг бухороликлар томонидан кузатиб борилиши шунингдек, охирида Стоддарт тутилиб зиндонга ташланиши Англиянинг Бухорога нисбатан қўпол бир ғаразда эканини амир Насрулло томонидан пайқалиши натижаси эди. Англиянинг Афғонистонга нисбатан олиб бораётган агрессив муомаласи Бухоро ҳукмрон доираларининг кўзини очмаслиги мумкин эмас эди. Шунинг учун ҳам Россия билан Бухоронинг иқтисодий муносабатлари тарихида очиқдан-очиқ тажовузкорлик ғаразларининг йўқлиги ва Бухоронинг иқтисодий ўсиши, Россия билан тарихий боғланиб қолганлиги бу алоқаларга халақит берадиган ҳар бир ҳаракатга Бухоро ҳукмрон доираларининг шубҳа билан қарашига мажбур этарди.

Инглизларнинг Афғонистон пойтахти Кобулгача босиб келиши (1839) ва Англия ҳукумати Стоддартни озод этишни сўраб Бухоро амирига хат юборишидан хавфсираган амир Насруллоҳ инглиз жосусини зиндондан озод этишга мажбур этади. Аммо Стоддарт ўз қабиҳ мақсадларини амалга оширмасдан Ҳиндистонга қайтишни истамайди. Стоддарт Ҳиндистон ҳокимларидан бирига: «Мен бу ерда бироз қолишга қарор қилдим, ер шарининг бу қисмидаги мамлакатларда Британия мамлакатининг зўр таъсирини жорий қилиш учун қўлимдан келган барча чорани кўраман», деган мазмунда хат ёзган эди.

Стоддарт Британия агентураси учун Бухорода деярли ҳеч қандай иш қилишга улгурмасдан, яна иккинчи маротаба зиндонга ташланди. Унинг тўплаган маълумотлари эса Бухорода қолиб кетди. Стоддартдан кейин Марказий Осиёга капитан Конолли юборилади. У 1842 йилда Хивага келиб, Хива хони орқали Стоддартни қутқаришга ҳаракат қилиш билан бир вақтда, ўзининг қушбеги ва меҳтар билан шахсий учрашувларида хиваликларни Бухорога қарши урушга отлантириш учун ҳар томонлама ҳаракат қилди.

Ч.Валихоновнинг Марказий Осиё ва Кошғар ўртасидаги савдо муносабатларида савдога қўйилган асосий товарлар ҳақидаги маълумотлари ҳам муҳим ахамиятга эга. Бу маълумотларга кўра, Марказий Осиёдан Шарқий Туркистонга олиб бориб сотиладиган товарларнинг асосий қисмини доройи, парча, индиго, ипак газламалар, майда йўл-йўл ёки гулдор шойи, гулбара деб аталувчи юпқа газлама, подшои ва беқасам, тиниқ рангли ярим ипак ва ип газламалар, ҳамда алача деб аталувчи ип матолар, тери, қўй ва қорамол, афюн, тамаки ва Марказий Осиёда ишланган бошқа хунармандчилик буюмлари ташкил этган. Шарқий Туркистондан Марказий Осиёга эса чой, пахта, ипак, бўз, гилам, биллур идишлар ва кумуш келтириб сотилган. Марказий Осиёлик савдогарлар Шарқий Туркистон бозорларида Ғарбий Европадан келган товарлар билан ҳам савдо қилганлар. Швейцарияда, Францияда ва Англияда ишлаб чиқарилган ёрқин қизил рангдаги читлар, инглиз америка картон қоғозлари, қизил тусдаги инглиз кашмири, оқ муслин (ҳарир ва юпқа газлама) ва бошқалар шулар жумласидандир.

Хулоса қилиб айтганда ушбу мақола XIX асрнинг 30–40-йилларида Марказий Осиёда, хусусан, Бухоро хонлигининг геосиёсий вазиятига таъсир кўрсатган рус-инглиз рақобатининг аҳамиятини ёритиб беради. Британия ва Россия ўртасидаги рақобат Бухоро ва бошқа ўзбек хонликларининг ташқи сиёсатини шакллантиришда муҳим роль ўйнади. Буюк Британиянинг Ҳиндистонга нисбатан сиёсий манфаатларини таъминлаш ва Марказий Осиёдаги савдо йўлларига таъсир кўрсатиш ҳаракатлари инглиз дипломатияси ва жосусларининг фаолияти орқали амалга оширилди. Россия эса, ўз империясининг маҳаллий таъсирини кўпайтириш учун дипломатиак ва ҳарбий сиёсатларни юритди.

Инглизлар томонидан юборилган жосуслик экспедициялари ва дипломатик миссиялар Бухоро ва бошқа хонликлар билан тўғридан-тўғри алоқалар ўрнатишга ҳаракат қилишган. Бундан ташқари, рус дипломатиясининг жавоб чоралари, шу жумладан, савдо йўлларини бекитиш ва маҳаллий бошқарув тизимини таъсир қилиш, Марказий Осиёдаги халқаро курашда муҳим аҳамият касб этган.

Тадқиқотда кўрсатилганидек, Бухоро ва бошқа ўзбек хонликларининг ташқи сиёсати ва иқтисодиётига бу рақобатнинг катта таъсири бўлган. Бу рақобат, биринчи навбатда, миллий мустақиллик, сиёсий мустақиллик ва иқтисодий ривожланиш учун курашга олиб келди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. *W. Moorcrгoft fnd G. TгeЬeaк. Tгave1 is Hiша1eyan pгoy1nces of Hisdustan and Panjab, in Ladan and Kashmir in Peshawer, Kabul, Kundur and Bouchara from 1819. To 1825.London,1841.pp.3-4.*
2. Wolff J. Narrative of a Mission to Bouchara in the years 1843-1845 to ascertain the fale of colonel Stoddart and captain Conolly .New-Jork,1845. – P. 272.
3. Алимова Р. Ўрта Осиё хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). – Тошкент.: 2017. – Б. 43.
4. Алимова Р. Ўрта Осиё Хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида). – Тошкент.: 2017. – Б. 46.
5. Алимова Р. Ўрта Осиё Хонликларининг қўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари (XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида) – Тошкент.: 2017. – Б. 60.
6. Бернс А. Путешествня в Бухару: рассказ о плавании по Инду до Лагора с подарками Великобританского короля и отчет о путешествии из Икдии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятом по предписанию Вмсшего правительства Индии в 1831, 32 и 33 гг. лейтенантом Ост-Индийской службм А. Бернсом, I том, - М.1848.
7. Бернс А. Путешествня в Бухару: рассказ о плавании по Инду до Лагора с подарками Великобританского короля и отчет о путешествии из Икдии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятом по предписанию Вмсшего правительства Индии в 1831, 32 и 33 гг. лейтенантом Ост-Индийской службм А. Бернсом, I том, – М. 1848, – С. 560.
8. Бобоев Ҳ, Хидиров З. ва б. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Т.: Fan va texnologiya. – Б. 245.
9. Борне А. Кабул -путевые записки сэра Александра Бориса в 1836; 1837 и 1838 годах. 4.1. – М., 1847. – С.41-42
10. Валиханов Ч.Ч. Собрание сочинений. Т. 3. – С. 197-216.
11. Мулла Олим. Тарихи Туркистон, 194-бет.
12. Муҳаммаджонов А. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент.: 1957. – Б. 68.
13. Муҳаммаджонов А. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. – Тошкент.: 1957. – Б. 69.
14. Нейман К. Афганистан и англичане в 1841-1842 гг. – М., 1848. – С. 195.
15. Рожкова М.Қ. Экономическая политика царского правительства на Средкем Востоке во второй четверти XIX века и русская буржуазия. – М .-Л ., 1949, – С. 219.
16. Русские и английские интересы в Средней Азии //Политико-экономический указатель. 1859. №.35.
17. Серебренников А.Г. Туркестанский край. «Сборник материалов для нстории его завоевания», т. III, – С. 55-57.

18. Conolly A. Journey to the North of Indla overland from England tbrough Russia, Persia and Afghaniston.London.1838.t.1.pp.232-233.
19. Там же.
20. Усмонов Қ, Содиқов М, Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: 2005, – Б. 188.
21. Усмонов Қ, Содиқов М, Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: 2005, – Б. 188.
22. Усмонов Қ, Содиқов М, Бурхонова С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: 2005, – Б. 188.
23. Хайруллаев М. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар. – Тошкент.: 2003, – Б. 119.
24. Хайруллаев М. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар. – Тошкент.: 2003, – Б.122.
25. Хайруллаев М. Ўзбек дипломатияси тарихидан. Тарихий очерклар ва лавҳалар. – Тошкент.: 2003, – Б.131.

БОЙСУН БЕКЛИГИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ ТАРИХИДАГИ ИЖТИМОИЙ МАВҚЕЙИ ВА ТУТГАН ЎРНИ.

Холмуминов Х.Э
т.ф.д. доц,
ТерДУ Тарих факультети
Жаҳон тарихи кафедраси мудири

XIX аср охири - XX асрнинг бошларига келиб Бухоро амирлиги жанубий ҳудудларидаги тарихий жараёнлар таҳлили шундан далолат берадики, бу даврда амирлик бошқарувидаги камчиликлар ҳамда мустамлакачилик сиёсати натижасида демографик жараёнларда муаммолар кузатилган. Яъни бу даврга келиб, Сурхон воҳасидаги Шеробод. Денов, Бойсун бекликлари ҳудудий чегараланишлари жиҳатидан бири-бирига яқин ҳудудлар бўйлаб жойлашган, амирлик таркибида муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлган.

Жанубий воҳаларидаги ушбу бекликлар ижтимоий-иқтисодий жараёнларида савдо алоқалари муҳим ўрин тутган эди. Бу ҳудудларда ўзаро савдо алоқаларининг яхши ривожланганлиги ва маҳаллий ҳунармандчилик соҳаларини яхши ўзлаштирганлиги аҳоли ижтимоий турмуш даражасини қисман бўлса-да, яхшиланишига хизмат қилди. Жумладан, маҳаллий ҳунармандчилик, касаначилик, темирчилик, заргарлик, этикдўзлик, каштачилик ва бошқа соҳаларнинг аҳоли томонидан ўзлаштирилиши аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда мавжуд хом ашёлардан унумли фойдаланиш аҳолининг тайёр маҳсулотларга эҳтиёжини таъминлаш имкониятини яратган эди.

Бойсун беклиги 1868 йилдан аълоҳида мустақил беклик сифатида қайд этилади. Тадқиқ этилаётган даврда воҳа ҳудудларидаги бекликлар ҳамда уларга тегишли бўлган амлокликлар сони ҳам ўзгариб турган. Бу жараёнлар бекликларга тегишли ҳудудларнинг кенгайиши амир олдида кўрсатган хизматига ҳам кўп жиҳатдан боғлиқ бўлган. 1868 йилда Бойсун беглигига хизматлари учун ҳудуддан узоқда жойлашган Зарабоғ, Бузравот, Пошхўрд ва Какайди амлоклари ҳам қўшиб берилган. Натижада Бойсун беклиги Бойсун, Яумчи, Работ, Дарбанд, Сайроб, Хатак, Зарабоғ, Пошхўрд, Бузравот, Какайди амлокликларидан иборат бўлган.

Бойсун беклигига қарашли Хатак амлокдорлигида Танги, Чорвоқ, Бедак, Хўжанқо, Зараутсой, Ёриқсой, Чинор, Калапўшқия сингари қишлоқлардан иборат бўлган. Дастлаб бу қишлоқларнинг маркази Боғлидара эди. Шундан кейин аҳолининг асосий қисми Чорвоқ қишлоғига кўчиб ўтади, бора-бора бу жой Хатак деб юритила бошлайди. Аҳолининг боғ-роғларига айлантирилган Марказий Хатак қўрғони эса, Боғлидара номини олади.

Бу даврда Сурхон воҳаси аҳоли хўжаликларининг табиий географик жойлашуви ҳам ўзига хос аҳамият касб этган. Жумладан, Бойсун, Шеробод, ва Денов тоғлик ҳудудлардан иборат бўлганлиги боис тоғ ён бағирларидаги булоқ ҳамда ариқлардан сув таъминоти амалга оширилган. Жанубий воҳалардаги бошқа ҳудудларга қараганда Бойсун беклигига қарашли тоғ олди ҳудудлари аҳолисининг сув таъминоти нисбатан қониқарли аҳволда бўлган. Бойсун беклиги ҳудудидаги аҳоли хўжаликлари тоғ дарасидан чиқиб келаётган кичкина дарё сувидан фойдаланган. Бунда Авлод, Тўда ва Кўчак қишлоқлари орқали келувчи ариқлар ҳамда булоқ сувлари аҳоли хўжаликлари сув таъминотида муҳим ўрин тутган. Ушбу ҳудудда

жойлашган айрим қишлоқлар суғориладиган ерларининг юқори ҳудудларида, адир ёнбошларида жойлашганлиги сабабли бу қишлоқлар ариқ-усти деб аталган. Бойсун беклиги ҳудудида аҳолининг сув таъминотида муҳим ўрин тутган ариқлар ҳам ўзига хос тарзда маҳаллий аҳоли томонидан турлича номлар билан аталиб келинган.

XIX аср охири - XX аср бошларида жанубий воҳаларидаги ижтимоий-иқтисодий жараёнларда савдо алоқалари муҳим ўрин тутган эди. Бу ҳудудларда ўзаро савдо алоқаларининг яхши ривожланганлиги ва маҳаллий ҳунармандчилик соҳаларини яхши ўзлаштирганлиги аҳоли ижтимоий турмуш даражасини қисман бўлса-да, яхшиланишига хизмат қилди. Жумладан, маҳаллий ҳунармандчилик, касаначилик, темирчилик, заргарлик, этикдўзлик, каштачилик ва бошқа соҳаларнинг аҳоли томонидан ўзлаштирилиши аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда мавжуд хом ашёлардан унумли фойдаланиш аҳолининг тайёр маҳсулотларга эҳтиёжини таъминлаш имкониятини яратган эди.

Жумладан Бойсун беклигига қарашли ҳар бир маҳалла маълум бир ҳунармандчилик соҳаларини ўзлаштириб, маҳалла ва гузарлар шу ном билан аталиб келинган. Масалан, Шайит, Газа, Пойгабоши, Шўрсой ва Қорабайин қишлоқларида чиғатойлар, ўзбеклар (қўнғиротлар) билан биргаликда истиқомат қилиб, уларда касаначилик, темирчилик ва заргарлик яхши ривожланганлиги, ҳаттоки Шайит қишлоғида қўнғиротлар яшайдиган гузарлардан бири заргарлар гузари номи билан юритилиб келинганлиги – қайд қилинган. Газа ва Шайит қишлоқларида Қарши воҳасидан келган ўзбеклар ва Қизил Кориз қишлоғида истиқомат қилувчи чағатойлар, тоқчи-ўзбеклар ҳам касаначилик, темирчилик, заргарлик, этикдўзлик ҳамда каштачилик каби ҳунармандчилик соҳалари билан шуғулланиб келишган.

Бойсун беклигининг мавқеи хусусида Н.Хаников маълумотларига кўра, XIX аср бошларида “Бойсун тоғ бағридаги мустаҳкам қалъа” бўлиб, бу ерда бек қўрғони жойлашган. Қўрғон тош деворлар билан ўралган бўлиб, 2 та дарвозаси бўлган. Аҳолисининг сони 5 мингдан кам бўлмаган. Ҳафтанинг маълум кунлари шаҳарда бозор бўлиб, узоқ тоғ қишлоқлари ва яқин атроф шаҳар ва қишлоқлардан боғдорчилик, деҳқончилик, чорвачилик маҳсулотлар, ҳунармандчилик буюмлари сотилган.

Бойсун беклигида ҳунармандчилик соҳалари яхши ривожланган бўлиб, каштадўзларининг “ажойиб маҳсулотлари ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган”. Хусусан, рус зобити капитан Покотило ўзининг кузатувлари давомида XIX асрнинг сўнгги чорагида Шарқий Бухоро, жумладан, Бойсун беклигида ҳам бўлиб, Бойсун шаҳри дурадгор усталарининг тош ва ёғочдан (ёнғоқ, терак, тут ёғочлари) “ажойиб иморатлар қуришлари”, уста ҳунармандлар “сопол ва ёғочдан турли ва туман қўғирчоқлар ясашлари”, Бойсун аёллари “каштачилик ва дўппидўзликда моҳир чевар” – эканлиги ҳақида ёзган.

Шунингдек Покотило, “Бойсун бегининг ҳар йили 2-3 марта Бухоро амирига араваларга юкланган гуруч, буғдой, қуруқ ва хўл мева, кашталар, зарбоф чопонлар, от, қўй, туя ва қорамол кўринишидаги ҳадялар етказиб туриши ёки шахсан ўзи олиб бориши” – ҳақида ҳам маълумотлар беради. Муаллифнинг қайдларида, “Мовараунаҳрнинг дарвозаси ҳисобланган Термиз катта ва мустаҳкам ўзига хос шаҳар бўлиб, қўнғирот уруғидан бўлган аҳоли томонидан яхши ҳимояланганлиги” – ҳақидаги маълумотларни ҳам учратиш мумкин. Бу даврдаги маълумотлардан маълумки, Сурхон воҳаси ҳудудида мавжуд бекликлар аҳолисининг ижтимоий турмуш тарзида маҳаллий ҳунармандчилик соҳалари ўзига хос аҳамият касб этган. Шунингдек, маҳаллий ҳунармандчилик соҳалари аҳолининг ўзини банд қилиш ҳамда оила хўжалигини юритишда даромад манбаи сифатида ҳам муҳим ўрин тутган эди.

Бу даврда амирликда маҳаллий бошқарувни амалга оширган беклар кўп ҳолларда марказий бошқарув тартибини жорий этишга ҳаракат қилар эдилар. Шунинг учун амирликнинг айрим ҳудудларида вақти-вақти билан мавжуд ҳокимиятни тан олмаслик ҳолатлари кузатилади. Масалан, Шахрисабз, Шеробод ва Ҳисор бекликларида ҳам шундай ҳолатлар юз берганлиги учрайди. Шунга қарамай, ҳар бир беклик ўзининг саройига, мансаб ва унвонига эга бўлганлигини таъкидлаб ўтиш жоиз. Беклик ва амлокликларда давлат ишларни бошқариш ҳамда ташкиллаштириш бўйича маъсуллар белгиланиб, улар бир вақтнинг ўзида ҳудудлардан тушадиган солиқ ва бошқа мажбурий тўловларни назорат қилган.

Бухоро амирлиги ва унинг барча ҳудудларида бекликлар ва маҳаллий амлокликларнинг мақоми бўйича ўзига хос жиҳатлари мавжуд бўлган. Жумладан, Самарқанд беклиги нуфузлилиги, Қарши беклиги кўп ҳолларда амирлик меросхўри, Чоржўй, Ҳисор, Денов беклиги эса уруғ давомчиларига, Бухоро беклиги эса қушбегининг ўзи томонидан бошқарилганлиги сабабли бир қатор ваколатларга эга бўлган эди. Аксарият ҳолатларда бекликларнинг мақоми уларнинг амирлик ижтимоий жараёнларига келтирадиган фойдаси миқдорига ҳам боғлиқ бўлган. Бекликлар ҳудудларда бошқарув ишларини амалга ошириш, жамиятда тартиб-интизомни мустаҳкамлаш, аҳолидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловларни йиғиш ишларини назорат қилганлар. Амирликдаги мавжуд бекликлар амирнинг амалдорлари ҳисобланиб, амир томонидан берилган фармон асосида тайинланган ва амирга доимий равишда ҳудудий бирликлар бўйича иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий масалалар юзасидан ҳисоб бериб турганлар.

Тадқиқ этилаётган йилларда Бухоро амирлиги ва унга тегишли бекликларнинг маъмурий-тузилиши ҳам ўзига хос бўлиб ҳисобланган. Жумладан айрим бекликлар ва унинг ҳудудларини бошқариш ва назорат қилиш ҳуқуқи амир томонидан бевосита валиаҳд сифатида ўтган бўлса. Сурхондарё воҳаси эса маъмурий-ҳудудий тузилиши бўйича бекликлар, амлокликлар ва бошқа тузилмалар орқали бошқарилган эди. Ҳудудий жиҳатдан амирликнинг катта қисми қишлоқлардан иборат бўлган амлокликлар шаклида идора этилган. Айни пайтда айрим туман ва бекликлар мавзеларга ҳам бўлинган эди. Шунингдек, ушбу бекликлар маъмурий бошқарув тизимида кўпроқ амирлик томонидан белгиланган тартиблар асосида бошқарилган. Тадқиқ этилаётган йилларда амирлик бошқарув тизимида ҳукм сурган айрим адолатсизликлар ҳамда ортиқча солиқ ва йиғимларнинг мавжудлиги аҳоли ижтимоий турмуш даражасига салбий таъсир кўрсатган эди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Холиқова Р.Э. XIX асрда Бухоро амирлиги // Жамият ва бошқарув. 2000. 3-сон. – Б. 43.

2. Мухамеджанов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX- нач. XX вв.). – Ташкент: Университет, 2001. – С. 7

3. Қобулов. Э . Манғитлар сулоласи даврида Сурхон воҳаси маъмурий – бошқарув тизими. // Терду хабарлари, 2013. – №1-4. – Б. 6.

4. Умаров И., Раҳмонов Ҳ., Худойбердиев Э. Сурхон воҳасида этник тарих ва этномаданий жараёнлар (хатакилар уруғи мисолида)... – Б.72

5. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 112.

6. Кармишева.Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана...– С. 544.

7. Шодиев. Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. Масъул муҳаррир: ю.ф.д., проф. Ҳ.Б.Бобоев. – Тошкент: ТДЮИ нашриѐти, 2010. - б 42.

7. Ўзбекистон Миллий Архиви, Р-86-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 69-варақ.

8. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 251-иш, 58- варақ

9. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства... – С. 114-121.

10. . Турсунов С.Н. ва бошқ. Шеробод тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр. 2014. Б 64

11. Покотило Н.Н. Отчет о поездке в пределы Центральной и Восточной Бухары в 1886 г.. – С. 35-38.

12. Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 124.

13. Шодиев. Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши/Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДЮИ нашриёти, 2010. – Б. 42.

YEVROPA SAYYOHLAR VA HARBIYLARINING O'RTA OSIYO XONLIKLARNING XALQARO DIPLOMATIK ALOQALARI TARIXI VA MADANIYATIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR

Berdiyev A.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo xonliklari, xususan, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining xalqaro diplomatik aloqalari tarixi va madaniyatini o'rganishda Yevropa sayyohlari, harbiylari va diplomatlarining o'rni tahlil qilinadi. Yevropalik kuzatuvchilarning yozma manbalari – kundaliklar, harbiy hisobotlar va sayohatnomalar – bu davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini yoritilishi haqida ayrim ma'limotlar yoritilgan

Kalid so'zlar*:* Qushbegi, Otalig'i, Sibir, Orenburg, F.Benevin, A.Bekovich-Cherkasskiy, Dashti Qipchoq, Eron, Hindiston, Tibet, Qo'qon, Xo'jand, Amediy Jobert, diplomatik aloqalar, Yevropa sayyohlari, harbiy missiyalar, madaniy aloqalar, tarixiy manbalar

Аннотация

В данной статье анализируется роль европейских путешественников, военных и дипломатов в изучении истории международных дипломатических отношений и культуры Центральноазиатских ханств XVIII–XIX веков, в частности, Бухарского, Хивинского и Кокандского ханств. Рассматриваются письменные источники европейских наблюдателей – дневники, военные отчёты и путевые записки, которые содержат информацию о политической, социальной и культурной жизни данного периода.

Ключевые слова: Кушбеги, Оталиги, Сибирь, Оренбург, Ф. Беневин, А. Бекович-Черкасский, Дашт-и-Кыпчак, Иран, Индия, Тибет, Коканд, Худжанд, Амеди Жобер, дипломатические отношения, европейские путешественники, военные миссии, культурные отношения, исторические источники.

Annotation

This article analyzes the role of European travelers, military personnel, and diplomats in studying the history and culture of the international diplomatic relations of the Central Asian Khanates, particularly the Bukhara, Khiva, and Kokand Khanates, during the 18th and 19th centuries. The written sources of European observers-journals, military reports, and travelogues-are examined, providing insights into the political, social, and cultural life of the period.

Keywords: Qushbegi, Otalig'i, Siberia, Orenburg, F. Benevin, A. Bekovich-Cherkasskiy, Dasht-i Qipchaq, Iran, India, Tibet, Kokand, Khojand, Amedy Jobert, diplomatic relations, European travelers, military missions, cultural relations, historical sources.

XVIII–XIX asrlar Markaziy Osiyoning siyosiy tarixida xonliklararo va tashqi dunyo bilan diplomatik munosabatlar jadal rivojlangan davr bo'ldi. Bu davrda Yevropa davlatlari, xususan, Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari Markaziy Osiyoga geosiyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan qaragan va bu hududga harbiy, savdo va diplomatik ekspeditsiyalar yuborgan. Ushbu ekspeditsiyalar tarkibida ishtirok etgan harbiylar, olimlar va sayyohlar xonliklar hayoti, ularning diplomatik munosabatlari va madaniyatiga oid qimmatli ma'lumotlar qoldirishgan.

XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlariga oid nashr etilgan asosiy manbalarning deyarli ko'pgina qismi memuar xarakterga ega bo'lib, ular Rossiya va mintaqa xonliklari o'rtasida yuborilgan diplomatik missiya va elchiliklar tarkibida qatnashgan mutaxassis, sayohatchi hamda savdogarlarning yozib qoldirgan safarnoma, xotiranoma va kundaliklaridan iboratdir. Shuningdek, O'zbekiston milliy arxivining 715-jamg'armasida saqlanayotgan "A.G. Serebrennikov tomonidan "Turkiston o'lkasining bosib olinishi tarixi" mavzusida hujjatlar nashri uchun tayyorlangan materiallar to'plami"ning katta qismini 1839 -1876-yillar oralig'idagi Rossiya, Turkiston va unga qo'shni hududlar – Xitoy, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston, Eron, Turkiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga oid hujjatlar tashkil etadi. Ushbu ma'lumotlarda Yevropalik sayyohlar nafaqat diplomatik tizim, balki xonliklar madaniy hayotining tafsilotlarini – me'morchilik, kiyinish uslubi, til va diniy urf-odatlar kabi jihatlarni ham tavsiflashgan. Bu yozuvlar hozirda tarix, etnologiya, va diplomatiya tadqiqotlari uchun asosiy birlamchi manbalardan biri hisoblanadi.

Jumladan, XVII – XIX asrning 20 – 50-yillarigacha bo‘lgan davrda Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi aloqalarga oid nashr etilgan manbalarni o‘rganishda T. Burnashev (XVIII asr) asarlari [1.72-89-b] va 1714 – 1717-yillarda Rus hukumati tomonidan A.Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida Xiva xonligiga uyushtirilgan harbiy ekspeditsiya davrida to‘plangan ma’lumotlar, 1820-yilda Negri elchilik missiyasi tarkibida Buxoroga kelgan YE.K. Meyyendorf [2.70-b], 1833-yilda Buxoroda tatar mullosi Mirza Ja’far nomi bilan to‘rt oy yashagan P.I. Demezon [3.17-b], Butenov elchilik missiyasi bilan 1841-yilda Buxoro amirligida bo‘lgan sharqshunos N. Xanikovning asarlari[4.72-b] asosiy manba rolini bajaradi. Shu bilan birga ushbu hujjatlar Rossiya imperiyasi va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi elchiliklarga oid xabarlar, Turkistonga yuborilgan elchilar uchun rasmiy va maxfiy ko‘rsatmalar, elchilarning hisobotlari, Turkiston hukmdorlarining Rossiya imperatoriga maktublari, imperiya hukumati vakillarining xonliklarning oliy amaldorlariga maktublari, xonliklar amaldorlarining imperiya mahalliy ma’murlariga maktublari, xonliklar va Rossiya imperiyasi o‘rtasida tuzilgan tinchlik shartnomalari va boshqalardan iboratdir [5.161-b].

Rossiyadan O‘rta Osiyoga kelgan har bir kishi – elchilik missiyasi a’zosi, savdogar, zobit va boshqalar hukumat idoralaridan maxsus ko‘rsatmalar va yo‘riqnomalar olib, ularda o‘zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, boshqaruv tartiblari, qatnov yo‘llari, shaharlar va boshqa harbiy-strategik masalalarga e’tibor qaratish kerakligi ta’kidlangan [6.16-18-b].

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tarixi savdo hamda diplomatik aloqalarning kengayishi va mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Bu vaqtlarda Buxoro xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi aloqalar asosan ikki tarafdan – Sibir va Orenburg savdo yo‘llari orqali olib borilib, Orenburg orqali bo‘lgan munosabatlar ayniqsa ahamiyatli bo‘lgan.

O‘rta Osiyoning so‘nggi o‘rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy- madaniy hayotini yoritishda Rossiya tomonidan yuborilgan ko‘plab elchilar yozib qoldirgan ma’lumotlar alohida o‘rin egallaydi. Ulardan biri Florio Benevini qaydlari Buxoro xonligi tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Rossiya elchilik mahkamasining mas’ul xodimi asli italyan Florio Beneviniga 1718-yil 13-iyul kuni Pyotr I tarafidan tasdiqlangan qo‘llanmada ko‘plab vazifalar yuklatilgan edi. Elchiga Buxoro davlati haqida muhim birlamchi ma’lumotlarni to‘plash, Buxoro xonligi hududlaridan o‘tayotganda hamma yerlarni, xususan, bandargohlar, qal’alar va shaharlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirib borish vazifasi yuklatiladi.

Shuningdek, xon bilan uchrashish va uning Rossiya tobeligiga o‘tish masalasiga qanday qarashini aniqlash, Buxoroda bo‘lganida qanday bo‘lmasin Buxoro xonligi qal’alari, qo‘shini, otliq va piyoda askarlarining umumiy soni, ularning qurol-aslahalari va qancha zambaragi borligini bilishi kerak bo‘lgan. Xonlik qo‘shinlarining umumiy ahvoli, qal’alarining qo‘riqlanish holatini bilib olish, Buxoro hukmdori Abulfayzxonning Eron shohi va Xiva xonlari bilan munosabati qay darajada ekanini ham aniqlashi lozim edi.

Shu bilan birga Xiva xoniga qarshi harbiy ittifoq tuzishni ham taklif etish, Buxoroda qanday mahsulotlar ishlab chiqarilishi va ular qayerlarga olib borib sotilishini, Buxoroga dengiz yoki quruqlikdan qaysi yo‘l orqali borish qulayligini, u yerda qaysi rus mahsulotlariga ehtiyoj kattaligini, Amudaryoda oltin ma’danlarining bor-yo‘qligini, xonlikning qo‘shin tarkibi qay darajada ekani kabi masalalarni obdon o‘rganish missiyaga topshirilgan edi. Shu kabi topshiriqlarni olgan Florio Beneveni boshchiligidagi missiya a’zolari 1721-yil 6-noyabrda Buxoroga yetib keldilar va bu yerda, 1725-yilning 8-apreliga qadar qolib ketadilar. Bu vaqt oralig‘ida Pyotr I ning mazkur josuslari xonlikdagi mavjud ahvol bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar to‘playdi. Ushbu ma’lumotlarni ular Sankt-Peterburgga ochiq va shifrlangan xatlar orqali jo‘natib turganlar. Bu ochiq va shifrlangan xatlarda Buxoro hamda Xiva xonligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, xonliklar o‘rtasidagi munosabatlar haqida qimatli ma’lumotlar bor edi [7.406-b].

Florio Benevinining o‘z hukumatiga yuborgan ma’lumotnomasida Buxoro shahri quyidagicha tavsif etilgan edi: “Poytaxt Buxoro – buyuk shahar. Uning yonidagi devor loy va xom g‘ishtlardan qurilgani uchun ham uzoq vaqt xizmat qilmasdan ko‘pincha devorlar qulab tushadi. Shaharda loydan qurilgan 15 mingta hovli-joy mavjud. Katta hovlilar kamdan - kam uchraydi, lekin hamma kichik hovlilar taxminan bir xil shakldagi turar-joy (loydan va g‘ishtdan qurilgan kulbalar) dan

iborat... (Qal'asi) yarim vayron bo‘lgan handaq bilan o‘ralgan. Shahar markazida pishiq g‘ishtdan qurilgan baland minorali xon saroyi va madrasalar joylashgan".

Xonlikdagi ichki ahvol haqida esa quyidagicha ma'lumot qoldiradi: "...Beklarning o‘zboshimchaligi tufayli butun mamlakat isyon va tug‘yonlar iskanjasida qolgan" [8.-60-b].

Florio Benevinining Buxoro shahri va xonlikning ichki ahvoli haqida bergan ma'lumotlari o‘sha davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tizimlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Buxoro shahridagi arxitektura va shaharsozlikning kamchiliklari, xonlikdagi siyosiy beqarorlik va isyonlarning mavjudligi, o‘zining boshqaruv tizimida yuzaga kelgan zaifliklarni ko‘rsatadi. Bu ma'lumotlar, shuningdek, Buxoro xonligining o‘z davridagi iqtisodiy va ijtimoiy shakllarini tahlil qilishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, Benevinining tavsifi Buxoro xonligining o‘sha davrdagi o‘zgaruvchan siyosiy va iqtisodiy holatini aks ettiradi.

Rossiyaning Turkiston davlatlari bilan o‘zaro diplomatik munosabatlariga oid ushbu hujjatlar Rossiya imperiyasining XIX asrda Turkistonga harbiy bosqin davridagi faol diplomatik munosabatlar taraqqiyotini ko‘rsatib beradi. Ushbu hujjatlar orqali imperiyaning Turkistonga nisbatan munosabatida savdodagi hamkorlikdan to mustamlakachilikka qadar bo‘lgan o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Hujjatlar tahlili orqali Rossiyaning Turkiston bilan diplomatik munosabatlaridagi bu o‘zgarishlar kuchlar nisbatiga qarab o‘zgarib turganini ko‘rish mumkin. Bu holatni Rossiya imperiyasi hukumati vakillarining diplomatik yozishmalarida, Turkiston hukmdorlariga yo‘llagan murojaatda, qo‘llagan unvonlar (titullar) tizimida ham kuzatish mumkin. Siyosiy atamashunoslik ma'lum jamiyatda, ma'lum davrda shakllangan munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Xususan, hukmdorlarga nisbatan qo‘llanilgan unvonlar ularning o‘z davrida diplomatik munosabatlardagi siyosiy mavqeini anglatgan.

Buxoro xonligidagi tarqoqlik XVIII asr boshlarida shu darajada kuchaygan ediki, xususan, Buxoro xonligi kuchaygan bir davrda, ya'ni XVI asrda Abdullaxon II hukmronligi vaqtida unga bo‘ysungan Farg‘ona vodiysi va Samarqand Buxorodan ajralib chiqib, Qo‘qon xonligi (1709 – 1876 yy.) va Rajabxon boshliq Samarqand bekligi tashkil topadi. Samarqand bekligining Buxoro xonligidan mustaqil bo‘lib tashkil topishi haqida F.Benevinining 1723-yil 4-mart kuni yuborgan maxfiy axborotida quyidagicha fikr bayon etilgan: "...sobiq (Buxoro) otalig‘i Ibrohimbiy Samarqand ustiga yurdi va uni egalladi. Shundan keyin boshqalar bilan qo‘shilib, xon avlodidan bo‘lgan Sharg‘ozixonni Rajabxon nomi bilan (Samarqand) taxtiga o‘tqazdi va uni o‘ziga kuyov qilib oldi. O‘zi esa otaliq lavozimini egalladi" [9.212-b]. Ushbu ma'lumotdan anglash mumkinki, Abulfayzxon hukmronligi davrida parokandalik va boshboshdoqliq nihoyatda kuchayib, mahalliy hokimlarning markaziy hokimiyatga isyonlari oqibatida davlat parokandalikka yuz tutgan.

Biroz vaqtdan so‘ng Samarqandda xon bo‘lib olgan Rajabxon maxfiy tarzda F.Benevini bilan uchrashadi va rus elchisidan haqiqatan ham Rossiya hukmdori Pyotr I elchisi A.Bekovich-Cherkasskiyning qasdini olish uchun Xiva ustiga yurishga qaror qilgan-qilmaganini bilmoqchi bo‘ladi. Bu haqda Xiva xonligining o‘zida ham Pyotr I ning xonlikka qarshi yurishga tayyorgarlik ko‘rayotgani haqida gap-so‘zlar tarqalgan edi. 1723-yili Xiva xoni Sherg‘ozixon qalmoq xoni Ayuqdan "ruslar Saratovda askar to‘playotibdilar, balki 1724-yilning bahorida Xiva ustiga yursalar kerak", degan xabarni eshitgan edi. Bu xabardan keyin, Sherg‘ozixon xonlikka kuch bilan itoat ettirilgan Orol o‘zbeklari ruslarni Xiva xonligiga boshlab kelmasmikan, itoatsiz beklar uni taxtdan tushirib, xonlik taxtiga Temur sultonni o‘tqazishga urinadi degan, shubhaga boradi.

XVI – XVII asrlarda Rossiya imperiyasining rasmiy hujjatlarida Turkiston hukmdorlari "xon" yoki "podsho" deb nomlangan bo‘lsa, XVIII asrdan ular "hukmdor" (vladetel) deb atala boshlagan [10.5-b]. Demak, ular xalqaro iyerarxiyada Rossiya imperatorlariga nisbatan quyi pog‘onada turuvchilar sifatida qabul qilingan.

Bu kabi munosabatni XIX asrning birinchi yarmidagi hujjatlarda ham kuzatish mumkin. Jumladan, Rossiya imperatorining 1841-yilning 6-martida Buxoro amiriga yuborgan yorlig‘ida "Buxoro mulkining sohibi" (obladatel Buxarii), 1842-yilda Qo‘qon xoniga yuborgan yorlig‘ida "Qo‘qon hukmdori" (vladetel Kokanda) [11.35-b], Xiva xoniga yorliqda "Xiva mulkining sohibi" (obladatel Xivi) va janobi oliylari (visokostepenniy) deb murojaat qilingan [12.52-b]. "Visokostepenniy" unvoni Rossiya imperiyasida hukmdor xonlar va muftiylarga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, ba'zan taqdirlangan va obro‘li volost boshliqlarini xalq ushbu unvon bilan ulug‘lagan [13.552-b].

O‘sha davr Rossiya atamashunosligida Xiva va qozoq xonlari “visokostepenniy i visokosanovitniy” [13.528-b] deb atalgan. Diplomatik yozishmalarda nafaqat hukmdorlar, balki ularning yuqori darajali amaldorlariga nisbatan, jumladan, Buxoro qo‘shbegisiga [12.114-b] ham shu unvon bilan murojaat qilingan[13.385-b].XVIII asr boshlarida Buxoro bilan Xiva xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar birmuncha keskinlashgan edi. Bunga, birinchi navbatda, Xiva xonlarining Buxoro, Chorjo‘y va hatto Samarqand hududlarini egallab talon-taroj qilishlari, ekin maydonlarining poymol qilinganligi asosiy sabab bo‘ldi. 1721-yili ikki o‘rtada urush chiqish xavfi aniq bo‘lib qolgan edi. Buni F.Benevinining 1721-yil 25-may kuni Moskvaga yo‘llagan habaridan ham bilish mumkin. Masalan: “Xiva xoni haqiqatan ham buxoroliklar bilan urushmoqchi. Shunga tayyorgarlik ko‘rmoqda. Lekin katta beklari bunga yo‘l bermay turibdilar. Ular hatto Sherg‘ozixonni taxtdan tushirib, 15-yildan beri Buxoro xoni huzurida kun kechirayotgan Musaxonni taxtga o‘tqazmoqchi bo‘lmoqdalar. Shu haqda Xivaning katta beklari Buxoro xoni bilan bordi- keldi qilib turibdilar” [12.226-v].

F.Benevini Xiva xonligining o‘zi ham notinch ekani, Sherg‘ozixon bilan Temur sulton o‘rtasida hokimiyat uchun kurash borayotgani, bunday vaziyatda Rossiya Temur sultonni qo‘llab-quvvatlasa, xonlik aholisi uchun foydali bo‘lishini aytib o‘tadi. “Agar Sherg‘ozixon yo‘qotilsa, bu yerda tinchlik o‘rnatiladi, hamma yo‘llar ochiq bo‘ladi”[11.50-b], – deb yozadi F.Benevini.

Diplomatik vazifalarni bajargan shaxslarning axborotnomalari va maktublari orqali Turkiston hukmdorlari va amaldorlarining shaxsi haqida aniq ma’lumot olish mumkin. Ayniqsa shaxsiy maktublardagi norasmiy ohang bunga imkon beradi. Jumladan, Buxoro va Qo‘qon hukmdorlari qabulida bo‘lgan A.A. Veynbergning shaxsiy maktubidagi parchada Amir Muzaffar va Xudoyorxonning tashqi qiyofasi va elchilar bilan uchrashuvida o‘zini tutishi solishtirilib, tasvirlab berilgan [12.224-v].

Sharq diplomatiyasida o‘zaro sovg‘a-salomlar almashishining ahamiyatini tushungan holda, Rossiya imperiyasi hukumati vakillari ham bu masalaga alohida e’tibor qaratganlar. Xivaga yubo-rilgan P. Nikiforovga topshirilgan sovg‘a-salomlarning ro‘yxati bundan dalolat beradi [11.49-b].

XIX asr boshida A.T. Beznosikov, T.S. Burnashev va boshqalar Buxoroda bo‘lgan sayohati davrida amirlikning hududi, chegarasi, yirik shaharlari, poytaxti, hukmdor saroyining tuzilishi, bozorlar, karvonsaroylar, masjid va madrasalar va boshqa masalalarga alohida to‘xtalib o‘tishgan[1.72-b]. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, turli maqsadlarda O‘rta Osiyoga tashrif buyur-gan rossiyalik elchi, sayyoh, savdogar va boshqa kasb egalari mintaqaning poytaxt shaharlarini batafsil tasvirlashga harakat qilishgan.

Xulosa So‘nggi o‘rta asrlarda Yevropa vakillarining O‘rta Osiyoga kelishi, bu mintaqa xalqlari tarixi, madaniyati va siyosiy tuzumiga nisbatan yangi bir yondashuvni anglatadi. Yevropa sayyohlari va diplomatlari, masalan, Antonio Jenkinson, Mir Izzatullo va Arminiy Vamberi kabi shaxslar, O‘rta Osiyo xalqlarini yanada chuqurroq o‘rganishga va ularni Yevropaga tanitishga intilganlar. Ularning yozib qoldirgan ma’lumotlari, nafaqat o‘sha davrning siyosiy va madaniy hayotini, balki geografik va iqtisodiy holatini ham aks ettirgan.

Bu davrda to‘plangan materiallar, albatta, faqat esdaliklardan iborat bo‘lib qolmay, balki ilmiy tadqiqotlar va kartografiya sohasida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Sayyohlar va elchilar tomonidan qoldirilgan kundaliklar, xaritalar va chizmalar O‘rta Osiyo geografiyasi, shaharsozlik, siyosiy tizimi, iqtisodiy aloqalari va madaniy xususiyatlarini yanada batafsil o‘rganishga imkon berdi. Bu esa o‘z navbatida Yevropa mamlakatlarining O‘rta Osiyo bilan aloqalarini kuchaytirish, savdo-sotiq va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Shunday qilib, Yevropa vakillarining O‘rta Osiyoga qiziqishi, ularning mintaqani yanada chuqurroq o‘rganish istagi, bu hududning tarixiy va madaniy merosiga bo‘lgan alohida e’tiborining belgisi bo‘lib, ular tomonidan keltirilgan ma’lumotlar hozirgi kunda O‘rta Osiyo tarixshunosligi va madaniyatini o‘rganishda asosiy ilmiy manbalarni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Путешествие Т. С. Бурнашева от Сибирской линии до города Бухари в 1794 г. и обратно в 1795 г. Изложено Г. Спасским // Сибирский вестник, 1818. – № 3. – С. 72-89.

2.Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука, 1975. – С.180.

3.Демезон П.И. Записки о Бухарском ханстве (Отчети П.И. Демезона и И.В. Веткевича). – М.: Наука, 1983. – С.149

4.Ханыков Н. Описания Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.277

5.Тўраев Ш. Ўрта аср Европа сайёҳлари асарларида ўрта осиё тарихи ва маданиятининг ёритилиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Қарши. 2022 йил. – Б.161.

6.Соловев М.М. Ученая экспедеция в Бухару в 1841-1842 гг. приучастие натуралиста А. Лемана. – М. Л., 1939. – С.216

7.Молчанов. Н.Н. Дипломатия Петра первого. – М.: “Международные отношения”. 1984. – С.407.

8.Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М. 1986. – С.60. Сариев Н.Т.,Каршиев Р. Развитие науки о земле и горного промысла в узбекистане в XVII-первой половине XIX в. O‘zbekiston konchilik xabarnomasi. 1 № 64 Yanvar - Mart 2016. – Б. 117.

9.Лунин Б. В. История Узбекистана в источниках (Известия путешественников, географов и учёных XVI – первое половине XIX вв). – Т.: Фан. 1988. – С. 84-85. Гулямов Х. О посольстве Флорио Беневени в Бухару//Общественные науки в Узбекистане, 1978. № 8. Ахмедов Б. А. Реляции из Бухары Флорио Беневени// Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Письменные памятники). – Т.: Фан, 1985. – С.216.

10.Ханыков Я.В. Поездка Поспелова и Бурнашева в Тошкент в 1800 году // Вестник Императорского Русского географического общества на 1851 год. Ч. I. Кн. 1: География историческая. Т. VI. 1851. – С.5,20.

11.Сборник материалов для истории завоевания Туркестанского края. / Собрал полк. А.Г. Серебренников. Т.3: 1841 год. – Ташкент: тип. шт. Туркест. воен. окр., 1912. – С. 35.

12.ЎзМА, И.715-жамғарма, 1-рўйхат, 4-йиғма жилд, 15-16-варақ.

13.Брокгауз Ф.А., Ефрон И.А. Энциклопедический словарь. Под. ред. Проф. И.Е. Андреевского.Т. 7 а. – СПб.: Типо -литография И.А. Ефрона, 1892. – С.552.

MUHAMMAD HAKIMXON TO‘RA: NORASMIY ELCHI VA TARIXIY SHAXS SIFATIDA ROSSIYAGA SAFARI HAQIDA

Abdurahmonov Z.
Mustaqil izlanuvchi,
Namangan Impuls tibbiyot instituti o’qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining tarixiy shaxsi – Muhammad Hakimxon to‘raning Rossiya imperiyasiga qilgan safari, uning diplomatik, ilmiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Manbaalarga asoslanib, Hakimxon to‘raning sayohati geopolitik jarayonlar kontekstida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Hakimxon to‘ra, Qo‘qon xonligi, Rossiya imperiyasi, norasmiy elchi, tarixiy manbalar, diplomatik aloqalar, geopolitika

Аннотация: В данной статье рассматривается путешествие Мухаммада Хакимхона Торы – исторической личности Кокандского ханства – в Российскую империю, а также его дипломатическое, научное и культурное значение. Путешествие рассматривается в контексте геополитических процессов, на основе исторических источников.

Ключевые слова: Мухаммад Хакимхан Тора, Кокандское ханство, Российская империя, неофициальный посол, исторические источники, дипломатические отношения, геополитика

Abstract: This article explores the journey of Muhammad Hakimkhan Tura – a historical figure of the Kokand Khanate – to the Russian Empire, focusing on its diplomatic, scientific, and cultural significance. The analysis is based on historical sources and considers the geopolitical context of the period.

Index Terms: Muhammad Khakimkhan Tora, Kokand Khanate, Russian Empire, unofficial ambassador, historical sources, diplomatic relations, geopolitics

KIRISH. XIX asrning o‘rtalarida Markaziy Osiyodagi siyosiy va diplomatik jarayonlar muhim o‘zgarishlar yuz berayotgan davr edi. Bu jarayonlar ichida Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi aloqalar juda muhim o‘rin tutgan. Qo‘qon xonligi tomonidan Rossiya imperiyasiga yuborilgan norasmiy elchi sifatida Muhammad Hakimxon To‘ra o‘zining ilmiy, madaniy va diplomatik faoliyati bilan tarixiy ahamiyat kasb etdi. Ushbu maqolada Muhammad

Hakimxon To‘raning Rossiyaga qilgan safari va uning diplomatik, ilmiy va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi.

USULLAR. Maqolada Hakimxon To‘raning Rossiyaga safariga doir tarixiy manbalar, sayohatlarni tasvirlovchi asarlar, hamda Rossiya imperiyasiga oid rasmiy hujjatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, asarlar va manbalar tahlil qilinganida geografik, iqtisodiy va siyosiy ma’lumotlar ham inobatga olingan. Tahlil davomida Hakimxon To‘raning sayohatlari, uning diplomatik aloqalari va Rossiya bilan bo‘lgan uchrashuvlari tarixiy manbalarda yoritilgan shaklda o‘rganilgan.

NATIJALAR. Muhammad Hakimxon To‘raning Rossiyaga qilgan safari Markaziy Osiyo va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi aloqalarni chuqur tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu safarning asosiy natijalaridan biri shundaki, Hakimxon To‘ra nafaqat o‘z davrining siyosiy muammolarini yoritgan, balki iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalarda ham muhim kuzatishlar olib borgan. Uning safari va shu safarda yozilgan asarlari, jumladan, "Muntaxab at-tavorix", Rossiyaning o‘sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy holatini aniq tasvirlaydi.

1. **Geosiyosiy va diplomatik ahamiyat** Hakimxon To‘ra Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalarning rivojlanishida muhim o‘rin tutdi. Uning safari, asosan, ikki mamlakat o‘rtasida davom etayotgan siyosiy murakkabliklarni yengillashtirishga qaratilgan edi. Rossiya imperiyasi o‘zining Sibir va O‘rta Osiyo hududlaridagi ta’sirini kuchaytirish istagida bo‘lib, Qo‘qon xonligini o‘ziga yaqinlashtirishni maqsad qilgan edi. Shunday qilib, Hakimxon To‘ra o‘zining diplomatik vazifasini nafaqat xonlikning ichki siyosatini yoritish, balki Rossiya bilan diplomatik aloqalarni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Uning Rossiya amaldorlari bilan bo‘lgan uchrashuvlari bu jarayonning muvaffaqiyatini ko‘rsatadi.

2. **Ilmiy va madaniy ahamiyat** Hakimxon To‘raning sayohatlari ilmiy jihatdan ham qimmatli. U nafaqat Rossiya imperiyasining harbiy va iqtisodiy holatiga, balki ijtimoiy tuzilishga ham e’tibor qaratgan. Uning Shamay (hozirgi Semipalatinsk) va Omsk shaharlaridagi kuzatishlari iqtisodiy tarixni o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Shamaydagi arzonchilik va savdo imkoniyatlari haqida yozgan fikrlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy tahlil qilishdagi chuqur bilimlarini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Hakimxon To‘ra Rossiya imperiyasining ichki siyosatini va madaniyatini o‘z asarlarida mukammal tarzda aks ettirgan, bu esa uning safarini ilmiy nuqtai nazardan yuksaltiradi.

3. **Siyosiy va ijtimoiy ta’sir** Hakimxon To‘raning safarida eng muhim voqealardan biri uning G‘arbiy Sibir general-gubernatori P. M. Kaptsevich bilan uchrashuvlaridir. Ushbu uchrashuvlar Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi siyosiy ehtiyotkorligini va diplomatik muomalasini o‘zida aks ettiradi. Rossiya amaldorlarining Hakimxon To‘raga bo‘lgan ehtiromi, ikki mamlakat o‘rtasida hurmatga asoslangan munosabatlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Bu munosabatlar esa siyosiy jihatdan nafaqat Qo‘qon xonligi, balki butun Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

MUNOZARA. Muhammad Hakimxon To‘raning Rossiyaga safarini o‘rganish, shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik, ilmiy va madaniy aloqalarni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Uning sayohati faqat birinchi darajali diplomatik missiya sifatida emas, balki o‘sha davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini kuzatish imkoniyatini taqdim etadi. Hakimxon To‘ra safar davomida o‘zining diqqatli kuzatuvchanligi va siyosiy tafakkuri bilan tanilgan. Uning sayohati Rossiyaning Markaziy Osiyo siyosatiga bo‘lgan ta’sirini ko‘rsatish bilan birga, o‘z davrining ilmiy va madaniy ahamiyatini ham ochib beradi.

1. **Siyosiy ehtiyotkorlik va mustaqil yondashuv** Hakimxon To‘raning Rossiya imperatorining taklifini rad etishi, uning diplomatik ehtiyotkorligini va mustaqil siyosiy yondashuvini aks ettiradi. Bu harakat, u faqat o‘z xonligi va xalqining manfaatlarini himoya qilishga intilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, u diplomatik masalalarda muvozanatni saqlashga harakat qilgan va Rossiya imperiyasi bilan o‘zaro hurmat va ehtiyotkorlikka asoslangan aloqalarni rivojlantirishga intilgan. Bu, o‘z navbatida, Qo‘qon xonligi va Rossiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni mustahkamlashga yordam berdi.

2. **Markaziy Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi geopolitik o‘zgarishlar** Hakimxon To‘ra safarining geopolitik ahamiyati ham katta. Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan qiziqishi, bu hududning boy tabiiy resurslari va strategik joylashuvi bilan bog‘liq edi. Hakimxon

To‘ra, o‘zining sayohatlari orqali, Rossiya imperiyasining bu hududga ta’sirini o‘rganib, o‘zining siyosiy qarorlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etdi. Rossiya tomonidan Markaziy Osiyo bilan aloqalarni mustahkamlash uchun amalga oshirilgan sa’y-harakatlar, o‘z navbatida, yirik geosiyosiy o‘zgarishlarga olib keldi.

3. **Tarixiy xotira va zamonaviy ta’sir** Muhammad Hakimxon To‘raning Rossiyaga safari, shuningdek, tarixiy xotirani va zamonaviy ta’sirni yaratdi. U o‘zining safarini va kuzatishlarini yozib qoldirib, tarixiy manba sifatida qimmatli materiallarni taqdim etdi. Bu asarlar bugungi kunda Markaziy Osiyo va Rossiya tarixini o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Hakimxon To‘ra, o‘z asarlari orqali, o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy tizimini o‘ziga xos tarzda yoritgan, bu esa uni tarixshunoslikda yuksak ilmiy salohiyatga ega olim sifatida tanitadi.

XULOSA. Muhammad Hakimxon To‘raning Rossiyaga qilgan safari Markaziy Osiyo va Rossiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tarixida muhim o‘rin tutadi. Uning safari faqatgina geografik emas, balki siyosiy, madaniy va ilmiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Hakimxon To‘ra o‘zining sayohatlari orqali faqat Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasining siyosiy munosabatlarini emas, balki ikki madaniyatning bir-biriga bo‘lgan ta’sirini ham o‘rganib chiqqan. Ushbu safar va uning ta’siri hozirgi kunda ham tarixshunoslik va diplomatik tadqiqotlar uchun bebaho manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Vohidov, Sh. (2006). *Muntaxab at-tavorix: (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar)*. Toshkent: Sharq nashriyoti. – 116 bet. Foydalanilgan sahifalar: 5-12; 27-30; 31-35; 38-40.

2. Xurshut, E. (2012). *Hakimxon to‘ra hayoti va sayohatlari haqida tadqiqotlar*. Ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent: Fan. – 80 bet. Foydalanilgan sahifalar: 44; 52-55; 59-61.

3. Salohiddinov, A. (2009). *O‘zbekistonning yangi tarixi (1-kitob).* Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – 408 bet. Foydalanilgan sahifalar: 135-140.

4. Abduraimov, N. (1995). *O‘zbekiston-Rossiya munosabatlari tarixidan lavhalar*. Toshkent: Sharq. – 220 bet. Foydalanilgan sahifalar: 63-70.

BUXORO XONLIGIDA DINIY ULAMOLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTDAGI O’RNI

Shirinov S.
QarDU tayanch doktoranti

Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar an’anaviy jamiyatining ijtimoiy tarkibi turli va murakkab tuzilishga ega bo‘lib, jamiyatda oliy tabaqa yoki “oliynasab” guruhlari, ruhoniylar, savdogarlar va boshqa ijtimoiy qatlamlar o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. O‘zbek xonliklarida, shu jumladan Buxoro xonligida ham tabaqaviylik tizimi mustahkam ildiz otgan va an’anaviy tabaqaviy huquq va imtiyozlar bilan himoyalangan edi. Xususan, ijtimoiy hayotda diniy ulamolar tabaqasi alohida o‘rin tutgan, chunki ular jamiyatning savodli, intizomli va vaqf mulklaridan foydalangan asosiy tabaqasi hisoblangan. Diniy ulamolar xonlkda aholining 3% ini tashkil qilsada, ijtimoiy-siyosiy hayotda katta ta’sirga ega edi. Shuningdek, islom dini jamiyatining asosiy mafkurasiga aylangan bir davrda ulamolar ijtimoiy, huquqiy va diniy normalarni yaratishda va ularni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan. Ulamolar, nasliy mavqe, davlat boshqaruvi pog‘onalarida egallagan mansab va huquqlari, moddiy ta’minoti, vazifa va mashg‘ulotlari bilan ajralib turgan.

Xonlikda din va davlat masalalari yaqin edi. Xususan, islom dunyosida diniy ulamolarning o‘rni juda katta bo‘lib, ular nafaqat diniy masalalarda, balki ijtimoiy va siyosiy hayotda ham faol ishtirok etgan. Diniy ulamolar o‘z ma’lumoti va shaxsiy tashabbuslari orqali aholining axloqiy va diniy ma’lumotini shakllantirgan. Shu bilan birga, ular davlat idoralarida, xususan, sud ishlarida, shariatga oid qarorlarni qabul qilishda ham muhim faol bo‘lishgan.

Jumladan, shayxulislom, rais, sadr, naqib, qozi kalon mansablariga ko‘tarilib, hattoki (kasblari) avlodlariga merosiy nasldan-naslga o‘tib kelgan. Xususan, bu holat dastlab shayboniylar sulolasining birinchi hukmdorlari davrida amal qilingan bo‘lmasada, keyingi hukmdorlar ayniqsa (Abdullaxonning bobosi) Jonibek sulton davrida uning taklifiga binoan XVI asrning birinchi yarmida Farg‘ona vodiysining Koson shahrida yashagan Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniyning

(1461-1542) Miyonkolga ko‘chib kelishi, faoliyat olib borishi, tasavvuf shayxlarining davlatda mavqei osha borishi bilan bunday udum rivojlana boshlaydi. Aytish mumkinki, ulamolar jamiyatda turli ijtimoiy toifalarga bo‘lingan. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, shayxulislom, qozi, mufti, rais, mudarris, imom, eshon va shayx kabi mavqega ega bo‘lishganlar.

Ulamolar orasida oliynasab toifaga kiruvchilari ham bo‘lgan. Bularga sayyid va xo‘ja xonadonlari, ijtimoiy munosabatlarni yopiq olib borishga va o‘zlarini “oddiy fuqaro”lardan farqlashga intiluvchi shaxslar kiradi. Hattoki bu guruhdagilarning siyosiy ta’siri va davlat boshqaruvidagi mavqei ham sezilarli bo‘lgan. Demak, ko‘rinib turibdiki, Buxoro xonligida ulamolarning siyosiy hayotdagi o‘rni va faoliyati ham katta bo‘lgan. Ular xon saroyida alohida mavqega ega bo‘lib, xonning maslahatchilari sifatida xizmat qilishgan. Hattoki ulamolarning qaror va tavsiyalari odatda davlat ishlariga ta’sir etgan. Jumladan, ulamolar hukmdorlarni qo‘llab-quvvatlash yoki tanqid qilish orqali siyosiy harakatlarga o‘z ta’sirlarini o‘tkaza olgan.

Xususan, Muhammad Shayboniyxonning ukasi, 1500-1510-yillarda Buxoro xokimi bo‘lgan Mahmud Sulton naqshbandiya tariqatining mashhur vakili Muhammad Qozi (1447-1516)ning muridi, shayboniy Abu Sa’idxon (1530-1533) Shayx Xudoydod Valiyning muridi, Ubaydullaxon va Abdullaxon II lar esa Jo‘ybor xojalaridan Xoja Islom (1493-1563), Xoja Sa’d (1531/32-1589)ning muridi bo‘lganligini tadqiqotchi olim B.Axmedovning asarlaridan ham ko‘rish mumkin. Xususan, XVI asrning 50-yillarida Shayboniylar davlatidagi toj-taxt uchun bo‘lgan kurashlarga aralashib, o‘z muridi Abdullaxon II ning taxtga chiqishiga yordam bergan Jo‘ybor shayxlarini ham eslab o‘tish mumkin.

Jo‘ybor shayxlari - naqshbandiylik tariqatining vakillari hisoblanadi. Ularning Jo‘ybor xojalari nomini olishiga Xoja Muhammad Islomning bobosi Xoja Muqammad Yahyoning Buxorodagi Jo‘ybor degan yerga ko‘chib kelishi bilan bog‘liq holat bilan izohlash mumkin. Jo‘ybor xojalari o‘zlarini islom dinini targ‘ib qilish uchun Makkadan Nishopurga, undan Buxoroga kelishgan Imom Ali Murtazoni avlodlari deb hisoblashganlar. Jo‘ybor xojalaridan Abu Bakr Sa’dga va uning avlodlariga somoniylar davrida Buxoroning shayx ul-islomi degan mansab berilgan. Abu Bakr Sa’dning nevarasi Muhammad Islom Jo‘ybor xojalarining iqtisodiy va siyosiy jihatdan katta nufuzga ega bo‘lishida asosiy rol o‘ynaydi.

Albatta, Jo‘ybor xojalari xonadonining mavqei misli ko‘rilmagan tarzda yuksalishi Xoja Muhammad Islomning mamlakatda shayboniy shahzodalar o‘rtasida toju-taxt va viloyatlar uchun kurash ketayotgan bir davrda siyosiy hayotga faol aralashuvi va bu jabhada ma’lum muvaffaqiyatlarga erishuvi bilan bog‘liqdir. Muhammad Islom shayboniyzodalar orasida o‘z g‘ayrati va shijoati bilan ajralib turadigan Abdullaxon II (991/1583-1006/1598) qo‘llab - quvvatlaydi va o‘z navbatida Abdullohxon ham unga homiylik qiladi. Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” nomli asarlarida ham Xoja Muhammad Islom ichki kurashlarda Abdullaxon II ni qo‘llab-quvvatlashi yoki Abdullaxon II ning Buxoroda hokimiyatni qo‘lga olish uchun Xoja Islomdan homiylik qilishni so‘ragani haqida ko‘plab ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Jo‘ybor shayxlari xususida Muhammad Tolibning “Matlab ut-tolibin” nomli asarida ham ba’zi ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, asar XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligining siyosiy, diniy va iqtisodiy hayotida yuqori mavqega ega bo‘lgan mashxo‘r Juybor shayxlari yoki xojalari xonadonining bir necha avlodi faoliyatiga bag‘ishlanadi. Unda Jo’ybor xojalarining hayot tarzi, molu mulklari, muridlari va xizmatkorlari, qurdirgan imoratlari hamda Buxoro xonlari va ba’zi xorijiy o‘lkalar hukmdorlari bilan munosabatlari haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tadi. Aslida Muhammad Tolibning o‘zi ham Jo‘ybor shayxlari avlodidan Tojiddin Hasanxojaning o‘g‘li bo‘lgan. “Matlab ut-tolibin” asarning yana bir muhim jihati shundaki, unda Jo‘ybor shayxlari xonadonidagi farzandalar ta’lim – tarbiyasiga katta e’tibor berilgan. Ular Mullo Kamoliddin, Hoji Avaz va Oxund Mullo Boqilar kabi mashhur mudarrislardan dars olishgan.

Tarixdan ma’lumki, har bir hukmdorning bir necha diniy ustozi - piri bo‘lgan. Abdullaxon II ning ham mashhur Jo‘ybor xojalaridan bo‘lgan bir necha pirlaridan biri Qosim Shayx Azizonni eslab o‘tish mumkin. Qosim Shayx XVI asrning yirik ma’naviy barkamol shayxlaridan bo‘lib, Jo‘ybor shayxlari mamlakat poytaxti Buxoroda yashaganlar, Qosim Shayx esa Karmanada hayot kechirgan. Qosim Shayx XVI asr ma’naviy-siyosiy hayotida muhim o‘rin egallab, shu davrdagi

mamlakat tasavvufining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan. Uning ma’naviy kamoloti Xo‘ja Axmad Yassaviyga borib taqaladi. Qosim Shayxning anchagina muridlari ham bo‘lgan. Masalan, Samarqand yaqinidagi Ashobod qishlog‘ida yashab o‘tgan Xazrat Shayx Olim Azizon va shu viloyatning Sayid Ohu qishlog‘idan bo‘lgan Xazrat Pirimlar u kishining mashhur muridlaridan hisoblanadi.

Abdullaxon II mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga doir masalalarni hal qilishda qiynalgan vaqtlarda doimo Qosim Shayxga murojaat qilib turgan. U kishi esa xonga zarur maslahatlar berib, muxolif tomonlar o‘rtasidagi turli nizolarni bartaraf qilishda yordam qilgan. Masalan, Buxoro hukmdori shayboniyzoda Abdulazizxon 1550-yilda vafot etgach, shayboniylar sulolasining turli vakillari o‘rtasida Buxoro taxti, Karmana va Miyonkol uchun kurash boshlanib ketadi. Ana shunday murakkab vaziyatni yumshatishda Qosim Shayxning roli katta bo‘lgan. Shuningdek, Qosim Shayxning maslahatlari va yo‘l-yo‘riqlari davrning ijtimoiy va siyosiy hayotida ham muhim o‘rin tutgan.

Buxoro xonligida Abdullaxon II davridan boshlab diniy ulamolarning mamlakat ichki siyosiy-ijtimoiy hayotiga faol aralashuviga doir ko‘plab ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, temuriylar davrida Xoja Ahror (1404-1490), Muhammad Shayboniy va Ubaydullaxon davrida Mavlono Muhammad Qozi (vafoti - 1516 y.) va Maxdumi A’zam Xoja Kosoniy (1461-1542) larning siyosiy hayotga ta’siri katta bo‘ldi. Iskandarxon va Abdullaxon II davriga kelib esa diniy ulamolarning boshqa bir vakillari - Xoja Islom va Xoja Sa’dlarning siyosiy hayotga ta’siri o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan.

Tadqiqotchi A.Qandaharov, G.Sultonovaning XVI asrlarda Jo‘ybor xojalari haqidagi fikrlarini maqullab ular nafaqat mamlakat ichki hayotida, balki xonlikning tashqi siyosiy, iqtisodiy va diplomatik-elchilik munosabatlarida ham faol ishtirok etib, mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro aloqalarni barqarorlashtirishda ham katta rol o‘ynaganligini eslab o‘tadi. Shuningdek, bu davrlarda hattoki tug‘ilgan shahzodalarga nom qo‘yishda ham aksariyat hollarda diniy ulamolardan maslahatlar olishgan va ularni tavsiyalariga amal qilingan.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, diniy ulamolar nafaqat diniy masalalarda, balki madaniy va ma’rifiy sohada ham muhim rol o‘ynagan. Ulamolarning ma’rifiy sohadagi ishi faqat diniy saboqlar bilan cheklanib qolmagan, balki xalqni ma’rifatli qilish, ilmiy va axloqiy yoshlar tarbiyalashda ham muhim bo‘lgan. Xonlik hududida ko‘plab masjidlar, madrasalar va ma’rifiy muassasalarning faoliyat ko‘rsatganligi, ularda aynan ulamolar ta’lim berishganligi fikrimizni isboti bo‘la oladi. Buxoro xonligida ulamolar tabaqasining jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy roli va uning ta’siri keng va murakkab bo‘lgan, ular davlat boshqaruvini o‘zgartirishda va jamiyatda barqarorlikni saqlashda muhim o‘rin tutgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T.: O‘qituvchi, 1994. – B.27-28.

2. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma / Ikkinchi nashr, tayyorlovchi akademik B. Ahmedov. – Toshkent: Sharq, 1999. 1-kitob. – 414 b;

3. Muhammad Tolib. Matlab ut-tolibin. Tarjimonlar G‘.Karimiy, E.Mirkomilov. – Toshkent.: Movarounnahr, 2016. – B. 3-5.

4. Normurodova G. Buxoro amirligida ulamolarning ijimoiy – siyosiy hayotdagi o‘rni. Uluslararasi Turk Dunyasi Arastirmalari Sempozyumu. ISBN: 978-605-80938-2-9 – Semerkant. 12 - 16 Ekim 2018. – B. 33-40.

5. Qandag'arov A. Buxoro xonligi va unda Karmanalik shayxlar faoliyati. Monografiya. Tafakkur qanoti. – T.: 2018. – B. 23-29.

6. Sultonova G. XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining Qozoq va Yorkend xonliklari bilan aloqalari. Diss...Tarix fan... nom. – T.: 2005. – B.127.

BUXORO VA QO‘QON XONLIKLARI TASHQI SIYOSATIDA USMONIYLAR IMPERIYASINING ROLI

Dusaliyev M.T.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrasi o‘qituvchisi

O‘rta Osiyo va hozirgi Turkiya hududi xalqlari qadimdan o‘zaro savdo-iqtisodiy, madaniy sohalarda diplomatik aloqalar o‘rnatganlar. Ayniqsa, o‘rta asrlarda Buxoro va Usmonli Turk davlatining Eronga qarshi birgalikda kurash jarayonlari ikki o‘rtadagi diplomatik va savdo-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni rivojlantirishga katta turtki bo‘lgan. Buxoro amirligi tashkil topgandan so‘ng ham Usmonli turk davlati barcha musulmon davlatlari kabi O‘rta Osiyodagi davlatlarga ham o‘z vassali sifatida qaragan. Dastlabki davrlarda Buxoro hukmdorlari o‘zlarini Turk sultoniga teng va do‘st hukmdor sifatida hisoblagan. Musulmon davlatlari sifatida bir-birlariga yordam berishni o‘zlarining asosiy vazifalari deb bilishgan.

O‘rta Osiyoda mavjud xonliklar – Buxoro, Xiva hamda Qo‘qon xonliklari o‘z davrida murakkab siyosiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Jumladan, bu uch xonlikning o‘zaro bir-birlari bilan siyosiy aloqalari ham har doim ham bir xil bo‘lmagan. Bunga esa, albatta, o‘sha davrda hukmdorlarning siyosiy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyo xonliklari ham davlat sifatida vujudga kelgandan so‘ng xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun, shuningdek qo‘shni davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish maqsadida faol tashqi siyosat olib borishga intilgan. Masalan, O‘rta Osiyo xonliklari o‘zlariga hududiy jihatdan ham, diniy jihatdan ham yaqin bo‘lgan Usmoniylar davlati bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish manfaatli hisoblangan. Buxoro xonligi va Usmoniylar imperiyasi o‘rtasida ittifoq XVI asrda vujudga kelgan edi. Albatta, Usmoniylar imperiyasining Buxoro xonligi bilan harbiy-ittifoq tuzishiga intilganligining bir qancha sabablari bo‘lgan. Bunga birinchi navbatda Usmoniylar o‘zlariga har tomonlama raqib sifatida hisoblagan Eron sabab bo‘lgan.

Jumladan, Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi bilan Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi harbiy sohadagi o‘zaro munosabatlar ancha rivoj topdi. Navro‘z Ahmadxon va Abdullaxon II turk sultonlari bilan o‘zaro mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yishdi. Ushbu davrda Navro‘z Ahmadxon va boshqa xonlar xizmatida turk yanicharlari xizmat qilganligi haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda keltirilgan. Muhammad Yusuf Munshiy o‘z asarida Abdullaxon II ning o‘g‘li Abdulmo‘minning turk sultoni Murod III ga yozgan xati nusxasini keltiradi. Xatda 1569-yilda Mashhad olinganidan so‘ng, yuzaga kelgan vaziyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Eronga qarshi hamkorlikda yurish qilish zarurligi haqida so‘z yuritiladi[7]. Bu aloqalar Buxoro xonligining harbiy va siyosiy strategiyasida muhim rol o‘ynagan va ikki davlat o‘rtasida o‘zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shuni aytish kerakki, Abdullaxon II ning Eronga qarshi harakat qilish rejasi, avval Usmonlilar bilan, keyinchalik Hindiston bilan itifoq tuzish niyatida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, o‘z samarasini bermadi. Usmonli imperiyasi va Hindistonning o‘z geosiyosiy manfaatlari va hisob-kitoblari bor edi, bu esa Buxoro xonligining rejalari bilan to‘qnash kelgan[8:184-185].

Buxoro va Usmonli turklar davlati o‘rtasidagi aloqalar izchil bo‘lmaganligini ta’kidlash mumkin. Murod III ning Abdullaxon II ga yo‘llagan maktubi, albatta, bu aloqalarning murakkabligini ko‘rsatadi. Maktubda Murod III Abdullaxon II ni Safaviylarga qarshi kurashga chorlaydi, bu esa ikki davlat o‘rtasida harbiy hamkorlikni o‘rnatish uchun bir imkoniyat bo‘lishi mumkin edi. Garchi Abdullaxon II ning Safaviylarga qarshi harbiy ittifoqchi qidirayotganini anglatadi. U o‘z hududidagi siyosiy vaziyatni mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida Usmonli imperiyasi bilan aloqalarni o‘rnatishga harakat qilgan. Shunday qilib, bu jarayonlar Buxoro xonligining harbiy strategiyasi va siyosiy manevrlariga ta'sir ko‘rsatgan. [9:254-255].

Usmonlilar XVII asrga kelib sharqdagi harbiy harakatlar uchun ma'lum bir chegarani belgilashga harakat qiladi. Buxoroda Ashtarxoniylar hukmronligi davrida, jumladan Usmoniylar sultoni Sulaymon II forslarga qarshi birgalikda jangovar harakat boshlash zarurligini ta'kidlab Buxoro hukmdori Subhonqulixonga maktub yozadi. Keyinchalik Usmonlilar hukmdori Sulton Ahmad II Subhonqulixon huzuriga elchi Mustafoning yuborganligi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni

vengriyalik sharqshunos olim va sayyoh A.Vamberining esdaliklaridan bilishimiz mumkin. Biroq, bu davrda Buxoro uchun ham xalqaro maydonda murakkab siyosiy jarayon bo‘lib, Eron bilan dushmanlik kayfiyatini uyg‘otish manfaatli emasdi. Shu bilan birga Usmonlilar bilan ham do‘stono aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda saqlab qolish Buxoro uchun foydali edi. Shu sababdan ham Buxoro hukmdori Subhonqulixon sulton Ahmad II ga hozirda qalmoqlar bilan ovvoraligini, shuningdek birlashish va aloqalarni mustahkamlash kerakligini ta’kidlaydi. Eron bilan Buxoro o‘rtasidagi aloqalar barcha davrda ham yaxshi bo‘lmagan, ziddiyatli davrlar ham bo‘lgan. Biroq shunga qaramay, ular o‘zaro aloqalarni yaxshilashga harakat qilishgan. XVII-XVIII asrlarga kelib Buxoro xonligi o‘zlariga asosiy raqib sifatida Eron yoki Turkiyani emas, balki Xiva va Qo‘qon xonligini ko‘rardi. Shu jihatdan qaraganda O‘rta Osiyo xonliklarining tashqi siyosati murakkab siyosiy jarayonda shakllangan.

1673-yilda Buxoro xoni Abdulazizxon Usmonlilar imperiyasi bilan diplomatik munosabatlarni mustahkamlash uchun o‘z elchilarini Istanbulga yuboradi [1:93].

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, 1789-yil 24-iyulda Istanbulga kelgan Buxoro elchilari, davom etayotgan rus-turk urushi davrida Turkiyani qo‘llab-quvvatlash maqsadida qozoqlar bilan birgalikda Rossiyaning ichki hududlariga bosqin uyushtirgan. Shu bois, elchilar ortga qaytishda Kavkaz va rossiyaning chegaralari orqali emas, balki Bag‘dod va Eron orqali qaytishlari uchun yo‘l xarajatlarini to‘lab berish to‘g‘risida farmon saqlanib qolgan[2:193].

Buxoro amirligi va Usmonli turk davlati o‘rtasidagi o‘zaro iliq munosabatlar XIX asr boshlarida ham davom etganligi tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Masalan, Usmonli Turk sultonining 1803-yil 22-aprelda Buxoro hukmdori Amir Haydarni "Turkiston va Turon yerlari podshosi" unvoni bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmoni, bu ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni va hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu unvon, shuningdek, Buxoro amirligining mintaqadagi ahamiyatini va Usmonli imperiyasining Buxoroga nisbatan qiziqishini ham ko‘rsatadi[3].

Bu kabi ma'lumotlarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Aytish mumkinki, Buxoroning musulmon sharqida diniy mavqeyi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu sababli Buxorodan borgan har qanday shaxsga Usmonli Turk imperiyasi hududida hurmat va ehtirom ko‘rsatilgan.

1851-yilda Istanbulga elchi sifatida kelgan Said Ahmad va Abdurahmonlar haqida ma'lumotlar, Buxoro xonligi va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi aloqalarning davom etganligini ko‘rsatadi. Buxoro xonining jiyanlariga xazinadan katta mablag‘ ajratilishi va ularning kundalik xarajatlarining qoplab berilishi, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning nafaqat harbiy, balki moliyaviy va diplomatik jihatlarini ham aks ettiradi. Bu holat, Buxoro xonligining Usmonli imperiyasi bilan aloqalarni saqlab qolish, o‘z manfaatlarini himoya qilish va mintaqadagi raqobatni yengish uchun harakat qilgan. Ushbu mablag‘ ajratilishi, shuningdek, Buxoro xonligining Usmonlilardan yordam olishga intilishining ko‘rsatkichidir[4:56].

XIX asrning o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyo xonliklariga Britaniya va Rossiya imperiyalarining ayg‘oqchilari suqulib kira boshlashi, mahalliy hukmdorlar uchun katta xavf tug‘dirdi. Bu vaziyat, Buxoro amiri Nasrulloxon kabi hukmdorlarni harbiy kuchlarini kuchaytirishga undadi. Usmonli turk saltanati ulug‘ vaziri Rashid poshsho harbiy tomonidan Buxoroga yuborilgan Mustafo Choush poshsho, harbiy insruktor sifatida o‘z xizmatlarini taklif etdi, ammo u Buxoro qo‘shinidagi jazolar tizimidan norozi bo‘lib, bu vaziyatni mrakkablashtirdi. Mustafo Choush poshshoning Buxoro davlati qo‘shinida yengil jinoyatlarga nisbatan og‘ir jazolar berilishi va qatl etish jazolarining ko‘pligi, uning shikoyatiga olib keldi. Bu vaziyat Amir Nasrullo uchun qabul qilinishi qiyin bo‘lgan bir holat edi, natijada Mustafo Choush zindonga tashlandi va keyinchalik o‘ldirildi. Bunday harakatlar Buxoro va Usmonli turk davlati o‘rtasidagi munosabatlarni yomonlashtirishga olib keldi. Bu jarayonlar, shuningdek, o‘zaro ishonchsizlik holatlarini kuchaytirdi, chunki, Buxoro xonligi o‘zining harbiy va siyosiy mustaqilligini saqlashga harakat qilayotgan bir paytda, Usmonli imperiyasi bilan aloqalar murakkablashdi. Bu vaziyat Buxoro xonligining o‘z ichki siyosatida va tashqi aloqalarida muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Tarixiy adabiyotlarda Turk sultonining yorlig‘i bilan Buxoroga kelgan Italiyaning Milan shahridan bo‘lgan savdogarlarning amir Muzaffarxon tomonidan asirga olinishi va ularni ozod qilish uchun 1863-yil 23-oktabrda Turk sultoni tomonidan yuborilgan iltimosnomaning bee'tibor

qoldirilishi, Buxoro va Usmonli turk davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab va ishonchsizlikka asoslanganligini ko‘rsatdi[5:128]. Bu holat, bir tomondan Buxoro hukmdorining o‘z manfaatlarini himoya qilishga intilishini, ikkinchi tomondan esa, Usmonli imperiyasining Buxoro xonligi bilan o‘zaro aloqalarida ishonchning yetishmasligini aks ettiradi. Savdogarlarning asirga olinishi va Turk sultonining iltimosnomasining bee'tibor qoldirilishi ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalarning zaifligini ko‘rsatib berganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, o‘zaro ishonchsizlik ikki davlatning strategik manfaatlariga zid bo‘lgan harkatlarning natijasi sifatida deb ham xulosa qilish mumkin.

"Turkestanskiy sbornik" to‘plamidagi ma'lumotlar, italyan savdogarlarining Usmonli turk sultoni yorlig‘iga ega bo‘lishiga qaramasdan, Buxoro amiri tomonidan qamoqqa olinishi va bu holatning sabablari haqida qiziqarli tafsilotlarni taqdim etadi. Ularning Buxoro shahar xaritasini tuzishga urinishlari, mahalliy hukumat tomonidan josus sifatida baholanishiga olib keldi. Bu Buxoro xonligining o‘z hududida xorijiy ta'sirlarni va potensial xavflarni sezganligini ko‘rsatdi. 1868-yilda Rossiya savdogari Xludov tomonidan italyan savdogarlarining ozod qilinishi, Rossiya imperiyasining Buxoro xonligi ustidan o‘z ta'sirini kuchaytirishga intilishning bir qismi sifatida ko‘rish mumkin. Xludovning yordamida italyan savdogarlarining Xo‘jand va Toshkentdan ipak qurti urug‘ini olib, o‘z vatanlariga jo‘natishlari, Rossiya va Buxoro o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va savdo-sotiqning rivojlanishiga hamda Buxoro xonligining iqtisodiy mustaqilligi va o‘z manfaatlarini himoya qilishdagi qiyinchiliklariga ham aloqador. Bu jarayonlar, shuningdek, Rossiya va Usmonli turk davlatlari o‘rtasidagi raqobat va Buxoro xonligining o‘z pozitsiyasini saqlab qolish uchun kurashini ham aks ettiradi[6:148].

O‘rta Osiyo mintaqasida XVIII asrda yangi bir xonlik vujudga keldi. Bu xonlik Qo‘qon xonligi edi. Natijada O‘rta Osiyo mintaqasida murakkab siyosiy jarayonlar vujudga keldi. Qo‘qon xonligi aynan Buxoro xonligi hududidan ajralib chiqib vujudga keldi. Bu esa Buxoroning tashqi siyosatining zaiflashganligini anglatardi. Qo‘qon xonligi ham o‘z tashqi siyosatini xalqaro maydonda mustahkamlash uchun sekin-asta qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga intila boshladi.

XVIII-XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoda Qo‘qon xonligi tashkil topganida, uning hukmdorlari Usmonli imperiyasini o‘zlarining legitimlik manbai sifatida ko‘rishdi va o‘zlarining Temuriy va Chingiziylardan kelib chiqishini ta'kidladilar. Xonlikni texnik jihatdan modernizatsiya qilish ham hamkorlikning bir yo‘nalishi bo‘lib, bu jarayon muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shuningdek, Qo‘qon xonlari va ularning vakillari Rossiyaga ham shunday so‘rovlar bilan murojaat qildilar. Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi raqobat, Usmonli-Qo‘qon aloqalariga salbiy ta'sir ko‘rsatdi, chunki Istanbulda uzoq yillar yashab kelgan buxorolik ulamolar, O‘rta Osiyo bo‘yicha maslahatchi sifatida sulton saroyiga saroyiga taklif etilib, Buxoroning siyosiy manfaatlarini himoya qilishdi. Rossiya imperiyasi esa Qo‘qon bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga harakat qilsa-da, XIX asrning o‘rtalarida uning raqibiga aylanib qoldi. Qo‘qon xonligi hukmdorlaridan Amir Umarxon davriga kelib Qo‘qon Usmonlilar imperiyasi bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga urinishlar amalga oshirila boshlanadi. Bunga esa Buxoro hukmdori Amir Haydar qarshilik ko‘rsatishga harakat qiladi. Usmonlilar bu ikki xonlik tashqi siyosatda mintaqada o‘z o‘rnini mustahkamlashda muhim deb bilishgan. Shuningdek, xonlik fuqarolari haj mavsumini aynan Usmonlilar hududidan amalga oshirishgan. Biroq XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib Usmonli turklar biroz bo‘lsa-da O‘rta Osiyo xonliklari bilan ittifoqi susayadi. Bunga sabab esa Usmonlilarning oldingidek mintaqadagi kuchiga putur yetgandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Москва: Институт востоковедения РАН, 2014. – С.93.
2. Belgelerle Osmanli-Turkistan Iliskileri (XVI – XX. Yuzyillar). Ankara – 2005. S. 193.
3. Suleyman B. Milli Mucadele ve Özbekler tekkesi. Üsküdar sempozyumi I – Bildiriler, C. 1. Istanbul – 2004.
4. Bozdağ İ. Sultan Abdulhamid’in hatıra defteri. Istanbul – Pınar, 1992. S. 56.
5. Xoliqulov A. Buxoro amirligi va usmoniylar davlati o‘rtasidagi muloqotlar haqida ba’zi mulohazalar. // “Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi: an’analar, innovatsiyalar va istiqbollar” mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2021. B. 128.

6. Saray M. Rus işğalı devrinda Osmanli devletı ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler (1775 – 1875). TTK, Ankara, 2017. S. 148.

7. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956.

8. B. J. Eshov, A. A. Odilov. O‘zbekiston tarixi II qism. «Donishmand Ziyosi» Toshkent-2020. 184-185-b.

9. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. 254-255-b.

O‘RTA OSIYO XONLIKLARI TARIXINI O‘RGANISHDA TURK SAYYOHLARI ASARLARINING TUTGAN O‘RNI (ADMIRAL SEYDI ALI RAISNING “MIR’OT-UL MAMOLIK” ASARI MISOLIDA).

Jovliyeva A.B.
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoroda hukmronlik qilgan shayboniylar sulolasi davrining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy madaniy hayoti turkiyalik sayyoh Seydi Ali Rais tomonidan yozilgan “Mir’otul Mamolik” asarida keltirilgan ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Buxoro xonligi, admiral, yanicharlar, savdogar, xon, vazir.

Аннотация

В статье анализируется политическая, социально-экономическая и культурная жизнь династии Шейбанидов, правившей Бухарой, на основе сведений представленных в трудах “Миръотул мамолик”, написанном турецким путешественником Сейди Али Раисом.

Ключевые слова: Бухарское ханство, адмирал, янычары, купец, хан, везир.

Abstract

This article analyzes the political, socio-economic and cultural life of the Shaybanid dynasty that ruled Bukhara, based on the information provided in the work "Mir'otul Mamolik" written by the Turkish traveler Seydi Ali Rais.

Keywords: Khanate of Bukhara, admiral, janissary, merchant, khan, minister.

XVI-XIX asrlardagi O‘rta Osiyo xonliklarining tarixi va madaniyati mahalliy tarixchilar asarlarida keng yoritilib, ularda sulolalar, xonlar, siyosiy ta’siri katta bo‘lgan din ulamolari, shaharlar, tarixiy obidalar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, turli mamlakatlardan tashrif buyurgan elchilar, ichki va tashqi savdo munosabatlariga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Ammo mahalliy manbalarning ba’zilari saroy tarixchilari tomonidan bitilganligini e’tiborga olib qaraganda ularda ko‘proq xonlarning ijobiy sifatlari, voqealar bir tomonlama yoritilganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrdagi Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti XVI-XVII asrlarda yaratilgan turli tarixiy asarlarda, xususan: 1. Fors-tojik tilida yozilgan asarlar, 2. Turkiy (eski o‘zbek) tilida yozilgan asarlar, 3. Sayyohlarning kundaliklaridan iborat bo‘lib, ularning har birida mazkur davrning o‘ziga xos jihatlari mohirona bayon etilgani bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda tarixchi va sharqshunos olimlar mazkur mavzuni o‘rganishda ko‘proq e’tiborni fors-tojik tilidagi hamda turkiy (eski o‘zbek) tilidagi manbalarda qaratgan bo‘lsalarda, sayyohlarning asarlaridan yetarlicha foydalanmaganliklariga guvoh bo‘lamiz. Vagolangki XVI-XIX asrlar xonliklar tarixini yoritishda Seydi Ali Rais, Mehmed Amin Afandi, Daftardor Sayfi Chalabiy, Sulaymon Shukru, Halim Sobit Shibay, Abdurashid Ibrohim, Habibzoda Ahmad Kamol kabi turk sayyohlari tomonidan yozilgan asarlarda[1] mahalliy tarixchilar asarlarida uchramaydigan jihatlar yoritilganligi, bu esa mahalliy manbalardagi ma’lumotlarni to‘ldirilishida ma’lum darajada xizmat qiladi.

XVI asr Buxorodagi shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davr tarixini yorituvchi manbalardan biri turk sayyohi, admiral Seydi Ali Rais va uning “Mir’ot ul-mamolik” (Mamlakatlar ko‘zgusi) asaridir. O‘rta Osiyoda “Kotibi Rumiy” nomi bilan tanilgan Seydi Ali Rais 1548 yilda Usmoniylar sultoni Sulton Sulaymon Qonuniy (1520-1566) ning Kavkaz va Ozarbayjon orqali Eronga qarshi janglarida, 1552 yilda Kipr orolini qamal qilishda ishtirok etib, zo‘r jasoratini namoyon etadi, shuningdek, mashhur Xayriddin Barbaros posho bilan birga Shimoliy Afrika qirg‘oqlari uchun harbiy yurishlarda ham qatnashadi. Seydi Ali Rais shu janglarda ko‘rsatgan katta

harbiy mahorati tufayli Sulton Sulaymon Qonuniyning cheksiz hurmatiga sazovar bo‘lib, keyinchalik Xalab sultoni qilib ham tayinlanadi[2].

Seydi Ali Rais harbiy dengizchilik faoliyati tufayli kasb taqozosi ortidan Sind, Panjob, Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Xuroson, Ozarbayjon hududlarida bo‘ladi va Eron orqali uzoq va mashaqqatli yo‘l bosib to‘rt yildan so‘ng 1556 yilda vataniga qaytadi. U shu sayohati davomida ko‘zdan kechirgan va bevosita guvohi bo‘lgan voqealarni “Mir’ot ul-mamolik” deb nomlangan asarida bayon etadi.

Asardagi ma’lumotlar orqali nafaqat O‘rta Osiyo, balki o‘sha paytlarda musulmon dunyosining katta qismida hukmronlik qilgan Kichik Osiyoda Usmoniylar, Erondagi Safaviylar va Hindistondagi Boburiylar kabi yirik turkiy saltanatlar tarixining ayrim qirralarini yoritilgan. Shuningdek, asarda muallifning Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi shaharlarni ziyorat qilgani, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotga oid qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgani aks etgan[3]. Seydi Ali Rais asarining “Turon zaminda, ya’ni Movaraunnahrda yuz bergan voqealar bayoni” deb nomlagan qismida 1555 yilda Chog‘aniyonga, Sangardak tog‘idan o‘tib Shahrisabzga so‘ngra esa Samarqandga kelganligi haqida yozadi. “…*Samarqand shahriga kelgach Navro‘z Ahmadxon bilan ko‘rishib unga “haqirlarning tortig‘i ham haqirona bo‘ladi” degandek, unga keltirgan birmuncha tortig‘imizni in’om etdik. Xon bu haqirga bitta ot, bosh-oyoq sarupo marhamat qildi. Bundan avval saodatli podshoh hazratlari (Turkiya sultoni) shayx Abdullatif va Dodosh elchi orqali Baroqxonga bir qancha miltiq otuvchilar va bir qancha qal’a to‘plari yuborgan ekan. Elchilar kelgan chog‘larida Samarqand podshohi Abdullatifxon vafot etib, Baroqxon Samarqandda xonlik taxtiga o‘tirgan, Balxda Pirmuhammadxon, Buxoroda esa Burhonxon o‘z nomlariga xutba o‘qitganlar. Baroqxon shu ikki xonga qarshi oldin biror chora ko‘rishga qodir bo‘la olmasa ham, keyinroq ularning o‘zaro janjallaridan foydalanib, avval Samarqandni olgan, keyin Shahrisabzga borib unda ham anchagina jang qilgan”*[4]. Bu ma’lumotdan anglash mumkinki, sayyoh XVI asrning o‘rtalarida Buxoro xonligida kechgan siyosiy voqealarga bevosita to‘xtalgan.Muallif Abulxayrxonnmng nabirasi, Toshkent hokimi Suyunchxo‘jaxonning kichik o‘g‘li Navro‘z Ahmadxon (1551-1556), (otasining vafotidan keyin Toshkent hokimi (1533—1551)) haqida so‘z yuritgan. Navro‘z Ahmadxon nomi bilan mashhur bo‘lgan Baroqxon o‘z saltanatini kengaytirish uchun ko‘p harbiy yurishlar uyushtirgan. XVI asrning 40-yillariga kelib yirik zodagonlar va sulolalar o‘rtasida Movarounnahrning poytaxt shaharlari va mulklari uchun o‘zaro kurashlar yana avj oldi. Hukmdor xonadoni vakillari o‘rtasida ayniqsa Buxoro va Samarqand uchun kurash kuchaydi. Bu davrda Samarqandda Kuchkinchixon ning uchinchi o‘g‘li Abdullatifxon (1541-1552 yy.) Buxoroda esa Ubaydullaxonning o‘g‘li Abdulazizxon (1540-1550 yy.) hukmronlik qilib har ikkalasi ham o‘zini rasmiy xon deb hisoblar edi.

O‘zaro hamda sulolaviy kurashlar davom etayotgan bir sharoitda Shayboniyxonning avlodidan bo‘lgan Muhammad Yorsulton bir necha oy taxtni boshqarganidan so‘ng amaldagi hokimiyat Baroqxon qo‘liga o‘tdi. Toshkent va Sirdaryo bo‘yidagi shaharlar hukmdori bo‘lgan Navro‘z Ahmadxon Buxoroda o‘z hokimiyatini tan oldirish uchun Samarqand va Movarounnahrning boshqa shaharlariga bir necha marta yurishlar qilib turdi. Seydi Ali Rais mamlakatdagi siyosiy vaziyat Abdullatifxonning vafoti, Buxoro taxtini egallash uchun olib borilgan kurashlarni aks etttirib, Navro‘z Ahmadxon Samarqand, Shahrisabz, Buxoroni egallagani va Shahrisabzda bo‘lib o‘tgan jangda turk askarlarining bir-necha boshliqlari halok bo‘lganligi haqida ham to‘xtalib o‘tadi. 1551 yilda qonuniy Sulton Sulaymon Abdullatifxonga Ahmad Chovush orqali ma’lum bir miqdordagi o‘qchi va otliq askar yuborgan edi. Ular yetib kelganida mamlakatni Navro‘z Ahmadxon boshqarmoqda edi. Navro‘z Ahmadxon hokimiyatni qo‘lga kiritgach qonuniy Sulton Sulaymonga Abdullatifxon (1540-1551)ning vafot etganligini va Istanbuldan 300 ta o‘qchi, to‘pchi va otliq askarlarning yetib kelganligini ma’lum qilib elchi yuboradi. Navro‘z Ahmadxon Samarqandga qaytib kelgach turk askarlarining bir qismi Ahmad Chovush bilan Rumga qaytib ketadi. Qolgan bir qancha yanichar (turk askarlari) lar Buxoroda, Navro‘z Ahmadxon yonida esa yuz ellikka yaqini qolgan[5]. Dastlab, Navro‘z Ahmadxon huzurida uch yuzta turk askari bo‘lgan[6]. Turk askarlaridan mamlakat ichidagi siyosiy vaziyatlarni izga solishda foydalanil ganidan Usmoniylar sultoni mamnun bo‘lmagan.

Navro‘z Ahmadxon keyinroq 1556 yilda elchisi Qutlug‘ Po‘lat orqali jo‘natgan maktubida Buxoroni egallagani haqida yozadi va Safaviylarga qarshi yurish uchun yordam so‘raydi. Lekin Usmoniylar davlati Safaviylar bilan 1551 yilda Amasiya shartnomasini imzolagani uchun yordam qila olmasligini bildiradi. Usmoniylar sultoni agar Safaviylar O‘rta Osiyoga hujum qilgudek bo‘lsa bunga ham qarshi ekanligini ma’lum qiladi. Eron-Usmoniylar munosabatlari shoh Taxmaspning vafotiga qadar do‘stona davom etadi[7].

Xullas Seydi Ali Rais qalamiga mansub mazkur asardagi ma’lumotlardan anglash mumkinki, shayboniy Abdullaxon II hokimiyatni qo‘lga kiritgunga qadar bo‘lgan davr oralig‘ida mamlakatda notinchlik hukm surib, bir tomondan o‘zaro toju-taxt uchun, ikkinchi tomondan Xiva xonligi bilan ham kurashlar davom etgan. Shunday vaziyatda ham tashqi siyosatda Usmoniylar sultonligi bilan do‘stona aloqalar olib borilgan.

Adabiyotlar

1. Seydi Ali Reis, Mir'ätü'l-Memâlik-İnceleme, Metin-Index, ed. Mehmet Kiremit, Türk Dil Kurumu Yayınları, Ankara, 1999; Defterdar Seyfi Çelebi, Türkistan ve Uzak Doğu Seyahatnamesi, ed. Serkan Acar, Selenge yayınları, İstanbul, 2014; Mehmed Emin Efendi, İstanbul'dan Asya'ya Yolculuk Wustya, ed. A. Muhibbe Darga, Everest Yayınları, İstanbul, 2007; Süleyman Şükrü, Seyahatü'l-Kübra-Armagan-1 Süleymani Be-Bargah-1 Sultani, ed. Hasan Mert, Türk Tarih Kurumu Yayınları, Ankara, 2013; Halim Sabit Şibay, Altay'a Doğru, ed. Selma Günaydın, Cümle Yayınları, Ankara, 2016; Abdürreşid İbrahim, İslam Dünyası ve Japonya'da İslam'ın Yayılması, ed. rtuğrul Özalp, İşaret Yayınları, İstanbul, 2012; Habibzadeh Ahmed Kemål, Çin-Türkistan Hatıraları, N. Ahmet Özalp, Kitobevi Yayınları, İstanbul Bul, 1996; Davronov X.Z. Usmonli sayyohlari asarlarida O‘rta Osiyo xonliklaridagi shaharlar tavsifi. Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi –12/3-2023.-B. 9-10.
2. Сейди Али Раис. Миръотул мамолик. – Тошкент, 1963, 8-бет.
3. Davronov X.Z. Usmonli sayyohlari asarlarida O‘rta Osiyo xonliklaridagi shaharlar tavsifi//Xorazm Ma’mun Akademiyasi Axborotnomasi –12/3-2023.-B. 9-10.
4. Сейди Али Раис. Миръотул мамолик…-Б. 97-98.
5. O‘sha asar .-B. 106.
6. С. Азимжонова Сейди Али Раис ва унинг «Миръотул мамолик» асари ҳақида. –Т.: Фан. 1963. 34 б.
7. З. Рахмонқулова. Сайди Али Раиснинг «Миръотул мамолик» асари Бухоро хонлиги ва Усмонийлар давлати ўртасидаги сиёсий алоқаларни ўрганишда муҳим манба сифатида//Марказий Осиё маданияти тарихи ва тарихшунослиги масалалари.Т., 2019.–Б.162.

SHAHRISABZDAGI OQSAROY ME’MORIY OBIDASI HAQIDA AYRIM BIR MULOHAZALAR

Jamolov I

Shahrisabz davlat muzey qo‘riqxonasi ilmiy xodimi

O‘zbekiston o‘zining ko‘plab tarixiy-me’moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur’atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o‘ziga tortmoqda. Ushbu zamin Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan, uzoq Sharqni musulmon dunyosi hamda Yevropa bilan bog‘lagan bo‘lib, azal-azaldan ilm-fan va ma’rifat markazi bo‘lib kelgan. Ayni paytda esa, O‘zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an’ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me’moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari YUNESKO ning “Butun dunyo merosi”ning maxsus ro‘yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me’moriy inshoatlar o‘tmish zamonlarni o‘zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o‘ynaydi. Shahrisabz buyuk sarkarda Amir Temurning vatani sifatida butun dunyoga tanilgan bo‘lib, uning hukmronligi davrida haqiqiy fan va san’at markaziga aylangan. Shaharda ko‘plab diqqatga sazovor me’moriy obidalar joylashgan bo‘lib, uning tarixiy markazi YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Temur o‘zining siyosiy maqsadi yo‘lida ko‘p harbiy va ichki siyosiy tadbirlarni amalga oshirish bilan bir qatorda juda katta ijtimoiy-madaniy tadbirlarni ham yuzaga chiqardi[3,B.407].

Amir Temur o‘zi barpo etgan ulkan saltanatning shon-shuhrati uchun uni obodonlashtirishga alohida e’tibor bergan. Sohibqiron zabt etilgan mamlakatlardan boyliklardan tashqari, mohir hunarmandu musavvirlar, memoru binokorlar, muhandisu olimlarni Movarounahrga olib kelgan. Amir Temurning har bir zafarli va sevinchli voqealarini muhtasham obidani barpo etish bilan nishonlash odati bo‘lgan.

Amir temur 1376-yilning qishida xorazmga to‘rtinchi bor yurish qilib, bu urushda g‘alaba qozonadi. Xorazmning markazi Urganch qo‘lga kiritilgandan so‘ng 50 mingtaga yaqin ishga yaroqli barcha odamlarni Xorazmdan Movarounnahrga ko‘chirib, Kesh shahriga joylashtirish haqida farmon berdi. Ko‘chirilganlar mashhur olimlar, mohir hunarmandlar, memoru binokorlar bo’lgan. Shu yili Amir Temur Kesh shahriga qaytib, zanjir saroyda (qarshi atroflarida) qishlaydi. 1380-yil bahorida Amir Temur Keshning qala devorlarini bunyod ettiradi va o‘rta asrning buyuk mimoriy inshoatlaridan Oqsaroy qurilishini boshlaydi.

Memoriy mo‘jiza hisoblangan muhtasham Oqsaroy binosi qurilishi haqida bir qancha afsonalar ham mavjud. Ularning birida aytilishicha, Amir temur o‘z vatani Keshda ulkan imorat barpo etishini rejalashtirgach, bosh memorni chaqirib, unga fikrlarini bayon etadi. Shunda bosh me’morni chaqirib, unga fikrlarini bayon etadi. Shunda bosh me’mor o‘zini davlat xazinasiga eltishlarini so‘raydiva Sohibqironning ko‘zi oldida tillalarni loy bilan qorishtirib, g‘isht yasaydi. Bu g‘ishtlarni bo‘lajak binoning poydevori uchun ishlatishini aytadi. Bu yerda hozir bo‘lgan Amir Temur uning bu ishini bamaylixotir kuzatganini ko‘rgan bosh memor g‘ishtlarni sindirib tillalarni xazinachiga qaytaradi. Nima uchun bunday qildingdegan savilga bosh memor, Sohibquroning ulkan va go‘zal imorat barpo etish istagi qanchalar kuchli ekanligini ko’rish va bunday ko‘rkam imorat qurish uchun juda katta xarajatlar talab etsa ham sohibqiron bu xarajatlarga rozi ekanligigaishonch hosil qilish ide, deb javob beradi. Oqsaroy majmuasi qurulishida xorazimlik mohir ustalar qatori mahalliy va boshqa mamlakatlardan kelgan ustalar ham qatnashgan[1,B.26].

1403-yilda Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saltanatiga qilgan tashrif chog‘ida o‘zining “Kundaligi”da Oqsaroy majmuasi haqida kerakli ma’lumotlarni yozib qoldirgan edi. Klavixo ma’lumotlaridan xulosa chiqargan tadqiqotchilarning fikricha, Oqsaroy binosi-pejaviy tuzilishi, kurilish jarayoni va binodan foydalanilishi nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘liq uch qismdan iborat bo‘lgan. Bular – ma’muriy boshqaruv qismi, qabulxona, turar-joy xonalari bo‘lgan saroy bog‘ xiyoboni qismlaridir[2,B.17].

Oqsaroy majmuasidagi to‘rtburchak ustunlarda o‘sha davrda rel’efli sirliterakota asosan ikki rangda bo‘lib tosh qiralarida-feruza, manzara markazida sariq rang, o‘ymakor bezakli shakl qora chiziq bilan yurguzib chiqilgan. Dastlab bo‘lak qolipga qo‘yib pishirilgan sir bilan qoplagach, qaytadan pishirilgan. Bosma gulli sirkor terakota Oqsaroy binosi bitkazilgandan keyin umuman ishlatilmagan. Oqsaroy devoridagi ranglar jilosi, diniy-falsafiy mavzudagi kufiy yozuvlari koshin-kor bezaklar, islomoiy naqishlarning o‘zoro uyg‘unligi saroyga ajoyib va sehirli mazmun bag‘ish-lagan. Ranglar oy yorug‘uda jilolanib, oqarib koringaniuchun bino “Oqsaroy” deb nomlangan. Oqsaroyning umumiy balandligi 70 metrga yaqin bo’lgan. Hozirgi kunda esa saqlanib qolgan qoldig‘i 38 metr. Oqsaroy bizgacha yemrilib, poydevorining bir qismigina saqlanib qolgan. Oqsaroyning hozirgi ko‘rinishi ham salobatli va go‘zaldir. Bu go‘zalik va salobatga g‘ishtlarning yaxlit bo‘lib ko‘rinishini taminlagan old va orqa devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir teksda ishlanilishi tufayli erishilgan.

Oqsaroy turar joy va jamoat binosi sifatida qurilgan. Bino tepasiga esa aylanma zinalar orqali chiqilgan. Saroyga kirish joyi juda uzun va darvozasi baland bo‘lib, shu yerning o‘zida, kiraverishdagi o‘ng va chap tomonlarda koshinkor bezatilgan g‘ishti ravoqlar joylashgan. Bu ravoqlar ichida eshiksiz kichik xonalar, koshinkor sahinli supalar bor. Oq tosh taxtalar tushalgan katta hovlining atrofi hashamatli bezatilgan ayvonlar bilan o‘ralgan, hovli o‘rtasida katta hovuz bo‘lgan. Hovlining kengligi chamasi uch yuz qadam. Peshtoqdan o‘tgach, to‘g‘ri to‘rt burchak keng hovlining bosh o‘qida ikki toq ravoqli ayvon bo‘lgan. Gumbazli katta xonalarda ko‘rinish xona, devonxona va xizmatchilarning yig‘inlari o‘tkaziladigan xonalar bo‘lgan. Peshtoq ayvonlar orasida ucha katta bo‘lmagan qo‘sh qavvat xujralar qatori joylashgan. Sohibqiron Amir Temur saroyida ko‘rinish xona asosiy o‘rini egalab, dabdabali, ser hashamatligi bilan ajralib turgan. Ko‘rkam,

mahobatli peshtoq tepasida Amir Temurning uch halqadan iborat tug‘rosi arslon va quyosh mujassami shakillarida berilgan [1,B.28].

Ulardan tashqari yana shu g‘arbiy ustuning old tomonida: “agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq” degan xitobnoma ham bor. Bu xitobnoma Amir Temur nomidan yozilgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida Sohibqironing qudrati va kuchidan hamda me’morlarning hukumdorlar buyrug‘ini bajarayotgan paytdagi yorug‘ fikrliligi, ma’naviy boyligi va didliligidan dalolat beradi. Ushbu matn ham yerik arab yozuvida “suls” uslubida bitilgan. Shuningdek, binoda Amir Temurni turli maqtov so‘zlar bilan ulug‘lovchi matinlar ham bor. Hozirgi kunda Oqsaroy binosining saqlanib qolgan me’moriy qoldiqlari shundan dalolat beradiki, u hajmi jihatidan nihoyatda ulkan bo‘lib, o‘rta asrlarda shakli va me’moriy bezatilishi bo‘yicha tengi yo‘q edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Холматов О.Қадимий Шаҳрисабз тарихидан лавҳалар/Тошкент, Янги аср авлоди, 2014.

2. Холматов О.Дилкаш шаҳар тарихи/Тошкент, Янги аср авлоди, 2015.

3.Xolmatov O.Ziyadullayeva D.Shahrisabz shahrida sayyohlarni jalb qilish hunarmandlarning eksport salohiyatini oshirish/ Туризм соҳасига сайёҳларни жалб қилишда миллий ҳунармандчилик маҳсулотларини ривожлантириш истиқболлари. Тошкент, “Iqtisod-moliya”, 2023.

G‘UZOR NOMINING KELIB CHIQISHI HAQIDA

Jo‘raev A.

Qarshi Davlat Universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “G‘uzor” tumanining qadimgi nomi “Xuzor” so‘zining ma'nosini ochib berishga qaratilgan. Maqolada mavzusini ochib berishda o‘rta asrlarda yashab ijod etgan allomolarimizning tarixiy asarlaridan foydalanib “Xuzor” so‘zining ma'nosini ochib berishga harakat qilingan.

Tumanda yirik arxeologik tadqiqotlar olib borgan arxeolog M.E.Massonning fikricha, tuman tarixi miloddan avvalgi IV-III asrlarga borib taqaladi. Chunki hududda joylashgan 108 arxeologik tepaliklar ham uning taxminlari to‘g‘riligini isbotlab turibdi. Bunga misol qilib 1978 yilda Qo‘shtepa oldidan kanal qazilayotganda xumda dafn etilgan mumiyolangan qiz dafinasi chiqqanligi esa G‘uzor tarixini nechog‘lik qadimiyligidan dalolat beradi. Qadimgi «Lojuvard yo‘li», «Shoh yo‘li», “Buyuk Ipak yo‘li”ning shu yerdan o‘tganligi esa asrlar davomida bu o‘lkani gullab-yashnaganligiga sabab bo‘lgan.

G‘uzorda yuz bergan voqealar, qadimiy qo‘lyozmalar, siyosiy, tarixiy va badiiy asarlar, arxiv ma'lumotlarida yoritilgan. VIII asrda G‘uzor Dehqonobod va Qamashi tumanlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, sarhadda o‘nta yirik shahar bo‘lgan.

Tayanch so‘zlar: Xuzor, Xukzor, G‘uzor, - gadzar, xalxa tilida gadzar – yurt, o‘lka, mamlakat ma'nosida, guzar, xazora.

Ayni paytda G‘uzor nomining kelib chiqishi va tarixi ko‘pchilikni qiziqtirsa kerak. G‘uzor (Qashqadaryo viloyati tumani) nomi va shu nom mazmuni haqida yozma manbalarda aniq ma'lumot uchramaydi. Biroq bir qancha faraz va taxminlar mavjud.

G‘uzor so‘zining talqini taassufki, hozircha to‘liq o‘rganilgani yo‘q. G‘uzor tumanida olib borilgan arxeologik kuzatuv qiduruv ishlari natijasida, bu vohada yuzdan ortiq arxeologik yodgorliklar mavjud. Uncha katta bo‘lmagan bu hududda arxeologik yodgorliklarning bu qadar mo‘lligi bu vohaning qadimiy tarixi nihoyatda boy ekanligidan dalolat beradi. Undan tashqari G‘uzor shahri qadimdan Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan bo‘lib, Sharq bilan G‘arbni, Shimol bilan Janubni bog‘lab kelayotgan Hisor oldi tog‘lari etagidagi daryo bo‘yidagi shahardir. G‘uzor atamasi aslida arabcha tog‘ etagidagi “manzilgoh, yashash joy” mazmunini bildiradi. G‘uzor vohasi qadimdanoq hamisha alohida voha, alohida tuman, viloyat sifatida faoliyat yurgizib kelganligi, bu yerda qadimdanoq o‘ziga xos madaniyat shakllan¬ganligidan dalolat beradi. Ammo, bu yodgorliklarning ko‘p qismi haligacha ilmiy nuqtai nazardan o‘rganilmagan[1].

Miloddan avvalgi 130-128 yillarda ruziye (g‘uzer)liklar Baqtriyani egallaganidan keyin Amudaryoning janubida Lamziye (zamon.o‘qil. Lanchjicheng- Balx shahri yonida joylashgan hozirgi Bala-Xisorga to‘g‘ri keladi) shahrini markaz qilgan va Ulug‘ G‘uzer (Day-ruziye) deb nomlangan davlat tashkil qilgan[2].

Hozirgi Qashqadaryoning nomi Kashkrud nomining turkiylashib o‘zgargan shaklidir. Xushkrud-bu daryoning nomi Kashkrud nomining forslashgan shakli bo‘lib,”quruq o‘zan” ma'nosini anglatadi. Xuzor (arabcha) – hozirgi G‘uzordaryo havzasida joylashgan rustoq. Rivoyatga ko‘ra, G‘uzor shahriga shoh Afrosiyob asos solgan. Hozirgi G‘uzor hududidagi eng pastki qatlamlar miloddan avvalgi II-I asrlarga mansub. Bu esa, ayrim olimlarning fikricha, Afrosiyobning taxminiy yashagan davriga to‘g‘ri keladi [Rtveladze 1987: 50-51]. Lekin aslida Afrosiyob Ahamoniylardan ham oldin hukm surgan afsonaviy Kayoniylar sulolasi hukmdorligi davrida, ya'ni miloddan avvalgi IX-VIII asrlarda yashagan[3].

Yoqutlarning fikricha “Xuzor” nomi arabcha “al-Xazar” so‘zidan olingan. Ya'ni “daryoning tiqilib qolishi” degan ma'noni bildiradi. G‘uzor shahri G‘uzordaryoning tog‘ vodiysidan tekislikga chiqishiga yaqin joyda joylashgan. Qadim zamonlardan bu yerdan Nasafdan Temir darvozagacha katta karvon yo‘li o‘tgan, daryo o‘tish joyi bo‘lgan. Demak, “G‘uzor” yoki “Xuzor” nomi qadim zamonlardan beri mavjud bo‘lib, G‘uzordaryodan o‘tish joyi bilan bog‘liq[4].

Masalan: Birinchidan, Xuzor nomi (tarixiy atama so‘zining) kelib chiqish lug‘aviy maьnosi va bu atamaning jug‘rofiy o‘rni aniq ko‘rsatib, belgilab berilmagan.

Ikkinchidan, Bartolьd Subax (Xuzor yoki G‘uzor o‘rnida) Subaxni G‘uzor bilan bir deb tushungan. Su-daryo yoki “suv nane najdak” ya'ni daryodan suv tarqatgich charxpalakdir deb yozadi. Shunday bo‘lsada, G‘uzorning kelib chiqishida har xil tarixiy atamalar uchrab turaveradi[5].

Ilmiy nuqtai nazardan esa G‘uzor hozirgi buryat, mo‘g‘ul tillarida guzar – yer, tuproq, yer yuzi; yozma mo‘g‘ul tilida - gadzar, xalxa tilida gadzar – yurt, o‘lka, mamlakat ma'nosini anglatgan[6].

1878 yilda G‘uzor shahrida bo‘lgan rus zobiti I.A.Yavorskiyning yozishicha, G‘uzorning janubiy tomoni qadimda qalin to‘qayzor bo‘lib, unda yovvoyi hayvonlar, ayniqsa, huk (yovvoyi cho‘chqa) ko‘p bo‘lgan. Shuning uchun bu joy “hukzor” deb atalgan bo‘lishi mumkin, deb taxmin qiladi[8]. Bundan tashqari I.A.Yavorskiy o‘z asarida G‘uzor shahrining atrofi qalin daraxtzorlar bilan o‘ralgani va hayvonot dunyosi rang-barang bo‘lgani haqida ham ma'lumot qoldirgan.

Haqiqatan ham qadimda G‘uzor daryosi hozirgi M.Rahmonov va M.Ulug‘bek nomli sobiq jamoa xo‘jaliklarining janubiy tomonidan o‘tgan bo‘lib, asrlar mobaynida daryo o‘zani o‘zgargan. Qadimgi o‘rnida esa qalin to‘qayzorlar va botqoqliklar paydo bo‘lib, yovvoyi chuchqalar ko‘p bo‘lgan. Bu haqda G‘uzor shahridan o‘tgan venger sayyohi Xerman Vanberi ham “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”[9] kitobida qayd etib o‘tgan. G‘uzor nomi dastlab VIII asrdagi arab manbalarida “Xuzor” shaklida uchraydi. Xuzor toponimining o‘zagi qadimiy turk tiliga tegishli biron jug‘rofik termin ham bo‘lishi mumkin. Yoqut Hamaliy “Xuzor” so‘zining ma'nosini “qiyiq ko‘zli” deb tarjima qilib, Xuzorda turkiylar yashagani uchun bu so‘zni turkiy so‘zdan olingan, deb qaraydi.

Tabariyning yozishicha, arab istilosi davrida Xuzor turkiy qal'alar ichida eng mustahkamlaridan biri bo‘lgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bu nom o‘zagiga daxldor so‘z o‘zbek tilida uchramaydi. Shuningdek G‘uzor-huvzor (quvzor, xuvquv o‘simligi o‘sadigan joy) avg‘onlarning qadimgi qabilasi nomi - xazora etnonimidan yoki arab tilidagi Xuzor (“tog‘ etagi” ma'nosini ham anglatgan) so‘zidan kelib chiqqan, deb ham hisoblanadi.

Arablar bosqiniga qadar G‘uzor Hisor deb ham atalgan bo‘lishi mumkin. Chunki Hisor atamasini arablar o‘z tillarida “Huzor” deb yuritishgani haqiqatga yaqin. Har ikkala termin ma'nosi bir xil, tog‘ oldi hushmanzara joy, degan mazmunni beradi. O‘rta asrlarda G‘uzor tumanining kattagina qismi Dehqonobod tumani bilan birga tog‘li hududlardan, soylar va daryolar, xushmanzarali joylardan iborat bo‘lgan.

Arablar G‘uzorni bosib olgach, o‘zlarining barcha yozma manbalari va qo‘lyozmalarida ushbu shaharni “Xuzor” deb yozadigan bo‘lishdi. Bu nom keyinchalik o‘rta asrlarda yashab, ijod etgan ko‘plab sayyoh va tarixchi olimlar asarlarida ko‘plab uchray boshlaydi.

Masalan: Tabariyning “Tabariy tarixi”[10], Narshaxiyning “Buxoro tarixi”[11], Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk”[12], Alisher Navoiyning “Lisonut-tayr”[13], Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”[14], Muhammad Solihning “Shayboniynoma”[14], Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”[15], Mirmuhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” [16] asarlarida G‘uzor Xuzor qal'asi, keyinchalik esa Xuzor bekligi nomi bilan uchraydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyasini Buxoro amirligiga kirib kelguniga qadar, G‘uzor barcha tarixiy manbalarda “Xuzor” deb yuritilgan.

Ruslar G‘uzorga kirib kelgach, “Xuzor” so‘zini o‘z tillarida talaffuz qilishlari qiyin bo‘lgan. Shuning uchun bu so‘zni o‘z tillariga moslashtirishgan. Ular “Xuzor” so‘zidagi “X” harfini “G” harfiga almashtirishgan. Natijada “Guzor” so‘zi paydo bo‘lgan. Bu so‘zni yanada osonroq talaffuz qilishlari uchun “Guzor” so‘zidagi “o” harfini “a” harfiga o‘zgartirib “Guzar” deb atashgan. O‘zbek tilida esa “X” harfi “G‘” harfiga o‘zgarib, “G‘uzor” deb talaffuz qilingan.

Chor Rossiyasi istilosidan keyin “Xuzor” so‘zi rus tarixiy hujjatlarida “Guzar”, o‘zbek tilida “G‘uzor” deb atala boshladi.

Masalan, Abdurauf Fitratning XX asr boshida yozilgan “Amir Olimxonning hukmronlik davri”[17] kitobida: “G‘uzor to‘rasi Akramxon aholiga juda zulm o‘tkazgan, xalqning mol-mulkini talab, bolalarini askarlikka olib, sabr kosalarini toshirgan”, deyilgan. Bunda “Xuzor” so‘zi o‘rnida “G‘uzor” so‘zi qo‘llangan.

G‘uzor qadimda karvonlar to‘xtab o‘tadigan joy bo‘lgani uchun mahalliy xalq tilida u “guzar” deb yuritilgan, binobarin G‘uzor nomi shu so‘zdan olingan, deyiladi. Haqiqatda ham “Guzar” so‘zi (fors-tojik tilida) “xalq yig‘iladigan joy” va “to‘rt tomonga o‘tish joyi” ma'nosini bildiradi. Shuning uchun ham XX asrda G‘uzorda tug‘ilgan avlod vakillari hozirgacha “G‘uzor” nomi “Guzar” so‘zidan olingan deb, bu manzilga noto‘g‘ri izoh berib kelishadi. Ularning fikricha qadimdan G‘uzor karvon yo‘lida joylashgani uchun ham “Guzar”, “Guzar joy” deb atalgan deyishadi.

“Guzar” so‘zi karvonlar to‘xtab o‘tadigan va xalq yig‘iladigan, to‘rt tomonga ketadigan joyni anglatsada, ammo bu qadimgi G‘uzorning asl nomi emas. Ularning bunday noto‘g‘ri fikr yuritishlariga asosiy sabab esa ular Xuzor bekligi davrini ko‘rmaganlar, ruslar kelishidan avval bu manzil hamma davrlarda “Xuzor” deb atalishini esa bilmaganlar. Haqiqatni olib qaraydigan bo‘lsak “Guzar” so‘zi “Xuzor” so‘zini ruslar tomonidan o‘z tiliga moslab noto‘g‘ri talaffuz qilinishidan paydo bo‘lgan. Bu so‘z tasodifan fors-tojik tilidagi “Guzar” so‘ziga mos kelib qolgan.

Bu noto‘g‘ri izohni rus tarixchi olimi V.L.Vyatkin ham tasdiqlaydi. Uning 1928 yilda Toshkent shahrida nashr etilgan “1215-1217 (1800-1803) yillarda Qarshi viloyati va uning harbiy qo‘shinlari holati haqida” nomli asarida yozishicha “G‘uzor” so‘zi qadimda “Xuzor” deb yuritilgan bo‘lib, ruslar tomonidan bu joy nomini buzib talaffuz qilinishi natijasida “Guzar”[18] deb atala boshladi, deb ta'kidlaydi.

Shu tariqa 1300 yildan ziyod vaqt mobaynidanida qo‘llanilib kelingan “Xuzor” so‘zi XIX asr oxiri va XX asr boshlarida “G‘uzor”, deb yuritiladigan bo‘ldi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Saidov Mamat G‘uzor tarix sarhadlarida Qarshi, 2005. 8-11-b.
2. Xo‘jaev Ablat. Farg‘ona tarixiga oid ma'lumotlar.Farg‘ona, 2013. 188-b.
3. Ibn Xavqal. Kitob suratal-ard (erning surati kitobi). Toshkent, 2011. 214-216-b.
4. Kamaliddinov Sh.S. Istoricheskaya geografiya yujnogo sogda i Toxaristana po araboyazichnim istochnikam IX- nachala XIII vv. Tashkent, 1990. S-28.
5. Bartold V.V. Sochineniya tom I. Moskva. 1963 g.
6. T.Nafasov. Qashqadaryo oblast toponimlari. Diss. T., 1968. 81-82-bet.
7. I.L.Yavorskiy. Puteshestvie russkogo posolstva po Afganistanu i Buxarskomu xanstvu v 1878-1879 gg. SPb., 1882. S.3.
8. Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi. T.;1991.
9. Istoriya at-Tabari. T.: 1987. S. 87.
10. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshahiy. Buhoro tarihi. T.: 1966.
11. Mahmud Qoshg‘ariy. “Devon lug‘oti-turk”. T.: 1960.
12. Alisher navoiy. Lisonut-tayr. T.: 1984.
13. Zahriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: 1989. 77-bet.
14. Muhammad Solih. Shayboniynoma. T.: 1989. 68 bet.
15. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. T.: 1966.
16. Mirmuhammad Amin Buxoriy. O‘baydullanoma. T.: 1957.
17. Abdurauf Fitrat. Amir Olimxonning hukmronlik davri. T.: 1992.
18. .V.L. Vyatkin. Karshinskiy okrug, organizasiya v ney voyska i sobitiya v period 1215 -

BUXORO XONLIGI HARBIY TIZIMINING O‘RGANILISHI.

Samadova G.
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro xonligi va amirligining harbiy tizimining o‘rganilish darajasi tarixiy manbalar va adabiyotlar asosida yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье на основе исторических источников и литературы освещён уровень изученности военной системы Бухарского ханства и эмирата.*

Annotation. *This article highlights the level of study of the military system of the Bukhara Khanate and Emirate based on historical sources and literature.*

Tayanch so‘z va iboralar: ***Shayboniylar sulolasi, Buxoro xonligi, harbiy tizim,*** *Movarounnahr,* ***tarixshunoslik,*** *Markaziy Osiyo, o‘tochar qurollar,* ***Qozoq xonligi,*** *Turon hududi,* ***Sovet davri, Xorijiy adabiyotlar, temuriylar, otaliq, inoq, noib.***

Ключевые слова и выражения: *Шайбанидская династия, Бухарское ханство, военную систему, Мавераннахр, историография, Центральная Азия, огнестрельное оружие, Казахское ханство, территория Турана, советский период, иностранная литература, тимуриды, аталык, инак, наиб.*

Key words and expressions: *Shaybanid dynasty, Bukhara Khanate, military system, Mawarannahr (Transoxiana), historiography, Central Asia, firearms, Kazakh Khanate, territory of Turan, Soviet period, foreign literature, Timurids, atalik, inaq, naib.*

Shayboniylar sulolasi hukmronlik qilgan davrdagi Buxoro xonligining harbiy tizimi tarixchilar tomonidan alohida mavzu sifatida tadqiqotlar olib borilmagan. Ayrim tarixchi va sharqshunos olimlar o‘z tadqiqotlarida mazkur mavzuga qisman to‘xtalib o‘tganlar. Hozirgi kunga qadar tarixchi olimlarning bir necha avlodi ilmiy ishlariga qaraydigan bo‘lsak, ularda shayboniylar harbiy tizimi xususida ayrim fikr va mulohazalar bildirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Harbiy tizimni tadqiq etish jarayonida olimlar tomonidan uning o‘rganilishi, ya’ni tarixshunosligi bir necha bosqich va davrlarga bo‘linadi hamda ular quyidagilardan iborat:

1. Sovet davri tarixshunosligi;
2. Mustaqillik davri tarixshunosligi;
3. Xorijiy adabiyotlar sharhi.

1. Sovet tarixshunosligi. XX asr sovet tarixshunosligida shayboniylar davri masalasi sharqshunos olimlarda katta qiziqish uyg‘otgan, buning asosiy sababi temuriylar davridan keyingi tarixiy jarayonlar xususiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq edi.[1] Sharqshunos olimlardan V.V.Bartold, A.A.Semyonov va P.P.Ivanov XX asr birinchi yarmida Shayboniylar davlatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisod va madaniy rivojlanishi sabablarini va oqibatlarini tahlil qilib, o‘z davri uchun yangi yondashuvlar yaratuvchilari bo‘lishgan hamda o‘z baholarini berishgan. Aytish joizki, V.V.Bartold mahalliy manbalarni o‘rganib, Shayboniylar davlati tarixi bo‘yicha serqirra maqolalar yozgan. V.V.Bartold nazdida, shayboniy qabilalarning asosini harbiylar tashkil etgan va ular kuchli jangovar madaniyatga ega bo‘lgan. Lekin shu omilga qaramasdan, ko‘chmanchi shayboniy qabilalari madaniyati siyosiy va madaniy “qoloqlikka” sabab bo‘lmagan, aksincha, xonlikda madaniy rivoj kuzatiladi. V.V.Bartold fikricha, harbiy ko‘chmanchi shayboniy qabilalari jangovar madaniyatining Buxoroga ta’siri Xorazmga qaraganda ancha sust bo‘lgan. Qizig‘i shundaki, V.Bartold o‘z maqolasida bu jarayonning sababini yetarlicha tushuntirib o‘tmagan. Uning fikriga ko‘ra, shayboniylar davlatchiligida nafaqat harbiy “mafkura” ustunligini, balki diniy g‘oyalar ta’sirini ham ko‘rishimiz mumkin. V.Bartold shayboniylar harbiy mahoratiga yuqori baho bergani holda, “harbiy mafkura”ning Buxoro va Xorazm rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlab o‘tadi.

A.A.Semyonov shayboniylar tarixini to‘liq yoritgan yirik tarixchi olimlardan hisoblanadi. U 1947 yilda nashr etilgan “O‘zbekiston xalqlari tarixi” (2-tom) asarining o‘zbek feodal xonliklari tarixi bo‘limini yozgan (XV asr oxiri – XIX asr o‘rtalari). Aytib o‘tish kerakki, A.Semyonov bu akademik nashrda, asosan, xonliklarning siyosiy va iqtisodiy tarixini yoritgan. A.Semyonov fikriga ko‘ra, jangovar shayboniy qabilalari Movarounnahrda “feodallashib” siyosiy tarqoqlikka asos bo‘lgan. Bu jarayon esa, albatta, shayboniylar davlatining inqirozga yuz tutishiga olib kelgan.

A.Semyonov keyingi asarlarida ham shayboniylar davri bo‘yicha qator maqolalar yozgan. 1954-yilda nashr etilgan “O‘rta Osiyo o‘zbeklari va tojiklari tarixiga oid materiallar” asarida olimning shayboniylar davriga oid uchta maqolasi e’lon qilingan. Ushbu tadqiqotlarda A.Semyonov nafaqat Shayboniylarning, balki barcha turkiy qabilalarining o‘zaro kurashi (XIII asrdan davom etib kelayotgan) XVI asr o‘rtalariga kelib tugaganini ta’kidlaydi. Shayboniylar davlatining shakllanishi esa ushbu kurashning xotimasi ekanligini uqtiradi.

A.S.Davidov o‘zining Markaziy Osiyoda o‘tochar qurollar tarixiga bag‘ishlangan maqolasida o‘rganilayotgan davrda Turon hududida foydalanilgan o‘tochar qurollar – to‘p, zarbzan, to‘fang (miltiq), ularning ko‘rinishi, ishlatilishi, texnik tafsilotlariga oid qimmatli ma’lumotlarni keltiradi.

Mahalliy tarixchilardan G.A.Pugachenkova va R.G.Muqminova tomonidan XX asrning 50-80-yillarida yozilgan ayrim maqolalarda ham o‘rganilayotgan mavzuga tegishli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Shuningdek, Z.I.Raximovaning o‘rta asrlarga oid miniatyuralardagi liboslar tahliliga bag‘ishlab yozilgan nomzodlik dissertatsiyasini ham alohida qayd etib o‘tish mumkin. XVI-XVII asrlarda Movarounnahr va qo‘shni hududlarda yaratilgan miniatyuralarda harbiy libos va tegishli qurol-yarog‘lari bilan tasvirlangan kishilar tasvirlari ham uchraydi.

2. Mustaqillik davrida mavzu tarixshunosligi. SSSR parchalanib, uning tarkibidagi respublikalar mustaqillikka erishgach, tarixni o‘rganishga bo‘lgan yondashuvda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, O‘zbekiston tarixchilari tomonidan o‘zbek xalqi tarixining ochilmagan sahifalari tadqiq etilib, tarixiy voqealar yangi qarash va tamoyillar asosida yoritila boshlandi. Garchi, mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha mustaqillik davrida ham alohida ilmiy ishlar qilinmagan bo‘lsa-da, uning ayrim jihatlari ba’zi olimlar tadqiqotlarida yoritildi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida ahamiyat kasb etgan Amir Temur va temuriylar davri tarixini yoritishga e’tibor kuchaytirilib, shayboniylar davri tarixi nisbatan kamroq tadqiq etildi. Shunday bo‘lsa-da, bu davr harbiy tizimi ayrim tarixchi olimlar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganildi. B.Ahmedovning o‘rta asr yozma manbalari asosida yozilgan “Tarixdan saboqlar” nomli kitobida [2] ham Buxoro xonligi tarixiga, xususan, shayboniylar davrida ma’muriy-harbiy amaldorlar faoliyati, vakolatlariga, siyosiy boshqaruvda harbiy amaldorlarning tutgan o‘rni masalasiga bag‘ishlangan mustaqil mazmundagi ko‘plab maqolalar mavjud.

Ushbu kitobdan joy olgan “Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati” nomli maqolada mavzu mazmuniga tegishli bir qator ma’lumotlar, xususan, shayboniylarning harbiy tizimiga oid ba’zi ma’lumotlarni uchratish mumkin.[3] Maqolada shayboniylarda o‘lja olish, uni taqsimlash qoidalari bilan bog‘liq masalalar, ya’ni olingan barcha mol-mulkning 1/5 qismi xonga, qolganlari lashkar va harbiy boshliqlarga berilishi, tarxonlar va bahodirlar alohida nufuzga ega harbiy sardorlar bo‘lib, ularning ulushi bu besh qismdan tashqarida bo‘lishi aytiladi.[3] Bundan tashqari, ma’muriy-harbiy va harbiy mansablarning ayrimlari – otaliq, inoq, noib, amiri shikor, yasovul, muboshir, dorug‘a, tavochi, jarchi singari amaldorlarning vazifalari, qo‘shinning yig‘ilish an’analari, xususan, har bir erkak kishi birinchi navbatda harbiy sohani bilishi, tavochi chaqirig‘i bilan lashkar safiga kelib qo‘shilishi, ularning maishiy turmushi haqidagi muhim ma’lumotlar mavjud. B.Ahmedov shayboniylar qo‘shinining turk va mo‘g‘ul an’anasiga ko‘ra 10, 100, 1000, 10000 tartibida tuzilganligi, ularning har birida alohida urug‘ yoki qabila vakillari xizmat qilganligi, Fazlulloh ibn Ro‘zbehxonning asariga suyangan holda, 1509 yilgi Qozoq xonligiga yurish chog‘ida Suyunchxojaxon (Toshkent xoni, Abulxayrxonning o‘g‘li)ning 13 ming lashkaridan uch minggi o‘zbeklardan iborat bo‘lganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, “Boburnoma”da keltirilgan “to‘lg‘ama” usuli va uning qo‘llanishi, lashkar juda tez fursatlarda jangovar holatga kela olishi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi.[3]

1557 yili Abdullaxon ibn Iskandarxon Xoja Islomning qo‘llab-quvvatlashi bilan ikkinchi bor Buxoroni egallagani, Chorjo‘y, Marv viloyatlarining egallanishida Xoja Islomning ko‘magi bo‘lganligi to‘g‘risida mazkur dissertatsiyada qator misol va ma’lumotlar keltiriladi.

Azamat Ziyo ham o‘zining o‘zbek davlatchiligi tarixiga bag‘ishlab yozilgan dissertatsiyasi hamda ushbu mavzuda chop etilgan monografiyasida [4]mavzuga doir ba’zi masalalarga, xususan, shayboniylar davri ma’muriy-harbiy mansablari va ularning vazifalariga qisqacha to‘xtalib o‘tgan. Naqib, otaliq, ko‘kaldosh singari amaldorlar harbiy sohada ham yetakchi bo‘lib, ularning nufuzi bu

davrda nisbatan yuqori bo‘lganligini ta’kidlaydi. Olimning “Abdullanoma” asariga tayangan holda qayd etishiga ko‘ra, qo‘rchiboshi (qurol-aslaha xizmati boshlig‘i), uning amaldorlaridan bo‘lmish jebachi; jarchi, tavochi, qorovulbegi, tug‘begi, kitobdor, mirzaboshi, munshiy, muhrdor, xazinachi, mehtar singari lavozim egalari harbiy jarayonlarga bevosita aloqador bo‘lgan.

G.Sultonovaning “XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining Qozoq, Yorkent xonliklari bilan aloqalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida[5] Abdullaxon ibn Iskandarxon qo‘shinidagi qozoqlar, ularning soni, qozoq xonlari, xususan, Haqnazarxon va Abdullaxon o‘rtasida “qasamiy ittifoq” mavjud bo‘lganligi hamda Haqnazar umrining oxiriga qadar bu ittifoqqa xiyonat qilmaganligi, Abdullaxon qo‘shinida ham qozoq lashkarboshilari va sarbozlari ko‘pchilikni tashkil qilganligi aytiladi. Shuningdek, qozoq xonlari Shig‘ayxon va uning o‘g‘li Tavakkal sulton Buxoro qo‘shini tarkibida harbiy yurishlarda qatnashgan va strategik jihatdan muhim bo‘lgan shaharlarni egallashda Abdullaxonga yordam bergan. Lekin uning vafotidan keyin, mazkur tadqiqotda qayd etilishicha, taxt uchun talashlar boshlanib, natijada qozoq sultonlari Buxoroning ichki ishlariga kuch bilan aralasha boshlagan.

Mavzuga oid ayrim masalalar O‘.Mavlonov, N.Nuriddinova, B.Yakubov, S.Inoyatov, O.Hayitova, Q.Rajabov, E.Ochilov, R.Muqminova, G.Agzamova, J.Ismoilova, L.Levteyeva, H.Dadaboyev singari olimlarning tadqiqotlarida ham qisman ko‘rib o‘tilgan.

O‘. Mavlonov va N. Nuriddinovalarning maqolasida Movarounnahrda harbiy san’atning shakllanishi va rivojlanib borishi masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, xususan, Buxoro xonligidagi harbiy ish – qo‘shinning tuzilishi, qurol-yarog‘lari, jangchi qismlar va jang uslublari, Abdullaxonning harbiy islohotlari haqidagi umumiy ma’lumotlar va tahlillar o‘rin egallagan.[6] B.Yakubovning ilmiy tadqiqotlarida esa XVI asrga oid mudofaa inshootlari, ularning tuzilishi va funksiyalari haqida arxeologik hisobotlar asosidagi tahlillar keltiriladi.[7]

3. Xorijiy adabiyotlar sharhi. Bu muammo yechimi O‘rta Osiyo xalqlarining harbiy san’ati tarixiga xos umumiy xususiyatlarni aniqlashtirishda, dasht o‘zbeklarining harbiy san’atiga xos an’analarning shayboniylar davlati harbiy siyosatida, qo‘shini faoliyatida tutgan o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bu masalaga bag‘ishlangan ilmiy asarlarni o‘rganish, mavzu tarixshunosligini xorijda olib borilgan tadqiqotlar natijalari aks etgan ishlar bilan boyitish talab etiladi. Mavzu tarixshunosligini yoritish jarayonida shayboniylar davri qo‘shin tuzilishi, boshqaruvi, qurollanish darajasi va umuman harbiy san’ati tarixi xorijlik tadqiqotchilar tomonidan ham qisman o‘rganilganligiga amin bo‘ldik.

Shayboniylar davri harbiy san’ati tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlar Rossiya, Turkiya, AQSH, Yevropa hamda qo‘shni Tojikiston, Qozog‘iston olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Olib borgan izlanishlarimizning ko‘rsatishicha, xorijda, xususan, AQSH, Yevropa mamlakatlarida bu sohadagi tadqiqotlar XX asr boshlaridan olib borilmoqda. O‘tgan asrning boshlari va o‘rtalarida bu masalaga bag‘ishlangan qator ishlar e’lon qilingani mavzu tarixshunosligini boyitishga xizmat qilganligini aytib o‘tish mumkin. Xususan, O‘rta Osiyo xalqlarining qurol-yarog‘lari, himoya vositalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning ahamiyati katta bo‘ldi. Ular ichida harbiy qurollar tarixi bilan maxsus shug‘ullangan mutaxassislardan fon Vinkler, X.R.Robinsonlarning ishlarini aytib o‘tish mumkin.[8] Bu tadqiqotlarning ahamiyatini e’tirof etgan holda, shuni aytib o‘tish kerakki, ularda asosan o‘rta asrlarda Osiyo mamlakatlari qo‘shinida foydalanib kelingan qurollarga faqat umumiy tarzda sharh berib o‘tilgan. Ularning o‘ziga xos bir xususiyati shundaki, bu mutaxassislarning ishlarida o‘rta asrlarda yetarlicha harbiy qudratga ega bo‘lgan Osiyo davlatlari, xususan, mo‘g‘ullar saltanati, Eron, Usmonli turklar davlati, Boburiylar saltanati va O‘rta Sharq mamlakatlarida amalda bo‘lgan qurol-yarog‘larga ularning bizgacha yaxshi holatda yetib kelgan va Amerika, Yevropa muzeylarida saqlanib qolgan namunalari asosida keng tavsif berilgan.

Vengriyalik olim Herman Vamberi o‘zining tadqiqotlarida Binoiyning “Shayboniynoma”, Xondamirning “Habib us-siyar” asarlariga tayangan holda, Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrni egallash yo‘lidagi harbiy-siyosiy faoliyatiga oid keng qamrovli ma’lumotlar bergan. Shayboniyxon va Bobur o‘rtasidagi kurashlarni sharhlar ekan, uning fikriga ko‘ra, har ikki tomonning qo‘shinlari soni teng (o‘rtacha 40 ming) bo‘lsa-da, harbiy sohada Dashti Qipchoq lashkari tinch hayot kechirgan Movarounnahr askarlaridan jangovar va shafqatsizligi jihatidan ustun turgan. Shuningdek, Shayboniyxon temuriylarning nafas rostlashiga, birlashishiga yo‘l qo‘ymasdan,

shiddat bilan tez-tez hujumga o‘tishi natijasida g‘alabalarga erishganligini ta’kidlaydi. Vamberi Shayboniyxonning Movarounnahrni egallashida Bobur qo‘shinlari ustidan 1501 yili Saripul yaqinida va Xurosonni egallashida 1507 yili Sulton Husayn Bayqaro ustidan Marvichak jangida qo‘lga kiritilgan g‘alaba hal qiluvchi ahamiyat kasb etganligini ta’kidlaydi.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish lozimki, XVI asrda Buxoro xonligining harbiy tizimi masalasiga oid manbalar tahlili quyidagilarni ko‘rsatdi. Buxoro xonligining shayboniylar davri tarixi, ayniqsa, siyosiy tarixi manbalarda nisbatan yaxshi aks etgan bo‘lsa-da, shayboniylar davrida harbiy qo‘shin tuzilishi, tarkibi, faoliyati, joylashuvi, ta’minoti, boshqarilishi, jang uslublari bo‘yicha ma’lumotlar biror manbada uzviy birlik va mantiqiy izchillikda yoritilmagan. Odatda ma’lumotlar manba bo‘ylab sochilib ketgan bo‘lib, ko‘proq hukmdorning harbiy yurishlariga bog‘liq holda keltiriladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1.А.Замонов. Бухоро хонлигида қўшин тузилиши ва ҳарбий бошқарув-Тошкент, 2018. Б. 7

2. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

3. Аҳмедов Б. Кўчманчи ўзбеклар давлати; Ўзбеклар; Ҳофиз Таниш Бухорий ва унинг “Шарафномаи шоҳий” асари; // Тарихдан сабоқлар. – Т.: Ўқитувчи, 1994.

4.Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврлардан Россия босқинига қадар. – Т: Шарқ, 2001.

5.Султонова Г.Н. XVI аср иккинчи ярмида Бухоро хонлигининг Қозоқ ва Ёркент хонликлари билан алоқалари: Тарих фан. номзоди. диссертацияси. – Т., 2005.

6. Мавлонов Ў., Нуриддинова Н. Ўрта Осиё ҳарбий санъати тарихи // Жамият ва бошқарув. – 2002. – № 4. – Б. 41.

7. Якубов Б. Қашқадарё воҳасидаги сўнгги ўрта асрлар қўрғонлари тарихига доир. – Б. 44.

8. http://draby.narod.ru/middleasia/middleasia15.htm

BUXORO XONLIKLARI VA HINDISTON O’RTASIDAGI DASTLABKI SAVDO MUNOSABATLARI

Kenjayeva G.
I-bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI – XVIII asrlarda Buxora xonligi va Hindiston o’rtasidagi dastlabki iqtisodiy va savdo munosabatlari tarixi haqida ma’lumotlar keltrilgan.

Аннотация: В данной статье представлены сведения об истории первых экономических и торговых связей Бухарского ханства с Индией в XVI-XVIII вв.

Abstract: This article provides information about the history of the initial economic and trade relations between the Khanate of Bukhara and India in the XVI-XVIII centuries.

Kalit so’zlar: Buyuk Ipak yo’li, Ibn Battuta, Xo’rmuz, “Ost-Indiya”, xususiy savdo, ot, tuya, ipak matolar, sukno, qunduz terisi, suvsar, Antoni Jenkinson, Ziravor – dorivorlar;

Ключевые слова: Великий шелковый путь, Ибн Баттута, Ормуз, «Нижняя Индия», частная торговля, лошадь, верблюд, шелковые ткани, сукно, бобровая шкура, сумчатое животное, Энтони Дженкинсон, Зиравор – лекарства;

Key words: Great Silk Road, Ibn Battuta, Hormuz, "Lower India", private trade, horse, camel, silk fabrics, sukno, beaver skin, marsupial, Anthony Jenkinson, Ziravor - medicines;

O’rta Osiyo va Hindiston xalqlari o’rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalar o’zining ko’p asrlik tarixiga ega. Moziyga nazar tashlar ekanmiz, har qanday mamlakatning biror bir davlat bilan o’zaro aloqalarni yo’lga qo’yishda avvalo savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatlardan manfaatdor ekanligini ko’rishimiz mumkin. Ana shu jumladan Buxoro va Hindiston xalqlari o’rtasidagi iqtisodiy aloqalar ham ko’p asrlik tarixni o’z ichiga oladi. Bu aloqalar bir necha asrlik tarixga ega bo’lib, Buyuk Ipak yo’li paydo bo’lgan davrlardayoq ikki o’rtada savdo aloqalari mavjud edi.

XIV - XV asrlarda Hindistonning Eron va O’rta Osiyo bilan bo’lgan savdo munosabatlarida Xo’rmuz port shahrining ahamiyati katta bo’lgan. Arab sayyohi Ibn Battuta Xo’rmuzga Arabiston, Fors va Dashti Qipchoqdan minglab otlar haydab kelinishini va bu otlarning Hindistonda katta foydaga sotilishini xabar qiladi. “Savdogarlar bu otlarining har birini ularning o’z yurtlarida 60 dirham (8 - 10 dinor; 1 dinor 13 gramm kumushdan iborat bo’lgan) ga sotib olib, - deb yozadi Ibn Battuta, - Hindistonda 100 dinor (600 dirham)ga sotganlar; eng yaxshi otlarning narxi 500 dinor va hatto undan ham ortiq turgan”.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta Osiyo mevalarining Hindistonda noyob va qimmatligi haqida aytib o'tadi. Jumladan, Kandibodomning (Konibodom) bodomi nihoyatda a'lo navli ekanligini aytib, "Xurmuz va Hindustong'a tamom muning bodomi borur…", deb ko'rsatadi.[1,- 7]

Bundan tashqari Buxoro va Hindiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda Kobul va Qandahor shaharlarining ahamiyati ham katta. Zahiriddin Muhammad Bobur bu masalada quyidagilarni yozadi: "Hindistoniy g'ayri Hindistonni Xuroson der. Nechukkim arab g'ayri arabni Ajam der. Hindiston bilan Xuroson orasida xushki yo'ldin ikki bandardur, biri Kobul va yana biri Qandahor. Qoshg'ar va Farg'ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondin karvon Kobulg'a kelurlar. Xurosondin karvon Qandahorga kelur. Bisyor yaxshi savdoxonadur. Savdogarlar Xitoy yo Rumga borsalar, ushmuncha – o'q savdo qilg'aylar. Har yili yetti-sakkiz-o'n ming ot Kobulg'a kelur. Quyi Hindistondan o'n, o'n besh-yigirma ming uyluk karvon Kobulg'a kelur. Hindistondin oq raxt va qand va nabot va shakar va aqoqir keltirurlar… Xuroson va Iroq va Rum va Chin matoi Kobulda topilur. Hindistonning xud bandaridur."[1,117-b]

XVI asrning 2-yarmidan boshlab Hindiston bilan O'rta Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda Kobulning ahamiyati yanada oshadi. Buning sababi Xo'rmuz va boshqa bir qator hind portlarining yevropaliklar tomonidan egallanishidir. Buning oqibatida Boburiylar imperiyasining dengiz orqali savdo qilish imkoniyatlari cheklanib qoladi va Buxoro xonligi bilan karvon yo'llarida iqtisodiy munosabatlar hajmi yanada oshadi. "Ost-Indiya" kompaniyasi agenti Stillning aniqlashicha, XVI asr davomida quruqlikdagi karvon yo'li orqali yiliga avvallari yuborilgan 3 ming tuya mol o'rniga 14 ming tuya mol jo'natib turilgan. [2, 15-b]

Buxoro va Hindiston o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida Qozon (1553) va Astraxanning (1557) Rossiya tomonidan bosib olinishi ham muhim rol o'ynaydi. Chunki O'rta Osiyo, jumladan buxorolik savdogarlar hind mollarini Rossiya bozorlariga yetkazib berishda va O'rta Osiyoga kelgan hind va afg'on savdogarlarini rus mollari bilan ta'minlash ishlarida vositachi rolini egallab oladilar. Natijada Buxoro xonligi ham Hindiston, ham Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarni anchagina rivojlantirib oladi.

Mamlakatda e'tiborli savdogar hisoblanuvchi Buxoro va Xiva xonlarining sotish yoki almashish uchun rus bozorlariga chiqaradigan hamda rus podsholariga hadya va tortiq sifatida yuboradigan mol va buyumlari orasida Hindistondan keltiriladigan mollar ham salmoqli o'rin tutar edi.

Masalan, Abdullaxon II tomonidan 1585-yili Astraxanga sotish uchun yuborilgan mollar orasida (bu mollarning qiymati o'sha davrdagi 2- 2,5 ming so'mni tashkil qilar edi) 40 puddan ortiq bo'yoq bo'lgan. Ma'lumki, bo'yoq Buxoroga, asosan, Hindistondan keltirilar edi. Shuningdek, shu yili Abdullaxon II o'z elchisi Muhammad Alini tortiq va hadyalar bilan rus podshosi Fyodor Ivanovich (1584 - 1598) huzuriga jo'natadi. Uning tortiq va hadyalari orasida qimmatbaho hind chodiri ham bor edi.

Ayni vaqtda, O'rta Osiyo xonlari, xususan Buxoro xonlari Rossiyadan sotib olgan va rus podsholaridan yuborishni iltimos qilgan mollar orasida hind podsholari uchun yuborishga mo'ljallangan mollarning nomi ham ko'plab uchrab turadi. Bu xil mollar - suvsar, qunduz, oqsichqon terisi, oyna, ov qushlari (qirg'iy, lochin, shunqor), baliq tishi (morj tishi), zotli itlar va boshqalar.

Ilyos Nizomiddinovning ma'lumoticha, XVI—XVII asrlarda O'rta Osiyo xonliklari bilan Rossiya o'rtasida olib borilgan savdoning uch asosiy shakli mavjud edi:

a) Xususiy savdo ;

b) xonlik va podshohlikning maxsus vakillari vositachiligida olib boriladigan savdo;

c) podshohlar o'rtasida o'zaro tuhfa va hadyalar yuborish yo'li bilan amalga oshiriladigan mol ayirboshlash.

Savdoning bu shakllari Buxoro xonligi va Boburiylar imperiyasi o'rtasidagi iqtisodiy (savdo) munosabatlarda ham o'z ifodasini topgan edi.

Savdoning ikkinchi va uchinchi shakli uning birinchi shakliga nisbatan katta imtiyozlarga egaligi va bu xil savdo yo'li bilan chetga chiqariladigan mollarning turlari bo'yicha qam farq qilardi.

Xususiy savdogarlar sotadigan va sotib oladigan mollari uchun boj to'lashga majbur edilar. Bundan tashqari, xususiy savdogar o'z shaxsiy hayoti va mol-mulkining xavfsizligi ta'minlangan deb his qilolmas edi, chunki mamlakatlardagi har bir siyosiy voqealar ularga katta zarar yetkazardi; ular ko'pincha qaroqchilar hujumiga uchrar, mollari talon-toroj qilinardi.

Xususiy savdogarlar, asosan, xalq ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mollar bilan savdo qilardilar. Ular XVI—XVIII asrlarda Hindistondan Buxoro bozorlariga turli hind matolari (jomavar, chire, gujorat «fo'ta»si), kashmir sholi, sukurlat - jun, nil va boshqa xil bo'yoqlar, lak, dorivorlar, choy, doka keltirar va O'rta Osiyodan Hindistonga ho'l va quruq mevalar (Abulfazlning ko'rsatishicha, Samarqand tarvuzi, nashvoti, olmalar, mayiz, bodom, mag'iz va boshqalar), ot, tuya, ipak matolar, sukno, qunduz terisi, suvsar, har xil chinnilar, zig'irpoyadan to'qilgan rus matosi va boshqalar olib borar edilar.[3, 194-c]

XVI - XVII asrlarda Buxoro va O'rta Osiyoning ayrim shaharlarida ko'plab hind savdogarlari turg'un bo'lib qoladi. Buxoroda maxsus hind mahallalari paydo bo'lib, ularni hindlarning o'zlari boshqarardilar.

XVI asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan Antoni Jenkinson Buxoro, Balx shahrida har yili Hindiston, Rossiya va boshqa davlatlardan katta-katta karvonlar bilan keluvchi savdogarlarning qurultoyi tez-tez bo'lib turadi, deb yozadi. Buxoroning dunyodagi savdo markazlaridan biri ekanligini tan olgan ingliz sayyohi bu shahardagi chet el savdogarlari, shu jumladan, hind savdogarlari tomonidan olib boriladigan savdoning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltiradi. U bu savdogarlarning faqirlarcha kiyinganliklarini, ularning juda kam mol keltirishlariga qaramay, bu mollarning 2-3 yillab sotilmay yotishini alohida eslatib o'tadi. Jenkinson yana hind savdogarlari Buxoroga na oltin, kumush, na qimmatbaho toshlar va na ziravor dorivorlar keltirib sotmasliklarini qayd etgan.[3]

Ammo bir qator olimlar uning bu ma'lumotlarini rad etadilar. Ularning fikricha, Buxorodagi chet el, ayniqsa hind savdogarlarining faoliyatini va hind mollari bilan savdo qilishni ataylab kamsitgan, Angliyaning ko'plab chiqarishi mumkin bo'lgan, suknosiga O'rta Osiyo bozorlarida talabning yo'qligini yaxshi bilgan ingliz sayyohi, Buxoro va umuman O'rta Osiyo bozorlaridagi savdoning boshqa chet el davlati uchun ahamiyatli bo'lib ko'rinishini yoqtirmagan.

Jenkinsonning hind savdogarlarining qimmatbaho toshlar va ziravor - dorivorlar keltirmasliklari haqidagi fikri ham noto'g'ri fikr edi. Ziravor - dorivorlar Hindistondan Buxoroga chiqariladigan asosiy mollardan hisoblanardi. Qimmatbaho toshlar va boshqa oltin-kumushdan ishlangan buyumlar ko'proq savdoning yuqorida aytib o'tilgan ikkinchi va uchinchi shakllari yo'li bilan keltirilar va bu savdo haqida ehtimolki, Jenkinson yaxshi tushunchaga ega, emas edi.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур - Бобурнома. Т., "Юлдузча", 1990. Б-7. Б-117, 118

2. Низомиддинов И.Ғ - XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё - Ҳиндистон муносабатлари., Т., "Фан" 1966. Б-15

3. Расул-Заде П., Из истории индо - среднеазиатских политических взаимоотношений во второй половине XIX в., в сб. «Взаимоотношения народов Средней Азии с сопредельными странами Востока», Ташкент, Изд-во АН УзССР, 1963, стр. 173—194.

O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDA ICHKI ALOQALAR

Quvvatov R -yetakchi mutaxassis
Eraliyev Sr - ilmiy xodim
Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Annotatsiya: O'zbek xonliklari davri — Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan davrlardan biri bo'lib, 16–19-asrlar oralig'ida mavjud bo'lgan Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayoti o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Bu davrda xonliklar o'z ichki boshqaruv tizimlari, iqtisodiy faoliyati, madaniy merosi va diniy hayoti orqali o'zaro mustahkam ichki aloqalar tizimini shakllantirgan. Mazkur maqolada ushbu davrda ichki aloqalarning asosiy yo'nalishlari, ularning mazmun-mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi..

Аннотация: период наибольшего узбекского ханства — один из важнейших периодов в истории Центральной Азии, когда политическая, экономическая, культурная и социальная жизнь Бухарского, хивинского и Кокандского ханств, существовавших между 16 и 19 веками, имела свои особенности. В этот период ханства через свои системы внутреннего управления, хозяйственную деятельность, культурное наследие и религиозную жизнь сформировали прочную систему внутренних взаимоотношений. В данной статье будут проанализированы основные направления внутренних коммуникаций в данный период, их содержание и роль в развитии общества

Abstract: период наибольшего узбекского ханства — один из важнейших периодов в истории Центральной Азии, когда политическая, экономическая, культурная и социальная жизнь Бухарского, хивинского и Кокандского ханств, существовавших между 16 и 19 веками, имела свои особенности. В этот период ханства через свои системы внутреннего управления, хозяйственную деятельность, культурное наследие и религиозную жизнь сформировали прочную систему внутренних взаимоотношений. В данной статье будут проанализированы основные направления внутренних коммуникаций в данный период, их содержание и роль в развитии общества

Kirish

O‘zbek xonliklari davri – Markaziy Osiyoda 16–19-asrlarda mavjud bo‘lgan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklarining taraqqiyot bosqichi bo‘lib, bu davrda ichki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar muhim o‘rin tutgan. Ichki aloqalar jamiyatning mustahkamligi, iqtisodiy barqarorlik va madaniy yuksalishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Asosiy qism O‘zbek xonliklarining ichki aloqalari, avvalo, siyosiy-ma'muriy tizim orqali amalga oshirilgan. Har bir xonlikda markazlashgan hokimiyat mavjud bo‘lib, xon boshqaruvning eng yuqori pog‘onasini egallagan. Viloyatlar va yirik shaharlar hokimlar, beklar yoki amirlar tomonidan boshqarilgan. Bu lavozim egalari markaziy hukumatga bo‘ysungan va ma’lum muddatlarda soliq, harbiy kuchlar va aholi hisobotlarini taqdim etishgan.

Xonlik ichida xon va uning qarindoshlari, yuqori tabaqadagi zodagonlar, ruhoniylar va boy savdogarlar siyosiy-ijtimoiy aloqalarda faol qatnashgan. Har bir ijtimoiy guruh davlat boshqaruvida o‘z manfaatlarini ilgari surishga intilgan, bu esa ichki siyosiy muvozanatni saqlashda muhim rol o‘ynagan.

Ichki iqtisodiy aloqalar dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo orqali shakllangan. Turli hududlar o‘rtasida mahsulot ayirboshlash (barter), bozorlarda savdo qilish rivojlangan. Masalan, Farg‘ona vodiysi paxtasi, Buxoro ipakchilik mahsulotlari yoki Xiva yog‘och o‘ymakorligi buyumlari boshqa hududlarga olib borilib, ichki bozorni boyitgan.

Ichki aloqalarni rivojlantirishda karvon yo‘llari va savdo yo‘llari muhim rol o‘ynagan. Xonliklar orasidagi ichki yo‘llar orqali nafaqat tovarlar, balki axborot, diniy va ilmiy g‘oyalar ham tarqalgan. Bu yo‘llarda karvonsaroylar, dam olish maskanlari mavjud bo‘lib, savdo-sotiqni yengillashtirgan.

Ichki aloqalarning muhim yo‘nalishlaridan biri transport va axborot almashinuvi tizimi edi.

Xonliklarda yirik yo‘l tarmoqlari mavjud bo‘lib, ular orqali viloyatlar orasida savdo va siyosiy aloqalar yuritilgan. Karvon yo‘llari asosiy aloqa vositasi bo‘lgan va ularning xavfsizligini ta’minlash uchun harbiy kuchlar ajratilgan.

Shuningdek, xonliklarda maktub, farmon va hujjatlarni tez yetkazish uchun chopar tizimi mavjud edi. Maxsus otli choparlar markazdan viloyatlarga va aksincha, qisqa fursatda axborot yetkazgan. Bu tizim davlat boshqaruvining markazlashganligini ta’minlashda muhim rol o‘ynagan.

Xonliklar ichida madaniy va diniy aloqalar kuchli bo‘lib, bu masjidlarda, madrasalarda o‘qitiladigan ilmiy faoliyatda aks etgan. Olimlar, shoirlar va ustozlar hududlar bo‘ylab safar qilib, bilim almashishgan. Bu hol ichki birlik va umumiy madaniy o‘sishni ta’minlagan.

Xonliklar ichida diniy va madaniy aloqalar jamiyatni birlashtiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lgan. Islom dini davlat siyosatida muhim o‘rin tutgan. Masjid, madrasa va ziyoratgohlar orqali diniy-ma’naviy ta’lim berilgan, ulamolar jamiyatda katta e’tiborga ega bo‘lgan.

Madaniy aloqalarda adabiyot, tarix, til va san’at yetakchi o‘rin tutgan. Xonliklar orasida olimlar, shoirlar, tarixchilar safar qilgan, ilmiy asarlar almashilgan. Qo‘lyozma kitoblar ko‘paytirilib, kutubxonalar tashkil etilgan. Bu esa ichki madaniy aloqalarning rivojlanishini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkunki O‘zbek xonliklari davrida ichki aloqalar davlat barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish va madaniy yuksalishning ajralmas qismi bo‘lgan.

Bu aloqalar orqali xonliklar ichki mustahkamlikka erishib, o‘z davrining muhim siyosiy va madaniy markazlariga aylangan.

Xonliklar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar, ittifoqlar va qarama-qarshiliklar ichki siyosatga ta'sir ko‘rsatgan. Masalan, Buxoro va Xiva xonliklari o‘rtasidagi ittifoqlar va raqobatlar, ichki hokimiyat tizimining shakllanishiga ta'sir ko‘rsatgan .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tavorix-I guzide nusratnoma
2. Tarixi mang'itiya <Ahmat Donish>
3. Muntaxab ut tavorix <Muhammat Hakimxon To'ra>
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki Ziyo uz
5 https://uz.m.wikipedia.org/wiki O'zbek xonliklari

XVIII–XIX ASRLARDA BUXORO AMIRLIGINING ROSSIYA VA HINDISTON BILAN DIPLOMATIK VA SAVDO ALOQALARI

Jo'rayeva Sh -ilmiy xodim
Radjabova N - ilmiy xodim
Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxoro amirligining tashqi diplomatik va savdo aloqalari haqida ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Demokratik jamiyat qurish yo'lida shu vaqtgacha bosib o'tilgan tarixiy bosqichlarni tahlil etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat va davlatchilik tarixini yanada chuqurroq anglash va undan to'g'ri xulosa chiqarish mustaqil davlat barpo etish yo'lida muhim omillardan biri bo'lishi mumkin. Hozirgi zamonaviy bosqichda tarixiy bosib o'tilgan yillarga qayta nazar tashlash ilmiy tadqiqot olib borishda zaruriy jihatlardan biridir. Har tomonlama va chuqur o'rganilgan so'nggi o'rta asrlar davridan (XVIII–XIX asrlar) bizning davrimizgacha bo'lgan tariximizga nazar tashlasak, ajdodlarimizning qanday yuksak madaniyatga ega bo'lganliklariga yana bir bor amin bo'lamiz. O'zbekiston Markaziy Osiyo xalqlari hayotida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi dunyo sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir.

Kalit so'zlar: *Buxoro amirligi, Hind elchilari, A. Jenkinson, Jung'orlar, Hirot va Isfahon, Amir Haydar, Tibet, Koshg'ar, Qo'qon xonligi*.

Аннотация

В данной статье приводятся некоторые сведения о внешнеполитических и торговых связях Бухарского эмирата. Одной из главных задач является анализ исторических этапов, пройденных к настоящему времени на пути построения демократического общества. Более глубокое понимание истории общества и государственности и извлечение из нее правильных выводов может стать одним из важных факторов на пути построения независимого государства. На нынешнем современном этапе оглядывание на годы исторического прогресса является одним из необходимых аспектов проведения научных исследований. Если мы посмотрим на нашу историю с позднего средневековья (XVIII-XIX вв.) до нашего времени, которая всесторонне и глубоко изучена, то мы еще раз убедимся в высокой культуре наших предков. Узбекистан является одной из колыбелей древней мировой цивилизации, которая сыграла важную роль в жизни народов Средней Азии в политическом, экономическом и культурном плане.

Ключевые слова: *Бухарский эмират, индийские послы, А. Дженкинсон, джунгары, Герат и Исфахан, Амир Гейдар, Тибет, Кашгар, Кокандское ханство.*

Abstract

This article provides some information about the foreign diplomatic and trade relations of the Bukhara Emirate. One of the main tasks is to analyze the historical stages that have been passed so far on the way to building a democratic society. A deeper understanding of the history of society and statehood and drawing the right conclusions from it can be one of the important factors on the way to building an independent state. At the current modern stage, looking back at the years of historical progress is one of the necessary aspects of conducting scientific research. If we look at our history from the late Middle Ages (XVIII-XIX centuries) to our time, which has been comprehensively and deeply studied, we will once again be convinced of the high culture of our ancestors. Uzbekistan is one of the cradles of ancient world civilization, which has played an important role in the lives of the peoples of Central Asia in political, economic and cultural terms.

Keywords: *Bukhara Emirate, Indian ambassadors, A. Jenkinson, Dzungars, Herat and Isfahan, Amir Heydar, Tibet, Kashgar, Kokand Khanate.*

Kirish

O'zbek davlatchiligi tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to'plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XX asrning oxiriga kelib, jahon

sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lgan O‘zbekiston tarixini, xususan o‘zbek davlatchiligi tarixini har tomonlama o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu bois, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tarixining qator dolzarb masalalarini o‘rganishda aniq va haqqoniy tarixiy yondashuv masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Amirlik haqidagi ayrim ma’lumotlarni (jumladan, XVIII asrda O‘rta Osiyoning qo‘shni Sharq davlatlari bilan aloqalarini) o‘rganishda rus manbalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu manbalarda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tahlil qilish, savdo yo‘llarini o‘rganish uchun amalga oshirilgan harakatlar hamda qaysi mamlakatdan qanday mollar qancha miqdorda keltirilganligi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Rus manbalarida rus elchilari va elchilik missiyalarining hisobotlari, Buxoro, Xiva va Hind elchilari hamda savdogarlarining so‘rovnomalari mavjud. Shuningdek, hukmdorlar hamda xonlarning bir-birlariga yuborgan tortiqlari, sovg‘alari haqida ham muhim ma’lumotlar keltiriladi. Ushbu ma’lumotlar orqali O‘rta Osiyo xonliklarining Hindiston va Rossiya o‘rtasidagi savdo munosabatlaridagi o‘rnini aniqlash mumkin. Xususan, A. Jenkinson Buxoro bozorlaridagi hind savdogarlarining faoliyati haqida quyidagicha yozadi: “Ular Buxoroga na oltin, na kumush, na qimmatbaho toshlar, na ziravorlar keltiradi. Men, Hindistondagi bu tovarlar ishlab chiqariladigan eksport tovarlar portugallar qo‘l ostida bo‘lganligi uchun, bu tovarlar bilan savdo okean orqali olib borilishini aniqladim” [3:]. Bu yerda elchining hind savdogarlariga bo‘lgan munosabatini ham ko‘rish mumkin.

Xulosa

Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi savdo aloqalari XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab muhim rivojlanish bosqichiga o‘tgan. Rossiyaning Orenburgni qurishi va yangi savdo yo‘llarining ochilishi Buxoro uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirgan. Buxoro amirligi, Rossiya bilan savdo aloqalarini rivojlantirish orqali, nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham kuchaygan. Ushbu tadqiqot, Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi aloqalarning tarixiy ahamiyatini ochib beradi va kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. TOJIYEV, B. T. (2021). XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida ichki va tashqi savdo. In Uzbek Conference Publishing Hub (Vol. 1, No. 01, pp. 469-473).

2. O’RNI, A. D. A., & EMIRAT, B. (n.d.). Buxoro amirligi tarixi tarixshunosligida.

3. Asilbekov, D., & Abduhamidov, J. (2020). Buxoro amirligi madaniy hayotining o‘ziga xos xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences, (3).

4. Qurbonov, D. N. (2020). O‘rta Osiyo xonliklarida kutubxonalar faoliyati. In Obshchestvennye Nauki v Sovremennom Mire: Politologiya, Sotsiologiya, Filosofiya, Istoriya (pp. 47-50).

5. Zaripov, J. G., & Akhmadjon, A. A. (2020). The role of Afghanistan in diplomacy of Bukhara Emirate (XVIII-XIX centuries). Scientific Reports of Bukhara State University, 3(2), 226-230.

6. Bekmurodovna, G. T. (2020, November). Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati (XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida). In Archive of Conferences (Vol. 12).

BUXORO MADRASALARIDA TA’LIM-TARBIYA AN’ANALARI VA ULARNING SHAKLLANISHI

Vasiyev R.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XVI-XIX asrda Buxoroda madrasalari qadimdan o‘z nufuziga ega bo‘lib, talabalarning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etganligi tahlil qilingan. Xususan, Buxoroda madrasalarning ahamiyati katta bo‘lib, madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Buxoroda ta'lim tizimi faqat diniy bilimlar bilan cheklanmay, matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshqa fanlar ham o‘rganilgan. Madrasalar Buxoroda ta'lim tizimining markazlari bo‘lgan. Buxoroda ta'lim tizimi ko‘plab madrasalar, ilmiy muassasalar va diniy ta'lim markazlari bilan mashhur bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, madrasa, matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, xandasa, ilmi nujum, axloq, falsafa, adabiyot, jo'g'rofiya, mablag‘, adno, avsat, a'lo, fiqh, aqoid, tahzib, qofiya,Shohmurod, Abdulazizxon, Nasrullaxon, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется историческая роль и значение медресе в Бухаре с XVI по XIX века, подчеркивается их важность в формировании духовной идентичности студентов. Особенно медресе в Бухаре имели большое значение как высшие учебные заведения для мусульман. Образовательная система Бухары не ограничивалась только религиозными знаниями, но также охватывала такие науки, как математика, астрономия, медицина, история и другие. Медресе были ядром образовательной структуры Бухары и стали известны многочисленными образовательными учреждениями и религиозными центрами. Бухара прославилась множеством медресе, научных учреждений и центров религиозного образования.

Ключевые слова: Бухарское эмират, медресе, математика, астрономия, медицина, история, геометрия, астрология, этика, философия, литература, география, финансирование, адно, авсат, аъло, фикх, акоид, тахзиб, кофия, Шохмурод, Абдулазизхон, Насруллахон, Абдурауф Фитрат, Садриддин Айни.

ABSTRACT

This article analyzes the historical role and significance of madrassas in Bukhara from the 16th to the 19th centuries, highlighting their importance in shaping the spiritual identity of students. Specifically, madrassas in Bukhara held great significance as Muslim higher educational institutions. The educational system in Bukhara was not limited to religious studies alone, but also encompassed mathematics, astronomy, medicine, history, and other sciences. Madrassas were the core of the educational structure in Bukhara and were renowned for their many educational institutions and religious centers. Bukhara became famous for its numerous madrassas, scientific institutions, and centers of religious education.

Keywords: Bukhara Emirate, madrassa, mathematics, astronomy, medicine, history, geometry, astronomy, ethics, philosophy, literature, geography, funding, adno, avsat, a'lo, fiqh, aqoid, tahzib, qafiya, Shohmurod, Abdulazizkhon, Nasrullakhon, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayni.

Dolzarbligi: Ta’kidlash joizki, Buxoro xonligi (amirligi) da, O‘rta Osiyo tarixi, uning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti va xalq ta'limini munosabatlarida katta iz qoldirgan davlat bo‘lib, XVI-XIX asrning birinchi yarmida Buxoroda madrasalar ko‘payib, oliy o‘quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblar hamda olimlar yetishtiradigan oliy o‘quv yurtiga aylanib borgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o‘sha shaxslar ismi, ba’zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan.Bu o‘rinda ta’kidlash lozimki, ayrim hukmdorlari davri siyosiy parokandalik, iqtisodiy tushkunlik va o‘zaro urushlar bilan izohlansa, ayrim hukmdorlari davri siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va madaniy hayotning taraqqiyoti bilan izohlanadi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi: Mavzu tarixshunoslik va manbashunoslik tahlillariga asoslanadi. Tadqiqotda ishlatilgan usullar, nazariy yondashuvlar, o‘rganilgan adabiyotlar va boshqa manbalar haqida ma’lumot beriladi. Tahlil qilingan ma’lumotlarning metodologiyasi va ishlatilgan tahliliy usullar tavsifi kiritiladi. Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlarning ko‘pchiligi hukmron mang‘itlar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda o‘rta asrlar tarixnavisligidagi an’analar davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab o‘tgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati ko‘p qirrali bo‘lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratganlar.

Tadqiqot natijalari: Rossiya imperiyasining bosqini arafasida O‘rta Osiyoda ta’lim va maorif, an’anaviy tarzda davom etgani ma’lum. Turkiston bosib olingach rus imperiyasining yangi ma’muriyati ta’lim va maorif sohasida ham ba’zi o‘zgarishlarni amalga oshirmoqchi bo‘lgan. Biroq, ijtimoiy munosabatlardagi qoloqlik, xurofot va diniy mutaasiblik bu sohada katta o‘zgarishlar qilishga yo‘l bermagan. Sho‘rolar davriga kelib, 1920-1930 yillarda «madaniy inqilobchilar» tomonidan madrasalarning ko‘pchiligi buzib tashlandi. Omon qolgan ayrim maktab va madrasalar birin-ketin yopila boshladi. Vaqf mulklari madrasalar tasarrufidan olinib, ularning faoliyatiga nuqta qo‘yildi. Ko‘plab madrasalar qamoqxona va omborxonalarga aylantirildi.

Buxoroga islom dini kirib kelishi bilan diniy ta’lim va ilm-fanrivojlana boshladi. Ma’naviyatda hurfikrlilik, ilm-fanga hurmat-e’tibor va uning qadr-qimmatini yuksak baholash ustunlik qildi. Ko‘hna Buxoro ham o‘zining ko‘p sonli madrasalari va maktablari bilan nom taratgan. U turli hududlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Buxorodagi madrasalarning nufuzi va ilmiy salohiyati yuqori bo‘lgan. [1:56].

Ashtarxoniylar davri muarrixi Mahmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini shunday baholaydi: «Olimlarning ko‘pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog‘i deb ataydilar».

Rus sayyohi N. Xanikov o‘z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma’rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta’riflab: «Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi», deydi.O‘rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki musulmon sharqida ham mashhur edi.

Buxoro amirligi ta'lim tizimi ham o‘zining tarixiy, diniy va madaniy jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Buxoro amirligi, Markaziy Osiyo tarixining eng yirik davlatlaridan biri bo‘lgan bo‘lib, o‘zining ilm-fan, adabiyot va ta'lim sohalarida katta meros qoldirgan. Buxoro amirligi ta'lim tizimi ko‘plab madrasalar, ilmiy muassasalar va diniy ta'lim markazlari bilan mashhur bo‘lgan. Buxoro amirligi ta'lim tizimi asosan diniy fanlar va ilmiy bilimlarga asoslangan edi. Ta'lim muassasalari, asosan, madrasalar bo‘lib, ular yuksak ilmiy darajaga ega bo‘lgan va diniy, falsafiy, ilmiy fanlarni o‘rgatish uchun tashkil etilgan. Buxoroda ta'lim tizimi faqat diniy bilimlar bilan cheklanmay, matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshqa fanlar ham o‘rganilgan. Madrasalar Buxoro amirligida ta'lim tizimining markazlari bo‘lgan.

Buxoro madrasalarida diniy ilmlardan tashkari naxv va sarf (morfologiya va grammatika), adab (adabiyot), xatoba (notiklik), riyoziyot (matematika), xandasa (geometriya), jugrofiya (geografiya), falsafa kabi fanlar o‘qitilgan. Ayrim ixtisoslashgan madrasalarda aniq va tabiiy fanlar maxsus o‘rgatilgan.

Shu tariqa madrasalar ko‘payib, oliy o‘quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblar hamda olimlar yetishtiradigan oliy o‘quv yurtiga aylanib borgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o‘sha shaxslar ismi, ba’zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan. [2:15-b]

Buxoro amirlari ta'lim tizimiga katta ahamiyat berishgan. Buxoro amirligi hukmdorlaridan ba'zilari, xususan, **Abdulazizxon** va **Nasrullaxon**, madrasalar qurishga va ilmiy tadqiqotlar olib borishga alohida e'tibor qaratishgan. Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat O‘rta Osiyoda, balkim boshqa qo‘shni davlatlarda ham mashhur edi. Buxoro amirligida faoliyat yuritgan madrasalar soni manbalarda turlicha keltirilgan. Xususan, o‘sha davrda yashab ijod qilgan Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniylarning manbalarida yozishicha jami 200 ta madrasa bo‘lgan.

Buxoro XVIII asrning birinchi yarmi XIX asrda ham oldingi asrlardagi o‘z nufuzini saqlab qolgan. Ayniqsa, Buxoro amiri Shohmurod (1785-1800 yy.) va amir Haydar (1800-1826 yy.) hukmronligi davrida ilmga e’tibor kuchayib, diniy bilimlar gullab yashnagan[3:210-s]. Amir Shohmurod madrasa talabalariga soliqlardan tushgan daromad hisobidan nafaxa (stipendiya) to‘lashni joriy etgan[4:331-s].

Ahmad Donish (1826-1897 yy.) va Sadri Ziyolar Amir Haydar hukmronlik qilgan davrda ilm olish maqsadida Buxoroga dunyoning turli joylaridan talabalar kelganini, ilm-fan taraqqiy etib, ilgari olimlar bunchalik yutuqqa ega bo‘lmaganligini ta’kidlashadi.

Madrasada turli sohadagi malakali mutaxassislar tayyorlangan. Bu ilm dargohini bitiruvchilarining aksariyati mudarris, diniyolim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, rassom, musiqashunos va hatto ma’rifatparvar bo‘lib yetishgan[5:113-s].

Shuni ham qayd etish lozimki, madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo‘shimcha mablag‘ hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o‘z vaqf mulki va vaqfnoma hujjati bo‘lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar, mutavalli, mudarris, hofiz, muhri, naqib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalar soni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq ko‘rsatilgan. Har bir madrasaning xon tomonidan tayinlangan o‘z mutavallisi bo‘lgan[6:46-s].

Mutavalliga madrasadagi xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar (o‘qituvchi-mudarrislardan tashqari) faoliyatini, ayrim hollarda esa talabalarning darsga qatnashish davomatlarini nazorat qilib turish yuklangan. Uning lavozimi otadan bolaga meros tariqasida o‘tishi yo‘lga qo‘yilgan.

Madrasalardagi talabalar soni va ularning o‘qish muddati madrasa daromadiga bog‘liq bo‘lib, daromadga qarab madrasa xodimlarining soni ham belgilangan.

Madrasalarda ta’lim jarayoni. Madrasaga asosan maktabni tugatganlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 10 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. Talabalar madrasaga imtihon asosida qabul qilingan. Ular bilim darajasiga qarab uch guruhga bo‘lingan. A’lo (oliy), avsat (o‘rta) va adno (quyi))[7:491-492-s]. Ular madrasa yotoqxonalarida yashash huquqiga ega bo‘lgan. Madrasa talabalari asosan ikki guruhga bo‘lingan: darsga muntazam qatnashadigan, madrasa hujrasida yashab o‘qiydigan talabalar va darslarga erkin qatnashadigan talabalar. Madrasalarda bilim berish asosan suhbat va munozara uslubida olib borilgan, talabalarning mustaqil fikrlashiga alohida e’tibor qaratilgan. O‘quv yili oxirida talabalar o‘tilgan fanlar yuzasidan bevosita ota-onalar ishtirokida imtihon topshirgan. Madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga shahodatnoma – diplom berilgan. Hatto a’lo baholarda o‘qigan talabalar amir tomonidan turli sovg‘a va naqd pul mukofoti bilan taqdirlangan.

O‘z vaqtida talabalar ham o‘zlariga mudarris izlash va tanlashga haqli hisoblanib, unga qoniqmagan mudarrisdan boshqa mudarrisga borish imkoni berilgan. Ammo talabalarning bir madrasadan boshqa madrasaga o‘tishi juda kam hollarda uchragan.

Madrasalarda talabalar tarbiyasi alohida e’tiborda turgan. Ayni holda, talabalarning yalqovlik va xususan, axloqsizlik qilishiga yo‘l qo‘yilmagan. Madrasalardagi tarbiya jarayonini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: 1) ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashga qaratilgan tarbiyaviy choralar; 2) ta’lim bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan axloqiy tarbiyaga yo‘naltirilgan choralar. Madrasalarda ichki tartib-intizomga qat’iy amal qilingan. Madrasa nizomini buzgan talaba va xizmatchilar uch marotabagacha ogohlantirilgan, kamchilik yana takrorlansa, bunday shaxslar madrasadan chetlashtirilgan. Lekin bunday ko‘ngilsizlik juda kamdan-kam sodir bo‘lgan. Madrasaning ichki hayotiga daxldor masalalar mutavalli, mudarrislardan tarkib topgan hay’at kengashida hal etilgan. O‘qituvchilik-mudarrislik eng mas’uliyatli va sharafli kasb hisoblangan. Eng iste’dodli, barcha bilimlardan xabardor, hurmat-e’tibor qozongan allomalar maxsus komissiya sinovidan o‘tib, mudarrislik vazifasiga tavsiya etilgan. Ba’zi madrasalarga butun boshli qishloqlar vaqf qilib berilgan. Ba’zan iste’foga chiqqan yuqori martabali amaldorlar mudarris bo‘lib ishlagan.

Madrasalarda dars beradigan mudarrislarning o‘zi ham biror madrasani tugallagan bo‘lishi shart bo‘lgan[8:98-s]. Madrasada dars berishi uchun mudarrislikka tayinlanish tartibiga ko‘ra, kichik madrasalarning mudarrisini qozikalon tayinlasa, yirik madrasalarning mudarrisini esa, amir tomonidan tayinlangan va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan.

O‘quv jarayonini tashkil etish odatda, mudarrislarning zimmasida bo‘lib, ular quyidagi uch toifaga bo‘lingan:

Birinchi toifa – a’lo darajali mudarrislar. Bunga qozi ul-quzzot, raisi kalon, shayx ul-islom, oxund, a’lam, mufti, askar kirgan.

Ikkinchi toifa – o‘rta darajali mudarrislar. Bu toifadagi mudarrislarni kiygan kiyimlariga qarab «banoraspo‘sh» deb atashgan. Ayni shu toifadan chiqqan ilmli mudarrislar muftilik lavozimiga erishgan. Mazkur toifadagi mudarrislar taxminan ikki yuz nafar bo‘lib, ularni yana «o‘rta mudarrislar» deb ham atalgan.

Uchinchi toifa – quyi darajadagi mudarrislar. Bu toifadagilarni mudarrislar, imom mudarrislar, ba’zan beqasabapo‘sh deb atalgan. Imom mudarrislar soni uch yuzdan ortiqroq bo‘lgan[9:33-34-b].

Tarixda ayrim hukmdorlarning o‘zi ham madrasada mudar-rislik qilgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Mirzo Ulug‘bek Samarqandda, Amir Shohmurod va Amir Haydar Buxoroda mudarrislik qilgan. Shohmurod «Hidoya», Bayzoviyni «Kitob usul ad-din»idan hamda Shotibiy (vaf.1194 y)ning asarlari va unga yozilgan sharhlardan dars bergan[10:332-s]. Shohmurodning o‘g‘li Miriyning yozishicha, Shohmurod «Shoti-biya» hamda uning sharhlarini yoddan bilgan. Yana otasi haqida yozar ekan, uning qiro‘at, hadis, tasavvuf va fiqh ilm-lari bilimdoni ekani, umrini talabalarga dars berishga sar-flab, ko‘plab shogirdlar yetishtirganini ta’kidlaydi. Miriy-ning o‘zi ham otasidan «Sharhi Mullo» kitobidan dars olgan. Amir Shohmurod hanafiy mazhabiga doir fatvolarni jamlab, asosan Buxoro ulamolarining fatvolari asosida «Fa-tovoyi ahli Buxoro» nomli asar yozgan.

Amir Haydar esa Arkdagi masjid qoshida madrasa qurdirgan va o‘zi ham o‘sha madrasada dars bergan. Amir Haydar ko‘plab shogirdlarni tarbiyalagan. U «Sharhi Kofiya», «Sharhi Mishkot»,

«Shamoili nabaviy» va «Tafsiri Qozi Bayzoviy»dan dars bergan. Talabalaridan yettitasi amirdan ijozat olib mudarrislik bilan shug‘ullangan[11:94-95-b]. Sadri Ziyoning ma’lumotiga ko‘ra, Amir Haydar qiroat ilmi va xattotlik san’atini ham puxta egallagan.

Manbalarda qayd etilishicha, Amir Haydarning madrasada ta’lim oluvchi 400-500 nafar talaba shogirdlari bo‘lgan. Sadriddin Ayniyning yozishicha, Buxoro madrasalarida haftada to‘rt kunlik tahsil joriy etilgan. Ya’ni, yakshanbadan chorshanbagacha. Payshanba, juma, shanba kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Odatda mashg‘ulotlar sentabrda boshlanib, mart oyigacha davom etgan. Yoz oylari va ramazon oyida ta’tilga chiqilgan. Dars ertalab soat 4:00 dan 10:00 gacha davom etgan. 12:00 da tushlik, so‘ngra bahs-munozara. 16:00 dan 18:00 gacha dam olingan.

Talabalar o‘quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o‘qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlarga ajratilgan. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasa qamroviga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafar-dan 20 nafargacha talaba tahsil olgan[12:200-b].

O‘quv dasturlari uch qismga bo‘lib o‘rgatilgan: diniy adabiyotlar, umumta’lim fanlar va maxsus pedagogik fanlar. Madrasaning o‘quv kursi, odatda, «Avvali ilm» deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirish bilan boshlangan. Adno bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishga o‘tguncha davom etgan, avsat bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishdan boshlanib, “Sharhi mulla” kitobini o‘rganguncha bo‘lgan va un-dan keyingi murakkab qo‘llanmalarni o‘rganuvchilar a’lo bosqich talabalari hisoblangan. Madrasada o‘qish talabalar iqtidoriga qarab, o‘rtacha 7-12 yil davom etgan

Maktab va madrasalarda o’qish bir xancha qiyinchiliklar bilan bog’liq bo’lgan. Masalan, xujra sotib olish, domlaning xizmatini qilish yoki taxsil olgani uchun unga xaq tulash, kitob sotib olish va xakazo. Bu sarf-xarajatlar va o’qish davomida xayotiy extiyojlari uchun talaba biron sarmoyaga ega bulishi kerak edi. Buning uchun anchagina mexnat qilish zarur edi. Xammaning ota-onasi bu xarajatlarni kutarish uchun qurbi yetmagan.

Madrasalarda o`qitiladigan ilmlar quyidagi guruhlarga bo`linadi:

Arab tili grammatikasi: sarfi (morfologiya), naqvi (sintaksis), arabcha notshushk, arab tarihi, Qur’onni o`qish ilmi va ilmiy munozaralar madaniyati.

Ilohiyot va qonunshunoslik: Qur’on tafsiri, hadis, fiqh, diniy aqidalar, meros taqsimoti haqida ta’limot (Faroiz), qonunshunoslik asoslari.

Falsafa: mantiq, riyoziyot, jug`rofiya, astronomiya, tibbiyot, kimyo va tabiiy fanlar, falsafa.

Madrasada ta’lim jarayoni arab tilini o`rganishdan boshlangan. Eng avval umumiy kurs sifatida “Avvali ilm” o`qitilgan. (“Avvali ilm” kitobi islom dinining asoslarini o`rgatuvchi savol javob tarzida tuzilgan fors tilidagi o`quv qo`llanmasi bo`lib, unda “Avvali ilm nimadir?” degan savolga Allohni tanish, Payg`ambarni tan olish, Shaytonni anglash degan javob berilgan). “Avvali ilm” kitobi talabalarga bir necha kunlarda yodlattirilgan. “Avvali ilm”dan so`ng arab tili grammatikasi morfologiyasi bo`yicha fors tilida yozilgan “Bidon” o`qitilgan. Ikkinchi yili arab tili morfologiyasi bo`yicha arab tilida yozilgan “Zanjoniy”, fors tilida “Muizziy” kitoblari o`qitilgan.

Bu boshlang`ich maktablardagi arab tili darslarini takrorlash edi. Uchinchi yildan boshlab arab tili grammatikasi chuqur o`zlashtirila boshlangan. Shu yili “Qofiya” o`tilgan. “Qofiya” arab tilida yozilgan arab tili grammatikasidir. Unda arab tilidagi fe’l, ot va harflar haqida ma’lumot berilgan. To`rtinchi yildan ettinchi yilga qadar “SHarhd Jomiy” (Abdurahman Jomiy tomonidan Qofiyaga yozilgan sharh)dan “Qofiya”ning “Al-marfu’ot”, “Al-majrurot”, “Al-mansubot”, “Al-Mabniyyot” qismlari o`rgatilgan. Bularning bari arab tilidagi ot, fe’l, so`z, birikmalar va kelishiklarni o`qitishga bag`ishlangan. Sakkizinchi yilda yuqoridagi kitobning “Hamd” (yuqoridagi kitoblarning

boshlanishi, ya’ni Allohga hamdu sanolar aytish qismi) va “Bahsi ism” (Hamddan keying

qismlarida Kufa va Basra olimlarining ba’zi qoidalar bo`yicha tortishgan bahslari) vdemlari o`qilgan. To`qqizinchi yilga kelib “Qutbiy” hoshiyasidan (arab tilida yozilgan morfologiya) “Varottabtuhu’ala muqaddima” (muqaddimada tartib berdim, so`zning qaerda keltirilganligi bu fikr muqaddimasida aytilgan) o`rganilgan. Uninchi yili - “Hamdi Aqoyid” kitobida oyatlar, hadislar misolida e’tiqod masalalari o`rganilgan (Allohni tan olish, ohiratga ishonch, g`oyb olami va h.k).

“Hamdi Aqoyid” - “Aqoid” kitobining hamdu sanolar qismi sanalgan. Keyingi yillarda “Aqoyid”ning “Ba’d” (keyin, asosiy maqsadga o`tishdan oldingi so`z), “Samava” (osmonlar),

“Haqoyiq ul-aysha” (narsalarning haqiqati, Alloh yaratgan narsalarning hammasini hikmati va haqiqati bor) bo`limlari, bosqich, sharhlar asosida o`rganilgan. O`n to`rt, o`n beshinchi yillarda “Tahzib” (e’tiqod haqidagi) kitobining “Hamd” (rizq berilgan uchun, bizga shu ilmni oson qilganing uchun hamdu sanolar bo`lsin) va “Ta’rifi ilm” Hilmni ta’riflash, asosan muqadimasida keltiriladi) qismmlari o`rgatilgan. O`n oltinchn va o`n ettinchi yillarda “Hikmat ul-ayn” (arab tilida yozilgan mantiq) kitobi va uning sharhlari o`rgatilgan. O`n sakkizinchn va o`n to`qqizinchi yillar yimi kalomga oid qisman ilohiyot, qisman mantivda oid “Mullo Jalol”, Hadisi sharif kitoblari o`qilib, sharh qilingan. Qur’on tafsirlarini o`zlashtirilishi bilan, Bedilhonlikni tugashi bilan madrasadagi o`quv kursi yakunlangan. Qur’on tafsiri bo`lgan Yusuf Bayzaviyning fors tilida yozilgan “Tafsiri Bayzaviy” degan asaridan ikki sura o`qitilib sharh qilingan.

Madrasalarda to‘liq kursni o‘qib tamomlash uchun talabalardan falsafa va huquq fanlariga oid taxminan 140 ga yaqin darslik-qo‘llanmani o‘zlashtirish talab etilgan. Bu darsliklarning aksariyatini markaziy osiyolik allomalarning asarlari, jumladan, Imom Buxoriy va Iso Termiziylarning hadis to‘plamlari, Abu Mansur Moturidiyning «Kitob at-tavhid», Burhoniddin Marg‘inoniyning «Al-hidoya fi sharh al-bidoya», Umar Qazviniyning «Ar-risola ash-shamsiya fil qavoid al-mantiqiyya», Abdurahmon Jomiyning «Al-favoid ad-diyoiya», Mahmud ibn Ahmad Mahbubiyning «Viqoyat ar-rivoya fi masoilil Hidoya», Ubaydulloh ibn Mas’ud Mahbubiyning «An-nuqoya» kabi asarlari tashkil etgan.

Talabalar qiziqishlari va mudarrislarning salohiyati hamda mavjudligiga qarab, handasa, tibbiyot, kimyo, jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morchilik (arxitektura) asoslari, xattotlik, musiqa, matematika, mantiq, astronomiya, arab adabiyoti, etika, notiqlik san’ati va gigiyena kabi fanlar ham o‘qitilgan. Asosiy ta’lim metodlari ma’ruza va bahs-munozaralarni tashkil qilgan. Ma’ruza (va’zxonlik)larda 100 tadan 400 tagacha tinglovchilar, ta’lim oluvchilar qatnashgan.

O‘rta tipdagi madrasalarning vazi-falariga maktablar uchun mullalarni tayyorlash, masjid uchun din peshvolarini tayyorlash kirgan. Oliy tipdagi madrasalarning vazifalariga davlat idoralari, boshqaruv mahkamalariga qozilarni tayyorlash, shariat ulamolarini tayyorlash, musulmon qonunshunoslarini tushunadigan mutaxassislarni tayyorlash kirgan. Madrasalarga nafaqat diniy bilimlarga qiziquvchilarni, balki turli ziyoli tabaqalari, o‘qituvchilik, tabiblik kasbini egallashni xohlovchilarni ham o‘qitganlar. Buxoro madrasa-larida bemor mudarris va talabalar uchun alohida hujralar ajratilgan hamda ular o‘sha yerda davolangan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, madrasalarda faqatgina diniy asosdagi fanlarnigina o‘qitilmagan. Ayrim madrasalar alohida ixtisoslashganligi bois, ularda alohida fanlar tahsili yo‘lga qo‘yilgan. Xullas, yuqoridagi misollardan madrasa ta’lim tizimida dunyoviy fanlarning ham puxta o‘qitilganini ko‘rish mumkin.

Sho‘rolar davriga kelib, 1920-1930 yillarda «madaniy inqilobchilar» tomonidan madrasalarning ko‘pchiligi buzib tashlandi. Omon qolgan ayrim maktab va madrasalar birin-ketin yopila boshladi. Vaqf mulklari madrasalar tasarrufidan olinib, ularning faoliyatiga nuqta qo‘yildi. Ko‘plab madrasalar qamoqxona va omborxonalarga aylantirildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Amir Haydar va Shohmurod davrida mamlakatda ta’lim tizimi sohasida muhim islohotlar amalga oshirildi. Butun amirlikdagi maktablar faoliyati nazoratga olindi, tog’li hududlarda maktablar qurilib, u yerlarning aholisini savodli qilish birlamchi vazifa etib belgilandi. Madrasa ta’limida mudarrislar faoliyatiga alohida e’tibor qaratilib, diniy bilimi mukammal bo‘lgan shaxslargina bu lavozimga tayinlandi. Mang’it amirlari orasida Amir Haydarning ta’lim sohasida amalga oshirgan islohotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Buxoro madrasalari qadimdan o‘z nufuziga ega bo‘lib, talabalarning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa xalqimizning ming yillar davomida shakllangan an’analari, urf-odat, axloq-odob meyorlari, tarixiy milliy qadriyatlarini saqlab qolishga, talabalarni kamtar, xushmuo-malali, rostgo‘y, olijanob, sabr-toqatli, halol qilib tarbiyalashga yordam berdi. Diniy va dunyoviy fanlar uyg‘unlikda o‘qitilib, ma’rifatparvar olimlar, davlat arboblari yetishib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Асророва Л.Қ. Бухоро мадрасалари тарихидан (Ахмаджон ибн Исмоилхон мероси). Тошкент: Hilol-Nashr, 2016. – С. 56.

2. Ўзбекистон Миллий архиви .И -47-жамғарма , 1 -рўйхат ,333 а-йиғмажилд, 15 –варақ.
3. Джурабаев Д.Х .Система мусульманского образования в Бухарском ханстве в конце XVIII-начале XIX вв(.по материалам русских источников // .)История . Таърих .– С.210.
4. Анке фон Кюгельген .Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков .– С . 331.
5. Зорина Ю.П .Медресе в регионах дореволюционной России как профессио-нальные учебные заведения // .Историческая и социально-образовательная мысль. 3 № 2014. – С . 113 .
6. Записки о Бухарском ханстве(Отчёты П.И .Демезона и И.В .Виткевича .) – М :.Наука ,1983 .– С.46 .
7. Хушвактов Нодир Хаким угли .История образовательной системы в медресе Мирзо Улугбека/ .« Молодой учёный ». 14 (118). № Июль – 2016. – С.491 -492.
8. Сафаралиев Б.С .Народное образование как показатель социокультурной си-туации в истории Среднеазиатского общества .– С.98.
9. Муҳаммад Али Балжувоний .Тарихи Нофеий .– Б . 33 -34.
10. Анке фон Кюгельген .Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков .– С . 332 .
11. Носируддин .Туҳфат аз-зоирин .– Б .94 -95.
12. Айний С .Эсдаликлар / .Асарлар .V .– Б. 200 .

ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI ARAFASIDA QO‘QON XONLIGI VA BUXORO AMIRLIGI BOZORLARINING MODDIY VA MADANIY XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyev B
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasi bosqini arafasidagi bozorlarning moddiy holati va malum ma'noda madaniy holati haqida malumot va tahlillarni o’z ichiga olgan bo’lib, o’sha davrning iqtisodiy va madaniy holatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so’z: Chorsu, bozor, tim, ipak, ip, ip-gazlama, dalol, do’kon, foiz, tilla, xomashyo, vaqf, ulgurji.

Аннотация: Статья содержала информацию и анализ материального и, в некотором смысле, культурного состояния рынков накануне вторжения в царскую Россию, пытаясь раскрыть экономическое и культурное состояние того времени.

Ключевое слово: Чорсу, базар, Тим, шелк, пряжа, пряжа-газировка, Далол, магазин, процент, золото, сырье, фонд, оптом.

Annotation: The article contained information and analysis about the material State and, in some way, the cultural state of the markets on the eve of the invasion of Tsarist Russia, trying to reveal the economic and cultural situation of that time.

Keyword: Chorsu, market, time, silk, yarn, yarn-gauze, dalol, store, percentage, gold, raw materials, Foundation, wholesale.

Dolzarbligi: Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi boshqa qo‘shni davlatlar (Hindiston, Rossiya va Manjur imperiyalari, Xiva xonligi kabi) bilan ham savdo aloqalarini o‘rnatganbo‘lib, savdo-sotiqning markazi shahar markazidagi bozorlar bo‘lgan. Chunki bozorlar ham mahalliy aholi uchun ham boshqa hududdan kelgan savdogarlar uchun muhim edi. Har bir davlatda bo’lgani kabi Buxoro va Qo’qon xonliklarida bozorlar davlat iqtisodiy hayotining ajralmas bo’lagi bo‘lgan. Bozorlarning hamma vaqt iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillari yuksak bo'lgan shu boisdan bozorlarni o’rganish alohida izlanishlarni talab qiladi. XIX asrda ham bozorlar ilk o'rta asrlardagidek bo'lmasada ammo iqtisodiy omillari yuksak bo'lib borgan.

Metodlar va o’rganilganlik darajasi: Mavzu tarixshunoslik va manbashunoslik tahlillariga asoslanadi. Manbalarda, ayniqsa, ruslar bosqiniga qadar yetarlicha ma’lumotlarning yo‘qligi mavzuning sanasini Qo‘qon xonligining so‘nggi davrlari bilan cheklash zaruratini tug‘dirdi. Shunday bo’lsada mavjud adabiyotlarni ikki guruhга turkumlashtirish imkoniyati paydo bo‘ldi. Ulardan birinchi guruhga mahalliy tarixchilar asarlari, ikkinchi guruhga chet el tadqiqotlarini kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi guruhra T. Xudoyqulov,

B.Eshov T.Fayziyev va Sh.Vohidov kabi tadqiqotchilarnінг асарларини ва иккinchi guruhga A.Vambery Mir Izzatulloh va Yusuf Qilichaslan кабиларинng асарларини киритиш мумкин.

Tadqiqot natijalari: Qo‘qon xonligiga 1709-yilda Ming qabilasi asos solgan va 1876-yilgacha hukmronlik qilgan. Buxoro amirligida esa hokimiyat uch sulola vakllari tomonidan idora qilinan bo‘lib, so‘ngi sulola mang‘itlar 1924 yilda amirlik tugatilgunga qadar hokimiyatni qo‘lida ushlab turdi. Xonliklar o‘ratsidagi asosiy savdo aloqalari olib borilgan shaharlar Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Samarqand edi. Qo‘qon xonligi XIX asrda markazlashgan holda iqtisodiy o‘sishga erishdi va ichki savdoda tashkil etgan ishlab chiqarish markazlarida olingan mahsulotlarni eksport qila boshlagan.

Manbalar va ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko’rsatdiki, mamlakatda xon eng katta yirik muldor bo’lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, yer, suv, qo’riq yerlar, ko’lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to’ldirib turgan.[7] Shuning uchun ham Qo‘qon xonligida savdo tovarlarining xilma-xilligi yuqori. Xomashyo chetdan keltirilmasa ham, ustalar tomonidan qayta ishlangan minerallar muhim savdo buyumlari sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligida o‘ziga xos mahsulot xususiyatlariga ega bozor, bozor va yarmarkalar mavjud edi. Xonliklarda kichik savdo bozorlari va tor qatorli do'konlar sodda arxetekturaning maxsuli edi. Har qanday qoplama bilan qoplangan ushbu bozor rastalaridan tashqari bozorlarning ko‘cha va yon ko‘chalari ham gavjum bo‘lgan. Ertalabdan kechgacha shovqin-suron ichida chakana savdo davom etgan. Sayohatchilarning so‘zlariga ko‘ra, shom namozi vaqti bo‘lgan quyosh botishi bilan barcha savdo to‘xtab, bozor bo‘shab qolgan. Bozor nafaqat tovarlar sotib olinadigan va sotiladigan joy, balki hunarmandlarning aksariyati bozor ichida joylashgan o'ziga xos yirik ustaxona edi. Qo‘qon va Buxoro bozorlarida olib boriladigan savdo-sotiqda dallol muhim o‘rin tutgan va savdo hayotida muhim o‘rin egallagan bu odamlar barcha bozorlarda o‘z o‘rnini egallagan. Shunga qaramay, sayohatchilarning fikriga ko'ra, dallol har doim mijoz do'konga yaqinlashganda paydo bo'ladi va xaridor va do'kondor o'rtasidagi savdoni osonlashtirish uchun juda kichik foiz oladi. Ushbu shaxslar ba'zan savdogarlarga juda qo'pol munosabatda bo'lishlariga qaramay, bu qobiliyat uchun shaxslar ayniqsa hurmatga sazovor. Agar savdogar haridor taklif qilgan narxni qabul qilmasa, dallol o‘z e’tiroziga qaramay, tovarni savdogardan olib, xaridorga beradi, so‘ngra tovarning pulini o‘zi oladi va tovar narxini o‘z foizini chegirib, savdogarga beradi.[1] Turkiyalik tadqiqotchi Yusuf Qilichaslan tomonidan dalol hozirgi zamonaviy kasblardan bo’lmish Broker kaspiga o’xshaydi deb ta’rif keltiradi.

Bozorlarni Raislar boshqargan. Ular sotuvchilar haridorlarni aldamasligi tarozilarni tekshirib turish hamda shariat qonun-qoidalari, diniy marosimlar-ro’za, besh vaqt namoz, tahorat hayr ehson ishlarining aniq bajarilishi ustidan ham nazorat qilgan.[7] Katta bozorlarda bozor tizimi qo'llanilgan va mahsulotlar turlariga ko'ra tasniflangan. Ularning vazifalariga tijorat nizolari, bozor xavfsizligi va tozaligi kiradi.

Buxoro bozorlari mahsulot xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi. Kichik bozorlarda aralash mahsulotlar sotilsa, chorshanba kunlari Xoja Bahouddin Naqshband qabri yonida ot bozori ochilgan. Shuningdek, shaharda haftada uch kun (dushanba, seshanba, shanba) bozor ochilganligi ham aytiladi.[3] Buxorodagi savdo hayoti shaharda ko'plab bozorlar va yopiq bozorlarning tashkil etilishiga olib keldi. Manbalarga ko‘ra, XIX asr o‘rtalarida shaharda 5 ta yopiq bozor bo‘lgan. Bular, Chorsuyi Kalon (Katta bozor), Chorsuyi Zargar (tilla-kumush sotuvchilar joylashgan bozor), Chorsuyi Sarrof (oltin bozori), Chorsuyi Berinch (guruch bozori) va tuya egarlari tayyorlanadigan Tukumduzi. Bundan tashqari, Timi Adras nomi bilan mashhur bo'lgan bozorlar mavjud bo'lib, unda shoyi ro'mollar, ayollar poyabzali va boshqa turli xil narsalar sotilgan. Shaharda Timi Sefid (Oq bozor) nomi bilan mashhur bo‘lgan yana bir yopiq bozor mavjud bo‘lib, u yerda faqat rus va ingliz mollari sotiladi.[4] Umuman, Buxoro shahridagi savdo shu yirik bozorlar atrofida shakllangan va shaharning turli joylarida ko‘plab kichikroq bozorlar ochilgan.

Buxoro amirligining yana bir muhim savdo shahri Samarqanddir. Qo‘qon xonligidan Samarqand bozoriga ipak xomashyosi, shoyi gazlamalar, pilla va quritilgan mevalar olib kelingan. Chorshanba va yakshanba kunlari Samarqandda ipak pilla bozori tashkil etilib, Qo‘qon xonligidan olib kelingan pillalar katta e’tiborni tortdi. Ipak pilla bozorida kuniga yetti yuz, oyiga besh ming

tilla sotuvi amalga oshirildi. Bundan tashqari, O‘ratepa, Toshkent va Xo‘jandda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli jun ro‘mollar Samarqand bozorlarida eng ko‘p talab qilinadigan mahsulotlar qatoriga kirdi.[5]

Bozorlar orasida qul bozorlar ham mavjud bo’lgan, ularning yirikligi jihatdan Buxoro bozorlari nisbatan yirikroq bo’lgan. Buxoroning Qorako’l, Buxoro, Qarshi, Chorjo’y, Vardanze, Bobkent va G’ijduvon shaharlarida ham qul bozorlari bo’lgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, Buxoro amirligi xududida mavjud bo’lgan bozorlar orasida eng katta va gavjumi Buxoroda bo’lgan.[2]

Qo‘qon bozorlari o‘zining tovarlarga boyligi va narx-navoning boshqa shaharlarga nisbatan ancha arzonligi bilan ajralib turgan. Shaharning devorlar bilan o‘ralgan katta bozorlari mahalliy aholi va chetdan kelgan savdogorlar bilan doimo gavjum bo‘lgan. Tadqiqotchi Potanin XIX asrning 20-yillarida Qo‘qonda oltita bozor bo‘lganligini qayd etgan. Bozorlar yakshanba, chorshanba va payshanba kunlari ishlagan. Bu yerda qattiq nazorat o‘rnatilgan bo‘lib, xaridor haqqiga xiyonat qiluvchilar qattiq jazoga tortilganlar.[6] Tarixchi olim Sh.Vohidov tomonidan berilgan bu fikrlar bozorlarning umumiy muhitini qisqa qilib ochib berilgan bo’lib, Yusuf Qilichaslan o’z tadqiqot maqolasida bozorlarning muhitini kengroq yodashuv beradi. Misol uchun bozorni havfsizligi uchun Raislar tomonidan taynlangan qoravullar haqida ham eslatma berib, ularning maoshi uchun har bir do‘kondan oyiga 10 tiyindan yig‘ib berilgan. Qo'riqchilarning vazifalariga qo'riqlash, do'konlarning old qismini tozalash va changli kunlarda sug'orish kirishini takidlab o’tadi.

Toshkent Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligining savdo-sotiq sohasida ham muhim shahar bo‘lgan. Toshkent shahri markazidagi asosiy bozor “Jo‘ba yoki Jo‘va bozori” deb ataladi. Toshkent shahrida haftada uch marta chorshanba, payshanba va yakshanba kunlari yirik bozor tashkil etilib, xalqaro savdo amalga oshirildi. Toshkentga savdo qilish uchun Petropavlovsk, Troitsk, Semipalatinsk, Chuguchak, Kulcha, Namangan, Qo‘qon, Buxoro, Xo‘jand va O’ratepadan ko‘plab savdogarlar kelgan. Hatto Ingliz tovarlarini, ayniqsa Qo‘qon xonligining boshqa barcha shahar va qishloqlariga sotgan hind savdogarlari ham bu yerda katta qiziqish bildirgan. Toshkentning asosiy bozori 26 ta bozorga bo‘lingan. Bank bozori; Bu meva bozori bo'lib, 200 ga yaqin do'konlar mavjud va o'rtacha kunlik sotuvlar 50 dan 1000 tillagacha bo’lgan. Qozog'iston Turuch bozori; Chintz, mo'yna, palto, kamar, sharf va boshqalar. Bozorda 100 ta savdo rastalari mavjud bo'lib, har bir do'konning o'rtacha kunlik savdosi 200-300 tilla orasida. Kichik bozori; Bu 30 do'konga ega non bozori va o'rtacha kunlik sotuvlar 10-100 tilla orasida. Orqa bozor; bug'doy, guruch va boshqalar. Bozorda mahsulotlar sotiladigan 20 ta rasta mavjud bo'lib, kunlik o'rtacha 50-300 tilla sotiladi. Juma yakshanba, kunlari charm bozori bo'lib, 60 do'konga ega bo'lib, kuniga o'rtacha 150 dona sotiladi. Bu bozorlardagi do‘konlardan oyiga 2-5 so’mdan ijara haqi yig‘ilib, vaqflarga berilardi. Qo‘qon va Buxoro bozorlaridagi do‘konlarning aksariyati vaqf mulki bo‘lgan. Toshkent bozori Turkistonning barcha shaharlari bozorlari bilan umumiy ko‘rinishga ega edi. Boshqalardan farqi shundaki, bu erda hamma narsa kattaroq miqyosda. Toshkent bozorining uzunligi 400, eni esa 100 metrni tashkil etgan. Ulgurji ombor sifatida foydalaniladigan 16 ta karvon shiyponlari va 2400 ga yaqin do‘konlar mavjud. 1867 yilda Toshkentda jami 4548 do‘kon bo‘lgan.[1] Shu o’rinda takidlash joizki Yusuf Qilichaslan tomonidan bozorlarning moddiy tomoni bilan qanday nazorat qilishini ochib bergan bo’lsada ammo bozordagi aholining savdolashish madaniyati haqida ko’p so’z yuritmagan.

Sh. Vohidov esa o’z asarida Marg’ilon shahrida yashagan savdogarlar tariflangan “Tarixi Aziziy” asaridagi bir necha chumla bilan bozor madaniy munosabatlarini tariflagan. «Marg‘ilonda ma'rufu mashhur bo‘lgan tujjorlardan birinchi Ismoil Mahzum laqabi Karnay Mahzum. Ko‘p saxovatli, hurmatli kishi, masjidlar, madrasa va avqof (vaqf)lar qilgan. Qorixona va maktabxonalar bino qilgan. Katta bozordagi Xishtin madrasasini ham shu xudo rahmatli bino etib, èniga hammom solib unga vaqf qilgan. Ikkinchi Muhammadibrohimboy, uchunchi Mir Salimboy, to‘rtinchi Muhammadkarimbek, beshinchi eski marg‘ilonlik Hoji Azimjonboy, oltinchi Mullo Oxunjon boy hoji, yettinchi Boboyor Mirzo Salimboy so‘fi o‘g‘li, sakkizinchi Mullo Muhammadsharif Mirzo. Yana Marjonqizboy eski marg‘ilonlik, o‘g‘illari Mullo Musojon va Abdullojon. Qo‘qonda Olimjonboy, o‘g‘illari Solijonboy. Ular yaxshi hammaga nihoyatsiz maqbuliyat topgan, ko‘p ma'rufu mashhur bo‘lgan, sahovatpesha va fuqaro xalqiga muruvatli. Qirq-ellik ming so‘m puli

musulmonlarga sarf bo‘lsa go‘shai xotiriga kelmaydurgan, turfa saxiy va xushatvor, beva bechoralarga ko‘p zakot va ehson qiluvchi, ammo o‘zi ko‘p donishmandi purdon kishidur…[6] Deb bozorlarda faoliyat olib boradigan savdogarlarni ma’naviy holatini Qo’qon xonligi misolida tariflaydi. Bu keltirilgan misol orqali nafaqat Qo’qon xonligi balki O’rta Osiyo aholisining ma’naviy holatini ham aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda asosiy savdo-sotiq amalga oshirilgan Toshkent, Buxoro va Samarqand bozorlari mintaqaning savdo markazlariga aylandi. Buni quyidagilarda ko’rish mumkin: Birinchisi, eski tarixiy Ipak yo‘lidagi shaharlarga xorijlik savdogarlar tez-tez kelib turgan bo‘lsa, ikkinchisi, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligining turli davrlarda yetishtirilgan yoki ishlab chiqarilgan savdo tovarlari savdo rastalari uzluksizligini saqlab turadi. Mahalliy aholining kasbi va turmush tarzi savdo faoliyati orqali ham yaqqol namoyon bo'ldi. Har bir xalqning o’z savdo madaniyati mavjud bo’lib, O’zbek xalqining savdo madaniyati o’ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Adabiyotlar va manbalar.

1.Yusuf Kilichaslan “Hokand Hanlig’inin Buhara emirlig’i ile tijari munasebetleri” (1840-1876) Hacettepe Universitesi Turkiyat arashtirma Dergisi. 2024-yil guz. B-70-74.

2.T Fayziyev “Buxoro xonligida qul savdosi” <<O’zbekiston>> nashriyoti Toshkent-1970-yil. B-19.

3.Travels in Centrial Asia by Meer Izzut-ollah in the years 1812-1813. Forgain Departmen Press. (1872). B-58.

4.Vambery, A. (1868). Ocherki Sredniy Azii. Moskova: Tipografiya A. I. Momantova. Zapiski o Buharskom Hanstve (Otcheri P.I Demezonai I.V. Vitkevicha). Moskova: Izdatelstva Nauk. B-1893-y. b-58-168.

5.Saidkulov, T. S. Semerkand vo Vtoroy Polovine IXI Nachale XX Beka: Iz Sotsialno-Ekonomicheskoy i Politicheskoy Istorii Sredney Chasti Zeravshanskoy Doliny. Tashkent: Uzbekskoy SSR. 1970-yil. B-31.

6. Shodmon Vohidov “Qo’qon xonligi tarixi (xonlik tarixi –manbalarda) 2014-yil. B-34-40

7. B.J.Eshov, T.D. Xudoyqulov “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi” –Toshkent. “O‘zkitobsavdonashriyoti”NMIU -2023. B-50.

MOHIR ELCHI VA DIPLOMAT FLORIO BENEVENI KUNDALIGIDA BUXORO XONLIGINING TAVSIFI

Turayev Sh.R.
QarDU dotsenti.
Choriyev J.B.
Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada italyan Florio Benevenining O‘rta Osiyo bo‘ylab qilgan sayohati natijasida to‘plangan ma’lumotlari asosida yozilgan kundalik va manbalarda Buxoro xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi ma’lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: So‘nggi o‘rta asrlar davri, geografik hudud, Pyotr I, yevropalik elchilar, diplomat, relyatsiya, siyosiy kurashlar, buyuk shahar, dashtli yerlar, partizan otryadlari.

Аннотация

В данной статье анализируются сведения о политической, социально-экономической жизни Бухарского ханства, содержащиеся в дневниках и источниках, написанных на основе сведений, собранных во время путешествий итальянца Флорио Беневени по Средней Азии.

Ключевые слова: Позднее средневековье, географическое положение, Петр I, европейские послы, дипломат, реляция, политическая борьба, великий город, степные земли, партизанские отряды.

Annotation

This article analyzes information about the political, socio-economic life of the Bukhara Khanate in diaries and sources written based on information collected during the travels of the Italian Florio Beneveni through Central Asia.

Keywords: Late Middle Ages, geographical location, Peter I, European ambassadors, diplomat, report, political struggle, great city, steppe lands, partisan detachments.

O‘zbekistonnig tarixining so‘nggi o‘rta asrlar davri tarixini aks ettiruvchi manbalarda Buxoro xonligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, davlat boshqaruv tartiblari, aholining turmush tarzi va madaniyati, xonlikning siyosiy inqirozini sabablarini yorituvchi ma’lumotlar Yevropadan turli maqsadlarni ko‘zlab Markaziy Osiyo bo‘ylab “sayohat” qilgan savdogar, diplomatlar hamda elchilarning asarlarida qayd etilgan. O‘rta Osiyoning Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tarixini yorituvchi muhim ma’lumotlar yevropalik elchilar asarlarida uchrashi ular tomonidan bu hududlarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilganligini anglash mumkin. Har uchala xonliklarning geografik hududlarining tuzilishi, boyliklari, xazinasi, yerga egalik va mulkchilik shakllari xususidagi ma’lumotlar o‘rta asrlarning turli bosqichlarida yuborilgan elchiliklar tomonidan yaratilgan manbalar orqali Yevropa davlatlari xabardor edi. Buxoro xonligining XVIII asrdan keyingi tarixiga oid ma’lumotlar mahalliy tarixchilar asarlarida muayyan darajada yoritilgan bo‘lsada, mahalliy manba mualliflari e’tiboridan chetda qolgan ba’zi sabablar bilan yoritilmagan muhim ma’lumotlarning muayyan darajada aynan Yevropa mualliflari manbalarida qayd etib o‘tilgani ularning qimmatini oshiradi.

Buxoro xonligining so‘nggi o‘rta asrlar davridagi siyosiy tarixi, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda Rossiya imperiyasi orqali kelgan yevropalik elchilarning qalamiga mansub asarlardagi ma’lumotlar alohida o‘rin egallaydi. Ulardan biri Florio Beneveni qaydlari bo‘lib Buxoro xonligi tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Rossiya elchilik mahkamasining mas’ul xodimi, asli italyan Florio Beneveni orqali Buxoro xoniga sovg‘a sifatida podshoh yorlig‘i bilan birga qimmatbaho buyumlar yuborilgan. F.Beneveniga 1718 yil 13 iyul kuni Pyotr I tarafidan tasdiqlangan, uning Buxorodagi faoliyatiga taalluqli 7 banddan iborat yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilgan qo‘llanma[1] da ko‘plab vazifalar yuklatilgan edi.

Elchiga Buxoro davlati haqida muhim birlamchi ma’lumotlarni to‘plash, Buxoroga tegishli barcha yerlar, bandargohlarning joylashuv o‘rni, qal’alarning himoyasi, shaharlarining tuzilishi, uning holati, xonlikdagi mavqeyini diqqat bilan o‘rganishdan iborat vazifa yuklanadi. Imkon topib xonning qabulida kirish, uni Rossiyaga tobe’ bo‘lish masalasida munosabatini bilish, Buxoro xonligining qal’alarini ko‘zdan kechirish, qal’alarining qo‘riqlanish holatini bilib olish, qo‘shinini o‘rganish: xonlik qo‘shinlarining umumiy ahvoli, qancha otliq hamda piyoda askarlaridan iborat harbiy qismga egaligini aniqlash, ularning soni, qurollari, qo‘shinida zambarakdan foydalanish, yoki foydalanmasliklari haqida aniq ma’lumotga ega bo‘lish topshirildi. Asosiysi Buxoro hukmdorining Eron va Xiva bilan munosabatini ijobiy va salbiy tomonlari nimada ekanini ham aniqlashi lozim edi[2]. Yo‘llar, tabiiy boyliklarini o‘rganish borasida ham ber nechta ko‘rsatmalar berilgan bo‘lib: suv va quruqlik orqali sharq tomonga boradigan yo‘llarni aniqlash, xonlik bozorlarida rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini surishtish, xonni Rossiya bilan harbiy ittifoq tuzishga ko‘ndirish, qo‘shinida rus askarlaridan foylalanishni taklif qilish, oltin konlarini ham o‘rganish va xaritaga tushrib kelish.

Bu vazifalarni astoydil bajarishga intilgan Florio Beneveni xonlikda uch yarim yil davomida qolib ketishiga to‘g‘ri keldi. Beneveni o‘z hamrohlari bilan xonlik xususida boy materiallar to‘plab, mahfiy ravishda ochiq xat va shifrlangan yozuvdan foydalanib matn shaklida Sankt-Piterburgdagi hukumat vakillariga yuborib o‘z faoliyatlari haqida xabardor qilib turdilar.

Florio Beneveni qalamiga mansub bu yozuvlar ya’ni - relyatsiyalari - Buxoro xonligi tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega ma’lumotlarni o‘zida jamlagan. Florio Beneveni tomonidan yozilgan xabarlarning birida siyosiy ta’sirga ega kuchlar o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashayotganligi nufuzga ega ayrim hukmron tabaqa vakillarini Buxoro xonligini tashlab chiqib ketayotganligi, ammo tashqaridan xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini izdan chiqishiga kuchli ta’sir etayotganligini: “Ko‘r-otaliq” mansabidagi shaxs xususida quyidagicha tasvirlaydi: *“...u mamlakatning dashtli yerlaridagi o‘zbeklarning boshqa partizan otryadlari bilan birlashib, yon atrof hududlarni hatto (Buxoro shahrining) o‘zida ham katta talonchilik ishlarini amalga oshirdi”*. Benevening qayd qilgan ma’lumotda, nomi keltirib o‘tilgan ushbu shaxs qilingan talonchilikning oqibatlarini tasvirlab: *“hech bir qishloqni butunligicha qoldirmadi, hamma narsani talab olib ketdi. Bundan tashqari, shahar oziq-ovqat va boshqa zaxiralardan shunday mahrum bo‘ldiki, oddiy xalq o‘z bolalarini sotishga va shu yo‘l bilan kun ko‘rishga majbur bo‘ldi, ayrimlar esa ochlikdan o‘ldilar”* [4], degan so‘zlarda bayon etadi.

Mamlakatda vujudga kelgan siyosiy kurashlar, ichki ziddiyatlar natijasidagi tartibsizlik hamda notinchlik xonlikning iqtisodiy hayotini o‘girlashtirib yuborgan. Dehqonlar, hunarmand, chorvador va savdogarlar daromadining keskin kamayishi hukmron tabaqalarning ham ahvolini yomonlashuviga olib kelgan. Bu vaziyatni sichkovlik bilan kuzatgan Beneveni *“Xonning o‘zi tuyalari, otlari va qoramolining yarmidan ko‘pini yo‘qotdi va oziq-ovqat va yem-xashakka ehtiyoj sezib, ularni pulga sotib olishga majbur bo‘ldi”* [5]- deb yozadi.

Florio Benevenining o‘z hukumatiga yuborgan ma’lumotnomasida Buxoro shahri quyidagicha tavsif etilgan edi: *“Poytaxt Buxoro - buyuk shahar. Uning yonidagi devor loy va xom g‘ishtlardan qurilgani uchun ham uzoq vaqt xizmat qilmasdan ko‘pincha devorlar qulab tushadi. Shaharda loydan qurilgan 15 ming hovli-joy mavjud. Katta hovlilar kamdan - kam uchraydi, lekin hamma kichik hovlilar taxminan bir xil shakldagi turarjoy (loydan va g‘ishtdan qurilgan kulbalardan) iborat... (Qal’asi) yarim vayron bo‘lgan handaq bilan o‘ralgan. Shahar markazida pishiq g‘ishtdan qurilgan baland minorali xon saroyi va madrasalar joylashgan”*[6]. Bu ma’lumotdan ko‘rinadiki O‘rta Osiyo me’morchiligida X asrdan boshlab pishgan g‘ishtdan foydalanilgan bo‘lsada, Buxoro xonligining iqtisodiy hayoti, aholining ijtimoiy hayoti quriladigan uy-joylarning asosi xom g‘isht, paxsa yoki pishiq g‘ishtdan foydalanishga bog‘liq bo‘lgan.

Xonlikdagi ichki ahvol haqida esa quyidagicha ma’lumot qoldiradi: “*...Beklarning o‘zboshimchaligi tufayli butun mamlakat isyon va tug‘yonlar iskanjasida qolgan”*[7]. Keltirilgan bu ma’lumotda ham asos bor. Zero, Abulfayzxon davrida feodal tarqoqlik nihoyatda kuchayib, markaziy hokimiyatning ta’siri tushib ketgan edi.

XVIII asrning boshlariga kelib Buxoro xonligidagi siyosiy ahvolning o‘ta og‘irligi xususida F.Beneveni tayyorlab 1723 yil 4 mart kuni jo‘natgan axborotida *“...sobiq (Buxoro) otalig‘i Ibrohimbiy Samarqand ustiga yurdi va uni egalladi. Shundan keyin boshqalar bilan qo‘shilib, xon avlodidan bo‘lgan Sherg‘ozixonni Rajabxon nomi bilan (Samarqand) taxtiga o‘tqazdi va uni o‘ziga kuyov qilib oldi. O‘zi esa otaliq lavozimini egalladi”*[8] deb ta’kidlab o‘tgan. Ushbu ma’lumotdan anglash mumkinki, Abulfayzxon hukmronligi davrida boshboshdoqlik nihoyatda kuchayib, mahalliy hokimlarning markaziy hokimiyatga isyonlari oqibatida davlat parokandalikka yuz tutgan.

Adabiyotlar

1. Sattorov F. 1717 yil Florio Beneveni elchiligi, Florio Benevenining «relyatsiyalari» - Buxoro xonligiga oid manbalar//Лучшие интеллектуальные исследования. web-journal.ru. часть 2, том 1. 2023.– С. 97.

2. Бердиев А. “XVIII-XIX асрларда Ўрта Осиё хонликларнинг ташқи дипломатик алоқалари” Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.– Қарши. 2023 йил.–Б.135.

3. Флорио Беневени. Письма, Реляции, Журналы.Краткой журнал посланника секретаря Ориентальной экспедиции Флория Беневени, в Бухарах бывшего. М.: 1978. №3.–С. 40.

5. Посланник Петра I на Востоке. Посолство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М., 1986.–С. 60.

6. Флорио Беневени. Письма, Реляции, Журналы. Краткой журнал посланника секретаря Ориентальной экспедиции Флория Беневени, в Бухарах бывшего.–М., 1978. №3.–С. 34; Зокиров Б. XVII-XVIII асрлар рус сайёҳлари асарларида Тошкент ва Туркистон шаҳарларининг тарихий топонимиясига оид айрим мулоҳазалар. Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. Республика XII илмий-амалий конференция материаллари.–Т., 2020. 12-сон, 1-қисм.– Б. 341-343.

7. Посланник Петра I на Востоке…– С. 60.

8. Гулямов Х. О посольстве Флорио Беневени в Бухару//Общественные науки в Узбекистане, 1978. № 8.

4-SHO‘BA

ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVETLAR DAVRIDAIJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT.

ПЕРЕСЕЛЕНЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНЕ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX СТОЛЕТИЯ И НАЧАЛА XX СТОЛЕТИЯ)

Гаффаров Ш.С.
Самаркандский государственный университет имени
Шарофа Рашидова, Самарканд, Узбекистан

Резюме. В данной статье исследуется русская колонизация Туркестана, начавшаяся сразу после завоевания этой территории Россией. Раскрываются стратегические цели царизма и историография колониальная переселенческой политики в связи с изучением места переселенческой политики, реализуемой Российской империей с целью превратить Туркестан в свою колонию. Освещены вопросы политической, экономической, хозяйственной и духовно-просветительской сферы жизни народонаселения Туркестанского края. Захватническая внешнеполитическая стратегия царизма показана во всех её проявлениях, логику имперской экспансии преобразования в экономике, превращение Туркестана в рынок сбыта и основной источник сырья для развивающейся промышленности России. А также создание разветвленной сети идеологического контроля, притеснение традиционной системы образования, официальную поддержку христианского миссионерства, использование иных великодержавных акций, стратегические цели царизма по духовному подчинению широких масс Туркестана. Выявлено, что переселение русских крестьян в Туркестанский край посредством создания преимущественно русских поселений обеспечить военно-политическое господство России в регионе и при этом имело свои локальные особенности. Исследуются взаимоотношения русских поселенцев с местным населением, причины возникновения конфликтных ситуаций. На основе анализа проблем, возникших между коренным населением региона и русскими переселенцами, делается вывод о несовершенстве переселенческой политики российской администрации, заключающейся в отсутствии нормативно-правовой базы и четкой план переселения. Выводы автора, проиллюстрированы в конкретных числах и датах.

Abstract. This article examines the Russian colonization of Turkestan, which began immediately after the conquest of this territory by Russia. The strategic goals of tsarism and the historiography of colonial resettlement policy are revealed in connection with the study of the place of resettlement policy implemented by the Russian Empire with the aim of turning Turkestan into its colony. Issues of the political, economic, economic and spiritual-educational spheres of life of the population of the Turkestan region are covered. The aggressive foreign policy strategy of tsarism is shown in all its manifestations, the logic of imperial expansion, transformation in the economy, the transformation of Turkestan into a sales market and the main source of raw materials for the developing industry of Russia. As well as the creation of an extensive network of ideological control, oppression of the traditional education system, official support for Christian missionary work, the use of other great power actions, the strategic goals of tsarism to spiritually subjugate the broad masses of Turkestan. It was revealed that the resettlement of Russian peasants to the Turkestan region through the creation of predominantly Russian settlements ensured the military-political dominance of Russia in the region and at the same time had its own local characteristics. The relationship between Russian settlers and the local population and the causes of conflict situations are explored. Based on an analysis of the problems that arose between the indigenous population of the region and Russian settlers, a conclusion is made about the imperfection of the resettlement policy of the Russian administration, which consists in the absence of a regulatory framework and a clear resettlement plan. The author's conclusions are illustrated in specific numbers and dates.

Ключевые слова: *царизм, переселенческая политика, колониальная политика,Туркестан, Российская империя, стратегические цели, историография*

Keywords: *tsarism, resettlement policy, colonial policy, Turkestan, Russian Empire, strategic goals, historiography*

Сегодня очевидно, что до обретения Узбекистаном независимости именно данный период оказался предельно искажен. В официальной исторической науке колониального прошлого господствовала концепция об исключительной «цивилизаторской миссии» державной России, суть которой сводилась к тому, что насильственное удержание нашего края в составе царской, а затем советской империи имело долгосрочные позитивные

последствия, окупавшие все издержки колонизации. Они виделись в ускоренном экономическом развитии, прорыве центральноазиатских народов от «вековой отсталости» к «вершинам исторического прогресса». Инерция подобных концептуальных подходов прослеживается и в части современной зарубежной историографии, к примеру, российской. Вследствие этого актуальным запросом времени выступает необходимость воссоздания объективной картины подневольной жизни колониального Туркестана. Важно с новых методологических позиций раскрыть содержательную суть всей совокупности неоднозначных и внутренне противоречивых изменений, вызванных колонизацией края, четко определить соотношение объективно значимых перемен с негативными последствиями колониального господства.

И все же на этом участке исторической науки сохранилось еще немало вопросов, оставшихся все зоны современного исследования. В их числе сюжеты, связанные с переселенческой политикой царизма. Данная проблема до последнего времени еще не выступала в качестве самостоятельного объекта системного научного познания. Общественная же потребность в ее изучении чрезвычайно велика. Она определяется прежде всего тем, что переселенческая политика царизма составляла сердцевину стратегии колонизации среднеазиатского региона.

Известно, что узбекский народ, как и другие центральноазиатские народы, в пространстве колониального времени последовательно подвергался обезличиванию, национальной дискриминации, отчуждению от своего тысячелетнего духовного наследия. Одним из звеньев этого стратегического курса выступала политика переселения русскоязычного населения, идеология которой, кроме решения проблемы избыточных людских ресурсов метрополии, была направлена на все более тесное привязывание региона к империи путем искусственного наращивания многонациональности состава населения края, целенаправленного «размывания» его тюрко-этнической однородности и сближения в этнокультурном отношении с Россией. Как, к примеру, писал видный царский чиновник, российский сенатор К.К. Пален: «...русского населения в Туркестане должно быть как можно больше для того, чтобы обеспечить господство империи в крае и навечно закрепить его за Россией».

Многочисленные архивные материалы свидетельствуют о том, что царизм, учитывая неизбежную отрицательную реакцию Англии и ряда западноевропейских государств на продвижение России в глубь Центральной Азии, особенно в сторону Бухары, Хивы и границ Афганистана, тщательно скрывал свои военно-политические устремления. Так, заявляя о намерении ограничиться установлением своей власти только на пространстве от Семипалатинска до Ташкента, царизм в 1865 г. образовал Туркестанскую область и включил ее в состав Оренбургского генерал-губернаторства. Но одновременно шла подготовка к завоеванию остальной территории среднеазиатских ханств. К 1867 г. к Туркестанской области была «присоединена» значительная территория, входившая ранее в состав Бухарского эмирата, и в связи с этим было создано Туркестанское генерал-губернаторство, непосредственно подчиненное центральному правительству. Краевая администрация, возглавляемая К.П. Кауфманом, в соответствии со стратегическими планами царизма продолжило завоевательную политику. В 1876 г. было объявлено о «присоединении» Кокандского ханства к России и образовании на его месте Ферганской области. Бухарский эмират и Хивинское ханство оказались превращенными в вассальные Российской империи государства. Одновременно осуществлялась аннексия территорий казахов Среднего и Малого жузов, на базе которых в 1882 г. было образовано Степное генерал-губернаторство.

Правящие верхи России, хорошо знавшие о военно-стратегической значимости и ресурсных богатствах Центральной Азии, стремились основательно утвердить в регионе колониальное господство. А для этого, помимо сильной армии и разветвленной военно-административной системы управления важно было создать надежную опору в лице русского населения. По мнению вдохновителей и руководителей колонизации, это особенно необходимо было осуществить в Туркестане, коренное население которого, составлявшее около 5 млн. человек, явно враждебно относилось к новой власти.

Достаточно откровенно высказался о стратегических целях политики переселения части российского населения в край граф К.К. Пален, ревизовавший Туркестан в 1908 году. Он, в частности, писал: «Если не считать мотивов политического характера, имевших значение для завоевания Туркестана, этот край с первых же дней присоединения его к России представлял для русского правительства двоякий интерес: 1) с точки зрения финансовой политики как источник государственных доходов и как новый рынок для продуктов внутреннего производства и 2) с точки зрения колониальной политики как новая область для перемещения избыточного населения из губерний».

Стоит отметить, что тезис об «избыточности аграрного населения», оправдывающий колонизацию среднеазиатского региона, носил надуманный характер. Ведь почти три столетия у царской империи оставались малонаселенными огромные просторы Сибири и Дальнего Востока, нуждающиеся в хозяйственном освоении. Другой вопрос, что оно требовало колоссальных финансовых средств. Туркестан с его благоприятным климатом и развитой хозяйственной инфраструктурой выглядел в этом отношении гораздо предпочтительнее.

Именно на данном этапе сложился механизм интенсивного стимулирования имперской администрацией возрастающего увеличения потока переселенцев из метрополии, призванных, во-первых, содействовать укреплению колониального господства России в крае, а во-вторых, обеспечивать безопасность тыла российских войск и предупреждать волнения среди коренного населения. За два с лишним года существования Туркестанской области колониальные власти создали откровенно великодержавную военно-административную систему управления, а также довольно разветвленную сеть русских поселений и добились динамичного притока российских переселенцев, оседавших преимущественно в городах области.

Преобразование Туркестанской области в одноименное генерал-губернаторство, подчинение его Военному министерству и предоставление фон Кауфману прав царского наместника в крае ознаменовали начало второго этапа переселенческого движения из метрополии в Сырдарьинскую и Семиреченскую области.

Этот этап, охвативший 1867-1881 годы, отличался существенным расширением территориального простора для переселенцев, так как за счет вновь завоеванных районов были созданы Зарафшанский округ (1868 г.), Амударьинский отдел (1873 г.), Ферганская область (1876 г.). В последующем в целях казачьей колонизации и масштабного заселения русским населением туркменских территорий царизм передал образованную в 1881 г. Закаспийскую область в ведение Кавказского наместничества, в составе которого она оставалась до 1898 г. Но еще до этого, в 1873 г., правительство империи согласилось с предложением Туркестанского генерал-губернатора о первоочередном заселении русскими переселенцами территорий по линиям: 1) от Оренбурга до Ташкента и 2) от Ташкента через Чимкент, Аулие-Ата и Верный до Семипалатинска.

Последним этапом в переселенческой политике и практике царского самодержавия в Туркестане явились, 1897-1917 годы. Этот этап, как показывают материалы исследования, стал самым тяжелым для коренного населения не только Туркестанского края, но и Бухарского эмирата, Хивинского ханства, значительная часть территорий которых отторгалась колониальной администрацией для заселения переселенцами из метрополии, а с 1914 – и для размещения иностранных военнопленных.

Данному этапу были присущи стремительное увеличение численности переселенцев христианского вероисповедания, усиление притеснения местного населения, которое инициировалось как самими переселенцами, так и колониальными властями, а также было узаконено имперскими указами и постановлениями российского правительства. Среди этих документов можно назвать принятые Сенатом 10 июля 1903 г. «Правила о добровольном переселении сельских обывателей и мещан на казенные земли в области Сырдарьинскую, Ферганскую и Самаркандскую», Закон от 1910 г. «Об изъятии из пользования кочевников Туркестана излишних для них земель в целях обращения их под переселенческие участки и другие государственные надобности».

В геостратегическом плане, особенно в свете англо-русского соперничества, царское самодержавие предусматривало дальнейшую колониальную экспансию и укрепление имперских позиций в Центральной Азии и на Кавказе. В обеспечении данной задачи ответственная роль отводилась переселенческой политике. Свидетельством тому является активное переселение военизированного казачества, а также преимущественное заселение российских переселенцев в приграничных с Афганистаном, Турцией, Китаем (Восточный Туркестан), Северным Ираном районах. Показательно и другое. При наличии крупной регулярной армии вооружалось и почти все переселенческое русское население, что служило военно-политическому господству Российской империи. Однако для осуществления экспансионистских замыслов не было достаточных возможностей. Поэтому акцент в переселенческой политике все больше смещался в сторону использования переселенческого движения в целях колонизации захваченных территорий, в том числе Туркестана.

Материалы исследования отчетливо показывает, что уже на первом этапе колонизации Туркестана переселенческая политика царизма носила откровенно великодержавный характер и была подчинена не только военно-политическим, но и экономическим интересам метрополии. В связи с чем стала осуществляться масштабная конфискация земель коренного населения и объявление их собственностью российского государства. Эти акции способствовали созданию мощного земельного фонда для переселенцев из центральных районов метрополии и чиновников колониальных властей, которые наряду с военными подразделениями должны были стать прочным фундаментом колониального режима в крае.

Колониалистская сущность переселенческой политики проявлялась и в том, что устройство русских переселенцев осуществлялось, как правило, за счет социально-экономического притеснения коренных народов. Имперская практика социальной дискриминации местного населения находила идеологическое и правовое обеспечение в многочисленных указах, законах и постановлениях царского правительства, посвященных переселенческому вопросу.

Русская администрация стремилась с первых шагов переселенческой колонизации системно размещать переселенцев по всем областям завоеванного края. В связи с чем, особенно на начальном этапе, для российских переселенцев создавались льготные условия. Так, в 60-х – 70-х годах XIX в., до принятия первых официальных правил, регламентирующих порядок переселения и размещения крестьян и других категорий переселенцев, им предоставлялось от 7 до 10 десятин орошаемой земли. А в некоторых местностях Сырдарьинской и Семиреченской областей – и того больше: по 7-8 десятин на мужскую душу. И это при том, что в расчете на семью местного сельского населения орошаемой земли приходилось всего от 0,4 до 0,7 десятины. Кроме того, русские сельские переселенцы на 15 лет освобождались от налогов, денежных податей, а мужчины – от воинской службы. Правда, поскольку в ряде районов, например, в Ферганской и Самаркандской областях, ощущалось острое малоземелье и конфискация земель у коренного населения вызывала особенно мощное сопротивление, русским крестьянам в них предоставлялись меньшие земельные участки. Но зато они получали ссуды для дополнительной покупки земли.

Власти империи проявляли заинтересованность в том, чтобы русские в Туркестане в политическом, гражданском и хозяйственном отношении стояли выше коренного населения. И действительно, как указывалось в отчете К.П. Кауфмана, «... среди русских оседлостей здесь на первом плане выступают в настоящее время (отчет написан весной 1881 г. – *Ш.Г.*) не одни мелкие городки, населенные наполовину татарами (имеется в виду коренное население – *Ш.Г.*), и не одни редкие казачьи станицы с их сибирским полубродячим населением, а зажиточно на степном приволье благодатного края разрастающиеся крестьянские деревни и общины».

В последующем царское правительство издавало все новые правовые акты, регулирующие переселенческие процессы. В их числе «Правила переселения» от 12 июня 1886 г., Закон от 13 июля 1889 г., а также Закон принятый 10 июня 1903 г., который был специально нацелен на заселение русскими основных земледельческих и экономически богатых

областей края. Он назывался «Правила о добровольном переселении сельских обывателей и мещан на казенные земли в области Сырдарьинскую, Ферганскую и Самаркандскую».

Опираясь на эти документы, царское правительство и краевая колониальная администрация, несмотря на непрекращающееся сопротивление коренного населения (холерный бунт 1892 г. в Ташкенте, Андижанское восстание 1898 г. и другие акции национально-освободительного движения), целенаправленно проводили линию на динамичное увеличение численности российских переселенцев и использования их в качестве одного из инструментов максимальной эксплуатации природных и людских ресурсов среднеазиатского региона.

Так, к 1900 г. количество российского населения, прибывшего в Закаспийскую и Самаркандскую области после прокладки железной дороги, превысило 40 тыс. человек. Но особенно заметно возрастало число русских переселенцев и их поселков в Ферганской и Сырдарьинской областях. Например, к началу XX в. в Сырдарьинской области возникло 48 переселенческих поселков. В Ферганском регионе в течение 1882-1900 гг. было образовано более 20 таких поселений. Причем, наряду с заселением сельской местности, значительная часть переселенцев осела в городах, вблизи нефтепромыслов, угольных рудников и т.д. В последующие 15 лет количество переселенческих сел составило в Ферганской области свыше 60, в Самаркандской – 14, а в Сырдарьинской – 147.

Потребность в расширении переселенческого потока обуславливалась также необходимостью экономического освоения подневольного края. Приоритетное значение в этом отношении придавалось регионам возделывания хлопчатника и богатых минеральным сырьем. Вследствие чего царская администрация стала прибегать с начала XX в. к методам дифференцированного заселения, стимулируя прежде всего массовое переселение российских мигрантов в Сырдарьинскую, Самаркандскую и Ферганскую области.

Чтобы придать целенаправленный характер данной акции, императором были утверждены 10 июня 1903 г. «Правила о добровольном переселении сельских обывателей и мещан на казенные земли в области Сырдарьинскую, Ферганскую и Самаркандскую». Правда, в отличие от прежней практики, учитывая явную недостаточность земель в этих густонаселенных районах, предусматривалось предоставление орошаемой земли здесь не свыше 3 дес. намужскую душу в переселенческой семье. В то же время продолжалось переселение русских крестьян в Закаспийскую, Семиреченскую области, на контролируемые российскими властями территории Бухарского эмирата, Хивинского ханства.

В заключении доклада подведены основные итоги исследования, сделаны обобщающие выводы по изучаемой проблеме. Они сводятся к следующему.

1. Учитывая тюрко-этническое единство коренных народов Средней Азии, обладающих глубокими историческими корнями, высоким уровнем социальной организации, объединяющую роль ислама, а также богатые природные ресурсы края, царизм еще до завоевания Туркестана рассматривал фактор переселения в новую колонию значительного по численности и политически благонадежного российского населения в качестве важного условия утверждения здесь имперского господства России. В соответствии в чем царское самодержавие придавало огромное значение созданию в ходе колонизации Туркестана широкой сети полувоенных казачьих поселений, военных гарнизонов и поселков, преимущественно заселенных русскими крестьянами, торговцами, предпринимателями и т.д.

2. Стратегическим целям системной колонизации края, усилению позиций метрополии в Туркестане служила переселенческая политика царского самодержавия.

Переселенческий процесс протекал в разных формах и хронологически распадался на ряд этапов. В ходе эволюции, инспирированного властями переселенческого движения, смещались отдельные идеологические акценты в практической деятельности по его развертыванию. Неоднозначными были и долгосрочные последствия интенсивного заселения Туркестана российскими переселенцами. Однако базовые парадигмы стратегии и философии переселенческой политики царизма в принципе оставались неизменными. Они определяли создание из многочисленной армии переселенцев прочной опоры колониального строя, использование массового переселенческого потока в целях системной эксплуатации

природных богатств и сырьевых ресурсов завоеванного региона, обеспечение масштабных задач по воздвижению «русского Туркестана».

3. Колонизация Туркестана, переплетаясь с военно-административной системой управления и последовательно расширяющимся переселенческим движением из метрополии, оказала заметное воздействие на характер изменений в экономике края и социальном положении местного населения.

В логике имперской экспансии преобразования в экономике были нацелены на превращение Туркестана в рынок сбыта и основной источник сырья для развивающейся промышленности России. В сельском хозяйстве внедрялась губительная хлопковая монокультура, вызывавшая опасное сокращение посевов продовольственных культур и установление зерновой зависимости от метрополии. Резко уменьшались масштабы традиционного ремесленного производства как в городе, так и на селе, особенно после прокладки железных дорог. Растущая конкуренция со стороны более дешевых промышленных товаров, покровительственная политика царизма российским предпринимателям определили вытеснение многих видов местной ремесленной продукции, тенденцию ослабления национальных промыслов, исконно ориентированных на удовлетворение повседневных нужд коренного населения.

Материалы исследования свидетельствуют, что по ряду направлений русификаторской политики в духовной сфере колониальная администрация смогла частично решить поставленные задачи. Но в целом, несмотря на создание разветвленной сети идеологического контроля, притеснение традиционной системы образования, официальную поддержку христианского миссионерства, а также использование иных великодержавных акций, претворить стратегические цели царизма по духовному подчинению широких масс Туркестана не удалось. В силу прочности национального менталитета, твердой приверженности коренных народов этическим и вековым духовно-нравственным ценностям местное население активно сопротивлялось колониальным устремлениям царского самодержавия. В частности, оно всемерно поддерживало классическое мусульманское образование. В результате количество традиционных мактабов не только не сократилось, но и существенно возросло.

Литература

1. Кауфман К.П. Проект всеподданнейшего отчета генерал-адъютанта К.П.Кауфмана 1-го по гражданскому управлению и устройству областях Туркестанского-генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 – 25 марта 1881 г.- Спб., 1885. - С. 186.
2. Пален К.К. Приложение к отчету ревизии Туркестанского края. Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана. Ч. 1, отд. 4. – СПб., 1911. – С. 408, 504.
3. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. – СПб., 1867.
4. Полное собрание законов Российской империи. Собр. 3-е, Т. XXIII. – СПб., 1905. – С. 742-743.
5. Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане. – М., 1991. – С. 30.
6. ЦГА РУз. Ф. И.-16, оп. 1, д. 711, лл. 1-2 об.
7. Закон Правительствующего Сената Российской империи от 10 июля 1903 года. – СПб., 1903.
8. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане. – Т., 1997. – С. 117.
9. Там же, л. 19 (на немцев из России и мусульманских беженцев из Восточного Туркестана никакие льготы не распространялись).
10. Государственный архив Ферганского вилоята. Ф. 276, оп. 1, д. 131, л. 19-20.
11. ЦГА РУз, ф. И-1, оп. 11, д. 703, л. 161-163.
12. ЦГА РУз, ф. И-18, оп. 2, д. 118, л. 114.

ISMOILBEK G'ASPIRALI VA MAHMUDXO'JA BEHBUDIY: MASLAKDOSHLIK HAMDA MAQSAD MUSHTARAKLIGI.

Hayitov Sh.A.
BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ismoilbek G'aspirali va Mahmudxo'ja Behbudiy o'rtasidagi fikriy va siyosiy maslakdoshlik, ularning jadidchilik harakati doirasidagi hamkorligi, o'zaro ta'siri va ma'rifiy faoliyati haqida maqolaga qiziqish bildirilgani aytiladi. Ularning zamonaviy ta'lim, matbuot, til islohoti va musulmon jamiyatlarini uyg'otishga qaratilgan sa'y-harakatlari jadidchilik harakatining asosiy yo'nalishlari sifatida tilga olinadi.

Kalit so'zlari: Ismoilbek G'aspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, jadidchilik harakati, maslakdoshlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari, turkiston jadidchiligi, islohotlar (ta'lim, madaniyat, jamiyat), yangi usul maktablari, jadid matbuoti, til va imlo islohoti, jadid

Annotation: This article highlights the intellectual and political alignment between Ismail Bey Gasprinski and Mahmudkhuja Behbudi, their cooperation within the framework of the Jadid movement, their mutual influence, and educational activities. It emphasizes the significance of their efforts in modern education, press, language reform, and awakening of Muslim societies, which are presented as the main directions of the Jadid movement.

Keywords: Ismail Bey Gasprinski, Mahmudkhuja Behbudi, Jadid movement, ideological alignment, enlightenment ideas, Turkestan Jadidism, reforms (education, culture, society), new method schools, Jadid press, language and orthographic reform, Jadid school, awakening movement, 19th–20th century Muslim intellectuals.

Аннотация: В статье рассматриваются идейное и политическое единство Исмаил Гаспринского и Махмудходжи Бехбуди, их сотрудничество в рамках джадидистского движения, взаимное влияние и просветительская деятельность. Особое внимание уделяется их усилиям в сфере современного образования, печати, языковой реформы и пробуждения мусульманского общества, которые представлены как основные направления джадидистского движения.

Ключевые слова: Исмаил Гаспринский, Махмудходжа Бехбуди, джадидистское движение, идейное единство, идеи просвещения, туркестанский джадидизм, реформы (образование, культура, общество), школы нового метода, джадидистская пресса, языковая и орфографическая реформа, джадидистская школа, движение пробуждения, мусульманская интеллигенция XIX–XX веков.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati tarixida ikki buyuk siymo: Ismoilbek G'aspirali (1851-1914) va Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) faoliyati, ayniqsa, juda katta mavqe' va ahamiyatga molikdir. Ismoilbek G'aspirali 63 yil, Mahmudxo'ja Behbudiy boryo'g'i 44 yil yashadi. Bu tarixiy nomlari abadiyotga daxldor isonlar o'z hayotlari davomida Turkiston xalqlari ozodlik va tengligi yo'lida ma'rifatparvar, taraqqiyparvar sifatida fidoyilarga harakat qildilar.

Ular xayot yo'llari o'rganilar ekan, o'zaro maslakdoshlik va maqsad-intilishlari ko'plab mushtaraklikni, paralellarni ko'rsatish mumkin. Ismoilbek G'aspirali Rossiya imperiyasi hududida vujudga kelgan jadidchilik harakatining "g'oyaviy otasi" bo'lsa, M.Behbudiy Turkiston jadidlarining yo'lboshichisi va birinchi muftiysi edi.

Ikkala siymo ham mazlum xalqlarni mustaqil taraqqiyotiga olib chiqish uchun o'z faoliyatini ma'rifatparvarlik, maktabchilik harakatidan boshladi. I.G'aspirali Qrim markazi Bog'chasaroy (avval bu shahar Davlatsaroy, Gulshansaroy kabi nomlar bilan atalgan, 1443-1883- yillarda Qrim xonligining poytaxti bo'lib, 113 ta Qrim xonlari o'tgan) ilk bor 1-jadid (yangi usul) maktabini ochdi. U dastlab 12 nafar, so'ngra 30 nafar o'quvchini usuli savjiya (tovush usuli) bilan o'qitib, 40 kunda savodini chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Ota-onalar tomonida olqishlariga sabab bo'lgan I.G'aspiralining alifbo kitobi "Tahsibu sibiyon"(Bolalar tarbiyasi) kitobi yillar davomida 27 marta qayta-qayta nashr qilindi.

Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqandda kaptarxona mahallasida 1904-yilda jadid maktabiga asos solib, keyinchalik ushbu maktabni shaxsiy hovlisiga ko'chirdi. Uning maktabchilik faoliyati dastlabki kunlardanoq qarshillika uchradi. Samarqand viloyati harbiy gubernatorligiga maktab ustidan shikoyat qildilar. Behbudiy maktabini tekshirish uchun rus ma'rifatparvarlari Inkoshin va

Vyatkindan iborat maxsus komissiya yuborildi. Biroq komissiya maktab faoliyatini taftish qilib, biror bir nojo‘ya jihatini aniqlay olmadi. M.Behbudiy maktab tahsilini olgan o‘quvchilardan komissiya va ota-onalar ishtirokida ertalab soat 10:00 dan kech soat 18:00 gacha imtihon qabul qildi. O‘quvchilarning savodxonligidan ta’sirlangan ayrim ota-onalarning ko‘zlariga yosh kelgandi.

I.G’aspirali 1883-yilda Rossiya imperiyasida istiqomat qilgan 16 millionli musulmon aholi uchun ilk “Tarjumon” nomi bilan matbuot organi-gazetaga asos soldi. Gazetada chop etilgan Maqolalar qrim-tatar tilida bo‘lib uning tarjimasi rus tilida ham berilgan. Gazeta 12 ta obunachi bilan ish boshlagan edi. Qisqa vaqtda, ya’ni 1884-yilga kelib, “Tarjumon” obunachilarining soni 1000ta yetib, shundan 200 tasi Turkistondan bo‘lgandi. “Tarjumon” sonlarida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi Xiva xonligi hayotiga oid maqola va xabarlar muntazam bosilib turdi. Gazetaning “Buxorodan maktub”, “Xivadan maktub” ruknlari mavjud bo‘lib, Xorazm va BUxorodan maxsus doimiy muxbirlari ham bor edi.1905-yilga kelib “Tarjumon”ning Rossiya imperiyasida 5000 nafar obunachisi bo‘lib, Xorazmdan Ramazon Sayidoshev maqolalar yozib turgan.

Gazetaning ja’mi 2826 ta soni bosilib, 1917-yildagi ayrim sonlari, 1918-yildagi soni ham saqlanmagan. Turkiyalik olim professor E.Oqchinar arxivida “Tarjumon”ning 1883-1917-yillardagi sonlari saqlangan. Gazetada dolzarb masalalar ko‘tarilib, 1884-yil 14-sonida I.G’aspiralining bir sahifani egallagan kattakon “Muallim” nomli maqolasi bosilgan. Unda “Bizim oramizda yaxshi odamlar bo‘lsalar ular muallimlardir” degan fikrlar mavjud. “Tarjumon” gazetasi 1903-yildan haftada 2 marta, 1905-yildan 3 marta, 1912-yildan boshlab kundalik gazeta sifatida shuhrat qozongan.

M.Behbudiyning ham matbuotchilik, nashriyotining faoliyati alohida e’tirofga loyiq. Behbudiy “Samarqand” gazetasiga asos solgan va unda 45ta soni chiqqan. U o‘zining nomi bilan “Nashriyoti Behbudiya”ga asos solgan. O‘zining shaxsiy nashriyotida Abdurauf Fitratning (1886-1938) “Bayonoti sayyohi hindi” kitobini, rus tilida bostirgan. Turkiston xaritasini, o‘nlab o‘quv qo‘llanma, darsliklar chop ettirgan. 1913-yilda o‘zbek tilida arab imlosida bosilgan “Oyna” jurnali ham “Nashriyoti Behbudiy”da dunyo yuzini ko‘rgan. Yaponiyalik turkiyshunos olim Shizuo “Oyna”ning 68 ta sonini o‘zida jamlagan 1780 betli to‘plamni tayyorlagandi.

M.Behbudiy “Kutubxonai Behbudiy”ni tashkil etib, kutubxonada Qozon, Ufa, Qrim, Kavkaz, Istambul, Quddus, Qohira, Bayrut, Yunoniston, Peterburg va Germaniyadan keltirilgan kitob, darslik, o‘quv qo‘llanma, xarita, globus, o‘quv anjomlari jamlangan. M.Behbudiy Turkiston o‘lkasi shaharlarida maxsus kitob do‘konlari ochgan. Ulardagi kitob va o‘quv anjomlari bir qismini jadid maktablari uchun tekin tarqatgan.

I.G’aspirali Turkistondagi hukmdor va amaldorlar bilan muloqotlarda bo‘lib, ularni o‘lka mahalliy aholisi savodxonligi va madaniyatini yuksaltirishga da’vat etgan. I.G’aspirali 2 bor Turkistonda bo‘lib (1893, 1908-yy) Buxoro amiri Abdulahadxon (hukmronligi 1895-1910-yy) bilan muloqotlarda bo‘lgan. U o‘zaro muloqotlarda amirni Buxoroda 1 ta jadid maktabi ochishga rozi qilgan. Ushbu maktab 1893-yilda Buxoro shahrining Hovlipoyon mahallasi Gulrez ko‘chasida joylashgan badavlat savdogar Po‘latxo‘ja hovlisida ochilgan. Hozirgi kunda bu hovli o‘rnida yagona jadidlar tarixi davlat muzeyi ochish harakatlari davom etmoqda. I.G’aspirali Buxoro amiridan “Tarjumon” gazetasiga obunachilar jalb etishga amaliy yordam ham so‘ragani ma’lum. U Xiva xonligining Bosh vaziri, islohotchi Islomxo‘ja bilan ham maktubiy aloqalarda bo‘lgan.

M.Behbudiy ham imperiya xizmatchi va amaldorlari orasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, uning faoliyatini xristian missionerlari Ilminskiy, Ostroulovlar doimo kuzatib borishgan. Ma’lumki, 1908-1909 yillarda Graf Palen Turkiston o‘lkasini taftish qilgan. M.Behbudiy Samarqand shahridagi Sherdor madrasasida u bilan muloqotda bo‘lib, kutubxonasidagi kitoblardan Rossiya taftishchisiga sovg‘a qilgan.

Ismoilbek G’aspirali o‘z faoliyati davomida yuzlab maqolalar 200 dan ortiq kitob va risolalar yaratdi. Ularda Rossiya imperiyasidagi musulmonlarning ahvoli Turkistondagi ta’lim va uni isloh qilish, musulmon ziyolilari, madrasa ta’limi, ilmiy-ma’naviy qoloqlik olimlari kabi ko‘pdan-ko‘p masalalar haqida mulohaza yuritildi. U Turkistonda yuzlab madrasalardagi eskicha ta’lim tizimi o‘rniga 10-12 ta dunyoviy va diniy ilm berishga qaratilgan zamonaviy madrasalar ochish kerakligi bilan bog‘liq maslahatlar berdi. Uning “Dor ul-rohat musulmonlari”, “Ayollar saltanati”, “Afrika maktublari”, “Farangiston maktublari”, “Buxoro va Bog‘chasaroy”, “Turkiston ulamosi”,

“Turkistonda ta’lim”, “Istiloyi Turkiston”, “Navoiy Mir Alisher”, “Rus musulmonligi” xullas, bu ro‘yhatni davom etirish mumkin kabi kitoblarida o‘sha davrning dolzarb muammolari ko‘rsatildi. U “qanchalik nazokatli bo‘lmasin, mustamlaka siyosati zo‘ravonlikka asoslangan” degan fikrni ilgari surdi.

M.Behbudiy “Alifbo”dan tashqari 200 dan ortiq maqolalar yozdi, jug‘rofiya faniga oid darsliklar chop etirdi. Uning Turkiston, Rossiya, Jahon jug‘rofiyasiga oid ilmlari o‘quv qo‘llanmalari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

M.Behbudiy o’z davrida Turkiston jamiyatida ildiz otgan illatlarni “Zo‘raki boy”, “Hoy bankalar, bankalar bizni g‘orat ayladi”, “bizni kemuruvchi illatlar” kabi maqolalarida tanqid tig‘i ostida oldi. U o‘sha paytda mahalliy tadbbirkorlarni bankadan kredit (ssuda) olib uni nojo‘ya sarflash orqali g‘orat bo‘lganligini ochib beruvchi publisistik maqolalari keng tarqaldi. Mahalliy aholi o‘z yerlarini to‘y va taziya harajatlari uchun arzon-garovga arman, yahudiy, rus tadbirkorlariga sotib yuborganini alamli satrlarda bayon etdi.

Xalq bir kunlik to‘y deb, min-minglab pullarni havoga sovurayotganligi, to‘ylarni ixchamlashtirib tejalgan pulni bolalar ta’limi va tarbiyasiga sarflashni nasihat qildi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida Ko‘kkari (uloq) avj olib, hatto, o‘rtahol va kambag‘al dehqonlar ham bor- yo‘g‘ini sotib, ot olayotgani, hosil pishib yetilgan paytda ko‘kkari bilan ular mashg‘ul bo‘lganligi bilan bog‘liq ayanchli voqeliklar uning tomonidan tanqid qilindi.

M.Behbudiy yozishicha XX asr boshlarida kambag‘allar 200-dan 1000 rublgacha, o‘rta holler 2-3 ming rublgacha, badavlatlar 5-10 ming rubl sarflab to‘y qilishgan, Toshkentlik boylardan biri 5000 kishi chaqirib 3 kun to‘y qilgan. Badavlatlar “Meva to‘yi”, “Savdogar to‘yi” kabilarni ham tashkil qilgan. M.Behbudiy to‘y harajati uchun yurtdoshlarimiz 1 tanob yerni 200 rublga sotib turgan bir paytda; Qrimda 1 tanob yer 10 ming rubldan – 30 ming rublgacha sotilmoqda deb, yerimiz, tuprog‘imiz oltin ekanligi, uning bir qarichi oltinga teng bo‘lishi haqida ogohlantirdi. Qassobning uylanish to‘yida Nishona to‘yidan so‘ng, katta to‘y uchun 50 ta chopon, 25 ta ro‘mol, 3 to‘p chit, 25 ta qo‘y, 4 ta ot, 500 ta katta, 1000 ta o‘rtacha, 2000 ta kichik non, 4 botmon guruch, 4 botmon un, 2 savat o‘rik, 1 savat qandolat, 5 bosh qand, 1 botmon sabzi, 500 rubl pul bo‘lg‘usi quda uyiga jo‘natilgan. Taqqoslash uchun o‘sha yillarda bitta qo‘y 2.5-3 rubl, 1 botmon bug‘doy 1.5-2 rubl bo‘lgan.

Uning 4 farzandi (Mas’udxo‘ja, Maqsudxo‘ja, Matlubxo‘ja, Parvish (Suray) bo‘lib, Mas’udxonni 1909-yilda to‘y qilgan, 1000 rubl sarflagan. Turkiston viloyat gazetasida Mas’udxo‘ja to‘yi haqida xabar bosilib, birovlar Mahmudxo‘ja ziqnalik qildi deyishsa, ba’zi birovlar tejamkorlik qilib to‘g‘ri yo‘l tutdi, deb uni oqlashgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda “Padarkush yohud o‘qilgan bolaning ahvoli (Turkiston maishiatidan olingan ibratnoma)” pyesasini yozib, zamonaviy dramaturgiyaga asos soldi. 3 pardali 4 manzarali bu pyesani M.Behbudiy va tatar rejisiyor Ali Askar Kamol sahnalashtirildi. Bu pyesa 1914-yil 15-yanvarda Samarqanddagi Ibratxonada namoyish etildi. Unda ziyoli rolini Abdulla Avloniy o‘ynagandi. Ibratxonada 320 o‘rin bo‘lib, qo‘shimcha yana 50 ta stol qo‘yildi. Shungayam qaramay 350-400 kishi joy bo‘lmay ortiga qaytib ketdi. Pyesada boyni o‘g‘li Toshmurod do‘stlari bilan pul uchun o‘z otasini o‘ldirdi, M.Behbudiy bu fojianing asosiy sababi “ilmsizlik” deb hisoblaydi.

M.Behbudiy Ismoilbek G’aspiralini o‘zining ustozi deb bilardi, I.G’aspirali ikki bor Turkistonga sayohat qilganida unga hamrohlik qilgan edi. Hatto, Samarqand ziyolilarini shahar klublaridan birida oz sonli bo‘lsada, I. G’aspirali bilan uchrashuv uchun to‘plangandi. Zalda to‘planganlar oz sonli bo‘lgani uchun xijolat bo‘lib, ustozini quchoqlab yig‘lagan ham edi. I.G’aspirali unga tasalli berib, “parvo qilman kelgusida bunday zallarga odamlarni sig‘dira olmaydigankunlar keladi” degandi. M.Behbudiy 2 bor sayohatda bo‘lib, 1899-yilgi sayohatida yosh bo‘lishiga qaramay haj ziyoratini ado etgan. Ikkinchi marta 1914-yil avgustda Sharq va Rossiya bo‘ylab sayohat qilgan. Uni safar xotiralari “Oyna” jurnalida bostirgan.

1914-yilda Istanbul (Turkiya)da uchrashgan ustoz va shogird I.G’aspirali to‘xtagan mehmonxonada 6+1=7 soat musulmon dunyosidagi ta’lim va tarbiya haqida suhbatlashgandi. M.Behbudiy o‘sha uchrashuv haqida “Biz kech soat 18:00 dan 24:00 ga yana bir soat muloqot, bahs munozara qildik” deb eslaydi. Ismoil G’aspirali Mahmudxo‘ja Behbudiyni Qrim (Bog‘chasaroy)ga

taklif etdi. Biroq bu tashrif amalga oshmadi. I.G'aspirali 1914-yil 12-sentyabrda vafot etdi, uning vafoti munosabati bilan M.Behbudiy marsiya va "Oyna" jurnalida ta'ziyanoma xarakteridagi maqolasini yozdi.

Yana bir mulohaza, I.G'aspiralining arxivi qizi Shafiqa G'aspirali qizi orqali Turkiyaning poytaxti Anqara shahriga borib qolgandi. Ushbu arxivdan filologiya professori, turkiyalik o'zbek olimi Temurxo'ja Usmon Xo'ja o'g'li (1948-yilda Istanbulda tug'ilgan) M.Behbudiyning Rossiya davlat dumasiga 1907-yilda taqdim etgan 25 moddadan iborat "Turkiston madaniy maorif loyihasi"ni olib uni taqdim qildi.

Xullas, tarixda o'chmas iz qoldirgan I.G'aspirali va M.Behbudiylarning orzu-istaklari ulug'vor maqsadlarga qaratilgan edi. Shuning uchun, bugunki kunda shu buyuk tilak va maqsadlar istiqlol tufayli o'zining buloq ko'zini ochdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar // To'plovchi, so'zboshii va izohlar: B.Qosimov.-3-nashr, tuzatilgan va to'ldirilgan.-T.:"Ma'naviyat",2006.-280 bet. (Istiqlol qahramonlari)

2. M.Behbudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati.(Ilmiy maqolalar to'plami). Toshkent-2024.-139 bet.

3. Mahmudxo'ja Behbudiy millat fidoyisi va ma'rifatparvar (ilmiy maqolalar to'plami).-Buxoro:"Durdona", 2014.-92 bet.

JANUBIY O'ZBEKISTONDAGI AN'ANAVIY TOMORQA XO'JALIGI VA UNING ETNOIQTISODIYOTDAGI O'RNI XUSUSIDA

Raxmonov F.

Qarshi davlat universiteti professori, t.f.d (DSc).

Mintaqa dehqonchiligining boshqa mintaqalar aholisi dehqonchiligi bilan o'xshash tomonlari bo'lsa-da, ekin ekish, uni parvarish qilish va hosilni yig'ib olishida o'ziga xos farqli jihatlari ham mavjud. Shuningdek, biror etnos yashaydigan hududdagi tabiiy-geografik sharoit, qo'shni xalqlarning ta'sirini hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda xilma-xillikni kuzatish mumkin.

Dehqonchilik asosiy soha bo'lgan mintaqaning daryo vodiylari va tekislik hududlaridagi qishloq aholisi oila xo'jaligining iqtisodiy asosi ilgari ham, hozir ham uning bisotidagi yer o'lchami va uning suv manbalariga yaqin joylashganligi bilan belgilanadi.

XIX asr oxiri – XX asrda mintaqa aholisi dehqonchiligida ekin turlari juda xilma-xil bo'lib, bug'doy, arpa, jo'xori, makkajo'xori, tariq, sholi, mosh, loviya, kunjut, paxta, beda; poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, sabzi, piyoz, lavlagi, bodring hamda qovoq ekilgan.

O'rta Osiyoda qadim zamonlardan boshlab g'allachilik mavjud bo'lib, ko'plab bug'doy navlari yetishtirilib kelingan. G'allachilik haqida "Avesto"da ham ma'lumotlar mavjud [1:10; 62;107-110;18.].

Janubiy O'zbekiston aholisining an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlarida dehqonchilik eng qadimiy turlardan biri bo'lib, oiladagi daromadining katta qismini tashkil etadi va etnoiqtisodiyotda [2:19;8-20;118-123.] ham muhim o'ringa egadir.

Bug'doy ekishning ikki mavsumi mavjud: kuzgi (ba'zi hududlarda qishki deb ham atalgan)[3:35.] va bahorgi bug'doy ekini[4.]. Mintaqada kuzgi hosillar yig'ishtirib olinishi bilan (noyabrning boshida) o'rniga kuzgi bug'doy ekilgan. Bug'doy erta (mayning boshida) pishib yetilgan va u yig'ishtirib olingach o'rniga yana boshqa ekinlar ekilgan.

Mintaqada donli ekinlarning katta qismi lalmikor yerlarda ekilgan, yetishtirilgan. Lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullana-digan tog' yonbag'ri xo'jaliklarida mart va aprel oylarida ko'klamgi yog'in-sochinlar tushib bo'ladi.

Qashqadaryo va Surxondaryo mintaqalarida 1930-yillargacha donli ekinlar yetishtirishga birlamchi e'tibor berilgan va u qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblangan. Masalan, 1920-yillarning o'rtalaridagi ma'lumotga ko'ra, mintaqada o'simliklar ekini nisbatida 60 % donli ekinlar, 16,3 % paxta, 8,5 % yog'li o'simliklar, 6,5 % poliz va sabzavot, 4,9 % sholi, 3,6 % beda va boshqa ekinlar esa 0,2 % ni tashkil etgan[5:9-10.].

Keyinchalik, uzoq davom etgan "paxta yakkahokimligi davri" da donli ekinlar, ayniqsa bug'doy yetishtirish ikkinchi darajali sohaga aylantiril-di[6:59.].

1977 yilda butun mintaqa bo‘yicha sug‘oriladigan hududdan atigi 8,5 ming gektariga bug‘doy ekilgan bo‘lib, 9,7 sentnerdan hosil olingan edi. Iqlimi o‘zgacha bo‘lgan yog‘in-sochin g‘oyat kam tushadigan mintaqaning lalmikor dehkonchilik qilinadigan adir va qirlarida g‘alla ekinlari hosildorligi shu ko‘rsatkich atrofida bo‘lgan. Mamlakat mustaqilligi qo‘lga kiritilishi bilan mintaqaning birlamchi ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblangan sug‘oriladigan maydonlardan don yetishtirish uchun yil sayin o‘n ming gektarlab yer ajratila boshlandi[7.]. G‘allachilikni rivojlan-tirishga alohida e’tibor berildi.

Qashqadaryo viloyatida 1990 yilda sug‘oriladigan hududda 16 ming gektar yerga bug‘doy ekilgan bo‘lsa, 1991 yilda 28,5 ming gektar, 1992 yilda 37 ming gektar, 1993 yilda 38 ming gektar, 1994 yilda 63,5 ming gektarga yetkazildi. Shu yillar ichida bug‘doy ekinining maydoni 47 ming gektarga ko‘paygan bo‘lsa, bug‘doyning hosildorligi gektariga va yalpi hosili ham ortib borgan.

Bu ko‘rsatkichlar Surxon mintaqasi misolida 1990 yilda sug‘oriladigan hududda 14,5 ming gektar yerga bug‘doy ekilgan bo‘lsa, 1991 yilda 23 ming gektarga, 1992 yilda 34,1ming gektarga, 1993 yilda 31,1ming gektarga, 1994 yilda 59,4 ming gektarga yetkazildi. Umumiy bug‘doy ekinining maydoni 44,9 ming gektarga ko‘paydi. Bug‘doyning hosildorligi gektariga va yalpi hosili ham ortib borgan[8.].

Mustaqillik yillarida mintaqa aholisi bug‘doy yetish-tiradigan maydonlarni kengaytirish, uning yalpi hosilini ko‘pay-tirish bilan birga, bug‘doy yetishtirishning unutgan usullarini qayta tiklash, yangi va zamonaviy fan-texnika yutuqlariga tayangan agrotexnika qoidalarini o‘zlashtirishga e’tibor berganlar[9.].

Mintaqa aholisi o‘z xo‘jaliklarida “Oq bug‘doy”, “Qizil bug‘doy” va “Tuyatish bug‘doy”, tog‘li hududlarda esa sovuqqa chidamli “Boboki”, “Xivit”, “Qayroqi” kabi bug‘doy navlari ekishgan bo‘lib [10.], ular bir-biridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan.

An’anaviy mahalliy bug‘doy navlaridan biri “Qizil bug‘doy” bo‘lib, mintaqadagi ko‘plab aholi xo‘jaliklarida ekilib, bo‘yi 120-140 sm ni tashkil etadi. Boshqa mahalliy navlarga qaragan ancha serhosil hisoblanib, o‘rtacha gektaridan 3,5 tonnagacha hosil olish mumkin. Bu navni mintaqa aholisi bahorgi ekin sifatida mart oyining o‘rtalarida ekib, avgust oyida yig‘ib olishgan. “Qizil bug‘doy” navi boshqa navlarga nisbatan mintaqaning turli iqlim sharoitlariga chidamli va moslashuvchan bo‘lib, ko‘phosilliligi bilan ajralib turgan. Shuning uchun hududdagi aksariyat obi yerlarga ega xo‘jaliklarda ham ushbu bug‘doy ko‘p ekilgan. Uning somonidan chorva mollariga to‘yimli ozuqa sifatida ko‘p foydalanishgan. Mintaqaning tog‘ va tog‘ oldi qishloqlarida olib borilgan etnografik tadqiqotlarimiz davomida axborotchilar bergan ma’lumotlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, “Qizil bug‘doy” navi ko‘proq ekilganligi aniqlandi[11.].

Oq suv va To‘palang daryosining yuqori oqimidagi Beshbegi, Chungarak, Chosh va Xovat qishloqlarida yashovchi aholi o‘z xo‘ja-liklari uchun sovuqqa chidamli “Xivit” va mahalliy “Tuya tish” bug‘doy navlarini ekishgan. “Xivit” bug‘doy navi ham asosan tog‘li hududlardagi lalmi yerlarga kuzda ekilgan. Hosildorligi yaxshi bo‘lgan. Axborotchilarning ma’lumot berishicha, “xivit” bug‘doy navini bir yil oldin ham ekish mumkin ekan. Masalan, avgust oyida ekilgan bug‘doy keyingi yil shu oyda o‘rib olingan. Bu ushbu navning mahalliy sharoitga chidamliligini bildiradi[12.].

Mintaqada ekiladigan bug‘doyning yana bir navi “Tuya-tish” hisoblanadi. “Tuyatish” navli bug‘doy Turon bug‘doyi (fanda turanicum) navlari turiga mansubdir[13:778]. Bu nav serhosil, donlari yirik, unidan tayyorlangan non mazzali va to‘yimlidir. “Tuyatish” navli bug‘doylar mintaqaning tog‘li mintaqalaridagi sug‘orilmaydigan lalmi yerlarga ekilgan. Bugungi kunda ham ushbu navni mintaqaning tog‘ va tog‘oldi hududlarida yashovchi aholisi uncha katta bo‘lmagan maydonlarga, asosan, o‘zlarining tomorqalarida ekishadi[14.]. Bu bug‘doy navi to‘yimli va mazzali bo‘lib, ot bilan yanchiladigan xirmonda poyasidan oson ajralgan. Unidan tayyorlangan non shirin, to‘yimli va chiroyli bo‘lgan[15:125].

Bugungi kunda ham mintaqaning tog‘ va tog‘ oldi mintaqalarida turli mahalliy navlarning saqlanib qolganligini kuzatishimiz mumkin. Tog‘li qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholi o‘z xo‘jaliklari uchun oq bug‘doy yetishtirishsa, tog‘oldi, nisbatan tekislik hududidagi qishloqlarda esa asosan qizil bug‘doy yer maydonlari ko‘pligini ko‘rish mumkin. Ba’zilarida esa ham oq, ham qizil bug‘doy yetishtiriladi. An’anaviy mahalliy navlarning ajoyib ta’m sifatiga ega bo‘lishiga qaramay,

ushbu nav urug‘larining yetishmasligi, ular ekiladigan ekin maydonlarining asta-sekin qisqari-shiga olib kelmoqda.

Qamashi tumanining Shoxshor, Qo‘shko‘l, Qoranqul, Boysun tumanidagi Pulhokim, Do‘g‘oba, Gumatak va Qo‘rg‘oncha kabi qishloqlarida bug‘doyning Boboki, Qizil-bug‘doy va Qayroqi kabi navlari bugungi kunda ham ekib kelinmoqda. Lalmi sharoitidagi katta maydonlarda bug‘doyning asosan Surxak va Tezpishar navlari yetishtiriladi[16.].

Shoxshor va Do‘g‘oba qishloqlari aholisi asosan chorvachilik hamda dehqonchilik (bug‘doy, arpa va beda ekish) bilan shug‘ullanadi. Mustaqillik yillarida bu yerlarda ham fermer xo‘jaliklari tashkil etilib, ular asosan lalmi yerlarda bug‘doyning intensiv va bozorbop navlarini yetishtirishadi. Aholi esa o‘z xo‘jaliklari uchun taxminan 1 yoki 2 gektar yerlarga ko‘pincha qizil bug‘doy va bundan tashqari “boboki”, “qayroqi” hamda “qora-qiltiq” kabi navlarini ekishadi. Bug‘doy mart oyida ekilib, avgust oxirigacha yig‘ib olinadi. O‘rtacha 1 gektar yerdan 2 tonnagacha hosil olish mumkin. Masalan, ushbu qishloqlarda istiqomat qiluvchi Panji va O‘rol bobolarning aytishicha, uning ota-bobolari bir necha yuz yildan buyon qizil bug‘doy navini ekib kelayotganligini va boshqa navlarni yetishtirib ko‘rmaganligini aytadi[17.]

Kitob, Shahrisabz, Uzun va Sariosiyo tumanlarining Tojikis-tonga chegaradosh tog‘ hamda tog‘oldi qishloqlarida yashovchi aholi chorvachilik bilan birga dehqonchilik xo‘jaligini ham yuritishadi. Ular o‘z xo‘jaliklari uchun ko‘pi bilan bir gektargacha bug‘doyning qizil va xivit navlarini yetishtirishadi[18.].

Kuzgi ekinlardan keyin ekiladigan yana bir takroriy ekin turi - bu tariq o‘simligi bo‘lib, Uning “oq tariq” va “qizil tariq” kabi navlari mavjud bo‘lgan.

Mintaqada donli ekinlardan yem-xashak uchun arpa ham ekilgan. Lalmi yerlarda bahorgi arpa, sug‘oriladigan yerlarda esa kuzgi arpa ekilgan. Arpa bug‘doydan oldinroq pishib yetilgan va o‘rib olingan. Uning bir qancha navlari bo‘lib, jumladan, keng tarqalgani “oq arpa” asosan, lalmi yerlarda ko‘proq ekilgan. Bundan tashqari mintaqada arpaning ertapishar “unumli arpa” navi yetishtirilgan. U sovuqqa hamda qurg‘oqchilikka chidamliligi bilan ajralib turadi[19.].

XX asrning boshlarida mintaqada arpa unidan non ham tayyorlangan[20:35.]. Shuningdek, arpa go‘ja, arpa shulla kabi taomlar pishirilgan[21.143;104;96-118.]. Bugungi kunda mintaqa aholisi arpani ko‘proq ot, hisori qo‘y va chorva mollariga ozuqa uchun yetishtirishadi[22.].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mintaqa aholisini tomorqa xo‘jaligida dehqonchilikning donchiligida muhim ahamiyat kasb etib, milliy etnoiqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar:

1.Исҳоқов М.М. Авесто Яшт китоби. -Т., 2001; Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. -Т., 2001; Абдолниёзов Б., Исҳоқов М. Авесто ва қадимги чорвачилик. –Т., 2008--; Хўжамуродов И.Р. ―Авестода она- заминнинг эъзозланиши // Ўзбекистон аграр фани хабарномаси, 2001, 1 (3) сони.; Шу муаллиф. -Авестода ерга ва шудгорлашга эътибор // Ўзбекистон Аграр фани хабарномаси, 2015, 3 (1) сони.

2.Etnoiqtisodiyot haqida batafsil qarang: Паникарова С.В. Трансформация этноэкономики региона в современных условиях (на материалах регионов Южной Сибири): Автореф дис... д-ра. экон. наук. СПб.: СПбГЭУ, 2013; Иншаков О. Этноэкономика Юга России: стратегические перспективы в координатах модернизации // Проблемы теории и практики управления. 2008. № 4; Овчинников В.Н., Колесников Ю.С. Этноэкономика как фактор развития // Проблемы прогнозирования. 2006. № 1.

3.Сазонова М. Традиционное хозяйство узбеков Южного Хорезма. - Л., 1978.

4.Kuzgi va bahorgi bug‘doyning mamlakatimizning boshqa hududlarida ekilishi haqida qarang: Современный кишлак Средней Азии.: социально-экон. Очерк. Вып. 11. Каракульская волость. Узбекская ССР. –Т., 1927; Современный кишлак Средней Азии: социально-экон. очерк. Вып.7. Ханкинская волость (Хорезмской области Узбекской ССР). –Т., 1926; Современный кишлак Средней Азии: социально-экон. очерк. Вып. 4. Вабкентская волость (Зеравшанской области Узбекской ССР). 1926; Современный кишлак Средней Азии: социально-экон. очерк. Вып. 3. Китабская волость (Кашка-Дарьинской области Узбекской ССР), 1926.

5.Материалы по районированию Узбекистана. Вып. I. - Самарканд: Издание ЦК РУз., 1926.

6.Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти.-Т., “Жайхун”, 1996.

7.Янгибоев М. Қашқадарё вилояти. –Қарши, “Насаф”, 1993; Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти.-Т., “Жайхун”, 1996.

8.Статистический сборник, Сурхандарьинская область в цифрах за 1990-1993 гг. –Термез.-1994.

9.Ғалла мустақиллиги // Қашқадарё ҳақиқати. – 1991 йил, 10 октябрь. -103-сон. (12.120); Пахта ўрнига ғалла // Сурхон тонги. – 1991 йил, 16 ноябрь. -176-сон. (15.150).

10.Bu navlar haqida batafsil qarang: Наливкин В. // ТВ 1881г. №18; Ершов Н.Н. Сельское хозяйство таджиков... “Oq bug‘doy” navi fanda “Sgraecum amylosun Flaks” deb atalgan; “Qizil bug‘doy” esa “erythrospermum” deb nomlangan.

11.Dala yozuvlari. Shahrisabz tumani G‘ilon, Hisorak va Boysun tumani Pulhokim qishloqlari, 2023 yil.

12.Dala yozuvlari. Shahrisabz tumani Chungarak va SHerobod tumani Xamkon qishloqlari, 2023 yil.

13.Цвелёв Н.Н. Род 22. Пшеница — Triticum L. // Злаки СССР / Отв. ред. Ан.А.Фёдоров. -Л.: “Наука”, 1976.

14.Dala yozuvlari. Qamashi tumani Qoranqul va SHerobod tumani Xomkon qishloqlari, 2024 yil.

15.Қурбонов Г.Қ., Умарова М.М. Ўзбекистонда ғаллачилик тарихи // Ўзбекистон ҳудудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар. –Т., 2006.

16.Dala yozuvlari. Qamashi tumani Shoxshor va Boysun tumani Pulhokim qishloqlari, 2024 yil.

17.Dala yozuvlari. Qamashi tumani Shoxshor va Boysun tumani Do‘g‘oba qishloqlari, 2024 yil.

18.Dala yozuvlari. Shahrisabz tumani Ammog‘on va Sariosiyo tumani Yangi To‘palang qishloqlari, 2024 yil.

19.Dala yozuvlari. Qiziriq tumani Gilambob qishlog‘i, 2024yil.

20.Файзуллаева М. Ўзбек таомлари билан боғлиқ анъаналар (Сурхон воҳаси мисолида). –Т., “Yangi nashr”, 2010.

21. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы южного Таджикистана. - Сталинабад: Изд. Акад. наук Таджикской ССР, 1954; Шаниязов К.Ш. О традиционной пище узбеков // Этнографическое изучение быта и культуры узбеков. –Т., “Фан”, 1972; Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Т., 1964.

22. Dala yozuvlari. G‘uzor tumani Yangi hayot va SHerobod tumani Xamkon qishloqlari, 2024 yil.

XX АСРНИНГ 60-ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДАГИ СТРУКТУРАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР

Ерметов АА.
Ўзбекистон Миллий университети
профессори, т.ф.д.,

Совет ҳокимияти йилларида олиб борилган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маънавий ўзгаришлар, бу даврда содир бўлган тарихий воқеа ва ҳодисалар (Иккинчи жаҳон уруши ва б.) негизида ички ишлар идоралари тизимида, уларнинг фаолиятида, вазифа ва берилган ваколатларида, ҳатто бу органнинг номланишида ҳам ўзгаришлар бўлиб турган.

Хусусан, 1960 йил 13 январда СССР Ички ишлар министрлиги тугатилди ва унинг функциялари иттифоқдош республикалари Ички ишлар министрликларига берилди. 1962 йил 22 февралда иттифоқдош республикалар Ички ишлар министрликларининг номи Жамоат тартибини сақлаш министрлиги (МООП) деб ўзгартирилди. СССР Жамоат тартибини сақлаш министрлиги (МООП) кейинроқ, 1966 йил 26 июлда ташкил этилди.

Тадқиқ этилаётган йилларда ички ишлар идораларининг фаолиятидаги структуравий ўзгаришлар билан боғлиқ бўлган муҳим ҳужжатлар сифатида КПСС Марказий Комитети ва СССР Министрлар Совети томонидан 1960 йил 23 июлда “Жиноятчиликка қарши курашишни кучайтириш тўғрисида”ги фармони, 1960 йил 22 декабрда СССР Бош Прокуратурасининг “Жиноятчиликка қарши курашишни муваффақиятли олиб борилишини таъминлашда тергов ва қидирув органларининг ҳамкорлиги тўғрисида” ги кўрсатмаси (унда тергов жараёнида прокуратура ва ички ишлар идоралари ходимларига ўз вақтида аниқ ва тезкор жиноий-қидирув ишларини ҳамкорликда олиб боришни таъминлаш ҳамда бундай тадбирларни такомиллаштириш вазифаси юклатилди), 1961 йил 14 апрелда Ўзбекистон Коммунистик партияси Марказий Комитети томонидан “Ўзбекистон ССРда жиноятга қарши курашиш борасидаги камчиликлар тўғрисида”ги, КПСС Марказий Комитети ва СССР Министрлар Совети томонидан 1961 йил 5 майда “Ўта хавфли жиноятларга қарши курашишни янада кучайтириш тўғрисида”ги фармон ва қарорлар эълон қилинди.

1961 йил 21 июнда СССР Олий Совети Президиуми томонидан “Келгусида маъмурий тартибда жарима қўлланилишини чеклаш тўғрисида”ги фармон қабул қилинди. Фармонда маъмурий тартибда жарима қўллаш ваколати берилган давлат органлари ҳақида маълумот берилиб, улар орасида милиция органларида ҳам шундай ваколат сақланганлиги кўрсатилди. Унга кўра милиция ходимларига жамоат тартибини сақлаш, транспортлардан фойдаланиш ва йўл ҳаракати қоидаларига риоя қилиш билан боғлиқ жарималарни ундириш вазифа ва ваколатлари белгиланди.

Ўзбекистон Комммунистик партияси Марказий Комитети томонидан 1961 йил 25 августда “Алоҳида шаҳар ва туманларда жиноятнинг турли кўринишларига қарши курашиш чораларини кучайтириш тўғрисида” ги қарорда, жойлардаги вазиятлардан келиб чиққан ҳолда жиноятларга қарши курашишни кучайтириш вазифалари белгиланди.

КПСС Марказий Комитети томонидан 1962 йил 17 августда “Совет милицияси фаолиятини янада яхшилаш чоралари тўғрисида” қарор қабул қилинди. Қарорда милиция фаолиятини яхшилашга қаратилган бир қатор муҳим ташкилий чоралар белгилаб берилди.

Мазкур қарор асосида шу куни СССР Министрлар Совети томонидан тасдиқланган “Совет милицияси тўғрисидаги Низомда” “милиция совет давлатининг маъмурий-ижроия органи бўлиб, унинг асосий вазифаси шаҳарлар, аҳоли пунктлари ва транспорт магистралларида жамоат тартибини сақлаш, давлат мулкини, фуқаролар шахси ва ҳуқуқларини жиноятчилардан ҳимоя қилиш, хавфли жиноятларни фош этиш” деб кўрсатилди.

Юқорида таъкидланган қарорларнинг қабул қилинишига асосий сабаб, бу пайтда Иттифоқнинг турли жойларида ўта хавфли ва оғир жиноятларнинг сонини ошиб бориши кузатилди. Хусусан, 1960 йилда Иттифоқ бўйича қасддан одам ўлдириш билан боғлиқ жиноятлар учун ҳибсга олинганларнинг 12,3 % олий жазога ҳукм қилинган бўлса, 1961 йилда унинг улуши – 34,3 % ни ташкил этган. 1960 йилда жамоат ва давлат мулкини ўғрилаш учун ҳибсга олинганларнинг 61,8 % турли муддатларга қамалган бўлса, 1961 йилда бу миқдор – 71,2 % гача кўтарилган. Шу даврга тегишли ҳисоботларда келтиришича, Ўзбекистоннинг айрим ҳудудлари бўлган Бухоро шаҳри, Навоий, Когон, Конимех районлари ва бошқа вилоятларда (1960-1961 йиллардаги маълумотлар таҳлили асосида) ҳам жамият учун хавфли бўлган жиноятларнинг сони кўпайиб борган.

Жамиятда жиноятнинг олдини олиш ва унга қарши курашиш чораларини кучайтириш юзасидан қатор қонун ҳужжатлари қабул қилинган бўлсада, бу пайтда ёшлар томонидан содир этилаётган жиноятларнинг сони йилдан-йилга кўпайиб борди. Шу муносабат билан Ўзбекистон Коммунистик партияси Марказий Комитети томонидан (1963 йил 13 апрелда) “Ёш болаларнинг қаровсизлиги ва вояга етмаганлар орасида жиноятларга қарши курашиш чораларини кучайтириш тўғрисидаги” қарори чиқарилди.

Қарорда бу соҳага тегишли бўлган ҳуқуқ-тартибот органларига мазкур масала юзасидан тегишли вазифалар берилди. Бунда милиция ходимларига бу муаммоларнинг келтириб чиқараётган сабабларини ҳар томонлама чуқур ўрганиш ва уни бартараф этиш масъулияти юклатилди. Ҳақиқатдан ҳам бу даврда ёш болалар орасида содир этилган жиноятлар сони кўпайган эди. Масалан, биргина Бухоро вилоятида 1962 йилда 900 га яқин қаровсиз болалар ушланган бўлиб (улардан 575 нафари мактаб ўқувчилари бўлган), 47 нафар ўсмирлар устидан жиноий иш қўзғатилган эди.

Тадқиқ этилаётган йилларда ички ишлар фаолиятига оид яна бир муҳим ҳужжат қабул қилиниб, хусусан, СССР Олий Совети Президиуми жиноятчиликка қарши курашни кучайтириш, қонунийликни янада мустаҳкамлаш ҳамда жиноий судловнинг демократик асосларини кенгайтириш мақсадида 1963 йил 6 апрелдаги Фармони билан “...жамоат тартибини сақлаш идораларига дастлабки тергов юритиш ҳуқуқини берди”.

Ана шу фармонга мувофиқ равишда Ўзбекистон ССР Олий Советининг Президиуми 1963 йил 27 апрелда “Ўзбекистон ССР жиноят – процессуал кодексига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида” фармон чиқарди. Унда жамоат тартибини сақлаш идораларининг терговчилари дастлабки тергов ишларини олиб борадиган жиноят турлари белгилаб қўйилди.

Тергов ишларини ташкил этиш ва унга раҳбарлик қилиш учун Ўзбекистон ССР Жамоат тартибини сақлаш вазирлиги таркибида тергов бошқармаси, жамоат тартибини сақлаш вило-

ят бошқармаларида, Қорақалпоғистон АССР Жамоат тартибини сақлаш вазирлиги, Тошкент шаҳар ижроия комитети милиция бошқармаси ва йўл милицияси бўлимида эса тергов бўлимлари ташкил этилди. Шаҳарларда, районларда, темир йўл участкаларида тергов бўлинмалари ва терговчилар гуруҳлари тузилди, бу жараёнда милиция идораларидаги дастлабки терговни олиб бориш билан шуғулланадиган махсус тузилма тугатилди. Дастлабки терговни олиб бориш милиция идоралари оператив таркибига, шу жумладан участка вакилларига топширилди.

Ўзбекистон ССР Жамоат тартибини сақлаш вазирлиги идораларида тергов аппаратини ташкил этиш ва унинг фаолияти тўғрисидаги низомга мувофиқ олий ҳуқуқий маълумотга эга бўлган мутахассисларгина терговчи этиб тайинланиши мумкин эди. Бу жараёнда олий маълумотга эга бўлган мутахассислар республиканинг барча ҳудудларда етишмаслигини ҳисобга олиб, вазиятдан чиқиш учун жиноий ишларни тергов қилиш соҳасида амалий жиҳатдан катта тажрибаси бўлган ва албатта ўрта ҳуқуқий маълумотга эга бўлган шахслар истисно тариқасида, тергов ишига жалб қилиниши йўлга қўйилди.

Қабул қилинган қарорларнинг ижросини таъминлаш жараёнида республикада жиноятчиликка қарши кураш ва уларнинг олдини олиш борасида вазият маълум даражада ўзгарди. Хусусан, Тошкент, Андижон, Хоразм, Самарқанд, Фарғона ва Сурхондарё вилоятлари ижроия комитетларининг жамоат тартибини сақлаш бошқармаларида тергов ишларининг кўрсаткичлари яхшиланди. Тергов жараёнида тўхтатиб қўйиладиган ишларнинг ҳажми анча камайди.

Хулоса қилиб айтганда, таҳлил этилаётган йилларда мамлакат миқёсида олиб борилган ижтимоий-иқтисодий ва маънавий жараёнлар негизида ички ишлар идоралари тизимида бир қатор структуравий ўзгаришлар қилинди. Натижада уларнинг фаолиятида, вазифа ва берилган ваколатларида, ҳатто бу органнинг номланишида ҳам ўзгаришлар кузатилди. Жумладан, СССР Ички ишлар министрлиги тугатилиб, Жамоат тартибини сақлаш министрлиги ташкил этилди. Шунингдек, ички ишлар органларининг фаолиятига оид бир қатор қонун ва қонун ости ҳужжатлар қабул қилиниб, тизимнинг бошқарув аппарати ва бўлимларида қилинган структуравий ўзгаришлар шу даврда авж олган жиноятларни фош этиш ва олдини олишда маълум даражада ижобий натижаларни бера бошлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. МВД России. Энциклопедия. Науч. ред., В.Ф.Некрасов. - Москва: Объединенная редакция МВД России, Издательский дом «ОЛМА ПРЕСС», 2002. - С.17.
2. Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.67.
3. Жалилов Т., Холиқов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.33.
4. ЎзР МА, 1710-фонд, 13-рўйхат, 640-иш, 36-варақ.
5. Самарқанд ВДА, 799-фонд, 1-рўйхат, 766-иш, 71-варақ.
6. Абидов Ю. Деятельность Компартии Узбекистана по повышению роли административных органов и общественных организаций в коммунистическом воспитании трудящихся (1959-1965 гг.). Автореф. дисс. … канд. ист. наук. -Ташкент., 1977. - С. 10.
7. Богданов С.В. Попытки Н.С.Хрущева активировать борьбу с экономической преступностью в СССР. // Вестник архивиста. 2012, №3. - С.213.
8. ЎзР МА, 2349-фонд, 1-рўйхат, 37-иш, 118-варақ.
9. ЎзР ПДАнинг Бухоро вилояти ҳокимлиги бўлими, 1-фонд, 19-рўйхат, 31-иш, 35-варақ.
10. ЎзР ПДАнинг Бухоро вилояти ҳокимлиги бўлими, 1-фонд, 20-рўйхат, 21-иш, 25-варақ.
11. Жалилов Т., Холиқов Р. Совет Ўзбекистони милицияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1983. - Б.29.
12. Богданов С.В. Попытки Н.С.Хрущева активировать борьбу с экономической преступностью в СССР. // Вестник архивиста. 2012, №3. - С.212.
13. ЎзР ПДАнинг Бухоро вилояти ҳокимлиги бўлими, 1-фонд, 19-рўйхат, 31-иш, 35-варақ.
14. Решетов Г.М. Борьба с подростковой преступностью в Советской России. // История государства и права. 2007, № 11. - С.30.
15. ЎзР ПДАнинг Бухоро вилояти ҳокимлиги бўлими, 1-фонд, 21-рўйхат, 22-иш, 21-22-варақлар.
16. Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.68.

XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O‘ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA KINO SAN’ATIDAGI O’ZGARISHLAR.

To‘rayeva M. QarDU
G’aniyev B. QarDU O’zbekiston tarixi kafedrasi oqituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekiston janubiy hududlarida san’atning yangi turi bo‘lgan kino san’atining kirib kelishi, bu borada amalga oshirilgan o‘zgarishlar manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘z: RSFSR Xalq Komissarlari Soveti, Xalq Maorif Komissarligi, “Buxkino”, ko‘chma kino punktlari, yer-suv islohoti, “Qizil Sharq”, “Qasam”, “Bog‘dodda amerika paxtasi”, “Asal”, “Avliyo qiz”, “Ramazon”.

Аннотация В статье на основе источников рассматривается возникновение нового вида искусства – кино в южных регионах Узбекистана в 1920–1930-е годы и произошедшие в связи с этим изменения.

Ключевое слово: Совнарком РСФСР, Наркомпрос просвещения, «Бухкино», передвижные кинопункты, земельно-водная реформа, «Кызыл Шарк», «Касам», «Американский хлопок в Багдаде», «Мед», «Авлиё Киз», «Рамазан».

Abstract. The article, based on sources, examines the emergence of a new art form – cinema in the southern regions of Uzbekistan in the 1920s–1930s and the changes that occurred in connection with this.

Keyword: Council of People's Commissars of the RSFSR, People's Commissariat of Education, "Bukhkino", mobile cinemas, land and water reform, "Kyzyl Shark", "Kasam", "American Cotton in Baghdad", "Med", "Avliyo Kiz", "Ramazan".

Mustabid sovet tuzumi yillarida san’atning yangi bir turi – kino san’atiga asos solindi. Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan sovetlashtirish siyosati san’atning barcha sohalariga jumladan kino san’atiga ham kirib keldi. Kino san’atini sotsialistik mezonda rivojlantirish maqsadida davlat uni tasarrufiga oldi. Boshqa madaniy-oqartuv muassasalari singari kino san’atidan ham xalq ommasini kommunistik mafkura izmiga solishda keng foydalanish nazarda tutilgan edi.

1919-yil 27-avgustda RSFSR Xalq Komissarlari Sovetining “Fotografiya va kinematografiya savdosi va san’atini Xalq Maorif Komissarligi ixtiyoriga o‘tkazish to‘g‘risida”gi dekreti qabul qilindi.[1] RKP(b) XIII s’ezdi (1924 y) kino san’ati xodimlari oldiga “partiya qo‘lidagi kommunistik ma’rifat va tashviqotning eng qudratli vositasi bo‘lishi lozimligi” vazifasini qo‘ydi. 20-yillar o‘rtalarida O‘zbekistonda davlat kinotresti va “Sharq yulduzi” kinofabrikasi tashkil etildi. Sovet hukumati xalq ommasi ongiga bolsheviklar partiyasi g‘oyalarini targ‘ib qilishda, uni qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishda mazkur san’at turi orqali ta’sir ko‘rsatishning chora-tadbirlarini ishlab chiqdi.

1924-yil 21- aprelda O‘rta Osiyoda birinchi kino tashkilot “Buxkino” vujudga keldi.[2] Bu tashkilot badiiy-tashviqot, ijtimoiy-xronikal filmlar ishlab chiqarish, filmlarni ijaraga olish, sotib olish, kinoteatrlar qurish kabi masalalar bilan shug‘ullandi. 1924-1925 yillardan boshlab O‘zbekistonda kino san’ati xalq turmush tarziga keng miqyosda kirib kela boshladi.

1925 - yilda respublikada 25 ta ko‘chma kino qurilmasi faoliyat ko‘rsatdi. O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida esa 1925-1926 yillarda ko‘chma kino qurilmalari soni 2 tani tashkil etdi.[3] O‘sha davrda sobiq sovet davlatining o‘rnatilishi bilan bog‘liq voqealar, keng xalq ommasini sotsialistik qurilishga jalb qilish, marksistik g‘oyalar, asosan kinokartinalar orqali targ‘ib qilina boshlandi.

1926-1927 yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida aholiga kino ko‘rsatish uchun maxsus binolar, ya’ni kinoteatrlar qurish boshlandi. Shu yillarda Qashqadaryoda 3 ta ko‘chma kino va bitta kinoteatr,[4] Surxondaryoda bitta ko‘chma kino va 2 ta kinoteatr (Termez va Sherobod tumanlarida) ish boshladi.[5] 1927-yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi, Shahrisabz, Koson, G‘uzor tumanlarida ko‘chma kino punktlari tashkil etildi.

1928- yilga kelib respublikadagi kino qurilmalari soni 121 taga yetdi va ulardan 26 tasi qishloqlarda edi. Mazkur yildan e’tiboran O‘zbekiston janubida ham kinoteatr binolari qurila boshlandi. Shu yilning 18- mayida Surxondaryo viloyatida “Qizil Sharq” kinoteatri ishga tushdi.[6]

Kinoteatrni kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun 1500 so‘m, “Progress” kinoteatri uchun 11900 so‘m ajratildi. Qarshi shahridagi kinoteatr qurilishi uchun 36000 sarflandi.[7] 1928-1929 yillarda Surxondaryo viloyatida ko‘chma kinolar soni 2 tani, 1929 - 1930 yillarda 6 tani tashkil etdi.

1930-yilda kino san’atida yangi bosqich – ovozli kinolarni ko‘rsatish boshlandi. Biroq, O‘zbekistonda ovozli kinolarni ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi sust bordi. Kino san’atida milliy kadrlar yetishmas, moddiy-texnik baza nochor edi. Shu tufayli O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida xalqqa kino xizmati ko‘rsatish jarayoni davr talabidan ancha orqada edi. Yangi yaratilgan qator filmlar sobiq sovet davlati siyosatini, kommunistik mafkura talablarini ekran orqali keng xalq ommasiga targ‘ibot qildi. Masalan, “Qasam” filmi O‘zbekistonda yer-suv islohoti davridagi voqealarni, “Bog‘dodda amerika paxtasi” filmi jamoalashtirish davrini, “Asal” filmi davlat tomonidan belgilangan rejalarining muddatdan ilgari bajarilishini, xotin-qizlarni ishlab chiqarishga jalb qilishni, “Avliyo qiz”, “Ramazon” filmlari diniy urf-odatlarga va dinga qarshi kurashni aks ettirdi.[8]

1932 - yilda respublikada ko‘chma kino qurilmalar soni 300 taga yetdi. Kino ishlab chiqarish faoliyati bir oz bo‘lsa-da, kengaytirildi. 1937- yilning birinchi choragida Qarshi (Behbudiy) shahrida 350 tomoshabinga mo‘ljallangan ovozli kinoteatr ochildi.[9] Kino ekranlariga “Mahbuslar”, “Birinchi vzvod”, “Hukumatga qarshi hujum” kabi badiiy va hujjatli filmlar kinolar namoyish qilindi.

1940- yilda O‘zbekistonda 624 ta kino qurilma bo‘lib, ularning 408 tasi qishloq joylarda edi.[10] Shu yil Qashqadaryoda yangi kino qurilmalar soni 30 tani, Surxondaryoda 25 tani tashkil etdi. 1940-yilda Buxoro viloyatida bitta viloyat 3 ta rayonlararo kinolashtirish boshqarmasi ochildi. Ular quyidagi shaharlarda tashkil etilgan edi:

Shahrisabz shahrida: Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘ va Kitob tumanlari aholisiga xizmat qiluvchi boshqarma;

Qarshi shahrida: Beshkent, Qarshi, G‘uzor va Dehqonobod tumanlari aholisiga xizmat qiluvchi boshqarma;

Surxondaryo viloyatida, viloyatning barcha aholisiga xizmat qiluvchi boshqarma.

Kinoteatrlarda namoyish etilgan kinofilmlar ijtimoiy-madaniy hayotda muhim o‘rin tutdi. Sobiq sovet tizimi yillarida sovet davlati siyosatini amalga oshirish, uning mavqeini mustahkamlash maqsadida, o‘sha davrga xos bo‘lgan kinofilmlar orqali targ‘ibot ishlari olib borildi.

Xullas, 20-30-yillarda O‘zbekistonning janubiy viloyatlari aholisi ma’naviy hayotida san’at, jumladan kino san’ati hukmron kommunistik mafkura iskanjasida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, xalqimiz ma’naviy hayotida o‘ziga xos o‘rin tutdi. Kino san’ati bilan bog‘liq tashkilotlar va muassasalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning janubiy hududlari aholisi uchun yangi tipdagi kinoteatr binolarini qurish ishlari olib borildi. Kino san’atida ovozli kinolarni ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Ko‘chma kinoteatrlar va kino qurilmalar soni oshib bordi. Kinochilar tayyorlash ishlari amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Раҳмонов Н. Умаралиев А. Совет Ўзбекистони маданияти тарихи очерклари. -Тошкент. 1984, 225- бет.
2. Ўзбекистонда кино санъати. - Тошкент. 1963, 5-бет.
3. Алламурадов Д. Совет в борбе за победу социализма в Узбекистане 1924-1937) дис.канд.ист., 205-ст.
4. Қашқадарё ВДА. 7-жамғарма. 56-иш, 140-варақ.
5. Халияров Х. И др. Сурхандарьинская область. -Тошкент. 1974, 121-стр.
6. Сурхондарё ВДА. 89-жамғарма, 1-рўйхат, 93-иш, 317-варақ
7. Қашқадарё ВДА. 7-жамгарма.1-рўйхат. 156-иш, 28-варақ.
8. Ўзбекистон кинодраматургияси тарихи очерки. -Тошкент. 1963, 25-бет.
9. “Янги кино-театрлар”. // Қизил Ўзбекистон. 1937 йил, 4 январ. 4 варақ.
10. Эргашев Ш. Сурхон-Шеробод водийси. -Тошкент. Фан, 1976, 48-бет.

“ТУРКИСТОН ТЎПЛАМИ” САМАРҚАНД ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ ЎРГАНИШ МАНБАСИ СИФАТИДА

Орзиев М.З БухДУ
Кўчаров Ж.Қ ҚарДУ

Annotatsiya

Мазкур мақолада “Туркистон тўплами ” асосида Мирзо Улуғбек даврида Самарқанд шаҳрининг маданият,илм-фанда эришган кўплаб ютуқлари хақида сўз боради.

Калит сўзлар: Расадхона, астролог, ал-Суфи, Тихон Брага.

Аннотация

В этой статье на основе коллекции Туркестана обсуждаются многочисленные достижения в культуре и науки Самарканда в эпоху Мирза Улугбека.

Ключевые слова: Обсерватория,астролог,аль-Суфи, Тихон Брага.

Annotation

In this article, on the basis of the Turkestan collection, the numerous achievements in the culture and science of Samarkand in the era of Mirza Ulugbek are discussed

Keywords: Observatory,Astrologer,Al-Sufi,Tikhon Braga.

Туркистон ўлкасини Россия империяси истило қилиб, Туркистон генерал-губернаторлиги ташкил топгандан сўнг ўлка тарихи, ижтимоий-иқтисодий, маданий жараёнларига оид маълумотларни ўзида жамлаган “Туркестанский сборник” (“Туркистон тўплами”) жамлана бошланган. Ушбу тўпламда ўлканинг таълим тизими хусусида ҳам кўплаб маълумотлар жамланган. Хусусан, Самарқанд ва бу ердаги мадрасалар, таълим ва тарбия, илм-фан соҳасида эришилган ютуқларга оид мақола ва хабарлар ҳам анчагина салмоқни ташкил этади. Самарқанд шаҳрининг минтақада тутган мавқеи, бу ер қадимдан маданият, илм-фан, таълим ва тарбия маркази бўлганлигини эътироф этувчи маълумотларни кўплаб учратиш мумкин.

Мирзо Улуғбек даври, унинг ҳукумронлиги даврида қурилган таълим масканлари, уларнинг фаолияти хусусида тўхталган мақола ва хабарларда Самарқанд дунё илм-фани маразларидан бирига айлангани алоҳида таъкидланади. Жумладан, тўпламнинг 528 томида Самарқандда Мирзо Улуғбек мадрасасининг очилиши, унга Қозизода Румийнинг мударрис этиб тайинланиши, мадрасадаги таълим ва тарбия жараёнлари, кўплаб таниқли олимларнинг бу ерга жалб қилиниши, мадраса қуриб ишга туширилгандан сўнг тўрт йил ўтиб, Қозизода Румий, Мавлоно Ғиёсиддин Жамшид, Мавлоно Муайин Коши, Мавлоно Салоҳиддин Мусавий, Али қушчилар билан маслаҳатлашган ҳолда расадхона қурилганлигига оид фикр-мулоҳазалар келтириб ўтилади.[1.76]

Мирзо Улуғбек даврига қизиқиш, у қурдурган расадхонани ўрнини аниқлаш борасида ўша вақтлардаги қатор рус олимлари илмий изланишлар олиб борганлар. Жумладан, профессор Н.И. Веселовский ҳам расадхонани излаган шахслардан бири бўлган. Аммо, В.Л. Вяткиннинг вақф ҳужжатларини ўрганиши натжасида расадхонанинг ўрни аниқлангани ва уни қазиш ишлари бошланганлиги, расадхонанинг бир қисми очилганлиги, қазишма ишлари ҳали давом этаётганлиги, манбаларда расадхонанинг тасвирланиши 1710 йилда Деҳлида қурилган ва ўша вақтларда ҳали вайрон бўлмаган расадхонага ўхшашлиги, агар қолган қисми ҳам очиб ўрганилса, маълумотлар тасдиқланса, Улуғбек расадхонасидан Деҳли расадхонаси намуна олганлиги ўз тасдиғини топишига оид маълумотлар Улуғбек даврида Самарқанд таълим тизими, илм-фани дунё тамаддунига улкан ҳисса қўшганлиги яна бир бор ўз тасдиғини топишига оид фикр-мулоҳазалар келтириб ўтилганлигининг гувоҳи бўлиш мумкин.[2.22]

Улуғбек асарларини Европага бориб қолишига турк астрологлари сабабчи бўлиб, Европа олимларидан Гревс илк бора Улуғбекнинг асарларини турк астрологларидан олиб лотин тилига таржима қилган. Улуғбек томонидан яратилган юлдузлар жадвали ўша вақтгача мукаммал деб ҳисобланган араб олими ал-Суфи жадвалларидаги хатоликларни тўғрилаганлиги, шу билан бир қаторда XVII аср Европа астрономи Тихон Брага Улуғбек жадвалига умуман ўзгартириш кирита олмаганлигига оид маълумотлар келтирилиб, Улуғбек расадхонаси фаолияти, унинг ҳукумронлиги давридаги таълим-тарбия, мадрасаларда толиби илмлар учун яратилган шарт-шароитларга тўхталиб ўтилади.[3.147]

“Туркистон тўплами”даги маълумотлар Мирзо Улуғбекдан сўнг Самарқандда илм-фан, мадраса таълими дарҳол тушкунликка учраган деган нотўғри хулосага келиш имконини бермайди. Кейинги даврларда Шайбонийхон, Қози Соқи, Сайид Аҳмад Ҳожи,Хўжа Аҳрор, Кўкалдош, Мадрасаи Олий, Шердор (нодир Муҳаммад девонбеги номи билан ҳам келтирилган), Тиллакори, Қози Абдуғаффор каби мадрасалар уларнинг фаолияти Мирзо Улуғбедан кейинги даврлардаги таълим жараёнларида муҳим ўрин тутган. Самарқанддаги мадрасалар, уларни сони, шаҳар ичидаги мадрасалар, шаҳар ташқарисидаги мадрасалар, уларда таълим ва тарбия жараёнларининг ташкил этилиши, адно, аусат, олий тоифаларга кирувчилари, мадрасаларда вақф даромадлари ва унинг тақсимланиши, вақфдан келган даромад мутавалли қўлида бўлиши, ўндан бир қисм эса мутаваллига тегиши, ўндан уч қисм мударрисларга тегишли бўлиши, яна ўндан бир қисми имом, фаррош, сартарошларга тегишли улуш бўлиб, ўндан беш қисм толиби илмлар ихтиёрида қолиши, бу улуш ҳужраларга тақсимланиши, Россия империяси ҳукумронлиги даврида айрим мадрасаларнинг вақф даромади 1500-1700 рублдан ошиши билан боғлиқ маълумотлар нафақат Самарқанд, балки бутун Туркистон ўлкаси учун бир хил амалда бўлганлигини кўрсатади.[4.8]

“Новое время” матбуот органининг 1879 йил 1491-сонида келтирилган мақолада Самарқанд шаҳрида 17 та мадраса фолият кўрсатаётганлиги ва улардаги толиби илмларнинг сони 600 нафарни ташкил этишини кўриш мумкин. Аммо, бу мадрасалар рус тилини ўрганишни йўлга қўйганлари бўлиб, ушбу мадрасани тугатиб, рус тилини ўзлаштирган маҳаллий аҳоли вакиллари кейинчалик Тошкентдаги проучилишига таълим олишлари учун юборилишлари ҳам эслатиб ўтилади.[5.99] 1880 йилги маълумотларга кўра, Самарқандда 589 та мактаб, 31 та мадраса мавжуд бўлиб, улар маҳаллий аҳолининг 205 мингини ўзида қамраб олган. Аммо, кўпчилик қишлоқ мактабларининг махсус бинолари бўлмаганлиги сабабли, ўқувчилар қишлоқ масжидида имом назорати остида саводларини чиқарганлар. Имомнинг йиллик иш ҳақи 3-10 рубль атрофида бўлиб, кўп ҳолларда у натура кўринишига эга бўлган. Бу эса 40-80 пуб оғирлик ўлчови бирлигини ташкил этган. Айрим жойларда 80-160 пудни ҳам ташкил этган. болалар бир китобни ўқиб тугатгандан кейин иккинчи китобни ўқишни бошлаётганда имомга 20-40 коопейк атрофида пул ёки натура кўринишда ҳақ тўлаган. Агар бола Қуръонни ўқишни бошласа, ўзига тўқ оилалар имомга сарпой қилган бўлса, камбағалроқ оилалар 2 рубль миқдорида сарф-харажат қилган. Мадрасаларда ўқишда камбағалроқ оила фарзадлари ҳужраларда туриб, вақфдан келадиган даромад эвазига кун кўрган бўлса, тўқ оилалар фарзандлари ўз ҳисобидан ўқиб, кечқурун уйига кетиши мумкин бўлган.[6.128]

“Туркистон тўплами”да келтирилган маълумотларда Мадраса таълимига қарашлар бир хил бўлмаганлигини кўрсатади. Мадрасаларнинг замон талабларига мос келмайдиган таълим дастурлари, мударрисларнинг айримларининг билим савиялари пастлиги, кунжаки домлалар фаолияти, бир вақтлар юзлаб томларга эга кутубхоналардаги асарларнинг сақланишига мутаваллиларнинг беэътиборлиги, мадрасалар учун ўқув дастурларининг минг йилдан буён ўзгармай келиши кабилар ҳам кескин танқид қилинганлигини кўриш мумкин.[7.171]

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Самарқанд минтақанинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва маданий марказлари сифатидаги ролини асрлар давомида сақлаб келди. Бу энг аввало таълим-тарбия жараёнларининг тўғри ташкил этилганлиги билан боғлиқ эди. “Туркистон тўплами”даги маълумотлардан кўринадики, Самарқанддаги таълим тизими Улуғбек даврида ўз чўққисига етиб, кейинги даврларда пасайиш кузатилсада бутунлай йўқолиб кетмади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Самария” описание древностей Мусульманских святин Самарканда. Абу Тахир Ходжа. перевод В.Л. Вяткина.//Туркестанский сборник. Т-528. – С. 76.
2. К раскопкам в Самарканд//Туркестанский сборник. Т-492. – С. 22.
3. Раскопка обсерватории Улугбека в Самарканд//Туркестанский сборник. Т-494. – С. 147.
4. Керенский Ф. Наши учебный заведения.//Туркестанский сборник. Т-418. – С. 8.
5. Нам пишут из Самарканда.// Туркестанский сборник. Т-248. – С. 99.
6. Самарканд.//Туркестанский сборник. Т-248. – С. 128.
7. Медресе и мактэб.//Туркестанский сборник. Т-427. – С. 171

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧСКАЯ ЦЕННОСТЬ ПАМЯТНИКОВ ИСТОРИИ И КУЛЬТУРЫ

Эйвазова Е.М.
Республика Азербайджан.
доктор философии по педагогическим наукам, доцент

В классификации аспектов ценности памятников истории и культуры художественно-эстетическая ценность занимает особое место. Эстетика и художественность представляют собой специфическую форму отношения к реальности. Немецкий этнограф Юлиус Липс, изучавший происхождение предметов, доказывает, что независимо от их функций в общественной жизни все предметы изначально обладают художественно-эстетической природой [Липс, Ю. Смоленск: Русич, – 2001]. Он основывает свои выводы на фактах, свидетельствующих о том, что ещё древние люди придавали эстетический вид бытовым и хозяйственным предметам. Несмотря на их утилитарное назначение, древние люди добивались красоты и изысканности, придавая этим предметам различные художественные формы. Люди стремились украшать всё, что создавали, поскольку это было одним из способов выражения своих мыслей, чувств, мировоззрения и опыта. Таким образом, можно заключить, что художественность и эстетичность являются характерными свойствами не только произведений искусства, но и разнообразных материальных и духовных объектов реальности. Этот факт также указывает на широкий диапазон исследуемых в данном разделе объектов. Если понятие «художественное» характеризует отношение человека к миру через произведения искусства, то «художественность» подразумевает их содержательную составляющую, образный язык, мастерство исполнения и другие свойства. Эти характеристики позволяют определить эстетическую выразительность произведений искусства. Художественность обязательно связана с искусством и является свойством художественного произведения.

Художественность – это то, что создаётся мастером благодаря эстетическому восприятию. Поэтому выявление художественной ценности следует понимать как оценку человеческой деятельности. Этот аспект составляет основное различие между художественной и эстетической ценностью. Эстетичность является характерным свойством всех явлений реальности, в то время как художественность выступает исключительно как проявление творческой деятельности человека. Будучи основной эстетической ценностью, красота также представляет собой «эталон эстетической ценности» [2. Столевич, Л.Н.1985. с.167]. В итоговых положениях исследования немецкого этнографа Ю. Липса также подчёркивается, что чувство красоты играло важную роль в художественно-эстетическом оформлении первобытных предметов [3. Столевич, 1985, с.49]. Однако оценка упомянутых памятников с точки зрения эстетической ценности, а не художественной, кажется более логичной. Это утверждение также согласуется с мыслями советского философа Л. Когана о природе эстетики. Л. Коган считал, что любой предмет или явление, способные дарить человеку эстетическое наслаждение, можно назвать эстетическим объектом. Он писал: «*Отношение человека к явлениям с позиции художественного вкуса всегда аксиологично (ценностно), так как ценность произведения искусства (или другого эстетического объекта) определяется его способностью дарить нам эстетическое наслаждение, радость, эстетическое волнение»* [4. Коган, Л.Н. 1966. с.25]. Таким образом, из этого можно сделать вывод, что любой предмет или явление, дарящие человеку радость и волнение, обладают эстетической ценностью. Такой подход можно считать методологически обоснованным при исследовании эстетической ценности исторических и культурных памятников. В музееведении ассоциативность, экспрессивность и сенсорное воздействие объектов рассматриваются как важные компоненты музеальной ценности. Изучение эстетики с гносеологической (как формы отражения и познания реальности искусством), психологической (исследование психических процессов, характеризующих восприятие искусства) и аксиологической (эстетическое отношение человека к объективной реальности и художественное восприятие)

точек зрения подтверждает возможность объединения художественной и эстетической ценностей в определении статуса «памятник».

Таким образом, научный и объективный подход к выявлению художественно-эстетической ценности любого объекта, являющегося продуктом человеческого творчества, является необходимым. Оценивание художественной и эстетической ценности произведений искусства на основе таких универсальных критериев, как формальная организованность, пропорциональность, единство содержания и формы, подтверждает правильность этого решения. Принципы интеграции и междисциплинарности, используемые в методах исследования музееведения, считаются логичными и объективными для такого анализа.

Одним из традиционных произведений искусства, имеющих статус «памятника истории и культуры», является архитектурный объект. Ещё в античные времена греки и римляне оценивали сооружения своих предков по критериям красоты и художественности. Для древних греков античное архитектурное сооружение, прежде всего, являлось украшением города: улицы и кварталы выглядели красивее благодаря великолепным архитектурным сооружениям, что вызывало у жителей гордость. Все эти позитивные характеристики были связаны с показателями художественной ценности архитектурных построек.

Известный искусствовед Б. Р. Виппер подчёркивает художественную и эстетическую ценность архитектурного произведения, отмечая, что оно воздействует не только на органы зрения человека, но и на его духовное и эмоциональное восприятие в целом. Он утверждает, что ощущение архитектуры создаётся не только через непосредственное прикосновение к её поверхности, но и через восприятие тяжести стен, высоты потолков, движения света, влияющих на всё тело зрителя и вызывающих эстетические чувства. «*...Облик здания плюс движение зрителя в его пространстве – только тогда возникает представление о художественном организме постройки*» [5. Виппер, Б.Р. 1970, с.363-365]. Б. Р. Виппер, рассматривая необходимость соотнесения архитектурных памятников с ритмом современной жизни, выдвигает идею о том, что только тогда, когда люди активно используют их, они могут глубже осознать их художественно-эстетическую ценность. Этот взгляд полностью согласуется с современной практикой Совета Европы, который адаптирует архитектурные памятники, обладающие статусом исторического и культурного наследия, для различных функций.

Процесс трансформации архитектурного объекта в «памятник» имеет иерархические уровни. Прежде всего, объект должен получить статус «архитектурного памятника», а затем пройти этап преобразования в более высокий ранг – «памятник истории и культуры». Критерии, определяющие эти уровни, обладают интегральным характером. Это объясняется тем, что художественно-эстетическая ценность, являющаяся ключевым критерием для «архитектурного памятника», также играет активную роль в присвоении следующего уровня – «памятник истории и культуры».

Совершенство композиции (форма, пространство, время, материал, конструкция, свет, цвет и др.), элементы архитектурных форм (колонны, пилоны и др.), закономерности композиции (модульность, пропорции, контраст, ритм, симметрия, масштаб и др.), оптимальное расположение в окружающей среде, декоративно-прикладные элементы (орнаменты, узоры, украшения) – всё это является факторами, активно влияющими на эстетическую привлекательность архитектурного объекта. В процессе оценки архитектурных памятников эти характеристики рассматриваются как «нематериальные активы» и архитектурные элементы.

В XX веке система ценностных критериев архитектурных памятников начала развиваться, что значительно повлияло на их признание как памятников истории и культуры более высокого ранга. В мае 1964 года по инициативе комитета ЮНЕСКО была принята Венецианская хартия, в которой архитектурные памятники, городские и сельские постройки были признаны активами культурного наследия. Большую роль сыграла Конвенция о защите архитектурного наследия Европы, принятая в 1985 году. Исходя из приоритетов, отведённых архитектурному наследию, Комитет ЮНЕСКО по Всемирному культурному и природному

наследию признал возможной оценку архитектурных произведений на основе следующих критериев:

− уникальность, подлинность, древность предполагаемых объектов или их элементов;

− красота объекта или его особая ценность с точки зрения археологии, истории, этнологии, антропологии, вызывающая интерес;

− наличие у объекта потенциальной информации, способной изменить существующие представления о том или ином факте, событии;

− включение памятников, имеющих национальное значение для культурного наследия, в список ЮНЕСКО.

Таким образом, исследование проблемы художественно-эстетической ценности памятников истории и культуры в контексте музееведения привело к следующим научным выводам:

− художественно-эстетическая ценность, особенно в произведениях искусства, является основным аспектом, определяющим статус памятников истории и культуры и их последующую охрану. Однако в переходе объектов, не связанных с искусством, в этот статус эстетическая ценность также выступает в качестве критерия;

− художественно-эстетическая ценность является составной частью музейной ценности памятников истории и культуры;

− музейная значимость художественно-эстетической ценности проявляется в информативности памятников истории и культуры, а также в их способности вызывать эмоциональное восприятие, ассоциативность, оригинальность, уникальность и аутентичность.

Список использованных литературы

1. Липс Ю. Происхождение вещей. Из истории культуры человечества \ Ю.Липс. (Пер. с нем. В.М. Бахта.) – Смоленск: Русич, – 2001.
2. Столевич Л. Н. Жизнь-творчество-человек: Функции художественной деятельности / Л.Н. Столевич. – Москва: Политиздат, –1985.
3. Столевич Л.Н. Жизнь-творчество-человек: Функции художественной деятельности / Л.Н. Столевич. – Москва: Политиздат, –1985, с.49.
4. Коган Л.Н. Художественный вкус / Л.Н. Коган. – Москва: Мысль, – 1966, с.25.
5. Виппер Б.Р. Статьи об искусстве / Б.Р. Виппер. – Москва: Искусство, – 1970, s.363-365.

XX ASRNING 70-80 YILLARIDA JANUBIY O‘ZBEKISTON SHAHARLARIDA MADANIY HAYOT

Polvonov K.N.
Qarshi davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 70-80 yillarida janubiy O‘zbekiston shaharlarining madaniy hayoti haqida so‘z yuritilgan. Jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo oblasti shaharlarida faoliyat ko‘rsatgan ashula va raqs ansambllari, teatrlar, klublar va madaniyat saroylariga oid ma’lumotlar berilib, ular atroflicha tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Janubiy O‘zbekiston, oblast, shahar, shaharlar, ansambl, teatr, klub, madaniyat saroyi.

Аннотация: В статье рассматривается культурная жизнь городов южного Узбекистана в 70-80-х годах XX века. В частности, была предоставлена и подробно проанализирована информация о ансамблях песни и танца, театрах, клубах, дворцах культуры, действующих в городах Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей.

Ключевые слова: Южный Узбекистан, область, город, города, ансамбль, театр, клуб, дворец культуры.

Abstract. This article discusses the cultural life of the cities of southern Uzbekistan in the 1970s and 1980s. In particular, it provides information about the song and dance ensembles, theaters, clubs, and palaces of culture that operated in the cities of Kashkadarya and Surkhandarya regions, and analyzes them in detail.

Key words: South Uzbekistan, region, city, cities, ensemble, theater, club, palace of culture.

Jamiyat hayotining asosiy yo‘nalishlaridan biri bu madaniy soha bo‘lib hisoblanadi. Janubiy O‘zbekiston shaharlarida XX asrning 70-80 yillarida sohani rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan. Sovet hokimiyati yillarida Qashqadaryo oblastining Beshkent shahrida “Cho‘l

chamani”, Koson shahrida “Dilrabo”, Kitob shahrida “Kiftiob”, “Sado”, Chiroqchi shahrida “Oltin qo‘llar”, “Chiroqchi chiroqlari”, G‘uzor shahrida “Nargiz”, Surxondaryo oblastining Boysun shahrida “Shalola”, “Boysun”, Denov shahrida “Do‘stlik”, “Chevar”, Sho‘rchi shahrida “Gulruh”, “Navro‘z”, “Kumush tola” kabi ashula va raqs, folklor ansambllari tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatgan. Faoliyati davomida ular qator yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

Beshkentdagi “Cho‘l chamani” ashula va raqs ansambli 1972 yilda tuzilgan. Ansambl xalq san’atini targ‘ib etish borasida keng faoliyat ko‘rsatdi. Ansambl faoliyatiga ko‘maklashish uchun poytaxt Toshkentdan bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzayev hamda raqs san’ati ustasi, baletmeyster Isaxon Oqilovlar Beshkentga keldilar. Ular Beshkentda bir muddat bo‘lib, ansambl qatnashchilariga san’at sirlarini o‘rgatdilar. 1973 yil yozida Toshkentda o‘sha davr uchun an’ana tusiga kirgan “Marhabo, talantlar!” ko‘rik tanlovi o‘tkazilgan. Ko‘rikda “Cho‘l chamani” ansambli ham qatnashdi. Ansambl poytaxtdagi “Bahor” konsert zalida o‘z san’atini namoyish etdi. 1973 yilda “Cho‘l chamani” ansambli Butunittifoq xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasining tashabbusi bilan uyushtirilgan badiiy havaskorlarining festivalida qatnashish uchun Moskvaga bordi. Ansambl “Ostankino” telestudiyasida o‘z san’atini namoyish etib, Butunittifoq xalq xo‘jaligi yutuqlari ko‘rgazmasining bronza medalini qo‘lga kiritdi hamda badiiy havaskorlik to‘garaklari o‘rtasida 3-o‘rinni ishg‘ol etdi[1].

Qamashidagi “Bo‘ston” ashula va raqs ansambli 1971 yili respublika xalq ansambllari ko‘rigida 1-o‘rinni olib, jamoa o‘zining sharafli nomini oqladi. Ansambl 1972 yili Italiyada ijodiy safarda, shu yili Moskvada Butunittifoq xalq xo‘jaligi ko‘rgazmasida, 1972 yil avgust oyida jamoa “Marhabo, talantlar!” telefestivalida, 1974 yilda “Biz talantlarni izlaymiz” telefestivalida ishtirok etdi. 1978 yilda Andijonda o‘tkazilgan ansambllarning respublika ko‘rigida 1-o‘rinni oldi. Qamashilik san’atkorlar respublikamizning barcha oblastlari va shaharlarida bo‘lib, o‘z san’atlarini namoyish etdilar[2].

Ansambllar korxonalarda, dala shiyponlarida, chorva fermalarida bo‘lib, kechalar, ommaviy sayillar tashkil etdilir, konkurslarda muvaffaqiyatli qatnashdilar. Turli konkurslarda qatnashib, diplom va faxriy yorliqlar bilan mukofotlandilar. Shuningdek, ular xorij davlatlarida ham o‘zbek san’atini namoyish etdilar. G‘uzordagi “Nargiz” ansambliga 1972 yil xalq ansambli maqomi berilgan bo‘lib[3], ushbu ansambl Ozarbayjon, Armaniston kabi qator davlatlarda ijodiy safarlarda bo‘ldi[4].

Xalq ansambllarining orasida Boysun rayoni madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan “Shalola” xalq ansamblining o‘ziga xos o‘rni bor. 1975 yilda Polsha Respublikasining Zakopane shahrida “8-Jahon tog‘lik o‘lkalar folklor festivali” bo‘lib, unda Boysunning “Shalola” ansambli ham o‘zining folklor dasturi bilan ishtirok etdi, faxrli ikkinchi o‘rinni egallab, “Kumush bolta” sovriniga sazovor bo‘ldi. Biroq, ushbu festival doirasida o‘tkazilgan harbiy paradda ansamblning qatnasha olmay qolganligi hamda turli taziyq va taqiqlar to‘fayli uning faoliyati to‘xtab qoldi.

Mazkur ansambl o‘rnida 1986 yilda “Boysun” folklor-etnografik ansambli tuzildi. Dastaga Xoliq Xursandov badiiy rahbar, Habib Umarov musiqa rahbari etib tayinlangan[5]. 1987 yil sentabrda “Boysun” ansambli Moskvada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston kunlarida ishtirok etdi. 1987 yil aprel oyida Butun ittifoq xalq ijodiyoti festivalining respublika bosqichida “Dehqonning bir yili” nomli 30 daqiqalik dasturi bilan qatnashdi. 1987 yil “Boysun” folklor-etnografik ansambliga “Xalq ansambli” unvoni berildi[6].

Shu davrda Sho‘rchining “Gulruh” xalq ansambli, “Navro‘z” xalq ashula va raqs ansambli, “Kumush tola” badiiy havaskorlik jamoalari o‘zlarining malakali, mahoratli dasturlari bilan faqat oblast yoki respublika miqyosida emas, balki sobiq Ittifoqda katta obro‘ qozondilar. Ammo, Sharg‘un shahrida madaniy qadriyatlarni tiklash va taraqqiy ettirishga yetarli e’tibor berilmagan. Surxondaryo vohasiga xos bo‘lgan milliy ashula va raqs havaskorlik to‘garaklari va ansambllari tuzilmadi[7].

Janubiy O‘zbekistonning markaz shaharlarida kinoteatrlar binosi qurilib, samarali faoliyat olib bordi. 1971 yilda 165-trestning Termizdagi 1-qurilish boshqarmasi bunyodkorlari tomonidan keng hajmli, 850 tomoshabinga mo‘ljallangan “Bahor” kinoteatrining qurilib, ishga tushirilganligi Termiz shahri mehnatkashlari hayotida katta voqea bo‘ldi[8].

1978 yilda Termiz shahridagi Mannon Uyg‘ur nomidagi Surxondaryo oblast teatri o‘zbek teatrlarida rus tilida asar qo‘yish tashabbusi bilan chiqdi. Bu tashabbus M.Bayjiyevning “Kuyov va kelin” dramasi bilan boshlandi. A.Arbuzovning “Staromodnaya komediya”, T.Minullinning “Odinokaya”, A.Gelmanning “Nayediniye so vsemi” asarlari rus tilida sahnalashtirildi[9].

Qarshi shahridagi Qashqadaryo oblast musiqali drama teatri 1986 yil boshida yangi binoga ko‘chib o‘tdi. 1988 yil 4 oktabrda Abdurahmon Abdunazarov boshchiligida bir guruh yosh aktyorlar oblast teatridan ajralib chiqib, “Muloqot” teatr studiyasini tashkil etdilar. Teatr Sh. Boshbekovning “Temir xotin” spektakli bilan ochilgan[10].

Kichik shaharlardagi madaniyat uylari qoshida ham kinoteatrlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, yillar davomida kinoteatrlar soni ortdi, aholiga kino xizmati ko‘rsatishda qator o‘zgarishlar yuz berdi. 1978 yilga kelib Beshkent shahri aholisiga 1 ta qishki, 1 ta yozgi kinoteatrlar, 1982 yilda Kitob shahrida “Oktabr 50 yilligi”, “Zafar” kinoteatrlari ishlab turdi[11].

G‘uzor shahrida ham bu boradagi ishlar izchillik bilan yo‘lga qo‘yildi. 1985 yilga kelib shahardagi madaniyat uyi qoshida 5 ta kinoteatr faoliyat olib borib, shundan 3 tasi yozgi kinoteatrlar edi[12].

Kinoteatrlar ishini tashkil qilishda muammolar ham mavjud edi. Masalan, aholiga kino ko‘rsatish reja asosida tashkil qilinmadi. Beshkent kinoteatrlarida 1978 yilning birinchi yarmida 910 seans o‘rniga 800 seans ko‘rsatildi. Tomoshabin rejasi 151 ming kishi bo‘lib, bu ko‘rsatkich ham 127212 kishiga bajarilgan, xolos[13]. Shahar kinoteatrlarida bolalar uchun kino ko‘rsatish reja asosida amalga oshirilmadi. Vaholanki, har oy Qashqadaryo oblast kinoteatr va kinoustanovkalar boshqarmasi tomonidan kinolentalar yuborilib turilgan. Shuningdek, kino muxlislariga chipta sotishda ortiqcha haq olinishi, kino zallarining iflosligi kabi salbiy holatlar uchrab turgan. Kinoteatrlarda yig‘im rejalari asosan hind kinostudiyasida tayyorlangan kinolentalar hisobiga amalga oshirilgan.

Keyingi yillarda ayniqsa, 1989-1990 yillarda kinoteatrlar, vedeosalonlar ekranini xorij filmlari egalladi. Bu filmlarda odob-ahloq, hayo haqida emas, zo‘ravonlik va hayosizlikni targ‘ib etuvchi filmlar namoyish etildi. Tomoshabinlarning 85-90 foizi 12-22 yoshli o‘smirlar bo‘lib, ular orasida hatto 7-8 yoshlilari ham bor edi[14]. Bu holat yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Janubiy O‘zbekiston shaharlarida klublar, madaniyat saroylari ham qurildi. Masalan, 1976 yilda Yangi Nishonda 600 o‘rinli madaniyat saroyi qurib bitkazildi[15]. 1978 yilda Sho‘rchi shahrida 2 qavatli yangi madaniyat saroyi foydalanishga topshirildi[16].

Madaniyat saroylarida, shahar markazlarida taniqli yozuvchi va shoirlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish an’anaga aylandi. Shuningdek, madaniyat saroylarida taniqli san’atkorlar va badiiy havaskorlik jamoalarining konsertlari namoyish etildi. Madaniyat uylari hamda markaziy kutubxonalar hamkorligida kitobxonlar konferensiyasi, uchrashuvlar, qizlar davrasi, “Iqbol” konkursi, “Balli yigitlar” musobaqasi, shoir va yozuvchilar tug‘ilgan kunlarini, tarixiy sanalarni nishonlashga bag‘ishlab turli kechalar o‘tkazilgan.

Ammo, shahar madaniyat uylari, ular qoshidagi ansambllar faoliyatini tahlil etilganda, bu borada jiddiy kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Masalan, 1985 yilda G‘uzor shahar madaniyat uyi uchun binoning o‘zi yo‘q edi[17]. Madaniyat uylari qoshidagi ansambllar chiqishlarida saviyasi past kuy va qo‘shiqlar o‘rin ola boshladi. Madaniyat bo‘limi xalq orasidan yetishib chiqqan iste’dodli yoshlarni izlab topish va ular ijodini keng yoyish ishiga e’tiborsizlik bilan qaradi.

Shaharlarda klublarning foydalanishga topshirilishi tufayli turli to‘garaklar, badiiy havaskorlar ansambllari ijod qilishi mumkin bo‘ldi. Biroq, shuni alohida ta’kidlash joizki, 1980-yillarning oxirlarida aksariyat klublar faoliyatida rasmiyatchilik avj oldi. Klublarda kino, ahyon-ahyonda bo‘ladigan konsertdan tashqari boshqa tadbirlar amalga oshirilmadi. Shuningdek, o‘nlab to‘garaklarni ishlashi lozim bo‘lgan holda ular qog‘ozda qolib ketdi[18].

Xullas, XX asrning 70-80 yillarida O‘zbekiston janubiy shaharlarida ulkan madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Jumladan, ashula va raqs, folklor ansambllari, kinoteatrlar, klub va madaniyat saroylari tashkil etilib, faoliyat ko‘rsatdi. Madaniy muassasalar yurtimizda, sobiq Ittifoq hududlarida o‘z ijodlarini namoyish etib, yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Shuningdek, mazkur muassasalar faoliyatida jiddiy kamchilik va nuqsonlar ham ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ergashev E. Beshkent tarixi. –Qarshi: Nasaf, 2000. –B. 65-66.
2. Boymirov T., Boyqobilov O‘. Qamashi va qamashiliklar. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. –B. 158.
3. Choriyev Z., Jo‘rayev A. G‘uzor tarixidan lavhalar. –Qarshi: Nasaf, 1997. –B. 48.
4. Nuriddinov H. G‘uzorliklar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. –B. 138.
5. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. – Toshkent: “Akademnashr”. 2011. – B.328.
6. Pardayev T. Janubiy O‘zbekistonda 1945-1991 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. –B. 236.
7. Tursunov J. O‘zbekiston shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti tarixi (Boysun, Sharg‘un va Sho‘rchi shaharlari misolida) 1971-1990 yy. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun taqdim etilgan dissertatsiya. –Samarqand, 1995. –B. 104.
8. Azimov M. Termiz tarixi. –Qarshi: Nasaf, 2001. –B. 168.
9. Sohibova M.T. O‘zbekistonda madaniy hayot: tajriba va muammolar (Janubiy viloyatlar misolida (1946-1985 yy.)). Tarix fanlari nomzodi diss. avtoreferati. – Toshkent, 2008. –B. 19.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qashqadaryo_teatri
11. Shahrisabz tuman davlat arxivi, 477-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 15-ish, 3-varaq.
12. G‘uzor tuman davlat arxivi, 8-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 59-ish, 33-varaq.
13. Qarshi tuman davlat arxivi, 320-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-ish, 3-varaq.
14. Qarshi tuman davlat arxivi, 320-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 114-ish, 52-varaq.
15. Mamatqulov B., Sharipova M. Nishon tumanining sovet mustamlakachiligi yillaridagi ahvoli. – Toshkent, 2012. –B. 93.
16. Eshboyev T. Sho‘rchi shuhrati va inson qudrati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. –B. 182.
17. G‘uzor tuman davlat arxivi, 8-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 59-ish, 33-varaq.
18. Polvonov K. Qashqadaryo vohasi shaharlari tarixi (1970-2021 yillar). –Toshkent: Tamaddun, 2022. –B. 88.

БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИНИНГ МОЛИЯВИЙ СИЁСАТИ.

Тўхтаева Р.Н. – *ҚарДУ доценти*
Алимова В.А. – *ҚарДУ магистри*

Бухоро Республикасида иқтисодий соҳани йўлга қўйиш учун, аввало, молия, давлат бюджети каби масалалар ҳукумат томонидан мукаммал ишлаб чиқилиши талаб этилди. Аммо бу даврда ёш республиканинг молиявий ҳаёти тўла издан чиқган бўлиб, давлат даромади ва харажатлари тўғрисида аниқ ҳисоб-китобишлари юритилмади. Бу эса давлат бюджетини ишлаб чиқишга тўсқинлик қилди. Шу боис, дастлаб давлат даромадининг асосий манбаи ҳисобланган солиқ тизими қонунчилигини ишлаб чиқиш ва йўлга қўйишга эътибор қаратилди. Ёш бухороликлар Бухорода янги бир жамият тузишга ҳаракат қилиб, бунда молия ва солиқ тизими ишини янгидан ташкил қилиш, уни давлат ва халқ манфаатига мувофиқлаштиришга интилди. Аммо БХСРда солиқ сиёсати жадидлар дастури бўйича эмас, совет ҳукумати талабларидан келиб чиқиб амалга оширилди. 1921 йил 26 ноябрда Умумбухоро МИК Раёсати давлат солиғи тўғрисидаги қонунни қабул қилди. Эски турдаги солиқлар бекор қилиниб, 1922 йил 1 январидан бошлаб, 1/10 ушр, чорвадан ҳар 40 бошдан бир бош олинадиган закот, сармоянинг 1/40 улуши олинадиган ҳунармандчилик, ҳар бир таноб суғориладиган ердан бир танга олинадиган сув, мол-мулкдан 1/40 улуш олинадиган коммунал солиқлари жорий этилди.

БХСР да солиқ йиғиш ишларига жуда қатъийлик билан ёндашилди. Ҳукумат асосан ушр ва закот солиғидан тушган маблағ эвазига давлат аппарати, мактаблар, касалхона ва бошқа муассасалар харажатларини қоплашга ҳаракат қилди. Бухоро Иқтисодий Кенгаши томонидан солиқлар йиғими ҳақида қатъий кўрсатмалар берилди. Унда маҳаллий ҳокимият органлари ушр ва закот солиғининг ўз вақтида тўла тўпланишини таъминлаши, ҳар қандай қаршилик тезда бартараф этлиши, солиқчилар томонидан порахўрликка йўл қўйилса, шафқатсиз жазоланиши ҳақида гапирилди. Кўрилган чора-тадбирлар натижасида солиқ сиёсатида жонланиш рўй берди. Масалан, 1921 йил БХСР да озиқ-овқат солиғидан жами

1450626 олтин пул ҳисобида 1843336 пуд маҳсулотлар (буғдой, майиз, пахта, мош ва бошқалар) йиғилиб, шундан 153478 олтин пуллик 12430 бош қора мол ҳам солиқ сифатида аҳолидан олинди. Кейинги йили бу солиқлар миқдори ошиб борди ва 1922 йил БХСР да 1490338 сўмлик 1855.048 пуд маҳсулот солиқ сифатида йиғиб олинди.

Бухоро республикасида ҳам Хоразм ва Туркистон республикалари каби озиқ-овқат разверсткаси жорий этилиб, деҳқонларнинг етиштирган маҳсулотлари шафқатсизларча мусодара қилинди. Масалан, 1921 йили Шарқий Бухородан озиқ-овқат разверсткаси баҳонасида 1,5 млн пуддан ортиқ ғалла мусодара қилинди.

РСФСР Бухоро ва Хоразм республикалари фаолиятига раҳбарлик қилиш ва улар устидан кучли назорат ўрнатишга интилди. Республикаларнинг турли маъсулиятли давлат лавозимларида албатта РСФСР ҳукумати вакиллари турди. Масалан, республика халқ нозирлари ўринбосарлари албатта РСФСР вакилларидан қўйилди. Масалан, Бухоро Молия нозири ўринбосари Тимофеев эди. Шунингдек, Гуревич, Эдренкин, Мирошников, Цигильбам, Михайлов, Платоновлар БХСР ҳукуматида турли маъсулиятли лавозимларига қўйилди.

БХСР ва ХХСРни давлат мустақиллигидан маҳрум қилиш, барча соҳалар фаолиятини мувофиқлаштириш ишини Россия қўлига бериш, хусусан, молия, пул муомаласи сиёсатига умумий йўналиш бериш мақсадида 1923 йил 9 мартда Ўрта Осиё иқтисодий Кенгаши (Средаз ЭКОСО) тузилди.

Бухоро ва Хоразм Иқтисодий Кенгашлари республика иқтисодиёти, қолаверса, молия соҳасини марказ манфаатларига буйсундиришда, молиявий бошқарувни Марказ қўлига топширишда, Иттифоқ ягона халқ хўжалигини барпо этишда муҳим роль ўйнайди. Иқтисодий Кенгашлар большевиклар мафкураси учун хизмат қилди.

Бухоро ва Хоразм Иқтисодий Кенгашлари зиммасига ягона молиявий хўжалик режаларини ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш, иқтисодий ва молиявий ишини йўлга қўйиш борасида нозирликлар ва идоралар устидан раҳбарлик қилиш, Республикаларда хўжалик соҳасида юритилаётган ишларнинг совет тузумига мослиги устидан назорат олиб бориш, турли соҳалар фаолиятини мувофиқлаштириш ва бошқариш каби вазифалар юклатилди. Шунингдек, Иқтисодий Кенгашлар эски пул бирликларини совет пулларига алмаштириш, янги солиқ тизимини ишлаб чиқиш, давлат бюджетини шакллантириш, хўжаликнинг турли соҳалари фаолиятини ўрганиш каби вазифаларни ҳам бажарди. Уларнинг фаолияти асосан режалаштириш ва кузатиш характерига эга бўлди. Шунингдек, улар хўжалик масалалари бўйича қонунчилиги нуқтаи-назардан режалар ишлаб чиқиб, нозирлик органларини режаларда белгиланган вазифаларни ҳаётга татбиқ этишларини назорат қилиб турди. Бухоро Иқтисодий Кенгаши раиси А. Мухитдинов, Хоразм Иқтисодий Кенгаши раиси А. Усмонов эди.

1923 йил 19 октябрда Бухоро Иқтисодий Кенгашининг навбатдаги йиғилиши бўлиб, унда турли масалалар қатори, аҳолидан йиғиладиган солиқлар хусусида ҳам фикрлар билдирилди. Хусусан, бундан буён аҳолидан турли йиғимлар тўплашда “ўзбошимча”ликка йўл қўймаслик, фақат муайян қонунларга мувофиқ йиғимлар “жарчи” эълонидан сўнг тўпланиши лозимлиги уқтирилди.

Аммо Бухоро республикасининг турли ҳудудларида солиқлар турли шаклларда тўпланиб, Ғарбий Бухорода “ушр”, “закот” пул шаклида, Шарқий Бухорода эса маҳсулот шаклида йиғилди. 1923 йили Ғарбий Бухорода қишлоқ хўжалигидан йиғиладиган солиқ миқдори 1.810.000 рубль миқдорида белгиланди. Закот ҳар 35 та қўйдан 1 та қўй белгиланиб, 8 тагача оти ва туяси бўлган хўжаликларча солиқ солинмади. 8-15 от ёки туяга 1 та қўй солиқ сифатида белгиланиб, катта қорамоллар солиғи ҳам шу тартибда ундирилди.

БХСРнинг 1924 йил 9 февралда акциз тўғрисидаги Низоми жорий этилди. 1924-1925 хўжалик йилида шаҳар аҳолисидан даромад солиғи олиш белгиланади. Даромад солиғи тўловчи аҳоли маоши миқдори, машғулот турига қараб 3 тоифага ажратилиб, солиқ миқдори белгиланди.

Совет давлати солиқларни имкон қадар пул шаклида олишга ҳаракат қилди. Бу турли ҳудудларда турлича ҳал этилди. Масалан, 1924 йил январида БХСРда халқ комиссар-

ларининг молиявий масалалар бўйича йиғилиши ўтказилиб, унда аҳолидан йиғиладиган солиқга оид ҳам фикрлар билдирилади. БХСР солиқ бошқармаси бошлиғи ўринбосари Боголюбовнинг маърузасида ушур солиғи бўйича режага мувофиқ 1300.000 рубль йиғилмагани, Бухоронинг баъзи туманларида ушур солиғи дон шаклида, ғарбий Бухородан пул шаклида йиғиб олиниши мўлжалланаётганлиги қайд этилди. Шарқий Бухорода эса, вазиятга, омма кайфиятига қараб ушур солиғининг тўлов шакли аниқланиши лозимлиги таъкидланди. Шунингдек, солиқлар албатта олтин пул ҳисобида йиъғилиши керакли уқтирилди. Чунки олтин пуллар қиймати червонец рублларига нисбатан, 1,5 марта ортиқ эди. Бухоро ва Хоразмда ҳам РСФСР солиқ тизими жорий этилди. Ўрта Осиё республикаларида асосий даромад деҳқонларидан йиғиладиган солиқлар ҳиссасига тўғри келиб, 1925 йили 1 кварталида режа бўйича қишлоқ хўжалигидан 22 млн рубль, сувдан 7 млн. рубль, жами 29 млн рубль йиғилди.

Бухоро республикаси бюджет даромадини шакллантириш асосан оддий деҳқон зиммасига тушди. Аммо фуқоролар уруши, сиёсий, иқтисодий танглик туфайли деҳқон хўжаликларининг кўпчилиги хонавайрон бўлган эди. Ушбу ҳолат ҳисобга олиниб, 1923-1924 бюджет йилида қишлоқ хўжалигининг асосий солиғи ушур камайтирилди. Натижада ушур солиғидан тушадиган даромад 1.990.000 рублга камайди.

1924 йил Бухоро ички савдосида давлат савдосига қаршли 12 та бўлим ва 15 та кооперация ишлаб турди.

Ташқи савдони ривожлантириш ва экспорт ҳажмини оширишда темир йўлларнинг аҳамияти жуда катта эди. Аммо Ўрта Осиё республикаларида темир йўл қурилиши бир оз суст борди. Масалан, Бухоро республикасининг ер майдони 217 минг кв.верст бўлиб, 533 верст темир йўл ва 990 верст сув йўли мавжуд эди.

Давлат даромадларининг бир қисми асосан экспорт ҳисобидан бўлиб, аммо БХСРда турли сабабларга кўра бир қанча вақт тери, қоракул, калта, жун каби маҳсулотларини четга сотиш имкони бўлмади. Биринчи жаҳон урушига қадар Бухоронинг экспорти биргина Россияга 31.255.00 олтин рублни ташкил этди. Шунингдек, Бухоро Ҳиндистон, Эрон, Афғонистон, Хитой каби давлатларга ҳам маҳсулотлар экспорт қилди. Жумладан, 1911 йил Бухоро четга 2.000.000 пуд пахта, 1.800.000 дона қоракул тери, 280.000 пуд жун, 900.000 пуд қизилмия дуккакли ўсимлиги 1.000.000 пуд ичак экспорт қилиниб, уларнинг умумий миқдори 36.000.000 олтин рубль эди. 1923-1924 хўжалик йилида экспорт миқдори кескин камайиб, 10.000.000 олтин рублга тушиб кетди.

Бухорода давлат даромадининг бир қисми хорижда пахта экспорт қилиш натижасида қўлга киритилди. Масалан, Биринчи жаҳон урушига қадар Бухоро йилига 2 млн пудгача пахта экспорт қилган бўлса, 1920 йилда 1 пуд ҳам пахта четга чиқарилмади. Ушбу ҳолатлар ҳисобга олиниб, Бухоро республикасида пахта экин майдонлари кўпайтирилиб, 30.000 танобгача ерга пахтанинг америка нави экилиб, деҳқонлар солиқдан озод этилди.

БХСРнинг биринчи бюджети 1922-1923 хўжалик йилининг июнь-июль ойлари учун тузилиб, унинг даромад қисми 53,6 млн танга, харажат қисми 144.0 млн танга бўлиши режалаштирилди ва бунда бюджет тақчиллиги 90.4 млн тангани ташкил этди. Республиканинг иккинчи бюджети 1923-1924 йил 15 ойга тузилиб, у қуйидагича ҳолатда намоён бўлди:

1923-1924 хўжалик йили БХСР давлат бюджетининг 8 фоизи ёки 365.000 рубли сув хўжалигига ажратилади. Ушбу маблағ сув тизимини йўлга қўйиш ва тадқиқ этиш, бот-қоқликларни қуритиш, эски Бухоро сув ирмоқларини тозалаш, Дуабин плотинасини таъмирлаш, чорвадорлар учун қудуқлар қазиш томон йўналтирилди.

Россия Бухоро республикаси билан ҳамкорликда “Экспорт бўйича II ширкат”ни ташкил этди ва 1924 йил қоракўлчиликни ривожлантириш учун давлат савдо ташкилоти томонидан 400.000 рубль кредит ажратилди.

Бухоро республикасида давлат бюджетидан халқ маорифи учун ажратилган маблағлар миқдори ҳам жуда кам эди. Масалан, 1924 йил Бухоро республикасида халқ таълими учун 865.00 рубль, ёки давлат бюджетининг 2 фоизи ажратилди.

Ўрта Осиё республикалари солиқ тизими таққосланганда ўртада катта фарқ намоён бўлади. Бухоро республикасида бюджет асосан солиқлар ҳисобига қурилиб, аҳолидан олинадиган турли солиқ ва йиғимларни тўплашда қатъий тартиб-қоидаларга амал қилинди. Туркистон ва Хоразм республикаларида бу борадаги ишлар бир оз суст бўлиб, уларда қишлоқ хўжалиги фақат бир хил солиғи тўпланган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. ЎзР МА, 48-фонд, 1-рўйхат, 165-иш, 5-15-варақлар.
2. ЎзР МА, 49-фонд, 1-рўйхат, 1-иш, 11-варақ.
3. ЎзР МА, 53-фонд, 1-рўйхат, 48а-иш, 24-варақ.
4. ЎзР МА, 20-фонд, 1-рўйхат, 249-йиғма жилд, 26-29-варақлар.
5. Хоразм вилояти давлат архиви, 590-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 153-159-варақлар.
6. ЎзР МА, 49-фонд, 1-рўйхат, 3-йиғма жилд, 67-варақ.
7. ЎзР МА, 73-фонд, 1-рўйхат, 8-йиғма жилд, 3-варақ.
8. ЎзР МА, 53-фонд, 1-рўйхат, 48-а-иш, 26-варақ.
9. ЎзР МА, 93-фонд, 1-рўйхат, 329-иш, 61-64-варақлар.
10. ЎзР МА, 93-фонд, 1-рўйхат, 329-иш, 61-64-варақлар.
11. Акциз-кенг истеъмол молларига қўшимча эгри солиқ.
12. ЎзР МА, 37-фонд, 1-рўйхат, 2824-йиғма жилд, 11-12-варақлар.
13. ЎзР МА, 37-фонд, 1-рўйхат, 2824-йиғма жилд, 13-варақ.
14. ЎзР МА, 37-фонд, 1-рўйхат, 3138-йиғма жилд, 15-варақ.
15. Туркестанская правда. 1924, 4 май. №97.
16. Туркестанская правда. 1924, 31 март, №71.
17. ЎзР МА, 46-фонд, 1-рўйхат, 35-йиғма жилд, 51-варақ.
18. Юсуф Заде. Задачи и перспективы экономического строительство БНСР. // Народного Хозяйства Средней Азии. 1924, август. №1. С.18.
19. Туркестанская правда. 1924, 4 май, №97.
20. Бухарская жизнь, 1924, №1-2. С.20.
21. Бухарская жизнь, 1924, №1-2. С.20.
22. Хозяйство Республики. // Туркестанская правда. 1924, 11 март, №58.
23. Туркестанская правда. 1924, 11 март, №58.
24. Народное образование. // Туркестанская правда. 1924, 11 март, №58.

QARSHI SHAHRIDA SAVDO-SOTIQNING RIVOJLANISHI (XIX – XX ASR BOSHLARIDA)

Mo‘minov U. Qarshi DU dotsenti
Ashirmurodov A. Qarshi DU magistri

Shaharlar yirik savdo markazlari sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida shahar aholisi asosiy qismining asosiy mashg‘uloti savdo-sotiq edi. Vohadagi eng yirik savdo shahri bo‘lgan Qarshi butun Buxoro amirligining savdo aloqalarida katta o‘rin tutgan. Qarshi shahri katta karvon yo‘lining chorrahasida joylashganligi tufayli bu yo‘l orqali shahar sharq va g‘arb, janub va shimoliy o‘lkalar va mamlakatlar bilan doimiy aloqada bo‘lgan. Qarshi shahri Buxoro vohasini Shahrisabz va Hisor bilan bog‘lab turuvchi Buxoro amirligidagi muhim ahamiyatga ega shahar hisoblanadi.

N.A. Mayev Qarshi shahri haqida quyidagicha ma’lumot beradi, “O‘zining qulay joylashuviga ko‘ra Qarshi shahri atrofidagi dashtlarda yashaydigan turkmanlarning bozoriga va ulkan Buxoro bozorining esa muhim tranzit maskaniga aylangan. Buxorodan sharqqa va janubiy sharqqa qarab ketayotgan har bir kishi Qarshini chetlab o‘ta olmaydi. Shahar ichida ham bir biriga tutashib ketgan rastalar va yopiq saroylar bor. Qarshi shahar sifatida ma’muriy jihatdan emas, ko‘proq savdo-sotiq ishlari uchun qulay joylashuvi tufayli mavjud bo‘lib turgan taraqqiy etayotganga o‘xshaydi. Ko‘chalaridan aylanib o‘tsangiz shovqinli bozorda hamisha ishlab turgan va nima bilandir band odamlarni ko‘rasiz. Bu yerda siz yuzidan mug‘ombirlik bilinib turgan tojikni ham, o‘zbekni ham, qo‘y junidan tayyorlangan katta qora telpak kiyib olgan dasht farzandi turkmanni ham ko‘rasiz”.[10;42]

Ma’lumki Buxorodan keladigan karvon yo‘li Xo‘ja Muborakdan o‘tgach ikki tarmoqqa ajralgan yo‘lning biri Maymanoq orqali Qarshiga, undan G‘uzor orqali Toxaristonga o‘tgan. Qarshidan chiqqan yana bir yo‘l Qarshini Kesh (Shahrisabz) bilan bog‘lagan. Xo‘ja Muborakdan ajralgan ikkinchi tarmoq Kasbi, Bazda orqali Kelif kechuviga va undan Afg‘onistonga o‘tgan. Qarshi Samarqand bilan asosan Jom yo‘li bilan bog‘langan. Bu karvon yo‘llarida karvon tizimi kechayu-kunduz, qishin-yozin harakatda bo‘lgan. Qarshi aholisi asosan g‘alla, mayiz, hunarmandchilik buyumlari, teri va boshqa mahsulotlar bilan savdo qilganlar. Shahar atrofida joylashgan qishloqlardan Qarshiga dehqonchilik mahsulotlari – arpa, bug‘doy, paxta, tamaki, bog‘dorchilik, sabzavot va poliz mahsulotlari ko‘plab olib kelingan.

Chorvadorlar esa shahar bozoriga jun, jundan tayyorlangan iplar va tayyor mahsulotlar (gilam, xurjun, arqon va boshqalar) teri va teri mahsulotlari, tirik chorva mollari yetkazib berib turishgan. Shahar bozorida qorako‘l terilarga talab ayniqsa katta bo‘lgan. Qarshi shahri atrofidagi chorvadorlar tomonidan yetkazib beriladigan bu qorako‘l terilar Qarshi bozorida yig‘ilib, bu yerdan Buxoro orqali Rossiyaga olib chiqilgan. Chetga chiqariladigan qorako‘l terisi navlari ichida Qarshi bekligida yetishtiriladigan ko‘kish kulrang navi alohida o‘rin tutgan. Qorako‘l terisining donador, karpak (muddatidan avval tug‘ilgan qo‘zi terisi) deb nomlangan navlari juda mashhur bo‘lib, ular Rossiya, Angliya, Turkiya, Afg‘oniston, Xitoy, Eron, Qo‘qon, Xivaga ko‘p miqdorda jo‘natilgan.[15;32]

Qarshi shahri quyi Qashqadaryodagi barcha ko‘chmanchi chorvadorlar uchun asosiy savdo markazi edi. Qarshida katta mol bozori mavjud bo‘lib, bu bozorda hatto Amudaryo bo‘ylarida yashovchi turkmanlar ham o‘z qo‘ylarini va mashhur turkman otlarini sotish uchun olib kelishgan.[10]

Shuningdek, Qarshi bozoriga Surxon vohasidan keltirilgan dehqonchilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ham ko‘plab sotilgan. Manbalarda Hisordan olib kelingan olacha, SHeroboddan keltirilgan turli xildagi gilamlar, hisorlik ustalarning butun amirlikda mashhur bo‘lgan pichoq va xanjarlarini Qarshi bozorlarida sotilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Qarshi bozori orqali vohaning boshqa joylariga Samarqand va Buxoro hunarmandlarining mahsulotlari qimmatbaho ipak buyumlari ham tarqalgan.[11;92]

Hindistondan keltirilgan turli matolar ham Qarshi bozori orqali vohaga tarqalgan. Xususan, Panjobdan keltirilgan oq matoga aholi orasida talab katta bo‘lgan. Qarshida Hindistondan keltiriladigan paxta, ipak iplari, matolarni bo‘yashda ishlatiladigan bo‘yoq indigo ham sotilgan. Hindistondan keltirilib, Qarshi bozori orqali vohaga tarqaladigan mahsulotlar ichida ko‘k choyni ham aytib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. Qarshida shuningdek, Rossiyadan (XIX asr so‘ngida), Eron, Hindiston va Afg‘onistondan keltirilgan dorivor o‘simlik ildizlari, o‘tlar va dori darmonlar sotilgan.[7;51] Qarshi bozorida voha aholisining boy va o‘ziga to‘q oilalari Xitoydan keltirilgan chinni idishlar-piyola, choynak, kosa-tovoqlarni ko‘plab xarid qilishgan.

Shu tariqa, Qarshi Amudaryoga qadar cho‘zilgan ulkan dasht cho‘l zonasidagi yirik savdo markazi sifatida katta ahamiyatga ega edi. Bundan tashqari Qarshi Buxoroning Afg‘onistondagi (Balx, Hirot, Qobul) va Hindiston shaharlar bilan bo‘lgan savdo aloqalarida muhim o‘rin tutardi. Geografik kashfiyotlar natijasida suv yo‘llari ochilgan bo‘lsa-da, XVIII asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida ahamiyati ancha katta bo‘lgan karvon yo‘llaridan xorijiy savdogarlar to‘xtovsiz ravishda qatnab turgan. Sharq va g‘arbni bog‘lovchi mana shu yo‘lning bir necha tarmoqlari Qarshi shahrida kesishib chorraha hosil qilgan. Shuning uchun ham Qarshi shahri Buxoro amirligi xazinasiga mana shu savdo yo‘llari katta daromad keltirgan. Bu shahar karvonsaroylarida to‘htagan savdogarlar har bir sotiladigan mahsulot uchun amirlik xazinasiga boj to‘laganligini tarixiy ma’lumotlardan bilish mumkin. Masalan, bu yerda savdo karvonlari 1 ta tuya yuki uchun 105 tanga, 1 ta tuyaning o‘zi uchun 51 tanga, ot uchun 32, eshak uchun 15, qullarning har biri uchun 88 tangadan zakot to‘lagan.[17;32]

Buxorodan Eronga qorako‘lning olib ketilishi 1844 yildan (1851 yilgacha) boshlab ilgariga qaraganda yanada kuchayadi.[17;32] Chunki Buxoro amirligi tomonidan inglizlar bilan savdo aloqalarining ta’qiqlanishi boisidan Angliya hukumati to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki Eron savdogarlari vositachiligidagina qorako‘l sotib olishga majbur bo‘lgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki, qorako‘l Eron orqali Angliyaga, Angliya orqali esa butun Yevropa mamlakatlariga yetib

borgan. Uning Yevropa bozorlarida oltin bahosida sotilishida Rossiya savdogarlarining ham xizmatlari katta bo‘lgan, albatta.

Qarshi chorvador turkmanlar va arablar bilan qo‘shni bo‘lganligi bois, rus mualliflarining ko‘rsatishicha, u yerda katta masofaga, ya’ni 250 sajen (1sajen 2,1336 m ga teng) uzunlikka cho‘zilib ketgan alohida rastalarda jun va jun mahsulotlari bilan savdo qilingan.[9;25] Qarshi bozorlarida Turkman gilamlari ham sotilgan va bu gilamlar keyin Buxoroga jo‘natilib katta foyda olingan.[13;291]

Bundan tashqari, bu bozorda beklikdagi Qamashi qishlog‘ida to‘qilgan mashhur gilamlar savdosi juda qizg‘in bo‘lgan.[8;222] Naqshinkor hamda sifatli Qarshi gilamlari, shollari hamda kigizlarining Buxoro amirligining boshqa hududlarida ham dong‘i baland bo‘lgan.[14;126] Bunday gilam va kigizlar Eron (Hirot orqali Mashhadga), Rossiya, Istambul orqali Yevropa mamlakatlariga ko‘plab jo‘natiladigan mollar qatoridan o‘rin olgan.

Qarshi shahri o‘zidagina to‘qiladigan gilamlar uchungina emas, balki mashhur Kashmir shollarining xalqaro savdo bozoriga, jumladan, Rossiya va Yevropa mamlakatlariga chiqarilishi uchun ham vositachi bozor vazifasini o‘tagan. Chunki Qobul orqali Buxoroga keltiriladigan Kashmir shollari Qarshi shahri orqali olib o‘tilgan. Bu jarayon o‘z navbatida Qarshida uning amirlikning boshqa joylaridagiga nisbatan arzon bo‘lishiga, boshqa yurtlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri shu yerning o‘zidan ham olib ketilishiga imkon yaratgan. Manbalarda yozilishicha, 1 yilda Buxoroga olib kelinadigan 3000 donadan ziyod kashmir shollaridan 2000 tasi Rossiyaga jo‘natilgan.[1;77] Bu davrda Buxoro amirligidan Eronga eng ko‘p olib ketiladigan mahsulotlar ichida qorako‘ldan keyin ikkinchi o‘rinni Kashmir shollari egallaganligi ham ma’lum. Yuqorida aytganimizdek, bu savdoda Qarshi shahrining o‘rni beqiyos bo‘lgan.

Bundan tashqari, Kashmirnikidan ozroq qolishadigan, Qarshi atrofida yetishtiriladigan echki yungi ham anchagina mashhurlikka ega bo‘lgan. U mahalliy talablardan tashqari Qobul va Hindistonga jo‘natiladigan mollardan biri bo‘lgan. Echki yungi xalqaro bozorda 25 chervon narxda sotilgan.[16;56]

Qarshining pichoqsozlik buyumlari ham butun O‘rta Osiyoga keng tarqalgan bo‘lgan. Haj safariga jo‘nayotganlar tomonidan Eron, Arabiston va Turkiyaga ham olib ketiladigan bu pichoqsozlik mahsulotlari boshqa mamlakatlarda o‘z joyidagiga nisbatan 3-4 marta qimmatroq narxda pullangan. Ayniqsa, dastasiga oltin, kumush qoplab, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan pichoq va qilichlar chet ellarda juda qadrlangan.[3;171] Po‘latdan yasalib, dastasiga oltin yoki kumush qoplangan Qarshi pichoqlari XX asr boshida 7-8 so‘m atrofida baholangan.[17;4]

Xullas XIX – XX asrning boshlarida Qarshi shahridan karvon yo’llarining o’tkanligi shaharni Buxoro amirligidagi yirik savdo markaziga aylantirdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Eversman E. Reise von Orenburg nach Buchara. —Berlin. 1823. p. 77.
2. Борнс А. Путешествие в Бухару. – М.: Издание П.В. Голубкова, 1848. Ч.1.с. 366.
3. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Москва «Восточная литература» РАН 2003. с –
4. Галкин А. Военно-статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины 1889г., составленный Генерального Штаба подполковником Галкиным. //Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии Вып. LVII. СПб.,1894. с.377.
5. Гинтелло. Сведения по интендатской части, собранные в Бухаре капитаном Генерального Штаба Гинтелло в 1885 г. // Сборник географических, топографических и статических материалов по Азии. Вып. XX1. СПб. 1866. С. 34; Маев Н. Город Карши. 1879. № 24.
6. Ефремов Ф. Девятилетнее странствование. —М.: Гос изд-во геогрлит., 1950. с. 26, 30-32.
7. Записки о Бухарском ханстве. (отчеты П.И.Демезона и И.В.Виткевича). М. Наука,1983. с. 51.
8. Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского. СПб. 1887. с. 222
9. Литвинов Б. Карши. с. 25.
10. Маев.Н.А. Бухоро ҳонлиги очерклари. Рус тилидан И.Ботиров таржимаси. Фан ва технология нашриёти. Тошкент – 2012. б – 42.
11. Массон М. Е.Столичные города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. с.92.
12. Пален К. К. Отчет по ревизии Туркестанского края, проведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстром графом К. К. Паленом. 4.2. Спб., 1909. с. 172.
13. Скайлер Ю. Тукистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари. б. 29

14. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. с.126.
15. Таниева Г. Қарши беклиги тарихидан лавҳалар. б. 32.
16. Тетеревников А.Н. Очерк внутренней торговли Киргизской степи. СПб., 1867. с.56.
17. Тўраева М. Миллий қадриятларимизни асраб авайлашда халқ амалий санъатининг ўрни. “Миллий қадриятлар, тарихий хотира: тарихий-маънавий ўқитишнинг долзарб муаммолари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Қарши – 2021. б.4.
18.Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. с. 115.

QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY O‘ZGARISHLARI, SOVET ITTIFOQI VA MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TARAQQIYOTNING QIYOSIY TAHLILI.

Samadova N. OTU dots.v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda Qashqadaryo viloyatining Sovet Ittifoqi davrida va mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi har tomonlama tahlil qilingan. O'zining boy tarixi va rang-barang madaniy merosi bilan mashhur bo'lgan mintaqa qishloq xo'jaligi, sanoat, infratuzilma va ta'lim kabi turli sohalarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Ushbu ikki davrdagi rivojlanish naqshlarini taqqoslash orqali ushbu tadqiqot vaqt o'tishi bilan mintaqa traektoriyasini shakllantirgan asosiy omillar va muammolarni yoritishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo viloyati, sovet davri, mustaqillik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, qishloq xo‘jaligi, sanoat, infratuzilma, ta’lim

Kirish:

O‘zbekiston janubida joylashgan Qashqadaryo viloyati asrlar davomida iqtisodiy va madaniy faoliyatning muhim markazi bo‘lib kelgan. Aholi xilma-xilligi va strategik geografik mavqeiga ega bo‘lgan viloyat, ayniqsa, sovetlar davrida va keyingi mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy landshaftida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ushbu maqola vaqt o‘tishi bilan qishloq xo‘jaligi, sanoat, infratuzilma va ta’lim evolyutsiyasiga e’tibor qaratib, mintaqa traektoriyasini shakllantirgan asosiy o‘zgarishlarni o‘rganadi.

Sovet davridagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot:

Sovet Ittifoqi davrida Qashqadaryo viloyatida jadal sanoatlashtirish va qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish davri kechdi. Davlat xo‘jaliklari va zavodlarning tashkil etilishi hosildorlikni oshirish va markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotning o‘sib borayotgan talablarini qondirishga qaratilgan edi. Qishloq xo‘jaligi, birinchi navbatda, paxta yetishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mintaqa iqtisodiyotining asosiy omili bo‘lib, milliy mahsulot ishlab chiqarishga salmoqli hissa qo‘shdi.

Qarshi va Shahrisabz kabi muhim shahar markazlarida ishlab chiqarish korxonalari va qayta ishlash korxonalari barpo etilib, sanoat sektori ham sezilarli o'sishga erishdi. Ushbu o'zgarishlar urbanizatsiya va aholi sonining o'sishiga olib keldi, chunki odamlar rivojlanayotgan tarmoqlarda ish topish uchun qishloqlardan ko'chib ketishdi.

Qashqadaryoda infratuzilmani rivojlantirish sho‘rolar davrining yana bir belgisi edi. Yo‘llar, maktablar, shifoxonalar, turar-joy majmualari qurilishi mahalliy aholining turmush darajasini oshirdi va butun mintaqada iqtisodiy faoliyatni osonlashtirdi. Bundan tashqari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar savodxonlik darajasini oshirishga va sog'liqni saqlash natijalarini yaxshilashga yordam berdi.

Mustaqillikka o'tish:

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanishi bilan O‘zbekiston mustaqillikka erishdi va iqtisodiy islohotlar va bozor tizimiga o‘tish yo‘liga tushdi. Qashqadaryo viloyati ham mamlakatimizning boshqa hududlari kabi yangi iqtisodiy voqelikka moslashish va globallashgan dunyo talablariga moslashishda qiyinchiliklarga duch keldi.

Mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda davlat korxonalari bosqichma-bosqich xususiy-lashtirilib, bozor munosabatlari iqtisodiyotni shakllantirishda muhimroq rol o‘ynay boshlaganligi sababli xususiylashtirish va markazsizlashtirish yo‘nalishiga o‘tdi. Qishloq xo‘jaligida paxta-chilikka qattiq bog‘liqlikdan voz kechib, samaradorlikni oshirish va hosildorlikni diversifikatsiya qilishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi.

Sanoat sohasida ham o‘zgarishlar yuz berdi, bunda xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor qaratildi. Kichik va o‘rta korxonalar (KO‘B) iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratib, mintaqa rivojiga hissa qo‘shdi.

Transport tarmoqlari, energetika tizimlari va telekommunikatsiya infratuzilmalariga investitsiyalar kiritilgan holda infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoldi. Ta’lim muassasalari va sog‘liqni saqlash muassasalarini modernizatsiya qilish, ularni xalqaro andozalar va ilg‘or tajribalarga moslashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Qiyinchiliklar va imkoniyatlar:

Mustaqillikdan keyingi davrda erishilgan yutuqlarga qaramay, Qashqadaryo viloyati barqaror rivojlanish yo‘lida turli muammolarga duch kelmoqda. Suv tanqisligi, atrof-muhitning degradatsiyasi va bozorlarga yetarlicha kirish imkoni yo‘qligi kabi muammolar mintaqaning o‘sishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, mintaqa, ayniqsa, turizm, qayta tiklanadigan energiya va agrobiznes kabi sohalarni yanada rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Qashqadaryo viloyati o‘zining madaniy merosi, tabiiy boyliklari va inson kapitalidan foydalanish orqali o‘z salohiyatini to‘liq ochib, farovon kelajak sari yo‘l ochishi mumkin.

1. Turizm: Qashqadaryo viloyati boy madaniy merosga ega, jumladan Shahrisabz va Dorut Tilovat majmuasi kabi tarixiy joylar. Turizm sohasini rivojlantirish ish o‘rinlarini yaratish va madaniy almashinuvni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishi mumkin.

2. Qayta tiklanadigan energiya: Mintaqadagi quyosh nuri va shamol resurslarining ko'pligi qayta tiklanadigan energiya loyihalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Quyosh va shamol energiyasiga sarmoya kiritish fotoalbom yoqilg'ilarga bo'lgan ishonchni kamaytirishi va barqaror energiya amaliyotini rivojlantirishi mumkin.

3. Agrobiznes: Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini paxta yetishtirishdan tashqari diversifikatsiya qilish oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va mahalliy fermerlar uchun daromad olish imkonini beradi. Organik dehqonchilik va qo‘shimcha qiymatli qayta ishlash kabi agrobiznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash qishloq taraqqiyotini rag‘batlantirishi va aholi turmush darajasini yaxshilashi mumkin.

Xulosa:

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tarixiy meros, siyosiy qarorlar va tashqi ta’sirlarning murakkab o‘zaro ta’sirida shakllangan. Sovet davridan mustaqillikka o‘tish mintaqa iqtisodiyoti, jamiyati va infratuzilmasida jiddiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi, bu O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarni aks ettirdi.

Mintaqa kelajakka nazar tashlar ekan, qolgan muammolarni hal qilish va paydo bo'layotgan imkoniyatlardan foydalanish barqaror va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali Qashqadaryo viloyati barcha aholisi manfaatli bo‘lgan jonli va barqaror iqtisodiyotni barpo etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzbekistan: Central Asia's Emerging Powerhouse by Luca Anceschi (2018)
2. Economic Development in Uzbekistan: A Central Asian Success Story? by Theodore H. Moran (2006)
3. "Agricultural Policy in Uzbekistan: The Transition to a Market Economy" by Kamiljon Akramov and Zvi Lerman (2009)
4. 1.Abdug‘aniyev A. 0 ‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida yer-suv resurslaridan samarali foydalanishning ayrim masalalari. -T.: TIQXMII, 2001
5. 2.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Khudayar Khan's rule of kokand Khanate." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.02 (2022): 182-185.
6. 3.Mamlakat, Qodirova, and Mannonov Yorqin. "BOZOR SAMADOV-XALQ QAHRAMONI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 696-698.
7. 4.Safarov, Akmal, and Mamlakat Qodirova. "PAXTA YAKKAHOKIMLIGI DAVRIDA XOTIN-QIZLARNING QISHLOQ XO ‘JALIGIDAGI O ‘RNI (QASHQADARYO MISOLIDA)." E Conference Zone. 2022.

8. 5.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Issues of the Ethnogenesis of the Uzbek People in Ethnographic Studies of Uzbekistan During the Years of Independence." Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 7 (2022): 116-118.

9. 6.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Development of community livestock during the years of independence on the example of kashkadare and surkhandare." Academicia Globe: Inderscience Research 3.04 (2022): 455-457

10. 7.Mannonov, Yorqin, and Mamlakat Qodirova. "LAG'MON QISHLOG'I TARIXI." Scientific progress 3.3 (2022): 876-880.

11. 8.Davronbek, Normurodov, and Qodirova Mamlakat. "Abu nasr inb Muhammad Farobiy." Ta'lim fidoyilari 5.9 (2022): 496-499.

12. 9.Muminovna, Kodirova Country. "HISTORY OF CREATION AND DEVELOPMENT OF PUBLIC ORGANIZATIONS IN UZBEKISTAN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.12 (2022): 967-969.

13. 10.Muminovna, Kodirova Mamlakat. "Why mahatma Gandhi changed the world forever." Academicia Globe: Inderscience Research 3.06 (2022): 361-367.pg. 67

ТУРКИСТОНДА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИНИНГ БЮДЖЕТИНИ НАЗОРАТ ВА ТАФТИШ ҚИЛУВЧИ ДАВЛАТ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ

Ирискулов Б.Ж.
Ўзбекистон-Финландия педагогика институти ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада Туркистонда Россия империясининг бюджетни назорат ва тафтиш қилувчи давлат муассасалари шаклланиши ҳамда фаолияти архив ҳужжатлари асосида кўрсатиб берилган. Шунингдек, Ўлкада империя молия тизимининг дастлабки меъёрий-ҳуқуқий асослари, давлат назорати ислоҳотлари манбалар асосида ёритиб берилган. Бюджетни назорат ва тафтиш қилувчи давлат муассасаларни ташкил қилишда Туркистон генерал-губернатори канцеляриясининг роли таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Туркистон генерал-губернаторлиги, Молия вазирлиги, Давлат назорати, Туркистон Назорат палатаси, генерал-губернатори канцелярияси, нарх-наво, молия операциялари.

Аннотация: В статье показано формирование и деятельность государственных контрольно-ревизионных учреждений по бюджета Российской империи в Туркестане на основе архивных документов.Также на основе источников описываются первоначальные нормативно-правовые основы имперской финансовой системы в регионе, реформы государственного контроля. Анализируется роль Управления Туркестанского генерал-губернатора в организации государственных учреждений по бюджетному контролю и ревизии.

Ключевые слова: Туркестанское генерал-губернаторство, Министерство финансов, Государственный контроль, Туркестанская контрольная палата, Канцелярия генерал-губернатора, цены, финансовые операции.

Abstract: The article describes the formation and activities of state institutions of the Russian Empire in Turkestan, controlling and auditing the budget, based on archival documents. Also, the initial regulatory and legal foundations of the imperial financial system in the region, state control reforms are described based on sources. The role of the Office of the Governor-General of Turkestan in organizing state institutions for budget control and audit is analyzed.

Keywords: Turkestan Governorate-General, Ministry of Finance, State Control, Turkestan Control Chamber, Chancellery of the Governor-General, prices, financial operations.

Туркистон генерал-губернаторлиги маъмурияти ва империя Молия вазирлиги ўртасидаги молиявий муносабатларнинг шаклланиши ҳамда ривожланиш хусусияти ўзига хос жиҳатларга эга. Бу ҳолат генерал-губернаторликнинг 1860–1870-йилларда Россия империясида молиявий бошқарув, смета тузилиши ва ҳисобот юритиш тизими бўйича кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилганидан сўнг ташкил этилгани билан боғлиқ. Ушбу ислоҳотлар натижасида молия тизимида марказлаштирилган бошқарув ва ҳисобот беришнинг янги принциплари жорий этилди. Туркистон генерал-губернаторлигида мазкур механизмлар асосида молиявий муносабатларни йўлга қўйишга тўғри келган.

Таъкидлаш керак, XIX асрнинг ўрталарида Россия империясининг бюджет тизими капиталистик тараққиёт талабларига мутлақо мос келмас эди. Бутун бюджет жараёни фақат

юқори мансабдор шахслардан иборат тор доира қўлида тўпланган бўлиб, ҳар бир министр ўз ваколатли идораси учун ажратилган маблағларни шахсий қарашларига асосан сарфлаш ҳуқуқига эга эди. Давлатнинг даромад ва харажатлар рўйхати қатъий махфийликда сақланган. Бундан ташқари, идоралар ўз ҳисоб-китобларига турли йиғимлар ва даромадларни киритмаган ҳамда давлат бюджетидан ташқари катта миқдордаги "иқтисодий капитал" тўплаган, бу маблағлар давлат молия ҳисоботларида акс эттирилмаган. Натижада, ушбу манбалардан амалга оширилган харажатлар ҳам бюджет сметаларида кўрсатилмаган. Шу тариқа, расмий давлат молия тизими билан бир қаторда, мустақил равишда шаклланган ва Молия вазирлиги назоратидан ташқарида бўлган муассаса молиялари ҳам мавжуд эди.

Давлат назорати ислоҳоти лойиҳаси Россияда фуқаролик ҳисоботи департаментининг назаротчиси генерал В.А.Татаринов томонидан тайёрланган. У молия бошқаруви масалаларини ўрганиш мақсадида Ғарбий Европага юборилди ва Россияга қайтгач, "Россияда хорижий давлатларда қабул қилинган давлат ҳисобот комиссиясининг асосий принциплари қўлланилиши тўғрисида"ги маърузасини тақдим этди. Россиядаги смета, касса ва назорат тизимларини Ғарбий Европа давлатлари билан таққослар экан, В.А.Татаринов "хорижий давлатларда капиталларнинг ҳаракати ва уларни текширишга асос бўлган асосий принципларнинг бири ҳам бизда қўлланилмаган" деган хулосага келди.

Татаринов томонидан тайёрлаган давлат назоратини ислоҳ қилиш лойиҳаси ягона ревизия институти – Давлат назоратини ташкил этишни назарда тутган. Бу орган ҳақиқий актлар ва ҳужжатлар асосида ҳам ижрочиларни (кассирларни), ҳам кредит маблағларини тасарруф этувчи шахсларни текшириши лозим эди. Ревизия асосига ҳар бир ассигновка бўйича пул маблағлари чиқаришнинг тўғрилигини текширишни ўз ичига олган чора-тадбирларни жорий қилиш таклиф қилинди. Бундай ёндашув ревизия жараёнининг самарадорлигини ошириш, муддатларини қисқартириш ва давлат маблағларининг нотўғри сарфланишининг олдини олишда муҳим омил сифатида кўрилган. Давлат назоратини ислоҳ қилишнинг асоси шундаки, у барча давлат муассасаларида ҳужжатли ревизия қилиш ҳуқуқига эга бўлган ягона ревизион органига айланар эди[1]

В.А.Татаринов томонидан ишлаб чиқилган давлат назорати ислоҳоти юқори мансабдор шахсларнинг давлат маблағларини назоратсиз тасарруф этиш имкониятларини чеклаши сабабли кескин қаршиликка учради. Айниқса, дастлабки назорат механизмини жорий этиш таклифи давлат маблағларининг мақсадли сарфланишини таъминлашдаги муҳим бўғин сифатида баҳоланганига қарамай, катта баҳс-мунозараларга сабаб бўлди. Бироқ, Олий назорат комиссияси ислоҳот лойиҳасини маъқуллаб, 1866 йилнинг январидан уни амалга ошириш жараёнини бошлади. Бошқарув тизимини такомиллаштиришга қаратилган мазкур ислоҳот босқичма-босқич Россия империясининг барча губерняларида, жумладан, Туркистон ўлкасига ҳам татбиқ этилди[2].

Ўлкада империя молия тизимининг дастлабки меъёрий-ҳуқуқий асосларидан бири 1867 йилдаги "Туркистон генерал-губернаторлигини бошқариш тўғрисида"ги муваққат Низом бўлиб, бюджет сиёсати соҳасида марказий ва вилоят ҳокимиятлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик механизмларини белгилаб берди ва ўлкада империя солиқ тизимининг асосларини яратди[3]. Шу билан бирга, қонунчиликда эълон қилинган қатъий марказлаштириш тамойили Туркистонга нисбатан тўлиқ амал қилмаган. Туркистон генерал-губернаторлиги маъмурияти фаолиятини тартибга солувчи 1867 йилда қабул қилинган Еттисув ва Сирдарё вилоятларини бошқариш тўғрисидаги Низом "Молия вазирлигининг марказий идораларидан ўлканинг узоқлиги" ҳисобга олинди ва генерал-губернаторга молия бошқаруви бўйича "махсус ҳуқуқлар" берилди. Ушбу ҳуқуқлар қаторига даромад ва харажатлар сметасини мустақил шакллантириш, смета моддаларини ўзгартириш (умумий суммадан ташқарига чиқмаган ҳолда), бюджет маблағларини ҳарбий губернаторлар ва ҳарбий округ бошқармалари ўртасида тақсимлаш каби ваколатлар киритилган. Бундан ташқари, ҳар йили генерал-губернаторга "кўзда тутилмаган" харажатлар учун 200 минг рубль ажратилган[4].

Бундан ташқари юқорида тилга олинган Низомнинг 245-248 бандларига асосан Сирдарё вилоятидаги шаҳар ва қишлоқлардаги маҳаллий аҳоли хўжаликларини бошқариш ва ғазначилик йиғимларини ташкил этиш мақсадида вилоятда хўжалик бошқармаси ташкил

этилган. Қишлоқлардаги хўжалик бошқармаси аъзолари 3-5 кишини ташкил қилса, шаҳарларда ҳар бир мавзедан 3-5 киши юқоридаги бошқармада фаолият олиб бориши унинг 247-бандида қайд этилган эди[5].

Умуман олганда XIX асрнинг 60-80 йилларида давлат бюджетини тартибга солишда “Сирдарё ва Еттисув вилоятларини бошқариш тўғрисидаги низом” (1867 й.), “Зарафшон округини бошқариш тўғрисидаги вақтинчалик қоидалар” (1868 й.), “Фарғона вилоятини бошқариш тўғрисидаги вақтинчалик низом” (1876 й.), “Амударё бўлими бошқаруви тўғрисидаги низом” (1874 й.) ва бошқа вилоят, уезд ва туман маъмурияти томонидан вақтинчалик ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар асосий роль ўйнаган.

Ўрнида айтиш керак, дастлаб Россия империясининг ўлкадаги молия сиёсатининг муҳим йўналиши давлат бюджетининг касса ижроси бўйича операцияларнинг муваффақиятини таъминлашга хизмат қиладиган давлат молия органлари тизимини шакллантиришга қаратилган эди. Россия империяси томонидан Туркистоннинг табиий, иқтисодий ресурслари ва даромад маблағларини ўзлаштиришда молия хўжалик идоралари муҳим ўрин эгаллаган. Метрополия ҳукмрон доиралари ўлка маъмуриятига молия соҳасида ваколатларни имкон қадар чеклаб, Туркистонда бевосита Россия империяси ҳукумати молия-хўжалик органлари тасарруфида бўлган идораларни ташкил этиш ва улар орқали маҳаллий ресурсларни ўзлаштириш йўлидан борди.

1864–1867-йилларда назоратнинг янги идора тартиботи яратилишига қадар Туркистондаги барча смета (кирим-чиқим ҳисоботи) ишларига қуруқ расмиятчилик деб қаралган. Айнан бу сабабдан сметага киритилган даромад ва харажатларни назорат қилиш учун зарур маълумотлар келтирилмаган.

1867 йилда Туркистон генерал-губернатори лавозимига тайинланган К.П.Кауфман ўзига топширилган ўлкадаги молиявий ишларнинг аҳволини билгани ҳолда қўшин ва маъмуриятни моддий таъминлаш учун қўшимча 300 минг рубль ажратилишига эришди[6]. Мазкур пулларни сарфлаш назоратини йўлга қўйиш ҳамда ўлканинг маҳаллий хусусиятлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олиб тузилиши лозим бўлган Назорат палатасини ташкил этиш борасидаги қоидаларни ишлаб чиқиш учун икки киши – давлат назорати вакили В.П.Череванский ва ўз девонхонаси бошлиғи генерал-майор А.К.Гейнслардан иборат комиссия тузади[7].

Бюджетни назорат ва тафтиш қилувчи давлат муассасаларни ташкил қилишда Туркистон генерал-губернатори канцеляриясининг роли ҳам катта эди. Девонхонадаги иккинчи ва учинчи бўлимлар фақат хўжалик масалалари – ер солиқлари, молия-хўжалик ишлари, мустамлака бошқарув масалалари ва меҳнат мажбуриятлари, шартномаларни расмийлаштириш ва рухсатномалар бериш, олий ҳукумат идоралари, вазирликлар ва бошқа марказий муассасалар билан алоқаларни амалга оширган[8].

Вилоят бошқарувлари тузилишига кўра бўлинмалардан ташкил топган бўлиб, уларнинг сони мустамлака тузуми қарор топиши ва кучайиши билан ортиб борган. Чунончи, агар 1867 йилда Сирдарё ва Еттисув вилоят бошқарувларида атиги учта тақсимот, хўжалик ва судлов бўлинмалари фаолият кўрсатган бўлса, 80-йилларнинг ўрталарига келиб оралиқ чегара, қурилиш, қишлоқ-даволаш, ветеринария ва ҳисоб-китоб ишлари бўлинмалари очилди[9].

Бу даврда мустамлака бошқарувнинг хўжалик муассасалари билан бир қаторда молия ташкилотлари ҳам муҳим роль ўйнаган. Таъкидлаш лозимки, империя ҳукмрон доиралари ўлка мустамлака маъмуриятига молия соҳасида кенг ваколатлар бериш йўлидан бормади. Бу соҳани бошқариш ва назорат қилиш Россия Давлат кенгашининг 1868 йил 4 майдаги қарори билан Давлат назорати маҳкамасига қарашли Назорат палатасига берилди[10]. Назорат палатасининг асосий фаолияти кредитлар бериш ва давлат солиқларини йиғиш билан шуғулланган. Шунингдек, Туркистондаги турли мустамлака бошқарув идоралари ва ғазналарининг молиявий ҳисоботини, пул муомаласига оид ҳужжатларни тафтиш қилиш, яъни маблағ сарф-харажатлари устидан назоратни йўлга қўйишдан иборат бўлган.

Назорат палатаси 12 бўлимдан, ҳар бир бўлимда эса катта ёки кичик тафтишчи бўлиб, унга унинг ёрдамчилари, ҳисобчилар ва иш юритувчи ходимлари бўйсунган. Архив маълумотларига кўра, 1871-1900 йилларда Назорат палатаси ходимларининг сони 30 кишидан ошмаган. 1908 йилда улар сони 80 кишини ташкил этган[11].

Туркистон Назорат палатасини 1868 йил 4 майдан 1883 йил 17 февралгача, яъни 15 йил мобайнида В.П.Череванский бошқариб турди.Кейинчалик бу лавозимда князь И.А.Вяземский (1895 йилгача), И.Г.Бабиевский (1897 йилгача), А.Н.Урениус (1900 йилнинг августигача), А.А.Левитский (1904 йилнинг майигача), В.И.Дедов (1911 йилнинг февралигача), П.Н.Кулабухов (1913 йилнинг мартигача), Н.В.Скачевский (1913 йилдан 1917 йилгача) фаолият кўрсатганлар.

Асосан тафтиш функциясига эга бўлган мазкур идора кредит бериш ва давлат йиғимларини тўплаш билан шуғулланувчи вилоят, уезд ғазна ва бошқарувларининг ҳисоб-китоб дафтарлари ҳамда пул муомаласи ҳужжатларини тафтиш қилар, нарх-наво билан боғлиқ молия операцияларининг тўғрилигини текширган. Барча давлат муассасалари Назорат палатасига ҳисобот тақдим этишлари шарт эди. Палатанинг бюджет вазифалари молия сметаларини текшириш, уларни тузишда кўмаклашиш ҳамда бутун Туркистон бўйича олинган даромадларнинг ҳисоботини тайёрлашдан иборат эди. Шунингдек, палата фаолиятини-тафтиш, маъмурий ва бюджет ишлари бўлимлари амалга оширган. Палатанинг бюджетга оид вазифалари молия сметаларини тузишда иштирок этиш, текшириш, шунингдек, давлат даромадлари ва харажатлари бўйича ҳисобот тайёрлашдан иборат бўлган.

Бундан ташқари Назорат палатаси чиновниклари давлат ҳужжатларини таснифлаш ва йўқ қилиш жараёнларида иштирок этган бўлиб, улар муҳлати ўтган расмий корреспонденцияни очиш ва йўқ қилишда, ўз қийматини йўқотган сберегатель дафтарчаларини ўчиришда, шунингдек, кўчирувчилик сиёсатини амалга оширишга масъул бўлган муасассалар фаолиятида иштирок этиш, молиявий масалаларни ҳал этишга қаратилган идоралараро комиссияларда фаолият юритиш каби вазифаларни бажаришга жалб қилинган[12]. Бу уларнинг давлат молия бошқарувидаги кўп қиррали иштирокини ва назорат функцияларининг кенг қамровлилигини намоён этади.

Империянинг ўлкадаги давлат идораларининг молиявий фаолиятини назорат қилишдан мақсади пул маблағлари ҳамда моддий бойликларнинг бутлиги, ушбу муассасалар томонидан амалга оширилаётган молиявий амалиётлар тўғрилигини аниқлашдан иборат бўлган. Текшириш жараёнида мансабдор шахсларнинг ғайри-қонуний ҳаракатлари туфайли етказилган зарарлар айбдорлардан ундириб олинган. Айрим ҳолатларда Давлат Назорат Кенгаши барча ҳужжатларни кўриб чиққанидан сўнг бундай ишлар бўйича жиноий ишлар қўзғатилган.

Хуллас, Туркистон ўлкасидаги барча давлат муассасалари ўз молия-хўжалик ишлари бўйича мунтазам равишда палатага ҳисобот бериб турган. Туркистон Назорат палатаси давлат муассасалари ҳисоботларини текшириш жараёнида, хўжаликнинг турли соҳалари, жумладан, ер ва ўрмон бойликлари, минераллар, табиий бойлик ва сув ҳавзаларининг аҳволи ҳамда улардан фойдаланиш ҳолати ҳақида ахборотлар тайёрлаб, юқори ҳокимиятга тақдим этган. Бу ахборотларда маъмурият айби билан юзага келган муаммолар, хусусан, ўлканинг табиий бойликларидан тартибсиз фойдаланилганлиги, ўрмонлар аёвсиз кесилиши қишлоқ хўжалигига салбий таъсир этиб, тупроқ ва иқлим шароитлари ёмонлашишига олиб келганлиги, тоғ-кон саноатчилари ва нефтчилар учун ажратилган ерларнинг ижара тўловлари бўйича қарзларнинг ўсиб кетганлиги каби маълумотлар ҳам қайд этилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Сугуралиева Ф. История становления, эволюции и деятельности хозяйственных госучреждений колониального Туркестана (1867–1917 гг.): дисс.. канд.ист ... наук. – Ташкент, 2006. – С. 27
2. Коняев А. Финансовый контроль в дореволюционной России. – Москва, 1959. –С. 76.
3. Lysenko Yu. Evolution of the Structure of the Financial and Tax Authorities of the Turkestan General Governorship (second half of the 19th – early 20th centuries) // Bylye Gody. 2020. Volume. 58. Issue. 4. – P. 2671
4. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. – СПб., 1867. – С. 56.
5. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. – СПб., 1867. – С. 47
6. ЎзМА, И.1-фонд, 16-рўйхат, 2287-иш, 54-варақ.

7. ЎзМА, И.1-фонд, 16-рўйхат, 2287-иш, 55-варақ
8. Абдурахимова Н., Эргашев Ф. Туркистонда чор мустамлака тизими… – Б. 47-48.
9. Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях. – СПб., 1867. – С. 11-12.
10. ЎзМА, И.1-фонд, 1-рўйхат, 122-иш, 1-21-варақлар
11. ЎзМА, И.88-фонд, 1-рўйхат, 67-иш, 7-13-варақлар
12. ЎзМА, И.88-фонд, 1-рўйхат, 143-иш, 11, 23-варақлар

XX ASRNING 50-60 YILLARIDA IRRIGATSIYA TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR. (QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA)

Sharifov Sh.
Xalqaro innovatsion universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo vohasida sug'orish tizimlarini rivojlantirish maqsadida Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida yerlarni o'zlashtirish uchun suv resurslaridan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar, shuningdek, qishloq xo'jaligi irrigatsiya tizimi o'rganilgan va manbalar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'z: irrigatsiya, suv resurslari, Zarafshon va Qashqadaryo, paxtachilik, Amudaryo, Melioratsiya, Chimqo'rg'on suv ombori, Qarshi cho'li.

Аннотация. В статье изучаются и обсуждаются меры по использованию водных ресурсов для освоения земель в бассейнах рек Зарафшан и Кашкадарья, а также сельскохозяйственной ирригационной системы с целью развития ирригационных систем в Кашкадарьинском оазисе.

Ключевое слово: орошение, водные ресурсы, Зарафшан и Кашкадарья, хлопководство, Амударья, мелиорация земель, Чимкурганское водохранилище, Каршинская пустыня.

Abstract. The article studies and discusses measures for the use of water resources for land development in the Zarafshan and Kashkadarya river basins, as well as the agricultural irrigation system with the aim of developing irrigation systems in the Kashkadarya oasis.

Keyword: irrigation, water resources, Zarafshan and Kashkadarya, cotton growing, Amu Darya, land reclamation, Chimkurgan reservoir, Karshi desert.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, O'zbekiston qishloq xo'jaligi oldiga yangi vazifalar qo'yildi. Bir tomondan urush sababli irrigatsiya inshootlari qurilishi to'xtab qolgan, sug'orish shahobchalarini qayta qurish va yangi suv inshootlarini barpo etish, ikkinchi tomondan markaziy hokimiyat tomonidan ekin maydonlarini kengaytirish, xususan paxtachilikni rivojlantirishdek vazifa qo'yildi. Mazkur davrda Qashqadaryo vohasida qariyb bir million gektar sug'orilishi lozim bo'lgan yerlar mavjud edi.

KPSS Markaziy Komitetining 1945 - yil 14 - iyulda "O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish"[1] to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Shu yilning 19 - sentabrida «Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligini ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1946 - yil 2-fevraldagi «Amudaryo irrigatsiya tizimi to'g'risida»gi qarori[2] asosida, Amudaryo suvi resurslari hisobiga Qashqadaryo va Zarafshon vohalari hududida suvdan foydalanishni yaxshilash, suv ta'minoti va sug'orishni rivojlantirish bo'yicha takliflarini muhokama qilish uchun maxsus hukumat komissiyasi tuzildi.

1948 - yilda O'zbekiston SSR Melioratsiya va suv xo'jaligi ministrligining Samarqand loyihalash tashkiloti «Ortiqcha suvlarni Zarafshon etaklaridagi yerlarga oqizish va undan sug'orish uchun foydalanish loyihasi»ni ishlab chiqdi. Suv resurslari muammolari bilan shug'ullanadigan suv xo'jaligi ekspeditsiyasi guruhlari muhandislari tomonidan birinchi navbatda Zarafshon daryosining suvini Qashqadaryoga quyish masalasi muhokama etildi[3].

1949-yil 5-dekabrda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston KP (b) MK «Qashqadaryo viloyatida irrigatsiyani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qashqadaryo vohasida sug'orish tizimlarini rivojlantirish maqsadida Zarafshon va Qashqadaryo havzalarida yerlarni o'zlashtirish uchun «Amudaryoning suv resurslaridan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar umumiy rejasi»ni ishlab chiqish L.V.Dunin-Barkovskiy rahbarligidagi bir guruh mutaxassislarga topshiriladi[4]. Mazkur guruh mutaxassislarning tekshirishlari natijasiga

ko‘ra Amudaryoning kompleks suv-energiya resurslaridan foydalanish paxtachilikni yanada rivojlantirish imkonini beradi, degan xulosaga kelishadi. 1950 - yilda «Uzgiprovodxoz» («O‘zbekiston suv xo‘jaligi loyihalash instituti») tashkiloti qadimiy Eskianhor kanalini qayta tiklash va qurish bo‘yicha loyihani ishlab chiqadi. 1951- yilning mart oyida bu loyiha SSSR Paxtachilik ministrligi tomonidan tasdiqlanib, unga ko‘ra, kanaldan sekundiga 45—50 kubometr suv oqizish mo‘ljallandi. Kanal suvining bir qismi Samarqand viloyati yerlarini sug‘orsa, qolgan asosiy qismidan esa Qashqadaryo viloyati ekin maydonlariga oqizish nazarda tutiladi.

1952 - yilda «Qashqadaryo viloyatining yer va suv resurslaridan kompleks foydalanish sxemasi» asosida muhandislar A.V.Petrov, G.I.Prozorovlar tomonidan Qashqadaryo o‘zanida 500 mln kubometr suv yig‘ish imkoniyatiga ega bo‘lgan Chimqo‘rg‘on suv omborining qurilishi loyihasi ishlab chiqildi[5]. 1953 - yil 15 - dekabrda O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti «Eski anhor kanalini qurish to‘g‘risida» qaror qabul qilindi. Qarorga ko‘ra ushbu kanalning qurilishi Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida paxta va boshqa qishloq xo‘jalik ekinlari, paxtani ekish uchun sug‘oriladigan yerlarning ko‘payishini, shuningdek, Samarqanddagi kanal bo‘yidagi 40 ming gektar yaylov yerlarini va Qashqadaryo viloyatining 100 ming gektardan ziyod hududini sug‘orish mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. 1956 - yilda Y. A. Shcherbakov rahbarligida Chimqo‘rg‘on suv ombori qurilishi ishlari amalga oshirildi. 1963 – yilga kelib, loyihadagi 500 mln kubometr suv to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lgan suv ombor qurilishini tugatish masalasi loyihaga kiritildi. To‘g‘onning rejadagi qismi tayyor bo‘lishi bilan omborga suv yig‘ilib, ayni suv kerak paytda qishloq xo‘jalik ekinlariga yetkazib berildi. 1963 - yilga kelib suv ombori qurilishining asosiy ishlari tugallandi[6].

1962 - yil 10 - yanvardagi O‘zSSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi ministrligining 15 son buyrug‘i[7] asosida 1970 - yil 5 - avgustda Qashqadaryo viloyatda suv xo‘jaligi qurilishini rivojlantirish va paxta hosilini ko‘paytirish maqsadida yerlarni sug‘orishni ta’minlash uchun «Eski anhor kanal qurilish» tresti tashkil etish to‘g‘risida qarori qabul qilindi. Viloyatda sug‘oriladigan yerlar 1948 - yilda 48,6 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 1963 – yilga kelib, 88 ming gektarga kengaydi. Paxta hosili 50 ming tonnadan 195,7 ming tonnaga yetdi. Mazkur davrda Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish va sug‘orish tadbirlari olib borildi. Qarshi cho‘li O‘zbekistonda mavjud boshqa hududlardan o‘zining qulay iqlimi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mavjud sharoitlari bilan ajralib turadi. Qarshi cho‘lidagi vegetatsiya davri uzoq vaqt davom etadi. Ya’ni, ob-havoning qulayligi bu yerda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun moslashgan. Qarshi cho‘lida suv manbalari tanqis bo‘lib, hudud Amudaryo daryosidan 130-120 metr balandlikda joylashgan. Respublikaning boshqa hududida mavjud bo‘lmagan, ingichka tolali paxta yetishitirishga moslangan qulay iqlim sharoitidan kelib chiqib, markaz tomonidan Qarshi cho‘lining qo‘riq va bo‘z yerlarini o‘zlashtirishga alohida ahamiyat qaratildi. Bu masala esa o‘z navbatida bevosita qushimcha suv omborlarini tashkil etish bilan bog‘liq edi. Shu bilan birga mehnat resurslarini ta’minlash maqsadida aholini ko‘chirish siyosati olib borildi. Hududda ishchi kuchini shakllantirish zarurati ko‘p sonli mehnat resurslarini jalb qilishni talab qildi. Viloyatdagi Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog‘, Qamashi, Dehqonobod, G‘uzor, Qarshi, Ulyanov, Koson tumanlari kabi aholi ko‘p yashaydigan joylar hamda yer kam bo‘lgan tog‘ yonbag‘ri va tog‘li tumanlar mehnat resurslarini yetkazuvchi hududlar sifatida tanlandi. Bunday tanlanishga yagona sabab aholini majburiy ko‘chirtirish siyosatida ularning «ixtiyoriy» kelishini yuzaga chiqarish edi. Ko‘chirish siyosatida aholi migratsiyasining barcha shakl va ko‘rinishlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Jumladan, aholi migratsiyasini tashqi, ichki va viloyatlararo turlari hamda rejali, tashkiliy, ixtiyoriy kabi shakllarini bu o‘rinda ko‘rsatish mumkin. Qarshi cho‘lining sug‘oriladigan va o‘zlashtiriladigan hududlariga har yili 3 ming nafar kishidan jami 9 ming nafar kishini safarbar qilish ishlari olib borildi[8]. Shuningdek, Qashqadaryo vohasida yangi yirik suv omborlarining qurilishi loyihasi ham ishlab chiqildi. Jumladan, Pachkamar, Hisorak suv omborlari qurilishi loyihalashtirildi.

Xullas, ikkinchi jahon urushi tugashi bilan, O‘zbekiston aholisi zimmasiga paxtadan yanada ko‘proq hosil olish maqsadida yangi yerlarni o‘zlashtirish, paxta ekin maydonlarini kengaytirish ishlari olib borildi. Qashqadaryo hududida sug‘oriladigan yer maydonlari hajmi ekstensiv ravishda qariyb ikki baravarga kengaytirildi. Chimqurg‘on, Pachkamar, Hisorak suv omborlari qurilishi amalga oshirildi. Qarshi cho‘li o‘zlashtirilib, aholini ko‘chirish siyosati olib borildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Korjavin B.D. O‘zbekistonda sug‘orish ishlari: –Toshkent: “Fan”, 1976. B.18.
2. Пардаев А. Возрожденный край. –Тошкент: «Узбекистан», 1984. –Стр. 30-38
3. Qashqadaryo viloyat Suv xo‘jaligi boshqarmasi materiallari.
4. Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent: «O‘zbekiston». 1976. –B.14.
5. Ирригация Узбекистана. Т. III –Ташкент: «Фан», 1979. –С. 65.
6. ҚВДА, 561-фонд, 1-рўйхат, 3-иш, 2-варақ.
7. Чориев А., Очилов М. Сув келди нур келди. –Тошкент: «Ўзбекистон», 1977. –Б. 12.
8. Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent: «O‘zbekiston». 1976. –B.14.

O‘ZBEKISTONDA XX ASRNING 40-YILLARI IKKINCHI YARMI VA 60-YILLARIDA YANGI MAFKURAVIY KOMPANIYALAR HAMDA YOZUVCHI VA OLIMLARNING QATAG‘ON QILINISHI

Olimjonova D.
Shahrisabz davlat muzey qo’riqxonasi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sobiq Sovet Ittifoqi yillarida turli siyosiy, ijtimoiy, g‘oyaviy, diniy sabablarga ko‘ra millionlab odamlar qatag‘onga duchor bo‘ldi. Qatag‘on siyosatining qurbonlari haqida haligacha aniq ma’lumotlar mavjud emas. Saqlanib qolgan mavjud faktlar shuni ko‘rsatadiki, 1921–1953-yillar orasida to‘rt milliondan ortiq odam qatag‘on qurboniga aylangan. Ulardan 800 ming kishi o‘lim jazosiga hukm etilgan. Mazkur maqolada qatag’on davridagi jarayonlar yoritilgan.

Kalit so’zlari: qatag’on, jandarm, GULAG, qayta qurish, aksilinqilobiy faoliyat, qizil terror, ziyolilar, dindorlar, mafkurviy.

Sovet Ittifoqida qatag‘onlar to‘lqini uch davrga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqich 1920-yillarni, ikkinchi bosqich 1937–1938-yillarni, uchinchi bosqich 1950–1953-yillarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, urush davrida va undan keyin urush qatnashchilari ham qatag‘onga uchrab turli muddatlarga ozodlik mahrum etiladi. Qatag‘on siyosatining eng yuqori cho‘qqiga chiqqan nuqtasi 1937–1938-yillarga to‘g‘ri keladi. Shu yillar mobaynida 1,3 million kishi RSFSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi, “aksilinqilobiy faoliyat” ayblovi bo‘yicha hibsga olingan. Hibsga olinganlarning yarmi o‘lim jazosiga hukm etilgan. Qatag‘onlar aholining deyarli barcha tabaqasi vakillarini qamrab olgan edi.[1] Dehqonlar, ziyolilar, boylar, dindorlar, siyosiy elita qatlami vakilari eng ko‘p jabr ko‘rgan qatlam edi.

SSSRdagi dastlabki qatag‘onlar “Qizil terror” deya nomlandi. Ushbu terror 1917-yilgi oktyabr inqilobidan keyin boshlandi va 1922-yilgacha davom etdi. Ushbu qatag‘onlar paytida asosan bolsheviklarning siyosiy dushmanlariga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning siyosatiga xayrixohlik bildirmagan oddiy odamlar ham bundan chetda qolmadi. Bundan tashqari, qatag‘onlarga ijtimoiy tus ham berildi va sobiq politsiya zobitlari, jandarmlar, podshoh hokimiyati siyosatchilari, dindorlar, yer egalari va ishlab chiqaruvchilarni ham qamrab oldi.

Qizil terrordan keyin siyosiy qatag‘onlar davom ettirildi. Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, 20-yillardagi siyosiy ishlar asosan soxta ayblovlar orqali amalga oshirlgan. Litseychilar ishi, fokstrotistlar ishi, shaxta ishi kabi jinoiy ishlar shu yillarda amalga oshirlgan edi. 1922-yil sentyabr-noyabr oylarida RSFSRdan “falsafa paroxodi”da juda ko‘plab ziyoli qatlam chiqarib yuborildi (“Ochistim Rossiyu nadolgo…” Repressii protiv inakomislyashix. Konets 1921 — nachalo 1923 g., M.: Mejdunarodniy fond “Demokratiya”, 2008). SSSR mavjudligining 15 yili mobaynida (1923–1938) 900 nafar fotograf qatag‘on qurboniga aylangan bo‘lsa, ularning yarmidan ko‘pi otib tashlandi.[2]

SSSRda Stalin shaxsiyatining mustahkamlanishi bilan qatag‘onlar ommaviy tus oldi. Ayniqsa, 1937–1938-yillarda ular yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Shu yillarda yuz minglab odamlar otib tashlandi va GULAGlarga yuborildi. Ushbu qatag‘onlar asosan siyosiy motivlarga asoslangan edi. Bu davrdagi qatag‘onlar deyarli Stalin vafotiga qadar davom etdi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, SSSRdagi qatag‘on qurbonlari soni bo‘yicha aniq statistika mavjud emas. Bu borada tarixchilar turli fikrlarni bildiradi. Jumladan, tarixchilar N.G Oxotina va A.B Boginskiylarning fikriga ko‘ra, 1921–1953-yillarda faqatgina xavfsizlik organlari tomonidan hibsga olinib, siyosiy ayblovlar bilan sudlangan yoki sudsiz hukm qilinganlar soni 5,5 million kishini tashkil qiladi.

Agar bolshevizm qurbonlari safiga turli deportatsiya qilinganlar, sun’iy ochlik qurbonlari, uyushtirilgan mojarolar paytida vafot etganlar, kommunizm nomi ostida turli urushlarda vafot etgan askarlar, ota-onasi ochlikdan va qatag‘on oqibatida vafot etgan tug‘ilmagan chaqaloqlar ham qo‘shilsa, unda tuzum qurbonlari soni 100 millionga yaqinlashadi (N.G. Oxotin, A.B. Roginskiy. O masshtabe politicheskix repressiy v SSSR pri Staline: 1921—1953). Tarixchi V.N Zemskov o‘zining “GULAG” nomli maqolasida SSSRda 1921–1953-yillarda faqatgina siyosiy motivlar bilan, ya’ni aksilinqilobiy faoliyat uchun jazoga tortilganlar soni 3,3 million kishi ekanini keltiradi.

Anatoliy Vishnevskiy ma’lumotlariga ko‘ra, 1920-yillar oxiridan 1953-yilgacha bo‘lgan davrdagi turli muddatga ozodlikdan mahrum etilgan yoki ozodligi cheklangan qatag‘on qurbonlarining soni 25–30 millionni tashkil qiladi. Ko‘rinib turganidek, qatag‘on qurbonlarining aniq soni haqida bir xil qarash mavjud emas. Rasmiy statistika esa doim ham obyektiv bo‘lavermaydi.[3]

Birinchi jahon urushi tugagach, oradan ko‘p o‘tmay O‘zbekiston SSR bo‘ylab yana bir yalpi qirg‘in to‘lqini elib o‘tdi. XX asrning 40-yillari oxiri va 50-yillari boshidagi qatag‘onlar, asosan, madaniyat va fan arboblariga qarshi qaratildi. O‘zbekiston Kompartiyasi MK Markazning yo‘l-yo‘riqlariga tayangan holda dunyoqarashi va ijodi partiya mafkurasidan farq qiladigan ijodiy ziyolilar vakillariga qarshi hujum boshladi.

1950-80-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Sovet Ittifoqining bir qismi bo‘lib, uning barcha siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy siyosatlari Moskva tomonidan boshqarilgan. Sovet davlati bu yillarda o‘zining mustahkam mafkuraviy tizimini saqlab qolish va mahalliy hokimiyat ustidan nazoratni kuchaytirishga harakat qildi. O‘zbekistonda Kommunistik partiyaning yetakchilik mavqei mustahkamlanib, barcha siyosiy qarorlar KPSS (Kommunistik Partiya) tomonidan qabul qilinar edi. 1950-yillarning boshlarida Stalin vafotidan so‘ng Nikita Xrushchyovning hokimiyat tepasiga kelishi bilan butun Sovet Ittifoqida nisbatan yumshash jarayoni boshlandi. Bu jarayon **“shaxsga sig‘inish”** siyosatini fosh qilish bilan bog‘liq bo‘lib, qatag‘on qurbonlarini qisman oqlash, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni o‘tkazish bilan kuzatildi. Ammo 60-yillardan boshlab Leonid Brejnevning hokimiyatga kelishi bilan siyosiy muhit yana mustahkamlandi, mafkuraviy nazorat kuchaydi va milliy respublikalardagi mahalliy tashabbuslarga nisbatan keskin cheklovlar joriy qilindi.[4]

70-80-yillarga kelib, Sovet Ittifoqida stagnatsiya (turg‘unlik) davri boshlanib, bu O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda rahbariyat tomonidan siyosiy nazorat va mafkuraviy bosim yanada kuchaytirildi. Mustaqil fikr yuritgan shaxslar qatag‘on qilinmasada, ularning faoliyatiga doimiy to‘sqinliklar qilinar, davlat nazorati ostidagi tashkilotlardan chetlatilar yoki obro‘sizlantirish siyosati qo‘llanilar edi. 50-80-yillar mobaynida O‘zbekiston aholisi Sovet ittifoqining qattiq mafkuraviy nazorati ostida yashagan. Har bir shaxsdan **sovet mafkurasiga sodiqlik**, partiya siyosatini qo‘llab-quvvatlash talab qilinar edi. Boshlang‘ich va oliy ta’lim, madaniyat, adabiyot va san’at to‘liq partiya mafkurasiga moslashtirilgan holda shakllantirilgan. Sovet mafkurasi yoshlarni kommunistik g‘oyalarga sodiq qilib tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, maktab va oliy ta’lim tizimi ham shu tamoyil asosida ishlardi. O‘zbekiston yoshlari komsomol (Kommunistik yoshlar ittifoqi) safiga jalb qilinib, ularning ijtimoiy hayoti to‘liq nazorat ostida edi. Mafkuraviy siyosat natijasida milliy madaniyat va tarixga bo‘lgan qiziqish cheklangan, xalqning tarixiy xotirasi bo‘g‘ib qo‘yilgan edi. O‘zbek tili va milliy qadriyatlarga nisbatan ikkinchi darajali qarash shakllanib, rus tili va sovet madaniyatining ustunligi ta’kidlangan. O‘zbek yozuvchi va ziyolilarining ijodiy faoliyati doimiy nazoratda bo‘lib, ularning asarlarida milliy mafkura, mustaqillik g‘oyalari ilgari surilishiga yo‘l qo‘yilmagan. O‘zbekiston iqtisodiyoti asosan paxtachilikka bog‘liq bo‘lib qolgan. Sovet hukumati O‘zbekistonni **paxta xom ashyosi yetkazib beruvchi hudud** sifatida ko‘rgan va respublikada sanoat rivojlanishiga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. 50-80-yillarda paxta majburiyati sababli aholining ko‘pchiligi qishloq xo‘jaligida ishlashga majbur bo‘ldi. 70-yillardan boshlab O‘zbekistonda paxta yakkahokimligi yanada kuchaytirilib, **“paxta ishi”** deb nomlangan korrupsiya mojarosi yuzaga chiqdi. Bu davrda O‘zbekiston Kompartiyasining birinchi kotibi Sharof Rashidov boshchiligida respublikada paxta hosildorligi bo‘yicha soxta ma’lumotlar berilgan, amalda esa iqtisodiy ekspluatatsiya amalga oshirilgan edi. Keyinchalik, 80-yillarning boshlarida bu ish fosh etilib, ko‘plab partiya rahbarlari jazolandi.[5] O‘zbekiston madaniy hayotida ijodiy erkinlik cheklangan bo‘lib, barcha san’at,

adabiyot va ilmiy faoliyat sovet mafkurasi doirasida rivojlangan. Yozuvchilar, shoirlar, jurnalistlar va olimlar doimiy tazyiq ostida bo‘lib, ular faqat **sovet ideologiyasiga mos asarlar** yozishga majburlangan. 60-70-yillarda ba’zi yozuvchilar o‘z asarlarida milliy qadriyatlarni madh etishga harakat qilishgan bo‘lsa-da, ular tanqid ostiga olinib, ijodiy faoliyatlari cheklangan. Jumladan, **Said Ahmad**, **Shukrullo**, **Maqsud Shayxzoda** kabi yozuvchilar millatchilikda ayblanib, tazyiqlarga uchragan. Bu davrda ochiq repressiyalar kam uchragan bo‘lsa-da, mafkuraviy qatag‘on davom etgan. Ko‘plab ziyolilar, olimlar va san’atkorlar ijodiy va ilmiy faoliyatdan chetlatilgan yoki ularning faoliyatiga doimiy cheklovlar qo‘yilgan. Ayniqsa, 60-80-yillarda tarix va adabiyot sohasida mustaqil qarashlar ilgari surgan shaxslar tanqid ostiga olingan, ba’zilar hatto partiyaviy jazolarga tortilgan. 80-yillarning oxiriga kelib, M.S. Gorbachyovning **“qayta qurish”** siyosati boshlanganidan keyin mafkuraviy cheklovlar asta-sekin yumshatila boshlandi. Bu esa avval qatag‘on qilingan ziyolilarning oqlanishiga va milliy ongning qayta tiklanishiga zamin yaratdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, XX asrning 50-80-yillarida O‘zbekistonda siyosiy nazorat va mafkuraviy bosim kuchli bo‘lib, mahalliy ziyolilar, yozuvchilar va olimlar qattiq cheklovlar ostida faoliyat yuritishgan. Ijtimoiy hayot, madaniyat, adabiyot va iqtisodiyot to‘liq sovet siyosati va mafkurasi doirasida boshqarilgan. Bu davrda qatag‘onlar an’anaviy usulda emas, balki mafkuraviy nazorat, kadrlar siyosati va iqtisodiy bosim orqali amalga oshirilgan. 80-yillar oxirida esa bu bosim asta-sekin pasayib, O‘zbekiston mustaqillik sari yuz tuta boshladi. O‘zbekistonning XX asr boshlaridagi eng og‘ir va muhim davrlaridan biridir. Bu voqealar Sovet hukumatining siyosiy rejimiga qarshi chiqqan, mustaqil fikrlovchi va jamoat faoliyatida ishtirok etgan kishilarga qaratilgan bosimlar natijasida yuzaga keldi. O‘sha paytlarda, ayniqsa, 1920-1930-yillarda ko‘plab ziyolilar, olimlar, adiblar, san'atkorlar va siyosatshunoslar qatag‘on qilindi. Ularning fikrlari va faoliyatlari Sovet hokimiyatining qurulishiga to‘g‘ri kelmasdi.

Foydalanigan adabiyotlar ro`yxati

1.Igor Bunich.Partiyaning oltinlari. T.: “Ma’naviyat” 2005. 375b.

2. Усмонов И Қатагон курбонлари.-—Т.: Ўзбекистон, 1992.— 223 б.

3. Р.Т. Шамсутдинов . Катагон курбонлари хотира китоби Андижон вилояти (1865 - 1991 йиллар) II к;исм. Тошкент: "Akademnashr” NMM,2021. - 448 б.

4. ҲАСАНОВ Б. “КАТТА ҚИРҒИН”НИНГ ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР БАЗАСИ. Тошкент “Шаҳидлар хотираси” жамоат фонди 2014. 53 б.

5. УЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВЛАТИНИНГ ҚАТАҒОН СИЕСАТИ: КЕЛИБ ЧИҚИШИ САБАБЛАРИ ВА ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ. Т.:2012.

BUXORO VA QO‘QON XONLIKLARI TASHQI SIYOSATIDA USMONIYLAR IMPERIYASINING ROLI

Dusaliyev M.T.
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrasi o‘qituvchisi

O‘rta Osiyo va hozirgi Turkiya hududi xalqlari qadimdan o‘zaro savdo-iqtisodiy, madaniy sohalarda diplomatik aloqalar o‘rnatganlar. Ayniqsa, o‘rta asrlarda Buxoro va Usmonli Turk davlatining Eronga qarshi birgalikda kurash jarayonlari ikki o‘rtadagi diplomatik va savdo-iqtisodiy, madaniy munosabatlarni rivojlantirishga katta turtki bo‘lgan. Buxoro amirligi tashkil topgandan so‘ng ham Usmonli turk davlati barcha musulmon davlatlari kabi O‘rta Osiyodagi davlatlarga ham o‘z vassali sifatida qaragan. Dastlabki davrlarda Buxoro hukmdorlari o‘zlarini Turk sultoniga teng va do‘st hukmdor sifatida hisoblagan. Musulmon davlatlari sifatida bir-birlariga yordam berishni o‘zlarining asosiy vazifalari deb bilishgan.

O‘rta Osiyoda mavjud xonliklar – Buxoro, Xiva hamda Qo‘qon xonliklari o‘z davrida murakkab siyosiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Jumladan, bu uch xonlikning o‘zaro bir-birlari bilan siyosiy aloqalari ham har doim ham bir xil bo‘lmagan. Bunga esa, albatta, o‘sha davrda hukmdorlarning siyosiy qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan. O‘rta Osiyo xonliklari ham davlat sifatida vujudga kelgandan so‘ng xalqaro maydonda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun, shuningdek qo‘shni davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish maqsadida faol tashqi siyosat olib borishga

intilgan. Masalan, O‘rta Osiyo xonliklari o‘zlariga hududiy jihatdan ham, diniy jihatdan ham yaqin bo‘lgan Usmoniylar davlati bilan o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish manfaatli hisoblangan. Buxoro xonligi va Usmoniylar imperiyasi o‘rtasida ittifoq XVI asrda vujudga kelgan edi. Albatta, Usmoniylar imperiyasining Buxoro xonligi bilan harbiy-ittifoq tuzishiga intilganligining bir qancha sabablari bo‘lgan. Bunga birinchi navbatda Usmoniylar o‘zlariga har tomonlama raqib sifatida hisoblagan Eron sabab bo‘lgan.

Jumladan, Shayboniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi bilan Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi harbiy sohadagi o‘zaro munosabatlar ancha rivoj topdi. Navro‘z Ahmadxon va Abdullaxon II turk sultonlari bilan o‘zaro mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yishdi. Ushbu davrda Navro‘z Ahmadxon va boshqa xonlar xizmatida turk yanicharlari xizmat qilganligi haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda keltirilgan. Muhammad Yusuf Munshiy o‘z asarida Abdullaxon II ning o‘g‘li Abdulmo‘minning turk sultoni Murod III ga yozgan xati nusxasini keltiradi. Xatda 1569-yilda Mashhad olinganidan so‘ng, yuzaga kelgan vaziyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Eronga qarshi hamkorlikda yurish qilish zarurligi haqida so‘z yuritiladi[7]. Bu aloqalar Buxoro xonligining harbiy va siyosiy strategiyasida muhim rol o‘ynagan va ikki davlat o‘rtasida o‘zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shuni aytish kerakki, Abdullaxon II ning Eronga qarshi harakat qilish rejasi, avval Usmonlilar bilan, keyinchalik Hindiston bilan itifoq tuzish niyatida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, o‘z samarasini bermadi. Usmonli imperiyasi va Hindistonning o‘z geosiyosiy manfaatlari va hisob-kitoblari bor edi, bu esa Buxoro xonligining rejalari bilan to‘qnash kelgan[8:184-185].

Buxoro va Usmonli turklar davlati o‘rtasidagi aloqalar izchil bo‘lmaganligini ta’kidlash mumkin. Murod III ning Abdullaxon II ga yo‘llagan maktubi, albatta, bu aloqalarning murakkabligini ko‘rsatadi. Maktubda Murod III Abdullaxon II ni Safaviylarga qarshi kurashga chorlaydi, bu esa ikki davlat o‘rtasida harbiy hamkorlikni o‘rnatish uchun bir imkoniyat bo‘lishi mumkin edi. Garchi Abdullaxon II ning Safaviylarga qarshi harbiy ittifoqchi qidirayotganini anglatadi. U o‘z hududidagi siyosiy vaziyatni mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida Usmonli imperiyasi bilan aloqalarni o‘rnatishga harakat qilgan. Shunday qilib, bu jarayonlar Buxoro xonligining harbiy strategiyasi va siyosiy manevrlariga ta'sir ko‘rsatgan. [9:254-255].

Usmonlilar XVII asrga kelib sharqdagi harbiy harakatlar uchun ma'lum bir chegarani belgilashga harakat qiladi. Buxoroda Ashtarxoniylar hukmronligi davrida, jumladan Usmoniylar sultoni Sulaymon II forslarga qarshi birgalikda jangovar harakat boshlash zarurligini ta'kidlab Buxoro hukmdori Subhonqulixonga maktub yozadi. Keyinchalik Usmonlilar hukmdori Sulton Ahmad II Subhonqulixon huzuriga elchi Mustafoning yuborganligi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni vengriyalik sharqshunos olim va sayyoh A.Vamberining esdaliklaridan bilishimiz mumkin. Biroq, bu davrda Buxoro uchun ham xalqaro maydonda murakkab siyosiy jarayon bo‘lib, Eron bilan dushmanlik kayfiyatini uyg‘otish manfaatli emasdi. Shu bilan birga Usmonlilar bilan ham do‘stono aloqalarni yo‘lga qo‘yish hamda saqlab qolish Buxoro uchun foydali edi. Shu sababdan ham Buxoro hukmdori Subhonqulixon sulton Ahmad II ga hozirda qalmoqlar bilan ovvoraligini, shuningdek birlashish va aloqalarni mustahkamlash kerakligini ta’kidlaydi. Eron bilan Buxoro o‘rtasidagi aloqalar barcha davrda ham yaxshi bo‘lmagan, ziddiyatli davrlar ham bo‘lgan. Biroq shunga qaramay, ular o‘zaro aloqalarni yaxshilashga harakat qilishgan. XVII-XVIII asrlarga kelib Buxoro xonligi o‘zlariga asosiy raqib sifatida Eron yoki Turkiyani emas, balki Xiva va Qo‘qon xonligini ko‘rardi. Shu jihatdan qaraganda O‘rta Osiyo xonliklarining tashqi siyosati murakkab siyosiy jarayonda shakllangan.

1673-yilda Buxoro xoni Abdulazizxon Usmonlilar imperiyasi bilan diplomatik munosabatlarni mustahkamlash uchun o‘z elchilarini Istanbulga yuboradi [1:93].

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, 1789-yil 24-iyulda Istanbulga kelgan Buxoro elchilari, davom etayotgan rus-turk urushi davrida Turkiyani qo‘llab-quvvatlash maqsadida qozoqlar bilan birgalikda Rossiyaning ichki hududlariga bosqin uyushtirgan. Shu bois, elchilar ortga qaytishda Kavkaz va rossiyaning chegaralari orqali emas, balki Bag‘dod va Eron orqali qaytishlari uchun yo‘l xarajatlarini to‘lab berish to‘g‘risida farmon saqlanib qolgan[2:193].

Buxoro amirligi va Usmonli turk davlati o‘rtasidagi o‘zaro iliq munosabatlar XIX asr boshlarida ham davom etganligi tarixiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi.

Masalan, Usmonli Turk sultonining 1803-yil 22-aprelda Buxoro hukmdori Amir Haydarni "Turkiston va Turon yerlari podshosi" unvoni bilan taqdirlash to‘g‘risidagi farmoni, bu ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni va hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu unvon, shuningdek, Buxoro amirligining mintaqadagi ahamiyatini va Usmonli imperiyasining Buxoroga nisbatan qiziqishini ham ko‘rsatadi[3].

Bu kabi ma'lumotlarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Aytish mumkinki, Buxoroning musulmon sharqida diniy mavqeyi ham bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shu sababli Buxorodan borgan har qanday shaxsga Usmonli Turk imperiyasi hududida hurmat va ehtirom ko‘rsatilgan.

1851-yilda Istanbulga elchi sifatida kelgan Said Ahmad va Abdurahmonlar haqida ma'lumotlar, Buxoro xonligi va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi aloqalarning davom etganligini ko‘rsatadi. Buxoro xonining jiyanlariga xazinadan katta mablag‘ ajratilishi va ularning kundalik xarajatlarining qoplab berilishi, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning nafaqat harbiy, balki moliyaviy va diplomatik jihatlarini ham aks ettiradi. Bu holat, Buxoro xonligining Usmonli imperiyasi bilan aloqalarni saqlab qolish, o‘z manfaatlarini himoya qilish va mintaqadagi raqobatni yengish uchun harakat qilgan. Ushbu mablag‘ ajratilishi, shuningdek, Buxoro xonligining Usmonlilardan yordam olishga intilishining ko‘rsatkichidir[4:56].

XIX asrning o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyo xonliklariga Britaniya va Rossiya imperiyalarining ayg‘oqchilari suqulib kira boshlashi, mahalliy hukmdorlar uchun katta xavf tug‘dirdi. Bu vaziyat, Buxoro amiri Nasrulloxon kabi hukmdorlarni harbiy kuchlarini kuchaytirishga undadi. Usmonli turk saltanati ulug‘ vaziri Rashid poshsho harbiy tomonidan Buxoroga yuborilgan Mustafo Choush poshsho, harbiy insruktor sifatida o‘z xizmatlarini taklif etdi, ammo u Buxoro qo‘shinidagi jazolar tizimidan norozi bo‘lib, bu vaziyatni mrakkablashtirdi. Mustafo Choush poshshoning Buxoro davlati qo‘shinida yengil jinoyatlarga nisbatan og‘ir jazolar berilishi va qatl etish jazolarining ko‘pligi, uning shikoyatiga olib keldi. Bu vaziyat Amir Nasrullo uchun qabul qilinishi qiyin bo‘lgan bir holat edi, natijada Mustafo Choush zindonga tashlandi va keyinchalik o‘ldirildi. Bunday harakatlar Buxoro va Usmonli turk davlati o‘rtasidagi munosabatlarni yomonlashtirishga olib keldi. Bu jarayonlar, shuningdek, o‘zaro ishonchsizlik holatlarini kuchaytirdi, chunki, Buxoro xonligi o‘zining harbiy va siyosiy mustaqilligini saqlashga harakat qilayotgan bir paytda, Usmonli imperiyasi bilan aloqalar murakkablashdi. Bu vaziyat Buxoro xonligining o‘z ichki siyosatida va tashqi aloqalarida muhim ta’sir ko‘rsatdi.

Tarixiy adabiyotlarda Turk sultonining yorlig‘i bilan Buxoroga kelgan Italiyaning Milan shahridan bo‘lgan savdogarlarning amir Muzaffarxon tomonidan asirga olinishi va ularni ozod qilish uchun 1863-yil 23-oktabrda Turk sultoni tomonidan yuborilgan iltimosnomaning bee'tibor qoldirilishi, Buxoro va Usmonli turk davlatlari o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab va ishonchsizlikka asoslanganligini ko‘rsatdi[5:128]. Bu holat, bir tomondan Buxoro hukmdorining o‘z manfaatlarini himoya qilishga intilishini, ikkinchi tomondan esa, Usmonli imperiyasining Buxoro xonligi bilan o‘zaro aloqalarida ishonchning yetishmasligini aks ettiradi. Savdogarlarning asirga olinishi va Turk sultonining iltimosnomasining bee'tibor qoldirilishi ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalarning zaifligini ko‘rsatib berganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, o‘zaro ishonchsizlik ikki davlatning strategik manfaatlariga zid bo‘lgan harkatlarning natijasi sifatida deb ham xulosa qilish mumkin.

"Turkestanskiy sbornik" to‘plamidagi ma'lumotlar, italyan savdogarlarining Usmonli turk sultoni yorlig‘iga ega bo‘lishiga qaramasdan, Buxoro amiri tomonidan qamoqqa olinishi va bu holatning sabablari haqida qiziqarli tafsilotlarni taqdim etadi. Ularning Buxoro shahar xaritasini tuzishga urinishlari, mahalliy hukumat tomonidan josus sifatida baholanishiga olib keldi. Bu Buxoro xonligining o‘z hududida xorijiy ta'sirlarni va potensial xavflarni sezganligini ko‘rsatdi. 1868-yilda Rossiya savdogari Xludov tomonidan italyan savdogarlarining ozod qilinishi, Rossiya imperiyasining Buxoro xonligi ustidan o‘z ta'sirini kuchaytirishga intilishning bir qismi sifatida ko‘rish mumkin. Xludovning yordamida italyan savdogarlarining Xo‘jand va Toshkentdan ipak qurti urug‘ini olib, o‘z vatanlariga jo‘natishlari, Rossiya va Buxoro o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va savdo-sotiqning rivojlanishiga hamda Buxoro xonligining iqtisodiy mustaqilligi va o‘z manfaatlarini himoya qilishdagi qiyinchiliklariga ham aloqador. Bu jarayonlar, shuningdek, Rossiya va Usmonli turk davlatlari o‘rtasidagi raqobat va Buxoro xonligining o‘z pozitsiyasini saqlab qolish uchun kurashini ham aks ettiradi[6:148].

O‘rta Osiyo mintaqasida XVIII asrda yangi bir xonlik vujudga keldi. Bu xonlik Qo‘qon xonligi edi. Natijada O‘rta Osiyo mintaqasida murakkab siyosiy jarayonlar vujudga keldi. Qo‘qon xonligi aynan Buxoro xonligi hududidan ajralib chiqib vujudga keldi. Bu esa Buxoroning tashqi siyosatining zaiflashganligini anglatardi. Qo‘qon xonligi ham o‘z tashqi siyosatini xalqaro maydonda mustahkamlash uchun sekin-asta qo‘shni davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga intila boshladi.

XVIII-XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyoda Qo‘qon xonligi tashkil topganida, uning hukmdorlari Usmonli imperiyasini o‘zlarining legitimlik manbai sifatida ko‘rishdi va o‘zlarining Temuriy va Chingiziylardan kelib chiqishini ta'kidladilar. Xonlikni texnik jihatdan modernizatsiya qilish ham hamkorlikning bir yo‘nalishi bo‘lib, bu jarayon muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Shuningdek, Qo‘qon xonlari va ularning vakillari Rossiyaga ham shunday so‘rovlar bilan murojaat qildilar. Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi raqobat, Usmonli-Qo‘qon aloqalariga salbiy ta'sir ko‘rsatdi, chunki Istanbulda uzoq yillar yashab kelgan buxorolik ulamolar, O‘rta Osiyo bo‘yicha maslahatchi sifatida sulton saroyiga saroyiga taklif etilib, Buxoroning siyosiy manfaatlarini himoya qilishdi. Rossiya imperiyasi esa Qo‘qon bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga harakat qilsa-da, XIX asrning o‘rtalarida uning raqibiga aylanib qoldi. Qo‘qon xonligi hukmdorlaridan Amir Umarxon davriga kelib Qo‘qon Usmonlilar imperiyasi bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga urinishlar amalga oshirila boshlanadi. Bunga esa Buxoro hukmdori Amir Haydar qarshilik ko‘rsatishga harakat qiladi. Usmonlilar bu ikki xonlik tashqi siyosatda mintaqada o‘z o‘rnini mustahkamlashda muhim deb bilishgan. Shuningdek, xonlik fuqarolari haj mavsumini aynan Usmonlilar hududidan amalga oshirishgan. Biroq XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib Usmonli turklar biroz bo‘lsa-da O‘rta Osiyo xonliklari bilan ittifoqi susayadi. Bunga sabab esa Usmonlilarning oldingidek mintaqadagi kuchiga putur yetgandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Васильев А. Знамя и меч от падишаха. Москва: Институт востоковедения РАН, 2014. – С.93.
2. Belgelerle Osmanli-Turkistan Iliskileri (XVI – XX. Yuzyillar). Ankara – 2005. S. 193.
3. Suleyman B. Milli Mucadele ve Özbekler tekkesi. Üsküdar sempozyumi I – Bildiriler, C. 1. Istanbul – 2004.
4. Bozdağ İ. Sultan Abdulhamid’in hatıra defteri. Istanbul – Pınar, 1992. S. 56.
5. Xoliqulov A. Buxoro amirligi va usmoniylar davlati o‘rtasidagi muloqotlar haqida ba’zi mulohazalar. // “Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasi: an’analar, innovatsiyalar va istiqbollar” mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2021. B. 128.
6. Saray M. Rus işğalı devrinda Osmanli devletı ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler (1775 – 1875). TTK, Ankara, 2017. S. 148.
7. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956.
8. B. J. Eshov, A. A. Odilov. O‘zbekiston tarixi II qism. «Donishmand Ziyosi» Toshkent-2020. 184-185-b.
9. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchilik tarixi. 254-255-b.

SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA NAVOIY VILOYAT MOLIYA BO‘LIMINING BYUDJETI VA DAROMAD SOHALARI HUJJATLARI TASNIFI (R-93-FOND MISOLIDA)

Sulaymonova G.
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
Milliy Universitet Tarix fakulteti
Arxivshunoslik va manbashunoslik kafedrasi
1-kurs magistranti

Sovet hokimiyati davrida O‘zbekiston hududida olib borilgan iqtisodiy siyosat va moliyaviy tizimning shakllanish jarayonlarini o‘rganish bugungi kunda tarixiy tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Navoiy viloyati kabi strategik hududlarda daromad sohasiga oid faoliyatni yoritib beruvchi arxiv hujjatlari o‘zining beqiyos manbaviy qiymati bilan ajralib turadi. Ushbu hujjatlar orqali o‘sha davr moliyaviy siyosatining asosiy yo‘nalishlari, daromad

manbalarining shakllanishi, byudjet siyosati va iqtisodiy boshqaruv mexanizmlari haqida aniq va ishonchli ma’lumotlar olish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib Navoiy viloyati rasmiy ravishda 1982-yilda tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning hududi Sovet davrining dastlabki yillaridan boshlab iqtisodiy va strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Bu yerda joylashgan konlar, sanoat korxonalari va infratuzilmalar Sovet Ittifoqining markaziy iqtisodiy rejalari doirasida faol rivojlangan. Aytish joizki, Navoiy hududining iqtisodiy salohiyati, ayniqsa, 1960-1980-yillar davomida sezilarli darajada oshgan. Sovet Ittifoqi markazlashgan iqtisodiyot siyosatiga asoslangan edi, ya’ni butun moliyaviy tizim davlat tomonidan boshqarilgan. Bu sharoitda viloyatning moliyaviy holati ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri markaziy siyosat va davlat byudjeti taqsimotiga bog‘liq bo‘lgan.

Sovet Ittifoqi markazlashgan rejalashtirish tizimiga asoslangan edi. Har yillik iqtisodiy reja – “besh yillik” asosida yuritilib barcha moliyaviy resurslar Davlat reja qo‘mitasi (Gosplan)tomonidan belgilangan tartibda taqsimlangan. Har bir viloyat, xususan Navoiy viloyati ham yillik iqtisodiy rejalarga asosan mablag‘ olgan. Viloyat darajasida mustaqil byudjet shakllantirish imkoniyati deyarli bo‘lmagan, ya’ni moliyaviy mustaqillik past darajada bo‘lgan.

Birgina viloyat tashkil etilgandan so‘ng dastlabki yildagi tahlilga qaraydigan bo‘sak, 1982-yilda Navoiy viloyati byudjetining daromad qismini bajarish holati murakkab va tahlilga boy bo‘lgan. Navoiy viloyati mahalliy byudjetining 1982-yilgi ijrosi hisoboti bo‘yicha viloyat byudjeti daromadlar bo‘yicha 80,051 ming so‘m, xarajatlar bo‘yicha esa 74,639 ming so‘m miqdorida bajarildi. Daromadlarning xarajatlardan ortishi 5412 ming so‘mni tashkil etdi. Umuman olganda, yil yakunlariga ko‘ra, viloyat bo‘yicha daromadlar rejasi o‘zgartirilgan ko‘rsatkichlarga nisbatan 101,1 foizga bajarilgan. Biroq, ayrim hududlar rejani to‘liq bajara olmagan. Jumladan, Uchquduq va Xatirchi tumanlari, shuningdek, viloyat byudjeti daromadlar rejasi bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichlarga yetmagan. Bunga sabab sifatida O‘zbekiston SSR Moliya vazirligi Davlat daromadlari boshqarmasi tomonidan ba’zi soliq turlari (aylanmadan olinadigan soliq – 600 ming rubl va ishchilar va xizmatchilardan olinadigan daromad solig‘i – 710 ming rubl) bo‘yicha rejalarning qisqartirilganligi ko‘rsatiladi. Shunga qaramay, byudjet bo‘limi bu o‘zgarishlarni rasmiylashtirib, rejalarni pasaytirib chiqmagan va natijada hisobda ayrim ko‘rsatkichlar bajarilmagan deb qayd etilgan. Shaharlar kesimida, Uchquduqda ishchilar va xizmatchilardan olinadigan daromad solig‘i 57 ming rublga kam yig‘ilgan (816 ming o‘rniga 759 ming rubl). Xatirchi tumanida aylanishdan olinadigan soliq 32 ming rublga kam tushgan (102 ming o‘rniga 70 ming rubl). Shunga qaramasdan, viloyatning ba’zi tumanlari – Konimex, Qiziltepa, Navoiy shahri, Nurota va Navoiy tumanlari – daromadlar rejasini 100% dan oshiqroq qilib, muvaffaqiyatli bajarganlar va ijtimoiy majburiyatlarni ado etishda yuqori natijalarga erishganlar. Shu bilan birga, ba’zi moliya bo‘limlarining faoliyatida jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Masalan, Xatirchi tumani daromadlarning to‘rtta manbasi bo‘yicha rejani bajara olmadi va umumiy hisobda 475 ming rublga yetmagan. Uchquduq, Zarafshon va Tomdi tumanlari esa bitta manba bo‘yicha rejani bajara olishmadi. Bunday holatlar umumiy hisobda 159 ming rublga yetmagan daromadlar bilan yakunlangan. Shuningdek, ba’zi moliya organlari sanoat tarmoqlari kesimida soliq yig‘imini to‘liq ta’minlay olmagan: masalan, shakar sanoati bo‘yicha 72 ming, mahalliy sanoat bo‘yicha 26 ming va boshqa korxonalar bo‘yicha 130 ming rubl kam tushgan. 1982-yilda fondlar bilan ta’minot va ularning nazoratida ham muammolar mavjud bo‘lgan. Ayrim moliya organlari fondlar taqsimoti va nazorati borasida yetarli faoliyat olib bormagan, bu esa fondlarga oid rejalarning bajarmasligiga olib kelgan. Ushbu holatlar 1982-yil yakunida viloyat moliya organlari faoliyatini muhokama qilishda e’tiborga olingan va 1983-yilda bu kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilangan.

Navoiy viloyati mahalliy byudjetining 1983-yilgi ijrosi hisoboti bo‘yicha Viloyat byudjeti 1983-yilda daromadlar bo‘yicha 76,182 ming so‘m, xarajatlar bo‘yicha esa 71,662 ming so‘m miqdorida bajarildi. Daromadlarning xarajatlardan ortishi 4,520 ming so‘mni tashkil etdi. Viloyat bo‘yicha 1983-yil uchun daromad qismining rejasi (o‘zgartirishlar hisobga olingan holda) 115,72 % ga bajarildi. Shuningdek, reja tuman va shahar moliya bo‘limlari kesimida ham bajarildi. Rejani va ijtimoiy majburiyatlarni bajarishda Navoiy shahar moliya bo‘limi, Konimex, Navbahor, Qiziltepa tumanlarining moliya bo‘limlari jamoalari o‘rtacha 103 % dan ko‘roq yaxshi natijalarga erishdilar.

1984-yil uchun Navoiy viloyati mahalliy byudjeti loyihasi bo‘yicha kelishmovchiliklar ko‘zga tashlandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihada ishchi va xizmatchilardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 40 million so‘m tushum prognoz qilingan edi. Biroq, O‘zbekiston SSR Moliya vazirligi tomonidan 43 million 840 ming so‘m belgilandi, bu esa biz kutgan ko‘rsatkichdan 3 million 840 ming so‘mga yoki 9,6 foizga ko‘pdir. Bunday vaziyatda Navoiy viloyati ijroiya qo‘mitasining qarori bilan (Dadamuhamedov A.D. va Kim S.K.) 1984-yil uchun viloyat mahalliy byudjeti loyihasi bo‘yicha kelib chiqqan kelishmovchiliklarni ko‘rib chiqish topshirildi. Shu bilan birga, quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish belgilandi: uy-joy fondini kapital ta'mirlashga, obodonlashtirish ishlariga, madaniyat muassasalari tarmog‘ini kengaytirishga, shuningdek, Navoiy viloyati tashkil etilgani munosabati bilan boshqaruv xodimlari sonini oshirishga mablag‘ ajratish.Shuningdek, boshqa soliqlar bo‘yicha ham o‘sish qayd etildi. Masalan, bo‘ydoq, yolg‘iz va kam ta'minlangan oilalardan olinadigan soliq - 1 million 50 ming so‘mga (54%) ko‘paytirildi, qishloq xo‘jaligi solig‘i - 80 ming so‘mga (12%) oshirildi, bino va yer ijarasi uchun olinadigan soliq - 40 ming so‘mga ko‘paytirildi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyidagi soliqlar kamaytirish haqida takliflar berildi:

Ishchi va xizmatchilar daromad solig‘ini - 1 million so‘mga,

Qishloq xo‘jaligi solig‘ini - 80 ming so‘mga,

Bo‘ydoq va yolg‘izlardan olinadigan soliqni - 500 ming so‘mga,

Bino va yer ijarasi solig‘ini - 40 ming so‘mga kamaytirish.

Navoiy viloyati byudjetining daromadlar va xarajatlar bo‘yicha 1985-yildagi umumiy ijrosi natijalari quyidagicha bo‘ldi: Viloyat byudjeti iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi asosida daromadlar bo‘yicha 101,8% ga bajarildi. Rejalashtirilgan 84,9 million so‘m daromad o‘rniga byudjetga 86,5 million so‘m mablag‘ jalb qilindi. Belgilangan reja ko‘rsatkichlaridan 1,6 million so‘m ortiq mablag‘ jalb qilindi, bunda aylanma kassa qoldig‘i viloyat Xalq deputatlari Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan darajada, uning shakllanishi hisobga olingan holda, saqlab qolindi. Byudjet mablag‘larining erkin qoldiqlari 1,7 million so‘mni tashkil etdi. Viloyat mahalliy byudjetining ma'muriy-hududiy tuzilmasi kesimida ijrosini Viloyatlardagi shahar va tumanlar kesimida oladigan bo‘lsak, 3 ta shahar rejani 100 % foizga toliq bajargan bo‘lsa, 8 ta tuman ichida deyarli barchasi reja ijrosini muvaffaqiyatli bajargan, lekin davlat daromadlarini byudjetga jalb qilish rejasi bajarilmagan tumanlar – Navbahor va Navoiy tumanlari bo‘ldi. Ushbu tumanlarda savdo aylanmasi rejasining bajarilmagani sababli aylanmadan olinadigan soliq rejalashtirilgan miqdorda undirilmagan.

Xulosa qilib aytganda, 1980-yillar o‘rtalarida Navoiy viloyatining moliyaviy boshqaruvi iqtisodiy o‘sish sharoitida byudjet daromadlari va xarajatlarini izchil muvofiqlashtirish imkonini berdi. Viloyat byudjetining ortiqcha daromad bilan bajarilishi iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi ijobiy omil sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, ayrim tumanlarda soliq va savdo aylanmasi rejalari bajarilmaganligi moliyaviy intizomni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy byudjet siyosatini takomillashtirish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va xarajatlarni ijtimoiy sohalarga nisbatan oqilona taqsimlash viloyat iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yhat, 5174-yig‘majild, 109-varaq.
2. O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yhat, 5174-yig‘majild, 111-varaq.
3. O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yhat, 5577-yig‘majild, 10-varaq.
4. O‘zMA, R-93-fond, 15-ro‘yhat, 5754-yig‘majild, 15-varaq.

XIX ASRNING I-YARMIDA BUYUK BRITANIYA HUKUMATI TOMONIDAN O‘RTA OSIYO XONLIKLARINING O‘RGANILISHI (ALEKSANDR BYORNS ELCHILIGI MISSIYASI MISOLIDA).

Umidova Y.X. Qarshi davlat universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada London Qirollik geografiya jamiyati a’zosi, elchi, 1831-1833 yillarda Hindistondan Afg‘onistonga – Kobul hamda Buxoroda sayohatda bo‘lib, o‘zini arman savdogari sifatida tanishtirgan leytenant Aleksandr Byornsning Buxoro amirligi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy hayotiga oid ma’lumotlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, missiya, Do‘stMuhammadxon, Ost-Indiya, choyfurush, general-gubernator, masjid, madrasa, Sharq mamlakatlari, elchi.

Аннотация

В данном статье анализируются сведения о политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата, предоставленные лейтенантом Александром Бернсом, членом Лондонского Королевского географического общества, послом и путешественником из Индии в Афганистан - Кабул и Бухару - в 1831-1833 годах, представившимся армянским купцом.

Ключевые слова: Средняя Азия, миссия, Дост Мухаммед-хан, Ост-Индия, торговец чаем, генерал-губернатор, мечеть, медресе, Восточные страны, посол.

Abstract

This article analyzes information about the political, and socio-economic life of the Bukhara Emirate by lieutenant Alexander Burnes, a member of the Royal Geographical Society of London, ambassador, who traveled from India to Afghanistan - Kabul and Bukhara - between 1831 and 1833 years, introducing himself as an armenian merchant.

Keywords: Central Asia, mission, Dost Mohammad Khan, the East India Company, tea seller, governor-general, mosque, madrasa, Eastern countries, ambassador.

O‘rta Osiyo hududi va unda tashkil topgan xonliklarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti hamda tabiiy boyliklari to‘g‘risidagi ma’lumotlar har doim ham Yevropa, shuningdek boshqa mamlakatlarning e’tiborini tortib kelgan. Ayniqsa bu mintaqaga bo‘lgan e’tibor XIX asrning birinchi yarmida Rossiya-Britaniya o‘rtasida O‘rta Osiyo xonliklari ustida raqobatning kuchayishi oqibatida yanada orti. Natijada o‘rganilayotgan davrda xonliklar hududiga turli maqsadlar bilan Yevropadan, xususan Buyuk Britaniyadan tashrif buyurgan elchilar, savdogar qiyofasidagi o‘zga nomdagi missiya vakillarining soni har qachongidan ham ortganini kuzatish mumkin.

XIX asrning birinchi choragidan boshlab yurtimizga tashrif buyurgan Britaniya ilmiy ekspeditsiyalarining a’zolari U.Murkroft, A.Byorns, J.Abbot, J.Vulf, D.Buljer va G.Roulinson kabi tadqiqotchilar faoliyati, sayohat kundaliklari hamda mintaqani ular tomonidan imkon qadar o‘rganilishi natijasida yozilgan turli nomdagi asarlarida[1] Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligining qisqacha tarixi, madaniyati, tabiati, geografiyasi, xo‘jaligiga oid tarixiy ma’lumotlar o‘rganildi. To‘plangan bu ma’lumotlarni kelgusida ilmiy iste’molga kiritish orqali Sharq tillaridagi va mahalliy yozma manbalarda aks etmagan xonliklarning ijtimoiy-siyosiy tafsilotlardan yevropaliklarni tanishtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar[2].

Britaniya hukumatidan Buxoro amirligini chuqurroq o‘rganish maqsadida 1831-1833 yillarda Aleksandr Byorns boshchiligida ekspeditsiya tashkil qilindi. Byorns o‘zga nom ostida sayohat qilish bilan bir qatorda Qobuldan Buxoroga tomon yo‘l tavsifini hamda Afg‘on amirlari siyosati haqidagi birinchi batafsil hisobotni tayyorlashga erishadi. A.Byorns 1834 yilda O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohatini yakunlab Angliyaga qaytgach nashr ettirgan “Buxoroga sayohat” nomli hikoyalar to‘plami[3] xonliklar haqida kengroq ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyatiga katta hissa qo‘shdi hamda XIX asrda yozilgan sayohatnoma turkumidagi kitoblardan eng mashhuridan biriga aylandi.

A.Byornsning “Buxoroga sayohat” asarida Buxoro amirligi haqida qiziq ma’lumotlarni berib o‘tadi. Xususan: …“Biz kelganimizdan ko‘p o‘tmay, karvonsaroyda turar joy olib, choy qadoqlarini ochish, maqtash hamda sotish bilan band bo‘lgan, sayohatimiz so‘nggida sherik bo‘lgan choyfurushlarning oldiga tashrif buyurdim. Ular bozorga muz va o‘rik olib kelish uchun odam yubordilar va biz mamnuniyat bilan o‘tirdik. Xaridorlardan biri meni men birga yashayotgan jamiyatning choyfurushlaridan biri deb o‘ylab meni sarmoya qilishimni so‘radi. Uning taklifi

savdogarlarni ham, meni ham quvontirdi, ammo ular bu odamning yanglish fikrda ekanligini bildirmadilar va biz suhbatlashishda davom etdik. U meni osiyolik hisoblab, shubhalanmasdan o‘sha davrdagi kun yangiliklari, amirning Shahrisabzdagi harbiy yurishlari va forslarning Buxoroga hujumi xavfi haqida gapirdi. O‘z navbatida ushbu savdogarlar va boshqa ko‘plab odamlar biz haqimizdagi qiziquvchanliklari tufayli bizning huzurimizga ham keldilar. …O‘zbeklar – oddiy xalq, ammo, gapirayotganda xuddi mensimayotgandek yoki sizga jahl qilayotgandek qiziq bir ohangda gapirsalarda, ular bilan tanishish juda oson. Ular biz bilan bir marta ham musulmonlarga xos bo‘lmagan odatda salomlashmadilar, balki bir qancha iboralarni ishlatdilarki, ularning eng oddiylari “Davlating ziyoda bo‘lsin” (davlat ziyoda) va “Umring uzun bo‘lsin” (umr duraz) kabilar edi.” [4].

A.Byorns Buxoroda amir Nasrullaxon tomonidan qabul qilingani haqida biror ma’lumot yo‘q. Kunlarning birida amirni Masjidi Kalondan Jum’a namozidan qaytayotganida uchratib, uni mohirlik bilan quyidagicha tasvirlaydi: “Oliy Hazratlarini amaldorlar bilan Katta Masjid (Masjidi Kalon)dan ibodatdan so‘ng qaytayotganini ko‘rdim. Qirol o‘ttiz yoshdan kichikroq, qiyofasi esa yoqimli emas edi: ko‘zlari kichik, qiyofasi esa ozg‘in va rangpar edi. U ko‘zga yorqin tashlanuvchi “adras” ipak to‘n bilan oq salla kiygandi. U ba’zida javohirlar bilan bezak berilgan patli jig‘a ham taqar edi. Qur’oni Karim uning oldida olib borilardi. Uning oldida va ortida esa ikkita hokimiyat ramzi bo‘lgan oltin asoni ko‘tarib boruvchilar turkiy tilda “Mo‘minlar amiri yurtni adolat bilan boshqarishi uchun Allohga ibodat qiling!” deya hayqirib borardilar. Uning amaldorlari soni yuzdan oshmasdi va ularning aksariyati rus zarbof matosidan to‘n kiyib, ushbu mamlakatda farqlov belgisi sifatida oltin bilan ishlov berilgan qilich – (men ularni pichoq degan bo‘lardim) taqib yurardilar. Hozirgi Hazrati Oliylarining obro‘si uning har qaysi ajdodinikidan ko‘ra balandroq, ammo u ehtimol masjidda va diniy marosimdan qaytayotganda kamtarona harakat qilish zarur deb hisoblasa kerak.” [5].

Ba’zan A.Byorns tomonidan keltirilgan ma’lumotlarda uning o‘zi guvohi bo‘lmagan holda Buxoro shahridagi chet ellik savdogarlardan eshitgan ma’lumotlarini ham keltiradi. O‘rta Osiyoga o‘zga din va madaniyat vakili sifatida “o‘zgacha bir nazar” bilan qaragan bu yevropalik muallif mintaqa xalqlarining ko‘proq ijtimoiy va maishiy hayotiga e’tibor qaratganligi nuqtai-nazardan yondoshganda uning barcha ma’lumotlarni ham haqiqatga yaqin deb bo‘lmaydi. Ba’zan esa hissiyotlarga o‘ta berilgan holatlarni ham uchratish mumkin. Jumladan, amir Nasrullo xususida to‘xtalib: “Ushbu qirol, Bahodur Xonning tabiati va xulq-atvori o‘z zamondoshlari orasida yuqori baholanadi: taxtga o‘tirayotganida u o‘z shaxsiy boyligining hammasini topshirgan ekan. U o‘zining diniy ibodatlarida sobitqadam, ammo otasi Amir Haydardek diniy mutaassib emas. U har qanday holatda ham Qur’oni Karimga ko‘ra harakat qiladi va u faqatgina yahudiy va hindiylardan olinadigan jon solig‘i hisobigagina yashaydi deb o‘ylaydilar. Aytishlaricha, mamlakatning daromadlari mullalar va masjidlarning ta’minoti uchun sarflanadi, ammo bu yosh qirol shuhratparast va jangovar ekan” [6].

A.Byorns Buxoroda bo‘lgan vaqtida shaharni sayyoh sifatida har taraflama puxta o‘rganadi. U o‘z asarida shaharga oid o‘zi eshitgan tarixni, unga oid bo‘lgan xususiyatlarni, shahar iqlimini, joylashuvini, suv ta’minoti tizimini, masjid va madrasalarini, Buxoroning tarixiy qiyofasini, bu shaharda amalda bo‘lgan islomiy qonun-qoidalarni, o‘zbek urf-odatini, hatto she’riyat va adabiyotni batafsil yoritadi. Buxoro shahrini tavsiflar ekan u quyidagicha yozadi: “Buxoroning tevaragi sakkiz ingliz milidan (1 mil - 5280 fut - 1609,34 metr (160934,4 santimetr)) oshiqroq. U uchburchak shaklga ega va balandligi 20 fut (1 fut - 0,3048 m) keladigan loy (paxsa) devor bilan o‘ralgan, unga 12 darvozadan kiriladi. Sharq an’analariga ko‘ra, ular o‘zi olib boradigan shahar va joy nomlari bilan atalgan. Bir qancha yirik binolarni tashqi tomondan ko‘rish mumkin, ammo yo‘lovchi darvozadan ichkariga kirar ekan, u yuksak g‘ishtin gumbazsimon bozorlar oralab yuradi va har bir narsa savdosi shaharning alohida qismida bo‘layotganini ko‘radi. Yo‘lovchi hamma joyda haybatli va yirik binolarni, madrasalarni, masjidlar va baland minoralarni ko‘rishi mumkin” [7].

Xullas, yevropalik elchi, savdogar A.Byornsning “Buxoroga sayohat” nomli asari Hindistondan Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hudud xalqlari to‘g‘risida va bu yerda joylashgan davlatlar geografiyasi, tabiati, tabiiy boyliklari; yo‘llar va daryolar, ularning yo‘nalishlari, xaritasi va joylashuvi; mavjud davlatlardagi siyosat, mavjud ichki siyosiy vaziyat va o‘rnatilgan tartib, qonun-qoidalar, qo‘shni davlatlar bilan siyosiy-ijtimoiy hamda iqtisodiy aloqalar, davlat rahbarlari

va amaldorlar bilan tanishuv va ularga oid tafsilotlar; shaharlar, aholi va uning xo‘jalik shakli, urf-odatlari; irrigatsiya tizimi, qishloq xo‘jaligi va hayvonot olamiga oid barcha tafsilotlar yoritilgan kundalikdir.

Adabiyotlar

1.Масалиева О. XX аср инглиз-америка тарихшунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Узбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2011. - Б. 12; William Moorcroft and George Trebeck. Travels in the Himalayan provinces of Hindustan and the Panjab; Ladakh and Kashmir; in Peshawar, Kabul, Kunduz, and Bokhara from 1819 to 1825. London-1841. P-xiv. Vol-1; Burnes, Alexander. Travels into Bokhara; being the account of a journey from India to Cabool, Tartary and Persia; also, Narrative of a voyage on the Indus, from the sea to Lahore, with presents from the king of Great Britain; performed under the orders of the supreme government of India, in the years 1831, 1832, and 1833. (London: John Murray). 1834. Vol.1 and Vol.2 and Vol.3;Wolff, Joseph. Researches and missionary labours among the Jews, Mohammedans, and other sects. Philadelphia, 1837. P. -15.

Rawlinson, Henry. England and Russia in the East. London: John Murray, 1875; Boulger, Demetrius Charles. Life of Yakoob Beg; Athalik ghazi, and Badaulet; Ameer of Kashgar. London. 1878.

2.Ботиров С. Буюк Британиялик олимлар тадқиқотларида Ўзбекистондаги ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг ёритилиши.Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.–Қарши. 2022 йил.

3.Burnes, Alexander. Travels into Bokhara; being the account of a journey from India to Cabool, Tartary and Persia; also, Narrative of a voyage on the Indus, from the sea to Lahore, with presents from the king of Great Britain; performed under the orders of the supreme government of India, in the years 1831, 1832, and 1833. (London: John Murray). 1834. Vol.1 and Vol.2 and Vol.3.

4.O‘sha asar. P.-303.

5.O‘sha asar. P.-293.

6.O‘sha joyda.

7.O‘sha asar. P.-310.

XX ASR BOSHLARIDA XORAZMDA MADANIYAT MUASSASALARINING FAOLIYATI

Allanazarov S.
Urganch davlat pedagogika instituti Registrator ofisi boshlig‘i,
mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmda urushgacha bo‘lgan davrda madaniyat muassasalarining faoliyati, o‘zgarishlar va mavjud muammolar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, Xorazm, milliy-hududiy chegaralanish, to‘garak, muassasa, teatr, truppa, muzey.

Аннотация. В статье рассматривается деятельность, изменения и существующие проблемы учреждений культуры Хорезма в довоенный период.

Ключевые слова: культура, Хорезм, национально-территориальное размежевание, кружок, учреждение, театр, труппа, музей.

Abstract. This article discusses the activities, changes, and existing problems of cultural institutions in Khorezm in the pre-war period.

Keywords: culture, Khorezm, national-territorial demarcation, circle, institution, theater, troupe, museum.

1924-yil 12-iyunida RKP(b) MQ Siyosiy byurosi “O‘rta Osiyo respublikalarining milliy-davlat chegaralanishi to‘g‘risida”, 1924-yil 27-oktyabrda Butunittifoq Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining ikkinchi chaqiriq 2-sessiyasida “O‘rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish to‘g‘risida”gi qarorlari asosida O‘rta Osiyodagi azaldan shakllangan hudud va davlatlar o‘zgartirilib, milliy-hududiy chegaralanish amalga oshirildi. O‘tkazilgan milliy chegaralanish natijasida Xorazmning Xiva, Pitnak, Hazorasp, Beshariq, Xonqa, Urganch, Gurlan, Mang‘it, Qilichboy, Kat, Shohobod, G‘oziobod, Monoq, Qo‘shko‘pir hududlari O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Toshxovuz, Ilolli, Porsu, Ko‘hna Urganch, Ko‘kchaya, Darg‘on, Sadivar hududlari Turkmaniston SSRga berildi. Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy, Qipchoq, Xitoy hududlari Qozoq-qoraqalpoq avtonom Respublikasiga berildi.

Turkiston ASSR, Buxoro SSR va Xorazm SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitalarining 1924-yil 18-noyabr kuni qabul qilingan maxsus qo‘shma qaror bilan boshqaruv vakolatlarini O‘zbekiston SSR Sovetlarining Ta’sis qurultoyiga qadar ish ko‘ruvchi Fayzulla Xo‘jayev raisligida tashkil etilgan O‘zbekiston SSR Muvaqqat Inqilobiy qo‘mitasiga topshirganlar.

Xorazm MIQ va Xalq Nozirlar Kengashi faoliyati shu yilning 30-noyabridan tugatilib, uning o‘rniga O‘zbekiston SSRga bo‘ysunuvchi Xorazm inqilobiy qo‘mitasi tashkil etildi. Xorazm o‘lkasi O‘zbekiston SSR tarkibida dastlabki yillarda viloyat, 1926-yilda ma’muriy-iqtisodiy rayonlashtirish o‘tkazilganidan so‘ng to 1938-yilgacha okrug sifatida turdi. Ushbu yillar davomida sovet hukumati butun respublika miqyosida ma’muriy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohada sovetcha mafkura asosida o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Birinchi navbatda aholini kommunistik g‘oya bilan tarbiyalab, umumiy sovet xalqini shakllantirish yo‘lidan bordi. Savodsizlikni tugatish, maorif sohasida bir qator o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Sovet hukumati shu bilan bir qatorda madaniyat muassasalarini ham chetda qoldirmadi. 1925-yilning o‘zida Xorazmda davlat byudjeti hisobidan 5 ta klub, 1 ta teatr faoliyat ko‘rsatgan. Klublar qoshida musiqa dramatik to‘garaklar ishlab turgan. Xususan, tahlil etilayotgan davrda Xorazm oblastida 3 ta dramatik, musiqa va bitta xor to‘garagida 107 ta havaskor va xalq san’atkorlari faoliyat olib borgan. 1925-yilning may oyining o‘zida Urganch shahar badiiy havaskorlik to‘garaklari 23 ta konsert dasturlarini namoyish etgan.

1924-1925-yillarda Xorazmda 6 ta drama truppasi va to‘garagi, jumladan, Xivada 3 ta, Urganchda 2 ta, Gurlanda 1 ta klub tashkil qilindi. 1925-yilning o‘zida Urganch uyezdida 7 klub, Urganch shahrida o‘zbek, tatar, rus teatr truppalari ishlab turdi. Xiva shahrida 7 kishidan iborat siyosiy ong-bilim tarqatish kollegiyasi faoliyat olib borgan. Xiva va Urganch teatrlari matbuot foydasiga, qishloq foydasiga spektakllar namoyish etgan. Shu yili musiqa maktabi va boshqa bilim yurtlariga 18064 so‘m mablag‘ ajratilgan.

1927-1929-yillar Xorazmda dramatik teatrlar va to‘garaklarning faoliyati tashkiliy jihatdan mustahkamlanib, ularning repertuarlari yangi asarlar bilan boyib borayotgan davr bo‘ldi. Bu davrda davlat teatrlarida va dramatik to‘garaklarda Hamzaning “Tuxmatchilar jazosi”, “G‘olibiyat”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kiyov”, Behbudiyning “Padarkush”, Cho‘lponning “ Yorqinoy”, G.Zafariyning “Xalima”, A.Navoiyning “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” asarlari sahnalashtirildi.

1928-yilning avgustida Xivada o‘zbek kinomatagrafiya sanoatining asoschisi X.Devonov tavalludining 50 yilligi hamda ijodiy faoliyatining 25 yilligi keng nishonlandi.

1929-yil 5-fevralda Yo‘ldosh Oxunboboyevning Xorazmga kelishi va uning okrug, rayon faollari bilan, shuningdek, maorif va madaniy qurilish xodimlari bilan alohida o‘tkazgan kengashlari o‘lkada teatr rivoji uchun yo‘llanma bo‘ldi. Shu kunlarda Xiva muzeyi teatr ishqibozlariga yordam berishda davom etib, Xivadagi klublar, dramatik to‘garaklar va shahar teatrlariga emas, hatto Urganch va boshqa rayonlardagi san’atkorlarga yordam berdi. Xususan, rejisyorlar Zuhur Qobulov, Sayfi Olimov, Armug‘on Muxammedov, dirijyor Sharif Ramazonov, baletmeyster Tamaraxonimlar ham teatr bosh rejissyori L.V.Leonovga yaqindan yordam berib teatr rivojiga o‘zlarining munosib xissalarini qo‘shdilar. Shuningdek, iqtidorli aktyor va sozandalar, rejisyor va rassomlar hamda qator teatr tashkilotchilarining jamoaga kelib qo‘shilishi teatrning yanada yuksak pog‘onalarga ko‘tarilishiga, uning musiqali drama teatriga aylanishiga sabab bo‘ladi.

Xorazmning markazi Urganchga ko‘chganligi sababli teatr jamoasi ham Xorazmning yangi poytaxti Urganchga ko‘chirildi va teatr “Xorazm okrug davlat musiqali drama teatri” nomini oldi. Truppaga Salim Ho‘jayev, Salohiddin Kamolov, Komiljon Otaniyozov, Karim Rahimov, Vahobjon Fayozov, Solih Devonov, Razzoq ota Omonov, Ohunjon qiziq Huzurjonov, O‘rozgul G‘oyipova, Nazira Yusupova, Rajabbibi Boyjonova, Rahmon Ollaberganov, Mahmudjon Safoev, Onabibi Polvonova va V.F.Kaminskiylar kelib qo‘shildi. Shu davrda yozuvchi, dramaturg va rejissyor Abdulhamid Majidiy teatrga boshchilik qiladi. Markaz Urganchdagi teatri bilan bir qatorda Xivadagi teatr ham o‘z holicha faoliyat ko‘rsatdi. Davlat teatri muzeydan teatrga kerak ashyolardan foydalanib turdilar. 1931-yil yanvar oyida davlat teatri tomonidan “Murodsiz muhabbat” asari sahnaga qo‘yildi. Rahim Niyozov tomonidan yozilgan ushbu dramada Xiva mahalliy burjuaziyasining revolyusiya arafasidagi siyosati badiiy obrazlar orqali ko‘rsatildi.

1929-1932-yillarda Xiva muzeyidan Xivadagi 84-polk drama to‘garagi, Xiva va Urganch shaharlaridagi pedagogika bilim yurtlari havaskorlik uyushmalari, Xivadagi teatr yoshlari to‘garagi, Urganchdagi markaziy klub drama truppasi va boshqalar kerakli buyumlar, qurollar, kiyimlar olib, spektakllarda ishlatib turganlar. Binobarin teatrlar 30-yillar boshlarida ham yetarli moddiy-texnik bazaga ega bo‘lmagan, ikkinchidan tomoshabinlarni sahnadagi voqealarga ishontirish uchun ham haqiqiy qurol, buyum va kiyim-kechaklar ishga solindi.

1931-yilda Xorazmning Hazorasp rayon teatriga Xivadan Axmad Maxmudov yuborildi. Urganch, To‘rtkul shaharlaridagi Davlat teatrlari ta’sirida hazorasplik san’atkorlar tez kunlarda bir necha asarni sahnalashtirib, tomoshabinlar e’tiborini qozondilar. Hazorasp teatri san’atkorlari faqatgina Xorazm okrugi bilan cheklanmasdan qo‘shni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshhovuz okruglariga ham gastrol safarlarini uyushtirdi.

Ma’lumki, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi davrida 1920-yilning 11-apreldagi respublika hukumati qarori bilan maorif nozirligi qoshida Xalq muzeyi tashkil etilgan edi. Ma’muriy hududiy bo‘linishdan keyin tashkil etilgan O‘zbekiston SSRda muzeylar faoliyati ham ma’muriy buyruqbozlik tizimidan chetda qolmadi. Muzey ko‘rgazmalarida inqilobiy voqealarni aks ettirish talabi qo‘yilishi bilan bir qatorda muzeylarning bo‘lim va ko‘rgazma materiallari nomlari ham belgilab berilar edi.

1930-yil 1-dekabrda Moskvada bo‘lib o‘tgan birinchi muzeylar syezdi muzeylarni sotsialistik qurilishga xizmati qilishi kerakligini belgilab, muzyelarni “madaniy inqilob” quroliga aylantirish vazifasini belgiladi. Syezd qarorlaridan kelib chiqib, ommani inqilob an’analari ruhida tarbiyalovchi tarixiy-inqilobiy va xotira muzeylarini tashkil etishga e’tibor qaratildi. Bu davrda Xorazmda faoliyat yuritayotgan Xorazm tarixiy-inqilobiy muzeyi madaniyat sohasining ikkinchi darajali tarmog‘iga aylanib qoldi.

Urganch shahridagi birlashgan oblast musiqali drama teatri 1938-yilda 22 ta repertuarni sahnaga qo‘ydi. Shulardan 16 tasi shu yilning o‘zida sahnalashtirilgan spektakllar edi. 1939-yilda Xorazm oblastida faoliyat olib borayotgan 2 ta – viloyat musiqali drama teatri hamda Xiva shahridagi kolxoz-sovxoz teatrlari jami 27 ta spektakl sahnalashtirib tomoshabinlar e’tiboriga havola qildi. Shulardan 3 tasi yangi sahnalashtirilgan edi. Ularda 191 nafar ishchilar xizmat qilar edi. Ularning 100 nafarini aktyorlar tashkil qilgan. Tahlil etilayotgan yildagi teatr tomoshalarida oblastning 153,1 ming kishisi ishtirok etdi. Sahna asarlarini namoyish etish uchun shu yili teatrlar 515,5 ming rubl sarflangan bo‘lsalar, 1738 ming rubl foyda bilan chiqdilar.

Urushgacha oblastda 96 ta kutubxona bo‘lib, ularning kitob fondi 100 ming nusxani tashkil etgan. 1940-yilga oid hisobotlarda ta’kidlanishicha, oblastning 28 joyida kino inshootlari faoliyat yuritgan.

Xulosa sifatida ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston SSRning tarkibi qismi hisoblangan Xorazmda urushgacha bo‘lgan davrda madaniyat muassasalarining faoliyati bir qadar o‘sish nuqtasiga keldi. Chunki bu davrda mahalliy aholi orasidan yetishib chiqqan iqtidor egalari Xorazm teatrini yuksalishiga xizmat qildilar. Biroq mafkuraga asoslangan sovet siyosati ushbu masalalarga ham “sovetcha milliy ruh”ni olib kirishga intildi. Buning zamirida esa xalqni sovet ruhida tarbiyalash yotar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Постановления II сессии Всероссийского Центрального Исполнительного Комитета XI созыва. — Москва: Издание ВЦИК, 1924. — С. 206.

2. Резолюция II сессии Центрального Исполнительного Комитета СССР 2-го созыва по вопросу о размежевании Советских республик в Средней Азии и о вхождении Узбекской ССР и Туркменской ССР в состав СССР. 27 октября 1924 г. //Собрание законов и распоряжений Рабоче-крестьянского правительства Союза Советских Социалистических Республик. Отд. 1. — Москва, 1924-1937. –С. 253-256.

3. Ражабов Қ., Қандов Б., Ражабова С. Ўзбекистон тарихининг муҳим саналари. 6-нашр. - Тошкент: O‘zbekiston, 2015. – Б. 174–175.

4. O‘zMA, 71-fond, 1-ro‘yxat, 31-ish, 30-varaq.

5. Хоразм тарихи. 2-жилд. Урганч: Хоразм, 1997. – В. 111.

6. Собиров О. Хорозм воҳаси театрлари, 1917— 1941 йиллар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – Б. 77.

7. Хоразм области. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1975. – Б. 89-90.
8. Xorazm viloyat musiqali drama teatri joriy arxiv ma’lumotlari, Urganch, 2025.
9. Собиров О. Хоразм воҳаси театрлари. – Т.: Ғ.Ғулом нашрёти, 1991. – Б. 118.
10. Хоразм Республикаси: давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. – Б. 16.
12. Музейное дело России / Под общей редакцией Каулен М.Е., Коссовой И.М., Сундиевой А.А.. – М.: «ВК», 2003. – С. 145.
13. Babojonov D. K. Ichan qal’a” davlat muzey qo‘riqxonasi tarixi (1920–2020 yy.). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref. – Urganch, 2023. – B.13.
14. O‘zMA, P-1619-fond, 11-ro‘yxat, 527-yig‘majild, 5-varaq.
15. O‘zMA, P-1619-fond, 11-ro‘yxat, 527-yig‘majild, 14-varaq
16. O‘zMA, 1619-fond, 22-ro‘yxat, 129-yig‘majild, 210-varaq.
15. O‘zMA, 1619-fond, 22-ro‘yxat, 129-yig‘majild, 211-varaq.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA FRONTDA O’ZBEKISTONLIK XOTIN-QIZLAR ISHTIROKI.

Qo’ziyeva Z.U

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya.*Ushbu maqola O’zbekistonlik xotin-qizlarning urush yillarida front ichkarisida ko’rsatgan jasoratlari hamda fashizmga qarshi kurashdagi mardonavor harakatlari haqida shuningdek, urushda qatnashgan ayollarimiz nomlarini abadiyatga muhrlash, kelajak avlodaga namuna qilib ko’rsatish va ularda vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlari: *Fashizm, partizanlar, tibbiyot xodimlari, snayperchilar, “Qizil Yulduz” orderni, “Vatan uchun” ordeni, harbiy safarbarlik.*

Аннотация. Эта статья о подвигах узбекских женщин на фронте в годы войны и их доблестных действиях в борьбе с фашизмом также послужит тому, чтобы навсегда запечатлеть имена наших женщин, участвовавших в войне, служить примером для подражания будущему поколению и формировать у них патриотические чувства.

Ключевые слова: фашизм, партизаны, медики, снайперы, орден Красной Звезды, орден “За Родину”, военная мобилизация.

Annotation. This article is about the courage shown by Uzbek women inside the front during the war years, as well as the brave actions in the fight against fascism, and also serves to seal the names of our women who participated in the war to eternity, set an example for the future and form patriotic feelings in them.

Keywords: fascism, partisans, medical personnel, snipers, order “Red Star”, order “for the motherland”, military mobilization.

KIRISH

1939-yil 1-sentabrda fashistlar Germaniyasining qo’shinlari Polsha hududiga bostirib kirishi bilan insoniyat tarixidagi eng qonli va qirg’inbarot urushning boshlanishiga olib keladi. Olti yil davom etgan bu urushda o‘sha paytda dunyodagi 73 ta davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgan. Yevropa, Osiyo va Afrika qit’alaridagi 40 ta davlatni bevosita qamrab olgan qurolli to‘qnashuvlarga 110 million kishi safarbar etilgan va jami 70 million kishi halok bo‘lgan. 1941 yil arafasida O‘zbekiston aholisi 6 million 800 mingdan ziyod bo‘lgan. Urush boshlanishi bilan, shundan qariyib 2 millioni frontga otlangan. Bu qahramon insonlarning 500 mingdan ziyodi janglarda halok bo‘lgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “**Biz bu raqamlarni har yili qayta-qayta esga olamiz. Bular shunchaki oddiy raqamlar emas. Ularning zamirida mushtipar onalarimiz, momolarimiz, mard va jasur otalarimiz, butun xalqimiz qalbidagi cheksiz qayg‘u va hasrat mujassam. Bu dardu alamlarni hech qanday raqam, hech qanday so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi**”[1]. *Bu urushda erkak-u ayol, yosh-qari birdek ishtirok etadi. Ojizalik, go’zallik timsoli hisoblanga ayollarimiz qo’llariga qurol olib vatan uchun, bir qarich ona yerimiz uchun jon olib, jon berishadi.*

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ikkinchi jahon urushi davri tarixining bugungi kun va kelajak uchun naqadar muhim ahamiyatga egaligini O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning mana bu

da'vatkor, haqoniy va oqilona fikrlarini eslashimiz va unga amal qilishimiz lozim:" Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin,bu urush qaysi g'oya va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doim yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oddiy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo'q va bunga yo'l ham bermaymiz. Urush yillari - O'zbekiston tarixining uzviy bir qismi. Biz tariximizdan biron sahifani olib tashlamaymiz. Bu tarix- bizniki, uni unutishga hech kinning haqqi yo'q. O'sh qiyin kezlarda xalqimiz boshqa xalqlar bilan bir qatorda turib fashizm balosini daf etishga munosib va salmoqli hissa qo'shganini doim katta faxr va g'urur bilan aytamiz, namoyon qilamiz "[2].

Ikkinchi jahon urushi davrida urushda qatnashgan ayollar mavzusiga oid adabiyotlar kam.Ularning aksariyati arxiv ma'lumotlarida saqlanib qolgan va hozirda o'rganilmoqda. Shunday bo'lishiga qaramasdan Jo'rayeva Nilufar ustozning "O'zbekiston xotin-qizlariga munosabat (XX asrning 20-80yillari misolida)" asarlarida ikkinchi jahon urushida qatnashib, vatan himoyasida fidokorlik ko'rsatgan ayollar tarixiga bag'ishlangan boblari bor. O'zbekistondan 4555 nafar xotin-qizlar erkaklar safida turib frontda xizmat qilgan. Manbalarda qayd etilishicha, 1941-yil iyulining dastlabki to‘rt kunida frontga yuborishni so‘rab yozilgan arizalar soni 1875 ta bo‘lgan bo‘lsa, 9 avgustga kelib ularning soni 14 mingtaga etgan. Shundan qariyb 6 mingi xotin-qizlar edi. Xususan, 1941-yil 26 iyunda toshkentlik 1551, 28 iyunda farg‘onalik 423, xorazmlik 147, andijonlik 798, namanganlik 267 nafar xotin-qizlar, 6 iyulda 17-24 yoshdagi 14 nafar qizlar frontga ketish to‘g‘risida ariza bergan. Xorazm viloyat komissariatiga 1156 ariza tushgan bo‘lsa, shulardan 147 nafari xotin-qizlardan edi. Birgina Buxoro viloyatidan frontga ketgan 73688 nafar kishining 176 nafari xotin-qizlardan iborat edi [3].

METODOLOGIYASI. Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushi yillarida qatnashga O'zbekistonlik xotin-qizlarning urushdagi vazifalarini o'rganiganishda tarixchi olimlarning o‘z asarlarida hamda tadqiqot ishlarida keltirilgan ma'lumotlarini o‘zaro qiyoslash, tahlil etish, izchillikda, bosqichma-bosqichlikda hamda albatta xolislik metodiga alohida ahamiyat berilgan holda yoritib berish maqsad qilindi.

Muhokama. Ayollar bilan bog'liq tushunchalarimizning barchasi "mehr-shafqatli", degan so'zga jo bo'ladi. Singil, rafiqa, do'st, ona- bu yuksak ta'riflar negizi, mohiyati ham mehr-shafqatdan iborat emasmi? Ayol - hayot baxsh etadi, hayotni ko'z qorachig'iday asraydi, ayol va hayot-mushtarak. XX asrning eng dahshatli urushida ayol askarga aylandi. U nafaqat yaralanganlarni qutqardi, ularning jarohatlarini bog'ladi, balki merganlar miltig'idan o'q uzdi, bombardimon qildi, ko'priklarni portlatdi, zarvedkaga qatnadi, "til" tutib keldi. Ayol, o‘ldirdi. O'z zaminiga, o'z uyiga, bolalarining ustiga shafqatsizlik bilan bostirib kelgan ashaddiy dushmanni o‘ldirdi [4].

Ikkinchi jahon urushi davrida ayollar frontda ham, front ortida ham kata rol o'ynaganlar. Ular harbiy xizmatga jalb qilingan, sanoatda o'z fidokorligini ko'rsatishgan va partizanlar harakatlarida ishtirok etishgan. Xususan o'zbek xotin-qizlari ham fashistlar ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining fidokorona xizmatlarini ko'rsatishgan. Urush davrida ayollar frontdagi vazifalari:

1.Tibbiyot xodimlari. Urush sharoitida sanitariya hamshiralarini ko'paytirish va aholini sanitariya hamshiraligiga o'rgatish ishlari ancha keng amalga oshirilgan. Respublikaning barcha viloyat, shahar, tumanlarida sanitariya markazlari tashkil qilingan. O'qish davri 2 oydan 6 oygacha bo'lib, ishlab chiqarishdan ajralmmagan xolda amalga oshirilgan. Respublikamizda 1941-1945 yillar davomida 8054 nafar tibbiyot hamshirasi tayyorlangan va aksariyati frontga jo'natilgan. Ko'plab o'zbek ayollari hamshira, jarroh, sanitarka bo'lib xizmat qilganlar. Ular jang maydonida yaradorlarga yordam berib o'zlarining vazifalarini bajarishgan. 1942 yil bahorda Samarkand va Toshkent tibbiyot institutlarini bitirib, frontga otlangan 20 nafar yosh vrachlar orasida NuriShokirova, Po‘latoy Qodirova, Sobira Majidova singari o‘zbek qizlari, professor M.A.Ashrapova, tibbiyot fanlari nomzodi Z.X.Hasanova, F.R.Ramazonovalar bor edi. Shifokor o‘zbek ayollari butun front (g'arbiy, janubiy, Belorussiya, Ukraina, Pribaltika, Bryansk, Leningrad, Volxov) bo‘ylab yarador jangchi va zobitlarga tibbiy yordam berishda qahramonlik ko‘rsatdilar, hattoki o‘z jonlarini ham ayamadilar. Shuningdek, xorazmlik X.R.Yakubova Toshkent tibbiyot institutini bitirgach, darhol frontga jo‘nab, u erda 3 yil xizmat qiladi. Front jangohlarida ikki

marotaba yarador bo‘lib, qulog‘i eshitmay qoladi. Shunday bo‘lsa-da, u frontni tashlab ketmaydi. Janubi-garbiy, Stalingrad, 2-Boltiqbo‘yi frontlarida xirurgiya vzvodi motobrigadasining xirurg vrachi, keyin polk vrachi lavozimlarida mardonavor xizmat qiladi. X.Yakubova tibbiyot xizmati kapitani darajasiga sazovor bo‘lgan. Urush yillarida yarador soldatlarni davolashda ko‘rsatgan jonbozligi uchun Qizil Yulduz ordeni bilan taqdirlangan. Qashqadaryolik Jamila Husainova bir necha oy Buxoroda harbiy tayyorgarlikdan o‘tganidan so‘ng, o‘zbek milliy brigadasi tibbiy yordam rotasida mehnat qila boshladi. Jamila Xusaynova birinchi bor shimoliy Don daryosi bo‘yida jangga kirgan, so‘ngra janubi-g’arbiy front chiziqlarida, Ukrainani ozod qilish uchun bo‘lgan janglarda ishtirok etgan va ko‘rsatgan jasoratlari uchun bir necha bor jangovar medallar sohibasi bo‘lgan [3].

2. Snayper va razvedkachi ayollar. Zebi G’aniyeva, Tursunoy Yoqubova, Malika Sobirova, Shamsiyo Yusupova kabi o’zbekning snayper va zarvedkachi ayollari bo’lib, ular maxsus harbiy tayyorgarlikdan o’tib frontda muhim zarvedka ma’lumotlarini to’plash bilan shug’ullanishgan.Zarvedkachilarning urushdagi asosiy vazifalari dushman harbiy salohiyatini o’rganish, bu orqali dushman qo’shinlarining joylashuvi, qurollari, harbiy harakatlari haqida ma’lumotlar to’plaganlar. Dushman aloqa liniyalarini tinglash orqali keying harakatlaridan xabardor bo’lishi. Razvedkachilar maxfiy operatsiyalarni ham amalga oshirishgan.Ular dushman hududiga kirib, maxfiy ma’lumotlarni yig’ishgan va zarur holatlarda qo’paruvchilik harakatlarini olib borishgan.

3. Partizanlar harakati. To’ti To’raqulova, Sanobar Yo’ldosheva, Xadicha Yusupova kabi o’zbek ayollari partizan otryadlarida fashishtlarga qarshi kurash olib borgan. Partizanlar asosan dushman egallab olgan hududlarga kirib yashirin guruhlar tuzish, aholiga yordam berish, dushman oziq-ovqat bazalarini portlatish, transport vostalariga hujumlar uyushtirib, oziq-ovqat va qurol-yarog’larni Sovet Ittifoqi askarlariga yetkazib berishdek vazifalarni bajarishgan.

4. Harbiy xizmat. Xadicha Usmonova, Zaynab Mahmudova, Malika Toshpulatova, Saodat Yoqubova kabi o’zbek ayollari aloqachi, artilleriyachi va hattoki aviatsiya xodimi bo’lib xizmat qilishgan. Ularning vazifalari dushman pozitsiyalarini bombardimon qilish va harbiy operatsiyalarda ishtirok etish edi. Azizaxon Qalandarova ham frontga ketishdan oldin bir oy to‘p otishni mashq qilib, keyin artilleriyachilar bilan birga frontga jo‘naydi. Oryol-Kursk yonidagi shiddatli janglarda Azizaxonning to‘pidan uzilgan o‘qlar gitlerchilarning uchta bombardimonchi samolyotini chilparchin qildi. Uning harbiy mahorati «Qizil Yulduz» ordeni bilan takdirlandi. Qonli janglardan birida A.Qalandarova ham og’ir yarador bo‘ladi. Biroq sog‘ayib chiqqanidan so‘ng ham yana jang maydoniga qaytadi. U ikkinchi marotaba yana yaralanadi. Toshkentga qo‘ltiqtayokda, ammo ko‘ksida «Qizil Yulduz» ordeni, «Jangovar xizmatlari uchun», «Jasurligi uchun» medallari bilan qaytgan. Albatta, shu o‘rinda o‘zbek ayollarining Vatan degan tushunchani yuksak qadrlaganligini alohida ta'kidlash joiz [3].

Urush yillarida frontda ko‘rsatgan jasoratlari uchun 120 ming nafar O‘zbekistonlik jangchilar turli jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Bu mukofotlar orasida Polsha, Vengriya, Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarning ham orden va medallari bor edi. Ular orasida jangovar orden va medallar sohibi bo‘lgan ayollar ham bor edi [5].

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi davrida O’zbekistonlik xotin-qizlar frontlar turib Vatan uchun xizmat qilishga. Qaysi vazifalarni bajarishlaridan qat’iy nazar mardonavor harakat qilishgan. Birgina 1941-yilning iyul oylarida minglab xotin-qizlar frontda urushga ketish uchun hukumatga xat yuborishgan. Urushda 4555 nafar o’zbek ayollari ishtirok etishgan. Raqamlar ortida esa urush tomomila izdan chiqargan taqdirlar, umrlar joy olgan: kimdir yaqinlari yo’qotgan, kimdir sog’ligidan ayrilgan, kimdir beva kimdir esa yetim bo’lib qolgan. Jon olib jon berilgan. Fashizm ustidan qozolingan g’alabaning olamshumul tarixiy ahamiyati shundaki, u ko’plab xaqllarni zo’ravonlikdan, zulmdan ozod etdi, erkin, demokratik rivojlanish uchun, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyot uchun yo’l ochib berdi [5]. Urushda qatnashib halok bo’lganlarning nomlari xotiralarda muhrlangan. Xotira esa abadiy va muqaddasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 9 may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2018 yil 9 may. Lex.

2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar to’plami.3-jild.-T.:O’zbekiston”1996. 81-b
3. Jo’rayeva Nilufar “O’zbekiston xotin-qizlariga munosabat (XX asrning 20-80 yillari misolida)” O’z.MU Toshkent -2013.
4. Svetlana Aleksiyevna “Urush ayollar ishi emas” Ziyo nashr. Toshkent. 2020.
5. Q.Usmonov O’zbekiston tarxi. ” Istisodiyor-Moliya” Toshkent. 2016.

МУСИҚАЛАРНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Карамов Ж.
Мустақил тадқиқотчи

Аннотатсия: “Марказий Осиёнинг юраги” деб аталувчи қадимги Суғд ўлкаси ўзининг 2700 йилдан ортиқроқ тарихи жараёнида Шарқ мусиқа санъатининг асосий марказларидан бири бўлиб келди. Инсоният тафаккурининг буюк кашфиётларидан бири бўлган мусиқа санъатишонли ва қадимий ўтмишга эга. Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг ташаббуси билан 2018 йилда халқаро “Мақом анжумани” мусиқа фестивалининг айнан Шаҳрисабзда ўтказилиши бир неча минг йиллик тарихий ҳақиқатнинг юзага чиқиши, халқимизнинг қадимий буюк анъаналари қайта жонланиши ва юксак чўққига кўтарилиши бўлди.

Аннотация: Древняя земля Согда, известная как «сердце Средней Азии», на протяжении своей более чем 2700-летней истории была одним из главных центров восточного музыкального искусства. Музыка, одно из величайших открытий человеческой мысли, имеет древнее художественное прошлое. Проведение в 2018 году в Шахрисабзе международного музыкального фестиваля «Маком Анджумани» по инициативе Президента Узбекистана Ш. Мирзиёева, явилось проявлением многотысячелетней исторической правды, возрождением древних великих традиций нашего народа и его возвышением до больших высот.

Annotation: The ancient Sughd region, called the “heart of Central Asia”, has been one of the main centers of Eastern musical art for more than 2,700 years of its history. Musical art, one of the great discoveries of human thought, has a glorious and ancient past. The holding of the international “Maqom Anjumani” music festival in Shakhrisabz in 2018, at the initiative of the President of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev, was the emergence of a historical truth that has been going on for thousands of years, the revival of the ancient great traditions of our people and their rise to great heights.

Калит сўзлар: мусиқа санъати, мақом, мусиқа асбоблари, соз, дутор, шашмақом, “Авесто”, мадҳлар, археологик топилмалар,

Тадқиқотчилар орасида араб босқинига қадар мусиқа саньатини келиб чиқиши ва ривожланиши масаласида бир қанча нуқтаи назарлар мавжуд. Масала ечими комплекс тарздаги мураккаб илмий тадқиқотларни талаб қилади.

мусиқа саньатини келиб чиқишидан олдин мусиқа асбоблари ва турларини аниқлаш жуда муҳим, археологик топилмалар орасида 2 торли мусиқа асбоблари чалаётган аёллар тимсоли кўп учрайди. Бундан ташқари қадимий Қубизлар тарихига ҳам эътибор берилиш лозим. Туркия ва Озарбайжон худудларида қадимий мусиқа асбоблари Соз деб аталади. Уларнинг торлари 7 тадан 9 тагача боради. Аммо туркийлардан бошқа ҳалқларда дутор, яьни икки тор деб аталади. Дутор эса ўзбек, уйғур ва туркман ҳалқларида кенг тарқалган. Ўзбек ва уйғур ҳалқларида дутор узун бўлса, туркманларда калта. Бундан ташқари қипчоқ уруғида кенг тарқалган думбира хам мавжуд, унинг хам тори иккита, дуторга нисбатан калта. Думбира нафақат Марказий Осиё ҳалқлари балки, Урал ва Сибир худудидаги туркий ҳалқларда ҳам кенг тарқалган. Мусиқа асбобларини тарқалиш географиясига эътибор берсак, Озарбайжоннинг шимолий-ғарбий худудларида яшайдиган Аварлар ва Лазгинларда икки торли Думбира кенг тарқалган. Демак бу мусиқа асбоблари нафақат ўзбек халқи, балки Евросиё худудидаги кўплаб ҳалқларнинг ҳам мусиқа санъати асосини ташкил этади.

Мусиқа саньатининг келиб чиқишини тадқиқ этишда фаннинг турли соҳалари билан боғлиқ ҳолда, шу жумладан, археологик топилмаларни жалб этган ҳолда ўрганиш яхши натижа беради. Бундан ташқари мусиқа саньатининг назарий ва амалий томонлари мавжуд, қадимда мусиқа саньати устоз, созанда ва хонандадан шогирдга XX-асрда ноталарга тушгунича оғзаки ўргатиш орқали етиб келган. Бу даврда Шашмақом икки юз элликка яқин куй ва ашулалардан иборат ҳамда ўзбек-тожик халқлари мусиқа меросининг салмоқли

қисмини ташкил этади. Шашмақом узоқ тараққиётга эга ва у фақатгина XVIII асрда якуний ижро кўринишига келган. Қадимги даврда нота ёзувлари бўлмагани сабабли тарихий ёзма манбалар, археологик топилмалар ва “Авесто” матнини таҳлил қилиш орқали ҳам ёритиш мумкин.

Асқар Маҳкам томонидан форс тилидан “Авесто”нинг табдиллар орқали ўзбек тилига ўгирилган таржимаси авестошунослик оламида жуда қатта тарихий воқеа ҳисобланади. Академик таржима муаллифи томонидан аслиятдан таржима қилинган “Авесто” ғоят қимматли манба бўлиб, аввалги форс, инглиз, француз ҳамда рус тилидаги академик таржималарида тушунмовчиликлар ва ғализликлар учраши тадқиқотчилар томонидан эътироф этилган.

Афсуски, Авестонинг ҳам барча матни мавжуд эмас, А.Р.Беруний “Авесто”нинг аячли қисмати ҳақида “Подшо Ибн Доро хазинасида Абистонинг 12 минг қора мол терисига тилла билан битилган бир нусхаси бор эди. Искандар оташхоналарни вайрон қилиб, уларда хизмат қиладиганларни ўлдирган вақтда ёқиб юборган. Шунинг учун ўша вақтлардан бери Абестонинг бешдан уч қисми йўқолиб кетди. Абисто 30 “наск” эди, мажусийлар қўлида 12 наск чамаси қолди. Биз Қуръон бўлакларини ҳафтияклар деганимиздек, наск Абистонинг ҳар бир бўлагининг номидир” деб ёзган эди. Авестонинг 12 мингта мол терисидан тайёрланган пергаментларда ифодалангани тарихчи Балхийнинг “Форснома” китоби ҳамда Балъамийнинг “Тарихи Балъамий” китобида ҳам учрайди. Улар ҳам “Авесто” Гуштасп фармони билан 12 мингта мол терисидан тайёрланган китобда битилган, деб тасдиқлайдилар.

А.Македонскийнинг Марказий Осиёга кириб келиши “Авесто”нинг йўқ қилиниши билан биргаликда қадимий маданиятимизнинг узвий қисми бўлган мусиқа санъатига ҳам жиддий путур етказди. А. Р. Берунийнинг Искандардан кейин ҳам араб истилочиларидан “Қутайба Хоразм хатини яхши биладиган, уларнинг хабар ва ривоятларини ўрганган ва билимини бошқаларга ўргатадиган кишиларни ҳалок этиб, буткул йўқ қилиб юборган эди. Шунинг учун ислом динидан кейин ҳақиқатни билиб бўлмайдиган даражада яширин бўлиб қолди... Кейин Қутайба Ибн Муслим ал-Боҳидий хоразмликларнинг котибларини ҳалок этиб, билимдонларни ўлдириб, китоб ва дафтарларни куйдиргани сабабли саводсиз бўлиб қолдилар. Ўз эҳтиёжларида ёдлаш қувватига суянадиган бўлдилар. Узоқ замон шундай бўлгач, улар ихтилофли нарсаларни унутиб, келишиб олганларини ёдда сақлаб қолдилар” деб ёзган эди.

Мавжуд ёзма маълумотлардан кўриниб турибдики, нафақат Александр Македонский, балки араб истилочилари ҳам қадимги маданият ва санъат намунаси бўлган мусиқа санъатини йўқотишга ҳаракат қилишган.

“Авесто” насклари одамларни эзгуликка, яхшиликка даъват этувчи илоҳий қўшиқлар бўлган. Одатда улар сув ва қуёшга сиғиниб сувлар, дарёлар, сойлар ва кўлларни шарафлаб куйлашган, Ардвисура-Анахита-Нохид юлдузига сиғинишган. Танбурни ижро этишда тирноққа тақадиган анжом ҳам Нохуд деб аталашини Зардуштийликка боғлаш мумкин. Зардуштийлар сув, бутун дунё, ҳаёт, борлиқ ва мавжудотни Нохуд юлдузи билан боғлаб, унга ҳамд-сано айтишади, мадҳлар куйлашади, илтижолар қилишади, тўкин-сочинлик ва фаровонлик сўраб дуо-фотиҳа қилишади.

“Барча сувларни олқишлаймиз, Барча гиёҳларни олқишлаймиз.

Барча ашаванларнинг ҳалол, қудратли ва олийжаноб фрашийларини олқишлаймиз.

Сувларни чорлаймиз ва шарафлаймиз.

Гиёҳларни чорлаймиз ва шарафлаймиз”.

Бу дуолар қўшиқ сифатида жўр бўлиб куйланган. “Авесто”нинг Гоҳларидан энг қадимийси Зардуштнинг бешлик қўшиқларидир. “Авесто” да “Госо”, паҳлавий тилида “Гос”, форсийда “Гоҳ” шаклида қўлланилиб, маъноси қўшиқдир. Зардуштнинг жамийки бешликлари қўшиқлар унвони деб аталган. Форсийда “Госо” ўрнига гоҳида “Гот” деб ёзилади. “Гоҳ” Шарқ мумтоз мусиқа санъатида кенг қўлланилган, чунончи “Дугоҳ”, “Сегоҳ”, “Чоргоҳ”, Госолар эса баъзан “гот” шаклида ҳам қўлланилган, “Авесто”да, асосан “госо” шаклида ишлатилади. Чунончи, “Аҳунавайти госо”, “Анушнавайти госо”, ”Сипантмийту гос”, “Ваҳуҳшашар госо”, “Ваҳийштвайишт госо”. “Гос” сўзи паҳлавий тилида икки маънода ифода этилади. Биринчи “госо” “қўшиқ”, иккинчиси – “бир сатр шеър” (патмон-паймон) “Авесто”да “афоман”, “патмон” ёки “госо”.

“Авесто”дан Уштавад гоҳ атамаси кўп учрайди, бу сўз ҳам Зардушт яратган бешлик қўшиқнинг иккинчиси бўлиб куйланади.

Ўрта Осиё ҳудудида яшаган туркий ва эронийлар мусиқа санъатига катта ҳисса қўшган халқлардир. Улар мусиқа маданиятига оид бой меросга эга. Илк ўрта асрларда араб босқини натижасида жуда кўплаб мусиқа маданиятига тегишли манбалар йўқотилди, аммо ислом оламининг илк уйғониш даврида яшаган буюк олимлар Абу Наср Фаробий, Ибн Сино, Хоразмийлар ва уларнинг шогирдлари мусиқа назарияси бўйича тадқиқотлар олиб борган ва жонли мусиқа асарлари яратганлар.

Афсуски, мусиқа санъатининг тараққиёт йўлини мукаммал тарзда изчил ёритиб бера оладиган яхлит асарлар йўқ.

А.А.Семеновнинг Ўзбекистон Республикаси Шарқшунослик институти фондида сақланаётган “Мақомлар масаласига доир” қўлёзма асарида “Шашмақомнинг туркум сифатида шаклланиши XVI асрда содир бўлган”, деган фикр мавжуд. И. Ражабов эса “Ўрта Осиёдаги Шашмақомда айтиладиган шеър матнлари орасида XVII-XVIII асрларда Бедил, Машраб, Сайидо, Зебунисо, Нозим каби шоирларнинг ғазалларидан ҳам фойдаланилган, аммо Шашмақом XVI асрда ҳали тўлиқ шаклланмаган эди, деб ёзади (. У “Шерозий ва Жомий товушларни Оллоҳнинг иноятиˮ деб қарайдилар ва мақом илоҳиётга боғлиқ, деб тушунтиришига асосланади. Ўрта Осиё мусиқаси, шу жумладан, мақом ўтмишда реакцион синфлар идеологияси – ислом дини анъаналарига қарши курашларда яшади, чиниқди, ривожланиб…., халқларимизнинг ажойиб мусиқа мероси сифатида етиб келди” деган хулосага келган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги ПҚ-3391-сонли “Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. Тургун Масидли. Коротко про тему музыкалнье инструменты. Культура и искусство тюркских народов. **granat.wiki**›enc/t/tyurkskoe-iskusstvo/
3. Беруний. А.Р. Танланган асарлар. 1-жилд., – Т.: “Фан”, 1968. – Б.238.
4. Трактат о религии и государстве. М. 1892 г. –Стр .494.
5. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. – Т.: 2015. –Б.6.
6. Ўша асар – Б.598-603
7. Қози Аҳмад бин Холлиқон. “Тарихи вафоёти –аён” (Машҳур кишилар ҳаёти тарихи).1881 й.Мисрда тош босма тарзида нашр этилган. – Б.306.
8. Семенов. А.А. “Мақомлар масаласига доир” Шарқшунослик институти фондидаги 1466-сонли қўлёзма.
9. Ражабов. И. Мақомлар (қўлёзма). СИТИ кутубхонаси.инв. №843. – Б.21.

LIGHT AND FOOD INDUSTRY DURING THE WAR YEARS: ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS (1941-1945)

Kendjaev Y. Y.

Asia Technologies University " Social Sciences and
Digital Department of Technology Teacher

Abstract: War in the years industry of enterprises To Uzbekistan relocation as a result, the production capacity of light industry was also focused on the implementation of military tasks and from the news big in scope work go ahead owner was of modern light industrial enterprises, Central In Asia , including Uzbekistan building to be done necessary turned and carved .

***Keywords*:** Industry enterprises, electric energy, power station, Uzbekistan Compartment, plenum, hydroelectric station, metallurgy, factory, Uzbekistan USSR People 's Commissars Soviet, issi q lik power station.

Introduction From the very first day of the war , the production capacities of light industry were also directed to fulfilling military orders. In the current conditions, light industry needed to quickly provide the front with clothing. Like other industries, light industry was also forced to adapt to war conditions. Before World War II, the share of light industry enterprises in the production of products for the army was not verylarge. Only sewing enterprises partially produced clothing for the

army. Now, based on domestic capabilities, it was necessary to significantly increase the production of military products.In order to fulfill this task, first of all, consumer goods and products produced inpeaceful conditions and their quantity were reduced. Sewing enterprises clothes,overcoat. The leather-fur and shoe industries switched to producing hats, boots,military shoes, short coats, gloves and other products. However, during the war years, the transition of light industry in Uzbekistan to a military path was quite difficult. The main problems and difficulties in this regard were the need to master new products and new technologies, search for new raw materials and direct them to production in conditions of significantly reduced material and technical resources, raw materials, and labor. The supply of products necessary for light industry (zipper, buttons, hooks, chains, etc.) imported to Uzbekistan stopped during the war. At the same time, with the outbreak of war, capital funds allocated to the industry decreased. For example, in 1942, the plan for state funds allocated to the industry was implemented by only 21.5% according to the People's Commissariat of Textile Industry of the Uzbek SSR, and by only 5.8% according to the People's Commissariat of Light Industry of the Uzbek SSR.With the outbreak of war, the production capacities of the light industry of theUzbek SSR began to fulfill military orders. Leather goods manufacturing enterprises supplied aviation, automobile and tractor, tank and other military sectors with products. For example, in 1941, the Tashkent Saddlery Factory produced products for the front worth a total of 504,000 rubles, while in 1942 it produced 4,885,000 rubles, or 9 times more.By the end of December 1941, Uzbek light and domestic industry had supplied thefront with 7,417 cotton jackets, 5,852 raincoats, 22,250 pairs of long gloves, 3,269puffer jackets, 60,902 hats, 15,400 pairs of boots, 23,852 pairs of socks, 9,770 shortgloves, 2,937 cotton trousers and other warm clothing.From the beginning of 1942, the republic's light industry enterprises also increasedtheir production of products for the front on the basis of military orders. In the firsthalf of 1942, the M. Gorky sewing factory team fulfilled the plan for the productionof products for the front by 107.9 percent, the Krasnaya Zarya sewing factory by102.3 percent, the Volodarsky sewing factory by 111.7 percent, and factory No. 8 by 147.8 percent.By August 25, 1941, a total of 29 light industry enterprises and two enterprises oflocal industrial importance were relocated from the western regions of the USSRto the Uzbek SSR. Of these, 9 were weaving factories, the Krasny Shveynik factoryfrom Kharkov, factories No. 1, 2, 4, 5, 7 from Rostov, the V.V. Volodarsky sewingfactory from Dnepropetrovsk, Dnepropetrovsk sewing factories, etc.; At the sametime, two Rostov and Taganrog shoe factories, the Mogilev furniture factory,Moscow leather factories, the Dubitel oil-extract plant, and the Kulyansk leather factories were relocated. These relocated light industry enterprises were relocated to the regions of therepublic in the following order: 4 enterprises were relocated to Samarkand region,4 to Andijan region, 9 to Fergana region, 1 to Namangan region, and 13 to Tashkentregion.The production equipment and technologies of factories and enterprises relocatedto Uzbekistan were combined with local similar enterprises in the republic. Forexample, the Rostov shoe factory was combined with Tashkent, Samarkand, andBukhara shoe factories, and the Mogilev furniture factory with Tashkent furniturefactories, and began to produce products for the front . The relocated enterprisesbrought with them up to 20-30 percent of their skilled workers and engineering technicians. They also taught local workers their trade secrets.However, the placement of the relocated enterprises and ensuring their fulloperation was achieved with great difficulties and overcoming the shortcomings ofthe war years. Therefore, their share in the republic's light industry increased fromyear to year. For example, the share of relocated enterprises in the total lightindustry output in the republic was 29.8 percent in 1942, while this figure was 39.5percent in 1945.Between 1942 and 1943, a hemp spinning and weaving factory was built and putinto operation in Tashkent, a silk weaving factory in Margilan, and other textile enterprises.Weaving and sewing enterprises began to completely fulfill military orders, andalthough it seemed easy from the outside to transfer the work of this industry to themilitary path, it was necessary to replace previously produced goods with specialproducts that required many times more labor. Between 1941 and 1943, theproduction of special fabrics for the needs of the front increased by 12.5 times, andconnecting materials by 21 times. In October 1941, all light industry enterprises of Uzbekistan switched to fulfilling defense orders.Uzbekistan supplied hundreds of thousands of meters of fabrics and clothing to thefront. The Stalin Tashkent Garment Factory, one of the largest textile factories inthe Soviet Union, also

produced products mainly for the front during the war years.The factory was awarded the Order of the Red Banner of Labor by the Decree ofthe Presidium of the Supreme Soviet of the USSR of January 24, 1944 for its timely and efficient fulfillment of the government's instructions on providing the armywith various items and equipment and for fulfilling a special assignment of theState Defense Committee.During the war years, a number of new industrial enterprises were built and putinto operation in our republic. In particular, in the Bukhara region, the Bukharacotton ginning plant, a spinning mill that could spin 4 thousand tons of yarn perday into 10-12 thousand skeins, and a leather and fur factory that could produce300 tons of products per year were built and put into operation. The constructionof a fat and oil plant in Gijduvan and a superphosphate plant in Kogon began. Also,in 1942, 170 thousand soums of repair work was carried out at the Bukhara meatprocessing plant.In 1942-1943, a spinning factory was built and put into operation in the city ofAndijan. This enterprise spun 5,000 tons of yarn into skeins per day and begansupplying raw materials to the regional artels. The factory began producingproducts in February 1943.The young people of the Volodarsky sewing factory in Andijan worked selflesslyduring the war years, sewing clothes worth 350,000 soumsfor soldiers at the front,beyond the plan.By mid-1943, the Krasnaya Zarya factory in Tashkent sent warm clothing such ascotton vests and jackets worth 500,000 soums to soldiers at the front. The 900women working at this factory worked selflessly, joining the labor competition.In 1943, hundreds of workers, engineers, and employees of the Stalin TashkentTextile Plant were awarded orders and medals of the USSR government for theirexcellent performance of government orders to equip the army with equipment andfor their timely fulfillment of special assignments from the Defense Committee.“VLKSM XX Yilligi” sewing factory in Bukhara mastered the production of 19different types of products during the war years. The enterprise produced productsboth for the front and for the needs of the population. A large part of the productsmanufactured at the factory were sent to the front. During the entire war, 21 million573 thousand soums worth of products manufactured by factory workers were sentto the front. In addition, the factory teamsaved 8,000 meters of fabric in 80 days and produced 20 children's suits, 17 electric heaters, 100 fleece blankets, mattresses, and sheets for the families of front-line workersDuring the war years, the "Indloshka" shoe factory, wine factory, and karakul tanneries in Bukhara, which processed karakul skins, also contributed their dueshare to the victory with the products they produced to meet the needs of the front.The Karakul plant, located in the city of Bukhara, was also put into militaryoperation. The plant's workers fulfilled the dailyplan by 162.5 percent on June 26,1941, 157 percent on June 27, and 186.6 percent on June 28.During the Second World War, 195 industrial enterprises and more than threethousand small enterprises operated in the Samarkand region, most of which werelight and food industry enterprises. They employed a total of 17.3 thousandworkers. All enterprises produced industrial products worth 926.5 million soumsper year at 1941 prices. Food industry enterprises accounted for 53 percent of thetotal industrial output produced in the Samarkand region, and textile enterprises(including a cotton ginning plant) for 31 percent. The sector of heavy andmetalworking industries was not very large. The share of heavy industry in allindustrial products produced in the region was only 11 percent, and the share of metalworking enterprises was only 5 percent.

References

1. Sirozhov O. The industry of Uzbekistan during the war years. – Tashkent: Uzbekistan, 1981. – P. 9.
2. Own MA, fund R-88, list 9, case 8258, sheet 37.
3. Pulatov I. The contribution of Uzbekistan to the Great Victory. – Tashkent: Uzbekistan, 1974. – P. 69.
4. History of Samarkand. Volume Two (Editor I.M. Muminov). – Tashkent: Fan, 1970. – P.205.
5. Own MA, fund R-88, list 9, case 8298, sheet 41.
6. Own MA, fund R-88, list 9, case 8298, sheet 103.
7. Madrakhimova R. Labor and military courage of Uzbek women during the Great Patriotic War. – Tashkent: Fan, 1981. – P. 18.
8. Soviet economy during the Great Patriotic War 1941-1945 . -Moscow: Nauka, 1970. -S. 120.
9. Sirojov O. Devotees of Bukhara. Bukhara, 1995. -B. 27-28.
10. Mirzakulov B. Bukhara region during the war years (1941-1945). –Tashkent, 2020. –P.60.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA AYOLLARNING SANOAT VA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI FIDOKORONA MEHNATI.

Qo'ziyeva Z.U
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola ikkinchi jahon urushi yillarida sanoatda va qishloq xo'jaligiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan O'zbekiston ayollarning faoliyati, front ortida ko'rsatgan jasoratlarini, hamda mehnat va mashaqqatlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: *"*Hamma ona Vatan himoyas*iga"* ,"Front ortida frontdagidek*!", "Ayollar ishlab chiqarishga!", "Ayollar traktor ruliga!", xotin-qizlar front ortida.*

Annotation. This article explores the activities of Uzbek women who made their significant contribution to industry and agriculture during the years of World War II, the courage shown behind the front, and the hard work and hard work.

Keywords: "All to the defense of the motherland","Behind the Front as on the front!" , "Women to production!" , "Women's tractor roller!", behind the women's front.

Аннотация. В этой статье исследуется деятельность женщин Узбекистана, внесших значительный вклад в развитие промышленности и сельского хозяйства в годы Второй мировой войны, мужество, проявленное за фронтом, а также труд и невзгоды.

Ключевые слова: "Все на защиту Родины", " За фронтом, как на фронте!", "Женщины на производство!", "Женщины за рулем трактора!", женщины за фронтом.

Ikkinchi jahon urush (1941-1945) insoniyat tarixidagi eng daxshatli urushlardan biri bo'lib, uning oqibatlari turli sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sovetlar Ittifoqi tarkibida bo'lgan O'zbekiston ham bu urushdan chetda qolmadi. Urush boshlanganidan so'ng, millionlab erkaklar frontga jo'natildi. Natijada ishlab chiqarish, ayniqsa qishloq xo'jaligida ishchi kuchi yetishmovchiligi yuzaga keldi. Shu davrda ayollar mehnat frontining old qatoriga chiqib, og'ir va mashaqqatli mehnatni zimmasiga oldilar.

Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillaridanoq O'zbekistonning butun moddiy va ma'naviy salohiyati bilan urushga safarbar etila boshladi. Respublika sanoati urush manfaatlariga moslashtirilgan holda rivojlantirildi hamda yangi sanoat tarmoqlari yaratildi.

1941-yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, ularning yarmini bolalar va keksalar tashkil etgan bo'lsa, yaroqli odamlarimizning 50-60 foizi, aniqrog'i 1433230 kishi urushga safarbar bo'lgan [1:B:80]. Urushning ayanchli yillarida o'zbek xalq o'z farzandlarini urushga jo'natarkan, mard va jasur bo'linglar, g'alaba bilan qaytinglar deb nasihat qilishgan. Ota-bobolarimiz, onaxonlarimiz, xotin-qizlar va hattoki bollar ham frontga ketgan otalari, o'g'illari va yorlariga front ortida bo'lsa ham yordam berish, Vatanimizni, xalqimizni fashizm degan balodan qutqarish uchun jon-u jahdlarimiz bilan harakat qilishga kirishib ketishgan.

*1941- yil 22 iyunda boshlangan fashistlar Germaniyasiga qarshi urush yillarida o'zbek xotin-qizlarining xalq xo'jaligidaga ishtiroki yuqori darajaga ko'tarildi. Ular xalq xo'jaligining barcha sohalarida faol tarzda qatnashib, frontga ketgan erkaklar o'rniga ham mehnat qildilar. Front ortida minglab xotin-qizlar "*Hamma narsa front uchun*!", "*Hamma ona Vatan himoyas*iga", "*Front ortida frontdagidek*!", "*Faqat olg'a va olg'a!", *"Topshiriqni bajarmay turib ishdan ketma!" shiorlarga javoban yuksak mehnat jasoratlari ko'rsatdilar.[2:B:356]*

Xususan, 1941-yilning oxirigacha 300 ga yaqin korxonalar harbiy sohaga moslashtirildi, o'q-dori, qurollar va harbiy texnikalar ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurildi. Bu koroxnalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini keksalar, xotin-qizlar va bolalar egalladilar. Ta'lim sohasi ham tubdabdan isloh qilinib, o'quv yurtlari ham urushga moslab kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'ydilar. Respublikamizning barcha viloyatlari, shahar va qishloqlari aholisi front va front orqasini uchun oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, sanoatni xomashyo bilan ta'minlash uchun oyoqqa turdi.

Urush yillarida xotin-qizlar sanoatning barcha sohalariga o'z faoliyatlarini olib borishdi xususan:

1. Ishchi kuchi yetishmovchiligini to'ldirish maqsadida minglab ayollar zavod-fabrikalarda, temiryo'll, tikuvchilva boshqa ishlab chiqarish sohalarida ish boshladilar.

2. Ayollar ko‘p hollarda harbiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishladilar, masalan o‘q-dori, qurol-yarog‘, harbiy kiyim-kechaklar, metallarni qayta ishlash zavodlarida, texnika vostilarini yig’ishda ishtirok etdilar.

3. Texnika va kasbiy malakalarini oshirish maqsadida ayollar qisqa muddatli kurslarda o’qitildi, stanokchi, chilangarlik, payvandchi kabi mutaxasisliklarni egallashdi.

4. Ayollar bajarayotgan mehnatlarining og’ir, uzoq soat bajarilishi va xavfli bo’lishga qaramasdan bor kuch va g’ayratlari bilan ishladilar.Vatanparvarliklarini, g’alabaga bo’lgan intilishlarini shu yo’l bilan ifoda etdilar. O’z ishining ustasi bo’lgan va vazifasini munosib bajargan ayollarimiz rahbarlik lavozimlariga tayinla boshlandi.

Urushdan oldingi yillarda rahbarlik lavozimida band xotin-qizlar salmog‘i respublika bo‘yicha atigi 280 nafar ayolni, ya'ni jami rahbar xodimlar tarkibining 1,2 %ini tashkil etgan bo‘lsa, 1944-1945 yillar davomida partiya va sovet tashkilotlarida 940 nafar xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida ishlagan. 1941 yilda viloyatda turli mutaxassisliklar bo‘yicha 2200 nafar xotin-qizlar rahbarlik lavozimlariga tayyorlangan. Andijon viloyatida 1942 yilda 2000 dan ortiq xotin-qizlar kolxoz raisi, brigadir etib saylangan. Birgina Jalolquduq tumanida 43 nafar kolxozchi ayollar kolxoz raisi, rais o‘rinbosari vazifasiga ko‘tarilgan. Qashqadaryo viloyatida esa, 1400 kolxozchi xotin-qizlar paxtachilik, g‘allachilik bo‘yicha zveno boshlikdari lavozimlariga tayinlangan. Chiroqchi tumanida 45 nafar ayol kolxoz raisi o‘rinbosari va 72 nafar xotin-qizlar hosilot kengashini raisi etib saylandi. Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumanida 52 nafar ayol rais o‘rinbosari, 150 ayol brigadir va 400 ayol zveno boshlikdari bo‘lishgan. Umuman respublika bo‘yicha 1943 yilda 15 ming ayol kolxoz raisi, rais o‘rinbosari va brigadir, 48772 nafar qishloq ayollari zveno boshlikdari bo‘lib ishlagan [3:B:147].

Sanoatchilarimizning fidokorona mehnati tufayli O’zbekiston Sovet Armiyasining qurol-aslahaxonasiga aylandi. O’zbekiston frontga 2090 samolyot, 17342 aviamotor, 2314 ming aviabomba, 1,7 mingdan ortiq minomyot, 22 mln mina, 560 ming parashyut, harbiy ehtiyojlar uchun 100 ming km dan ortiq maxsus sim, 125 ming km telefon kabellari va boshqa mahsulotlar yetkazib berdi. Bu o’zbekistonliklarning fashist bosqinchilarini tor-mor etishga qo’shgan ulkan hissasi sifatida jahon tarixidan munosin o’rin oldi [4:B:296].

Urush yillarida qishloq xo’jaligi Sovet iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo’lib qoldi. Aholini oziq-ovqat bilan ta’minlash va frontga mahsulot yetkazib berish muhim vazifaga aylandi. Erkaklar frontda bo’lgan paytda, ayollar paxta dalalarida bugdoy maydonlari, sabzavot va mava bog’larida tinimsiz mehnat qilishdi. O’zbekistonda paxta asosiy strategik xomashyo sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Ayollar paxta yetishtirish, teris, qurutish va tashishda faol qatnashdilar.

Chorvachilik sohasida ham ayollar katta rol o‘ynaydilar. Ular qoramollarni parvarish qildilar, sut sog‘ish, go‘sht yetkazib berish kabi og‘ir mehnatni bajardilar. Ko‘pincha ayollar bollari bilan birga ishlashga majbur bo’ldilar. Ularning mehnati nafaqat oilalarini, balki butun frontni oziq-ovqat bilan ta’minlashga xizmat qildi.

Urushning dastlabki oylarida harbiy xizmatga kolxozchilarning, birinchi navbatda mexanizatorlarning 20 %i chaqirildi. «Ayollar, traktor ruliga!», «Ayollar, ishlab chiqarishga!» da'vatiga minglab ayollar javob berdilar. 1941-1945 yillarda 25 ming nafardan ziyod traktorchi ayollar tayyorlandi. Xotin-qizlarni traktor bilan ishlashga majbur qilinishi «qishloq xo‘jaligi mehnatini yengillashtirish, dehqonning madaniy darajasini, ularning tashabbus va qobiliyatlarini o‘stirish uchun imkoniyat yaratish» deb niqoblanib, «xotin-qizlar kolxozda hal qiluvchi, yetakchi kuch» degan shior ilgari surildi. [3:B:153]

1941-yil kuzida viloyat bo‘yicha 2116 nafar xotin-qiz traktorchilar kursini bitirgan bo‘lsa, 1942-yilga kelib, 3 mingdan ortiq xotin-qiz traktorchilar safidan o‘rin oldi. Ularning aksariyati frontga ketgan jangchilarning rafiqasi edi. Jumladan, 50 yoshli Yangarova o‘g‘lining traktoriga o‘tirib, kunlik normani 1,5 baravar ortig‘i bilan bajargan. Xuddi shunday kurslarni Farg‘ona viloyati Bag‘dod MTSida 111 nafar, Qashqadaryo viloyati I-Koson MTSida 110 nafar kolxozchi xotin-qizlar tugatib, traktor rulini boshqara boshlashdi. 1942-yilda bahorgi hosil davrida 3800 nafar xotin-qizlar traktor rullarini boshqargani holda, o‘nlab traktorchi, mexanizator xotin-qizlar brigadalarini tashkil etib, paxta dalalarida mehnat qilishdi. Xorazm viloyati Urganch tumani 2-sonli MTS traktorchilari A.Qo‘chqorova, A.Yakubova o‘zaro musobaqalashib, 427 gektar yerni shudgor

qilishda faollik ko‘rsatishdi. 1942-yil noyabr oyiga kelib, har kuni ikki ish normasi bajarayotgan kolxozchilar soni 35260, uch norma bajarayotganlar 25970, uch normadan ortiq bajarayotganlar soni esa 12443 kishiga etdi [3:154:B].

Ayni vaqtda ayollar vatanparvarlik ruhida mehnat qilib har bir terilgan paxta chanog’ini, o’rib olingan g’alla boshog’ini g’alabaga qo’shilgan hissa deb bilishardi.Ularning mehnatlari hukumat tomonidan e’tirof etilib, ko’plab ayollar orden va medallar bilan taqdirlandilar.

Respublikamiz qishloq xo’jaligi xodimlari urush yillarida davlatga 4 mln 806 ming tonna paxta xomashyosi, 1282 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna jun yetkazib berdilar. [4:B:298]

Bundan tashqari, mudofaa jamgarmasiga Respublika dehqon ayollari tomonidan 18724 ming so‘mlik qishloq xo‘jalik mahsulotlari topshirildi. Xususan, Koson tumani Oxunboboev nomli kolxozning dehqon xotin-qizlari mudofaa jamgarmasiga 100 sentner bug‘doy, 100 kg yong‘oq, 100 kg o‘rik, 400 bosh qo‘y, 300 kg go‘sht topshirishdi. Fargona viloyati kolxozlarining mehnatkashlari qisqa vaqt ichida mamlakat mudofaa fondiga 15 tonna sabzavot mahsulotlari, salkam 18 tonna qupuq meva, 2 tonnadan ziyod go‘sht va jun topshirishdi. Surxondaryolik qishloq aholisi, jumladan ayollar front uchun 6 ming bosh chorva mollari, 500 tonna galla, 20 tonna moy, 30 ming litr vino va boshqa ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlari topshirishdi [3:B:156].

Urush yillarida ayollarning qishloq xo’jaligi va saonatdagi fidokorona mehnati ulakan tarixiy ahamiyatga ega. Ularning og’ir mehnat, ochlik va yo’qchilik sharoitida ham Vatanga xizmat qilishdi, jasorat va sabr-toqat namunasi bo’lishdi. Bu tarixiy voqealar bugungi yosh avloq uchun ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. I.A.Karimov.Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asrlar to’plami. 3-jild.-T.:“O‘zbekiston”.
2. Shamsutdinov R. Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. T.: «Sharq». 2010
3. Jo’rayeva Nilufar “O’zbekiston xotin-qizlariga munosabat (XX asrning 20-80 yillari misolida)” O’z.MU Toshkent -2013.
4. Q.Usmonov O’zbekiston tarixi. ” Istisodiyor-Moliya” Toshkent. 2016.

5-SHO‘BA

MUSTAQIL O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOHATLAR, TURIZM MASALALARI VA XALQARO ALOQALAR.

КИТОБ ҚАЛБЛАРНИ ЁРИТУВЧИ ЧИРОҚ.

Буриев О.
ҚарДУ Жахон тарихи кафедраси профессори
Эгамова Ю
ҚарДУ Жахон тарихи кафедраси магистранти

Аннотация: Мазкур мақолада китоб ва унинг шахс камолотидаги ўрни ва роли ёритилган. Китоб тафаккур, сабр, шукр, маънавият, илм ва тарбиянинг асосий манбаи сифатида талқин этилади. Тарихий шахслар, жумладан Амир Темур, Маргарет Тетчер ва бугунги кун сиймолари фикрлари орқали китобхонликнинг долзарблиги очиб берилган. Мақола ёшларни китобхонликка даъват этиш ва аҳоли орасида китобхонликни тарғиб қилишга қаратилган.

Калит сўзлар: Китоб,китобхонлик,кутубхона, маънавият, тарбия, тафаккур, илм, мутолаа, китоб маданияти, ёшлар тарбияси.

Китоб ўқиш инсон тафаккурини бойитади, уни сабрга, шукурга ўргатади. Шукурда эса хосият жуда кўп. Сўзлаш ва ёзиш инсониятга Аллох томонидан берилган бебаҳо неъматдир. Ушбу неъмат оркали қадимдан китоб колган. Китоб-билим манбаи, сарчашмаси, яхши дўст, дардкаш, маслакдош, қалбдаги қуёшли сирдош. Китоб шундай қудратли кучга эга-ки, ундан олган маънавий озукани хеч қаердан, ҳеч кимдан асло ололмаймиз.Китоб бизни ана ўша улкан орзу ва мақсадларимиз етакловчи буюк манба, айтиш жоиз бўлса, бебахо неъмат ва илм мактаби хисобланади. Президент Шавкат Мирзиёев Анқарада Туркия Республикаси Президенти ҳузуридаги Халқ кутубхонасининг очилиш маросимида шундай таъкидлади: “Дунёдаги ҳар қайси давлат, ҳар қайси халқ биринчи навбатда ўзининг интеллектуал салоҳияти, юксак маънавияти билан қудратлидир. Бундай енгилмас куч манбаи эса аввало инсоният тафаккурининг буюк кашфиёти – китоб ва кутубхоналарда.”

Китоблар-мозий даракчиси, бугуннинг тарбиячиси,муалими. Китоб шуниси билан сирлики, қулоғи сўзлайди, юраги йўқ, лекин тирик, ўлмайди. Китоб маънавий хазина, ҳақиқий бойликдир.Китобни қуёшга қиёслаш мумкин, қуёш инсоннинг қисман улғайиши учун канчалик муҳим ўрин тутса, китоб маънан баркамоллик учун ҳам шундай аҳамиятга зга. Буюк Сохибкирон Амир Темур ҳазратлари ўз "ўгитлари"да "Китоб (битик) билим барча бунёдкорлик, яратувчанлик ва ақл идрокнинг, илму донишнинг асосидир, ҳаётни ўргатувчи мураббийдир" деб баҳо берган бўлса, бугунга келиб, Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев "Яхши яшайман деган одам, ҳар куни китоб ўқийди" деган даъвати билан юртдошларимизга китоб ҳаёт мазмунини кўрсатувчи маёк эканлигини уқтирдилар.

"XX асрнинг 60-йилларида телевидения хали унча оммалашмаган, радио ҳам санокли оилаларда бўлганда ва узун кечалари қишлоқнинг, маҳалланинг кайвони кишилари, зиёлилари ташкари ҳовлисидаги мехмонхонада жам бўлишиб, достон ва қиссаларни ўқиб беришган. Қиссахонликлар узок кечалари тонг отгунча давом этарди". Мутолаа инсонларнинг ҳаётий фаоллигини жамият аъзоларининг маънавиятини юксалтиришга, давлат ва халқ манфаатига хизмат килишга, озод ва обод Ватанни бунёд этишга, одамларнинг дунёқараши, тафаккури, руҳияти, ишонч ва эътиқодини ривожлантиришга хизмат қилади. Шундай экан инсон мутолаага доимо эҳтиёж сезади.

Англия давлатининг таниқли сиёсатчиси Маргарет Тетчернинг ҳам болалик чоғларида ўйинқароқ бўлганини, тенгқурлари билан турли хил кўнгилочар тадбирларга боришни истаганини, аммо қатиққўл отаси бунга сира рухсат бермаган экан. Падари бузруквори уни бўш қолди дегунча китоб ўкишга ундар, қатъий равишда нимани ўзлаштираётганини ва нимани ўрганганини мунтазам назорат қилиб борар, уйда отаси бўлмаган вақтлари бу юмушни онаси бажарган. Ўтган XX аср 80- йиллари ҳукумат рахбари бўлган Маргарет Тетчернинг оқилона сиёсати туфайлигина иқтисодий жиҳатдан жар ёқасига келиб қолган Англия ривожланишнинг янги босқичига чиққан эди.

Ҳозирги ахборот асри замонамизда глобал муаммоларга ечим топиш учун ҳам китобнинг ўрни ниҳоятда муҳим. Ва ҳозирда олиб борилаётган маънавий-маърифий ишлар ҳам айнан аҳолининг орасида китобни тарғиб қилишга қаратилган.Президентимиз Шавкат Мирзиёев вилоятимизга ташрифидаги бир учрашувда Касби тумани Катагон қишлоғилик китобсевар мархум Холбой ота Хонкуловнинг (жойлари жаннатда булсин) ёшлар маънавиятини юксалтириш, китоб мутолаасига меҳр уйғотиш борасидаги эзгу ишларини алоҳида эътироф этиб ўтган эди. Холбой Хонқулов (1934-2015 й.й) кўплаб фан доктори, профессор, фан номзодлари, доцентлар, соҳаларнинг етук мутахассисларига устоз эди. У оддий ўкитувчи, мактаб раҳбари бўлиб, китобга жуда меҳр қўйган, имконияти бўлди дегунча китоб сотиб олар эди. Китобларини асраб авайлаб, жавонида сақлаган йиллар ўтиши билан унинг йиққан китоблари тўпланиб катта кутубхонага жо бўладиган хазинага айланди. Холбой ота қишлоқда мўъжазгина кутубхона куриб, уйидаги китобларни тартиб билан жойлаштириб, қишлоқ аҳлини, айниқса ёшларни китоб мутолаасига қизиқишларини ошириб борди. Китобхонлар китобларини ўз кишлокдошларига хазина сифатида қолдирган Холбой отанинг покларига дуо килади.

Президентимизнинг ёшларимизнинг китобхонликка эътиборини жалб қилишда, уларнинг мутолаа маданиятини ўстиришга жиддий эътибор бераётганлиги бежиз эмас. Давлатимиз раҳбари эълон қилган беш муҳим ташаббуслардан тўртинчиси ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар орасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил қилишга йўналтирилган. Зеро, маънавият ва китоб қалбларни ёритувчи чироқдир.

Давлатимиз раҳбарининг 2017 йил 12 январдаги "Китоб маҳсулотларини чоп тизимини этиш ва тарқатиш ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги ПФ-4789-сонли Фармойиши, 2017 йил 13 сентябрда қабул қилинган “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги Қарори халқимизнинг китоб мутолаасига бўлган эътиборини тубдан ўзгартиришга, китобнинг ўрни ва аҳамиятини янада кўтариш бўйича муҳим қадам булди.

Мамлакатимизда ёш авлоднинг интеллектуал эхтиёжини кондириш, мозий қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялашда кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Бу борада аньанавий тарзда ўтказиб келинаётган “Китобхонлар байрами" муҳим аҳамият касб этмоқда. "Мен, отам- онам, бобом ва бувим - китобхон оила", "Энг яхши китобхон оила", "Маҳалламизнинг китобсевар оиласи", "Бир фарзандга уч китоб акцияси", "Китобхон мактаб" каби маърифий тадбирлар самарали натижалар бермоқда. Китобхонликни кенг тарғиб қилиш максадида "Китобхон ёшлар", "Энг фаол китобхон", "Китоб менинг дўстим", "Ёш ижодкорлар", "Китобхон оила", "Еш билимдонлар" каби лойиха ва танловлар ўтказилмоқда. Демакки, инсонлар факат билим олиш учун эмас, маънавий бойлик орттириш учун ҳам ўқийдилар. Маънавий бойлик эса сувда чўкмас, ўтда ёнмас ва биров тортиб олиб қўлолмайдиган бебаҳо хазина ҳисобланади.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек: "Хозирги пайтда ҳаммамизнинг олдимизда жуда мухим ахамиятга эга бўлган масала, яьни китобхонликни кенг ёйиш ва ёшларимизнинг китобга бўлган муҳаббатини, иммунитетини янада ошириш ишларини янги боскичга олиб чиқиш вазифаси турибди". Китоб ўқиш илм олишнинг энг афзал ва қулай воситасидир. Шунинг учун ҳам Аллоҳ таоллоҳнинг китоблари илк нозил бўлган "Уқи!" деган хитоб билан бошлаган: “Яратган Роббинг номи билан ўки".

Китоб билан боғлиқ одоблар қуйидагилардан иборат:

Биринчи одоб-эзгу ният қилиш;

Иккинчи одоб-хўжакўрсинга ва мақтаниш учун китоб битмаслик;

Учинчи одоб-муҳим китобларни сотиб олишдан бошлаш;

Тўртинчи одоб-мазмунсиз китобларни сотиб олмаслик;

Бешинчи одоб-китобларга эътиборли бўлиш ва уларни асраб-авайлаш, китобларни паст жойларга ташламаслик китобларга зарар етказадиган нарсаларга карши ҳимоялаш;

Олтинчи одоб-китобларни тартиблаб қўйиш;

Еттинчи одоб-китобга эҳтиёжи бор кишига уни бериб туриш;

Саккизинчи одоб- ўқиб туруши учун олинган китобни эҳтиёт қилиш;

Тўккизинчи одоб-вараклар остига китобларнинг мутолаа қилинишини васият килиш.

Китоб одоб-ахлокнинг кони, билимнинг эса булоғидир. Кимки китобга кўп боқса, китоб унинг зеҳнли килади, завқини оширади, сўзга чечан қилади.Китоб энг қоронғи ва зимистон умр йўлларида инсонга нур бағишлаб турувчи сехрли чироқдир. Китоблар замон тўлқинларида сузувчи ва ўзининг кимматбаҳо юкини аждодлардан-авлодларга авайлаб элтувчи тафаккур кемаларидир. Китоб ёлғизликдаги энг мунис ҳамдамдир. Китоб ўтмишдан ҳам, келажакдан ҳам хабар берувчидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. "Темур ўгитлари" Т,1992
2. Бўриев О, Очилова Х "Илм-фан махзани".Т,2022 75-76-78-81-бетлар.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармйиши ПФ–4789 "Китоб маҳсулотларини чоп тизимини этиш ва тарқатиш ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори 2017 йил 13 сентябр “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”
5. "Одоб-ахлоқ ва ҳадислар". Т,1990
6. "Инсон одоби энциклопедияси" Т., 2014

XIX АСРНИНГ ОХИРИ -XX АСР БОШЛАРИДА САМАРҚАНД БОЗОРЛАРИ ФАОЛИЯТИ

Ирискулов О.Ж.
СамДУ доценти

Аннотация: Ушбу мақолада XIX аср охири XX аср бошларида Самарқанд бозорларининг сони, у ердаги савдо-сотиқ жараёнларининг умумий тавсифи берилган. Шунингдек, бозорлардаги кўп миқдорли савдогарларнинг қатламлари талқин қилинган бўлиб, уларнинг ўзига хос бўлган жиҳатлари йиллик даромадлари ҳамда савдо айланмаси тарихийлик жиҳатдан ёритилган.

Калит сўзлар: Самарқанд, бозорлар, Даҳбед, Лойиш, атторлар, рубл, савдогар.

Аннотация: В данной статье дается общая количества, характеристика торговых процессов самаркандских базаров в конце XIX – начале XX века. Также интерпретируются слои крупных торговцев на рынках, исторически выделяются их уникальные аспекты, годовые доходы и торговый оборот.

Ключевые слова: Самарканд, рынки, Дагбит, Лойиш, поверенные, рубль, купец.

Abstract: This article gives the total quantity and characteristics of trade processes in Samarkand bazaars at the end of the 19th – beginning of the 20th century. The layers of large traders in the markets are also interpreted, their unique aspects, annual incomes and trade turnover are historically highlighted.

Key words: Samarkand, markets, Dagbit, Loyish, attorneys, ruble, merchant.

Россия империяси босқинидан кейин минтақада нафақат сиёсий, ижтимоий, маданий-маърифий соҳалардан ташқари иқтисодий соҳаларда ҳам ўзгаришлар содир бўлган. Иқтисодий ҳаётнинг ажралмас қисми бозорлар ҳисобланади. Бозорларни тарихий ва архив манбалари асосида тадқиқ қилиш орқали ўша давр аҳолисининг ижтимоий ҳаёти ҳамда империя ҳукуматининг олиб борган сиёсати очиб беришда алоҳида аҳамият касб этади. Шу боисдан, ушбу мақолада Самарқанд бозорларининг умумий тавсифи ва савдогарларниг фаолияти ўрганиш иқтисодий жараёнлар тўғрисидаги умумий ҳолатни гавдалантиришда долзарб жиҳатдир.

Манбаларда кўрсатилишича бозорлар шаҳарнинг 1/3 қисм майдонини эгаллаган. У бир томондан шаҳар ҳарбий қўрғонидан то Шоҳи-Зиндагача, яъни Тошкент дарвозасигача, иккинчи томондан шаҳар ўртасидан Қаландархона ва Сўзангарон дарвозаларигача чўзилган. Бозорлар савдо фаолиятига қараб иккига: кундалик ва катта бозорларга бўлинган.

Катта бозорда савдо фақат чоршанба ва якшанба кунлари бўлган. Кундалик бозорда, асосан, бир қисм шаҳарнинг ўзида яшайдиган савдогарлар савдо қилганлар. Чоршанба ва якшанба кунлари бозор қайнаган. Бу кунлари шаҳар дўконларида доимий савдо қиладиган савдогарлардан ташқари, бозорга атрофдаги қишлоқлар, туманлар ва узоқ юртлардан олувчилар ва сотувчилар келганлар. Шу кунлари бозорнинг оддий кунларда ишламаган янги бўлимлари ташкил бўлган: масалан, мол бозори. Мол бозори шаҳарнинг ҳарбий қўрғон дарвозаси қаршисида ташкил қилинган. Бу ерда йилқилар, қорамоллар ва қўй-эчкилар алоҳида-алоҳида сотилган. Уларнинг ёнгинасида эса ем-хашак бозори бўлган [18.64].

Бозорларда энг аввало маҳаллий аҳоли томонидан тайёрланган сифатли товарлардан: ошланган терилар, пичоқлар, машҳур қоракўл терилар, чиройли гул безаги берилиб, ипак иплар билан тикилган халатлар, беқасам чопонлар, газламалар, бешиклар ва от эгарлари ҳамда бошқа кўплаб буюмлар сотилган. Самарқанд, Ургут, Челак, Пайшанба, Даҳбед ва Катта-қўрғон бозорларида жун ва пахтали иплардан тўқилган, уйга тўшаладиган, олачалар ва қаламалар жуда харидоргир бўлган. Биринчи навбатда улар ўзининг сифатининг юқорилиги ва ташқи кўринишининг бежиримлилиги билан ажралиб турган [15.511-514]. Бундан ташқари, Жиззах, Тошкент, Хўжанд, Қарши ва Бухородан келтирилган турли рангдаги қимматбаҳо гилам ва кигизлар, яна Бухородан келтирилган нафис ипак иплар, Ўратепадан келтирилган қишлик мовут чекмонлар сотилган[14.147].

Пилла савдоси айниқса, Самарқанднинг якшанба ва чоршанба кунлари ишлайдиган пилла бозори жуда машҳур бўлган. Пилла кўпроқ, Муҳаммад Карим деган киши саройида сотилган. Ҳар бир бозор куни фақат Самарқанд шаҳрининг ўзида 700 тиллога, бир ойда эса 5000 тиллога пилла сотилган. Самарқанд бозорларидаги сотилган пилланинг миқдори бир йилда 6 минг пудни ташкил этган [15.515-525].

Ички савдо соҳасидаги ҳал қилувчи ўрин бозор савдосига тегишли эди. 1872 йилга келиб Зарафшон округида 33 та бозор мавжуд бўлган ва бу бозорларда 3166 киши доимий равишда савдо билан шуғулланиб турганлар. 1898 йилга келганда эса, фақат Самарқанд уездининг ўзидаги мавжуд 26 та бозорларда 6500 дан кўпроқ кишилар доимий савдо билан шуғулланганлар. Олди сотди ишларининг барчаси савдогарлар томонидан Самарқанд шаҳридаги карвонсаройларда амалга оширилган. Самарқанд шаҳри марказий бозоридаги нархлар бутун Зарафшон округи бозорлари учун амал қилинадиган баҳо бўлиб хизмат қилган [11.28-30].

Бозордаги нарх масаласига келсак, уларнинг турли жойларда ўша жойлардаги ғаллачилик ривожланиши ва ҳосилдорлик ҳажмига қараб турлича белгиланганлигини кўрамиз. Масалан 1900 йилда Каспий орти вилоятида бир пуд буғдой 80 тийин (копеек) бўлган ҳолда, Самарқандда унинг нархи 1 сўмдан 1 сўм 20 тийингача, арпа эса 50 тийиндан то 70 тийингача сотилганлигини кўриш мумкин [10.124].

Самарқанд уездида бир пайтда бир хил ўлчамдаги ва ҳар хил аҳамиятга эга бўлган 26 та бозорлар мавжуд бўлган. Бозорлар асосан ҳудудларнинг аҳоли зич жойлашган қисмида жойлашган. Даҳбед, Лойиш, Қарқарали, Янгиқўрғон, Челек, Яканшайх, Чукур, Жомбой ва Бойғатепа, Жумабозар, Ёртепа, Давул ва Жума каби бозорлар шулар жумласидан [8.27].

Келтириб ўтилган бозорларда кўпинча тарозининг оғирлик тошлари йўқлиги сабабли, уларнинг ўрнига мос ўлчамдаги ва оғирликдаги тош қўйилган. Бозордаги ўлчов билан боғлиқ маълумотлардан бири, тарозичилар деярли ҳар доим, кам миқдорда харид қиладиган харидорлар ва деҳқонлардан тўловни пул билан эмас, балки натура шаклида амалга оширишни талаб қилишган. Бунинг натижасида маҳсулотнинг тўлов ўрнини босадиган қисми бутунлай ўзбошимчалик билан сотувчининг истагига қараб қатий белгилаб қўйилмаган миқдорда тортиб олинган.

Тарозилардан фойдаланганлик ва ижаралардан олинган солиқлар асосан бозорларни ободонлаштиришга йўналтирилган. Масалан, Самарқанд уездидаги йирик бозорлардан ўртача учун 20514 рубл (1897 йил), 23058 рубл (1898 йил) миқдордаги маблағ йиғиб олинган. Масалан, Байғатепа ва Яканшайхдаги бозорлар 30 ва 36 рубл (1897 йил), 33 ва 25 рубл (1898 йил) миқдордаги маблағ йиғилган. Шунингдек, бозорни ободонлаштириш, яъни янги дренажларни қазиш, ғалла бозори учун 2 ёки 3 та ғиштдан ясалган шийпон қуриш ва

савдогарлар учун тахта қаторларини қуриш ҳар қандай ҳолатда ҳам 3000-4000 рублдан ошмаганлигини инобатга олсак, юқорида келтирилган маблағларнинг аначагина катта миқдор эканлигини кўрамиз. Юқоридаги маълумотларга қарамасдан кўп ҳолларда солиқчилар йиққан солиқларининг аниқ рақамини ошкора этмаган.

Нисбатан тўлиқ сақланиб қолган маълумотда 1869 йил январь – ноябрь ойларига доир бозор тушими йиғувчилари кўрсатмалари асосида тўпланган, 92 бозор кунларида Самарқанд шаҳри бозорларида 1838 қорамол, 17720 қўй ва эчки, 3380 эшак сотилгани кўрсатилади[18.65].

Бозорлардаги умумий ҳолатни янада аниқроқ билиш учун, савдогарларнинг фаолиятини ўрганиш муҳим ҳисобланади. Хусусан, савдогарлар орасида қассоблар муҳим ўрин эгаллаган. Савдонинг бу тармоғи бутунлай маҳаллий аҳоли (тожиклар ва ўзбеклар) назоратида бўлган. Улар асосан уезднинг жанубий қисмидаги бозорларда устунлик қилган ва шимолий бозорларда ҳам вақти-вақти билан савдо қилишган. Ёки, бўлмаса Самарқандда дўконлари бўлган самарқандликлар ва бозор кунлари шаҳарга энг яқин бўлган йирик уезд бозорлари бўйлаб саёҳат қилишган. Қассобларни сониига асосан солиқлар таъсир кўрсатган. Натижада, солиқнинг баландлигига қараб, қассоблар сони ҳар йили жуда ўзгариб тураган. Масалан, қассоб сифатида 1897 йилда жами 434 киши рўйхатга олинган бўлса, 1898 йилда бу рақам 381 тага камайган. Фикримизча, солиқларнинг миқдори 12 рублга етганлиги 53 нафар қассобни касодга учрашига сабаб бўлган ва улар фаолиятини тўхтатишган[9.74].

Самарқанд уездидаги барча бозорларни гўшт савдоси хусусиятига кўра икки гуруҳга бўлиш мумкин: жануби-ғарбий ва шимоли-шарқий [3.201].

Биринчиси, Каттақўрғон уездига туташган ва жанубда тоғлар билан чегараланган бўлиб, аҳоли жуда зич яшайдиган туманнинг пасттекислик қисмига хизмат қилган. бу қисмда бир-биридан нисбатан яқин масофада жойлашган 17 та бозор мавжуд. Бозорлар орасидаги масофанинг яқинлиги, қассобларга ҳафтасига ўртача 5 та бозорга бориб савдо қилиш имконини беради. Қўчқорларни харид қилиш асосан шимолий тоғли ва жанубий дашт, Каттақўрғон уезидаги чорвачилик ҳудудларида амалга оширилган. Ушбу минтақанинг асосий бозорларидан 40-50 верст узоқликда жойлашган. Масофанинг узоқлиги сабабли бозорлардаги қўчқорларнинг нархи масофа узоылашган сари бошқаларга қараганда ҳар доим қимматлашиб борган. Нархларга об-ҳавонининг таъсири юқори бўлган. Масалан, 1897 йилда қорнинг кеч эриши ва озиқ-овқат этишмаслиги туфайли юқори бўлган. Баҳорда қўчқорнинг нархи 15-10 рублдан пастга тушмаган бўлса, кузда нархлар 7-8 рублгача тушган. Қиёслаш учун 1898 йилда ўртача нарх 11 рублни ташкил этдган бўлса, баҳорда ва 7-6 рублни ташкил этган.

Ихтиёримиздаги манбалар бозорларда сотилган товарларнинг ва тушган даромадларнинг ҳажми тўғрисида аниқ маълумот бермайди. Сабаби товарни сотганлар ўз даромадларининг ҳаммасини очиқ айтмаганлар. Шундай бўлсада, эхтимолий сўйилган қўчқорни сотиш қуйидагича бўлган: 1) тери ва ичаклар, харидорларга 68 тийин; 2) думба ёғи – (вазни 2 килограммгача), 2 рубл 72 тийин; 3), гўшт, баҳорда нархларида 7 рубл 50 тийн., кузда эса - 4 рубл 50 тийн.; 4), бош ва оёқлар – 1 рубл 17 тийн. Жами гўшт ва думба ёғининг 12 ҳафталик баҳорги нархини, қолган 40 ҳафтадаги кузги нархини ҳисобга олсак, ҳафтасига 5 та қўчқор сотувчи ва сотиб оладиган қассобнинг айланмаси 2200 рублни ташкил қилиб, йилилк фойда 200 рублгача ташкил қилган [6.25].

Иккинчи гуруҳ бозорлар Жиззах уездига туташ маданий, чўл ва тоғли ҳудудларда жойлашган; бу ердаги аҳоли анча сийракроқ ва қашшоқроқ, бозорлар орасидаги масофалар ҳам узоқ. Натижада қассоблар ҳафтасига ўртача атиги 4 та бозорга ташриф буюришади, шунинг учун уларнинг айланмаси биринчи гуруҳдагига нитсабатна кам. Жумладан, ўртача айланма 1700 рубл, фойда эса 190 рублни ташкил қилади [10.126].

Бозордаги муҳим тармоқлардан бири атторлар ҳисобланади. Атторлар - жуда ўзига хос маҳаллий характерга эга савдогарлар. Бу ном кичик безак ва тўқимачилик буюмларини сотувчиларга берилган. “Аттор” сўзи арабча бўлиб, аслида зираворлар сотувчиси деган маънони англатади; Тарихий манбаларда қайд этилишича, араблар ҳукмронлиги даврида ҳам минтақанинг йирик шаҳарларида уларнинг махсус бозорлари бўлган[4.38]. Тадқиқ қили-

наётган даврда уларнинг асосий маҳсулоти мунчоқлар, иплар, тўрлар, металлдан ясалган безаклар, кичик ойналар, баъзан бош суяги қалпоқлари; қишлоқ аҳолиси орасида жуда кенг тарқалган швед гугуртлари, қалампир, хушбўй ўтлар, бўёқлар ва бошқалар. ниҳоят, маҳаллий дори-дармонлар, уларнинг таркиби сири ҳозиргача жуда кам ўрганилган; ушбу дориларни тайёрлаш ва улардан фойдаланиш усулларидан иборат. Ушбу касб отадан ўғилга ўтади ва одатда бегоналардан сир сақланади [2.86]. Охирги ҳолат туфайли, атторлик касби энг барқарор ҳисобланади, кўпинча умр бўйи давом этади ва бундай савдонинг унчалик катта бўлмаган рентабеллигига қарамай, кетма-кет ўтади; Бунга асосан маҳаллий аҳоли орасида атторлар нисбатан юқори даражадаги билимга эга деб ҳисобланиши ва натижада базолар билан биргаликда бозор аристократиясини ташкил этувчи ҳурматга сазовор бўлганлиги ёрдам беради. Таърифланган турдаги савдо бутунлай маҳаллий тожиклар, асосан самарқандликлар қўлида; Ўзбеклар кам, ҳаттоки иккита йирик савдо нуқталарида - Янгиқўрғон ва Даҳбедда. Туманда 1897-йилда 193, 1898-йилда эса 205 нафар аттор рўйхатга олинган [21]. Ҳар бир атторнинг ўртача айланмаси 800-900 рублдан ошмайди, рентабеллик ҳар йили 20-25% гача.

Туз савдосининг икки тури ёки тоғларда ушбу маҳсулотни тўғридан-тўғри қазиб олиш натижасида олинган бўлаклар мавжуд - Бухоро хонлиги (пушти туз, марганец билан бўялган), шунингдек, Жиззах туманидаги Тузкапа шўр кўлидан кўл тузи келтирилган. Уларнинг йиллик айланмаси 300-400 рублгача. Йилига ва 25% гача фойда беради. 1897 йилда 53 та савдогар, 1898 йилда 52 та; Савдогарлар орасида қирғиз миллатига мансублар ҳам борлигини кўришимиз мумкин.

Ўрта Осиё ҳудудида, чой савдоси азалдан алоҳида аҳамиятга эга бўлган. Энг аввало бу маҳаллий халқнинг чойга бўлган талабининг юқори эканлиги билан боғлиқдир. Шу сабабли ҳам рус ҳукумати рус корчалонларининг манфаатини ҳимоя қилиб дастлабки вақтларданоқ чой билан савдо қилишни ўз қўлларига олдилар.

1868 йилда фон Кауфман буйруғи билан рус савдогарларининг хориждан олиб келадиган чойларига божхона солиғи бекор қилинди ва айни вақтда маҳаллий ва хориж савдогарларининг бошқа мамлакатлардан олиб келадиган чойларига жуда юқори божхона солиғи жорий этди. Шу вақтда бошлаб чой Самарқандга асосан Батуми ва Новосибирск шаҳарлари орқали келадиган бўлди. XIX аср охирига келиб Самарқанд шаҳри Туркистон ўлкасида чой қадоклаб сотиш марказига айланди. 1869 йилда Самарқанд шаҳрида асосан Россия орқали келтирилган чой билан савдо қиладиган дўконлар сони 50 дан ортиқ эди [12.153].

Чойлар асосан Самарқандда йирик чой фирмалари - Вогау, Попов, Бауэр, Кузнецов, томонидан келтирилган. Бу савдо тармоғининг деярли ярми Самарқанд, Пенжекент ва Ургутда яшовчи афғонлар қўлида тўпланган. Бозор савдогарларининг қолган ярми шаҳарлик аҳоли қўлида. 1897 да туманда 84 та чой савдогарлари рўйхатга олинган бўлса, 1898 йилда бу рақам 124 тага етди. Чой савдогарларининг айланмаси 1800-2000 рублдан 500-600 рублгача Ўртача ҳажмни 1200-1300 рубл деб ҳисобласак уларнинг даромади 18-20%ни ташкил қилган.

1906 йилга келганда Самарқандда чой билан кўтара савдо қиладиган 13 та фирма Отто Вогау, ака-ука К ва С.Поповлар, Бауэр, Ганшин, Прохоров, Гусев, Данилов, Шаровский, “Циндель и К”, “А. Кузнецов и К” фирмалари, Филатов ва ака-ука Каменскийлар каби рус ва Пинхасев, Муллакандов, Қалантаров каби маҳаллий яҳудий ва Ризаев каби эрони савдогарлар қўлида эди. Самарқандда чой савдоси билан икки пешаворлик (Ҳиндистон) савдо фирмаси шуғулланганлиги ҳақида ҳам маълумотлар бор[1.44].

Келтирилган чойлар Самарқанд шаҳрида қадоқланиб, сўнгра 3/2 қисми Фарғона вилоятига ва 1/3 қисми Самарқанд ва Сирдарё вилоятларига тақсимланган. 1897 йилга келиб Самарқанд шаҳридан ташқарига 1751 684 пуд қора ва кўк чой савдо учун чиқарилган. Чой қадоқлаш ишларининг барчасини маҳаллий аҳолига мансуб (уларнинг кўпчилиги эронийлар эди) 731 та ишчилар бажаришган. Уларга ойига 1 сўмдан (болаларга) 30 сўмгача (катталарга) маош берилган [5.27].

Қишлоқ бозорларида чой савдоси анча ривожланган, бу маҳсулот аҳолиси учун асосий эҳтиёж бўлиб, камбағал ва ўртаҳол оилалар чойнинг қуйи навлари истеъмол қилишган ва унинг нархи 1 рублдан ошмаган. Таърифланган турга қўшимча равишда, бозорларда чой

савдоси бошқа кўринишда тақдим этилган - булар чойхоналар, маҳаллий таверналар бўлиб, улар жойида чой ичиш учун хизмат қилади, шунингдек, ташриф буюрувчиларга чилим ҳам таклиф этилган бир фунт учун 50 копейкни тайкил қилган.

Туркистон генерал-губернаторлиги томонидан айрим чеклашларга қарамасдан. Самарқанднинг Шарқ мамлакатлари ва хорижий Европа мамлакатлари билан савдо алоқалари тўхтаган эмас. Хитой, Туркия, Эрон ва Афғонистон фуқаролари бу ерда доимий савдо-тижорат ишлари билан шуғулланиб келишган. Хитойдан келган савдогарлар, асосан уйғурлар бўлиб, уларнинг кўпчилигининг Самарқанд шаҳрида ўзлари ва моллари учун доимий манзиллари бор эди [19.].

Юқоридаги таҳлилар асосида қуйидагиларни хулоса қилиш мумкин:

Россия империяси босқини арафасида бўлгани каби империя боскинидан кейин ҳам Самарқанд шаҳри йирик шаҳар бўлиб, шаҳар ва унинг атрофида доимий ва ҳафталик бозорлар фаолият олиб борган;

Самарқанд уездидаги бозорлардаги гўшт, дон, мева савдосининг ҳажмига об-ҳаво, бозорлар орасидаги масофа таъсир этган бўлса, аҳолининг урф-одатлари чой савдосининг ҳажмига таъсир этган;

маҳаллий савдогарлар Россия савдогарлари томонидан кўтара савдо натижасида келтирилган газмоллар ва чойларни олиб сотиш билан шуғулланадиган майда савдогарларга айланган;

Умуан олганда Самарқанднинг савдо соҳасидаги фаолиятини ўрганиш ички савдо соҳасида анча юксалиш бўлганлигини кўрсатсада, афсуски ташқи савдо соҳасида худди бутун ўлка сингари бу ер ҳам Россиянинг саноат товарларини сотиш бозорига айланганлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Алимов А. Развитие торговли в Туркестане конца XIX века // Общественные науки в Ўзбекистане. 1969. №6. С.44.
2. Ахмаджанова З.К. Экономические, политические и военно-стратегические последствия первых железных дорог в Средней Азии (80-90-е годы XIX в.) // Ученые записки Ташкентского гос. пед. института им. Низами.– Ташкент, 1960. – Вып. 23; ч. 3. – С. 86.
3. Губаревич-Радобыльский А. Ф. Экономический очерк Бухары и Туниса, Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. СПб, 1905, - С.201.
4. Материалы по вопросу о торговыхъ путяхъ въ Среднюю Азию. – СПб., 1869. – 38 с.
5. Обзор Самаркандской области за 1887-1908. Самарканд-Ташкент, 1888-1910.
6. Обзор Самаркандской области за 1902 г. Самарканд, 1903, С.25.
7. Обзор Самаркандской области за 1906 г. Самарканд. 1901. С.54; Саидкулов Т.С. Указ. соч. с.153-154;
8. Обзор Самаркандской области за 1908 г. С. 27.
9. Путеводитель по Туркестану и СреднеАзиатской железной дороги. С.-Петербург. 1902.С.74.
10. Путеводитель по Туркестану и Средне-Азиатской железной дороги. С.Петербург. 1903.С.124.
11. Русский Туркестан, Вып. 1. М., 1872. С.28-30; Справочная книжка Самаркандской области за 1898 г. Самарканд 1899. С. 96, 104.
12. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX - начале **XX** веков. С.31.
13. Справочник Самаркандской области на 1901 г.вып. III. Самарканд., 1901. С.54:
14. Туркестанский сборник. 1869. Т. 24. С.Петербург. 1870, с.147.
15. Туркестанский сборник. Т.52. 1873. С.511-514.
16. Туркестанский сборник. Т.53. С.515-525.
17. Туркестанский сборник. Т.67. С.65.
18. Туркестанский сборник… Т.67. С.64.
19. Ўз. МА. Ф.И.-1, Оп.1, Д.145, л.88.
20. Ўз.МА. 5 фонд, 34 руйхат, 12 иш,124 – варақ
21. https://archive.org/details/1873_20220416

NODAVLAT-NOTIJORAT TASHKILOTI SIFATIDA XALQARO OLIMPIYA QO`MITASINING FAOLIYATIGA NAZAR

Kodirova M.
Qarshi davlat universiteti
O`zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlar nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqola Olimpiya xartiyasi qoidalarini tahlil qilish asosida Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining xalqaro ommaviy huquqdagi maqomini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Bunda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining Shveysariya qonunchiligi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan nodavlat tashkilot sifatidagi rasmiy maqomi, shuningdek XOQni xalqaro huquq subyekti sifatida tan olishga asos bo‘lgan davlatlarning haqiqiy amaliyoti tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Xalqaro Olimpiya harakati, Olimpiya xartiyasi, xalqaro huquq subyekti, xalqaro nodavlat tashkiloti

KIRISH

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) va u boshchiligidagi Olimpiya harakati faoliyati Olimpiya xartiyasi qoidalari bilan tartibga solinadi. Uning muallifligi XOQ asoschisi Per de Kubertenga tegishli. Per de Kuberten 1894 yilda bo‘lib o‘tgan Parij ta’sis Kongressida XOQning Olimpiya o‘yinlarini o‘tkazish, ularni doimiy ravishda takomillashtirishga intilish, barcha sport musobaqalarini rag‘batlantirish kabi maqsadlarini belgilab bergan “Reglamentlar” nomli qo‘lyozmasini shaxsan taqdim etgan [1]. Xartiya birinchi marta 1908 yilda “Annuaire du Comité International Olympique” (Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi ma’lumotnomasi) nomi bilan nashr etilgan bo‘lib, uning birinchi bobida keltirilgan ba’zi qoidalar Per De Kuberten tomonidan taxminan 1898 yildayoq yozilgan. Garchi “Olimpiya xartiyasi” nomi odatda, uning barcha nashrlariga nisbatan qo‘llanilsa-da, faqat 1978 yildan boshlab, ushbu nom rasmiy nashrning nomi sifatida qo‘llaniladigan bo‘ldi. Shuningdek, Xartiyaning ba’zi nashrlari bir nechta alohida qismlardan iborat bo‘lgan. Shuning uchun Olimpiya xartiyasi deb hisoblanadigan jildlar turli nomlar ostida uchraydi, masalan: Zamonaviy olimpiadalar va to‘rt yillik Olimpiya o‘yinlari to‘g‘risidagi Statut/ Nizom va protokol/ ishtirokchilarning murojaatlari, 1921; 1946 yilgi Olimpiya qoidalari va boshqalar [2].

ADABIYOTLAR SHARHI

Bir asrdan ko‘proq vaqtni o‘z ichiga olgan evolyusiyani boshdan kechirgan Olimpiya xartiyasi bugungi kunda “Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) tomonidan qabul qilingan Olimpizmning asos soluvchi prinsiplari, qoidalari va rasmiy tushuntirishlarining kodifikatsiyasini ifodalaydi” [3]. Ushbu qoidalar olti bobga birlashtirilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: “Olimpiya harakati”, “Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi”, “Xalqaro federatsiyalar”, “Milliy Olimpiya Qo‘mitalari”, “Olimpiya o‘yinlari” hamda “Chora va sanksiyalar, intizomiy tartib- taomillar va nizolarni hal qilish”.

Dr. Aleksandr Migel Mestrening fikricha: “Yuridik nuqtai nazardan, Olimpiya xartiyasi, bu shunchaki Shveysariya qonunchiligiga muvofiq nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan tasdiqlangan hujjatdir. Biroq Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining, shuningdek, butun Olimpiya harakatining nazarida Olimpiya xartiyasi universal yuridik xarakterga ega bo‘lgan to‘laqonli xalqaro shartnoma bo‘lib, bu uning huquqiy tabiati natijasi emas, balki Olimpiya o‘yinlarining obro‘-e’tibori, huquqiy bo‘lmagan elementi, ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy va sport sohasidagi nufuzining natijasidir. Faqatgina ushbu kontekst davlatlar, xalqaro tashkilotlar va turli sudlar tomonidan Olimpiya xartiyasining huquqiy ustuvorligining umumiy tan olishini ifoda etishi mumkin” [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ko‘pchilik G‘arb tadqiqotchilarining ishlarida XOQ xalqaro nodavlat tashkiloti ekanligi, shuningdek, jahon hamjamiyatiga a’zo davlatlar uchun majburiy qarorlar qabul qilish huquqiga ega emasligiga qaramay, Olimpiya xartiyasini, uning xalqaro ta’siri va qo‘llanilish doirasini hisobga olgan holda xalqaro huquq normalari bilan bir xil yuridik kuchga ega, degan fikr ilgari suriladi. Bunda XOQ qoidalarida ifodalanuvchi umume’tirof etilgan xalqaro amaliyot hamda xalqaro huquqiy odat normalarining belgilari o‘rtasidagi o‘xshashlikka ishora qilinadi.

Bundan kelib chiqadiki, Olimpiya xartiyasi qoidalari majburiy tabiatga ega bo‘lib, “Olimpiya harakatida ishtirok etayotgan har bir shaxs yoki tashkilot XOQning oliy hokimiyatini tan olishi kerak: ular XOQ qoidalari ta’siri va yurisdiksiyasi ostida” [5].

Ikkinchi jahon urushidan keyin 1950-yillardan boshlab, davlatlar sport fenomeni ko‘lamini anglagan holda, sportga va uni boshqarishga qiziqish bildira boshlaganlaridagi mantiqni tushunish qiyin emas. Ammo sportni, shu jumladan, xalqaro sportni o‘z manfaatlari doirasiga kiritgan davlatlar, XOQning jahon sport maydonida yarim asrlik muvaffaqiyatli faoliyatiga asoslangan obro‘- e’tiboriga duch kelishdi. Bu esa e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydigan omil bo‘lib, “XOQning tashkil etilishi, mafkurasi va tarixiy rivojlanishi, sportning xalqaro siyosiy tizimda muhim faoliyat turi sifatida o‘sishi uchun asosiy markazni ta’minladi” [3]. Bunday vaziyatda davlatlar nafaqat ushbu tizimga sport ustidan nazoratni saqlab qolishga imkon berishdi, balki “Olimpiya g‘oyalarining davlatlar milliy maqsadlariga muvofiq sozlangan shakli asosida” o‘zlarining milliy sportni rivojlantirish dasturlarini yaratishga harakat qilishdi [5]. Bugungi kunda dunyoning 199 mamlakatida “XOQ elchixonalari”, ya’ni Milliy Olimpiya qo‘mitalarining mavjudligi davlatlarning sport va Olimpiya xartiyasiga sodiqligining eng yaxshi tasdig‘idir. Bu, xususan, Olimpiya xartiyasi qoidalari ichki qonunchilik va milliy siyosatda tobora ko‘proq aks etayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Bunga misol sifatida: AQShning havaskor sport to‘g‘risidagi Qonuni (1978 y.), Avstraliyaning Olimpiya ramzlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Qonuni (1987 y.), Seuldagi Osiyo va Olimpiya o‘yinlari tashkiliy qo‘mitalarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi Koreya Respublikasi Qonuni (1981 y.) va boshqalarni keltirish mumkin.

O‘z mamlakatlarida Olimpiya g‘oyalarini targ‘ib qilish va yoshlarni uning ruhida tarbiyalash maqsadida davlatlar XOQ tomonidan ishlab chiqilgan “ta’lim tizimi orqali Olimpiya g‘oyalari” dasturi asosida Milliy ta’lim dasturlariga Olimpiya harakati tarixi kursini kiritmoqdalar. Bunday amaliyot Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstraliya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda mavjud. 1994 yilda Parijdagi Olimpiya Kongressida so‘zga chiqqan Xitoy Xalq Respublikasi MOQ vakili Sh. Vu Xitoyda maktablar, kollejlar va universitetlar dasturlariga kiritilgan Olimpiya ta’limi jismoniy tarbiyaning ajralmas qismiga aylanganini ta’kidladi. O‘zbekistonda bunday o‘qitish O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida, shuningdek Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida “Olimpiya bilimlari asoslari”, “Jismoniy tarbiya va Olimpiya harakati tarixi” fanlari doirasida olib boriladi.

Xartiya qoidalari bir necha bor davlatlarning ichki sudlari tomonidan ko‘rib chiqilgan va ularning qarorlari XOQ va Olimpiya harakati uchun alohida ahamiyatga ega. Masalan, 1977 yilda Belgiya sudi Fransiya sudlari, shuningdek Yevropa Kengashi va Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi tomonidan xalqaro sport qoidalari muayyan kontekstda qarama-qarshi milliy siyosat va qonunlardan ustunligini tasdiqlovchi qaror qabul qildi.

1983 yilning avgustida esa AQShda ikki yuguruvchi sportchi-ayollar tashkiloti hamda 27 mamlakatdan 82 nafar sportchi-ayol 1984 yilgi Los-Anjeles shahridagi Olimpiya o‘yinlarining yugurish bo‘yicha musobaqalari dasturiga ayollar orasida 5000 va 10000 metrga yugurish bellashuvlari kiritilmaganligi ularni jinsiga ko‘ra diskriminatsiya qilish deb hisoblanishini da’vo qilgan holda, Los- Anjeles Okrug sudiga Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ), Xalqaro havaskor yengil atletika Federatsiyasi (IAAF), AQSh Olimpiya qo‘mitasi, AQSh Atletik Kongressi, Los-Anjeles Olimpiya o‘yinlari tashkiliy qo‘mitasi, shuningdek, ushbu tashkilotlarning turli darajadagi mansabdor shaxslari ustidan ariza berishgan.

Olimpiya dasturiga ayollar orasidagi 5000 va 10000 metrga yugurishni kiritmaslik to‘g‘risidagi qaror XOQ tomonidan Olimpiya o‘yinlari dasturiga har qanday bellashuv turini kiritilishidan oldin ular oldingi Olimpiya sikli davomida milliy va xalqaro musobaqalarda keng namoyish etilishi kerakligi to‘g‘risidagi qoida asosida qabul qilingan. Bundan tashqari, uni Olimpiada dasturiga kiritish to‘g‘risidagi qaror, tegishli xalqaro sport federatsiyasi tavsiyasiga asosan, ushbu musobaqalar birinchi marta kiritiladigan Olimpiya o‘yinlari boshlanishidan to‘rt yil oldin qabul qilinishi kerak.

Ayollar o‘rtasida mazkur masofalarga yugurish musobaqalarining Olimpiya o‘yinlarining dasturiga kiritilishi belgilangan shartlarga javob bermagani sababli Xalqaro havaskor yengil atletika

Federatsiyasi (IAAF) XOQga ushbu turdagi musobaqalarni Olimpiya dasturiga kiritish tavsiyasini bermagan.

Natijada, birinchi instansiya sudi da'vogar o'z foydasiga hizmat qiluvchi biron-bir dalil keltirmadi, deb topdi va da'voni qanoatlantirmadi. Ikkinchi instansiya sudi esa XOQ Olimpiya Xartiyasiga qat'iy rioya etgan holda harakat qilganligi va shu tariqa AQSh qonunlarini buzmaganligi to'g'risida qaror chiqardi.

Sud Olimpiya o'yinlari bilan bog'liq masalalarni hal qilishda davlatning ichki qonunlarini ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerakligi to'g'risida argumentlarni ishonchli deb topdi. Uning ta'kidlashicha, "Olimpiya o'yinlari Olimpiya xartiyasi deb nomlangan xalqaro bitim asosida o'tkaziladi". Shu sababli, ushbu bitim qoidalariga muvofiq butun dunyo sportchilari ishtirok etadigan o'yinlarni o'zgartirish uchun har qanday ichki qonunni qo'llash juda mushkuldir.

XULOSA VA MUNOZARA

Bundan kelib chiqadiki, yo XOQni har qanday yo'l bilan ushbu chegaralar ichida ushlab turish lozim, yoki u xalqaro nodavlat tashkiloti sifatida bunday chegaralardan allaqachon tashqariga chiqish darajasiga yetganligini tan olish kerak. Boshqacha qilib aytganda, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi uning o'ziga xos maqomini hisobga olgan holda xalqaro nodavlat tashkilotlariga yo'l ochib, ularni xalqaro ommaviy huquqda mustahkamroq mavqega olib chiqishi mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Soxin Yu. Ot Parija do To Totok / Olimpiyayskaya panorama. 2010. « № 3. - S, 11.

2. Olimpiya dunyosi kutubxonasi. https://library.olympics.com/default/olympic-charter.aspx?_lg=en-GB

3. Olimpiya xartiyasi. 2021-yil 8-avgustdan boshlab kuchga kiradi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan nashr etilgan. 2021 yil oktyabr. 6-bet.

4. Aleksandr Mestre. Olimpiya ta'limini rivojlantirishning institutsional asoslari va Milliy Olimpiya akademiyasining roli / The Sport Journal, 2010. - Vol. - 24. - https://thesportjournal.org/article/the-institutional-framework-for-the- Development-of-olympic-education-and-the-role-of-the-national-olympic-academy/

5. Jeyms A. R. Nafziger, Stiven F. Ross Edvard Elgar, 2013 yil.

МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ҚАДИМГИ ХОРАЗМ МУДОФАА ИНШООТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХИНИНГ ТАРИХШУНОСЛИГИ

Норматов Ш.М.
АТМУ доцент

Аннотация Ушбу мақолада Мустақиллик йилларида қадимги Хоразм тарихи ва маданияти, ҳамда мудофаа иншоотларининг ўрганилиши тарихининг тарихшунослиги илмий манбалар ва адабиётлар асосида ёритилган.

Калит сўз: Буржлар, шинаклар, қалъалар, ҳарбий истеҳкомлар, Қалъажиқ, Ҳазорасп, Катқалъа, Тупроққалъа (Шовот), Олмаотишган-II, Тошқалъа-II, Қазақлижатқан (Оқшахон), Кўзалиқир, Тупроққалъа, Қаълалиқир, Манғирқалъа, Қирққизқалъа, Чилпиқ.

Аннотация В статье рассматривается историография истории и культуры Древнего Хорезма в годы независимости, а также изучение оборонительных сооружений на основе научных источников и литературы.

Ключевое слово: Башни, башни, замки, военные укрепления, Каладжик, Хазорасп, Катькала, Тупроккала (Шавот), Алма-Атышган-II, Тошкала-II, Казахлижаткан (Акшахан), Кузаликир, Тупроккал, Калалыкир, Мангыркал, Кырккизкал, Чильпык.

Abstract. This article covers the historiography of the history and culture of ancient Khorezm in the years of independence, as well as the history of the study of defensive structures based on scientific sources and literature.

Key words: Towers, turrets, castles, military fortifications, Kalajik, Khazorasp, Katkala, Tuprokkala (Shavot), Almaotishgan-II, Tashkala-II, Kazaklijatkan (Akshakhan), Kozalikir, Tuprokkala, Kalalikir, Mangirkal'a, Kirkkiskala, Chilpik.

Хоразм воҳаси Ўрта Осиёнинг шимоли-ғарбий қисмидаги Хоразм-Тошҳовуз текислигида жойлашган бўлиб, қадимги даврлардан бошлаб минтақанинг суғорма деҳқончилик

ҳамда шаҳарсозлик маданияти, умуман, цивилизация марказларидан бири бўлиб ҳисобланади. Кўпчилик тадқиқотчилар эътироф этганларидек, Хоразм воҳасини географик нуқтаи назаридан иккита катта қумликлар саҳроси ўраб олганлиги туфайли бу ҳудуд қадимги даврлардан бошлаб Ўрта Осиёнинг жанубига нисбатан тарихий-маданий деҳқончилик ривожи борасида бироз орқада қолган.

Тадқиқотларга кўра, Хоразм воҳаси жойлашган қуйи Амударё ғарбда Устюрт платоси, жануб ва жанубий-ғарбда Қорақум, шарқий томонда эса Қизилқум билан чегараланиб, шимолда Орол денгизигача чўзилган. Қуйи Амударё ҳудудлари пасттекисликлардан иборат бўлиб, жанубий-шарқий, шимолга томон бироз қиялашган ҳолда чўзилган, текисликда саёз чуқурликлар кўп, қуруқ ўзанлар, тепаларнинг баландлиги 4 - 6 метрга боради. Амударё ўнг соҳилининг шимоли-шарқий, томонида Султон Увайс тоғи мавжуд бўлиб, унинг баландлиги 471 метрни ташкил этади [1].

Мустақиллик йилларида қадимги Хоразм шаҳар ва қишлоқларининг тарихи ва маданиятини ҳар томонлама тадқиқ этиш учун кенг имкониятлар очилди. Хоразмшунос олимлар қадимги тарихнинг бошқа йўналишлари каби қадимги мудофаа иншоотлари, ҳарбий тарих ва санъат масалаларига ҳам катта эътибор қаратдилар. Хусусан, Қ. Собиров раҳбарлигидаги археологик гуруҳ бир неча йиллар мобайнида Қалъажиқ, Ҳазорасп, Катқалъа, Тупроққалъа (Шовот), Олмаотишган-II, Тошқалъа-II каби кўҳна шаҳарларда тадқиқотлар олиб бориб, улардаги ҳимоя деворлари, буржлар ва шинаклар мавжудлигини аниқлади[2]. Шунингдек, Ғ.Хўжаниёзов Беруний туманидаги Қазақлижатқан (Оқшахон) ёдгорлигида тадқиқотлар олиб бориб, мудофаа девори ва буржларни аниқлади ҳамда улар асосида кўҳна шаҳар мил.авв. IV- асрда пайдо бўлган, деган хулосага келди[3].

Ундан ташқари Ғ.Хўжаниёзов томонидан қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари масалалари бўйича фундаментал тадқиқот амалга оширилган бўлиб, унда олим Хоразм мудофаа тизимининг Марказий Осиё меъморчилиги тизимида тутган ўрни, ҳарбий қурилиш техникаси ва мудофаа тизими тарихи, қадимги қишлоқ ва шаҳарлар мудофаа тизимининг манбаси, Қадимги Хоразм ҳарбий истеҳкомларининг ривожланиш босқичлари, ҳарбий истеҳкомларнинг асосий элементлари каби масалаларга алоҳида эътибор қаратган [4].

Қадимги Хоразмнинг тарихи ва маданияниятини тадқиқ этиш, археология маълумотларини тарихга йўналтириш бўйича бугунги кунда самарали ишлар амалга оширилмоқда. Хусусан ёш олим Ў.И. Абдуллаев, бевосита воҳанинг қадимги мудофаа санъати масалалари бўйича изланишлар олиб бормаган бўлсада, нафақат, Хоразм воҳаси, балки, Ўрта Осиё археологиясининг кўп йиллик ютуқларига асосланиб, Ўрта Осиёда илк давлатчилик ҳамда дастлабки шаҳар маданияти (қисман мудофаа иншоотлари ҳам) масалалари бўйича тадқиқотлар олиб борди[5].

Олимнинг тадқиқотлари археологик маълумотларни тарихга йўналтирилганлиги билан эътиборлидир.

Ёш тадқиқотчи Ҳ.Ҳ. Матёқубов ҳам Хоразм воҳасининг қадимги тарихи бўйича изланишлар олиб борган. Ёш олим Хоразм мудофаа иншоотлари тарихига кам эътибор қаратган бўлсада, археологик маълумотлар асосида воҳанинг бронза ва илк темир даври тарихи ҳамда маданиятини тадқиқ этган[6].

Хоразм воҳаси археологик тадқиқотлари натижаларининг тадқиқ этилиши масаласида ёш олим Х.О. Маткаримовнинг ишлари алоҳида диққатга молик. Олим узоқ йиллар мобайнида Хоразм воҳасида олиб борилган археологик тадқиқотлар тарихини ўрганар экан, Хоразм Хоразм археологик экспедицияси натижаларини илмий-қиёсий таҳлил этади.

Эътиборли томони, Хоразм воҳаси ҳарбий санъати, мудофаа иншоотлари тарихига ҳам мисоллар асосида (қалъалар, шаҳар қишлоқлар мисолида) тўхталиб ўтади[7].

Қадимги Хоразмнинг ҳарбий санъати ҳамда мудофаа тизими тарихи масалалари бўйича сўнгги йилларда Б. М. Сатимовнинг тадқиқотлари диққатга сазовардир. Ёш олим ёзма ва археологик маълумотлар асосида изланишлар олиб бориб, қадимги ёзма манбаларда Орол-бўйи аҳолисининг қуролланиши ва жанг усулларига оид маълумотларни, сак қабилалари ва Хоразм ҳарбий санъати соҳасининг ўрганилиш натижаларини фанга жорий этган[8]. Б.Сатимовнинг тадқиқотлари шу билан диққатга сазоварки, олим Орол бўйида қадимги

ҳарбий санъатнинг ривожида ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий омилларнинг аҳамияти, Оролбўйи чорвадор ҳамда зироаткор аҳолисининг қуролланишида анъана ва янгиликлар, Оролбўйида ҳарбий истеҳкомларнинг келиб чиқиши масалалари, Қадимги Хоразм давлатчилиги ва мудофаа иншоотлари тизими ривожланишининг ўзаро боғлиқлиги, Оролбўйи сак қабилаларининг мудофаа иншоотлари масалаларини тарихий нуқтаи назардан ёритиб берган.

Тадқиқотчи олима Н.А.Эгамбердиеванинг ҳам сўнгги йиллардаги тадқиқотларига алоҳида тўхталиб ўтиш жоиздир. Олима Амударё ҳудудларининг қадимги маданияти (мил.авв. VIII- милодий IV асрлар) бўйича фундаментал тадқиқотларни амалга оширган[9]. Унинг тадқиқотида Қадимги Бақтрия ва Сўғд билан бир қаторда Қадимги Хоразм воҳасида кечган тарихий-маданий жараёнлар батафсил ёритилиб, Хоразмдаги Кўзалиқир, Тупроққалъа, Қаълалиқир, Манғирқалъа, Қирққизқалъа, Чилпиқ, Бурлиқалъа, каби кўплаб кўҳна шаҳар ва қалъаларнинг мудофаа тизими маданияти қиёсий таҳлиллар асосида ёритиб берган. Н. Эгамбердиеванинг археологик маълумотларни муваффақиятли равишда тарихга йўналтирилганлигини алоҳида эътироф этиш мақсадга мувофиқдир.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар даври кўҳна шаҳар ҳамда қалъаларининг ҳарбий санъати, ҳимоя иншоотлари тарихига оид кўплаб маълумотлар тўпланиб, илмий-назарий қарашлар ва ёндошувлар фанга жорий этилган. Таъкидлаш лозимки, Қадимги Хоразм ёдгорликларининг мудофаа тизими тарихини ўрганишда кўпроқ эътибор Амударёнинг ўнг қирғоқ, ҳавзасидаги ёдгорликларга қаратилган бўлиб, чап қирғоқ, ҳозирги Хоразм вилояти ҳудудларидаги ёдгорликлар бироз назардан четда қолган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар

1. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси Тошкен.: Ўқитувчи, 1997.Б. 154-162 (316)

2. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарлари мудофаа иншоотлари (мил. авв. VI-милодий IX- асрлар) Тошкент.: “Фан”, 2009.Б-29.

3. Ходжаниязов Ғ. Фортификация древнего Хорезма: Автореферат диссертация канд. ист. наук. Нукус. 1996. С. 16(24)

4. Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари Тошкент.: “Ўзбекистон” 2007. Б-212.

5. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертация автореферати. Тошкент.: ЎзМУ. Б.36 (Ўзбекча)

6. Матякубов Ҳ. Хоразм воҳаси бронза ва илк темир даври тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Тошкент.: 2018.ЎзМУ. Б.22. (Ўзбекча)

7. Маткаримов Х.О. Хоразм воҳасида археологик тадқиқотлар тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Нукус.: 2021. Б.23. (Ўзбекча)

8. Сатимов Б.М. Оролбўйида қадимги ҳарбий иш ва мудофаа тизими тарихи Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация қўлёзмаси. Урганч. 2023. Б.165. Иловалар.

9. Эгамбердиева Н.А. Амударё ҳавзаси ҳудудларининг қадимги маданияти (мил.авв. VIII милодий IV асрлар) Тарих фанлари доктори (DSc). диссертацияси. Тошкент.: 2021. Қўлёзма. Б.286. Иловалар

O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'RTASIDAGI SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLAR TARIXIGA BIR NAZAR

Ernazarov A.X

Osiyo texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar

kafedrasi katta o’qituvchisi,

dots.v.b.

1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalanib, mustaqillikka erishgach, O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari bilan faol iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘ydi. Mamlakat mintaqa ichidagi savdo va sarmoya oqimini oshirishga qaratilgan turli tashabbus va kelishuvlar orqali mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga intildi.Markaziy Osiyoda iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi (CAREC) dasturidir.

O‘zbekiston CAREC a’zosi bo‘lib, u infratuzilmani rivojlantirish, savdoga ko‘maklashish va siyosiy muloqot orqali mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik va aloqalarni yaxshilashni maqsad qilgan.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari bilan savdo aloqalarini kengaytirish borasida katta sa’y-harakatlarni amalga oshirdi. Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi davlatlar bilan savdo to‘siqlarini kamaytirish va iqtisodiy hamkor-likni rivojlantirishga qaratilgan ikki tomonlama savdo shartnomalari imzolangan. O’zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlash so‘nggi yillarda barqaror o‘sishda davom etmoqda. O’zbekiston qishloq xo‘jaligi, energetika va ishlab chiqarish kabi sohalarda savdo hajmi ortib borayotgan ko‘plab Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun eng yirik savdo sheriklaridan biri hisoblanadi.O‘zbekiston ikki tomonlama savdo kelishuvlaridan tashqari Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOI) va Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) kabi mintaqaviy iqtisodiy tashabbuslarda ham faol ishtirok etib kelmoqda.

O’zbekiston turli ikki va ko‘p tomonlama tashabbuslar orqali Markaziy Osiyo davlatlari bilan mustahkam iqtisodiy aloqalar o‘rnatishga e’tibor qaratib kelmoqda. Mamlakat mintaqada savdoni liberallashtirish va investitsiya imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturi (CAREC) va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YEOI) kabi mintaqaviy tashkilotlarda faol ishtirok etib kelmoqda.Bundan tashqari, O’zbekiston o’z qo’shnilari bilan aloqalarni yaxshilash va savdoni osonlashtirish maqsadida infratuzilmani rivojlantirish loyihalarida ishtirok etmoqda. O’zbekiston-Tojikiston-Xitoy temir yo‘li va O’zbekiston-Qirg‘iziston-O’zbekis-ton temir yo‘li kabi transport yo‘laklarining qurilishi mintaqada savdo aloqalarini kengaytirish va transchegaraviy hamkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.Bundan tashqari, O’zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan energetika sohasida hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta’kidlab keladi. Mamlakat mintaqada energiya xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash maqsadida elektr uzatish liniyalarini qurish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish kabi qo‘shma energetika loyihalarida faol ishtirok etmoqda.

O’zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashishi barcha manfaatdor tomonlar uchun katta iqtisodiy foyda keltirdi. Savdo oqimining ortishi, investitsiya imkoniyatlari va texnologiyalar transferi mintaqada iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va yangi ish o’rinlari yaratishga yordam berdi.Kelajakda O’zbekiston va uning Markaziy Osiyodagi qo’shnilari o’rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mintaqaviy integratsiyani mustahkamlash, transchegaraviy sarmoyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni kuchaytirish mintaqada barqaror rivojlanish va farovonlikni ta’minlashning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan bo’ladi. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari.Savdo munosabatlari mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy o'sish va hamkorlikni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Markaziy Osiyo sharoitida O’zbekiston va qo‘shni davlatlar o’rtasidagi savdo aloqalari mintaqaning geografik jihatdan yaqinligi va umumiy tarixiy aloqalari tufayli alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston geografik va iqtisodiy jihatdan Markaziy Osiyoning eng yirik davlatlaridan biri sifatida mintaqa ichidagi savdo dinamikasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning bir qancha davlatlari, jumladan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan chegaradosh. Bu qo‘shni davlatlar O‘zbekiston savdo tarmog‘ining asosiy qismini tashkil etadi, savdo aloqalari iqtisodiy taraqqiyot va mintaqaviy barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega. O‘tgan yillar davomida O’zbekiston Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari bilan o‘zaro hamkorlik va iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish maqsadida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama savdo shartnomalarini faol ravishda amalga oshirdi.O’zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi savdo aloqalarining muhim jihatlaridan biri mintaqaviy integratsiya va hamkorlikka alohida e’tibor qaratishdir. Markaziy Osiyo davlatlari o‘zlarining umumiy resurslaridan foydalanish va barqaror rivojlanishga ko‘maklashish uchun iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash muhimligini tan oldilar.

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari o’rtasidagi iqtisodiy aloqalar mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, savdo-sotiqni rivojlantirish va mintaqada iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O’zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biri sifatida qo‘shni davlatlar, jumladan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan iqtisodiy dinamikani va munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. O’zbekiston

so‘nggi yillarda turli ikki tomonlama kelishuvlar, savdo sheriklik va mintaqaviy tashabbuslar orqali Markaziy Osiyodagi qo‘shnilari bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘zlarining jamoaviy resurslaridan foydalanish, savdoni ko‘paytirish va mintaqa bo‘ylab barqaror rivojlanishga ko‘maklashish uchun iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish muhimligini tan oldilar. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning muhim jihatlaridan biri savdo, sarmoya va iqtisodiy hamkorlikni diversifikatsiya qilishga qaratilayotgan e’tibordir. O’zbekiston mintaqada kengroq iqtisodiy integratsiyani ta’minlash maqsadida savdoni erkinlashtirish, savdo to‘siqlarini kamaytirish va bozorga kirishni kengaytirishda faol ishtirok etib kelmoqda. O’zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar barqaror va jonli mintaqaviy iqtisodiyotni barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Doimiy hamkorlik, savdo integratsiyasi va sarmoyaviy sheriklik orqali O’zbekiston va uning qo’shnilari kelgusi yillarda iqtisodiy rivojlanish, bandlik imkoniyatlarini yaratish va aholining umumiy farovonligini oshirishga tayyor.

Oliynasab ulamolarning nasliy ijtimoiy mavqeyiga ega bo'lishi,ularning davlat boshqaruvi ishlarida eng yuqori amal pog'onalarini egallashi barobarida,davlat hokimiyatiga siyosiy ta'siri ham sezilari bo'lgan.Bunday toifa ulamolar qatoriga Mahmudi A'zam Kosoniy,Sayid Ota,Jo'ybor xo'jalari va Xo'ja Ahror xonadoni vakillarini misol keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlar mintaqaviy hamkorlik va integratsiyani rivojlantirishga qat’iy intilishdan dalolat beradi. O’zbekiston va uning qo‘shnilari o’zaro manfaatlar va umumiy maqsadlardan foydalangan holda, kelajakdagi imkoniyatlar boyligidan foydalanib, yanada gullab-yashnagan va o‘zaro bog‘langan Markaziy Osiyoni yaratishga tayyor.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Qamariddin Usmonov. O'zbekistom tarixi: milliy istiqlol davri. -T.: O'qituvchi, 2007.
2. N.To'xliyev, Q.Haqberdiyev "O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari". -T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi asoslari" nashriyoti, 2006.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvidagi nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 16 mart, № 52 (7010).
4. Madaminova, D. I., & Fayzullaev, S. A. (2021). The important aspects of uzbekistan's initiatives in central Asia. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(3),
5. Sayfullaev, D. (2016). Parliamentary Diplomacy In Making Of Foreign Policy. The Advance Science Journal of International Relations, 1(1),

ЧАЙНАЯ ИСТОРИЯ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Маматова М.Б.

Докторант Каршинского государственного университета

Аннотация

В данной статье изучается чайная индустрия Узбекистана в годы независимости, в частности, постановлении государство о порядке ввоза чайного сырья, статистические данные об импорте чаев, история чайных фабрик и чайных брендов Узбекистана.

Ключевые слова: чайная история, черный чай, зеленый чай, Самаркандская чаеразвесочная фабрика, Amir Tea, Toza choy, импорт чаев, бренд.

В конце 1990-х годов все крупные промышленные предприятия и заводы Узбекистана оказались в тяжелом положении, в том числе, и чайная промышленность. Серьезными проблемами для предприятий в тот период было и отсутствие чайного сырья, и низкая покупательная способность неселения Республики. Другой причиной кризиса в данной отрасли стало устаревание оборудования и производственных технологий. Все требовало серьезного обновления технологического процесса.

В конце 1990-х гг. Самаркандская чаеразвесочная фабрика пострадала от экономического кризиза так же, как и все крупные промышленные предприятия и заводы Республики Узбекистана, оказавшись в тяжелом положении. В этой ситуации в 2000 году руководителем

компании был назначен Абдувахоб Рахимов. Он пытался укрепить связи с зарубежными партнерами, которые поставляли сырье на завод. В зависимости от ситуации, он организовывал расфасовку соли, сахара и других продуктов. Таким образом, деятельность компании постепенно начала восстанавливаться, а также появилось доверие к зарубежным партнерам. Только 2002 г. в фабрике было произведено 2238 тонн фасованного чая [8].

Вторая большая чайная фабрика «Pure Tea Packers», работающая под брендом «Тоза» была основана в 1998 году в Ташкенте и стала одной из первых на рынке по производству чая. Первоначально организация вела свою деятельность под брендом «Ishonch» [10], но спустя некоторое время круг поставщиков расширился в несколько раз, а также началась обновляться ассортиментная линия предоставляемых продуктов. В 2005 году было принято решение о регистрации собственников торговой марки «Тоза». Это и стало началом нового этапа развития национального бренда «Тоза». Компания при формировании нового ассортимента продукций, в первую очередь, всегда старается обращать свое внимание на потребности клиентов и учитывать все ценовые сегменты.

Руководство Республики и Кабинет Министровов принимают в 2005 г. ряд документов по ввозу чая в Узбекистан [1].

В целях эффективного использования созданных производственных мощностей Самаркандской чаеразвесочной фабрики и увеличения объемов производства фасованного чая, по постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан, начиная с 2005 года, ввоз в республику чайного сырья осуществляется только юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями без образования юридического лица, имеющими расфасовочные автоматы, в объемах, не превышающих их производственные мощности. Также, в данном законе запрещалась с 1 апреля 2005 года реализация через розничную торговую сеть чая в нерасфасованном виде [2].

Постановление «Об утверждении положения о порядке ввоза чайного сырья юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями без образования юридического лица в Республику Узбекистан» было важно тем, что все юридические лица и индивидуальные предприниматели могли осуществлять ввоз чайного сырья, только в том случае, если у них имелись расфасовочные автоматы и в объемах, не превышающих их производственные мощности. В настоящее время это постановление утратило силу в соответствии с постановлением Государственного таможенного комитета, Министерства экономики, Министерства внешних экономических связей, инвестиций и торговли, Государственного налогового комитета Республики Узбекистан от 13 июля 2016 года №№ 01-02/12-42, 118, 2016/10-5, 2016-25 «О признании утратившими силу постановления «Об утверждении Положения о порядке ввоза чайного сырья юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями без образования юридического лица в Республику Узбекистан», а также изменений к нему» (№ 1459-2 от 21.07.2016 г.).

По данным Государственного комитета статистики РУз, в 2000 г. чайного сырья было импортировано из 18 стран, в количестве до 20,3 тыс. т. на сумму 13280 тыс. долл. США. Основные страны-импортеры были Китай (11898,9 т. на сумму 7736,2 тыс. долл. США), Иран (5166 т. на сумму 2031,2 тыс. долл. США), ОАЭ (1 130,1 т. на сумму 1 085,5 тыс. долл. США), Шри-Ланка (808 т. на сумму 813,2 тыс. долл. США), Грузия (516,1 т. на сумму 436,2 тыс. долл. США).

В 2001 г. чайного сырья было импортировано из 20 стран, около 29 тыс. т. на сумму 16797,7 тыс. долл. США (30-таблица). Основные страны-импортеры были Китай (16609,4т. на сумму 25800,5тыс. долл. США), Иран (4 933,6 т. на сумму 2 278,1 тыс. долл. США), ОАЭ (1 278,5 т. на сумму 788,5 тыс. долл. США), Турция (1 127,4т. на сумму 651,1 тыс. долл. США), Шри-Ланка (888,7 т. на сумму 1 308,2 тыс. долл. США), Грузия (561,3 т. на сумму 328,7 тыс. долл. США).

В 2011 г. в Узбекистан чайного сырья было импортировано из 14 стран, около 22 тыс. т. на сумму 30996,6 тыс. долл. США (30-таблица). Основные страны-импортеры были Китай (19878,7 т. на сумму 10966 тыс. долл. США), Иран (1937,6 т. на сумму 1035,5 тыс. долл. США), ОАЭ (1912,7 т. на сумму 1507,8 тыс. долл. США), Вьетнам (658,5 т. на сумму 1406

тыс. долл. США), Индия (446,1 т. на сумму 376,8 тыс. долл. США), Грузия (29,8 т. на сумму 20,9 тыс. долл. США).

Из них, что страны, которые импортировали чайное сырье в 2000 г. в основном ввозиличай зеленый (неферментированный) быстрорасфасованный, в упаковках, весом не более 3 кг (90210000) – 42 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: прочий чай зеленый (неферментированный) (902200000) – 11720,2 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: чай черный (ферментированный) и частично ферментированный, в первичных упаковках нетто-массой не более 3 кг:в одноразовой упаковке (902300001) – 5575,1 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: прочий чай черный (ферментированный) и частично ферментированный (902400000) – 2942,6 т.

В 2001 г. чай зеленый (неферментированный) быстрорасфасованный, в упаковках, весом не более 3 кг (90210000) – 67,4 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: прочий чай зеленый (неферментированный) (902200000) – 18617,9 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: чай черный (ферментированный) и частично ферментированный, в первичных упаковках нетто-массой не более 3 кг:в одноразовой упаковке (902300001) – 5464,1 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: прочий чай черный (ферментированный) и частично ферментированный (902400000) – 4899,7 т.

В 2011 г. чай зеленый (неферментированный) быстрорасфасованный, в упаковках, весом не более 3 кг (90210000) – не ввозился, остальные же поставлялись. Например, чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: чай зеленый (неферментированный), в первичных упаковках нетто-массой не более 3 кг: в одноразовой упаковке (902100001) – 139,5 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: чай зеленый (неферментированный), в первичных упаковках нетто-массой не более 3 кг: прочий (902100009) – 21,1 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: прочий чай зеленый (неферментированный) (902200000) – 16373,2 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: чай черный (ферментированный) и частично ферментированный, в первичных упаковках нетто-массой не более 3 кг: в одноразовой упаковке (902300001) – 1750,7 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: чай черный (ферментированный) и частично ферментированный, в первичных упаковках нетто-массой не более 3 кг: прочий (902300009) – 18,7 т., чай со вкусо-ароматическими добавками или без них: прочий чай черный (ферментированный) и частично ферментированный (902400000) – 3630,1 т.

В 2007 г. реализовывалось постановление Кабинета Министров «О дополнительных мерах по обеспечению населения Республики качественным расфасованным чаем отечественного производства» [3] № 11. В 2009 г. вышел приказ Министра труда и социальной защиты населения РУз «Об утверждении правил по охране труда для работников чайного производства» [4], в 2010 г. по приказу Министра труда и социальной защиты населения РУз был внесен изменения в пункт 22 правил по охране труда для работников чайного производства [5].

Также, в 2013 г. вышло постановление Комитета по управлению государственными резервами при Кабинете Министров Республики Узбекистан «Об утверждении инструкции о порядке поставки, приемки, хранению и отпуска чая в первую группу» [6], в котором приводились общие требования к упаковке, маркировке и транспортировке, доставке и приемке, складированию и хранению, доставке (погрузке и разгрузке) чая. В 2017 г. в ней были внесены дополнения [7].

Созданная еще в 30-х гг. прошлого века Самаркандская чаеразвесочная фабрика, которая была известна своей продукцией в бывших советских республиках, одна из первых в 1996 г. установила технологическое оборудование индийского производства и ввела использование новых цветных полимерных пленок в упаковке чая [9]. Чайная и вспомогательная продукция, упакованная на фабрике, в основном импортировалась из Индии и Китая. Продукция продавался на внутреннем рынке нашей страны.

В 2005 году решением Правительства Республики с учетом вклада иностранных инвесторов Самаркандская чайная фабрика была преобразована в иностранное предприятие

и с этого года Самаркандская чаеразвесочная фабрика выпускали свою продукцию в 2006 году под брендами «SAM TEA», «Samarkand» и «АМИР».

После выкупа Самаркандской чаеразвесочной фабрики иностранным инвестором — корпорацией «All Americas international Inc.» (США) в течение 2 лет было инвестировано 5 млн. долл. и ожидались фьючерское инвестирование в первом квартале 2007 года на сумму в 1,4 млн. долл. США. Было произведено 5,7 тыс. тонн высоко качественного, конкуренто способного расфасованного чая. На предприятии было восстановлено 400 рабочих мест. По имеющимся данным, был разработан бизнес-план по доведению производственных мощностей до 15 тыс. тонн расфасованного чая в год и количества рабочих мест – более 800 человек [3].

Чайное сырьё для Самаркандской чаеразвесочный фабрики, в основном, шла из Китая. Это зелёные чаи, которые выпускаются под известным в Узбекистане брендом «Амир» 95, 110 и др. Также, зеленый чай получает иногда и из Вьетнама. Лучшие чёрные чаи поступают из Шри Ланки, Индии, Кении и Ирана. Черный лист поступает по железной дороге, а также грузовым автотранспортом. Поступившее сырьё проходит сортировку, при котором распределяется по сортам, проходит несколько этапов очистки (на сепараторе и смотровом столе), затем фасуется на чаеразвесочных автоматах. Иногда для улучшения вкусовых качеств и создания определённых торговых сортов проводится купажирование (смешивание нескольких сортов чая). На Самаркандской чаеразвесочный фабрике имеются следующая градация сортов чая: высший, первый и второй и для всех сортов имелся артикулы.

Таким образом, в годы независимости чайная торговля развивался, чайное сырье импортировался более 20 стран, появились узбекские чайные бренды как «Amir», «Toza», «Toshkent» и «Piala», также руководство Республики Узбекистан предпринимало рядов постановлении о порядке ввоза чайного сырья.

Литературы:

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по развитию Самаркандской чаеразвесочной фабрики».№15 от 1 январь 2005 г.; Постановление государственного таможенного комитета РУз, министерства экономики РУз, агентства по внешним экономическим связям РУз, государственного налогового комитета РУз «Об утверждении положения о порядке ввоза чайного сырья юридическими лицами и индивидуальными предпринимателями без образования юридического лица в Республику Узбекистан». № 1459 от 22 март 2005 г.

2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по развитию Самаркандской чаеразвесочной фабрики». 1 январь 2005 г. №15.

3. Постановление Кабинета Министров «О дополнительных мерах по обеспечению населения Республики качественным расфасованным чаем отечественного производства» № 11 от 11 января 2007 г.

4. Приказ Министра труда и социальной защиты населения РУз «Об утверждении правил по охране труда для работников чайного производства» № 1957 от 14 мая 2009 г.

5. Приказу Министра труда и социальной защиты населения РУз «О внесении изменения в пункт 22 правил по охране труда для работников чайного производства» №1957-1 от 6 ноября 2010 г.

6. Постановление Комитета по управлению государственными резервами при Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении инструкции о порядке поставки, приемки хранения и отпуска чая в первую группу» № 2486 от 23 июля 2013 г.

7. Постановление Комитета по управлению государственными резервами при Кабинете Министров Республики Узбекистан «О внесении изменений в инструкцию о порядке поставки, приемки, хранения и отпуска чая в первую группу» № 2486-1 от 6 декабря 2017 г.

8. Самарқанднинг садоқатли фарзанди. // URL:https://www.zarnews.uz

9. Самаркандская чаеразвесочная фабрика // URL:https://www.qomus.info

10. О нас. // URL:https://www.tozachoy.uz

MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO MUBORAK GAZ KONLARI BOSHQARMASINING TARIXIY MA'LUMOTLARI.

Mallayeva F,
Qarshi davlat universiteti
"O'zbekiston tarixi" kafedrasi PhD.

Sayidov M,
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
1-kurs magistranti

Annotasiya: Maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo Muborak gazk onlari boshqar-masining tarixiy ma'lumotlari ishlab chiqarish sanoat sohasi tahlil etilgan, Muborakgaz" gaz konlari boshqarmasi ikkita boshqarma bo'lib muhokama etilgan .

Kalit so'zlar: «O'rtabuloq», «Dengizko'l», «Somontepa», «Tegirmon», «Uzunshor», «O'rtabuloq Terregen», «Ko'kdumaloq, Janubiy Alan», «Istmoq», «Alan» «Zevarda», «Janubiy Kemachi» va «Jayron» «Muborak guruhi», «Girsan-Cho'lquvar» «Pomuq», «Shimoliy Darvoza» «Umid», «Ko'ltak» konlari

Annotation: The article analyzes the historical data of the Kashkadarya Mubarek Gas Fields Production Department during the years of independence, and discusses the Mubarekgaz Gas Fields Department as two departments.

Keywords: "Ortabulak", "Dengizkol", "Somontepa", "Tegirmon", "Uzunshor", "Ortabulak Terregen", "Kokdumalak, South Alan", "Istmoq", " Alan »,« Zevarda »,« South Kemachi »and« Jayron »,« Muborak group »,« Girsan-Cholquvar »,« Pomuq »,« North gate »,« Umid »,« Kultak »deposits

Аннотация: В статье анализируются исторические данные Кашкадарьинского Мубарекского добывающего управления газовых месторождений за годы независимости, а также рассматривается Мубарекгазское управление газовых месторождений как два управления.

Ключевые слова: «Ортабулак», «Денгизколь», «Сомонтепа», «Тегирмон», «Узуншор», «Ортабулак Терреген», «Кокдумалак, Южный Алан», «Истмок», «Алан», «Зеварда», «Южный Кемачи» месторождения «Джейрон», «Муборак групп», «Гирсан-Чолкувар», «Помук», «Северные ворота», «Умид», «Култак».

"Muborakgaz" gaz konlari boshqarmasi ikkita boshqarma bo'lib "Kogonneftgaz qazib chiqarish" va "Qashqadaryonefgaz qazib chiqarish" boshqarmalarni birlashtirgandan sung 1991 yil yangi tashkil qilingan boshqarmani tarkibiga 4-ta asosiy ishlab chiqarish xizmatlari kiradi. Tezkor ishlab chiqarish xizmati, TICX-I "Urta buloq, TICX-2" "Muborak kon guruxlari" TICX-3" "Qarahtoy koni" TICX-4 "Qarovul bozor koni"

1991-yili gazni kompleks tayorlash qurilmmasini (UKPG) ishga tushurib, yuqori oltingugurtli koni foydalanishga tushiriladi.

Gazni kompleks tayyorlash qurulmasi (UKPG-2)ni ishga tushrish bilan "urta- bulok" konining yuqori oltingugurtni gaz qazib chiqarish quvvati 4-mlrd, kub metrga etkaziladi.

1990-1991 yillarda yuqori er qatlam bosimida gaz kondensatli "Zevarda" konni jixozlash ishlari olib boriladi va navbat bilan foydalanishga topshiriladi. Xar bir navbat bilan bir yilda 2-mlrd kub m quvvatiga ega.

Birinchi navbatda 1990-yil 91,92,93,94 yillarda foydalanishga topshirgan edi. 1991-yilda "Zevarda" konning gaz qazib chiqarish quvvati bir yilda 8-mlrd kub metrni tashkil etadi.

1992-yil yangi kon foydalanishga topshirildi, Gaz qazib chiqarish quvvati 2-mlrd kub metrga teng, gazni kompleks tayyorlash kompleksi ishga tushiriladi. Yuqori oltingugurtli gaz kondensatli "Dengizkul xauzak" koni ishga tushurildi, bir yillik ishlab chiqarish quvvati bir yilda 2-mlrt kub metrni tashkil etadi.

Yuqorida qayt etib utilgan ob'ektlar foydalanishga topshirilgandan sung, gaz qazib chiqarish boshqarma buyicha 19-mlrd kub metrga etdi. "Muborak gaz konlari boshqarmasi tashkil etilgandan buyon 70 mlrd kub metr gaz qazib olingan edi. Shu tufayli gaz kondensati qazib chiqarish xam sizilarli darajada oshdi.

1993-yil gaz kondensati qazib chiqarish 120-ming tonnani tashkil etgan bo'lsa. 1994-yilda 444,9-ming tonnani tashkil etadi.

«O‘zbekneftgaz»: Boshqaruv raisi tomonidan Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi konlarida tabiiy gaz qazib chiqarish jarayonlari o‘rganildi «O‘zbekneftgaz» AJ Boshqaruvi raisi Mehriddin Abdullayev boshchiligidagi «Ishchi guruh» a’zolari tabiiy gaz qazib chiqarilishi holatini joyida o‘rganish maqsadida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida bo‘ldi.

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida 2021 yil yanvar-aprel oylarida reja ko‘rsatkichlari bajarilishi va II-choragida yuzasidan «Zavarda» konida tashkil etilgan shtabda boshqarma va kon boshliqlari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi. prognoz ko‘rsatkichlarini bajarishga qaratilgan geologo-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish Yig‘ilishda Boshqarma tasarrufidagi konlardan 2021 yilning yanvar-aprel oylarida konlar kesimida gaz va gaz kondensati qazib chiqarish bo‘yicha boshqarma direktori, bosh muhandisi, bosh geologi va kon boshliqlarining loyiha taqdimoti eshitildi, qazib chiqarish ko‘rsatkichlari bajarilmagan konlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ko‘rsatkichlarning bajarilmaslik sabablari tahlil qilindi. Sustkashlikka yo‘l qo‘ygan kon boshliqlari hisobotlari tanqidiy tahlil qilinib ogohlantirish berildi. Jumladan, Boshqaruv raisi «O‘rtabuloq», «Dengizko‘l», «Somontepa», «Tegirmon», «Uzunshor», «O‘rtabuloq Terregen», «Ko‘kdumaloq, Janubiy Alan», «Istmoq», «Alan» «Zevarda», «Janubiy Kemachi» va «Jayron» «Muborak guruhi», «Girsan-Cho‘lquvar» «Pomuq», «Shimoliy Darvoza» «Umid», «Ko‘ltak» konlari boshliqlarining har biri bilan alohida suhbatlashib, ularning muammolari, yaratib berilgan sharoitga qaramay ko‘rsatkichlar bajarilmagani sababini muhokama qildi.

Boshqaruv raisi tomonidan yanvar-mart oylariga qadar ishlar yaxshi tashkil etilgani, afsuski aprel oyidan boshlab ko‘rsatkichlar pasayib ketganini, «Alan» va «Zevarda» konlar majmuasida siquv kompressor stansiyalari ishga tushirilib, 14 ta yangi quduq burg‘ilashdan ishga qo‘shilganiga qaramay Boshqarma tomonidan belgilangan topshiriqlar to‘liq bajarilmagani tanqid qilindi.

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida yanvar-aprel oylarida jami 101 ta tadbirlar amalga oshirildi, jumladan, 14 ta yangi burg‘ilashdan quduqlar ishlatishga tushirildi, mavjud 78 ta quduqlarda mukammal ta’mirlash va intensifikatsiya ishlari bajarildi, 7 ta texnologik ob’yektda rekonstruksiya, modernizatsiya va qurilish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, «Alan» va «Zevarda» konlarida past bosimli siquv kompressor stansiyalari ishlatishga tushirilishi munosabati bilan kunlik 2,0 mln kub metr tabiiy gaz qazib olish ko‘paytirishga erishildi. Shunga qaramay hisobot davrida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi bo‘yicha tabiiy gaz qazib olish rejasi 99,5%ga, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati esa 98,3%ga bajarildi. Boshqaruv raisi tomonidan avvalambor 1 yarim yillik ko‘rsatkichlarini to‘liq bajarish bo‘yicha qattiq choralar ko‘rish, shuningdek, o‘sish sur’atini ta’minlash borasida qo‘shimcha tadbirlar ishlab chiqish, barcha imkoniyatlardan foydalanish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berilgan. Boshqarma direktori tomonidan konlarda olib borilayotgan tadbirlar bo‘yicha hisobotida yangi gaz quvurlarini qurish, texnologik jarayonlarni yaxshilash maqsadida gazni dastlabki tayyorlash qurilmalari qurilishidagi muammoli masalalar va ularni yechimi muhokama qilingan. Uglevodorodlarni qazib chiqarishni oshirish dasturi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar ham ko‘rib chiqilib, gaz quvurlarini qurilish ishlari va moddiy tovar boyliklarini o‘z vaqtida yetkazib berish, qurilish montaj ishlarini belgilangan muddatlarda tugatish yuzasidan Bosh pudradchi «Eriell» kompaniyasi mutaxassislariga ko‘rsatmalar berildi va yuklatilgan.

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida 2021 yilda 16,8 mlrd kub metr tabiiy gaz qazib olish rejalashtirilgan, bu o‘z navbatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 286,9 mln kub metr ko‘p, yoki o‘sish sur’ati 101,7%, kondensat qazib chiqarish 310,7 ming tonna, neft qazib chiqarish 109,0 ming tonna belgilangan. Ushbu qazib chiqarish prognoz ko‘rsatkichlarini ta’minlash uchun burg‘ilashdan 53 ta yangi quduqlarni ishga tushirish, mavjud 235 ta quduqlarda mukammal ta’mirlash va intensifikatsiya ishlari olib borish hamda 17 ta texnologik ob’yektlarda qurilish montaj ishlarini olib borish rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytsak mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida zamonaviy, jahon andozalariga mos keluvchi sanoat korxonalari barpo etildi. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish bo‘yicha davlat dasturi amalga oshirildi. Shuningdek, mahalliy xomashyodan foydalanishni oshirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni

ko‘paytirish maqsadida korxonalar yangi texnologiyalar bilan ta’minlash davomli amalga oshirib borildi. Yangi korxonalarning qurilishi, xususan Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasida korxonalarning barpo etilishi O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan jahon iqtisoditiga integratsiyalashuv jarayoniga xizmat qildi. Shuningdek, voha infratuzilmasini tubdan o‘zgarishi, shahar va qishloqlarning obodonlashuvi va chekka hududlarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi: 536-jamg’arma 1-ruyhat. 1991-2000yillaruchun doimiy saqlanuvchixujjatlar.

2. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi: 536-jamg’arma 1-ruyhat. 1991-2000yillaruchun doimiy saqlanuvchixujjatlar 22-23 betlar.

3. Qashqadaryo viloyati davlatarxivi: 835-jamg’arma 1-ruyhat. 1991-2000yillaruchun doimiy saqlanuvchixujjatlar.

4. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi: 835-jamg’arma 1-ruyhat. 1991-2000yillaruchun doimiy saqlanuvchixujjatlar 2-3 betlar.

5. ҚВҲА, 858- фонд, 1-рўйхат, 77-иш, 18-варақ.

6.ҚВҲА, 858-фонд, 1-рўйхат, 77-иш, 17-варақ.

ЎЗБЕКИСТОН ВА ЭРОН ИСЛОМ РЕСПУБЛИКАСИ ХАМКОРЛИК ТАРИХИДАН

Қудратов Д.Т.

Тарих фанлари фалсафа доктори (PhD), доцент

Гулистон давлат университети

Аннотация.Ушбу мақолада Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги муносабатлар тарихи, ҳамкорликнинг асосий йўналишлари кўриб чиқилган бўлиб, айниқса, иқтисодий ҳамда маданий-гуманитар соҳаларга алоҳида эътибор қаратилган. Шунингдек, Трансафғон коридори масаласи таҳлил этилган бўлиб, унда Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик муҳим ўрин тутади. Бундан ташқари, халқаро ташкилотлар, хусусан, Ислом ҳамкорлик ташкилотининг Ўзбекистон ва Эрон муносабатларида тутган ўрни ҳам мақолада таҳлил объекти сифатида ўрганилди.

Калит сўзлар: халқаро учрашувлар, шартномалар, ҳамкорлик, ИҲТ, геосиёсат, маданий алоқа.

Аннотация. В статье рассмотрены история взаимоотношений Узбекистана и Ирана, основные направления сотрудничества, особое внимание уделено экономической, культурно-гуманитарным сферам. Кроме того, рассмотрен трансафганский коридор, в котором немаловажное значение имеет взаимодействие Узбекистана и Ирана, а также роль международных организаций, в частности, Организации исламского сотрудничества во взаимоотношениях Узбекистана и Ирана, стали задачами изучения данной статьи**.**

Ключевые слова: международные встречи, договоры, сотрудничество, ОИС, геополитика, культурнке связи

Abstract. The article examines the history of relations between Uzbekistan and Iran, the main areas of cooperation, with particular attention given to the economic and cultural-humanitarian spheres. Additionally, the Trans-Afghan Corridor is discussed, in which the interaction between Uzbekistan and Iran plays an important role. The article also explores the role of international organizations, particularly the Organization of Islamic Cooperation (OIC), in the relations between Uzbekistan and Iran, which are the key objectives of this study.

Keywords: international meetings, agreements, cooperation, OIC, geopolitics, cultural ties.

Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришганидан сўнг ташқи сиёсатда тенгҳуқуқлилик, ўзаро манфаат ва яхши қўшничилик тамойилларига асосланган халқаро муносабатларни ривожлантиришни устувор вазифа сифатида белгилади. Бу жараёнда геосиёсий жиҳатдан яқин бўлган ва тарихий, маданий боғлиқликларга эга мамлакатлар билан алоқалар алоҳида аҳамият касб этди. Шу нуқтаи назардан қаралганда, Эрон Ислом Республикаси Ўзбекистон учун муҳим ҳамкорлардан бири ҳисобланади.

Ўзбекистон ва Эронни бирлаштириб турувчи омиллар қаторида халқлар ўртасидаги умумий маданий-цивилизацион илдизлар, тарихий ҳамкорлик анъаналари, ислом маданияти

ва қадриятларига оид умумийликлар, шунингдек, геоиқтисодий манфаатлар муҳим ўрин тутади. Ҳар икки мамлакат Марказий Осиё ва Яқин Шарқ минтақасида стратегик жойлашуви билан ажралиб туради ва трансконтинентал транспорт йўлакларида ўзаро манфаатдорликка эга. Тўғри, бир вақтлар Тошкент Ислом радикализмининг Эрон орқали Марказий Осиёда таъсирини кучайтиришидан ташвишланган. Бу ташвиш кўп жиҳатдан Тожикистон мухолифатининг Теҳрон томонидан қўллаб-қувватланишига асосланган эди. Ўзбекистон Республикасининг биринчи президенти И. Каримовнинг 1992 йил ноябрь ойида Эронда давлатлараро муносабатлар асослари тўғрисидаги декларацияни имзолаши билан якунланган. Эрон – Ўзбекистон мустақиллигини эътироф этган дастлабки давлатлардан бири ҳисобланади. Геосиёсий жиҳатдан икки мамлакат ҳам Марказий ва Жанубий Осиё ҳудудида жойлашган бўлиб, тарихий, маданий ва цивилизацион умумийликларга эга. Икки халқ ўртасидаги алоқалар Зардуштийлик, Буюк Соғдиёна, Эрон-Шарқ цивилизацияси ва Ислом маданияти даврларига бориб тақалади.

1990-йиллардан бошлаб, икки томонлама муносабатлар асосан савдо-иқтисодий ва транспорт-коммуникация соҳаларида шаклланиб келди. Эроннинг Бандер-Аббос ва Чобаҳор портлари Ўзбекистон учун Жанубий Осиё ва хориж давлатлари бозорларига чиқиш нуқтаси сифатида стратегик аҳамият касб этади. Шу муносабат билан, транспорт йўлакларини диверсификация қилиш масаласида икки мамлакат ўртасидаги ҳамкорлик долзарб ҳисобланар эди. Масалан, Ўзбекистон Реслубликаси биринчи Президенти Ислом Каримов 18 сентябрь 1997 йил Эроннинг Афғонистон масалалари бўйича махсус вакили Алоуддин Бўружердийни қабул қилганида, минтақавий хавфсизлик масалаларида Эрон ҳукумати юритаётган сиёсат Ўзбекистон тутган йўлга кўп жиҳатдан яқин эканини таъкидлаган [1]. Афғонистон можаросини ҳал этиш бўйича Ўзбекистон киритган таклифларга Эрон раҳбарияти ижобий фикр билдирган ва бу ҳар икки мамлакатнинг мазкур можарони ҳал этиш масаласига ёндашуви ўхшаш эканидан далолат берган. Алоуддин Бўружердий Эрон раҳбариятининг Афғонистон можаросига муносабати ҳақида гапириб, бу муаммонинг ечимини топишда Ўзбекистон билан ҳамкорлик яхши натижалар беришига умид билдирган эди. Шунингдек, эронлик меҳмон Ислом Каримовга 1997 йил Теҳронда форс тилида чоп этилган «Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида» китобини тақдим этди.

Ўзбекистон ва Эрон вакиллари билан учрашув 2003 йилда хам бўлган, шу даврда Бош вазир бўлган Шавкат Мирзиёев ва Эрон Ислом Республикасининг биринчи вице-президенти Муҳаммад Ризо Ариф ўртасидаги суҳбат давомида ўзбек-эрон ҳамкорлигининг долзарб масалалари муҳокама қилинган. Томонлар икки мамлакат ўртасидаги ўзаро муносабатлар изчил ривожланаётганини алоҳида таъкидлаганлар. Давлат раҳбарларининг расмий ташрифлари чоғида имзоланган ҳужжатлар ва эришилган келишувларнинг амалиётда тўлиқ рўёбга чиқарилиши алоҳида аҳамиятга эга экани қайд этилган.

Учрашув давомида икки томонлама муносабатларнинг ҳолати таҳлил қилиниб ҳамда ўзаро манфаатли ҳамкорликни янада кенгайтириш истиқболлари юзасидан фикр алмашилган. Икки мамлакат расмий делегациялари кенгайтирилган таркибдаги музокаралар чоғида, айниқса, савдо-иқтисодий ҳамкорлик, хусусан транспорт коммуникациялари соҳасидаги масалаларга алоҳида эътибор қаратилди.

Шуни таъкидлаш керак, Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги савдо-иқтисодий алоқалар ҳажми йилдан-йилга ошиб борган. Масалан 2004 йилнинг 10 ойи мобайнида икки мамлакат ўртасидаги товар айирбошлаш ҳажми 288 миллион АҚШ долларини ташкил этди. Бу кўрсаткич 2003 йилга нисбатан 50,4 фоизга кўп бўлган[2].

Транспорт коммуникациялари иқтисодиётнинг асосий тармоқларидан бири бўлиб, Ўзбекистон–Эрон муносабатларида муҳим ўрин тутар эди. Бу йўналишда томонлар ўртасида доимий амалий ҳамкорлик йўлга қўйилган. Мустақилликнинг илк йиллариданоқ Ўзбекистон биринчи Президенти Ислом Каримов халқаро транспорт коридорларини очиш ташаббусини илгари сурган. Ушбу ташаббуслар халқаро даражада кенг қўллаб-қувватланган. Хусусан, 2003 йил июнь ойида Президент Ислом Каримовнинг Эронга расмий ташрифи чоғида

Трансафғонистон транспорт коридорини барпо этиш юзасидан кўп томонлама келишувга эришилган. Бу масалага Ислом тараққиёт банки ҳам катта қизиқиш билдирган.

Мазкур коридор Марказий Осиёдан Форс кўрфазигача (Эроннинг Бендер-Аббос ва Чобаҳор портларига) юк ташиш харажатларини камайтиради ва минтақада халқаро транспорт алоқаларини фаоллаштиради. Лойиҳа Афғонистон ҳудудида янги йўллар қуришни, шунингдек, Ўзбекистон ва Эрондаги автомагистралларни жаҳон стандартлари асосида реконструкция қилишни назарда тутади. Бу соҳада ўзбекистонлик йўлсозлар катта амалий тажрибага эга. 2003 йилнинг ўзида Ўзбекистон мутахассислари Афғонистонда ўнта кўприк қуриб, фойдаланишга топширгани бунинг яққол исботидир[3].

Музокаралар якунларига кўра, 2003 йил 17 июнда имзоланган ҳукуматлараро ўзаро савдо имтиёзлари тўғрисидаги меморандумга қўшимча баённома имзоланди. Шунингдек, стандартлаш, метрология ва сертификатлаш соҳасидаги ҳамкорликка оид меморандум, темир йўл транспорти соҳасидаги ҳукуматлараро келишув, ҳамда нефт-газ-кимё ва кимё саноатида ўзаро манфаатли ҳамкорликни ривожлантириш бўйича “Ўзбекнефтгаз” Миллий холдинг компанияси, “Ўзкимёсаноат” акциядорлик жамияти ва Эрон Миллий нефт-кимё компанияси ўртасида ҳамкорлик шартномалари имзоланди.

Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги муносабатларнинг кейинги 2008–2018 йиллар давридаги таҳлили шуни кўрсатадики, 2008–2017 йилларда Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги сиёсий муносабатлар барқарор, лекин эҳтиёткорлик билан тартибга солинган шаклда давом этган. Икки давлат ўзаро дипломатик алоқаларни сақлаган бўлса-да, олий даражадаги расмий ташрифлар кам бўлган, айниқса 2010 йиллар бошларида. Бу ҳолат, биринчи навбатда, Тошкентнинг Эроннинг минтақадаги геосиёсий фаоллигидан, хусусан, Ислом радикализми ва шиалик таъсирининг кучайишидан эҳтиёт бўлгани билан изоҳланади. Ўзбекистон хукумати, айниқса, Эроннинг Тожикистон мухолифатига (Ислом уйғониш партияси) нисбатан эҳтимолий қўллаб-қувватловидан ташвишда эди. Бу вазият икки томонлама сиёсий алоқаларда маълум даражадаги сўстликка сабаб бўлди. Масалан,

2008–2010 йилларда икки томонлама товар айирбошлаш ҳажми ўртача $250–300 миллион атрофида бўлган.

2011–2013 йилларда Эронга нисбатан жорий этилган халқаро санкциялар туфайли банк тўловлари ва логистика соҳаларидаги муаммолар туфайли товар айланмаси пасайган.

2014–2016 йилларда айрим экспорт йўналишлари тикланган бўлса-да, савдо ҳажми ҳануз чекланган бўлиб қолди.

Ушбу йилларда Эрон компанияларининг Ўзбекистондаги инвестицион иштироки жуда чекланган бўлди. Бунинг асосий сабаблари қуйидагилар эди: Эронга нисбатан қўлланган халқаро санкциялар, маҳаллий молиявий ва ҳуқуқий муҳитдаги мураккабликлар, Эрон бизнесининг транзит ва тўлов тизимларидаги чекловлари.

Шунга қарамасдан, 2016–2017 йилларда, Ўзбекистондаги сиёсий ислоҳотлар ва ташқи сиёсатдаги очиқлик сиёсати Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг очиклик сиёсати натижасида Эрон компанияларининг қизиқиши қайта жонлана бошлади.

Масалан, 2017–2022 йиллар даврида Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги товар айирбошлаш ҳажми 32,6% га ўсиб, 325,3 миллион АҚШ долларидан 435,9 миллион долларга етди. Шу билан бирга, экспорт ҳажми 47,7% га камайиб, 267,2 миллион доллардан 139,8 миллион долларга тушди, импорт ҳажми эса 5,1 бараварга кўтарилиб, 58,1 миллион доллардан 296,1 миллион долларга етди. Эроннинг Ўзбекистон ташқи савдосидаги улуши маълум даражада ўзгарди: умумий товар айирбошлашдаги улуши 1,2% дан 0,9% га камайди, экспортдаги улуши 2,1% дан 0,7% га тушди, импортдаги улуши эса 0,4% дан 1,0% га ошди [4].

Лекин, Ўзбекистоннинг Эронга экспорт ҳажмидаги камайиш, асосан, пахта толаси етказиб бериш ҳажмининг йил сайин қисқариши ҳисобига содир бўлди. Жумладан, 2017 йилда Эронга 211,4 миллион долларлик пахта толаси экспорт қилинган бўлса, 2022 йилда бу кўрсаткич 3,3 миллион долларгача пасайиб, 64 баробарга камайди. Шу билан бирга, пахта ипи экспорти эса аксинча 4,5 баробарга ўсиб, 2017 йилдаги 16,0 миллион доллардан 2022 йилда 72,5 миллион долларга етди.

2022 йилда Ўзбекистоннинг Эрон билан экспорт-импорт структураси қуйидаги асосий товар позицияларидан иборат бўлди:

Экспорт:

№	Махсулот номи	Жами
1	Пахта ипи ва тола чиқиндилари	79,7 млн. АҚШ доллари (58%)
2	Олтингугурт	17,1 млн. (12,5%)
3	Қуруқ дуккакли сабзавотлар	13,1 млн. (9,5%)
4	Кимёвий ўғитлар	6,6 млн. (4,8%)
5	Хом ипак	5,5 млн. (4%)
6	Хизматлар	15,3 млн. (11,1%)

Импорт:

№	Маҳсулот	Жами
1	Полимерлар ва пластмасса буюмлари	78,3 млн. (29%)
2	Қора металлдан ясалган буюмлар (арматура, бурчаклар, прокат маҳсулотлари ва ҳ.к.)	62,3 млн. (23%)
3	Машина ва ускуналар (турли механизмлар, тош езгичлар, мотор қисмлари ва ҳ.к.) –	27,4 млн. (10%)
4	Мевалар, сабзавотлар ва озиқ-овқат маҳсулотлари (хурмо, киви, ситрус, картошка, сут маҳсулотлари ва б.)	27,4 млн. (10%)
5	Кимёвий моддалар (спиртлар, бўёқлар ва б.)	18,9 млн. (7%)

2023 йилнинг январь–апрель ойлари натижаларига кўра, 2022 йилнинг шу даврига нисбатан Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги товар айирбошлаш ҳажми 11,9% га ўсиб, 166,5 миллион доллардан 186,3 миллион долларга етди. Экспорт ҳажми 34,6% га кўтарилиб, 49,7 миллион доллардан 66,9 миллион долларга ортди. Импорт ҳажми эса 2,2% га, яъни 116,8 миллион доллардан 119,4 миллион долларгача ўсди [5].

Ўзбекистоннинг Эронга экспорт салоҳияти Марказий иқтисодий тадқиқотлар институти (ЦЭИР) таҳлилига кўра, Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги савдо, инвестиция, саноат кооперацияси, логистика ва транспорт, амалиётий фан ва технологиялар соҳаларида катта салоҳият мавжуд.

Хусусан, Эронга қуйидаги маҳсулот турлари экспортини кенгайтириш орқали ҳамкорликни кучайтириш имкониятлари мавжуд: Қуруқ дуккаклилар, тўқимачилик маҳсулотлари (пахта матолари, сальфеткалар, тайёр кийимлар), теридан тайёрланган маҳсулотлар, шу жумладан пойафзал, айрим турдаги маиший техника (кондиционерлар, кир ювиш машиналари, иситгичлар), маиший кимё маҳсулотлари, лак ва бўёқлар, айрим турдаги дори воситалари ва озиқ-овқат маҳсулотлари.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда 397 та Эрон инвестицияси иштирокидаги корхона фаолият юритмоқда. Улардан 212 таси қўшма корхона, 185 таси тўлиқ хорижий капитал асосида ташкил этилган. 2024 йилда мамлакатда 105 та янги эронлик субъект рўйхатдан ўтказилди. Таҳлилларга кўра, сўнгги беш йил мобайнида ушбу кўрсаткич қарийб уч баробарга ошган.

Сўнгги уч йилда Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги ўзаро товар айирбошлаш ҳажми деярли икки бараварга ўсди. Томонлар савдо айланмасини 1 миллиард долларга етказиш мақсадида амалий чора-тадбирлар дастурини қабул қилиш, имтиёзли савдо тўғрисидаги битимни тезлаштириш, шунингдек, “Made in Iran” ва “Made in Uzbekistan” кўргазмаларини ҳар икки мамлакат ҳудудида ўзаро ташкил этиш масалалари юзасидан келишиб олдилар. Шу билан бирга, қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат хавфсизлиги соҳасида ҳамкорликни чуқурлаштириш, маданий-гуманитар алоқаларни ривожлантириш юзасидан аниқ чора-тадбирлар белгиланди[6].

Транспорт ва транзит соҳасида Эрон билан муносабатларни ривожлантириш Ўзбекистон учун стратегик аҳамият касб этади, чунки мамлакат очиқ денгизларга чиқиш имкониятига эга эмас. Бу борада Форс кўрфазидаги Эрон портлари Ўзбекистон учун хавфсиз ва қисқа йўл сифатида қаралмоқда.

Шунингдек, Ўзбекистон ва Эроннинг “Киш”, “Чобаҳор”, “Арас” эркин иқтисодий зоналари билан Ўзбекистондаги “Навоий” ва “Ангрен” эркин иқтисодий ҳудудлари ўртасида

ишлаб чиқариш кооперацияси асосида самарали ҳамкорлик юритиш истиқболларини муҳокама қилдилар.

Ўзбекистон ва Эрон тадбиркорлари ўртасида саноат кооперациясини чуқурлаштириш масалалари кўриб чиқилмоқда. Бу борада агросаноат мажмуаси, сув ресурсларини бошқариш, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, қора металлургия, машинасозлик, енгил саноат ва тиббиёт соҳалари устувор йўналишлар сифатида белгиланган.

Жорий йилда "Ўзчармсаноат" уюшмасида Эроннинг EXIM компанияси вакиллари билан бўлиб ўтган учрашувда тайёр маҳсулотлар ҳамда яримтайёр хомашёни Эронга экспорт қилиш, шунингдек, теричилик ва пойафзал саноатига инвестицияларни кўпайтириш масалалари муҳокама қилинди. Шунингдек, учрашувда полиуретан ва бошқа хомашёларни Эрондан Ўзбекистонга импорт қилиш борасидаги техник ва иқтисодий жиҳатлар ҳам атрофлича кўриб чиқилди [7].

Таъкидлаш жоизки, EXIM компанияси йирик экспорт-импорт субъектларидан бири ҳисобланади. У ўз фаолияти давомида Ўзбекистон корхоналари учун мавжуд эмас ёки етишмайдиган хомашёни етказиб бериш билан шуғулланади. Компания мутахассисларининг малакали жамоаси ижобий бозор конъюнктурасини ўрганиш, сифатли маҳсулот етказиб бериш, миллий стандартлар ва истеъмолчи ҳуқуқларига риоя этиш борасида юқори даражадаги профессионал ёндашувни намоён этмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ва Эрон Ислом Республикаси ўртасидаги муносабатлар нафақат сиёсий ва иқтисодий соҳаларда, балки маданий-гуманитар соҳада ҳам изчил ривожланиб келмоқда. Икки давлат ўртасидаги маданий алоқалар кўп асрлик тарихий умумийлик, цивилизацион яқинлик ва тил-маданиятнинг уйғунлиги асосида шаклланган [8].

Ўзбекистон ва Эрон халқларини буюк Шарқ тамаддуни, Ислом маданияти, ҳамда илмий ва адабий мерос боғлаб туради. Абдулқодир Бедил, Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий, Форобий, Ибн Сино каби мутафаккирлар икки халқнинг умумий маънавий бойлиги ҳисобланади. Икки давлат ўртасида ушбу меросни сақлаш, ўрганиш ва тарғиб қилиш бўйича қўшма илмий тадқиқотлар ва тадбирлар ўтказилмоқда.

Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги маданий-гуманитар ҳамкорликда таълим муассасалари ўртасида тузилган меморандумлар муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, форс тили ва адабиётини ўрганиш соҳасида ҳамкорлик кенгаймоқда. Ўзбекистондаги олий таълим муассасаларида форс тили ва Эрон адабиёти бўйича курслар ташкил этилган, Эрон университетларида эса ўзбек тили ва маданиятига қизиқиш ортиб бормоқда.

Икки давлат ўртасида мунтазам равишда "Шарқ Тароналари", "Наврўз" каби маданий фестивалларда иштирок, қўшма кўргазма ва анжуманлар ташкил этиб келинмоқда. Эроннинг Бухоро ва Самарқандга бўлган маданий қизиқиши, Ўзбекистон аҳолисининг Исфаҳон, Шираз, Язд каби шаҳарлар билан танишуви туризм соҳасида ҳам ҳамкорликни ривожлантирмоқда.

Ўзбекистон ва Эрондаги нашриётлар ўртасида ҳамкорлик доирасида адабий ва илмий асарларнинг ўзаро таржимаси фаоллашган. Алишер Навоий, Абдулла Қодирий, Ҳофиз, Саъдий ва бошқа зиёлиларнинг асарлари икки тилда нашр этилмоқда, бу эса халқлар ўртасидаги маънавий яқинликни мустаҳкамлайди.

Ўзбекистон Республикаси ва Эрон Ислом Республикаси ўртасидаги кўп томонлама ҳамкорликнинг муҳим йўналишларидан бири — Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти (ИҲТ) доирасидаги алоқалардир. ИҲТ — 57 аъзо давлатни бирлаштирган, дунёдаги иккинчи йирик халқаро ташкилот бўлиб, мусулмон мамлакатлари ўртасида сиёсий, иқтисодий, маданий ва ижтимоий ҳамкорликни мустаҳкамлашни мақсад қилади[9].

Ўзбекистон 1996 йилдан буён ИҲТ аъзоси ҳисобланади. Мамлакат ИҲТ доирасида терроризм, экстремизм ва исломофобияга қарши кураш, савдо-иқтисодий муносабатларни ривожлантириш, таълим, илм-фан ва маданият соҳаларида фаол иштирок этиб келмоқда.

Эрон эса ИҲТнинг таъсисчи давлатларидан бири сифатида ташкилотда етакчи ўринлардан бирини эгаллайди. Ўзбекистон ва Эрон ИҲТнинг қуйидаги тузилмаларида ҳамкорлик қилади: Ислом тараққиёт банки, ИҲТ фан ва технологиялар ташкилоти, Ислом маданият, илм ва таълим ташкилоти (ISESCO), COMSTECH – фан ва технология бўйича ҳамкорлик

қўмитаси. ИҲТ доирасида Ўзбекистон ва Эрон ўзаро савдо, инвестиция ва технологик ривожланишни қўллаб-қувватловчи дастурларда иштирок этмоқда. Хусусан, ИҲТ Ҳамкорликда ривожланиш стратегияси–2025 доирасида икки мамлакат қишлоқ хўжалиги, саноат, транспорт ва туризм соҳаларида қўшма лойиҳаларда иштирок этиш имкониятига эга [10].

ISESCO (Ислом таълим, фан ва маданият ташкилоти) орқали Ўзбекистон ва Эрон ўртасида таълим лойиҳалари, академик алмашинувлар, маданий тадбирлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистоннинг Самарқанд ва Бухоро каби шаҳарлари ИҲТнинг “Ислом цивилизацияси пойтахти” сифатида тан олинган, бу эса маданий ҳамкорликни янада чуқурлаштиради.

Ўзбекистон ИҲТ саммитлари ва вазирлар конференцияларида халқаро хавфсизлик, тинчликпарварлик, диний бағрикенглик ва минтақавий ҳамкорлик масалаларида Эрон билан ёнма-ён чиқиш қилган. ИҲТ доирасида икки давлат жаҳондаги ислом динига қарши бўлган тажовузкор ёндашувларга қарши умумий позицияни қўллаб-қувватламоқда.

ИҲТ доирасидаги Ўзбекистон ва Эрон ҳамкорлиги — бу нафақат диний яқинлик, балки стратегик ва амалий шерикликни англатади. Ушбу ташкилот доирасидаги муносабатлар икки мамлакат ўртасидаги икки томонлама ҳамкорликни мустаҳкамлаш билан бирга, ислом оламидаги умумий муаммоларни ҳал этишга қаратилган ёндашувларни яқинлаштиришга хизмат қилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистон ва Эрон ўртасидаги муносабатлар сўнгги йилларда барқарор ривожланиб, кенг қамровли ҳамкорлик даражасига кўтарилди. Икки мамлакат сиёсий, иқтисодий, транспорт-логистика, маданий-гуманитар ва инновацион соҳаларда ўзаро манфаатли муносабатларни мустаҳкамлаб бормоқда.

Трансафғон транспорт йўлаги, қўшма инвестиция лойиҳалари, эркин иқтисодий зоналар, стандартлаш ва техник тартибга солиш, шунингдек, фармацевтика ва нефть-газ соҳаларидаги келишувлар икки давлат алоқаларининг амалий асосларини ташкил этмоқда. Маданий ва илм-фан соҳасидаги ҳамкорлик, қадимий меросни ўрганиш, инновациялар ва технология трансфери юзасидан режалар ҳам алоҳида аҳамиятга эга.

Қисқача айтганда, Ўзбекистон ва Эрон муносабатлари яқин қўшничилик ва ўзаро ишонч тамойилларига асосланган ҳолда стратегик ҳамкорлик сари интилиб, минтақавий барқарорлик ва тараққиётга хизмат қилмоқда.

Фойдалинилган адабиетлар

1. Халқ сўзи 1997 йил 19 сентябрь
2. Месамед Владимир Иран - Узбекистан: трудный диалог // Россия и мусульманский мир. 2010. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iran-uzbekistan-trudnyy-dialog (дата обращения: 03.05.2025).
3. Узбекистан и Иран: сотрудничество между двумя странами имеет хорошие перспективы// ttps://uza.uz/ru/posts/uzbekistan-i-iran-sotrudnichestvo-mezhdu-dvumya-stranami-imeet-xoroshie-perspektivy_493925?ysclid=m
4. O’lmasov S. Eron va markaziy osiyo davlatlari hamkorlik aloqalarining boshlanishi davlatlararo munosabatlarning rivojlanishi. Академические исследования в современной науке.– С 14–19.
5. Халқ сузи 19 июн 2023 йил
6. Каримов, Ўктам Менглиевич ЎЗБЕКИСТОН-ЭРОН МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТЎСИҚЛАРГА БИР НАЗАР // ORIENSS. 2022. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-eron-madaniy-alo-alari-va-ularning-rivozhlanishi-y-lidagi-t-si-larga-bir-nazar (дата обращения: 03.05.2025).
7. Абдурахмонов О. Транспорт йулаклари - иктисодиётнинг кон томири. -"Халк сузи", 2022 йил, 26-феврль.
8. Karimov F.E. Yaqin Sharqdagi etnosiyosiy muammolar va mintaqaviy xavfsizlik masalalari / Monografiya. - "Sharq" nashriyoti; ToshDShI, 2016. - 224 b.;
9. Muxammadsidiqov M. M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013.–34б.
10. O'zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti: hamkorlik yo'lida yana bir qadam. http://pravacheloveka.uz/oz/news/ozbekiston-va-islom-hamkorlik-tashkiloti-hamkorlik-yolida-yana-bir-qadam/ 20.02.2023.

SHAHARLAR MA’MURIY TUZILISHIDAGI O’ZGARISHLAR VA SHAHARLARDAGI QURULISH VA BUNYODKORLIK ISHLARI.
(Qashqadaryo viloyati misolida)

Qo’chqorov Q.
ShDPI mustaqil tadqiqotchisi

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarning shaharlari infratuzilmasini yuksalishi tufayliyirik madaniy hamda ilmiy markazlariga aylandi.Sanoat korxonalaridan olinayotgan daromadlar hisobidan shaharlarning infratuzilmasini taraqqiy ettirishva shaharlarni yangi sanoat markazlariga aylantirish davlat siyosatiga aylandi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, sanoat va qurilish korxonalarining ishlab chiqarish quvvatining pasayishi shaharlarning budjet ta’minotiga, ish haqidan tashqari, ijtimoiy-maishiy turmush tarziga, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish, uy-joy qurilishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Qarshi, Shahrisabz, Muborak, G‘uzor shaharlaridagi sanoati korxonalarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari asosan birlamchi qayta ishlangan mahsulotlar bo‘lib, konserva mahsulotlari Rossiyaning sanoat shaharlariga jo‘natilar edi. Eski texnologiyaga asoslangan oziq-ovqat sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatsizligi tufayli, do‘konlarning peshtaxtalaridayillab turib qolar, natijada ish haqi va qo‘shimcha imkoniyatlar uchun zarur mablag‘larda tanqislik yuz berar edi.

Mustaqilikning dastlabki yillarida eski sanoat korxonalarini tiklash imkoniyati yo‘qligi tufayli, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida, kichik va o‘rta hamda qo‘shma korxonalarni qurib ishga tushirish asosida muammolarni bartaraf etishga qirishildi. Qarshi, Shahrisabz shaharlarida 1992 yildan boshlab kichik va qo‘shma korxonalarni qurish hamda ishga tushirish masalasida dastlabki natijalarga erishildi.

Ushbu shaharlarda sanoat ishlab chiqarishini tubdan isloh qilinishi natijasida ijobiy natijalarga erishildi. Chunki, ushbu mintaqalardagi sanoatkorxonalarisovet hokimiyati davrida nihoyatda sust rivojlangan, faqat mahsulotga birinchi qayta ishlov berishga moslashtirilgan edi. Katta imkoniyatlar bo‘lishiga qaramasdan, tayyor iste’mol mahsulotlarini nooziq-ovqat yo‘nalishiga ruxsat berilmagan edi. Sanoatdagi qoloqlikni bartaraf etish masalasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. Shu davrda mavjud sanoat korxonalarinimodernizatsiya qilish, xalqaro standartlar asosida tovar ishlab chiqarish yangi ishlab chiqarish korxonalarini qurish muhim masalaga aylandi.Ayniqsa, asosiy aholi markazi hisoblangan shaharlarda sanoatni tub islohotlar asosida qayta qurish, ularni zamonaviy talab asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga moslashtirish, sanoat korxonalarini rivojlantirish asosida shahar aholisini ish bilan ta’minlash, aholining moddiy turmush tarzini yaxshilash, shahar infrasturukturasini tubdan yangilash, davlat mustaqilligining iqtisodiy tamoyillarini mustahkamlash diqqat markazida turdi.

Mustaqillik yillari O‘zbekiston sanoat korxonalari hayotida ham yangi davrni boshlab berdi. 1991 yil 18 noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko‘ra, xususiylashtirish va mulkchilik shakllarini o‘zgartirish maxsus dasturlar asosida amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Respublika hukumatining iqtisodiy strategiyasi eng muhim uch vazifani, ya’ni ishlab chiqarishning pasayishini to‘xtatish, iqtisodiy yuksalishning asosi sifatida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishni hal qilishga yo‘naltirildi.

1990 yillar boshlarida O‘zbekistonda 1623 ta sanoat korxonasi bo‘lib, shundan 92 ta sanoat korxonasi Qashqadaryo shaharlarida joylashgan edi. Sanoat korxonalari joylashgan Qarshi, Shahrisabz shaharlarida xalq iste’moli mollari ishlab chiqarishni oshirish maqsadida qo‘shimcha mablag‘lar ajratilib, mahsulot turi hamda sifatini yaxshilash maqsadida zamonaviy, yangi jahon andozalariga mos kichik, o‘rta va qo‘shma korxonalar qurilib ishga tushirildi.Natijada shahar aholisini ish bilan ta’minlash,yangi zamonaviy sanoat boshqaruv malakasiga ega mutaxassislarni tayyorlash, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, chet el sarmoyalari asosida yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini jalb etish bo‘yicha muhim tadbirlar amalga oshirildi. Qarshi,

Shaxrisabz, G‘uzor shaharlarida belgilangan reja asosida sanoatdagi mavjud qoloqlik bartaraf etilib, kundalik talab-ehtiyoj asosida mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalari o‘rnatildi. Shahar aholisi uchun zarur bo‘lgan mahsulotning tannarxi arzonlashtirilib, korxonalarning ishlab chiqarish imkoniyatlari yildan-yilga oshib bordi, sanoat korxonalarida ish o‘rinlari soni ko‘paydi.

Qashqadaryo viloyatidagi Muborak, Koson, G‘uzor, Kitob, Shahrisabz shaharlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash hamda yoqilg‘i resurslarini qazib olish bo‘yicha O‘zbekistonda muhim o‘rin egallaydi. Viloyat shaharlari respublikada qazib olinadigan tabiiy gazning 88%, neftning 92%, kondensatning 99,6%, oltingugurtning 100% ni beradi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari bo‘lgan Koson yog‘-ekstraksiya, Shahrisabz pillakashlik, Qarshi tikuvchilik fabrikalari, Qashqadaryo marmar aksiyadorlik jamiyati va boshqa 49 ta qo‘shma korxona mustaqillik yillarida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiya asosida o‘zining iqtisodiy salohiyotiga ega bo‘ldi.

Qashqadaryo shaharlarining asosiy sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish 1782 mln so‘mga oshib, 93 ta asosiy sanoat va 743 ta yordamchi sanoat korxonalari tashkil etildi. Surxondaryo viloyatining qayd etilgan shaharlaridagi sanoat korxonalarida ishlovchi ishchilar soni 29961 kishini, asosiy sanoat korxonalarida ishlovchilarning soni 20201 kishini tashkil etdi.

Shaharlarda xalq xo‘jaligi har tomonlama rivoj topdi, bank, moliya-kredit tizimlari takomillashtirildi, uni jahon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy valyutani iqtisodiy jihatdan mustahkamlash masalasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. 1991-1993 yillarda aholi turmush darajasining pasayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlari ko‘rildi. Bu davrda dastlabki iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishipul-kredit siyosatini o‘zgartirishda muhim omil bo‘ldi.

Shaharlarda sanoatni rivojlantirishuchun aniq chora-tadbirlar ko‘rila boshlandi. Yengil sanoat korxonalari eng yangi texnologiyalar bilan ta’minlandi.Ayniqsa, paxta tozalash sanoati sohasida katta o‘zgarishlar yuzaga keldi. Negaki, Sovet Ittifoqi davridagi respublikalararo aloqalar uzilgach, ta’minotda qiyinchiliklar ro‘y bergan edi. Ko‘pgina paxta tozalash zavodlaridagi ehtiyot qismlar, asbob-uskunalar va jihozlar yetishmay qoldi. Korxonalar bu muammolarni ijobiy hal etish uchun o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalandi. Bu, albatta, o‘zining ijobiy natijalarini berdi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida shaharlardagi sanoat korxonalari, qator zavod va fabrikalar elektr energiyasi harajatlarining oshib borishi sababli energiyani tejash yo‘llarini izlab topdilar. Bunday korxonalar biri Termiz shahar paxta tozalash zavodi bo‘lib, bu yerda 1993 yilga qadar 100 kvt quvvat beradigan o‘nlab elektr motorlaridan foydalanib kelinar edi. 1993 yilga kelib esa, bu motorlar 55-70 kvt li motorlarga almashtirildi. Buning ustiga, bekor turgan asbob-uskunalar soni ham kamaytirildi.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlar o‘tkazilar ekan, dastlab asosiy e’tibor sanoat korxonalarini xususiylashtirishda miqdor ko‘rsatkichlariga, ya’ni qancha korxona mulk shaklini o‘zgartirganiga qaratildi. 1995 yildan boshlab, xususiylashtirishning sifat ko‘rsatkichlariga talab kuchaydi. Bunda xususiylashtirilgan korxonalar qanday shaklga kirayotgani, ular nechog‘liq samara berib ishlayotgani va iqtisodiyotga qanchalik naf keltirayotgani muhim bo‘lib qoldi. Bu davrga kelib, sanoat mahsuloti hajmining 50 foizdan ko‘prog‘i nodavlat sektorining hissasiga to‘g‘ri keldi. Ishlab chiqarish sohasiga e’tibor kuchaydi. Natijada 1997 yilda mamlakatda mahsulot ishlab chiqarish 976,8 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 123,3 mlrd.so‘mga tengini janubiy shaharlar yetkazib berdi. 2007 yilga kelib, respublikada ishlab chiqarilgan mahsulotning 13 foizini yoki 3680,0 milliard so‘mni janubiy shaharlar ulushi tashkil qildi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 1996 yilga nisbatan, respublikada 1997 yilda 103,3 foiz, Qashqadaryo shaharlarida 97,5 foiz, Surxondaryo shaharlarida 100,2 foizni tashkil etdi. 2007 yilga kelib, bu ko‘rsatkich mamlakatda 107,9 foizga, Qashqadaryo shaharlarida 107,3, Surxondaryo shaharlarida 105,9 foizga o‘sdi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mustaqillikning dastlabki yillarida shaharlardagi sanoat korxonalarida texnik asbob-uskunalarning yetishmasligi, natijasida, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ma’lum miqdorda pasaydi. Ayniqsa, xom ashyo mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarda ushbu holat yaqqol sezildi. Ko‘plab ishchi-xodimlarning Rossiya va MDH hududlariga ketib qolishi muxandis-texnik xodimlarning sifat ko‘rsatkichlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Natijada ishlab chiqarish sifat va son jihatdan belgilangan rejalarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmadi. Nodavlat mahsulot ishlab chiqarish korxonalari rejani 92,9 foizga bajardi. Janubiy hududlarga shaharlaridagi mavjud 127 sanoat korxonasining 19 tasida mahsulot ishlab chiqarish mahsuldorligi ancha pasaydi.

Aholi ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan 47 turdagi sanoat mahsulotining 23 turi aholining talab-ehtiyojlarni qondira olmadi. Shuningdek, sifatsiz sanoat mahsulotlari tayyorlanganligi tufayli 1996 yili 1128 mln so‘mlik mahsulotlar xarid qilinmadi. Buning natijasida belgilangan davlat rejasini Denov agrosanoat korxonasi 85 foizga, Jarqo‘rg‘on g‘isht zavodi 69,9 foizga, AO «Tong yulduzi» 29,5 foizga, Sherobod sut-yog‘ zavodi esa 95,1 foizga uddaladi, xolos.

2000 yil 1 aprel holatiga ko‘ra, Qashqadaryo shaharlarida 12475 ta kichik va o‘rta biznes korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan. Shulardan 712 tasi o‘rta korxonalar bo‘lib, 1803 tasini kichik korxonalar va 9960 tasini mikrofirmalar, ularda ishlovchilar soni esa 87,1 ming kishini tashkil etadi. 2000 yilda qayta ishlangan gaz 27324 mlrd. m3, oltingugurt ishlab chiqarish 217.5 ming tonna, barqarorlashtirilgan kondensat ishlab chiqarish 556 ming tonna, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish 13.5 ming tonnani tashkil etdi. Respublikada aholi jon boshiga 2600 so‘mlik iste’mol mollari ishlab chiqarilgan. Jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shaharlarida mazkur ko‘rsatkich 1082 va 1235 so‘mni tashkil etgan. Bu esa viloyatlar shaharlarida pulning emissiya darajasi g‘oyatda yuqori ekanligini anglatar edi. Bundan tashqari, xorijiy sarmoyalar ishtirokida tuzilgan qo‘shma korxonalar kamligi xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarish hajmining pasayib ketishga olib keldi. Shu bois, import o‘rnini bosuvchi mollarni ishlab chiqaruvchi yangi korxonalar tuzishga, mavjud quvvatlarni qayta jihozlashga, tadbirkorlikni rag‘batlantirishga e’tibor qaratildi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shaharlarida O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy bo‘linishida salmoqli o‘rin egallaydi. Shuningdek, bu ikki voha mamlakatimiz hayotining barcha jabhalaridagi tub o‘zgarishlarda o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda.

2000 yilning 1 oktabr holatiga ko‘ra, Qashqadaryo shaharlarining sanoat korxonalarida 3 mlrd 180 mln so‘mlik tayyor mahsulotlar omborxonalarda sotilmay qoldi. Agar 1999 yilgi holat bilan solishtirilsa bu ko‘rsatkich 1999 yilga nisbatan 27 foizga ko‘payganligini ko‘rish mumkin. Jami sotilmay qolgan mahsulotning 1 mlrd 915 mln so‘mligi yoki 60,2 foiz paxta sanoati korxonalari, 1 mlrd 265 mln so‘mligi boshqa soha korxonalari hisobiga to‘g‘ri keldi. «Qarshi to‘qimachi» qo‘shma korxonasida 142,4 mln so‘mlik, Shahrisabz shahridagi «Shahrisabztekstil» hissadorlik jamiyatida 103,2 mln so‘mlik, Koson shahri «Agrosanoat» kombinati hissadorlik jamiyatida 158,4 mln so‘mlik, «G‘uzorneft» hissadorlik jamiyatida 70,8 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

2002 yilda Qashqadaryo viloyatidagi shaharlarda 39 ta qo‘shma korxona ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning 35 tasi faoliyat ko‘rsatgan. 2003 yil birinchi aprel holatiga ko‘ra, sanoat korxonalari tomonidan 114,0 mlrd. So‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va o‘sish darajasi 2002 yilning aprel oyi holatiga muvofiq, 120,1 foizni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarish yoqilg‘i-energetika, oziq-ovqat, yengil sanoat sohalarida yuqori bo‘ldi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 83,3 mlrd. so‘mga yoki jami mahsulot hajmining 73 foiziga to‘g‘ri keldi.

Urbanizatsiya jarayonlari tarixiy tahlilga olingan ushbu davrda Qashqadaryo shaharlarida qo‘shma korxonalar qurish va jadal ishlab chiqarishga jalb etish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Shahrisabz shahar un kombinati qurilishi ham 1990 yilda boshlangan, sutkasiga 250 tonna un ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘ldi. Ushbu yirik oziq-ovqat sanoati korxonasini bunyod etish mustaqillikka erishilgandan so‘ng davom ettirildi. 1996 yilda 105 million so‘mlik kapital mablag‘ o‘zlashtirilib, korxonaning birinchi navbati ishga tushirildi. Bu kombinat ishga tushirilishi bilan Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ shaharlarining aholisini un mahsulotlari bilan ta’minlash yaxshilandi. Aholiga bir meyorda non va non mahsulotlari yetkazib berish yo‘lga qo‘yildi. Boshqa hududlardan non mahsulotlarini tashib keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kamaydi, yoqilg‘i-moylash materiallarini tejash imkoniyati yaratildi.

Qarshi shahar temir yo‘l direksiyasiga qarashli vagon deposi sexlarining soni yana bittaga ko‘paydi. Bu yerda temirchilik sexi binosi qurib bitkazildi. Yangi binoning ishga tushirilishi munosabati bilan, depoda temirchilik asbob-uskunalari, vagon va g‘ildirak qismlarini yasash imkoniyati yaratildi.

O‘rganilayotgan davrda Qarshi va Termiz shaharlaridagi go‘sht korxonalariga Gollandiyaning «Super-Matik» firmasidan keltirilgan sosiska ishlab chiqarish sexi o‘rnatildi. Ikki yuz ming AQSH dollariga sotib olingan liniya soatiga 2 tonna sifatli mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega. Go‘shtni qadoqlash uchun uch juft arra uskunasi ham Gollandiyadan sotib olindi, bu arra

uskunalarning har biri smenada olti-yetti tonna go‘shtni maydalab, qadoqlab beradi. Shuningdek, korxonada AQSH keltirilgan 137 ming dollarlik kolbasa ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi.

Qashqadaryo shaharlarida xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida ham, mulkni xususiylashtirish va ko‘p ukladli iqtisodiyotni barpo qilishda katta ishlar qilindi. Birgina 1994 yilning 9 oyi mobaynida 492 ta korxona xususiylashtirildi. Shulardan 291 tasi dasturda belgilangan edi. Xususiylashtirish bo‘yicha topshiriq Qashqadaryo shaharlarida 101,4 foiz, boshqa obyektlar hisobidan esa 171,4 foizga bajarildi. 1993 yilga nisbatan xususiy korxonalar soni 2,6 martaga ko‘paydi. 1994 yilda tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan 1322 ta korxonadan 615 tasi xususiy tadbirkorlar qo‘liga o‘tdi.

1995 yil aprelida Shahrisabz shahar konserva hissadorlik jamiyatida kichik hajmdagi tunuka bankalar ishlab chiqaradigan liniya montaj qilina boshlandi. Yangi liniyani 869 ming AQSH dollariga «Krumprodmash» ishlab chiqarish birlashmasidan sotib olindi. Yangi liniya sabzavot va mevani qayta ishlash mavsumida ishga tushirildi. 1995 yilning 30 noyabrida konserva hissadorlik jamiyati konservachilari o‘z mahsulotlarini chet el talablariga javob beradigan ko‘rinishda chiqara boshladilar va buyurtmaga muvofiq Germaniya davlatiga 300 tonna tomat va olma konservalari jo‘natdilar.

1997 yilda o‘tkazilgan «Tashabbus-97» tanlovida Fyzop shahridan Muzayir Galiuyev o‘zi tayyorlagan rang-barang uy-ro‘zg‘or buyumlarini namoyish etib, «Eng yaxshi hunarmand» tanlovi g‘olibi bo‘ldi. 1998 yilda Qashqadaryo shaharlarida Davlat dasturiga asosan 47 ta korxona davlat tasarrufidan chiqarildi va mulkchilikping nodavlat shakliga aylantirildi. Xususiylashtirishdan pul mablag‘lari tushirish yillik rejasi 173,7 foizga bajarildi. 1998 yil 10 dekabrida Qarshi shahrida Germaniyaning «Tissen» konserni taqdimot marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Taqdimot marosimiga Qashqadaryodagi mavjud shaharlaridagi kichik va o‘rta biznes korxonalarining 15 ta investitsiya loyihasi taqdim etildi. Qashqadaryo shaharlarida xam kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilishiga keng yo‘l ochildi, 1998 yil iyun oyiga qadar 9870 fuqaro yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullandi.

Qarshi shahridagi«Ufq» biznes-inkubatori 2000 yilda tashqi iqtisodiy aloqalarniyo‘lga qo‘yish va uni mustahkamlash yo‘lida ham faol ish olib bordi. «Ufq» biznes-inkubatorida Ukrainaning «Torgoviy fond»i bilan «Kraz» rusumli yuk avtomobillarini ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shma korxona tuzish haqida muzokaralar olib borildi. Bunda O‘zbekiston tomonidan «Avto-100» jamoa korxonasi hamkorlikka da’vogarlardan biri bo‘ldi.

2002 yilda Qashqadaryo shaharlarida 7875 ta kichik va o‘rta biznes korxonasi bunyod etildi, ularning umumiy soni 23052 taga yetdi. Ushbu sohani rivojlantirish xisobidan 40 mingdan oshiq ish o‘rinlari yaratildi. Ularning 88,9 foizi yoki 36 mingtasi qishloq joylariga to‘g‘ri keldi. 2002 yilda Qashqadaryo shaharlarida 39 ta qo‘shma korxona ro‘yxatdan o‘tganiga qaramasdan, 35 tasining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2002 yilda 5 ta qo‘shma korxona tashkil etildi. 2002 yilda Qarshi shahrining Shayxali qo‘rg‘onida yakka tartibdagi tadbirkor Samar Temirov sutni qayta ishlash sexini ishga tushirib, o‘rtacha bir kunda 500-600 litr sutdan iste’molchilarga kefir, qaymoq, tvorog, brinza, golland pishlog‘i kabi mahsulotlarni yetkazib bera boshladi.

Qarshi shahrida Turkiyaning «Yazeks» korporatsiyasi bilan hamkorlikda ipak paxta tolasini qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallangan to‘qimachilik majmuini qurish ishlari 1993 yilning aprelida boshlandi. 1997 yilda Qarshi shahrida Qarshi yog‘-ekstratsiya hissadorlik jamiyatiga qarashli «O‘zbek-Singapur» qo‘shma korxonasida yog‘ qadoqlash sexi ishga tushirildi. Kuniga 20 tonna yog‘ni qadoqlash quvvatiga ega bo‘lgan bu sex Tayland, Italiya, Yaponiya davlatlaridan keltirilgan eng zamonaviy asbob - uskunalar bilan jihozlandi. Qarshi shahridagi yog‘ ekstraksiya hissadorlik jamiyatida plastik idishlarda mineral suv chiqaradigan «O‘zbek-Singapur» qo‘shma korxonasi, poyafzal va galanteriya mollari ishlab chiqaradigan «Abusiya» qo‘shma korxonalari ham ishga tushirildi. 1996 yilda Qarshi shahridagi “Qashteks” to‘qimachilik majmui ishga tushirildi. Italiyaning “Orizio” firmasidan keltirilgan 11 ta to‘quv dastgohi bilan bir kecha- kunduzda bir tonna 300 kilogrammgacha polotno to‘qilishi ta’minlandi. Qashteksda ish to‘liq avtomatlar yordamida kompyuterlarda bajariladi. Zavod bir yilda 2500 tonna paxta tolasi ishlab chiqarish quvvatiga ega. «Qashteks»da 12 turda ichki-trikotaj kiyimlari ishlab

chiqariladi. 1996yil oxirigacha 100000 dan ziyod futbolka, 300 000 dan ziyod komplekt bolalar kiyimlari tikishga muvaffaq bo‘ldilar.

Rossiya Federatsiyasidan keltirilgan asbob-uskunalarni o‘rnatish natijasida, 2010 yilda Shahrisabz shahrida bir kunda 1 tonna issiq non ishlab chiqaradigan sex ishga tushdi. Bu kichik sexda 5 nafar novvoy qishloq mexnatkashlari talabiga mos qolipli non va shirmoy nonlarni pishirib bera boshladi.

Shahrisabz shaharidagi «Oqsaroy-to‘qimachi LTD» O‘zbekiston- Yaponiya-Turkiya qo‘shma korxonasida 2010 yil davomida 7 million 256 ming AQSH dollari miqdorida mahsulot ishlab chiqarildi. 2003 yilning 1 yanvariga qadar «Oqsaroy-to‘qimachi LTD» ning jamoasi 3527,4 tonna mahsulot, jumladan, 3141,4 tonna ip-kalava, 386 tonna trikotaj matosi ishlab chiqardi. Eksport hajmi 6 million 87 ming dollarni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning qolgan qismi ham Turkiyaning «Burseltekstil» firmasiga jo‘natildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tadqiq qilingan yillarda O‘zbekistonning janubiy shaharlarida sovet hokimiyati davridagi xalq iste’moli mollarining aksariyatini tashqaridan keltirishga asoslangan tartibdan to‘la-to‘kis voz kechildi.Oziq-ovqat va nooziqovqat mahsulotlarining yangi-yangi turlarini yaratishga muvaffaq bo‘lindi. Shahar va qishloqlarda xalq iste’moli mollari ishlab chiqarishga moslangan zavod va fabrikalar, kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilib, mamlakatida va xorijda ishlab chiqilgan mehnat unumi yuqori, samaradorligi yuksak, tannarxi nisbatan arzon, jahon bozorlarida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar hosil qilishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘z MA, I 8-fond,1-ro‘yxat,323-hujjatlar, 14-16-varaqlar.
2. O‘zMA, I 8-fond,1-ro‘yxat,323-hujjat, 68-varaqlar.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти девони архивининг Қашқадарё вилояти филиали жорий архиви. 829-фонд. 4-рўйхат. 37-йиғма жилд. 43-варақ.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni arxivining Qashqadaryo viloyati filiali joriy arxivi. 829-fond, 10-ro‘yxat, 94-yig‘ma jild, 45-varaq.
5. O‘z MA. I 15-fond, 1-ro‘yxat,847-hujjat,42-47-varaqlar.
6. Ҳашар йўли билан. Қашқадарё. ҳақиқати. 2000. 23 август. –Б. 2.
7. QVDASHF. 855-fond, 1-ro‘yxat, 99-ish. 20-22-varaqlar.
8. Iqtisodiy samaradorlik. Qashqadaryo. 1999 yil 9 fevral.
9. Islohotlarni yangi pog‘ona ko‘tarish iqtisodiy taraqqiyot omilidir. Qashqadaryo. 2003. 4- fevral.- B.24.
10. Жуманов А., Манзаров Ю. Қаштекс юксалиш йўлида. –Тошкент: Шарқ, 2001. –Б.8.
11. Қашқадарё вилояти статистика бош бошқармаси. –Қарши, .№-1 китоб, 1991-2011.. –Б.22.
12. Қашқадарё вилояти статистика бош бошқармаси. –Қарши: 2005-2010. –Б.18.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING SOG`LIKNI SAQLASH SOHASIDAGI FAOLIYATI

Samadova T.M.

Qarshi shahar 34 maktab tarix o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarning (NNT) o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada NNTlar tomonidan aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga ko‘rsatilayotgan tibbiy, psixologik va ma’naviy yordam, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, profilaktik tadbirlar tashkil etish, kasalliklarning oldini olish va aholining tibbiy savodxonligini oshirishdagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash, nodavlat notijorat tashkilot, ijtimoiy yordam, tibbiy savodxonlik, sog‘lom turmush tarzi, profilaktika.

Аннотация

В статье анализируется роль и значение негосударственных некоммерческих организаций (ННО), действующих в сфере здравоохранения. Рассматриваются направления их деятельности по оказанию медицинской, психологической и социальной помощи уязвимым слоям населения, популяризации здорового образа жизни, профилактике заболеваний и повышению медицинской грамотности населения.

Ключевые слова: здравоохранение, ННО, социальная помощь, медицинская грамотность, профилактика, здоровье населения

Abstract

This article analyzes the role and importance of non-governmental non-profit organizations (NGOs) operating in the healthcare sector. It discusses their activities in providing medical, psychological, and social assistance to vulnerable populations, promoting healthy lifestyles, organizing preventive programs, and improving public health literacy.

Keywords: healthcare, NGO, social support, medical literacy, prevention, public health.

KIRISH

Zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimi nafaqat davlat tibbiyot muassasalari, balki keng ko‘lamli jamoatchilik institutlari faoliyatiga tayanuvchi tizimga aylanmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) aynan shunday institutlar jumlasiga kiradi. Ular jamiyatning eng zaif qatlamlariga yaqin bo‘lib, insonparvarlik, ko‘ngillilik va tashabbus asosida faoliyat yuritadilar.

Sog‘liqni saqlash sohasida NNTlarning ishtiroki, ayniqsa, profilaktik tadbirlar, psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va aholining tibbiy xabardorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada ushbu yo‘nalishdagi faoliyatning huquqiy asoslari, amaliy tajribasi va istiqbollari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Nodavlat notijorat tashkilotlar sog‘liqni saqlash sohasida quyidagi yo‘nalishlarda faoliyat olib boradilar:

Aholining ijtimoiy zaif qatlamlariga tibbiy yordam ko‘rsatish (nogironlar, keksalar, yolg‘izlar);

Pandemiya, yuqumli kasalliklar, OITS, sil, gepatit kabi kasalliklar haqida aholiga ma’lumot berish va maslahatlar tashkil etish;

Psixologik va ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan treninglar va maslahatlar o‘tkazish;

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish: jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish.

Ular sog‘liqni saqlash tizimining rasmiy sektorini to‘ldiradi va ko‘pincha bevosita mahalliy jamoalarga yaqin faoliyat yuritadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekistonda NNTlar faoliyati “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa huquqiy-hujjatlar bilan tartibga solinadi. Sog‘liqni saqlash sohasida esa:

NNTlar davlat sog‘liqni saqlash muassasalari bilan ijtimoiy sheriklik asosida hamkorlik qiladi;

Davlat grantlari, mahalliy hokimliklar buyurtmalari asosida loyihalarni amalga oshiradi;

Yurtimizda mavjud “Inson qadri uchun” davlat siyosati doirasida NNTlarning roli kengaymoqda.

Bu hamkorlik tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish va sog‘liqni saqlash tizimini ijtimoiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston miqyosida sog‘liqni saqlashda faoliyat yuritayotgan mashhur NNTlarga misollar:

“Sog‘lom avlod uchun” xalqaro xayriya jamg‘armasi – onalik va bolalik muhofazasi, bepul tibbiy xizmatlar tashkil etish.

O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati – donorlik, pandemiya paytida yordam, sog‘liqni saqlash bo‘yicha targ‘ibot ishlari.

“OITSga qarshi kurashish markazi” – aholining xabardorligini oshirish, testlar va maslahatlar.

Hududiy ayollar va bolalar markazlari – reproduktiv salomatlik, ruhiy salomatlik va oilaviy psixologiya yo‘nalishida.

NNTlar faoliyati ko‘pincha xayriya mablag‘lari, xalqaro donorlar va ko‘ngillilar orqali amalga oshiriladi.

Shunga qaramay, NNTlar sog‘liqni saqlashda quyidagi muammolarga duch keladi:

Moliyalashtirishning yetarli emasligi;

Mutaxassislarning doimiy yetishmovchiligi (psixolog, terapevt, sog‘liq targ‘ibotchilari);

Ruxsatnomalar, qonuniy tartiblar bilan bog‘liq byurokratik to‘siqlar;

Mahalliy jamoalarning ba’zida NNTlarga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashi.

Shu boisdan quyidagilar tavsiya etiladi [2]:

NNTlar uchun davlat granti va subvensiyalar tizimini soddalashtirish;

Sog‘liqni saqlash bo‘yicha malakali ko‘ngilli mutaxassislar tayyorlov kurslarini yo‘lga qo‘yish;

Hududiy NNTlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali ularga nisbatan jamoaviy ishonchni oshirish;

Axborot texnologiyalari yordamida onlayn maslahat va konsultatsiyalarni ommalashtirish.

NATIJALAR

Nodavlat notijorat tashkilotlar sog‘liqni saqlash sohasida ijtimoiy innovatsiyalarni joriy qilish orqali yangi yondashuvlar taklif qilmoqda. Misol uchun:

Mobil tibbiy xizmatlar: chekka hududlarga mobil klinikalar orqali xizmat ko‘rsatish.

Sog‘liq maktablari: yurak-qon tomir, qandli diabet, ruhiy salomatlik bo‘yicha muntazam treninglar.

Interaktiv sog‘lom turmush dasturlari: yoshlar va o‘smirlar uchun maxsus loyiha shaklida.

Ijtimoiy innovatsiyalar orqali NNTlar tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish, moslashtirish va soddalashtirishga erishmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar NNTlarga sog‘liqni saqlash sohasida xizmat ko‘rsatishda quyidagi imkoniyatlarni beradi [3]:

Telegram-botlar va mobil ilovalar orqali bepul maslahatlar, dori-darmon to‘g‘risidagi axborot, test natijalarini olish.

Online psixologik yordam platformalari: maxfiylik saqlanadigan masofaviy xizmatlar.

Zoom va YouTube orqali sog‘liq bo‘yicha vebinarlar, treninglar, jonli suhbatlar.

Bular sog‘liqni saqlashning raqamli transformatsiyasida NNTlarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

NNTlar aholining sog‘lig‘ini mustahkamlashda ommalashtirish va ta’limiy kampaniyalar orqali muhim rol o‘ynaydi [4]:

“Sog‘lom yurak haftaligi”, “Sariq lenta kuni”, “Tish salomatligi kuni” kabi xalqaro tadbirlarda faol ishtirok.

Mahallalarda guruhiy suhbatlar, treninglar, sahnalashtirilgan ko‘rgazmalar orqali sog‘lom turmush ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bolalar bog‘chalari, maktablar va kasb-hunar kollejlarida profilaktik seminarlar va interaktiv darslar tashkil etish.

Bunday kampaniyalar orqali NNTlar sog‘liq madaniyatini yuksaltirish, kasalliklarning erta oldini olish va aholi ongini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Sog‘liqni saqlash tizimi rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarning siyosiy va strategik qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki tobora muhim tus olib bormoqda. NNTlar sog‘liqni saqlash sohasidagi ehtiyojlarni bevosita jamiyatdan, ayniqsa ijtimoiy zaif guruhlar orasidan aniqlab, ushbu ehtiyojlarni davlat organlariga yetkazishda ko‘prik vazifasini bajaradi. Ular sog‘liqni saqlash bo‘yicha milliy strategiyalar, qonun loyihalari va byudjet ajratmalari muhokamalarida ishtirok etib, aholining ovozini siyosiy maydonga olib chiqadi. Masalan, onalik va bolalikni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik tashabbuslarida NNTlar takliflar bilan chiqmoqda, tibbiy xizmatlarning jamoaviy nazorati, bioetika va bemorlar huquqlari bilan bog‘liq masalalarda fuqarolik pozitsiyasini ilgari surmoqda. Bunday faoliyat NNTlarning faqat ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi emas, balki ijtimoiy siyosat shakllanishiga ta’sir qiluvchi kuchga aylanishiga sabab bo‘lmoqda [5].

XULOSA VA MUNOZARA

Nodavlat notijorat tashkilotlar sog‘liqni saqlash tizimining muhim va ajralmas bo‘g‘inidir. Ular nafaqat rasmiy tibbiyot xizmatlarini to‘ldiradi, balki jamiyatdagi eng nozik ijtimoiy guruhlar bilan ishlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va tibbiy xabardorlikni oshirish borasida katta hissa qo‘shmoqda. Kelgusida bu sohada NNTlar va davlat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish,

qonunchilikni takomillashtirish va resurslar bazasini kengaytirish orqali ularning salohiyati yanada yuksaltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun, 2014.
3. Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy sayti – www.minzdrav.uz
4. “Sog‘lom turmush targ‘ibotida NNTlar ishtiroki” – “Jamiyat va tibbiyot” jurnali, 2022, №2.
5. Abdullayev, B. (2023). NNTlarning tibbiy xizmat ko‘rsatishdagi zamonaviy roli. – “O‘zbekiston sog‘lig‘i” jurnali.

SHAHRISABZDA TASHQI VA IChKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNING O’RNI.

Olimov U.N.
“Shaxrisabz” davlat muzey-qo’riqxonasi,
Katta ilmiy xodim.
Xurramov M. I.
“Shaxrisabz” davlat muzey-qo’riqxonasi,
Katta ilmiy xodim.

Annotatsiya: Maqolada Shaxrisbazning tarixiy qismida iqtisodiyotning ustivor yo’nalishiga aylanib borayotgan turizm tizimini rivojlantirish uchun xalqaro tajribalar misol sifatida keltirilgan. Ilg’or mamlakatlardagi kabi bolalar uchun muzeylar tashkil etishning istiqboli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: Muzey, Turizm, ekskursiya, O’lkashunoslik, ko’rgazmalar, art-rezidentsiya, iqtisodiyot, servis, geografiya, etnografiya, arxeologiya, tarix, restoran, mehmonxona.

Аннотация: В статье приведены примеры международного опыта для развития туристической системы, которая становится приоритетным направлением экономики в исторической части Шахрисабза. Рассматриваются перспективы создания музеев для детей, как это делается в передовых странах.

Ключевые слова: музей, туризм, экскурсия, краеведение, выставки, арт-резиденция, экономика, сервис, география, этнография, археология, история, ресторан, гостиница и банкетный зал.

Abstract: The article examines international experience that can be applied to the development of the tourism sector, which is becoming a priority area of economic growth in the historical part of Shakhrisabz. Particular attention is given to the prospects of establishing museums for children, following the practices of developed countries.

Keywords: museum, tourism, excursion, local history, exhibitions, art residency, economy, service, geography, ethnography, archaeology, history, restaurant business, hotel industry, banquet halls.

XX asrning 60-yillarida sobiq O’zbekiston SSR Kasaba uyushmasi Kengashining Turizm va ekskursiyalar bo’yicha “Turistik ekskursiya boshqarmasi” tashkil etilgan bo’lib, mahalliy aholi uchun turizm xizmat putyovkalari va yo’llanmalar berish va sayohat dasturlarini ishlab chiqish bilan shug’ullanar edi. 1964-yilda sobiq O’zbekiston SSR Ministrlar Soveti huzurida maxsus ob’ektlar, umumturistik ko’rsatkichlar va ekskursiya xizmat shakllarini takomillashtirish maqsadida “Chet el turizmi boshqarmasi” tashkil etilgan. Bunday tizim Yevropa davlatlarida 1950 yillardayoq faoliyat yuritgan va Sug’urta agentliklari bilan hamkorlikda ishlagan. O’zbekistonda 1969-1970 yillarda turistlarga xizmat ko’rsatish darajasi bir muncha yaxshilanib, chet elliklar tashrifi o’z davrida 20-30 foizga ortgan. Mustabid tuzum davrida Qashqadaryo viloyatida madaniy turizm faqatgina Kasaba uyushmalarining yo’llanmalari bilan amalga oshirilgan va unda asosiy turizm negizi yagona “Inturist” mehmonxonasi bo’lib, unda 3 ta gid-ekskursavod ishlagan, xollos. Madaniy meros obyektlarida deyarli turizm infrastrukturasi bo’lmagan. 1996-yilgacha turizmga oid statistik analizlarga ko’ra, eng katta “rekord” tashrif 6.000 ta chet ellik sayoxatchi bo’lgan va maxalliy sayoxatchilar masalasida statistik analizlar yo’q. Tuman va shaxar Maktab ta'limi bo’linmalari qoshida tashkil etilgan “O’lkashunoslik” to'garaklari statistik analiz va xisobotlar topshirmagani uchun ma'lumotlarga ega emasmiz, ammo ularning xam sayoxatchilari asosan maktab o'quvchilari bo’lib, maktabning yuqori sinf o’quvchilari o’z yaqinidagi madaniy obьektlarga sayoxatga olib chiqilgan.

1991-yilda O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng respublikada ijtimoiy, madaniy sohalarda va iqtisodiyotda, jumladan, turizm sohasida ham mustaqil islohotlarni amalga oshirila boshlangan. 1992-yil 20-oktyabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 484-son “O’zbekturizm” Milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to’g’risida” gi Qarori qabul qilingan. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora tadbirlari to’g’risida”gi, “Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O’zbekistonning 2022-2026 yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to’g’risi” gi Farmoni, “Moddiy, madaniy va arxeologik meros ob’ektlaridan foydalanishni va muhofazasini takomillashtirish to’g’risida”, “O’zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmonlari, “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar dasturi to’g’risida”gi qarori, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar turizmni taraqqiysi uchun asos bo’lib xizmat qilib kelmoqda.

Shahrisabzda tom ma'noda 1996-yilda Chubin madrasasida Amir Temur nomli moddiy madaniyat tarixi muzeyi tashkil etilganidan so'ng madaniy turizm tarmog’iga sezilarli o’zgarishlar sodir bo'ldi va shaxarning tarixiy xududida muzeylashtirish ishlari nazariy jixatlari ishlab chiqila boshlandi.

Mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo’llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo’llash, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to’plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ’ib qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Sh.M. Mirziyoevning 2022-yil 27-maydagi PQ-261-sonli qarori qabul qilingan. Unda 2022-2023 yillarda davlat muzeylarida turistlarga tashkil etiladigan qo’shimcha xizmatlarning manzilli rejasida aks etgan. Unda tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko’rsatishni rivojlantirish, sohaga xorijiy ilg’or tajribalarni samarali qo’llab, foydalanilmayotgan, turistlar uchun ochiq bo’lmagan va turistik xizmatlar ko’rsatilmayotgan madaniy meros ob’ektlarini muzeylar, ko’rgazmalar, art-rezidentsiyalar, boshqa madaniyat va turizm ob’ektlariga aylantirish choralarini ko’rish vazifalari alohida ko’rsatilgan.

Mamlakatimizda halqaro va maxalliy turizm iqtisodiyotning ilg’or yo’nalishiga aylanib bormoqda. Turizmning madaniy yo’nalishi esa O’zbekistondagi asosiy resurslardan hisoblanadi. Halqaro miqyosda oshib borayotgan turizmning xarid talabini ijobiy oshishiga yordam beradigan omillarni aniqlash, sohada madaniy va servis xizmatlar turini rivojlantirish dolzarb bulib turibdi. Bugungi kunlarda jadallik bilan sohada olib borilayotgan islohatlar chuqur ilmiy tadqiqot natijalariga asoslanishi lozim. Bunda turizm industriyasini rivoji yangicha nazariy-metodologik va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Yuzaki qaraganda, Shahrisabzda vohasida tarixiy-madaniy meros obyektlarining turizm salohiyatini oshirish masalalari, muammolari va yechimlari, rivojlanishi va tendentsiyalari masalasi oson tadqiqot mavzusidek ko’rinadi. Aslida esa turizm murakkab, fanning bir qancha tarmoqlari-iqtisodiyot, servis, geografiya, etnografiya, arxeologiya, tarix va muzeyshunoslik kabilar bilan bog’liq bo’lib, tadqiqotchidan ziyraklik, sinchkovlik va ko’plab fan tarmoqlari asoslarini fundamental tarzda bilishni talab etadi.

Turizm tushunchasiga bir qancha ma'noga ega: biror bir mamlakat fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarning doimiy yashash joyidan tibbiy, dam olish, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport, kasbiy, ishbilarmonlik, diniy va boshqa maqsadlarda vaqtincha sayohati. Shu bilan birga vaqtincha bo’lgan mamlakatdagi manbalardan daromad olish bilan bog’liq faoliyat bilan shug’ullanmasdan dam olish tushuniladi. Turizm- (turistik sayohatlar, frantsuzcha «toure» so’zidan olingan) tashrif buyuruvchilarning doimiy yashash joyidan tashqari boshqa davlat yoki hududga, mehnat faoliyatidan tashqari har qanday maqsadda sayohatlari tushuniladi. Odatda Yevropa tushunchasi va kategoriyasiga ko’ra, doimiy yashash joyidan 25-30 km. uzoqlikda dam

olishga chiqqan shaxs turist deb ataladi. Bunday sayohatni amalga oshiruvchi shaxs “turist”, “sayohatchi”, “mehmon” kabi nomlar bilan atash mumkin.

Arxitektura yodgorliklarini turizmga moslashtirish bo’yicha xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo’lsak, shuni ta’kidlash mumkinki, binolar muzey maqsadlaridan tashqari kutubxonalar, o’qish yoki kontsert zallari, mehmonxonalar, sayyohlik majmualari, turar-joy binolari, ko’plab kafe va restoranlar uchun ham foydalaniladi. Yevropa me’moriy yodgorliklarining aksariyati madaniy va ma’rifiy maqsadlarda, shuningdek, turizm va dam olish uchun ishlatiladi. Bunday ob’ektlarning katta estetik qiymati, ularni ko’plab sayyohlar uchun yanada jozibador qiladi va shuning uchun ko’proq foyda keltiradi.

Ma’lumki, Yevropada turistlarga maishiy servis xizmati sifatida kafelarning tobora ommalashib borishi qahvaxonalarning rivojlanishiga ta’sir qila boshlagan, ular ijtimoiy hayotning siyosiy va adabiy doiralarning markazlariga aylangan. Tarixiy arxitektura yodgorliklarini turizmga moslashtirish bo’yicha mahalliy va xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo’lsak, shuni ta’kidlash mumkinki, binolar juda keng doirada kutubxonalar va o’qish zallari, kontsert zallari, turar-joy binolari, san’at studiyalari, ma’muriy idoralar, kafelar, restoranlar va boshqalar sifatida ishlatilayotganligini ko’ramiz. Yevropa va Yaqin Shahrq hududlarida me’moriy yodgorliklarining katta qismi turizm va dam olish uchun foydalaniladi. Masalan Doje saroyi majmuasida XV asr boshlarida ko’rgazmalar ko’prigi (aka-uka Buon), venetsiyalik me’morlar tomonidan bunyod etilgan Avliyo Mark maydoni va Dandolo saroyida 1822-yildan boshlab imperator saroyi bo’lishi bilan birga hashamatli mehmonxona sifatida ham foydalanilib kelinmoqda.

Yevropadagi ko’pgina me’moriy yodgorliklar madaniy tadbirlar, turizm va dam olish maskanlari uchun ishlatiladi. Bunday ob’ektlarning estetik qiymati ularni turistlar uchun jozibador qiladi va shuning uchun bu kabi yodgorliklar yangi binolardan ko’ra ko’proq foyda keltiradi. Shunday qilib, arxitektura yodgorliklarini moslashtirish, iqtisodiy maqsadga ham muvofiqdir.

Masalan, butun bir tarixiy kvartalni sayyohlik muassasalari egallagan Altshaddagi (Germaniya) sayyohlik majmuasi qiziqarli misol bo’limshi mumkin. Unda tarixiy me'morchilik yodgorliklarda savdo markazlari, restoranlar va kafelar joylashgan. Kichikroq mehmonxona binolari ham binolarning yuqori qavatlarida joylashgan bo’lib, ularda faqat tashqi devorlarida asil uslub saqlangan. Uylarning ichki interyeri zamonaviy, qulay yashash sharoitlariga ega va sifatli ta’mirlangan.

Butun dunyoda turizmning ayniqsa jadal rivojlanishi aynan arxitektura yodgorliklari joylashgan hududlarda kuzatilmoqda. Unda tarixiy me'moriy binolaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin, shu bilan birga ular ham ishonchli saqlanib qoladi, ham ichki va tashqi turizmni rivojlantirish orqali davlatga katta daromad keltiradi. Qurilmalarning funktsional maqsadlari bo’yicha ishlab chiqilgan taxminiy rejasi, yodgorlik binolarining ayrim asil va yangi funktsiyalarining arxitekturaviy loyixasi O’zbekistondagi ayrim me’moriy yodgorliklarini ham turizm obyektlariga moslashtirish uchun asos bo’lishi mumkin.

O’zbekistonda bu masalada o’rnak oladigan jixatlar Xorazm viloyatida ko’p. Masalan, Xivadagi “Ichan-qal’a” muzey-qo’riqxonasida madrasalar (Matniyoz devon begi, Muhammad Aminxona, Qutlug’ Murod Inoq) restoran, mehmonxona va to’yxonaga, Olloqulixon karvonsaroyi esa savdo yarmarkasiga, mahalliy kvartal xonadonlari esa hotel va xostellarga moslashtirilgan.

Yodgorlik binolarini moslashtirish ularning iqtisodiy faoliyatinini tez tiklanishiga hamda, shahar hayotiga juda keng doiradagi - muzeylar, ko’rgazma zallari, madaniy-ma’rifiy va ma’muriy muassasalar, xizmat ko’rsatish muassasalari, turizm va dam olish maskanlarining kirib kelishiga yordam berishi mumkin.

Kichik xususiy uy mehmonxonalarni turizm maqsadida foydalanish, joriy ta’mirlash va uni zamonaviy sanitariya-texnik vositalar bilan jihozlash muxim hisoblanadi. Ayniqsa, xususiy uy mehmonxonalarni tarixiy va badiiy jihatdan ekspozitsiyalar yaratish yodgorliklarni “xususiy qimmatli muzeylar”ga aylantirilishi shaxarni yanada jozibadorligini oshiradi. Shaxrisbazdagi “Dulon tagi” uy mehmonxonasi, shuningdek maxalliy san’at vakillari tashkil qilgan badiiy galeriyalar, Qoziguzar mahallasida saqlanib kelayitgan aholi xonadaonlarining ayrim qismlari ma'lum ma'noda “xususiy qimmatli muzeylar” turiga javob bera olishi mumkin. “Xususiy qimmatli

muzeylar” atamasini o’z o’rnida uzoq vaqt saqlash lozim bo’lgan xususiy an’anaviy arxetektura yodgorliklariga nisbatan ishlatilinishi maqsadga muofiqdir.

Shu o'rinda takidlash kerakki Qashqadaryo O’zbekistonning “kuchli madaniy raqobat xududi”da joylashgan. Ya'ni, mamlakatimizdagi asosiy turistik firmalar va muassasalar qo’shni Samarqand va Buxoro shaxarlarida joylashgan. Ularning sobiq sovet davridan to bugungi kungacha shakllangan uzoq yillik amaliy tajribasi, turistlarni jalb etuvchi reklama tizimi, logistika tarmoqlari va qo’shimcha servis xizmatini tashkil etadigan tajribali yordamchi xo’jaliklari mavjud. O’zbekistonga tashrif buyuradigan asosiy turistlar Samarqand va Buxoro shaxriga joylashadilar. Bu shaxarlar O’zbekistonning “tashrif qog’ozi”ga aylanib bormoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan “Abadiy Samarqand”, “Boqiy Buxoro”, “Arda Xiva” majmualarining barpo etilishi halqaro va maxalliy turizm oqimiga yana kuchli impuls berayotganini xam ta'kidlab o’tish lozim.

O’zbekistonda turizm sohasidagi davlat siyosati va turistik salohiyatni rivojlantirishining Qashqadaryodagi amaliyoti hududda turizmni rivojlantirishda katta amaliy yordam bermoqda. Shahrisabzda turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy meros ob’ektlari qanchalik katta ahamiyatiga ega bo’lsa uning tabiati va geografik joylashuv nuqtasi ham shunchalik muhimdir. Bu borada xam tog’li qishloqlarda tashkil etilayotgan turizm lokatsiyalarining imkoniyatlari soha rivojiga o’z xissasini qo’shishi tabiiy. Qashqadaryo vohasi ziyoratgohlari mahalliy xalq ma’naviy hayotidagi o’rni, Shahrisabz xududidagi ziyoratgohlarni tarixi va turizmni rivojlantirish masalalari turizm salohiyatini oshirishda doimy yetakchi o’rin egallashi mumkin.

Dunyoda turizmga tegishli barcha davlat va jamiyat infratuzilmalari rivojlanishga bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatib, zamonaviy turizm ijtimoiy soha, transport va xizmat ko’rsatish sohalarining yuqori darajada rivojlanishiga amaliy yordam beradi. Shu o’rinda Shahrisabz turizm sohasini rivojlantirish zarurati ta’lim darajasini oshirish, aholiga tibbiy yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirish, axborot tarqatishning yangi vositalarini joriy etish kabilarga o’zaro bog’liqdir.

O’zbekistonda keyingi yillarda tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, ziyorat turizmi sohasini ravnaq toptirishga, shu orqali aholi turmush tarzini yaxshilash, ular uchun munosib hayot asoslarini yaratib berish borasida “O’zbekiston bo’ylab sayohat qil” dasturi amaliy natijalar bermoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-261-son Farmoniga asosan ichki va xalqaro turizmga qiziqish ortib borayotganini hisobga olgan holda, mamlakatimiz uchun iqtisodiy foydali sohalardan biri bo’lgan, xalqimiz tarixiy madaniyati uchun madaniy meros ob’ektlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish, arxitektura yodgorliklaridan foydalanishning maqbul usullarini, ularni moslashtirishning va organik uyg’unligini topish zarur. Zamonaviy va tarixiy arxitektura bilan birga, me’moriy yodgorliklardan zamonaviy ehtiyojlar uchun foydalanish, dam olish va maishiy xizmat ko’rsatish kabi yangi funktsiyalar xam hisobga olingan.

Bu asosda amalga oshirilgan ishlar qatorida 1925-yillardan boshlab Shahrisabz prokraturasi balansiga o’tkazilgan Shaxrisabz shaxar Zingaron mahallasida joylashgan Maxmud Aminboy uyini keltirish mumkin. Uy sobiq sovet davrida prokratura, Sud idorasi sifatida bir necha marta qayta qurilib, ma'muriy binoga moslashtirilib, 2016-yilgacha viloyat prokraturasi tassarufida bo’lgan. Sobiq Sovet davrida xovli va binolar Ichki Ishlar bo’limi ma'muriy binosi, pasport stoli va arxivi, shaxar arxivi va shaxar arxitekturasi binosi sifatida foydalanilishi vaqtlarida bir necha marta ma'muriy bino sifatida moslashtirish va qayta qurish jarayonlarini o’tagan.

Maxmud Aminboy uyi nomi bilan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaroriga asosan “Shahrisbaz” davlat muzey-qo’riqxonasi tassarufiga o’tkazilgach, muzey-qo’riqxona ma;muriyati vakolatiga kirgan vazifalarini – muzey ko’rgazmalari yaratish uchun uydagi xonalarga normal temperatura hamda yorug’lik yaratish uchun issiqlik tizimi yaratilgan. Muzeyning kutubxonasi hamda arxivi shu binoga kuchirib olib kelinib, normal ish sharoiti yaratilgan. Muzey-qo’riqxona ma’muriyati binoni jamoatchilik joyi ekanini xisobga olib, fasadni ko’rinishiga va saqlanishiga zarar yetkazmagan xolda chet ellik va mahalliy sayoxatchilar uchun zamonaviy xojatxona (WC) va sanuzel yaratgan. Bu ishlar barcha muzeylar va ko’rgazmalar uchun zaruriy infrastruktura hisoblanadi. Bir so’z bilan aytgan yangi turistik lokatsiya shakllantriligan.

Mazkur yodgorlikda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 27.05.2022 yildagi PQ-261 sonli “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” qarori 6-ilovasi 9-xatboshisida belgilangan “muzey-kafe” va “muzey restoran” tashkil etish orqali obyektda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo’yicha 2022-2023 yillar mobaynida choralar amalga oshirilgan. Bunda dizayn sifatdi xovlida o’rnatilgan ishkom o’zbek xonadonining ajralmas “kichik arxitekturasi” vazifasini o’tab, bino haqiqatdan ham milliy o’zbek xonadoniga aylanishiga katta xizmat ko’rsatgan. Bugungi kunda bu muzey-kafe binosi muzey yoki turizm sohalariga aloqador bo’lmagan boshqa tashkilotlarga berilish oqibatida o’zining turizm infrastrukturasidagi amaliy funktsiyasini yo’qotib, ma’muriy bino vazifasini o’tamoqda.

Sotsiologik so’rovnomalardagi ma'lumotlarga ko’ra, muzey ko’rgazmalaridagi sayohatchilarning ko’pchiligini yosh bolalar tashkil etadi. Bolalar muzeyi dunyoning ko’plab davlatlarida keng rivojlangan, masalan Londondagi yirik muzeylarning xovlisida bolalar uchun atraktsionlar, turli xil uyin maydonchalari, milliy ertaklar shaharchasi, sunniy arxeologik qazuv xududi, kutubxona, bichish-tekish, xunarmandchilik va kulolchilik kabi ustaxonalar tashkil etilgan va tekin xizmat qiladi. Nederlandiyada 1997-yilda maxsus qurilgan 5 qavatdan iborat NEMO muzeyida bolalar uchun fizika, mexanika, geologiya, biologiya, matematika va ximiya kabi fanlarga bag’ishlangan ekspozitsiyalar mavjud. Bu muzeyda barcha eksponatlarni qo’l bilan ushlab kurishga ruxsat beriladi. Ugstgest shahridagi Corpus muzeyida esa insonning ichki organlari ekspozitsiya qilingan. 2005 yilda Polshada ochilgan “Kopernik” ilmiy markazida “Uchar gilamlar” ertagi misolida ekspozitsiya qilingan. Varshavadagi Kyuri xonim uy-muzeyida olimaning labaratoriyasiga sayoxat qilish mumkin.

Yevropadagi tabiat muzeylari bolalar uchun ajoyib ko’rgazmalar va interfaol tizimlar yaratishda mohir bo’lib ketishgan. Masalan, Florentsiyadagi Tarix va Zoologiya Muzeyi (La Specola) Bobil bog’lari bilan uyg’un ravishda Zoologiya va Mineralogiyaga oid eksponatlari ajoyib taasuroot qoldiradi. Inson tanasining ichki organlari va asab tizimi ekspozitsiyasi bolalarga unitilmas xotira bo’lib qoladi. Fransiyaning Perego viloyatidagi g’orlarda joylashgan arxeologiyaga ixtisoslashgan muzeylarda esa sunniy arxeologik maydonchalar qurilib muzey ashyolarini nusxalari yaratilgan va unda yoshlar arxeologik qazishmalar olib borishadi, arxeologiyaning metodologiyasini o’rganishadi, bolalarga dastlabki ishlov berish laboratoriyasida topilmalarni tozalash va ulchash ishlari o’rgatiladi. Rossiyaning “Kunstkamera”, “Kosmik muzey” va “Glinka” nomidagi musiqiy madaniyat muzeyidagi “Tovush va men” kabi bolalar uchun ko’rgazmasi ilg’or uslub sanaladi.

Turkiyada xam bir qancha muzeylar bolalarning madaniyat, san’at, texnologiya va tarix haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Oltin shox sohilidagi Hasko’ydagi muzey transport, sanoat va aloqa tarixiga bag’ishlangan, muzeyda muntazam ravishda bolalar uchun turli tadbirlar va mahorat darslari tashkil etgan. Istanbuldagi o’yinchoqlar muzeyi butun dunyo bo’ylab “Bolalar va o’yinchoq muzeylari ittifoqi”ning tashkil etilishiga asos bo’lgan va Istanbul “o’yinchoq muzeylari poytaxti” unvoniga sazovar bo’lgan .

O’zbekistonda ham respublika fuqarosi hisoblangan va 18 yoshgacha bo’lgan bolalarning madaniy meros ob’ektlariga, jumladan, ko’rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, davlat muzeylariga bepul kirish tartibi joriy etilgan. Muzeyga nafaqa yoshidagi qariyalar, birga olib kelgan nevaralari orasidagi yosh hamda dunyo qarashlar orasidagi farqlar sayoxat qilishda noqulayliklar to’g’dirishi tayin. Yuqoridagi xolatlar tufayli ham O’zbekistondagi muzeylar ichida bolalar uchun “yangi muzey” - yangi tarmoq urf bo’lmoqda. Professor J. X. Ismoilova bolalar muzeyining dolzarbligi haqida ”...1990 yillarga qadar inson uchun yaratilgan qulayliklar va sharoitlar, bunyod etilgan turli ma'rifiy markazlar orasida bolalar uchun maxsus yaratilgan maskanlar deyarli bo’lmagan. Muzeylar bolalar va o’quvchilarning eng ko’p tashrif buyuruvchilar maskani bo’lishiga qaramay, ularning dunyoqarashi va talabi darajasidagi ekspozitsiyalar yaratilmagan”, deb takidlagan.

Bolalar muzeyi muzey ekspozitsiyalarini yoshlarga moslashtirilgan tarmog’i, ma'naviy tarbiya, jamiyatni madaniy muxitga moslashtirishning ijtimoiy turi hisoblanadi. Bolalar muzeyini tashkil etishdan asosiy maqsad muzey haqida ilmiy ma'lumotlarni yengil shaklda berish, ijodiy barkamollikka undash, nomoddiy va moddiy madaniy merosga ijobiy munosabatni shakllantirish va yoshlarni ijtimoiy jamiyatda munosib o’rniga ega bo’lishi uchun tarbiyalashdan iborat. Yosh

bolalarni fan va illyuziya qiziqtiradi, optik illyuziyalar, gologrammalar, illyuzion tunnellar va tashrif buyuruvchi barcha yoshdagi mehmonlarga sirli va qiziqarlidir. Ekspozitsiya tomoshabinni interfaol uslublardan foydalanish milliy o'yinlar, o'yinchoqlar, qug'irchoqlar, rassomchilik, xunarmandchilik va ijodiy ustaxonalar tashkil etish orqali ijodiy fikrlashga undaydi. Bolalar muzeyida oilaviy davra, to'garaklar, klublar va ijodiy ustaxonalar tashkil etish mumkin. XXI asrdan boshlab o'zbek muzeyshunoslari zamonaviy ilmiy ommabop muzeylar yoshlarni rivojlanishida katta rol uynashini anglay boshlagach, O'zbekiston muzeylarida yangi yo'nalishlar shakllana boshladi. Bolalar uchun muzeylar va interaktiv ko'rgazmalar yaratish ishlariga, O'zbekiston tarixi Davlat muzeyini yorqin misol qilib keltirish mumkin.

O'zbekistonda ilk bora O'zbekiston tarixi bolalar muzeyi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyi qoshida tashkil etilgan. Bolalar muzeyini tashkil etish va kontseptsiyasini yaratish profesor Jannat Xamidovna Ismoilovaning g'oyasi hisoblanadi. Unda bolalarni tarixiy muhit va zamonga tushib qolishlari, tarixni anglab yetishlari ko'zda tutilgan. Bolalar muzeyi barcha o'smir yoshdagi bolalarni qamrab olishga mo'ljallangan. Muzeylarda dars o'tish muzey ish funktsiyasiga kiradi va unda materiallarni chuqurlashtirilgan xolda tadqiq etish va qatnashuvchilarni olgan bilimlarini mustaxkamlash uchun savol-javoblarga e'tibor berish tushiniladi. Muzey muxiti darsga qatnashuvchilarda alohida ta'sir ko'rsatib, muzeyning tabiat va tarixiy predmetlariga alohida xurmat xosil bo'ladi. Muzeylardagi to'garaklar qatnashuvchilarning o'zlarini qiziqtiradigan yoshlarni birlashtiradi va badiiy, texnik, o'lkashunoslik, adabiyot va musiqa san'ati kabi sohalarda o'z bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. To'garakda muzey kollektsiyalari va ilmiy yordamchi materiallar yordam berishi mumkin.

Muzeylarda bolalar uchun qug'irchoqlar ko'rgazmasini yaratish ham katta samara beradi. Muzey fondlarida o'rta asrlarga oid ko'plab qo'g'irchoqlar kollektsiyasi uchraydi. O'rta asrlardagi arxeologik qug'irchoqlarni interaktiv tarzda mulyajlarini yaratib, XVIII-XX asrlarda keng tarzda urf bo'lgan "Chodirxayol" ko'cha tomoshalari tarzida ko'rgazma qilish yaxshi samara berishi mumkin. Masalan, "Ichanqal'a" davlat muzey-qo'riqxonasi xududida M.Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat drama teatrining badiiy rahbari, "Jayxun" qo'g'irchoq teatri raxbari Mansur Kuryazov boshchiligi Faxriddin Yaqubov va Ikromboy Jumaniyozov kabi artistlar nafaqat yoshlar, balki kattalar uchun ham qug'irchoqlar o'yini tomoshalarini tashkil etib kelishmoqda.

Viloyatdagi turizmning mohiyati va tavsifini qiyosiy taxlil etish, tarixiy-madaniy yodgorliklarni turizm rivojlanishidagi o'rnini aniqlash, mintaqada turizm resurslari salohiyatidan kompleks foydalanish orqali yangi ish joylarini yaratish, ichki va tashqi turizm rivojlanishning zamonaviy o'zgarishlari va tendentsiyalarini tadqiq etish, turizmining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri xamda tarixiy-madaniy muhitning ta'sirini aniqlashtirish, viloyatda turizmning rivojlanish dinamikasi va istiqbollarini tahlil qilish, turizmning mintaqa va respublika iqtisodiyotiga ta'sirini aniqlash va turizm industriyasi va ziyorat ob'ektlarining imkoniyatlari va strategiyasini aniqlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Исмоилова Ж.Х. Музей педагогикаси янги талқинда. Ўзбекистоннинг бетакрор маданий мероси: муаммолар, ечимлар ва истиқболлар. Республика илмий-амалий анжуман материаллари (2013 йил. 17 май).5-китоб. Тошкент-2013 й.
2. Kuryazova D. Muzey ishi asoslari. Oliy-o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. "Lesson press", Toshkent. 2019.
3. Ne'matov O. The role of national dishes and culinary traditions in the development of gastronomic tourism. International Scientific and Current Research Conferences, 2024. Turizmning mohiyati, turlari va O'zbekistonda rivojlanish tarixi. Ta'lim, Ilm-fan va innovatsiya, jamiyat rivojlanishining asosiy poydevori, 2024.
4. Л. Левтеева. "Сказочник из детства". Sanat. 01/07/2004 • Выпуск №3-4
5. https://lex.uz/docs/-6040013
6. https://aniq.uz/yangiliklar/istanbuldagi-bolalar-uchun-maxsus-eng-garoyib-muzeylar

QISHLOQ XO`JALIGINI MEXANIZATSIYALASH BORASIDA HUKUMAT TOMONIDAN KO`RILADIGAN CHORA-TADBIRLAR

Samadov M
Qarshi davlat texnika universiteti ingliz tili o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash sohasida amalga oshirayotgan strategik chora-tadbirlari tahlil qilinadi. Mexanizatsiyalash darajasini oshirish, zamonaviy texnikani joriy qilish, agroxizmat infratuzilmasini takomillashtirish va fermer xo‘jaliklarini texnik qo‘llab-quvvatlash borasidagi davlat siyosati yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolar va istiqboldagi yo‘nalishlarga doir takliflar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, mexanizatsiya, texnika, davlat qo‘llab-quvvatlovi, agroxizmat, zamonaviy texnologiyalar

Аннотация

В статье анализируются стратегические меры, принимаемые правительством Узбекистана по механизации сельского хозяйства. Освещаются вопросы повышения уровня механизации, внедрения современной техники, совершенствования инфраструктуры агросервиса и государственной поддержки фермерских хозяйств. Также представлены предложения по решению актуальных проблем.

Ключевые слова: сельское хозяйство, механизация, техника, государственная поддержка, агросервис, современные технологии

Abstract

This article analyzes the strategic measures undertaken by the government of Uzbekistan to mechanize agriculture. It discusses efforts to increase the level of mechanization, introduce modern equipment, improve agroservice infrastructure, and provide technical support to farming enterprises. The article also offers recommendations for addressing existing challenges and future directions.

Keywords: agriculture, mechanization, machinery, government support, agroservice, modern technology

KIRISH

Zamonaviy qishloq xo‘jaligi yuqori unumdorlik, mehnat samaradorligi va barqaror rivojlanish tamoyillariga tayanuvchi soha bo‘lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida mexanizatsiyaning o‘rni beqiyosdir. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish va agrotexnologik xizmatlarni kengaytirish orqali qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Shu bois O‘zbekiston Respublikasi hukumati ushbu yo‘nalishda tizimli islohotlar olib bormoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortishi, eksport salohiyatining kengayishi va iqlim sharoitining o‘zgaruvchanligi bu sohada samaradorlikka bo‘lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Maqolada qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash borasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va istiqboldagi yo‘nalishlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash — bu ishlab chiqarish jarayonlarini inson mehnatini kamaytirgan holda texnika va texnologiyalar bilan jihozlashdir. Ayni paytda O‘zbekistonda yer haydash, ekish, sug‘orish, o‘rim-yig‘im va saqlash jarayonlarining ko‘pchiligi hali ham qo‘lda yoki yarimavtomatik usullar bilan bajarilmoqda. Bu esa mahsulot tannarxining ortishiga, vaqt va resurslarning yo‘qotilishiga olib kelmoqda. Shuning uchun mexanizatsiyalash darajasini oshirish orqali:

Mehnat samaradorligi 3-4 baravar ortadi;

Hosildorlik barqarorlashtiriladi;

Yillik ekin almashinuvi soddalashadi;

Sifatli mahsulot yetishtirish imkoniyati ortadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasi hukumati quyidagi yo‘nalishlarda mexanizatsiyalashni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda:

Subsidiyalar ajratish: fermer va dehqon xo‘jaliklariga texnika xarid qilish uchun davlat hisobidan imtiyozli kreditlar, grantlar va lizing xizmatlari.

Texnik parklarning tashkil etilishi: har bir hududda texnik xizmat ko‘rsatish markazlari, ehtiyot qismlar do‘konlari va ta’mirlash ustaxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mahalliy texnika ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash: O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan traktor, kombayn va boshqa texnikalar import o‘rnini bosmoqda.

Kadrlar tayyorlash: qishloq xo‘jaligi kollejlari va texnikumlarida mexanizatorlar, muhandislar va servis mutaxassislarini tayyorlash dasturlari kengaytirilmoqda.

Mexanizatsiyalash sohasida muammolar ham mavjud [2]:

Ko‘pchilik kichik fermer xo‘jaliklarining texnik vositalar xarid qilishga moliyaviy imkoniyati cheklangan;

Ayrim hududlarda zamonaviy texnika va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi yetarli darajada emas;

Kadrlar salohiyati va texnika bilan ishlash ko‘nikmalari past darajada qolmoqda.

Shu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Kooperativ asosida texnika ulash tizimini rivojlantirish;

Kichik xo‘jaliklar uchun davlat tomonidan ijaraga texnika berish xizmatini yo‘lga qo‘yish;

Hududlarda mobil texnik brigadalarni tashkil etish;

Har bir tuman kesimida texnik xizmat ko‘rsatish xaritalarini ishlab chiqish.

NATIJALAR

Zamonaviy qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya jarayonlari endilikda faqat texnika bilan cheklanib qolmayapti. Raqamli texnologiyalar va aqlli boshqaruv tizimlari bilan birgalikda bu jarayonlar yanada samarali va nazorat qilinadigan holga kelmoqda. Masalan:

GPS va geoinformatsion tizimlar (GIS) yordamida yerlarni aniq o‘lchash, dalalarga texnika kirish-chiqishini avtomatik kuzatish imkoniyati mavjud.

IoT (Internet of Things) texnologiyalari orqali texnik vositalar real vaqt rejimida ishlashini nazorat qilish, ehtiyot qismlar holatini oldindan aniqlash mumkin.

Dala monitoringi dronlar orqali amalga oshirilib, hosil holati, suv ta’minoti yoki zararkunandalar tarqalishini vizual baholash mumkin bo‘ladi.

Raqamli boshqaruv asosidagi mexanizatsiya uzoq muddatli xarajatlarni kamaytiradi, ishlab chiqarish sifatini yaxshilaydi va ekologik barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash borasida xalqaro amaliyotdan o‘rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Masalan [3]:

Germaniyada "aqlli texnika" konsepsiyasi asosida barcha agrotexnik operatsiyalar mobil qurilma orqali boshqariladi.

Yaponiyada kichik maydonlar uchun mo‘ljallangan kompakt robotlashtirilgan traktorlar ishlab chiqarilmoqda.

Braziliyada mexanizatsiya asosiy eksport ekinlari — qahva, shakarqamish va soya uchun maxsus texnikaga yo‘naltirilgan bo‘lib, xizmat ko‘rsatish stansiyalari tarmog‘i kuchli rivojlangan.

Hindiston esa kichik va o‘rta fermerlar uchun “kooperativ asosida texnika ulash” modelini keng qo‘llamoqda.

O‘zbekiston ham bu borada o‘ziga xos imkoniyatlarga ega bo‘lib, xalqaro tajriba asosida iqlimga, yerga va xo‘jalik hajmiga mos moslashuvchan mexanizatsiya strategiyasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq.

Qishloq xo‘jaligini faqat ko‘p hosil olishga emas, balki ekologik barqarorlik va resurslar samarali foydalanishiga yo‘naltirish bugungi kun talabidir. Shu maqsadda:

Avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari (intellektual suv taqsimoti) suv tanqisligi muammosini kamaytiradi;

Energiya tejamkor texnikalar (kam yoqilg‘i sarflovchi, quyosh energiyasidan foydalanadigan) ekologik xavflarni pasaytiradi;

Avtonom traktorlar va o‘z-o‘zini boshqaruvchi kombaynlar og‘ir mehnatni avtomatik tarzda bajarishga imkon yaratadi.

Shu orqali qishloq xo‘jaligi jarayonlari ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan uyg‘unlashgan holatda rivojlanadi.

Zamonaviy texnik vositalar faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan cheklanmaydi, balki demografik guruhlar orasida teng imkoniyatlar yaratish vositasi ham bo‘la oladi. Ayniqsa, qishloq joylarda xotin-qizlar va yoshlarning qishloq xo‘jaligidagi roli hali to‘liq ro‘yobga chiqmagan. Shu nuqtai nazardan [4]:

Texnikani boshqarish bo‘yicha o‘quv dasturlari xotin-qizlar uchun maxsus formatda ishlab chiqilishi mumkin (masalan, qisqa muddatli kurslar, amaliy mashg‘ulotlar);

Mobil texnika brigadalari orqali yoshlarga vaqtincha yoki mavsumiy ish o‘rinlari taklif etilishi mumkin;

Texnologik inklyuzivlik orqali gender tengligi va yoshlar bandligi masalalarini bir vaqtning o‘zida yechish imkoni paydo bo‘ladi.

Shuningdek, bu yondashuv qishloq aholisi orasida migratsiyani kamaytirishga va mahalliy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ko‘p hollarda kichik va o‘rta fermer xo‘jaliklarining zamonaviy texnika xarid qilish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Shu sababli kooperativ tizim asosida texnikani ulash modeli joriy etilmoqda. Bu quyidagicha ishlaydi:

Fermerlar birlashib kooperatsiya tashkil qiladi va birgalikda texnika xarid qiladi;

Texnikadan muqobil grafik asosida foydalaniladi (dalalar maydoni, ish turi va mavsumga qarab);

Texnika vaqti-vaqti bilan agroxizmat markazlari tomonidan servis nazoratidan o‘tkaziladi.

Bu model nafaqat texnik xarajatlarni kamaytiradi, balki ijtimoiy birdamlik va xo‘jaliklararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [5].

XULOSA VA MUNOZARA

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash — bu zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirilgan ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, uning rivojlanishi orqali nafaqat hosildorlik oshadi, balki fermerlar va dehqonlarning mehnat sharoitlari ham yengillashadi. O‘zbekiston hukumati tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, xususan texnika bilan ta’minlash, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaratish va mutaxassislar tayyorlash borasidagi islohotlar ushbu yo‘nalishda muhim natijalar berayotgani kuzatilmoqda.

Kelgusida bu sohadagi siyosatni yanada takomillashtirish uchun mexanizatsiyalashni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va texnik taraqqiyotning yangi bosqichlariga chiqish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashni jadallashtirish to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil.
2. Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy veb-sayti – www.agro.uz
3. “Agrotexnika va mexanizatsiya” jurnali, 2023, №2.
4. Rahimov, U. (2022). Qishloq xo‘jaligida mexanizatsiya samaradorligi. – “Iqtisodiy rivojlanish” jurnali.
5. Karimov, N. (2023). Fermer xo‘jaliklarini texnik qo‘llab-quvvatlashda davlat siyosati. – “Agrar iqtisodiyot” to‘plami.

O’ZBEKISTONDAGI MUZEYLAR VA ULARNING FONDI HOLATI

Hamroqulov O. yetakchi mutaxassis
Ravshanov O. yetakchi mutaxass**is**

Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muzeylarning inson hayotida tutgan o’rni, ushbu muassasalarning amalga oshiradigan vazifasi yoritilgan. Hozirgi kunda O’zbekistonda mavjud muzeylar va ularning fondi holati bo’yicha tahlillar keltirilgan.

Kalit so’zlar: Muzey, muzey fondi, ilmiy tadqiqot, eksponat, tarixiy yodgorlik, ekspozitsiya.

Аннотация: В статье рассматривается роль музеев в жизни человека и задачи, которые выполняют эти учреждения. Представлен анализ действующих музеев Узбекистана и состояния их коллекций.

Ключевые слова: Музей, музейный фонд, научное исследование, экспонат, исторический памятник, экспозиция.

Annotation: This article discusses the role of museums in human life, the tasks performed by these institutions. An analysis of the current state of museums in Uzbekistan and their collections is presented.

Keywords: Museum, museum collection, scientific research, exhibit, historical monument, exposition

Muzey - bu sotsial axbototlami tarixan o‘zaro bog‘lovchi ko‘p funksiyali ijtimoiy institut bo‘lib, uning faoliyati maganiy-tarixiy hamda tabiiy-ilmiy boyliklarni saqlash, ma’lumotlarni to‘plash va muzey ashyolari orqali tarqatishga mo‘ljallangandir. Muzey turli jarayonlami, tabiat va jamiyat hodisalarini hujjatlashtiradi, muzey ashyolarining kolleksiyasini to‘ldiradi, saqlaydi, o‘rganadi. Shuningdek, ulardan ilmiy, ma’rifiy, tarbiyaviy va targ‘ibot maqsadlarida foydalaniladi[2].

Mazkur muassasalarning faoliyati natijasida bir nechta belgilab berilgan vazifalarni bajarishi kerak bo’ladi:

- Tarixiy va madaniy boyliklarni yig‘ish, asrash(Bunda muzeylar asosiy faoliyati mavjud bo’lgan tarixiy yodgorliklarni saqlovchi muhim obyekt sifatida faoliyat yuritadi);
- Ilmiy izlanishlar olib borish (Muzeylarning ilmiy xodimlari doimiy ravishda ilmiy tadqiqot olib borsihlari kerak bo’ladi);
- Ma’rifiy dasturlar orqali odamlarni tarbiyalash(Ushbu muassasalarga o’sib kelayotgan yosh avlodni jalb etish orqali tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirish mumkin bo’ladi);
- Turistlarni jalb qilish va turizmni rivojlantirish (dunyo mamlakatlari orasida muzeylar turistlarni jalb qiladigan obyektlardan biri sifatida e’tirof etiladi).

O’zbekiston Respublikasida ham hozirgi kunda jami 134 ta muzey hamda muzey filiallari faoliyat yuritib kelmoqda hamda hukumat tomonidan muzeylar faoliyatini yaxshilash hamda ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun kerakli chora-tadvirlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda imzolangan “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-261-son Qarorida ham mamlakatimizdagi muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning marketing siyosati va xizmatlar sohasini kompleks rivojlantirish, muzeylarga innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash, shuningdek, muzeylarda o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi, Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari, buyuk allomalar hayoti va faoliyatiga oid zamonaviy yangi ekspozitsiyalarni yaratish, muzey to‘plamlaridagi boy tarixiy va madaniy merosimizni keng targ‘ib qilish kabi vazifalar belgilab o’tilgan[1].

Ushbu maskanlar asosiy faoliyati mamlakatimiz o’tmishi hamda bugungi kunga qadar tarixiy davrlariga oid bo’lgan eksponatlarni namoyon qilish, tarixiy jarayonlarning gavdalantirish hamda bugungi kun avlodiga o’tmish hayotidan hikoya qilish kabi muhim vazifalarni bajarishi bilan xarakterlanadi. Ushbu vazifalarni bajarish uchun respublikada faoliyat yuritayotgan jami muzeylar fondida hozirgi kunda 2087,1 mingta eksponat mavjud bo’lib ularning tarkibi 1-chizmada keltirilgan.



1-chizma. O'zbekiston muzeylarining fondi tarkibi (ming dona)[3]

Yuqoridagi chizma ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda faoliyat yuritadigan muzeylar fondida asosan arxeologiya, hujjatlar, suratlar hamda numizmatikaga oid bo'lgan eksponatlar tashkil etadi va bu eksponatlar umumiy fondning 56 % ini tashkil etadi. Demak muzeylar o'z faoliyatini optimallashtirish uchun ushbu obyektlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishi mumkin bo'ladi. Biroq, nisbatan kam sonli bo'lgan eksponatlar (rassomlik, grafika, haykaltaroshlik va amaliy san'at) dan ham samarali foydalanish zarur. Buning uchun ular ishtirokidagi namoyishlar va ko'rgazmalarni tez-tez o'tkazib turish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, muzey fondlari – bu milliy va jahon miqyosidagi madaniy, tarixiy, ilmiy boyliklarni o'zida jamlagan bebaho xazinadir. Ular nafaqat o'tmishni o'rganish va anglash imkonini beradi, balki kelajak avlodlar uchun tarixiy xotirani saqlab qolishning muhim vositasidir. Shuning uchun muzey fondlarini tizimli ravishda to'ldirish, himoya qilish va ilmiy asosda boshqarish har qanday jamiyatning madaniy taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, muzeylar faoliyatini takomillashtirish, ularning fondida mavjud bo'lgan eksponatlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish respublikaaning har qaysi hududida faoliyat yuritayotgan muzeylar uchun asosiy vazifalardan bo'lib qolishi lozim, zero insonlar o'z o'tmishini aynan muzeylar kabi tarixni namoyon etib turuvchi muassasalar orqali chuqur o'rganib olishlari mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-261-sonli Qarori Manba: https://lex.uz/docs/-6040013
2. Muzeyshunoslik. O'quv qo'llanma. / O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi metodik markaz, 2018. - T.: "Turon-Iqbol", 2018. -260 b.
3. stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti

O`ZBEKISTONDA PROFSOYUZ TASHKILOTINING TA`LIM SOHASIDAGI FAOLIYATI

Samadova F.
Tarix o`qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda kasaba uyushmalari tashkilotlarining ta’lim sohasida olib borayotgan faoliyati, ularning o‘qituvchilarning mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash va ta’lim tizimini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdagi roli tahlil etiladi. Shuningdek, kasaba uyushmalarining qonunchilikdagi o‘rni, ta’lim muassasalari bilan hamkorligi va mavjud muammolar yechimiga doir takliflar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: kasaba uyushmasi, ta’lim sohasi, pedagoglar huquqlari, ijtimoiy himoya, mehnat munosabatlari, ta’lim siyosati.

Аннотация

В статье рассматривается деятельность профсоюзных организаций в сфере образования Узбекистана, их роль в защите трудовых прав педагогов, обеспечении социально-экономических интересов и поддержке системы образования. Анализируется участие профсоюзов в законотворческой деятельности, взаимодействие с образовательными учреждениями и предлагаются пути решения существующих проблем.

Ключевые слова: профсоюз, сфера образования, права педагогов, социальная защита, трудовые отношения, образовательная политика

Abstract

This article explores the role of trade union organizations in Uzbekistan’s education sector, focusing on their activities in protecting teachers’ labor rights, ensuring socio-economic support, and contributing to educational policy. The paper discusses legal frameworks, collaboration with educational institutions, and presents recommendations for solving current challenges.

Keywords: trade union, education sector, teachers’ rights, social protection, labor relations, educational policy

KIRISH

Kasaba uyushmalari ijtimoiy institut sifatida jamoatchilikning iqtisodiy va mehnat manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar mehnat sharoitlari, ish haqi, ijtimoiy kafolatlar va kasbiy rivojlanish masalalarida kasaba uyushmalariga tayanuvchi asosiy ijtimoiy qatlam hisoblanadi.

O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng kasaba uyushmalari institutining huquqiy maqomi mustahkamlandi, jumladan, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun, Mehnat kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikdagi o‘rni belgilab berildi. Ushbu maqolada O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va uning hududiy bo‘linmalarining ta’lim sohasidagi faoliyati, muvaffaqiyatlari hamda yechimini kutayotgan muammolari tahlil qilinadi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan kasaba uyushmalari o‘qituvchilarning quyidagi yo‘nalishlardagi huquq va manfaatlarini himoya qiladi:

Mehnat sharoitlari va xavfsizligi;

O‘z vaqtida ish haqi to‘lanishi va ustamalar;

Ijtimoiy paketlar (dam olish yo‘llanmalari, moddiy yordam);

Kasbiy malakani oshirishda teng imkoniyatlar.

Shuningdek, ular maktab va kollejlar rahbariyati bilan jamoa shartnomalari asosida ish yuritadi, pedagoglarning shikoyat va murojaatlarini ko‘rib chiqadi, mehnat nizolarining oldini olishga xizmat qiladi.

Kasaba uyushmalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlar quyidagilardir:

“Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun (1992 y.)

Mehnat kodeksi (yangi tahrir)

Jamoaviy shartnomalar va bitimlar haqidagi qonunlar

Ushbu hujjatlar kasaba uyushmalarining quyidagi vakolatlarini belgilab beradi:

Mehnat shartnomalarini muvofiqlashtirish;

Ijtimoiy-iqtisodiy maslahatlar berish;

Mehnat nizolarida ishtirok etish va sudgacha hal qilishda vositachilik;

Ta’lim sohasiga oid qonunchilik loyihalarini muhokamaga qo‘yishda ishtirok etish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasiga qarashli Ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi faoliyatida quyidagi yo‘nalishlar yetakchi hisoblanadi:

Maktab, kollej va oliy ta’lim muassasalarida xodimlar bilan mehnat munosabatlarini muvofiqlashtirish.

O‘qituvchilar va ilmiy xodimlar uchun sog‘lomlashtirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Xotin-qizlar, yoshlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish.

Mamlakatdagi o‘quv yarmarkalari va pedagogik forumlarda ishtirok etish.

Shuningdek, pandemiya davrida kasaba uyushmalari xodimlarga himoya vositalari, zaruriy moddiy yordam va masofaviy ta’limga moslashtirilgan muhitlar yaratishda ham faol bo‘ldi.

Quyidagi dolzarb muammolar kuzatilmoqda [2]:

Ba’zi hududiy kasaba uyushmalari faoliyatining passivligi;

O‘qituvchilarning tashkilotlarga nisbatan ishonchsizlik darajasi;

Ijtimoiy dialogning past darajada yuritilishi.

Shu munosabat bilan quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

Kasaba uyushmalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini oshirish;

O‘qituvchilar ishtirokini kuchaytirish uchun zamonaviy kommunikatsion platformalardan foydalanish;

Mahalliy byudjet asosida faol moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish;

Kasbiy taraqqiyot dasturlarini kengaytirish va ularni kasaba uyushmalari bilan integratsiyalash.

NATIJALAR

Kasaba uyushmalari o‘z faoliyatida pedagog xodimlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va huquqiy himoyasini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratadi. Xususan:

Mehnat shartnomasi qonunchilikka muvofiqligi ustidan monitoring;

Ish joylarida mehnat xavfsizligi va sanitariya talablariga rioya etilishini nazorat qilish;

Ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, katta yoshli o‘qituvchilar huquqlarini himoyalash;

O‘quv yilida zo‘riqishlar yoki pedagogik stress holatlarida psixologik yordam tashkil etish.

Shuningdek, kasaba uyushmalari huquqiy maslahat xizmatlari orqali pedagoglarga yuridik yordam ko‘rsatadi va sudgacha bo‘lgan mehnat nizolarini hal qilishda vositachi sifatida ishtirok etadi.

Zamonaviy kasaba uyushmalari faoliyatida gender muvozanati va yoshlar siyosati asosiy strategik yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [3]:

Ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash va ijtimoiy-liderlik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir treninglar tashkil etish;

Yosh pedagoglar klublari orqali ularni kasaba uyushmasi faoliyatiga jalb qilish, innovatsion loyihalarda ishtirokini ta’minlash;

Dekretdagi o‘qituvchilar uchun moslashuvchan ish va qayta integratsiya dasturlarini ishlab chiqish.

Bunday faoliyat, nafaqat o‘qituvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi, balki kasaba uyushmasi faoliyatining ichki demokratik mexanizmlarini ham mustahkamlaydi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari tashkilotlari xalqaro maydonda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan:

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikda pedagoglarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bo‘yicha dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim bo‘yicha xalqaro kasaba uyushmalari federatsiyasi (Education International) bilan tajriba almashinuvi, konferensiyalar va treninglar tashkil etilmoqda.

Qo‘shni mamlakatlardagi kasaba uyushmalari bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari imzolanmoqda [4].

Bu aloqalar O‘zbekistondagi ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi kasaba uyushmalari uchun institutsional salohiyatni oshirish, yangi standartlar joriy etish va xalqaro grantlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar kasaba uyushmalari faoliyatining ham shakli, ham mazmunini o‘zgartirmoqda. Endilikda:

Elektron murojaatlar va arizalar tizimi orqali pedagoglar masofaviy tarzda murojaat yo‘llay olmoqda;

Kasaba uyushmasining rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlari orqali axborotlar tezkor yetkazilmoqda;

Online konferensiyalar, seminarlar va treninglar o‘tkazilib, xorijiy tajriba bilan bevosita tanishish imkoniyati yaratilmoqda.

Bu esa faoliyatning ochiqligi, tezkorligi va interaktivligini ta’minlaydi, yosh o‘qituvchilarni ham faol ishtirokga jalb etadi.

O‘zbekistonning barcha viloyat, tuman va shaharlarda faoliyat yurituvchi kasaba uyushmalari bo‘limlari [5]:

Maktab va kollejlar rahbariyati bilan jamoaviy bitimlarni tuzish va ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

Hududiy pedagogik muammolar (masalan, yo‘l-transport masalalari, sovuq sinfxonalar, o‘quv jihozlari yetishmovchiligi) bo‘yicha tegishli tashkilotlarga murojaat qiladi;

Mahalliy byudjet asosida moddiy yordam (kengash qaroriga binoan) ajratishni ko‘zda tutadi.

Bu faoliyatlar kasaba uyushmasining faqat markaziy emas, joylardagi ta’sir kuchi va ijtimoiy rolini kuchaytiradi.

XULOSA VA MUNOZARA

O‘zbekistonda ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan kasaba uyushmalari o‘z a’zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ijtimoiy institut sifatida xizmat qilmoqda. Ularning faoliyati orqali nafaqat o‘qituvchilarning mehnat sharoitlari yaxshilanmoqda, balki ta’lim tizimida ijtimoiy barqarorlik ham ta’minlanmoqda. Kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish uchun kasaba uyushmalari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish va institutsional salohiyatni kuchaytirish lozim.

Adabiyotlar ro`yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 2023-yilgi yangi tahrir.
3. O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi rasmiy veb-sayti – www.kasaba.uz
4. Xasanova, D. (2022). Ta’lim tizimida kasaba uyushmalarining ijtimoiy roli. – “Ijtimoiy fanlar” jurnali, №3.
5. Toshmatov, B. (2021). Mehnat huquqlari va kasaba uyushmalari. – Toshkent: Huquq nashriyoti.

SO‘NGGI YILLARDA ICHKI ISHLAR TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN STRUKTURAVIY O‘ZGARISHLARNING XUSUSIYATLARI.

Zayniddinova Sh.

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar tizimida amalga oshirilgan strukturaviy o‘zgarishlarning xususiyatlari o‘rganiladi. Ushbu o‘zgarishlar tizimning samaradorligini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va ichki ishlar organlarining ish faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan. Tadqiqotda Ichki ishlar vazirligining boshqaruv tizimida, xavfsizlikni ta'minlashda va yuridik muammolarni hal etishda yuzaga kelgan o‘zgarishlar chuqur tahlil qilinadi.

Ichki ishlar tizimining yangi strukturaviy shakllari va metodologiyalarining jamiyatdagi xavfsizlik va tartibni mustahkamlashga qaratilganligini aniqlashdir. Shuningdek, yangi rahbarlik va boshqaruv mexanizmlarining tashkil etilishi, ma'lumot texnologiyalarining joriy qilinishi, xizmat ko‘rsatish jarayonlaridagi innovatsiyalar va fuqarolar bilan o‘zaro munosabatlarda yuzaga kelgan o‘zgarishlar tadqiq qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Jinoyatchilikka qarshi kurash, xalqaro terrorizm, tergov, migratsiya va fuqarolik, murojaatlar, tergov deportamenti, kadrlar bo’limi.

Abstract. The features of the structural changes implemented in the Internal Affairs System of the Republic of Uzbekistan in recent years are studied. These changes are aimed at increasing the efficiency of the system, ensuring public safety, improving the quality of service to citizens, and optimizing the work of internal affairs bodies. The study provides an in-depth analysis of the changes that have occurred in the management system of the Ministry of Internal Affairs, in ensuring security, and in solving legal problems.

The aim is to determine whether new structural forms and methodologies of the Internal Affairs System are aimed at strengthening security and order in society. The organization of new leadership and management mechanisms, the introduction of information technologies, innovations in service processes, and changes in interaction with citizens are also studied.

Keywords. Crime prevention, international terrorism, investigation, migration and citizenship, appeals, investigative department, personnel department.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ichki ishlar tizimini ham chuqur o‘zgarishlarga olib keldi. Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlar ichki ishlar organlari faoliyatining yangi bosqichga ko‘tarilishini taqozo etdi. Shu nuqtai nazardan ichki ishlar tizimida amalga oshirilgan strukturaviy o‘zgarishlar nafaqat tashkiliy tuzilmani, balki mazmunan yangi ish uslublarini, boshqaruv madaniyatini va texnologik yechimlarni ham o‘z ichiga oldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama.

So‘nggi yillar mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo‘g‘inini rivojlantirish va mustahkamlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo’ladi”[1] – degan fikrlari tizim faoliyatiga berilgan yuksak baho va bildirilgan ishonch ifodasi bo’lib, kelgusidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda har bir xodim zimmasiga ulkan mas’uliyat yukladi.

Bugungi kunda jahondagi ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, giyohvandlik, odam savdosi, yoshlar o‘rtasida xalqimizga yot g‘oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi ichki ishlar organlari oldiga o’z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo‘yicha yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Shuni ham ta’kidlash joizki, aslini olganda ichki ishlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida bir qator muammolar ham mavjud edi. So‘nggi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan o‘zgarishlar negizida ichki ishlar organlari tizimini ham tubdan isloh qilishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, ichki ishlar idoralarining faoliyatini yanada takomillashtirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bu tizimda o‘tkazilayotgan islohotlarning va qilinayotgan manzilli ishlarning uzviy davomi bo‘lgan edi. [2].

Shu o‘rinda alohida qayd etish kerakki, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida ham “jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish” borasida vazifalar belgilab berildi [3].

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bir qator qonun, qaror, farmon, farmoyish hamda ularni ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘plab huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashda ularning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-sonli farmonida ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirish vazifasi qo‘yildi [4].

Farmonda sohada shu paytgacha mavjud bo‘lgan muammo va kamchiliklarni hal etish uchun ichki ishlar organlari tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari (10 ta) belgilab berildi. Xususan, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional xizmatga aylantirish zarurligi, **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** har bir xodimning asosiy xizmat burchi ekani qayd etildi. Shuningdek, ichki ishlar organlari barcha darajadagi bo‘linmalarining vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda taqsimlash, tashkiliy-shtat tuzilmasini maqbullashtirish, xalq bilan aniq maqsadni ko‘zlab o‘tkaziladigan tizimli muloqotni ta’minlash, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etishning sifat jihatidan mutlaqo yangi tartibini o‘rnatish, murojaatlarni ko’rib chiqish va hal etishga yuzaki va rasmiyatchilik bilan yondashuvlarga chek qo‘yish, ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining aholi oldida muntazam hisobot berib borishi tizimini yaratish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini o‘z vaqtida bartaraf etish, ichki ishlar organlari barcha bo‘linmalarining faoliyati yanada samarali bo’lishini ta’minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, ichki ishlar organlari faoliyatining moddiy-texnika ta’minotini yanada yaxshilash, xodimlarning samarali ishlashi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish kabi vazifalar belgilandi [5].

Shu o‘rinda alohida qayd etish kerakki, jinoyatlarni tergov qilish ichki ishlar organlarining eng muhim vazifalaridan biridir. Shu munosabat bilan, tergov organlarining mustaqilligini ta’minlash, ularning o’z vakolatlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida Tergov bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentiga o‘zgartirildi.

Tizimga bilimli, o‘z ishiga sodiq va mas’uliyat bilan yondashadigan, huquq-tartibot va jamoat xavfsizligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni o‘zining muqaddas burchi hamda asosiy majburiyati deb biladigan kadrlarni jalb qilishga yetarlicha e’tibor berilmagani sababli, bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek kadrlar bilan ishlashning yangi tizimini yaratish maqsadida Kadrlar bosh boshqarmasi va O‘z xavfsizligi boshqarmasi tashkil etildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining xalqaro aloqalari kengayib, inson huquqlarini himoya qilish sohasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi jadal rivojlanmoqda. Biroq, 2017-yilgacha vazirlikning ushbu yo‘nalishdagi faoliyati bir necha bo‘linmalar tomonidan ikkinchi darajali vazifalar sifatida amalga oshirib kelingan edi. Shu jihatlar e’tiborga olinib, Farmon bilan tegishli tarkibiy bo‘limlar negizida Xalqaro hamkorlik boshqarmasi tashkil etildi.

Shuningdek, pasport tizimi talablarini amalga oshirish, xorijga chiqish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va bo‘lish qoidalarini bajarish ustidan nazoratni amalga oshirish masalalari bo‘yicha ham muammolar ko‘p edi. Jumladan, xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasining aholi ko‘p murojaat qiladigan tuman (shahar) bo‘limlarida ish hajmining to‘g‘ri taqsimlanmaganligi sababli noqulayliklar va sansalorliklar yuzaga kelgan edi. Bu masala yuzasidan ham ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh qilish zarurligi inobatga olinib, ushbu yo‘nalishda Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bosh boshqarmasi tashkil etildi.

Shuningdek, tizimda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etishning sifat jihatidan yangi tartibini o‘rnatish, murojaatlarni ko‘rib chiqish va hal etishga yuzaki, rasmiyatchilik bilan yondashuvlarga chek qo‘yish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun vakolat doirasida barcha vositalarni ishga solish lozimligi belgilangan. Fuqarolarga og‘zaki murojaat etish huquqini amalga oshirish uchun qulaylik yaratish maqsadida 2017-yil 1-maydan boshlab respublika ishki ishlar organlarida faoliyat ko‘rsatgan 173 ta ishonch telefoni tugatilib, yagona “1102” qisqa raqamli ishonch telefoni tashkil etildi [6].

“1102” raqamli ishonch telefoning “102” qisqa raqamidan farqi shundaki, “102” qisqa raqamiga jinoyat va hodisalarga oid arizalar, xabarlar hamda boshqa ma’lumotlar to‘g‘risida

murojaat qilinadi. Ishonch telefoniga esa ichki ishlar organlari tomonidan olib borilayotgan surishtiruv va tergov harakatlari, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, migratsiya va pasport-viza, amnistiya (avf etish) va mahkumlarning huquqiy holati, ichki ishlar organlariga ishga (o’qishga) kirish hamda xizmatga qayta tiklash, xodimlarning hatti-harakatlariga oid masalalarda ariza, shikoyat va takliflar qabul qilinadi. Statistik ma’lumotlarda keltirilishicha, 2018-yilda vazirlik ishonch telefoniga 59087 ta murojaat kelib tushgan bo‘lsa, 2019-yilda ushbu ko’rsatkich 66956 tani tashkil etgan. Murojaatlarning 20244 tasi yoki 32,7 foizi qanoatlantirilgan, ya’ni ijobiy hal qilingan. Shuningdek, 37653 tasi bo’yicha malakali tushuntirishlar berilib, 3840 tasi qonuniy asoslarga ko‘ra rad etilgan, 180 tasi tugatilgan [7].

Shu o‘rinda alohida ko‘rsatib o‘tish kerakki, ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan strukturaviy o‘zgarishlar jarayonida respublika mahallalaridagi tayanch punktlari faoliyatini samarali tashkil etish va ularni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2896-sonli qarorining qabul qilinishi Ichki ishlar organlari tayanch punktlari faoliyatini, ularni boshqarishni yanada takomillashtirishga xizmat qildi [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-martdagi “Transport va turizm obyektlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali tizimini joriy etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi tashkil etildi [9].

Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasining asosiy vazifalari yurtimizga kelayotgan xorijiy sayyohlarga amaliy yordam berish, ularning xavfsizligini ta’minlash, sayyohlik namoyishi va infratuzilmasi obyektlarida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishdan iborat qilib belgilandi.

Shuningdek, 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni imzolandi [10].

Mazkur hujjat bilan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi, 2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini rivojlantirish strategiyasi va 2022-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi [11].

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda ichki ishlar organlari tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan bir qator qonun, qaror, farmon, farmoyish hamda ularni ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘plab huquqiy-me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida tizimda olib borilgan strukturaviy o‘zgarishlar natijasida eng muhim tarmoqlardan biri bo‘lgan Tergov bosh boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamentiga o‘zgartirildi. Kadrlar bosh boshqarmasi va O‘z xavfsizligi boshqarmalari tuzildi. Shaxsiy tarkibni malakali kadrlar bilan to‘ldirish va ularni malakasini oshirish uchun ta’lim tizimi isloh qilindi. So‘nggi yillarda respublika miqyosida turizmni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirilishi natijasida Ichki ishlar organlarida Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ички ишлар органлари ва фахрийларига байрам табригидан. 2020 йил 24 октябрь. https://uza.uz/posts/182630.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни: Ички ишлар органлари тўғрисида // Халқ сўзи. 2016 йил 17 сентябрь.
3. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда.
4. https://lex.uz/docs/3159827.
5. https://lex.uz/docs/3159827.
6. Мамашарипов Ф. Ҳар бир мурожаат ортида инсон тақдири ётади. // Qalqon / Щит. 2020, № 3. – Б. 17.

7. Мамашарипов Ф. Ҳар бир мурожаат ортида инсон тақдири ётади. // Qalqon / Щит. 2020, № 3. – Б. 18.

8. Мухамедов Ў.Х. Ҳаракатлар стратегияси асосида ички ишлар органлари тизимидаги ислоҳотлар: биринчи босқич якунлари ва истиқболдаги вазифалар // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. 2017, № 4. – Б. 5.

9. Тошкент шаҳар Ички ишлар органлари: кеча ва бугун. Муаллифлар жамоаси. – Тошкент, 2021. – Б.176.

10. https://lex.uz/uz/docs/574929 Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон.

11. Jalolov SH. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni tergov qilishning kriminalistik jihatlari. // Huquq va burch. 2022, № 3. – B. 31.

ҚЎШМА ТАЪЛИМ ДАСТУРЛАРИ АСОСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ

Каримов М.
Қарши давлат университети Ўзбекистон тарихи кафедраси в/б доценти.
Чуллиев Х.
Қарши давлат университети 1-курс магистранти.

Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилгача олий таълим тизимини ривожлантириш концепциясига мувофиқ, республиканинг камида ўнта олий ўқув юрти халқаро миқёсда тан олинган ташкилотлар рейтингининг биринчи мингта позициясига киритилиши белгиланди (QS World University Rankings, Times Higher Ta'lim, jahon universitetlarining akademik reytingi). 2021 йил июль ойида олий таълимнинг янги давлат таълим стандарти тасдиқланди.

Ўз навбатида, Ўзбекистон ОЎЮлари ҳам хориж мамлакатлари учун мутахассислар тайёрлашда фаол иштирок этиб келди. Масалан, республикамизда 1993 йилга келиб 50 га яқин мамлакатнинг 2166 нафар фуқароси таълим олган, ўз малакаларини оширган ва биргаликда илмий тадқиқот ишларини олиб борган. Шулардан, ЎзМУда 38 та мамлакатдан 234 та талаба ва мутахассислар таълим олганлиги ва 24 та хорижлик аспирант илмий тадиқот олиб боргани, шунингдек, ТДТУда 45 та хорижий мамлакатдан келган 400 дан ортиқ талаба, стажер, аспирант, докторантлар ҳамда ТДАУда 32 та мамлакатдан 133 та талаба ва аспирантлар таҳсил олганлиги қайд этилган[1].

2004 йил мамлакатимизнинг олий ва ўрта махсус таълим вазири С. Ғуломов бошчилигида республикамиз ректорларидан тузилган делегация билан Хитой халқ Республикасига ташриф буюрди. Ташриф чоғида, Хитой Халқ Республикаси халқ таълими вазири Чжоу Тсзи Ўзбекистон ҳукуматининг таълим соҳасида амалга оширлётган ислоҳат-ларга юксак баҳо берди. Ташриф чоғида Тошкент ахборот технологиялар университети ва Пекин алоқалар университети ҳамда Шанхай университетлари ўртасида шартнома имзоланди[2].

Мамалакатимизда Европа Иттифоқининг Темпус дастурининг “CAD/CAE/CAM ва компьютерда моделлаштириш бўйича магистратура программасини яратиш лойиҳаси” шулар жумласидандир. Лойиҳадан кўзланган асосий мақсад янги муҳандислар авлодини тайёрлаш бўлиб, мазкур лойиҳа доирасида Тошкент автомобиль-йўллар институти ва Жиззах политехника институтида замонавий компьютер ускуналари ва зарур дастурлар билан таъминланган учта лаборатория ташкил этилди. Мазкур қўшма лойиҳа доирасида Турин политехника институти (Италия), Стокгольмдаги Қироллик технология институти (Швеция) билан ҳамкорликда олий ўқув юртлари ишлаб чиқарувчилари ва ўқитувчилари учун 12 та янги курслар ишлаб чиқилди. Ўқув материаллари ва қўлланмалар нашр қилинди ҳамда компьютерда моделлаштириш курслари ташкил этилди. 30 нафардан зиёд ўзбекистонлик талаба ва ўқитувчилар Швеция ва Италияда ўтган ўқув курсларида қатнашди[3].

Бугунги кунга келиб, қўшма таълим дастурларида 60 дан ортиқ янги мутахассисликлар бўйича янги дастурлар, улар учун 8124 та квота ажратилган, бу 2018 йилга нисбатан этти баробар кўпдир. Ўзбекистон ҳукумати Германия, Франция, Италия, АҚШ, Япония, Жанубий

Корея, Хитой ва бошқа Осиё мамлакатлари, шунингдек, ЮНЕСКО, ШҲТ каби халқаро ташкилотлар билан таълим соҳасидаги ҳамкорликни ривожлантириш бўйича йўл хариталарини тасдиқлади.

2021 йилда Ўзбекистонда 4,9 мингга яқин хорижлик талаба таълим олди. Улардан 2,9 мингга яқини Марказий Осиё давлатларидан келган фуқаролардир. 2020 йилда ташкил этилган Тошкентдаги Британия менежмент университети ҳозирда 360 нафар талабани ташкил этади. Ўзбекистон ва АҚШ университетлари ўртасидаги ҳамкорлик изчил ривожланмоқда. 2019 йилдан буён Тошкентда 1,2 мингдан ортиқ талаба таҳсил оладиган биринчи Америка Вебстер университети иш бошлади[3].

Бугунги кунда республиканинг турли вилоятиларида ҳам хорижий университетларнинг филиаллари ҳам ўз фаолиятини олиб бормоқда. Масалан, Андижон вилоятида Шарма университети (Ҳиндистон) фаолият юритмоқда ва Варшава бошқарув университети Collegium Humanum (Польша) филиали очилмоқда. Жиззах шаҳрида Ҳиндистон Самбҳрам технология институтининг филиали очилди.

Кадрлар тайёрлаш хорижий давлатлар билан қўшма таълим дастурлари асосида амалга оширилади. Бугунги кунга қадар қўшма таълим 60 дан ортиқ янги мутахассислик бо‘йича дастурлар бо‘йича 8124 та квота ажратилган, бу 2018 йилга нисбатан 7 баробар ко‘пдир. Ўзбекистон ҳукумати Германия, Франция, Италия, АҚШ, Япония, Жанубий Корея, Хитой ва бошқа Осиё давлатлари, шунингдек, ЮНЕСКО, ШҲТ каби халқаро ташкилотлар билан таълим соҳасида ҳамкорликни ривожлантириш бўйича “йўл хариталари”ни тасдиқлади.

2020-2021 ўқув йили якуни бўйича Ўзбекистон олий ўқув юртларида Туркманистондан 2341 нафар талаба (Марказий Осиё мамлакатлари талабалари умумий сонининг 82 фоизи) Қозоғистондан 245 талаба, Қирғизистондан 134 талаба, Тожикистондан 123 талаба, Афғонистондан 364 талаба, Ҳиндистондан 238 талаба, Покистондан 729 талаба, Россиядан 420 талаба таҳсил олмоқда. Шунингдек, Туркия, Корея Республикаси, Индонезия ва Нигериядан келган талабалар ҳам бор[5].

2018 йил 18 октябрь куни Россия Федерацияси Президенти Владимир Путиннинг Ўзбекистон Республикасига расмий ташрифи доирасида Тошкент шаҳрида Биринчи Ўзбекистон-Россия таълим анжумани бўлиб ўтди. Унда Россия Федерациясининг 80 дан ортиқ олий ўқув юртлари ва Ўзбекистон Республикасининг барча олий ўқув юртлари ректорлари иштирок этди. Форум доирасида 114 та ҳамкорлик шартномаси имзоланди.

2020/2021 ўқув йилига қадар ҳар йили 220 дан ортиқ Ўзбекистон фуқаролари Россия Федерацияси бюджетидан ажратиладиган грантлар ҳисобидан Россия олий ўқув юртларига ўқишга юборилди. 2021-2022 ўқув йили учун квоталар 460 ўринга кўпайтирилди. Абитуриентлар Тошкентдаги Россия фан ва маданият марказида имтиҳон топширгандан сўнг Россия олий ўқув юртларига ўқишга қабул қилинади. Бундан ташқари, ҳар йили Ўзбекистондан 1-1,5 мингга яқин киши Россия олий ўқув юртларига ташриф комиссиялари орқали ўқишга киради. 2021 йилга келиб Россия олий ўқув юртларида таҳсил олаётган Ўзбекистон фуқаролари сони 30 минг кишидан ошди. Ўзбекистон ёшлари Москва, Санкт-Петербург, Қозон, Воронеж, Уфа каби олий ўқув юртларида “муҳандислик”, “сув хўжалиги”, “кончилик”, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш”, “гидротехника қурилиши”, “конструкция”, шунингдек, метеорология хизматининг йўналишлари, атом энергияси каби йўналишларда таҳсил олмоқда[5].

2019 йилдан бошлаб Астрахан ва Бухорода Россия ва Ўзбекистон олий ўқув юртлари ректорларининг минтақалараро видеоконференциялари ўтказилмоқда. Ўзбекистоннинг 34 та олий ўқув юртларида Россиянинг 48 та олий ўқув юртлари билан қўшма таълим дастурлари асосида кадрлар тайёрланмоқда. 2020-2021 ўқув йилида қўшма таълим йўналишларига бакалавриат йўналишига 4,1 минг ўрин ва магистратурага 450 ўрин талабалар қабул қилинди. 2022-2023 ўқув йилидан Н. И. Пирогов номидаги Россия миллий тадқиқот тиббиёт университети филиали ўз фаолиятини бошлайди[5].

Бугунги кунда мамлакатимизда Россия Федерациясининг 12 университети филиаллари фаолият кўрсатмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги архиви, 2653-фонд, 6474-иш, 1-рўйхат, 81–84-варақлар

2.Таълим соҳасида ҳамкорлик // Халқ сўзи, 2004 йил 10 март

3. Усмонова З. Олий таълим соҳасидаги ҳамкорлик самараси // Тошкент оқшоми, 2010 йил 16 август.

4. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги жорий архиви маълумотлари. 2022 йил.

5. Россиянинг “Бюджет” журнали Ўзбекистон Республикасининг Россия Федерациясидаги элчихонаси билан ҳамкорликда мамлакатимиз мустақиллигининг 30 йиллигига бағишланган “Янги Ўзбекистон” номли махсус сони. – Б.53-55.

QASHQADARYO VILOYAT MUSIQALI DRAMA TEATRINING XALQARO FESTIVALLARDAGI ISHTIROKI.

G’aniyev B.
QarDU o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining xalqaro festivallardagi ishtiroki, unda teatr jamoasining sahnalashtirgan sahna asarlari, qo`lga kiritilgan yutuqlar hamda boshqa davlat teatr jamoalari bilan yo`lga qo`yilgan hamkorlik haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘z: Qashqadaryo musiqali drama teatri, Xalqaro teatr uyushmalari, xalqaro aloqalar, madaniy diplomatiya, teatr festivallari, gastrol safarlari.

Аннотatsiя: В статье представлена информatsiя об участии Кашкадарьинского областного музыкально-драматического театра в международных фестивалях за годы независимости, о спектаклях, поставленных коллективом театра, достигнутых успехах, налаженном сотрудничестве с другими государственными театральными коллективами.

Ключевое слово: Кашкадарьинский музыкально-драматический театр, Международные театральные ассоциatsii, международные связи, культурная дипломатия, театральные фестивали, гастроли.

Abstract. The article presents information about the participation of the Kashkadarya Regional Musical and Drama Theater in international festivals during the ears of independence, about the performances staged by the theater company, the successes achieved, and the established cooperation with other state theater companies.

Keyword: Kashkadarya Musical Drama Theater, International Theater Associations, international relations, cultural diplomacy, theater festivals, tours.

Mustaqillik yillarida madaniy hayotda ham tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu avvalo, teatr san’atining rivojlanishida sezila boshlandi. Mavjud teatr binolarini qayta ta’mirlash, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash ishlari amalga oshirildi. Shuningdek yangi teatr binolari qurilib, ishga tushirildi. Teatrlar faoliyatida amalga oshirilgan o‘zgarishlar ularda ijod qilayotgan kishilar uchun keng imkoniyatlarni yaratdi.

Qashqadaryo teatri yoki Mulla To‘ychi Toshmuhamedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri — O‘zbekistondagi dastlabki professional teatrlardan biri hisoblanadi. 1932-yilning 2-avgustida Qarshi va Shahrisabz badiiy havaskorlik to‘garaklari zaminida viloyat teatri tashkil etildi. O‘sha vaqtda Toshkent, Samarqand shaharlarida teatrlar faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, chekka shaharlardagi teatrlarning rivojlanishida talay qiyinchiliklar mavjud edi. Avvalo, professional ta’lim olgan aktyorlar etarli emas edi. Shu boisdan ham Qashqadaryo viloyat teatri repertuarining shakllanishida Toshkent teatrlaridan kelgan Baqo Azizov (badiiy rahbar), rejissyorlardan Sobir Vohidovlarning ijodiy faoliyati samarali bo‘ldi. Teatrlarning samarali faoliyat yuritishi uchun ular joylashgan binolar muhim ahamiyatga egadir.[1]

Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan teatrlarga qaratilayotgan ulkan e’tibor sababli Qashqadaryo viloyat teatri binosida ham ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018-yil 5-yanvardagi “2018-2022 yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi 9-sonli Qarorining 2-ilovasiga bilan tasdiqlangan manzilli dasturga asosan davlat budjeti hisobidan mukammal ta’mirlash jarayonlari amalga oshirildi. 2020-yilning

noyabr oyida ta’mirlash ishlari boshlandi. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrini ta’mirlash uchun salkam 17 milliard so‘m mablag‘ sarflandi. Kapital ta’mir sababli teatr sahnasi ta’mirlandi, zamonaviy asbob uskunalar yordamida qayta aylantirish holatiga keltirildi. Sahnaning dekoratsiyalari, pardalari uchun mo‘ljallangan katta texnologik qurilmalar yordamida ko‘tarilib, tushiriladigan shtangetlar ham qayta ta’mirlanib, xavfsizlik nuqtai nazaridan mustahkam holatga keltirilgan holda zamonaviy va qulay holat yaratildi. Har bir bino qavatlari va ulardagi aktyorlarning grimxonalari va texnik xodimlarning xonalari zamon talablariga mos ta’mirlandi. Tomoshabinlar uchun 640 o‘rinli zali ham pol va o‘rindiqlari qayta ta’mirlanib jihozlandi. Teatrning tashqi ko‘rinishi, teatrning old fasadlarida ham katta qurilish va bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Jumladan, teatr old fasadi ham zamonaviy ko‘rinishga keltirilib, eskirib qolgan monumental shakliga zamonaviy sayqal berildi. Zamonaviy ko‘rinish olgan teatr binosida ijod qilayotgan teatr jamoasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham o‘z faoliyatini kengaytirdi. Xalqaro aloqalar teatrning ijodiy salohiyatini oshirish, o‘zbek madaniyatini targ‘ib qilish va global madaniy almashinuvda ishtirok etish muhim ahamiyatga egadir.

Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoasi xalqaro teatr festivallarida ishtirok etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Teatr truppasi Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston kabi mamlakatlarda o‘tkazilgan festivallarda muvaffaqiyatli chiqish qildi. Masalan, 2018-yilda Turkiyaning Konya shahrida o‘tkazilgan “Ming nafas – bir ovoz” xalqaro teatr festivalida teatrning “Nodirabegim” spektakli katta e’tirofga sazovor bo‘ldi. Ushbu festival teatrga xorijiy rejissyorlar, aktyorlar va tanqidchilar bilan tajriba almashish imkoniyatini berdi.[2]

2019-yil 11-15 sentabr kunlari Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan 2-xalqaro festivalda Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri X.Xursandovning “Bobomning orzusi” spektakli bilan ishtirok etdi. Ushbu festivalda Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri “Eng yaxshi spektakl libosi” nominatsiyasi bilan taqdirlandi. Teatr direktori O‘.Maxmatqulovga festivalning “Teatr rivojiga qo‘shayotgan munosib hissasi uchun” maxsus diplomi topshirildi.[3]

2020-yilda 22-25 fevral kunlari Turkiya Jumhuriyatining Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan “Evroosiyo xalqaro teatrlar assotsiatsiyasi” kengashi yig‘ilishida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri direktori O‘.Maxmatqulov hamda O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri adabiy bo‘lim boshlig‘i Oybek Kapadze bilan birga ishtirok etdi. 2021-yilning may-iyun oylarida Turkiyaning teatr sohasidagi eng nufuzli **“**TIYATRO” gazeta-jurnalida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri tarixi, buguni va istiqboli xususida “Yangi O‘zbekistonda Qashqadaryo teatri”, “O‘zbekistondan salomlar”, “Qashqadaryo teatri bilan ijodiy aloqalar” kabi bir qancha maqolalar chop etildi. Teatr sohasida zamonaviy sahna asarlarini, milliy va jahon klassik asarlari asosida teatrlarda uzoq muddatli repertuarlarni shakllantirish, teatrlarning mahalliy va xorijiy davlatlarga ijodiy gastrol faoliyatini tizimli amalga oshirish, teatrning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida N.Gogolning “Tentakning yozmalari” asarini sahnalashtirish uchun Istanbul-Maltepa teatrining bosh rejissyori Kubulay Yerdelikara va Adam Tosun Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatriga tashrif buyurdi.

Teatr xorijiy rejissyorlar bilan hamkorlikda bir qancha spektakllarni sahnalashtirdi. Masalan, turk rejissyori Tunjar Jujan o‘g‘li bilan birgalikda sahnalashtirilgan “Ko‘chki” spektakli xalqaro e’tirofga sazovor bo‘ldi. Rossiya va Qozog‘iston rejissyorlari bilan qo‘shma loyihalar mahalliy aktyorlarning zamonaviy sahna san’ati uslublari bilan tanishishiga yordam berdi.[4]

2021-yil 5-9 avgust kunlari “Yevroosiyo xalqlari teatrlari assotsiatsiyasining ilk yig‘ilishi”da 13 da davlat a’zolari, jumladan Turkiya, O‘zbekiston, Ozarbayjon, Ukraina, Gurjiston, Serbiya, Ispaniya, Portugaliya, Polsha, Kosova, Fransiya, Bolgariya va Qozog‘istondan kelgan teatr ijodkorlari va mutassaddilari ishtirok etishdi. Ushbu yig‘ilishda assossiatsiya a’zolari O‘zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri Adabiy bo‘lim boshlig‘i Oybek Veysal o‘g‘li Kopadze va Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri direktori O‘tkir Maxmatqulovlar Assotsiatsiyaning 13 davlati a’zolari ishtirokida “Yevroosiyo” xalqaro teatrlar assotsiatsiyasining 2021-yil assembleyasining Istambul shahrida bo‘lib o‘tgan ilk yig‘ilishida ishtirok etishdi. Yig‘ilishda teatrining xalqaro ijodiy hamkorlik borasidagi ishlari alohida e’tirof etildi. Jumladan, Turkiyalik rejissyorlar Kubilay Erdilikara tomonidan N. Gogolning "Tentakning yozmalari", J. Molerning "Xasis", Nazif Uslu tomonidan Memet Baydurning "Yolg‘onchining rasmi", Gruziyalik Kaxa

Gogidze tomonidan N. Dumbadzening "Hellados", Portugaliyalik Rui Madiero tomonidan A. Chexovning "To‘y va taklif", Ruminiyalik Radu Ghilas tomonidan Vioril Savinning "Keksa xonim va o‘g‘ri" spektakllari muvaffaqiyatli sahnalashtirilganligi va bu spektakllar xalqaro festivallarda sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelayotganligi ta’kidlandi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri direktori O‘.Maxmatqulov Portugaliya davlatining Braga shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro teatrlar namoyishi hamda “Yevroosiyo teatrlar assosatsiyasi”ning navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etdi. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri direktori O‘tkir Mahmatqulov va Portugaliya davlati, Braga shahar teatri – “TEATRO CİRCO” direktori va badiiy rahbari Rui Madeyra o‘rtasida ijodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadidan memorandum imzolandi. Memorandumga Rui Madeyra Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida A.Chexovning “Taklif” va “To‘y” pesalari motivlari bo‘yicha spektakl sahnalashtirdi. Ushbu spektakl 2024-yili iyul oyida Braga shahrida bo‘lib o‘tishi rejalashtirilgan xalqaro festivalda ishtirok etish uchun taklif etildi.[5]

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatriga tashrif buyurgan Fransiyalik taniqli rejissor Kristof Fitreer va teatr direktori O‘tkir Maxmatqulov o‘rtasida o‘zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq K.Fitreer kelgusi yillarda teatr repertuari uchun munosib jahon klassik asarlaridan birini sahnalashtirish orqali ijodiy hamkorlik ishlari bardavom bo‘lishiga kelishib olindi.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri Gruziya davlatining Ozurgetti shahrida bo‘lib o‘tgan N.Dumbadze nomidagi 4-xalqaro teatrlar festivalida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida Gruziyalik rejissor Kaxa Gogidze tomonidan sahnalashtirilgan N.Dumbadzening “Hellados” spektakli bilan ishtirok etdi. Festival yakuniga ko‘ra, “Hellados” spektakli “Eng yaxshi sahna dekoratsiyasi uchun” g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Ushbu mukofot spektaklni sahnalashtiruvchi rassomi Nurbek Hamidovga spektakldagi o‘ziga xos uslubdagi ijodiy ishi uchun berildi.

Xullas, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri faoliyatida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Teatr binosi qaytadan ta’mirlandi. Aktyorlar ijodiy faoliyati uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratildi. Teatr jamoasi turli xildagi xalqaro festivallarda ishtirok etdi. Sahnalashtirilgan asarlari bilan nufuzli mukofatlarni qo‘lga kiritdi. Xorijiy davlatlarning teatrlari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxti.

1.To’rayeva Matluba. O‘zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning dolzarb masalalari. Qarshi 2025

2.“Ming nafas – bir ovoz” festivali rasmiy sayti. Festival hisoboti. Qiya: Konya Madaniyat boshqarmasi 2018.

3.Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri. Gastrol safarlari hisoboti. Qarshi: Teatr arxivi 2022.

4.Jujan T. O‘zbek teatrida zamonaviy rejissyorlik usullari. Istanbul: Teatr nashriyoti. 2019.

5.Qarshiteatr.uz sayti ma`lumotnomasi

O‘ZBEKISTON – TURKMANISTON DAVLATLARI MADANIY ALOQALARI TARIXIDAN.

Oromov Sh.
QDU doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari o’rtasida madaniy sohada amalga oshirilgan hamkorlik aloqalari kinofestivallar, xalqaro teart bayramlari, “Sharq taronalari” musiqa festivallari o’tkazilishi jarayonlari xususida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘z: Gran-Pri, “Dalli Dumbul”, «Sharq taronalari», Xalqaro teatr uyushmalari, “Navro‘z-92” xalqaro teatr bayrami, Xalqaro baxshichilik san’ati**,** XIII xalqaro musiqa festivali.

Аннотация В статье представлена информация о культурном сотрудничестве Узбекистана и Туркменистана за годы независимости, в том числе о процессах проведения кинофестивалей, международных театральных фестивалей, музыкальных фестивалей «Шарк тароналари».

Ключевое слово: Гран-при, «Далли Думбул», «Шарк Тароналари», Международные театральные ассоциации, Международный театральный фестиваль «Навруз-92», Международный

фестиваль искусства бахши, Международные театральные ассоциации, XIII Международный музыкальный фестиваль.

Abstract. The article provides information on cultural cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan over the years of independence, including the processes of holding film festivals, international theatre festivals, and the Sharq Taronalari music festival.

Keyword: Grand Prix, "Dalli Dumbul", "Sharq Taronalari", International Theatre Associations, International Theatre Festival "Navruz-92", International Bakhshi Art Festival, International Theatre Associations, XIII International Music Festival.

Bugungi globallashuv davrida dunyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik jarayonlarida madaniy sohada amalga oshirilayotgan hamkorlik aloqalari muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan dunyo davlatlari bilan har tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini amalga oshirishni yo‘lga qo‘ydi. Madaniy aloqalar davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib, madaniy qadriyatlar almashinuvi orqali xalqlar o‘rtasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda ham muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston o‘z davlati tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlatlararo madaniy hamkorlik masalasiga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari uzoq tarixga ega bo‘lib, ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qilib kelmoqda.

O‘zbekiston va Turkmaniston xalqlari madaniy aloqalarining asosiy shakllariga davlatlarning madaniyat kunlarini o‘tkazish, teatr hamda musiqa jamoalari gastrollarini uyushtirish, san’at arboblari ijodkorlar qatnashadigan turli xalqaro festivallar, konkurslar va ko‘rgazmalar o‘tkazish kabilar kiradi.

O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasida madaniy sohalarda hamkorlik qilishda “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi va Turkmaniston madaniyat va sayyohlik vazirligining 1992-1995 yillarga mo‘ljallangan bitim” (1992 yil) va “O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasida madaniyat sohasida hamkorlik bitimi” (1996 yil)[1] kabi ikki davlat hamkorligiga doir normativ huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirib kelinmoqda.

O‘zbekiston hududida 1989 - yildagi aholi ro‘yxatiga ko‘ra 121,5 ming turkman millatiga mansub aholi istiqomat qilib kelgan bo‘lsa[2], 1991- yilda 126,632 nafar, 2020 - yilga kelib ularning soni 202. 473 nafarni tashkil etdi. Demak yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlardan ham ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasida yashayotgan turkman millatiga mansub fuqarolar yildan - yilga son jihatidan oshib bormoqda. Xuddi shuningdek Turkmaniston davlati hududida ham ko‘plab o‘zbek millatiga mansub fuqarolar yashab kelmoqda. Mazkur holat ham o‘zbek va turkman xalqlari o‘rtasidagi madaniy sohadagi hamkorlik aloqalarini yaxshilash uni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratish lozimligini ko‘rsatadi. Madaniy sohadagi hamkorlikni muntazam amalga oshirish maqsadida ikki davlat o‘rtasida qator hamkorlik dasturlari ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilmoqda. O‘zbekiston va Turkmaniston hududlarida o‘tkazilayotgan turli tadbirlar, konsert dasturlari, festivallar va tanlovlar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo xalqlari teatrlarining o‘zaro ijodiy hamkorligi yaxshi yo‘lga qo‘yildi. 1992- yilning 26-martda Toshkent shahrida “Navro‘z-92” xalqaro teatr bayrami anjumani bo‘lib o‘tdi. Mazkur anjumanda oliy mukofot (Gran-Pri) Turkmaniston davlat yoshlar teatrining “Dalli Dumbul” spektakliga, Xalqaro teatr uyushmalari konferensiyasining maxsus mukofoti – Yu.Shakarjonov nomidagi Farg‘ona viloyat musiqali drama va komediya teatrining “Toshkentga sayohat” komediyasiga berildi[3].

2008 - yil 7-12 aprel kunlari Ashxobod shahrida «Turkmaniston: insoniyat musiqa san’atining ma’naviy xazinasi» festivali bo‘lib o‘tdi. Unda «O‘zbekiston solistlari» kamer orkestri ishtirok etdi. O‘zbekiston solistlarining chiqishlari turkman halqi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Mazkur yilning 14-20 avgust kunlari Toshkent viloyati, Toshkent va Samarqand shaharlarida Turkmaniston kinosi kunlari bo‘lib o‘tdi. Milliy urf-odatlari, qadriyatlari bir-biriga o‘xshash bo‘lgan turkmanistonlik kino ijodkorlar tomonidan 11 ta film namoyish etildi. Shu yilning kuzida Ashhobod shahrida “Turkmaniston va jahon kinosi” xalqaro kinofestivali bo‘lib o‘tdi. Festival dasturiga dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan kinoijodkorlar asarlari kiritildi. Mazkur kinofestivalda o‘zbekistonlik kino ijodkorlar ham ishtirok etdi.

2019 yil 5-10 aprel kunlari Termiz shahrida ilk bor Xalqaro baxshichilik san’ati xalqaro festival o‘tkazildi. Turli xalqlarning milliy o‘zligini, ularning tili va hayot tarzini, an’ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san’ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi hisoblanadi. YUNESKO shafeligida o‘tkazilgan ushbu festivalga 74 davlatdan ijrochilar, folklorshunos olimlar, ekspertlar, shuningdek, Turkmaniston davlatidan ham faxriy mehmonlar qatnashdi. Festival doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, hunarmandlar ko‘rgazmasi, “O‘zbek oshxonasi” nomli oshpazlar tanlovi kabi tadbirlar ham o‘tkazildi.[4] Shuningdek, anjuman doirasida o‘tkazilgan xalq sayillarida hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari, milliy soz va liboslar, amaliy va tasviriy san’at asarlari, haykaltaroshlik, badiiy va hujjatli filmlar, kitob, albomlar, fotosuratlar ko‘rgazmasi tashkil etildi.

O‘zbekiston hududida ya’ni uning Samarqand shahrida sharq mamlakatlari musiqa san’atining an’analarini asrash, madaniy muloqotni yanada rivojlantirish, sharq xalqlarining an’anaviy musiqa san’ati sohasidagi ilmiy o‘rganish va izlanishlarni hamkorlikda amalga oshirish, o‘zaro tajriba almashish, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkil etish maqsadida har ikki yilda bir marta «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o‘tkazib kelinmoqda. Mazkur festivalda Turkmaniston davlati san’at ustalari ham muntazam ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2009 yilda bo‘lib o‘tgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida Turkmanistonlik L.Begnazarova «Sharq taronalari» Gran-pri sohibasi bo‘ldi[5].

2024 yil 26 avgust kuni O‘zbekiston mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Samarqand shahrida “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali bo‘lib o‘tdi[6]. Xalqaro diplomatiyada esa “Samarqand ruhi” degan tushuncha paydo bo‘ldi va bu davlatlar, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, bag‘rikenglik, ahillikni ifoda etmoqda. Dunyoda san’at va madaniyat yo‘nalishida ko‘plab festivallar, tanlovlar o‘tkazilsa-da ularning aksariyati ma’lum vaqtdan keyin to‘xtab qolishi, unutilib ketishi mumkin. Ammo “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali 27 yildan buyon tashkil etilib kelinmoqda. Shu vaqtga qadar o‘n ikki marta o‘tkazilgan san’at festivali jahon ahlining o‘zaro madaniy muloqotga bo‘lgan hayotiy ehtiyojini ro‘yobga chiqaruvchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Festival YuNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning asosiy tadbirlari dasturidan o‘rin olgan bo‘lib, ular tomonidan qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. Festivalda 80 yaqin mamlakatdan 200 nafardan ziyod san’atkor va olimlar ishtirok etdi. Ayni paytgacha “Sharq taronalari”da dunyoning 120 dan ortiq davlatidan vakillar qatnashdi. Ular orasida turkmanistonlik san’atkorlar shuningdek, ilm-fan ahllari ham ishtirok etdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O‘zbekiston va turkmanison respublikalari o‘rtasida madaniy sohadagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. Madaniy hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi. Turli xildagi festivallar, madaniyat va san’at kunlari tashkil etildi. Kinofestivallarda milliy kinolar namoyish qilindi. Madaniy tadbirlar orqali ikki xalq bir-birining milliy urf-odatlari va qadriyatlaridan bahramand bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. ЎзР МДА. М-7 фонди, 1-рўйхат 332-йиғма жилд. 297-варақ.
2. Жўрақулов О.Чандир туркманлари.-Тошкент, “Фан” 1992. – Б.7.
3. Кўҳна, гўзал ва бетакрор санъат овозаси //Халқ сўзи. 2019 йил 10 апрель. – Б. 1.
4. Мирзаев Ғ. Ўзбекистон ва Туркманистон ҳамкорлиги. Монография. – Тошкент, “Innovatsiya-Ziyo” 2021. - Б. 111
5. Мирзаев Ғ.Р. Азалий қардошлик ришталари тараққиёт йўлида (ўзбек ва туркман халқлари ҳамкорлиги). Т.: Наврўз, 2016. – Б. 83.
6. https://uza.uz/uz/posts/sharq-taronalari-tinchlik-va-hamzhihatlik-elchisi_629212

MUNDARIJA

Kirish so'zi ……3

1-SHO'BA
QADIMGI DAVR. O'ZBEKISTON SIVILIZATSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MASALALARI.

1**. Mavlanov O'.** O'zbekiston arxeologik yodgorliklaring madaniy meros tizimida tutgan o'rni.....4
2. **Eshov B.J., Shodiyeva D.** Qang' ma'muriy birliklari siyosiy tizimida Ustrushona.....7
3. **Xasanov A.** Qashqadaryo viloyati shaharlari moddiy yodgorliklari holati. (Sovetlar hukmronligi yillarida) ……..…….9
4. **Mavlanov O'.** Janubiy Sug'd tog' yo'llarining mintaqa kommunikatsiya tizimidagi ahamiyati xususida ……15
5. **Xolmatov O.** Qashqadaryo vohasining ilk temir darvi yodgorliklarining o'rganilish tarixi ….....18
6. **Sulaymanova S.** Sug'd vohasining qadimgi panch tangalari ……..…….21
7. **Ikromov N.M., Fayziyev A.A.** Qadimgi Baqtriya kaviyligida ot: hokimiyat va e'tiqod ramzi ..…24
8. **Mamadiyev B., Mamadiyev B.** Sharqiy Qashqadaryo vohasidagi moddiy-madaniy merosni saqlash va tadqiq etishdagi muammo va kamchiliklar …….26
9. **Nishonov J.** Yunon-Baqtriya va Kushonlar davrida baqtriya shaharlari ……...……...29
10. **Poyonov I.** O'zbekistonda ilk shaharlar vujudga kelishi tarixidan ba'zi mulohazalar …...……31
11. **Saidov S.** O'zbekiston hududida ilk shaharlarni vujudga kelishi tarixidan ……...….32
12. **Sharifov S.** Sug'dning tarixiy geografiyasi masalalari ……...……34

2-SHO'BA
O'RTA ASRLAR DAVRI, TURLI SULOLALARNING IJTIMOIY-IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI MASALALARI.

13. **Raimqulov A.A., Ibraxim Cheshmeli.** G'uzor vohasining o'rta asrlar shaharlari tarixiy topografiyasi va lokalizatsiyasi ……37
14. **Хушваков Н.О., Абдуллаев К. А., Олимов У.Н.** Легенды и исторический правды про антихалифатских движений ……..43
15. **Ваисова Н.** Из истории культуры южного Согда……...52
16. **Эгамбердиева .Г.А.** Караван-сараи как элементы историко-торговой инфраструктуры Узбекистана ...……55
17. **Mirzayev B.**, **Shernazarova K**. XVI asr boshlarida Buxoro xonligida ilm-fan va madaniyat mavzusini o`rganishda innovatsiyalar ……..……..59
18. **Ko'paysinova N.K.** Temuriy shahzodalarning harbiy salohiyati yoshlarimizga o'rnak ……63
19. **Jo'rayev M.** Movarounnahrda ilm maskanlari: olimlar uylarining tarixiy ahamiyati ……66
20. **Ashirov U., Xo'janov U.** Hunarmandchilik madaniyatining shakllanishi va Qarshi kandakorlik sa'nati ……...69
21. **Lapasova M.** Ustrushonaning manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari ……..……72
22. **Xolov Sh.** G'arbiy Turk xoqonligining jang usullari ……76
23. **JUMAYEVA I.** SUG'DDAGI HUKMRON TABAQALAR, ULARDAGI UNVONLAR VA DAVLATLARARO MUNASaBATLAR. ……..79

3-SHO'BA
O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDA ICHKI VA TASHQI ALOQALAR, TARIXIY-MADANIY JARAYONLAR

24. **Vokhidov Sh., Sharifova. G.** The mention of crafts and artisans in Sadriddin Ayni's "memories" ……..81
25. **Xudoyqulov T.D.** O'zbek xonliklari tashqi aloqalarida rus-ingliz raqobatining vujudga kelishi ……...88
26. **Xolmuminov X.E.** Boysun bekligining Buxoro amirligi tarixidagi ijtimoiy mavqeyi va tutgan o'rni …….....96
27. **Berdiyev A.** Yevropa sayyohlar va harbiylarining O'rta Osiyo xonliklarning xalqaro diplomatik aloqalari tarixi va madaniyatiga oid ayrim ma'lumotlar ……...99
28. **Abdurahmonov Z.** Muhammad Hakimxon to'ra: norasmiy elchi va tarixiy shaxs sifatida Rossiyaga safari haqida ……103
29. **Shirinov S.** Buxoro xonligida diniy ulamolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rni ……105
30. **Dusaliyev M.T.** Buxoro va Qo'qon xonliklari tashqi siyosatida Usmoniylar imperiyasining roli 108

31. **Jovliyeva A.B. O**‘rta Osiyo xonliklari tarixini o‘rganishda turk sayyohlari asarlarining tutgan o‘rni (admiral seydi ali raisning “mir’ot-ul mamolik” asari misolida).....111
32. **Jamolov I.** Shahrisabzdagi Oqsaroy me’moriy obidasi haqida ayrim bir mulohazalar 113
33. **Jo‘raev A.** G‘uzor nomining kelib chiqishi haqida ……..…115
34. **Samadova G.** Buxoro xonligi harbiy tizimining o‘rganilishi ……...118
35. **Kenjayeva G.** Buxoro xonliklari va Hindiston o’rtasidagi dastlabki savdo munosabatlari …….121
36. **Quvvatov R., Eraliyev S**. O‘zbek xonliklari davrida ichki aloqalar 123
37. **Jo’rayeva Sh, Radjabova N.** XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligining Rossiya va Hindiston bilan diplomatik va savdo aloqalari ….....125
38. **Vasiyev R.** Buxoro madrasalarida ta’lim-tarbiya an’analari va ularning shakllanishi …….126
39. **Xudoyberdiyev B** Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi bozorlarining moddiy va madaniy xususiyatlari 132
40. **Turayev Sh., Choriyev J.B.** Mohir elchi va diplomat Florio Beneveni kundaligida Buxoro xonligining tavsifi 135

4-SHO‘BA
ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVETLAR DAVRIDAIJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT.

41. **Гаффаров Ш.С.** Переселенческая политика Российской империи в Туркестане (вторая половина XIX столетия и начала XX столетия) ……..…138
42. **Hayitov Sh.A. Ismoilbek** G’aspirali va Mahmudxo‘ja Behbudiy: maslakdoshlik hamda maqsad mushtarakligi……...……..…144
43. **Raxmonov F.** Janubiy O‘zbekistondagi an’anaviy tomorqa xo‘jaligi va uning etnoiqtisodiyot-dagi o‘rni xususida ……..…147
44. **Yermetov AA.** XX asrning 60-yillarida O‘zbekiston ichki ishlar organlaridagi strukturaviy o‘zgarishlar ……150
45. **To‘rayeva M., G’aniyev B.** XX asrning 20-30 yillarida O‘zbekiston janubiy hududlarida kino san’atidagi o’zgarishlar……...…153
46. **Orziyev M.Z ,Ko‘charov J.Q. “**Turkiston to‘plami” Samarqand ta’lim tizimini o‘rganish manbasi sifatida ……155
47. **Эйвазова Е.М.** Художественно-эстетичская ценность памятников истории и культуры…157
48. **Polvonov K.N.** XX asrning 70-80 yillarida janubiy O‘zbekiston shaharlarida madaniy hayot….159
49. **To‘xtayeva R.N. Alimova V.A.** Buxoro Xalq Sovet Respublikasining moliyaviy siyosati.....162
50. **Mo‘minov U., Ashirmurodov A.** Qarshi shahrida savdo-sotiqning rivojlanishi (XIX – XX asr boshlarida) ……..…….165
51. **Samadova N.** Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlari, sovet ittifoqi va mustaqillik davridagi taraqqiyotning qiyosiy tahlili……..……...168
52. **Iriskulov B.J.** Turkistonda Rossiya imperiyasining budjetini nazorat va taftish qiluvchi davlat muassasalari faoliyati ……..170
53. **Sharifov Sh.** XX asrning 50-60 yillarida irrigatsiya tizimidagi o’zgarishlar. (Qashqadaryo vohasi misolida) ……...……...…174
54. **Olimjonova D.** O‘zbekistonda XX asrning 40-yillari ikkinchi yarmi va 60-yillarida yangi mafkuraviy kompaniyalar hamda yozuvchi va olimlarning qatag‘on qilinishi.....176
55. **Dusaliyev M.T.** Buxoro va Qo‘qon xonliklari tashqi siyosatida usmoniylar imperiyasining roli 178
56. **Sulaymonova G.** Sovet hokimiyati davrida Navoiy viloyat moliya bo‘limining byudjeti va daromad sohalari hujjatlari tasnifi (R-93-fond misolida) ……...…….181
57. **Umidova Y.X.** XIX asrning I-yarmida Buyuk Britaniya hukumati tomonidan O‘rta Osiyo xonliklarining o‘rganilishi (aleksandr byorns elchiligi missiyasi misolida) ……..184
58. **Allanazarov S.** XX asr boshlarida Xorazmda madaniyat muassasalarining faoliyati …….....186
59. **Qo’ziyeva Z.U** Ikkinchi jahon urushi yillarida frontda O’zbekistonlik xotin-qizlar ishtiroki...…189
60. **Karamov J.** Musiqalarning paydo bo‘lishi va uning nazariy asoslari ……..192
61. **Kendjaev Y. Y.** Light and food industry during the war years: achievements and problems (1941-1945)……...…….194
62. **Qo’ziyeva Z.U.** Ikkinchi jahon urushi yillarida ayollarning sanoat va qishloq xo’jaligidagi fidokorona mehnati……...……197

5-SHO‘BA
MUSTAQIL O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOHATLAR, TURIZM MASALALARI VA XALQARO ALOQALAR.

63. **Buriyev O. Egamova Y.** Kitob qalblarni yorituvchi chiroq……..200
64. **Iriskulov O.J.** XIX asrning oxiri -XX asr boshlarida Samarqand bozorlari faoliyati ……..202
65. **Kodirova M.** Nodavlat-notijorat tashkiloti sifatida xalqaro olimpiya qo`mitasining faoliyatiga nazar……..207
66. **Normatov Sh.M.** Mustaqillik yillarida qadimgi Xorazm mudofaa inshootlarining o‘rganilishi tarixining tarixshunosligi ……209
67. **Ernazarov A.X** O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar tarixiga bir nazar ……211
68. **Маматова М.Б**. Чайная история Узбекистана в годы независимости ……..213
69. **Mallayeva F. Sayidov M.** Mustaqillik yillarida Qashqadaryo Muborak gaz konlari boshqarmasining tarixiy ma’lumotlari ……...……...217
70. **Qudratov D.T. O**‘zbekiston va Eron islom respublikasi xamkorlik tarixidan …….219
71. **Qo’chqorov Q.** Shaharlar ma’muriy tuzilishidagi o’zgarishlar va shaharlardagi qurulish va bunyodkorlik ishlari. (Qashqadaryo viloyati misolida) ……...…….225
72. **Samadova T.M.** Nodavlat notijorat tashkilotlarning sog`likni saqlash sohasidagi faoliyati ….....229
73. **Olimov U.N. Xurramov M. I.** Shahrisabzda tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalarning o’rni…….232
74. **Samadov M.** Qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash borasida hukumat tomonidan ko`riladigan chora-tadbirlar ……...238
75. **Hamroqulov O. Ravshanov O.** O’zbekistondagi muzeylar va ularning fondi holati ……..241
76. **Samadova F.** O`zbekistonda profsoyuz tashkilotining ta`lim sohasidagi faoliyati ……..243
77. **Zayniddinova Sh.** So‘nggi yillarda ichki ishlar tizimida amalga oshirilgan strukturaviy o‘zgarishlarning xususiyatlari. ……...……...245
78. **Karimov M., Chulliyev X.** Qo‘shma ta’lim dasturlari asosida O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimi…,,,……..249
79. **G’aniyev B.** Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining xalqaro festivallardagi ishtiroki….251
80. **Oromov Sh.** O‘zbekiston – Turkmaniston davlatlari madaniy aloqalari tarixidan. ……..253

ILMIY NASHR

“MARKAZIY OSIYO TARIXIY JARAYONLARIDA O‘ZBEKISTON TARIXI VA MADANIYATI MASALALARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2025 yil 22-23 may

Muharrir: **R. Axmedov**
Texnik muharrir: **J. Raxmatov**
Musahhih: **M. Primova**

Nashriyot litsenziyasi AA № 0051. 08.04.2020 yil.
Terishga 14.05. 2025 yilda berildi. Bosishga 20.05.2025 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog‘i 32.75
Ofset usulida chop etildi. Times New Roman garniturasi.
Ofset qog‘ozi. Nashr bosma tabog‘i 31.75
17-shartnoma. 39-buyurtma,
20 nusxada. 260 bet. Erkin narxda.

“Qarshi davlat universiteti” nashriyoti, 180103.
Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.

Qarshi davlat universiteti
kichik bosmaxonasida bosildi.
Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy.